M-05

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MUQIMIY
FURQAT
HAMZA

11

84(5O')-5
M-95

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MUQIMIY
FURQAT
HAMZA

11

JIZZAX DPU
INV № 149144
AXBOROT RESURS MARKAZI

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.133-1
KBK 84(5O')-5
M 95

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Zebo Qobilova

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8722-8-8

© "O'zbekiston" nashriyoti, 2022

KO'NGILGA YAQIN SHE'RIYAT

Qo'qon adabiy muhiti — o'zbek adabiyoti tarixida alohida bir hodisadir. Uning vujudga kelishi, rivojlanishi va yaxlit bir adabiy muhit darajasiga ko'tarilishi Qo'qon xoni Amir Umarxon nomi bilan bog'liq. Uning hukmdorlik davrida Qo'qon o'ziga xos bir o'zgarishlarni boshdan kechirgan ijtimoiy, ma'rifiy, adabiy markaz mavqeyiga ko'tarilgan. Bu muhit vakillari o'zbek adabiyotining barhayot an'analarini muvaffaqiyat bilan davom ettirdilar va ularni yangicha sharoitda rivojlantirdilar. Mumtoz she'riyatni yangi mavzular, uslublar, tashbih-u timsollar bilan boyitdilar va o'zlaridan keyingi ijodkorlarga kuchli ta'sir ko'rsatdilar. Qo'qon adabiy muhitida, xususan, g'azal, muxammas, musaddas, masnaviy kabi adabiy janrlar keng taraqqiy etdi, hajviy asarlar ko'p yaratildi, Fazliyning "Majmuayi shoiron" tazkirasi, "Umarnoma", Mushrif Isfaragiyning "Shohnomayi nusratpayom" kabi tarixiy asarlari, Gulxaniyning "Zarbulmasal"i, Hoziqning "Yusuf va Zulayxo", Nodirning "Haft gulshan" kabi dostonlari vujudga keldi, mustazod-ruboiy rivojlandi.

Qo'qon adabiy muhiti mintaqaning boshqa adabiy muhitlaridan bir necha xususiyatlari bilan farq qilardi. Birinchidan, aynan Qo'qon adabiy muhitida mintaqadagi boshqa rasmiy tillar — arab va fors-tojik tillari orasida o'zbek tili yetakchi mavqeda bo'ldi. Bu yerda juda ko'p o'zbek shoirlari ona tillari bo'lgan o'zbek tilida devon tuzib, til taraqqiysiga xizmat qildilar. Ikkinchidan, Qo'qon adabiy muhitida fors (Hofiz, Jomiy, Bedil), ozarbayjon (Fuzuliy) va o'zbek (Lutfiy, Navoiy, Bobur) adabiyotidagi uslublarning sintezi vujudga kelib, she'riyat rivojlanishning yangi pallasiga qadam qo'ydi. Jumladan, qo'qonlik shoirlar devoniga nazar soladigan bo'lsak, unda yuqorida keltirilgan ulug' so'z san'atkorlarining she'riyatidagi an'analarga sodiq qolish barobarida, ham shakl va ham mazmun bobida she'riyat mulkini boyitganiga guvoh bo'lamiz.

Uchinchidan, zullisonaynlik an'anasi hukm surgan Qo'qon adabiy muhitida adabiy ta'sir va bahramandlik shu darajada yuqori bo'lganki, hatto bir shoirning ijodida o'z-o'zidan ta'sirlanish, bir tilda hosil qilgan adabiy tajribani boshqa tildagi ijodida ham qo'llash holatlari juda ko'p kuzatiladi.

Qo'qon adabiy muhitida Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Gulxaniy, Maxmur, Fazliy, Ado, Behjat, Fayziy kabi ko'plab iste'dod egalari kamolga yetdi. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Qo'qonda yashab ijod etgan Muqimiy, Furqat, Hamza kabi shoirlar demokratik yo'nalishdagi adabiyot namoyandalari deb e'lon qilingan bo'lsada, ular eng avvalo, Qo'qon adabiy muhiti an'analari davomchilari edi. Qo'qon adabiy muhitida eng rivojlangan janr g'azal bo'lib, barcha shoirlar bu janrda o'z iste'dodlarini sinab ko'rganlar. Muqimiy, Furqat va Hamza ham g'azalchilikda buyuk salaflari an'anasini davom ettirib, janrni yangicha sharoitda rivojlantirdilar, o'ziga xos uslublar, ohorli tashbih-u timsollar bilan boyitdilar, mavzu doirasini kengaytirdilar, g'azal tilini jonli so'zlashuv nutqiga yaqinlashtirdilar, real hayot manzaralari tasviriga keng o'rin berish bilan uni zamon ehtiyojiga xizmat qildirdilar.

* * *

Muhammad Aminxo'ja Muqimiy ijodi o'zbek mumtoz adabiyotining eng yorqin sahifalarini tashkil etadi. O'z davrida Muqimiydan mashhur shoir bo'lmagan: hassos g'azal, murabba va muxammaslari qalamidan chiqishi bilanoq siyohi qurimay turib hofizlar soziga tushgan, davralarda sevib o'qilgan, qo'lma-qo'l bo'lib, og'izdan og'izga o'tgan. Uning ko'ngilga yaqin oshiqona ash'ori mumtoz adabiyotimiz xazinasi va milliy qo'shiqchiligimizning oltin fondidan joy olgan. Shoirning xalq dilining tubida yotgan, tilining uchida turgan o'y-fikrlar, tuyg'u-kechinmalarni go'zal shaklda ifodalagan sodda va ravon, mahzun va dardli, sho'x va o'ynoqi, musiqiy va jarangdor she'rlari xalqimiz ko'nglidan chuqur joy egallagan. Xalqona nozik lutflar va o'tkir kinoya-qochirimlar, tesha tegmagan qayroqi so'zlar, qanotli iboralar va ohorli tashbihlarga boy bu hassos va dilkash nazm namunalari hamisha she'riyat shinavandalarini to'lqinlantirib kelgan. Muqimiy she'rlari XIX asrning ikkinchi

yarmi XX asrning boshlarida tuzilgan deyarli barcha qo'lyozma bayozlar tarkibiga kiritilgan. 1912-yildan boshlab uning "Devoni Muqimiy" nomli she'rlar majmuasi Toshkentda toshbosma usulida ikki marta chop etildi. 1910–1917-yillar davomida chop etilgan yigirmaga yaqin toshbosma bayozlarda Muqimiy ijodidan ko'plab namunalar berilgan.

XX asr o'zbek adabiyotshunosligida Muqimiy hayoti va ijodiga bo'lgan qiziqish ushbu asrning yigirmanchi yillaridan boshlandi. 1933-yilda Qo'qonda Muqimiy vafotining 30 yilligiga bag'ishlangan xotira marosimi o'tkazildi. 1938-yilda esa shoir vafotining 35 yilligiga atab G'afur G'ulom nashriyoti tomonidan nashrga tayyorlagan "Muqimiy bayozi" nomli she'riy to'plami chop etildi. Shundan so'ng shoir ijodi bilan keng xalq ommasini tanishtirish maqsadida 1943, 1951, 1953, 1955, 1960, 1974, 1977-yillarda Muqimiy asarlari Toshkentda ko'plab nusxalarda nashr etildi. Uning she'rlari rus tiliga ham tarjima qilinib, bir necha bor Moskvada nashr etilgan. Shoir hayotiga bag'ishlangan voqeiy-hikoyalar yaratildi, musiqali drama sahnalashtirildi, "Mavlono Muqimiy" nomli yirik nasriy asar chop etilib, xalqqa taqdim etildi. Muqimiy asarlari yarim asrdan ortiq vaqt davomida o'rta va oliy o'quv yurtlari dasturlari va darsliklaridan mustahkam o'rin egallab kelmoqda. Ayni paytda, shuni ham afsus bilan ta'kidlash lozimki, sovet davridagi hukmron kommunistik mafkura tazyiqi ostida Muqimiyning ba'zi she'rlari tahrir etilib, tuzumga moslandi, ayrim she'rlari esa qisqartirildi. Ilmiy tadqiqotlarlarda Muqimiyni boylar va din ahllarining dushmani sifatida talqin etildi. Muqimiy va Muhyini bir-biriga zid sinf vakillari qilib ko'rsatildi. Ya'ni haqgo'y shoirning siymosi qisman soxtalashtirildi. Xayriyatki, istiqlol yillarida bunday adolatsizlikka chek qo'yildi. Shoir hayoti va ijodini xolis o'rganish uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Sharif Yusupov, Ahmadjon Madaminov, Abdulatif Turdaliyev, Qo'ldosh Pardayev singari zahmatkash olimlarning izlanishlari natijasida shoirning ko'plab noma'lum asarlari aniqlanib e'lon qilindi. Shoirning tanlangan asarlari "Ko'nglim sandadur", "Saylanma", "Bog' aro", "Intizor" nomlari ostida chop etildi. Muqimiy tavalludining 170 yilligi munosabati bilan shoirning "To'la asarlar to'plami" nashrdan chiqdi. Biz ushbu

saylanmani tayyorlashda shoir asarlarining 1960-yilda chop etilgan ikki jildlik, 1974-yilda chop etilgan bir jildlik hamda 2020-yilda chop etilgan "To'la asarlar to'plami" ni asos qilib oldik.

* * *

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyotida shoir Furqat ijodi alohida o'ringa ega. O'zining betakror ovozi va iste'dodiga ega Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat xalqimizning ma'rifatli farzandi, shoiri, tarjimoni, publitsisti sifatida ham o'zbek adabiyotida mustahkam o'rin egallagan yirik iste'dod egasidir.

Furqat 1858-yili Qo'qon shahrida tug'ildi. Shu yerda o'qib ta'lim oldi. So'ng Yangi Marg'ilon, Xo'jand shaharlarida biroz vaqt yashadi. 1889–1891-yillari Toshkentda turdi. Bu yerda u ma'rifatparvar sifatida shakllandi. Furqat hayotida Toshkentda yashagan davri alohida ahamiyatga ega. Furqat o'z xalqining zamonaviy turmush tarziga erishmog'ini tilar edi. Buning uchun ilm-ma'rifat egasi bo'lmoq kerak. Shoir mamlakatda maorif rivoj topishini, kishilarimizning ilm-fan cho'qqilarini egallashlarini chin dilidan tilar, ma'rifatparvarlik g'oyalarini ehtiros va ilhom bilan tashviq etar edi. Furqat XIX asrning uchinchi choragida adabiy maydonga kirib kelganida yosh talantli shoir sifatida Qo'qon adabiy muhitida tezda e'tirof qozondi. Shoir Muqimiy bilan tanishdi va ular o'rtasida ham ijodiy, ham shaxsiy do'stlik mustahkamlandi. Bu do'stona hamkorlik to Muqimiyning vafotigacha davom etdi.

Furqat 1891-yili Toshkentdan chiqib, Samarqandga bordi. Shoir Misr, Istanbul, Bulg'oriya, Makka, Kashmir kabi shaharlarda bo'ldi. Furqat Hijozga borib, Makka ziyoratini ado etgach, u o'z vataniga qaytib kela olmadi. So'nggi ikki o'n yillik umri g'urbatda o'tdi. Furqat 1913-yili Yorkentda vafot etdi. Furqatning ijodiy merosi rang-barang va sermazmun. Shoir ijodining boshida yozgan g'azallari mumtoz adabiyot namunalariga xos latif lirik lavhalardan iborat. Unda yor go'zalligi, nafosatli surati, bezaklarining o'ziga yarashganligi, dilni maftun etuvchi fusunkor chiroyi o'z aksini topgan. Uning e'tiboringizga havola etilayotgan mazkur she'rlari shoir ijod olamining eng sara guldastasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

* * *

Otashin millatparvar shoir, dramaturg, bastakor va teatr san'atining yirik arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy o'z ijodini lirik asarlar yozish bilan boshladi. Shoirning "Nihoniy" taxallusi bilan yaratgan lirik she'rlaridan tashkil topgan "Devon"i uning adabiyot maydonidagi dastlabki qadamidir. Hamza Hakimzoda "Devon"i yuzaga kelgan davr — 1905–1915-yillar badiiy tafakkur xarakterining favqulodda keng va rang-barang ekanligi bilan ajralib turadi. An'analar va yangiliklar uyg'unligi XX asr boshlaridagi adabiyotning ustivor belgilaridan biri maqomiga ko'tarilgan bo'lib, uning zamirida, bir tomondan, millat va Vatan taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy motivlar yotsa, ikkinchi tomondan, o'lmas g'oyalarni tarannum etgan mumtoz an'analarning yangi ruh va mazmun bilan boyitilgan talqini yotadi. Shu ma'noda, Hamzaning "Nihoniy" taxallusi bilan yozilgan she'rlari jamlangan "Devon"i ham mumtoz she'riyat va yangi adabiyot oralig'idagi o'tish davrining o'ziga xosliklarini yorqin zohir etgan badiiy ko'zgudir. Bu hol Nihoniy lirikasining mavzu-mazmun mohiyatida ham, shakliy-poetik mundarijasida ham ko'zga tashlanadi. Hamza turkiy mumtoz she'riyatning qariyb ming yillik o'lchovi bo'lgan aruz an'analarini o'zlashtirishga vorisiylik va ijodiylik zaminidan turib yondashdi. "Devon"dan g'azal, masnaviy, murabba', muxammas, musaddas kabi lirik janrlarga mansub aruz vaznida bitilgan 199 ta she'r o'rin olgan.

Hamzaning birinchi ustozi, ilhomchisi Alisher Navoiy edi. Hamzaning g'azallaridagi Muqimiy, Furqat, Zavqiy she'rlari bilan g'oyaviy-badiiy musobaqadoshlik boshqa bir shoir tajribalarida ko'zga tashlanmaydi. Fors-tojik she'riyatini, Hofiz, Sa'diy, Jomiy, Bedil kabi daho san'atkorlar merosini Hamza teran bilgan. Shuning uchun ham uning devoni, undan keyin ham tartib berilgan biror-bir devonga o'xshamaydi.

Uning keyingi ijodida Hamza taxallusi keng o'rin egallaydi. Hamza adabiy merosining aksariyat qismini tashkil qiluvchi insenirovka va boshqa sahna asarlari o'zbek dramaturgiyasining tug'ilishi va shakllanishida benihoya katta rol o'ynadi. U o'zining "Boy ila xizmatchi", "Paranji sirlaridan bir lavha", "Maysaraning

ishi" kabi ajoyib asarlarida og'ir hayotning realistik manzarasini katta mahorat bilan tasvirladi.

So'nggi yuz yil ichida Hamza Hakimzoda Niyoziy asarlarini to'plash va nashr etish bo'yicha bir qator ishlar qilindi. Jumladan, 1915–1917-yillarda uning "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi" degan umumiy nom ostida "Oq gul", "Qizil gul", "Pushti gul" va boshqa to'plamlari, 1915-yilda "Yangi saodat" nasriy asari, 1916-yili esa "Zaharli hayot" pyesasi nashr qilingan. Yozuvchining 1939-yilda nashr etilgan dastlabki "Tanlangan asarlar"i 1949, 1954, 1958-yillarda yaratilgan saylanma nashrlarda to'ldirib borildi. 1960, 1969 va 1979-yillarda esa Hamzaning ikki jildlik "Asarlar"i kitobxonga yetib bordi. Lekin mazkur ikki jildlik nashrlar ham uning merosini to'liq qamrab olmagan edi. Til va adabiyot instituti 1979–1981-yillar davomida Hamza Hakimzoda Niyoziyning to'rt jilddan iborat "Mukammal asarlar to'plami"ni nashr etdi. 1988–1990-yillarda besh jildlik "To'la asarlar to'plami" chop etildi.

Biz mazkur to'plamda Hamza Hakimzoda devoniga mansub eng sara asarlaridan ayrim namunalar berdik, 1915–1917-yillarda "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi" degan umumiy nom ostida berilgan she'rlardan ham kiritdik.

* * *


Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar adabiyotimiz yodgorliklarini keng va har tomonlama o'rganmoq va tashviq etmoq uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi. Ana shu ezgu imkoniyat natijasi o'laroq mazkur saylanma nashrga tayyorlandi.

Asosiy e'tibor shoirlarning xalqimiz orasidagi eng mashhur g'azallariga, irfoniy mazmundagi she'rlariga qaratildi. Imkon qadar barcha janrlardagi asarlardan namunalar kiritildi. She'rlardagi tushunilishi qiyin bo'lgan so'z va iboralarga havolalarda izohlar berildi. Umid qilamizki, mazkur nashrdan o'rin olgan she'rlar mutolaasi sizning badiiy ijodga bo'lgan muhabbatingizni yana bir karra oshiradi, yangi tadqiqot va izlanishlarga turtki beradi.

Zebo Qobilova,
filologiya fanlari doktori

MUQIMIY





G‘AZALLAR

* * *

Topti husning ko‘zgusi xatting[1] g‘uboridin safo[2],
Bo‘stonlar sabzadin bo‘lg‘on kabi farhat[3] fizo.

Ikki fatton [4] ko‘zlaringni hasratida rashkdin,
Bo‘lmasa ovora nechun tinmas ohu-yi Xito?!

Jilva qil gulshanda, jono, sarvu[5] shamshod-u[6] suman,[7]
To ko‘rub xijlat yukidin bellari bo‘lsun duto.

Yetmak ummidida tufroqdin chekar bosh har bahor,
Shavqlar birlan kafi poyingga bog‘larda hino.

Xat chiqargan birla husningga na nuqson-u xalal,
Bilki oy, bo‘lsa qorong‘i kecha ortturgay ziyo.

Ochmagan bo‘lsang niqobingni chamanda ne uchun,
Muntazir — nargis, parishon[8] — gul, qilur bulbul navo?

Nomig‘a aylarmu muvashshah, muhabbatdin Muqim,
Bo‘lmas odamg‘a agarchandi parilar oshno.

---

[1] **Xat** — 1. Chiziq; 2. Yozuv; 3. Ustki labdagi mayin tuklar; 4. Talab, cheklov.

[2] **Safo** — yorug‘lik, ravshanlik.

[3] **Farhat** — shodlik, xursandlik.

[4] **Fatton** — fitna qiluvchi, o‘ziga tortuvchi, jozibali.

[5] **Sarv** — to‘rt faslda ham yam-yashil turadigan xushbichim daraxt. Majozan: yor, ma’shuqa qaddu basti.

[6] **Shamshod** — chiroyli, hamisha yashil bo‘lib turadigan daraxt.

[7] **Suman** — oppoq gullaydigan jasmin guli.

[8] **Parishon** — 1. Tarqoq, sochilgan, tartibsiz. 2. Behuda. 3. Dovdiragan.

* * *

Saxt bo‘lmishmen yana bir dilrabog‘a mubtalo,
Bir balodin sof bo‘lmay, bir balog‘a mubtalo.

Lola bag‘ri dog‘ qat-qat qon ochilgay har bahor,
Man kabi bo‘lg‘on magar gulgun qabog‘a[1] mubtalo.

Toq toqatlar yurarga ko‘z tutib imdod[2] uchun,
Ne ajab, bo‘lsam agar mijgon[3] asog‘a mubtalo.

Aylasun aftodalar[4] sorig‘a ham gohe nazar,
Besamar bog‘larda sarv o‘lg‘ach havog‘a mubtalo.

Nutqi noforam[5] to‘tini duchor etmangki, man,
Bir shakar guftorlig‘ shirin adog‘a mubtalo.

Domi nayrangi ko‘p, oshiqlarni saydig‘a[6] vale,
Goh man bir ko‘z uchi birlan imog‘a mubtalo.

Rahm qilmay, ey ko‘ngul, bo‘lding nadeb ahvolinga,
Bu sifat beboki pur javr-u jafog‘a mubtalo.

Munchakim mavzunu noziklig‘ bilan bo‘lsun, agar
Zarra bad boqqan kishi ranj-u anog‘a[7] mubtalo.

---

[1] **Qabo** — ustki kiyim.
[2] **Imdod** — yordam, madad.
[3] **Mijgon** — kipriklar.
[4] **Aftoda** — zaif, notavon, bechora.
[5] **Noforam** — yoqimsiz.
[6] **Sayd** — ov, shikor.
[7] **Ano** — so‘z.

Ashkimi qong‘a badal qildim bu bois birlakim,
Sho‘xlar moyil ruunatga[1], hinog‘a mubtalo.

Xonaqahdin, naylayin, kelmay qochib mayxonag‘a,
Shayxlarkim, bo‘lsalar ujbu riyog‘a mubtalo.

Afzun o‘ldi, do‘stlar, tobora-bora hayratim,
Bir boshim savdoyi yuz ming muddaog‘a mubtalo.

Nazmimi ko‘rsang bilursan dog‘i hijronim mani,
Naylay bo‘lmishman, Muqimiy, mahliqog‘a mubtalo.

[1] **Ruunat** — ra’nolik, ko‘rkamlik, latofat.

* * *

To‘bi demakda qomating, ey sho‘x, muddao,
Maqsad desam jamoling erur jannatul alo.

Lof urdi sarv, bo‘lsun o‘shal bog‘da, qil xirom,
Nozik belingni fikrida mahsharg‘acha duto[1].

Ummid etib yetarni kafi poyingga chiqar
Fasli bahor shavq ila har bog‘din hino.

Xiyra ko‘ngul chirog‘i, g‘aming birla ravshan et,
Ey boqib aylagan karam oyinaga safo.

Ohu ko‘rub ko‘zingni xijil bo‘lmasa nechun,
Ovoralig‘da umri o‘tar ko‘hu dasht aro?!

Necha tag‘oful[2], ey shahi xuboni mulki husn,
Sulton degan tarahhum[3] etar holig‘a gado.

Gumroh Muqimiy g‘aflat ila manzili yiroq,
Yo Rab, bu yo‘lda bo‘lg‘il o‘zing anga rahnamo.

[1] **Duto** — egilgan, bukik.

[2] **Tag‘oful** — bilib bilmaslikka olish, bilmay qolish.

[3] **Tarahhum** — rahm qilish.

* * *

Yutarman zahri hajr ishqida ul nozik ado, yo Rab,
Bu yanglig‘ talx[1] komim[2], bormu dardimg‘a davo, yo Rab?

Kimi oldida yig‘lay ul jafojo‘[3] hasratidinkim,
Borib bo‘ldi bu kun begonalarg‘a oshno, yo Rab.

Yotubman muntazir yo‘lida, garchi vasl emas mumkin,
Kechar ne nav’ holing, desa bir yo‘l man rizo, yo Rab.

Bahori orazingdin dasht-u sahrolar erur xurram,
Qilur shavqi jamoling birla bulbullar navo, yo Rab.

Erurman notavon, ojiz, qadim xam g‘am yuki birlan,
Qilur tokay qaro baxtimni ul qoshi qaro, yo Rab.

Agar bir umr hijron dashtida sargashtadur Majnun,
Anga Layli bahona, maqsadi San muddao, yo Rab.

Hidoyat qilmasa tavfiqi[4] fazling, g‘arqi isyonman,
Ibodatlarda nuqson ko‘p, namozimda riyo, yo Rab.

Hayotim mazraiga[5] ma’siyatlar[6] donasin sochdim,
Agarchi tongla lutf et, hosilim jurmu xato, yo Rab.

---

[1] **Talx** — achchiq, taxir.

[2] **Kom** — 1. Jag‘, og‘iz. 2. Maqsad, tilak, orzu. 3. Luqma, rizq, ovqat. 4. Reja, fikr, mulohaza.

[3] **Jafojo‘** — jafo qiluvchi.

[4] **Tavfiq** — muvo.

[5] **Mazra’** — ziroat maydoni, ekin ekiladigan joy.

[6] **Ma’siyat** — gunoh.

Harimi qurbig'a mendek gadoni yetmaki mushkul,
Anikim dargohida bo'lsa sultonlar gado, yo Rab.

Ikki olamda bo'lg'il dasti gir-u maljau homiy,
Muqimiyg'a o'zingdan o'zga yo'qdur muttako, yo Rab.

* * *

Ohkim, jono ko‘rarga zor bo‘ldim ayrilib,
Novaki hajring-la dilafgor[1] bo‘ldim ayrilib.

Naylayin hargiz judolig‘ ixtiyorim yo‘q edi,
Charxi kajrav[2] ilkidin nochor bo‘ldim ayrilib.

Aql-u hush ul yerdi qoldi, munda bormay ishga qo‘l,
Yoqmayin men surati devor bo‘ldim ayrilib.

Sandin o‘zga uchrasa, mahvash, ko‘ngilga sharhi roz,
Sidq ila har vajhdin[3] iqror bo‘ldim ayrilib.

Mehri ruxsoring yana ko‘rmak muyassar bo‘lsa deb,
Fikr-u zikrim hasrati diydor bo‘ldim ayrilib.

Jomi vaslingdin ekanman mast, furqat zahridin
No‘sh etib[4] yakboraga hushyor bo‘ldim ayrilib.

O‘ldurur mundog‘ firoqing ustig‘a ortuqchakim,
Sangsori[5] ta’nai ag‘yor bo‘ldim ayrilib.

Nolalar qilmay netay sansiz Muqimiy subh-u shom,
Bulbuli sho‘ridayi gulzor bo‘ldim ayrilib.

---

[1] **Dilafgor** — dilixasta, ko‘ngli vayron.

[2] **Kajrav** — egri, teskari yuruvchi; majozan: makkor, hiylagar.

[3] **Vajh** — 1. Yuz, chehra, bet. 2. Sabab, bois. 3. Oylik, boylik.

[4] **No‘sh etib** — ichish.

[5] **Sangsor** — toshbo‘ron.

* * *

Oraz-u xoling ko‘rarga zordurmen sog‘inib,
Kecha-kunduz xastadil afgordurmen sog‘inib.

Yod aylab hamnafas bo‘lg‘onlaringni gaplashub,
Ofarin har vajhidin, iqrordurman sog‘inib.

Soatekim o‘rtag‘a tushdi judolig‘ to hanuz,
Hech oqshom uxlamay bedordurmen sog‘inib.

Yor o‘lub qilmoq nadur dushman zabonini daroz,
Sangsori ta’nayi ag‘yordurmen sog‘inib.

Xulq xush qilding-u, qolding. Qoldi ko‘nglum san bilan,
Sen ko‘ngilsiz, ohkim, kekordurman sog‘inib.

Ont ichib tarso[1] savolimg‘a dedi: “Zulfingmu sehr”,
Mazhabingda sohibi zunnordurmen[2] sog‘inib.

Nomlari harfini har bayt avvalida zikr etib,
Shukrililohkim, Muqimiy, bordurmen sog‘inib.

[1] **Tarso** — nasroniy.

[2] **Zunnor** — nasroniylar beliga bog‘laydigan ip, arqon. Tasavvufda zunnor — haqiqiy muhbuba xizmati va toatiga bel bog‘lash.

JIZZAX DPU
IN 149144
A RESURS MARKAZI

* * *

Mehri ruxsoringga, jono, zordurman sog‘inib,
Ko‘rgali mushtoq, dil afgordurman sog‘inib.

Subhi vaslim furqating shomi bilan topdi zavol,
Qon to‘lib ko‘zga, shafaqosordurman[1] sog‘inib.

Xasta-yu, ma’yus-u bemor ayrilib g‘am kunjida[2]
Mustahiqi[3] pursishi[4] bisyordurman sog‘inib.

Yodima sozi dutor-u ruhafzo[5] xonishing
Tushsa, har soat batarroq zordurman sog‘inib.

Xoh bovar[6] qilma, qil, sansiz, musulmonsan agar,
G‘uncha yanglig‘ diydasi xunbordurman[7] sog‘inib.

Ashki[8] ol-u rangi zardimdin[9] qiyos etsang bo‘lur,
Hojati guftor[10] emas izhordurman sog‘inib.

Hasratingning nazmini yozib Muqimiy safhaga
Kor-u borim dam-badam takrordurman sog‘inib.

---

[1] **Shafaqosordurman** — shafaqqa o‘xshash, sariq aralash qizil.
[2] **Kunji** — chet, burchak, xilvat, go‘sha.
[3] **Mustahiq** — loyiq, munosib, sazovor.
[4] **Pursish** — so‘rash, so‘roqlash.
[5] **Ruhafzo** — ruhlantiruvchi, jonlantiruvchi, tiriltiruvchi.
[6] **Bovar** — ishonch, ishonish, to‘g‘ri, haqiqat.
[7] **Xunbor** — qon yig‘lovchi, achchiq yosh to‘kuvchi.
[8] **Ashk** — ko‘z yosh.
[9] **Zard** — sariq.
[10] **Guftor** — gapirish, so‘zlash.

* * *

Soqiyo, jome karam qil, qilmay istig'no[1] sharob[2],
No'sh etib bilmay nadur ranj-u g'ami dunyo sharob.

Bazm aro, jono, visoling boda[3] o'rnig'a o'tar,
Surating — miyno[4], labing — sog'ar[5], so'zing go'yo sharob.

Sabza-yu[6] obi ravon[7] xush aylamas fasli bahor,
Tashnalab maxmurga ko'rsatmasangiz to sharob.

Hech o'ldim ham degaymu hasrat-u armoni yo'q,
San bilan ichkan kishini kechasi tanho sharob.

Ruh ochib mahtoblarda mast ichib qilkim xirom,
To ko'rib lof urmasun qadding guli ra'no sharob.

Bu sifat gul-gul yonibkim no'sh etib gasht aylasang
Tushmasunmu el ichiga sho'rish-u g'avg'o, sharob.

So'rma maxmur-u[8] mukaddarlig'ni[9] bu mayxonada,
Kecha-kunduz ot tutib derman Muqimiy: "yo sharob!"

---

[1] **Istig'no** — ehtiyojsizlik. So'fiyning riyozat bosqichlaridan biri—Xudo haqida o'zida bilim hosil qilgan kishi Olloh xayoli va ishqi bilan o'ziga ehtiyojsizlikni shior etadi.

[2] **Sharob** — ishqning g'alabasi. U komil insonlar nasibasi bo'lib, tariqat nihoyasida muyassar bo'ladi.

[3] **Boda** — may, sharob, mast qiluvchi ichimlik.

[4] **Miyno** — oltin yo kumush bilan bezak berilgan shisha idish.

[5] **Sog'ar** — may ichadigan idish, piyola, jom.

[6] **Sabza** — ko'kat, maysa.

[7] **Obi ravon** — oqar suv.

[8] **Maxmur** — mast, xumor.

[9] **Mukaddar** — xafa, g'amgin.

* * *

May sunib, jono, qilursan g‘ayrni xurram borib,
Bir demassan “Shod etay ul ham asiri g‘am, borib”,

Holig‘a boqmay urar bodom-u nargis bog‘da lof,
Bir yo‘la ul ikki jodularni qil mulzam borib.

Manzilingdin keldimu topmay bizimdek ne uchun,
Ko‘k kiyib, savsan chamanlarda tutar motam borib.

Vaslig‘a yetkay ne firqa xalq, ey ahboblar,
Hovlisiga suhbatin topmas esa odam borib.

Doim aylar sarv-u shamshod-u sanavbar karr-u far,
Ko‘rsatib mavzun qadingni boshlarin qil xam borib.

Xanjari mujgonlaringdin siynalar majruhdir,
Demadingkim “ey jafojo‘:[1], “Bir qo‘yay marham borib”.

Ey muhabbat ahli, ta’n etmang agar tutsam aso,
Qilgan ul kundin beri darmon badandin ram borib.

Necha termuldi Muqim aylab duolar kelmading,
“Intizor etgil! — deganmu ul yoringiz, — kam borib”.

[1] **Jafojo‘** — jafo qiluvchi.

* * *

Gulshan ichra bog‘bon, jono, xirom et, to ko‘rub,
Yuz o‘gursun qomatingni sarvidin zebo ko‘rub.

Ul muanbar[1] kokul ila o‘t kalisodin[2] bukun,
To belidin tashlasun zunnorni tarso ko‘rub.

Menga Majnun uchrasaydi ishq dashtida agar,
Yig‘lar erdi holima boshimda ming savdo ko‘rub.

Lahzaye orom olmas, umrlar ovoradur,
Ikki jodu ko‘zlaringni ohu-yi sahro ko‘rub.

Xatti axzarmu[3], labing uzra tutay deb yo maqom
Keldimi Xizr obi hayvondin kechib, oyo, ko‘rub?

Ol ruxingdin parda, to yuz ming xijolatlar bilan,
Bo‘lmasun mag‘rur bog‘larda guli ra’no ko‘rub.

Nazm sozig‘a Muqimiy chekdi (vasfing) rishtasin,
Goh tarahhum aylag‘il, ey sho‘xi bazmoro, ko‘rub.

---

[1] **Muanbar** — xushbo‘y, muattar.

[2] **Kaliso** — nasroniylar ibodatxonasi, cherkov.

[3] **Axzar** — ko‘k, yashil.

* * *

Toqat o‘ldi toq, ey mahvash[1], jamolingni ko‘rub,
Volau[2] shaydoyi o‘ldim xatt-u xolingni ko‘rub.

Loladek nozik badanlar kokulafshonlar[3] chekib,
Dog‘i ko‘nglimda o‘shal ranj-u malolingni ko‘rub.

O‘zga bog‘larga bino qo‘ymay, nigoro, qil xirom,
Shoxi sinsun sarvni ra’no niholingni ko‘rub.

Xomush o‘lturmay gapur, jonoki, bo‘lsun gung-u lol,
To‘ti-yi shirin takallum qiyl-u qolingni ko‘rub.

Oy malohatda yetolmay yuz xijolatlar bilan,
Bo‘ldi kam-kam kimki bu husni kamolingni ko‘rub.

Ne ajabkim, yuz o‘gursa men kabi zuhd ahli ham,
Toabad mehrobdan[4] abro‘ hilolingni ko‘rub.

Nazm ko‘zgusig‘a sayqal berdi vasfing-la Muqim,
Tobsa shoyad xotiri taskin misolingni ko‘rub.

---

[1] **Mahvash** — oyga o‘xshash, go‘zal.

[2] **Vola** — oshiq, maftun, shaydo.

[3] **Kokulafshon** — sochi yozilgan, zulfi parishon.

[4] **Mehrob** — sajdagoh; go‘zallarning qayrilma qoshi.

* * *

Qoshni shamshirini bosh kesmakka burro qilma ko‘p,
Yosh boshingga muncha ham qonlarni daryo qilma ko‘p.

Och yuzingni bir kelib bu kulbayi ehzonda ham,
G‘ayr bazmida har oqshom shamdek yoqilma ko‘p.

Noz ila javlon qilib har dam nazarlardin o‘tib
Toza-toza dog‘lab bag‘rimni shaydo qilma ko‘p.

Yor ko‘yig‘a kecha rozimni izhor etgali
Fosh o‘lur, ey itlari, borganda g‘avg‘o qilma ko‘p.

Notavon jon halqai zulfiga yillardur asir,
Ustiga vobastai yuz sho‘r-u savdo qilma ko‘p.

Oxiri xijlat chekarsan ko‘rubon nozuk belin,
Bog‘da, ey sarvi sihi[1], qaddingga da’vo qilma ko‘p.

Nogahon insofa kelsa ne ajab so‘rsa Muqim,
Sangdil[2] bemehra zori-yu tavallo qilma ko‘p.

[1] **Sihi** — xushqomat.

[2] **Sangdil** — toshbag‘ir, toshyurak.

* * *

Jon ramaqqa[1] kelgan erdi, keldi yorim, xayriyat,
Topdi jon dubora bu jismi figorim, xayriyat.

Orzular g'unchasi hargiz ochilmas, der edim,
Chiqdi hijron chillasi, keldi bahorim, xayriyat.

Bul kecha bir oh urdim, gul yuzingni shavqida,
Dahrni kuydirmadi o'tliq sharorim, xayriyat.

Necha kun bo'lmishki, vaslidin yiroq tashlab edi,
Sog'inib yo'qlab kelibdur gul uzorim, xayriyat.

Xira erdi sham'i umrim shomi hijroni bilan,
Ravshan o'ldi oy yuzidin ro'zgorim, xayriyat.

Aql ila hushimni olib ketti yodidan chiqib,
Qoldi o'xshaydir magar sabr-u qarorim, xayriyat.

Tog'larni g'arq etib seli sirishkim[2], yiqmadi
Ko'k binosin ikki chashmi ashkborim, xayriyat.

Va'da qilmay qat'i umid aylasa naylar edim,
Termulib yo'lida chashmi intizorim, xayriyat.

Ul kunekim bir nigoh qilding Muqiming sorig'a,
Afzun[3] o'ldi misli gavhar e'tiborim, xayriyat.

---

[1] **Ramaq** — jon chiqar payti, so'nggi nafas.

[2] **Sirish** — ko'z yoshi.

[3] **Afzun** — ortiq, ko'p, ziyoda, mo'l.

* * *

Navbahor ochildi gullar, sabza bo‘ldi bog‘lar,
Suhbat aylaylik kelinglar, jo‘rayu, o‘rtog‘lar.

Xush bu mahfilda tiriklik ulfat-u ahbob ila,
O‘ynashib, gohi tabiatni qilaylik chog‘lar.

Rux ochib ko‘zdin nihon bo‘lsa paridek, naylayin,
Ayrilib hush-u aqldin telba bo‘lmay sog‘lar.

Ul sitamgar zolim-u bebok davroni xazon,
Loladek qat-qat ko‘ngilda qildi paydo dog‘lar.

Hayfkim, ahli tamiz[1] ushbu mahalda xor ekan,
Oldilar har yerda bulbul oshyonin zog‘lar.

Marham istab kimsadin, zahmi dil izhor aylasang,
Choraye qilmoqdin o‘zga, ustig‘a tirnog‘lar.

Shahrda kuymaymu men, ajrab Muqimiy yoridin,
Kirmagay ketsa biri ketgay Oyimqishloqlar.

[1] **Agli tamiz** — donolar, oqillar.

* * *

Zulm ila qahr-u g‘azab izhor qilmoq shunchalar,
Oshiqi bechoraga ozor bermoq shunchalar.

Gul debon sevgan kishining ko‘kragiga nish urib,
Xasta-yu ma’yus etib, afgor[1] qilmoq shunchalar.

To‘ti-yi shirin suxan[2] ag‘yorlarning bazmida,
Bizga kelganda gapirmay zor qilmoq shunchalar.

Sizga kim aydi: “Muhabbat ahlini qil ehtisob[3]”,
Qo‘rqutib o‘z aybiga iqror qilmoq shunchalar.

Kelsa oldingizga boysurat, yoqosi tugmalik,
Izzat ila shod-u minnatdor qilmoq shunchalar.

Garchi kelsa eski to‘n, bizdek duogo‘yi faqir,
Kambag‘alning xirqasidin[4] or qilmoq shunchalar.

Har balo-yu jabr kelsa yonmagay hargiz Muqim,
Oshiq ahlini urubon xor qilmoq shunchalar.

---

[1] **Afgor** — majruh, ezilgan, qiynalgan, jarohatlangan.

[2] **Suxan** — so‘z, nutq.

[3] **Ehtisob** — so‘roq qilmoq, nazorat qilmoq.

[4] **Xirqa** — yirtiq kiyim, ustki kiyim.

* * *

Bir demas holing nachuk deb, dilrabolik shunchalar,
So‘rmagay o‘ldim, desam ham purjafolik shunchalar.

Hamma lutf-u marhamat begonalarga subh-u shom,
Bir umr manga tag‘oful, oshnolik shunchalar.

Necha faryod ayladimkim, aylamas bir iltifot,
Aylamak ko‘yida oxir benavolik shunchalar.

Aytdilar ko‘rgan tabiblar nabzimi afsus ila,
Sorg‘arib yuz dard birlan kahrabolik shunchalar.

Zor ustig‘a yog‘ib bo‘lgay malomat toshlari,
Bir kishi hajrida tortar ashkbolik shunchalar.

Masti sahboyi g‘ururi husnidur, naylay Muqim,
So‘zga ham solmas qulog‘in, bevafolik shunchalar.

* * *

Ming salom etgan kishiga bir salom etsang netar?
Izzating tutganni sen ham ehtirom etsang netar?

O‘tursan oshiqa boqmay, gapirmay, tund[1] bo‘lib,
So‘zlaring to‘ti kabi shirinkalom etsang netar?

G‘ayra yoru hamzabon bo‘lmak necha az ro‘yi lutf,
Men bilan ham oshnolig‘ni mudom etsang netar?

Soqiyo, davringda mendin tashnaroq yo‘q talxkom
Aylamay maxmur mundog‘ masti jom etsang netar?

G‘unchalar ochilmasun botib xijolat qoniga,
Bir tabassum birla korini tamom etsang netar?

Kabk[2] ila tovus raftorig‘a mag‘rur o‘lmasun,
Hurvash, yuz nozlar birlan xirom etsang netar?

Nomayi xuni jigar birlan yozar umre Muqim,
Sen ham emdi bir javob aylab payom etsang netar?

---

[1] **Tund** — achchiq, g‘azab, darg‘azab, shiddatli, yuksak, jizzaki.

[2] **Kabk** — kaklik.

* * *

Nozparvar yor agarchi ta'bi zulmososi[1] bor,
Oshiq o'lturmoqda qon to'kmakka istig'nosi bor.

Voykim, solmas tag'ofuldin nazar ahvolima,
Yuz meningdek xasta rasvo o'lsa ne parvosi bor.

Rasmi mahvashlardur oshiq oldida ag'yorg'a,
Lutf etib degaylar oni o'zga bir barnosi bor.

Man gadoga xokbo'sing maskan etmak orzu —
Ermish, ammo itlaring har go'shadin g'avg'osi bor.

Huri jannat vasfin etmish zuhd ahli muddao,
Ishq eli mahshar kuni ma'shuqig'a da'vosi bor.

Mayli gulzor etsa har kim, yordin mahrum erur,
Naylasun Rizvonni ulkim, san kabi ra'nosi bor.

Dam chiqarmas, sidq ila da'voyi ishq etkan kishi,
Bulhavasdur ishq oyinida oh-u vosi bor.

Bo'stoni nazm aro har bandidin bir gul uzib,
Dasta qilkim, yorning vasfi chamanorosi bor.

[1] **Zulmososi** — zulmni odat qilgan.

* * *

Ne'mat ichra xush latofatlikda mustasno anor,
"Qoy"[1] agar hikmatda derlar qoti'i safro anor.

Me'dani pokiza aylab, ishtahoni kelturub,
Ko'p g'izo qilg'anni qilg'ay rangini humro anor.

Achchig'ida xosiyat ko'pdur, havosida xusus,
Bo'lsa shirin tashnalik da'figadir tanho anor.

Gar yesang foram har bir dona chun la'li xushob,
Bog'ida sun'i Ilohi mevai g'atmo[2] anor.

Bor masalkim: Yaxshi odam, der edim, o'zi bilur,
Yo'qsa aylardim qachon sizlarga men da'vo anor.

Xaltasi birlan yuboring goh-gohi lutf etib,
Bo'yla kelganda Namangan shahridin savg'o anor.

Nogahon o'rtab yurak turganda keltirdi o'g'ul,
Shodlig'imdin, deb yuboribmen, Muqimiy, yo anor!

[1] **Qoy** — anorning bir xili.
[2] **G'atmo** — sersuv.

* * *

Kimning inson xaylidin ul nozanindek yori bor,
Arzi ruxsor etsa har qaydoq pari ham ori bor.

Ko'rmish oyokim xiromini chamanda rashkidin
Erta-kech tovuslarning ohi otashbori[1] bor.

Bog'i vaslidin uzarga olma qilsang iltimos,
Nozlar birlan degaykim: — olma yo'qtur, nori[2] bor.

Mubtaloyi domi zulfi bo'lmas ersa, ne uchun,
Bo'yla tarsolar belida halqayi zunnori bor?

Tonimay o'tsa banogah ul sanam, ma'zur tut,
Sen kabi yo'lida ming-ming oshiqi diydori bor.

Sham' — beparvona, gul — bebulbul-u, bequmri — sarv —
Bo'lmas, husn-u ishqning olamda to osori bor.

Necha hajrida, Muqimiy, injima, cheksang alam,
Ketmagay bekor, oxir — rohati bisyori bor.

[1] **Otashbor** — o't yoquvchi.

[2] **Nori** — bu yerda ikki ma'noda: 1. Anori; 2. Nari

* * *

Qadding oldida sanavbarda nazokat qaydadur?
Gulda ruxsoringni borida tarovat qaydadur?

Rashkidin afg'on xiromingni qilur kabki dari,
So'zlasang to'ti kalomida latofat qaydadur?

Bog'larda ochilur erdi saningdek guluzor,
Sochlari rayhon-u sunbul, sarv qomat qaydadur?

Aylasang sayr-u tamosho rastalarda nogahon,
Bo'lmagay bozor — bozori, qiyomat, qaydadur?

Naqshgor[1] Moniy[2] kilk[3] angushti hayrat[4] tarhinga,
Cheksa tasviring xayol aylab bag'oyat qaydadur?

Xurram aylab saxlasun osebi davrondin mudom,
Haq vujuding nav niholini[5] salomat qaydadur?

Aylagay devona zohid ta'na egsam qaddimi,
Qoshlaring mehrobig'a mundog' ibodat qaydadur?

(She'rimi mag'zida vasfing durlari) har yerdadur,
Manda ishqingda, Muqimiy, istiqomat qaydadur?

---

[1] **Naqshgor** — naqqosh, musavvir.

[2] **Moniy** — monaviy ta'limoti asoschisi Moniy ibn Fatak (212–276). Sharqda u naqqosh va musavvir sifatida mashhur.

[3] **Kilk** — qamish qalam.

[4] **Angushti hayrat** — hayrat barmog'i.

[5] **Nav nihol** — yangi o'tqazilgan nihol; majozan yosh yigit yoki qiz.

* * *

Xiradimni g‘oratin aylagan yuzi oy-u sochlari holadur[1],
Bu chaman aro na sanobar-u, na suman bilan guli loladur.

Kelib avvalo yuzini ochib, olibon ko‘ngul, ketibon qochib,
Borib o‘zgaga qoshini otib, uchururga manga uyoladur.

Kecha yo‘qki tongg‘acha yig‘lamay, o‘tadur bosib nazar aylamay,
Na ko‘ngul buki dilim ovlamay, raqibimni ko‘nglini oladur.

Yetibon payomi ramuzidin[2] yaralarga marhami so‘zidin,
Na umidimi uzar o‘zidin, na bir oqshome kela qoladur.

Ko‘zim ila yo‘lig‘a har sahar socharam nisorig‘a siym zar
Ezibon yurak bag‘ir-u jigar, yog‘adur havo dema joladur.

Hama umr hajrida g‘am yutub, hama vaqt g‘ayr ila qo‘l tutib.
Qoluram qarab, ketadur o‘tib, meni bo‘yla o‘tlarda soladur.

Na bu dahr ekan zahri morsiz ochilur na gullari xorsiz,
Yana ustig‘a be ne yorsiz, manga ish fig‘on ila noladur.

Birov-ila kim sari ulfatim, fuzun o‘ldi negaki kulfatim,
Meni muncha hirqat-u mehnatim labi la’li ustida holadur.

Hama masti bodai dilkusho, xush-u komron shah-u to gado,
Necha dayr kunjida soqiyo, manu xushki xoli piyoladur.

Yozib ersa xun qadar-u qazo, netay ichmayin kishi mumiyo,
Manga ham Muqim shul erur g‘izo na o‘zingga yakka havoladur.[8]

[1] **Holadur** — oy va quyosh atrofidagi gardish.

[2] **Ramuz** — ramzlar, ishoralar.

* * *

Dilrabo, kelsang netar ta'xir[1] qilmog'liq nadur?
Noshto[2] o'rniga jondin ser[3] qilmog'liq nadur?

Va'da birlan intizor aylab, kelolmayman demay,
Chekkan ohimni yo'lingda tiyr qilmog'liq nadur?

Novaki mujgonlaring yetmasmu bismil aylasang,
Qoshlaringni ustig'a shamshir qilmog'liq nadur?

Safhai husningda xatti sabzlar sun'i iloh,
Mundin ortiq o'rgulay tafsir[4] qilmog'liq nadur?

Demasang olma anoringdin uzib, jono agar
Tugma birlan qufillab, zanjir qilmog'liq nadur?

Bilmadim yo Rabki bu mahfilda qaydog' sozman,
Bilmagay cheksam navo ta'sir qilmog'liq nadur?

Rangi zardimdin, Muqimiy, dardimi qilg'il qiyos,
Hojati izhor emas tahrir qilmog'liq nadur?

---

[1] **Ta'xir** — keyinga surish, paysalga solish.
[2] **Noshto** — nonushta.
[3] **Ser** — to'q.
[4] **Tafsir** — batafsil bayon qilish, sharh-u izoh berish.

* * *

Qatra-qatra ter yokim gul yuzing shabnammudur?
Yo riyozi husning ichra chashmai zamzammudur?[1]

Ulfating begonalar mahram sango har subh-u shom,
Oshno bechoralar yoinki nomahrammudur?

Sanki qochsang qanchakim, borsam yaqin tobora man,
Aylakim insof, o'zingdek vahshi sohib rammudur?[2]

Muddatedurkim ko'rib la'li Badaxshon lablaring,
Rangi o'chkan qon aro pinhon magar mulzammudur?

Jismi zorimni axiri rashk o'tig'a kuydurub,
G'ayr ila, jono, bu yanglig' har kuni mayrammudur?

Aylasang mundog' chiqibon ko'chalarda xushxirom,
Qoshlaring mehrobig'a bosh egmagan odammudur?

Necha vaslingni so'rog' aylab topib bo'lmas, darig',
Qismatim hajringda oyokim, Muqimiy, sammudur?[3]

---

[1] **Zamzam** — Makka shahridagi "Masjidi harom" sahnidagi muqaddas buloq.

[2] **Sohib ram** — qochoq.

[3] **Sam** — zahar.

* * *

Eram gulzoridin har vajhdin ra'nolig'ing bordur,
G'araz lutf-u nazokatda chaman orolig'ing bordur.

Kaloming jonfizoyekim, takallum aylasang shirin,
Jahon to'tilarini oldida go'yolig'ing bordur.

Bu gulshan gullari birlan ochishsang nogahon ruxsor
Ruunat avjida har bobdin hamrolig'ing bordur.

Ramaqqa yetsa ham noz-u tag'oful ishlaring jonlar,
Nigoro, saxt oshiqlarga beparvolig'ing bordur.

Xaloyiq ichrakim qo'zg'aldi mundog' fitnalar bois —
O'zingni ham biroz, lekin ko'ngul orolig'ing bordur.

Agar za'fimni[1] rangimdin qiyos etsang bo'lur baskim,
Bayon darkor emas, aql-u xirad donolig'ing bordur.

Nachuk ko'nglum, Muqimiy, kuymasun rashk o'tig'a oxir,
Qolib oshnolaring, begonag'a oshnolig'ing bordur.

[1] **Za'f** — zaiflik, holsizlik, xastalik.

* * *

Shitob aylab yurarda noz-u istig'nolaring bordur,
Qayon borsang aning-chun sho'rish-u g'avg'olaring bordur.

Hamisha va'daga mone' chiqar, shuldur gumonimkim,
Urub yo'ldin yubormas oshiqi shaydolaring bordur.

Agar insof qilsam, sarv qadlar xaylida, jono,
Ajab xil'at yarashgan qomati zebolaring bordur.

Boqib oyinaga darkor emasdur surmalar qo'ymoq,
Qaro ohu ko'zidin nargisi shahlolaring bordur.

Xalos o'lmoq muanbar domi zulfingdin iloji yo'q,
Boshimda mo'yi sardin[1] ham fuzun savdolaring bordur.

Eshigiga urulgan bog'i husning quflimu oltun,
Vayo kamzullaringda la'lgun[2] tugmolaring bordur.

Na-deb rashk otashig'a kuymasun ko'ngli Muqimiyning,
Mudom, ey nozanin, begonadin oshnolaring bordur.

[1] **Mo'yi sar** — boshdagi soch tolasi.

[2] **La'lgun** — la'lga o'xshagan, qizil.

* * *

Ajoyib jilva birlan, dilbaro, javlonlaring bordur,
Xiromingga aning-chun oshiqi hayronlaring bordur.

Boqib mardumni bismil aylamakka tig‘ emas hojat,
Kamon abro‘ otarg‘a novakim mujgonlaring bordur.

Hamisha gul yuzing shavqida chun bulbul navo qildim,
Demassan menga mundog‘ nola-yu afg‘onlaring bordur.

Labingdin kom baxshishlar[1] magarkim va’da aylarsan,
Nihoniy shum raqibg‘a ahd ila paymonlaring bordur.

Xush o‘lmas xotirim bog‘larni sayri birla bo‘lsang bas,
Ruhing-gul, zulflardin sunbul-u rayhonlaring bordur.

Ochib ruxsorini bir necha ko‘rmay borasan vaslin,
Bu to‘g‘ridin, netayin ey ko‘ngul, armonlaring bordur.

Navo birlan Muqimiy she’r ravshanroq eshitkanga,
Qilib yod o‘qusa bazmingda ham xushxonlaring bordur.

[1] **Kom baxshishlar** — maqsadni hosil etish, murodbaxsh.

* * *

Ko‘ngul fikri labi la’li bilan qon o‘ldi o‘xshaydur,
Demang qon, balki chun la’li Badaxshon o‘ldi o‘xshaydur.

Bo‘yalgan lola-yu gul dasht-u sahrolarda qonig‘a,
Shahidi novaki ul tiyri mijgon o‘ldi o‘xshaydur.

Yo‘lida termularmen subhdin to shom ham, kelmas,
Bugun ag‘yor ila sha’mi shabiston o‘ldi o‘xshaydur.

Qaro xolini qosh ostida ko‘rganlar, dedilarkim:
Bu mehrob ichra hindu-ye musulmon o‘ldi o‘xshaydur.

Labidin va’da aylab bo‘sa-ye qil deb ado qilmas,
Magar ushbu karomatdin pushaymon o‘ldi o‘xshaydur.

Ko‘zing suvlar sepib farroshlar mijgon bilan mardum,
Xayoli ko‘nglumi uyiga mehmon o‘ldi o‘xshaydur.

Ketar azm aylabon Xo‘qand sori xush qoling ahbob,
Muqimiy forig‘i[1] sayri Namangon o‘ldi o‘xshaydur.

[1] **Forig‘** — osuda, xotirjam, beparvo, bemalol, ozod.

* * *

Rastadin gul-gul yonibkim ul mahi tobon kelur,
Ruhsiz jism ichra shirin toza go‘yo jon kelur.

Shavqidin ko‘rkim yesa-qo‘ysa kishi bir luqmavor,
Go‘yiyo shirmoy issig‘ och gadog‘a non kelur.

Yordin bo‘lg‘ay ko‘ngillar muztarib[1] andog‘kim,
Kambag‘al muflis[2] uyig‘a bir aziz mehmon kelur.

Da’vi aylab beadablig‘din tabassum bobida,
G‘uncha og‘zidin bahor ochildi, yerlar qon kelur.

Jazm[3] o‘lg‘aykim kelur chog‘ida hojat ahlini,
G‘aybdin ilkig‘a go‘yo aqchalik hamyon kelur.

O‘xshaturman shum raqib birla kelurda angakim
Aylayub talbisi[4] iblis hamrahi inson kelur.

Necha yo‘l bordi Muqimiy o‘tti armonlar bilan,
Tokay oxir yerda aksar topmag‘ay do‘kon kelur.

---

[1] **Muztarib** — iztirob chekuvchi, betoqat, beqaror.

[2] **Muflis** — qashshoq, kambag‘al, bechora.

[3] **Jazm** — aniq, muqarrar.

[4] **Talbis** — hiyla, nayrang, aldash.

* * *

Hajr ila tinmay ko‘zimdin, ko‘rmasam, ashkim kelur,
G‘ayr ila ko‘rsam mabodo xud-baxud[1] rashkim kelur.

O‘zga so‘z sig‘mas xayolimg‘a va lekin subh-u shom,
Aylashib ulfatchilik har yerda gaplashkim kelur.

Bo‘lmasun deb oshkoro rozi dillar xalq aro,
Aylabon ramz-u ishorat maxfiy imlashkim kelur.

Navbahor ayyomi chiqsa bog‘larni sayr etib,
Nozlar birlan xirom etkach qo‘l ushlashkim kelur.

Muddaosiz boshda savdolar bilurman shunchakim,
Ko‘chada san birla har soatda uchrashkim kelur.

Arz qil, qosid, Muqimiy xastadin, ko‘rsang agar:
Maqdamig‘a sadqa jonim ul parivash kim kelur.

[1] **Xud-baxud** — o‘z-o‘zidan.

* * *

Rastadin bir-bir bosibkim ul guli ra'no kelur,
Go'yiyo Bog'i Eramdin bir pari siymo kelur.

Shod o'lurman garchikim kelgan tag'ofullar bilan,
Aylabon ag'yora ham yuz poz-u istig'no kelur.

Yo'llarida jondin ummid aylasang qoch, zohido,
O'q otarga kiprigi, qoshini aylab yo kelur.

Dod-u faryodig'a ushshoqini qilmas iltifot,
Xoh raqiblar birla bo'lsun, xoh o'zi tanho kelur.

Xalqdin eltib hayo, vahshat chekib beixtiyor,
Shahrga tushgan kabi bir ohu-yi sahro kelur.

Oy yuzini sog'inib kelgoni o'xshar angakim,
Gulshan ichra bulbuli sho'ridai shaydo kelur.

Necha sabr aylay, Muqimiy, shoyad az ro'yi karam,
Gar bukun kelmas so'rab bemorini, fardo kelur.

* * *

Jonlaringni hurmati, qosidki, jonondin gapur,
Man qulig'a ne siporish[1] bo'lsa sultondin gapur.

Muddate noz-u tag'oful, ishlari begonalig',
Oshnolig' qilg'uvchi til birla yolg'ondin gapur.

Aylama, ey bog'bon, bog'ingni vasfini mengo,
Qo'y, gapursang chehrasi gul, zulfi rayhondin gapur.

Lola ayyomi bahor ochilsa hojat yo'q bayon,
Qatra-qatra hajrda ko'zdin oqar qondin gapur.

Xulqdin ko'pdur itobi, aylamaydur iltifot,
Mehribonlig' bo'lsa dar voqi'ki ehsondin gapur.

Ul paridin bo'lmas ersa so'zlamakka zarra gap,
Loaqal mahramlari andak yori jondin gapur.

Nozaninlar bazmida har rang o'tar so'z bul' ajab,
Lahzae ham man Muqimiyi parishondin gapur.

[1] **Siporish** — topshiriq, buyruq.

* * *

Har kishikim yaxshi-yaxshi oshno paydo qilur,
Naxli umridin, ne tong, na'shu namo paydo qilur.

Bog'lamay beliga himmat fo'tasini[1] ul kishi,
Qayda bul vodiyda Xizri rahnamo[2] paydo qilur?!

Bulhavaslar ursa dam, yig'lab muhabbatdin agar,
Man kabi mehringda rangi kahrabo paydo qilur.

Garchi ilgim gulshani vaslingga yetmas, shukrkim,
Har necha ko'toh[3] qul ohi sahar paydo qilur.

Jomi Jam ham toji Iskandarg'a bermas davlating
Kim, o'zingdek moh paykar[4] dilrabo paydo qilur.

Bo'lmag'il mag'rurkim, bir kun bu husn-u xushku tar[5]
Har biri go'yo zaboni iltijo paydo qilur.

Demagil mahrumdurman yor vaslidin, Muqim,
Sabr agar qilsang, shikasting mo'miyo paydo qilur.

---

[1] **Fo'ta** — belbog'

[2] **Rahnamo** — homiy.

[3] **Ko'toh** — qisqa, kalta.

[4] **Moh paykar** — oy yuzli, chiroyli.

[5] **Xushku tar** — ho'l-u quruq, hammasi.

* * *

Nihoni goh ko‘rib uchrasang salom bo‘lur,
Ziyoda manda qachon jur’ati kalom bo‘lur.

Zarif-u ziyrak-u nozik badan mahol emdi,
Agarda sen kabi xush labz-u xush marom bo‘lur.

Agarchi madrasalarda mubtalolaring ko‘pdur,
Va lekin qaysi o‘zimdek sanga g‘ulom bo‘lur.

Xayoling o‘ylab yurib, kunduzi yurib to shom,
Ko‘zimga uyqu yana kechalar harom bo‘lur.

Madoro zarra chashmimda qolmadi hargiz,
Har yerda ko‘rsam sani ishim tamom bo‘lur.

O‘qib ketarsan agar ta’til o‘lsa beta’xir —
Ki, emdi ketma bu yil shahr benizom bo‘lur.

Agarchi va’dalarga vafodin yo‘q asar bir bor,
Va lekin sanga, nigoro, Muqimiy yor bo‘lur.

* * *

Nigori mahvashekim, kam bo‘lur mundog‘ pari paykar,
Sanavbarbo‘y, nasrinxo‘y, sunbulmo‘y, siyminbar[1].

Zarif-u, ziyrak-u, dilxoh-u, diljo‘, dilkash-u marg‘ub,
Raso ta’bu, salimilvaz’u[2], bazmoro, ajab dilbar.

Adofahmu, suxansanj-u, shakarguftor-u sho‘rangez[3],
Sabihul vajh-u, neko‘shak-lu, matbuu nako‘ axtar.

Malohat osmonida yuzi xurshidi tobone,
Latofat bo‘stonida qadidin sarvdur muztar.[4]

Xiromi bandasi— kabku, kalomi volasi -to‘ti,
Ko‘zi sargashtasi— ohu, labi sharmandasi -shakkar.

Asiri halqai zulf-u xatidur, sunbul-u rayhon,
G‘ulomi dog‘dori orazidur lolai ahmar[5].

Netar jannatni nasya, naqd turganda Muqim oshiq,
O‘zi — hur-u ko‘zi — xuld-u[6] qaddi — to‘bi[7],
labi — Kavsar.

---

[1] **Siyminbar** — kumushbadan, oqbadan.

[2] **Salimilvaz’** — jussasi sog‘lom.

[3] **Sho‘rangez** — parishon bo‘luvchi, fitna uyg‘otuvchi.

[4] **Muztar** — xijolat, nochor, noiloj.

[5] **Ahmar** — qip-qizil.

[6] **Xuld** — abadiylik, doimiylik, jannat.

[7] **To‘bi** — jannatdagi go‘zal daraxt, chinor, majozan: xushbichim qomat.

* * *

Kishini jonidek jismimdagi ruhi ravonim siz,
Qachon mumkin judoliqda tiriklik, chunki jonimsiz.

Jahon bozorida sude topar har kim matoidin,
Meni naqdi muhabbatdin topib qilgan hayonim siz.

Muolijdin ko'rub nabzim, hakimo, yozma "Qonuncha"[1],
Bu hikmat birla bilmaysiz, nadur dardi nihonim siz.

Labingizmu desam shirin — shakardin, achchig'i kelgan
Urushjo', tundxo' siz, ko'p yomon nomehribonim siz.

Xaloyiq masti sahbo-yi junun, g'avg'o-yi mahshardur,
Ochib yuz pardalardin jilva qilgan begumonim siz.

Nigor etmish nigorim poyini rangi xino birlan,
Ne xush nisbat to'king yo'lig'a, ey ko'zlarda qonim siz!

Agar begonadinkim, har nafas yuz ming jafo cheksam,
Bo'lubon oshnokim, kuydurursiz ustuxonim siz.

O'tardi yor, kelmay qoldi til so'zg'a, kulub aydi:
— Qalaysiz, kamnamosiz, gung-u lol-u bezabonim siz?

O't urdim sha'mdek mahfilda men ham tanga sar topo,
Kuyay o'lguncha, ey nosih[2], qo'ying tutmang inonim siz.

Navo bir gul xayolida chekarman hamdamim bulbul,
O'qub behuda bilmangsiz, Muqimiy, dostonim siz.

[1] Mashhur olim Mahmud ibn Muhammad ibn Umar al-Chag'miniy al-Xorazmiyning diagnostika, terapiyaga oid asari nomi.

[2] **Nosih** — nasihat qiluvchi.

* * *

Saltanat taxtidagi sultoni xubon[1] sizmusiz?
Qilg'uvchi g'orat ko'ngul mulkini vayron sizmusiz?

Har zamon la'li labimdin aylayin deb komyob,
Va'dasidin qaytibon bo'lgan pushaymon sizmusiz?

To'tii shirin adoni[2] gap bilan lol aylagan,
Aksig'a ko'zguni qilgan mahvi hayron sizmusiz?

Ochibon ruxsorlar har yon xiromi noz etib,
Fitna solgan dahr aro oshubi davron[3] sizmusiz?

Necha yo'lida tavallo zori qilsang boqmagan,
Sangdil beboki sho'xi ofati jon sizmusiz?

Xasta xotir shomi hijronida qolgan qullarin
Tashlabon ag'yorga sha'mi shabiston sizmusiz?

G'ayr[4] bazmida Muqimiyni hamisha kuydurib,
Har kecha bozori shab chiqqan shitobon sizmusiz?

---

[1] **Xubon** — go'zallar.

[2] **Shirin adoni** — shirinso'z.

[3] **Oshubi davron** — olamga o't yoquvchi.

[4] **G'ayr** — boshqa, o'zga, begona.

* * *

Banogah[1] uchradi ot o‘ynatib bir dilrabo yolg‘uz,
Rikobig‘a[2] surib ko‘z, qo‘l ochib qildim duo yolg‘uz.

Dedimkim: “Nozaninlar xaylida[3] insof qilganda,
O‘zingdur xush takallum, to‘tii shirin ado yolg‘uz”.

Tabassum birla pinhoni dedi: “Oshiqlarim ichra,
Vale sen ham asir-u mubtalolig‘da judo yolg‘uz”.

Dedim: “Jono, chekardim dardi hijroningni muddatlar,
Harimi vaslinga mahramlig‘ erdi muddao yolg‘uz”.

Dedi: “Xilvatda tanho ko‘rmog‘ingdin ne g‘araz[4] bordur?”
Dedimkim: “Orzu shuldurki, jon qilsam fido yolg‘uz”.

Muqimiyni panohi ismatingda asrog‘il, yo Rab,
Xatarlik dasht aro gumgashtai[5] berahnamo[6] yolg‘uz.

---

[1] **Banogah** — kutulmaganda, daf’atan.
[2] **Rikob** — uzangi.
[3] **Xayl** — to‘da, guruh, toifa, el, jamoa.
[4] **G‘araz** — niyat, maqsad.
[5] **Gumgashta** — yo‘qolgan, adashgan.
[6] **Berahnamo** — rahnamosiz, rahbarsiz.

* * *

Furqatida bo‘ldi subhim shom ham kelmas hanuz,
Lahzai yo‘q kechalar orom ham kelmas hanuz.

Yodidin borib magar chiqdi qilon paymonlari,
O‘tdi garchandi kelar ayyom ham kelmas hanuz.

Intizorida ochib har mo‘yi bandin deydilar,
Bo‘ldi jismim surati chun bom ham kelmas hanuz.

Za’f dardi hajridin aftodalar holim so‘rab,
Kelmas o‘zi, loaqal payg‘om ham kelmas hanuz.

Xurram aylab komron ag‘yorlarning vaslidin,
Aylabon mundoq bukun nokom ham kelmas hanuz.

Oh, ne sayyodkim, saydidin olmas hech xabar,
Jon qushi bo‘ldi asiri dom ham kelmas hanuz.

Necha muddat emdi shoyad kelsa, qil tamkin, Muqim,
Aylading har nechakim ibrom[1] ham kelmas hanuz.

[1] **Ibrom** — qattiq talab qiluvchi.

* * *

Orazingni ko'rgali mushtoqman, ey sarvi noz,
Mahram aylab ne bo'lur vaslingga qilsang sarfaroz.

Bosh oyog'ingga qo'yub, ayb etma, sharhi g'am desam,
Ishq etar Mahmudni bechora oldida Ayoz.

Dahrda ko'p qaddi mavzunlar va lekin sen kabi,
Xush takallum, siym tan, nozik badan, gulchehra oz.

Oy chiqar sen ham niqob och bu kecha ko'rsat yuzing,
Tishlasun angushti[1] hayrat el qilolmay imtiyoz.

La'li mayguning xayoliki qilur behush-u mast,
Keluram o'zumg'a shirin so'zlaring yodida boz.

Sonuram o'lmasmukin maqbul deb, ey hurvash,
Bo'lmasa qiblam agar mehrobi abro'ying namoz.

Mubtalodur halqai zulfungg'a jono, jon qushi,
To tararda kokilingni rahm etib ohista yoz.

Dillari hasratlaringda lola yanglig' dog'man,
Tuz navoyi g'amzudo bir dam olib ilkingga soz.

Xizr xatting jon berur lutfing chog'i vaqti g'azab,
Ko'zlaring qotilki ta'sir aylamas ajz-u niyoz.

Ijtinob etma, nigoro, tashlasam bo'yningga qo'l,
Qaysi bog'da xordin gullar qilibdur ehtiroz.

Nazm tanburig'a (vasfing gavharin) chekti Muqim,
Qil karam aylab tarannum goh, ey miskin navoz.

[1] **Angusht** — barmoq.

* * *

Jahon bog‘ida ra’no siz ekansiz,
Sihi qomat[1] sumanno[2] siz ekansiz.

Minib noz otig‘a, bildim, solib sho‘r,
Ko‘ngil mulkig‘a yag‘mo siz ekansiz.

Inoningkim tag‘ofil to‘g‘risida,
Sanamlar ichra tanho siz ekansiz.

Latofat vajhida yaxshisiz, ammo,
Yamon oshiqqa parvosiz ekansiz.

Xirom aylab chamanda har tarafga,
Qilan tovusni shaydo siz ekansiz.

Necha holim ko‘rib rahm etmadingiz,
Mehrsiz ko‘ngli xoro siz ekansiz.

Muqimiy o‘tsa kim attorlikdin,
Xaridor-u tamanno siz ekansiz.

---

[1] **Sihi qomat** — qaddi-qomati kelishgan, nozik.

[2] **Sumanno** — sumanga o‘xshagan.

* * *

Dilda to, ey sarvi ra'no, mehringiz,
Menga bo'ldi da'fi savdo mehringiz.

Yo'lingizda kozalar[1] qilmay netay,
Yusufim qildi Zulayho mehringiz.

Kuymoq o'ldi, oh korim ayrilib,
Tushgan erkan dilga bejo mehringiz.

Telba-yu devonalardek oqibat,
Ko'chalarda qildi shaydo mehringiz.

Yig'lar erkan bul ajabkim, qon mudom
Har kishikim kilsa da'vo mehringiz.

Bog'da gul ko'ksida qat-qat dog'lar
Bir emasdur menda tanho mehringiz.

O'ldurur hijronlaringiz to bakay,
Bormu oxir hech aslo mehringiz.

Borsa zohid taqvi-yu toat bilan
Menga basdur tuhfa fardo[2] mehringiz.

Yo'q ekan, jono, Muqimiysizki, siz
Ayladingiz sayri sahro, mehringiz.

---

[1] **Koza** — kapa, chayla.

[2] **Fardo** — erta.

* * *

Yurarga holatimiz yo‘q, aso bila boramiz,
Yo‘q ersa tuhfa agarchi, duo bila boramiz.

Visoli gulshanidin gul terish havas qilsang,
Chu andalib fig‘on-u navo bila boramiz.

Namoz-u ro‘za tutub, qo‘lda donai tasbih,
Ko‘ngulda uzri xiyonat, riyo bila boramiz.

Xudoning rahmatini o‘ylasang bu dunyoda,
Hamisha g‘am bila, kulmay azo bila boramiz.

Umid etmak esang tongla jannat ul-ma’vo
Baloga sabr-u, qazoga rizo bila boramiz.

Muyassar o‘lsa borish ravzai Muhammadga,
O‘farga tufrog‘ini Karbalo bila boramiz.

Muqim, zarra ibodatimiz yo‘q agarchi, ey zohid,
Yetar bu bizgaki, xavf-u rijo bila boramiz.

* * *

Bahor ayyomidur, chun abri[1] giryon bo'lmasam bo'lmas,
Ki man ham g'unchadek choki giribon bo'lmasam bo'lmas.

Qudumig'a nisor aylarga kelgach yor kulbamg'a,
Fido jonimni aylab, hech qurbon bo'lmasam bo'lmas.

Parilar husnig'a qilsam nazar ma'n etma, ey nosih,
Netay oyina yanglig' mahvi hayron bo'lmasam bo'lmas.

Qazo va'zi nishonkim qildi ko'ksum lojaram[2] emdi,
Shahidi hanjari har tiyri mujgon bo'lmasam bo'lmas.

Qo'ying ozodlig'ni, xo' qilibman mubtaloliqqa,
Asiri domi bir zulfi parishon bo'lmasam bo'lmas.

Qoshi mehrobini ko'rganda tarso bu latofatda,
Demasmu jonidin qaytib, musulmon bo'lmasam bo'lmas.

Mukaddarroq ko'ngullar istiqomatdin qo'zib savdo,
Muqimiy ozimi taxti Sulaymon bo'lmasam bo'lmas.

[1] **Abr** — ifor, xushboy moddalar qorishmasi.
[2] **Lojaram** — zotan, shubhasiz.

* * *

Oshiqing ko‘pdur, nigoro, men kabi shaydo emas,
Sarv mahzundur, o‘zingdek qomati ra’no emas.

Benavo dilxastasidin hech bir mahbub o‘tib,
Aylasam insof, lekin sencha beparvo emas.

Doimo oshiqqa javr aylarga ko‘rdum sho‘xlar,
Sen kabi hech qaysisi ham sangdil-xoro emas.

Lablari tinmay qilur bulbul fig‘on-u nolalar,
Gul yuzing shavqida, maqsudi guli hamro emas.

Har necha ko‘ngul beribkim, oshnolig‘ ayladim,
Ohkim, ko‘z oshnosi dil bilan oshno emas.

O‘ttilar Farg‘onadin ko‘p nozanin o‘z asrida,
Hech biri sendek tag‘oful yor istig‘no[1] emas.

Naylayin zulfing havosidin Muqimiy boshida,
Yo‘qki bir muyiki ul vobastai[2] savdo emas.

[1] **Istig‘no** — o‘ziga bino qo‘ymoq, g‘ururlanmoq, noz; ehtiyojsizlik, muhtoj emaslik.

[2] **Bobasta** — bog‘liq, tegishli, dahldor; maftunlik, asirlik.

* * *

Ey munnavar orazingga mohi tobon o‘xshamas,
Mardumiga ko‘zlaring Mirrix-u[1] Cho‘lpon[2] o‘xshamas.

Yuzlaring ko‘rgach safosin xoki xijlatlar bilan,
Oyina sayqal berib, o‘zig‘a hayron o‘xshamas.

Rost bilsang shulki, jono, to bo‘lubman oshno,
Furqatingga do‘zax-u vaslingga rizvon o‘xshamas.

Ko‘zlaringga ohu-yi Chin, sochlaringa mushki chin,
Dur tishinga la’lingga la’li Badaxshon o‘xshamas.

Ulki raftoring ko‘rub, tovus bog‘larda yurub,
Aylagay taqlid etib, har chand javlon, o‘xshamas.

Sho‘xi beboke bo‘lak hojat emas qatlim uchun,
Isfahoni qoshinga shamshiri burron o‘xshamas.

Xo‘blig‘da ko‘p yoron, ammo barobar kelmagay,
Sanga ko‘rdimkim ukang ham bo‘lsa chandon o‘xshamas.

Aylamas mehrobi abro‘ying ko‘rib, ulkim namoz,
Hech mazhabda o‘zin olsa musulmon o‘xshamas.

Nogahon har she’rimi bir-bir agar olsang, Muqim,
Nazmi vasfing chiqmasa yolg‘on-u yolg‘on o‘xshamas.

---

[1] **Mirrix** — Mars sayyorasi. Jang-u jadal timsoli.

[2] **Cho‘lpon** — yorug‘ tong yulduzi.

* * *

Sensiz o‘tsa umr, mundog‘ manga jon darkor emas,
Tufroq o‘lmak yaxshiroq, ruhi ravon darkor emas.

Har qayu mahfilda[1] vasfingni chirog‘ini yoqib,
Qilmasam zikringni kesilsun zabon, darkor emas.

Qaddi mavzuning tamoshosidin ulkim tobti zavq,
Sarv ila, billahki, tubii jinon darkor emas.

O‘rtadim ishqingda qil so‘zi nihonimdin tamiz[2],
Oshkoro aylabon oh-u fig‘on darkor emas.

Nogahon ko‘nglum uyig‘a kelsa yoding, shodmen,
Qolmag‘ay armon-u hasrat, xonumon darkor ermas.

Anbarafshon xol-u xatlar bo‘lsa pushmon bog‘bon,
Menga mundin o‘zga sayri, guliston darkor emas,

Darbadar yursam junun ko‘yida, ayb etmak nadur,
Bulbuli bexonumonman, oshiyon darkor emas.

O‘ldurursan chini abru aylasang bir noz ila,
Qatlima mijgonlaring qilmak sinon darkor emas.

Rishtai nazmig‘a isming hurfini chektim Muqim,
Mundin ortiq emdi, ta’rif-u bayon darkor emas.

---

[1] **Mahfil** — bazm, o‘tirish.

[2] **Tamiz** — aql, idrok, fahm-farosat, ziyraklik.

* * *

Gul yuzing ko'rgan kishi sayri guliston xushlamas,
Tashna, maygun lablaringga obi-hayvon xushlamas.

Rang-u ruxsor-u bu zulf-u xol-u xatkim sendadur,
Ko'rsa har kim bog'da sunbul birla rayhon xushlamas.

Kimki maygun lablaringdin topsa, jono lazzate,
Misrning achchig' naboti, obidandon xushlamas.

Bo'yla javlon aylasang har kun nazardin, ey pari,
Bo'lmag'ay odam nachuk sarvi xiromon xushlamas.

Och yuzingni, toki hayronlar qolib bo'lsa ne tong,
Kechibon Laylosidin Majnun biyobon xushlamas.

Eshitib jonbaxsh-u ruhafzo[1] kaloming qaysi kun,
Bo'ldi ko'nglum hech to'ti-yi suxandon xushlamas.

Nosiho, xush tutma dersen qoshi yolarni, Muqim,
Bu sifat mehrobni qaydoq musulmon xushlamas?

[1] **Ruhafzo** — jon bag'ishlovchi.

* * *

Uzoring bog‘i rizvondin qolishmas,
Xiroming hur-u g‘ulmondin qolishmas.

Agar yolg‘on emas, jono, kaloming,
Shirinlig‘da desam jondin qolishmas.

Latofat mavj urar har bir so‘zingda,
Tishing ham durri g‘altondin qolishmas.

Muroding bismilim, bas bir qarosang,
Nigohing tiyri mijgondin qolishmas.

Judolig‘ dardidin hijron tunida,
Sirishkim sho‘ri to‘fondin qolishmas.

Ochib chiqsang qorong‘u kechalarda,
Yuzing ham mohi tobondin qolishmas.

Netarkim kulbami qilsang munavvar,
Inonkim, hech zindondin qolishmas.

Xat-u xoling emastur xizrdin kam,
Dahoning obi-hayvondin qolishmas.

Alifdek qomating yuz qatla nozik,
Na qoldikim, desam ondin qolishmas.

Nazar qilganda nazmingg‘a Muqimiy,
Nazokatda Umarxondin qolishmas.

* * *

Injima, ey dil, gadog‘a rasmi sulton indamas,
Ko‘rmading bulbulni gulg‘a qilsa afg‘on indamas.

Lafzi jon baxshingni gulshan ichra bo‘lsa ko‘rmagan,
Nega, jono, bo‘ldi gar to‘ti suxandon indamas.

Lablari davrida ko‘rdimkim xati mastur erur,
Ushbu mazmun birlakim bu obi-hayvon indamas.

Har dam ag‘yor ahlig‘a qilg‘on takallum noz ila,
Bizga ul mahvash ko‘targanmuki Qur’on indamas.

Bor etkay boisi jurming tag‘oful demakim,
O‘tmasa mandin agar chandiki nuqson indamas.

Indamas gul chehralarning dahr aro ko‘rdim barin,
Ko‘rmadim hargiz saningdek nomusulmon indamas.

Rahmi yo‘q, zolim tabiat dilrabog‘a uchradim,
Garchi qilsam jonimi yo‘lida qurbon indamas.

Xastai bemor bo‘lsa notavon hijron ila,
Shundoq odam holig‘a qandoq musulmon indamas.

Oy-u yil Ya’qubdek hasrat chekib qon yig‘ladim,
Zarra parvo qilmas ul xurshidi Kan’on indamas.

Nogahon, guftor och, deb iltimos etdim labing,
Manga ul sho‘x aydikim: “La’li Badaxshon indamas”.

Zeb berdim nazm ila ismi gulistonin Muqim,
Bovujudikim, manga sarvi xiromon indamas.

* * *

Ma'lum o'lg'ach safhai husningda, ey jonona, xat,
Ko'runur rayhon-u sunbul bog' aro afsona xat.

Yuzlaring may tobidin chun otashi so'zon edi,
Turfa bebokona chiqmushdur, magar devona xat?

Rahm ham darkor, kelmas zarrae parvoyingga,
Qilsa ham kim kecha-kunduz g'am bilan g'amxona xat.

Hech ilinmasdin bo'lak ham chora topkaymu kishi,
Bo'lsa jodu ko'zlaring sayyod-u, dom-u dona xat.

Zulfi mushkiningni tahrir ayladi to kimki so'ng,
Oshno xatlar ko'zumga uchragan begona xat.

Mehri ruxsoringni atrofini olmish holavor,
Chiqmayin bo'lsun iloho xonasi vayrona xat.

Dillarini chok-chok etmish qazo bu jurmidin,
Qo'yg'och ustig'a qadam mashshota go'stoxona xat.

Mazrai nazmimdin ochilg'ach guli (vasfing), Muqim,
Qildi bulbuldek fig'onimni ajab mastona xat.

* * *

Jahon bog‘ida ham gulgun qabolar bor ekan mundog‘,
Olib ko‘nglungni so‘rmas, dilrabolar bor ekan mundog‘.

Ne nuqs husnig‘akim o‘tkanda deb o‘tsa xayolida:
Yo‘limda rang-u ro‘yi qahrabolar bor ekan mundog‘.

Qachon tutkay edim, ahboblar, gulchehralar nomin,
Agar bilsam edi javr-u jafolar bor ekan mundog‘?!

Necha so‘zi dil izhor aylasangiz, qilmagay parvo,
Asarsiz, mustajob o‘lmas duolar bor ekan mundog‘.

Ko‘runub ishq oson, boshlarimga tushdi bildimkim,
Judolig‘da qiyomat mojarolar bor ekan mundog‘.

— Mashaqqatlar chekib hajrimda ne kechdi, —
demas, — holi,
Yomon begonadin ham oshnolar bor ekan mundog‘.

Muqimiy nega afgor o‘lmasun ko‘nglung nishon aylab,
Otarg‘a tiyri mijgon, qoshi yolar bor ekan mundog‘.

* * *

Dilbaro ta'xir[1] qilmasdin bir on kel ertaroq,
Muntazir bo'lmakka yo'q jism ichra jon kel ertaroq.

Gar bu oqshom to sahar san birla taskin topmasam,
Ishq o'tiga kuyda mag'zi ustixon, kel ertaroq.

Siynalar afgor hijroning bilan boz ustig'a
Xanjari noz ila qilmay imtihon, kel ertaroq.

Hojat ermas o'zga shamshir istamak qatlim uchun,
O'q otarg'a kipriging, abro' kamon, kel ertaroq.

Kecha-yu kunduz visoling orzusinda umr o'tib,
Fe'l-u atvoringni sog'indim yomon kel ertaroq.

O'zgalar nomehribonlig' birla tashlab ketdilar,
Boshing haqqi sen bo'lubon mehribon kel ertaroq.

Eshitib hasrat Muqimiydin, nigoro, bu kecha,
Garm[2] suhbat birla to vaqti azon kel ertaroq.

[1] **Ta'xir** — keyinga surish, paysalga solish.
[2] **Garm** — issiq, qizg'in.

* * *

Mo‘y muborak sayridin, ey sho‘x, ruxsoring kerak,
Xalq maqsudi tamosho, menga diydoring kerak.

Sha’ m beparvona hech xandon furug‘e bo‘lmag‘ay,
Bo‘lsa husning ziynati, albatta, xushtoring kerak.

Yuz ochib qilg‘il takallum bog‘ aro gasht aylasang,
Orazing bulbullara, to‘tig‘a guftoring kerak.

Borida mundog‘ matoi husni haq oro bilan,
Ro‘zi bozoring erur, o‘tmay xaridoring kerak.

Sajda qilsun-qo‘ysin emdi ul qoshing mehrobig‘a,
Bo‘yla tarsog‘a bo‘lurkan zulfi zunnoring kerak.

Qildi chashmi bad Muqimiy da’fig‘a ta’viz[1] uchun,
Bu g‘azalni toqqali kokilg‘a tummoring kerak.

[1] **Ta’viz** — tumor.

* * *

Ey yaxshilar, kelayluk, bir joyga yig‘ilaylik,
O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik.

Bu umr ekan baqosiz, dunyoyi dun vafosiz,
O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik.

Xush kechgan dam g‘animat, ko‘p chekma ranji zahmat,
O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik.

G‘amdin qurib majolim, yo‘q emdi zarra holim,
O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik.

Xalloq[1] bandaparvar, qo‘y qilma vahmi mahshar,
O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik.

Jo‘sh ursa bahri rahmat[2], jurming tamomi tuhmat,
O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik.

Gulbog‘larda xurram, borib tur emdi biz ham,
O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik.

Ol pardani yuzingdin, yur o‘rgulay ko‘zingdin,
O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik.

Ey sho‘x ushlashib qo‘l, kelsangchi toki bir yo‘l,
O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik.

Aylab g‘amingda giryon, tutting demayki, ey jon,
O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik.

Yig‘labki maqsud hosil, bo‘lmas Muqimiy tokay,
O‘ynaylik, kulaylik, shukr qilaylik.

---

[1] **Xalloq** — Xudo, Xoliq.

[2] **Bahri rahmat** — rahmat dengizi.

* * *

Kelsang, ey yor, bir ulfatlashaylik,
Solib bo'yningga qo'l hasratlashaylik.

Necha muddatki mushtoqi jamoling,
Kel, ey nozik badan, suhbatlashaylik.

Burung'i javr-u bedodingdin, ey sho'x,
Kel, emdi eshitib, minnatlashaylik.

Payo-pay[1], soqiyo, tut jomi maydin,
Meni mast etki, bir ishratlashaylik.

Xudo solsa ko'ngulga tavfi Ka'ba,
Bilmaymiz yig'lashib, himmatlashaylik.

Kuyar jonim firoqing do'zaxinda,
Visoling bog'ida jannatlashaylik.

Banogoh tortsangiz hamyozai noz,
Qilib el rasmini sunnatlashaylik.

Sayid xalqi payambar olidindur,
Keling, ey do'stlar ummatlashaylik.

Visolingg'a yetolmay zor tokay,
Junun dashtida bir g'urbatlashaylik.

Rafiqlar manzili maqsudga yetgay,
Biz ham orqasidin sur'atlashaylik.

Muqim, monandi bulbulvash navo chek,
Ki to gul vasliga, qurbatlashaylik[2].

[1] **Payo-pay** — ketma-ket.

[2] **Qurbat** — yaqinlik, mahramlik.

* * *

Ey kifrik, o‘q oturg‘a abro‘ kamon muborak,
Bas, bir paring emasdur boqasdi jon, muborak.

Gul-gul yonub hayodin, odob bilan yururda
Qildi duoyi joning pir-u javon, muborak.

Nogah chamanda qilgach tovusdek xiromon,
Sarv o‘ldi banda ko‘rgach, nozuk miyon muborak.

Novaklaring dilig‘a oshiqlaringga malham,
Hosid[1] ko‘zin o‘yarga har bir zabon muborak.

Har erta rasta yuzdin parda ochib kelurga
Xalq oftobi xovar aylar gumon, muborak.

Ag‘yor bilmasun deb ishq-u muhabbatimni
Qildim bukun, Muqimiy, eldin nihon, muborak.

[1] **Hosid** — hasadchi.

* * *

Ey pari, naylar manga ham oshnolig‘ aylasang,
Shum raqiblardin, boshing haqqi, judolig‘ aylasang?

Sanga mankim, mehrlar qo‘ydum muhabbatlar bilan,
Manga ham Qur’on ko‘tarsang — bevafolig‘ aylasang.

Muddate bemori ishqingman yo‘lungda intizor,
Ne bo‘lur holim so‘rab, bir avliyolig‘ aylasang?

Oy xijolatda, nechuk chiqsun bu oqshom, dilbaro,
Sanki husnungni bu mezonda safolig‘ aylasang?

Lofi donish urma, xomushlig‘da istarsan kamol,
Norasolig‘, norasolarga rasolig‘, aylasang.

Xasta, dilafgor xushdoringga aylab iltifot,
Ey Masihodam, na nuqson, jonfizolig‘ aylasang?

Nogahon uyqungda o‘psam, uyg‘onib qolib Muqim,
Joyiga ohista qo‘ysam — norizolig‘ aylasang.

* * *

Uqubatlarg‘a solding, qaydi hijron aylading ketding,
Jamolingga misoli ko‘zgu hayron aylading, ketding.

Bahor ayyomida nazzora aylab dasht-u sahrog‘a,
Tamomi lolalarni(ng) bag‘rini qon aylading, ketding.

Dahoni — g‘uncha, ey nozik badan guldin, beli qildin,
Mani tun-kun chu bulbul sohib afg‘on aylading, ketding.

Falak ko‘ngulni afgor etdi javr aylab kaj erdikim,
Ani ustig‘a zulfungdek parishon aylading, ketding.

Tifoqan bog‘ aro kirdim, chiqor g‘avg‘oki gullardin,
Yuzung ko‘rsatingu choki giribon aylading, ketding.

Eshikingda borib faryod-u dod etsam iloji yo‘q,
Tiriklay o‘lturub bu yerda pinhon aylading, ketding.

Hakimo, munda bemoring qolib, o‘z oshnolardin,
Borib, begonalar dardig‘a darmon aylading, ketding.

Xaridori talabkoringga ko‘p qiymat baho aytib,
Bo‘laklarg‘a visoling bazmin arzon aylading, ketding.

O‘shal kun va’da birlan shod-u xurramlar qilib oxir,
Raqiblar birla emdi ahdu paymon aylading, ketding.

Na bo‘lg‘ay oshsa qadri bir nazar solsang qulungni ham,
Qarab bir qatrag‘a chun durri g‘alton aylading, ketding.

Muqim har yerdi xo‘blar durri vasfin donasin chekting,
Chu nazming rishtasin tasbihi marjon aylading, ketding.

* * *

Shitob aylab kelib bir kecha shaydo qilding-u ketding,
Ko‘zimning yoshini hajringda daryo qilding-u ketding.

Uzib tobora-bora oshnoliq rishtasin oxir,
Bugun begonalar sorig‘a parvo qilding-u ketding.

Gunohim ne edikim bir yo‘li ahvolimi so‘rmay,
Boshimg‘a sho‘rishi mahsharni paydo qilding-u ketding.

Xadangi novaki mujgonlaring birla solib raxna,
Davosiz zaxmlarni ko‘nglima jo qilding-u ketding.

Raqibi ro‘siyahlar bazmida to subh har oqshom,
Qolib zulmatda man, san shamdek yoqilding-u ketding.

Ochib mundog‘ matoi husn qadrin bilmaganlarga,
Darig‘okim, saxiysan nasya savdo qilding-u ketding.

Necha muddat erur hajr o‘tig‘a yoqib Muqimiyni,
Bu yanglig‘ xasta zor-u besorupo qilding-u ketding.

* * *

Husn ila mundog‘ chiqib sahroda raftor aylading,
Vahshilarni bil muqarrar mahvi[1] ruxsor aylading.

Xush takallumlar bilan to‘tini tovuslar bilan,
Gung-u lol aylab ajab hayroni guftor aylading.

Muslim ahliga qilib, qoshlarni mehrobi namoz,
Zulf-u kokillarni tarsolarga zunnor aylading.

Jilvalar birlan nazarlarda nigoro oqibat,
Gar musulmonsan inon, jonoki, xushtor aylading.

Dilbaro, mundog‘ safarlarga ketib bir necha vaqt,
Yo‘llaring uzra meni sog‘intirib zor aylading.

Nogahon jono, Muqimiy sori qilding nimnigoh,
Go‘yiyo vayronai xayreni me’mor aylading.

[1] **Mahv** — hayratda qolib o‘zidan ketish.

* * *

Nigoro, benihoyat sog‘inib erdim, bajo kelding,
O‘lar holatka yetkanda misoli avliyo kelding.

Zuhur etmay muruvvat zarra bul begonavashlardin,
Yamon mag‘mum edim man, xayriyat, san oshno kelding.

Parishon aylasang kokillaring mushki totorini,
Ajab aylab karomat yaxshi kelding, xush safo kelding.

Munavvar aylabon ojiz edi hajrimda yig‘lar, deb
Qilurga xoki poyingni ko‘zumga to‘tiyo kelding.

O‘shal hangom ketting mundin-u, behad alam tortib,
Ramaqqa jon yetushkan vaqtda ayni muddao kelding.

O‘parga qo‘llaring vaqti muloqotim, darig‘okim,
Chiqarmay yengdin ilking yoki bog‘labsan xino, kelding.

Nizoma kelsa oshiqlar, Muqimiy, ehtimol emdi,
Ko‘ngul mulkini tasxir[1] etkali san podsho kelding.

[1] **Tasxir** — egallash, o‘z amriga tobe qilish.

* * *

Xo‘b bo‘ldiki mardumdin, kelganda nihon kelding,
Bu murda tanim ichra monandai jon kelding.

Jonoki, o‘shal ketding, emdi yana kelgay deb,
Yo‘q erdi ko‘ngillarda bir zarra gumon, kelding.

Ishq o‘tig‘a bag‘rimni behuda kabob aylab,
Kim birla ichib boda mastona kayon kelding.

Arziydur agar ko‘kka tashlasa ko‘lohini,
Joyiga gadoyingning san shohi jahon kelding.

Yuz va’da qilib kelmay ushshoq harimig‘a,
Qolganda raqiblarg‘a chun obi ravon kelding.

Bir shom-u sahar paymon qilding-u Muqimiyga,
Na shomlari kelding, na vaqti azon kelding.

* * *

Zulfingizni, Layli oraz, benahor aylab keling,
Yo‘qingizda oy-u kunni beqaror aylab keliig.

Kunda tunni ko‘rsatib, olam elin hayron qilib,
Qomatingizdin qiyomat oshkor aylab keling.

Poyingizni azbaroyi xotiri vayron chekib,
Bizni ham ishq ahli xaylida shumor [1]aylab keling.

Kunduzi kelmoqingizg‘a bo‘lsa gar mone’ uyat,
Kechasi yulduzdin oyni sharmisor aylab keling.

Shevai ma’shuqlig‘ni bilsangiz gar ishq aro,
Chunki qo‘ydingiz meni ummidvor aylab keling.

Dargahingizda agar chandi raqib o‘lsa Muqim,
Azm etib bul yong‘a oni intizor aylab keling.

[1] **Shumor** — sanoq, hisob.

* * *

Dilbaro, kelganda ko‘p ham intizor etmay keling,
Siynalar majruh, ustig‘a figor etmay keling.

Kuygani yetmasmu ko‘nglim otashi hijron bilan,
Boz kuygan jonni zor-u beqaror etmay keling.

Pardalar ruxsoringizga tashlab azro‘yi hayo,
Ko‘rsatib ag‘yora o‘zni oshkor etmay keling.

Sho‘xi bebokona sochlarni parishon aylabon,
Xalqni shaydoi-yu, zor-u nazor etmay keling.

Suv sepib ko‘z yoshidin, qo‘ydim yo‘lingiz tozalab,
To kelur vaqtida domanni[1] g‘ubor etmay keling.

Yuz ochib yakbora bu afsurda dillarni so‘rab,
Kim dedikim: chillalarni navbahor etmay keling.

Bo‘yla kelmakdin ne sud oxir, Muqimiy kelsangiz,
Muntazir aylab sirishkim[2] shash qator etmay keling.

[1] **Doman** — ko‘ylakning etagi.
[2] **Sirishk** — ko‘z yosh.

* * *

Kelsangiz gar shahr ko‘p ham intizor etmay keling,
Kelmayin, sho‘ri qiyomat oshkor etmay keling.

Yo‘llaringizda bu yanglig‘ yig‘latib, termulturub,
Muntazir ashkimni bahri bekanor etmay keling.

Men borurg‘a notovon, onsiz bilursiz o‘zingiz,
Ustig‘a ko‘z yetkurub, ko‘rmakka zor etmay keling.

Andijonlarga ketib, yetmasmu o‘lturgoningiz,
Boz qiynab o‘ltururni ixtiyor etmay keling.

Qish havosi bir siri-chiqmaydi Furqat xullasi,
Kim dedi oxirki, emdi navbahor etmay keling.

Qatra tamkindin guhar bo‘ldi, agarchi, dilrabo,
Lek bu to‘g‘rida tamkin-u viqor etmay keling.

Bir gulingiz o‘n gulingizdin ochilmasin Muqim,
Muncha ham chun bulbul ohim pursharor etmay keling.

* * *

Ichma maykim, oshiqa zulm oshkor aylar ko‘zing,
Qonlarin to‘kmakni nohaq ixtiyor aylar ko‘zing.

Bo‘lmas ersa qasdi gar qatlim qoshing shamshirini,
Necha javhardor-u[1] o‘tkur obdor[2] aylar ko‘zing.

Kofir ermas gar qaro kiygan iki mardumlaring,
Muncha mundog‘ nomusulmonlig‘ shior aylar ko‘zing.

Umrlar ovorai dashti Xo‘tondurlar, magar
Ohuni shahlolig‘idin sharmisor aylar ko‘zing.

Xoli mushkin[3] halqai kifrikdin aylab tanob,
Qoshni yo osmakka oshiqlarni, dor aylar ko‘zing.

Gar otishmaslar xating abro‘[4] bilan zebolashib,
Ne uchun davrig‘a mujgondin hisor[5] aylar ko‘zing.

Vasl aro masti nigoh erdi Muqimiy, furqating
Chektirub hamyoza[6] emdi badxumor[7] aylar ko‘zing.

---

[1] **Javhardor** — yaltiroq, porloq.
[2] **Obdor** — sayqal berilgan, qayrab o‘tkir qilingan.
[3] **Mushkin** — mushk hidli, xushbo‘y.
[4] **Abro‘** — qosh.
[5] **Hisor** — devor, qal’a, qo‘rg‘on.
[6] **Hamyoza** — esnash.
[7] **Badxumor** — nihoyatda mushtoq, o‘ta mayparast.

* * *

Tavqdoring[1] sarvi qumridor aylansun quling,
Beqaroring kabki xushraftor aylansun quling.

Ol niqobingni, nigoro, bog‘ aro az ruyi noz,
Orazingni ko‘rmaka gulzor aylansun quling.

Hech bir bo‘lmas muattar jon mashomi, ohkim
Kokilingdin nofai totor aylansun quling.

Rang-u, ruxsor-u, nazokatlarki, jono, sandadur,
Mo‘min ermas aylagan inkor, aylansun quling.

Xo‘blig‘ mulkida sultonlig‘ musallamdur sango,
Qilsa da’vo o‘zgalar bekor, aylansun quling.

Uchrasang bilfarz ming yo‘l ko‘cha-ko‘ylarda agar,
Yo‘q ilojikim demay har bor, aylansun quling.

Nogahon qolmas edi hargiz Muqimiyni(ng) kami,
Ko‘rganida bir borib diydor, aylansun quling.

[1] **Tavq** — bo‘yindagi halqa.

* * *

Ol yuzingdin parda diydoringdin o'rgulsun quling,
Hur yanglig' fe'l-u atvoringdin o'rgulsun quling.

Boshlaringdin o'rgulub yuz shavq ila parvonalar,
Bazmlarda sha'mi ruxsoringdin o'rgulsun quling,

Ko'zlaring ovorasi umre g'azoli Chin [1]bo'lub,
Nofa [2]zulfi anbarin boringdin [3]o'rgulsun quling.

Bulbuli sho'ridai bebol-u parman[4] ayrilib,
Ochilib o'lturki, gulzoringdin o'rgulsun quling.

Qil yurish kabki dari [5]bo'lsun xiroming sadqasi,
Xush takallum to'ti guftoringdin o'rgulsun quling.

Lablaringni rashkidin la'li Badaxshondur[6] xijil,
Tishlaringmu durri shahvoringdin[7] o'rgulsun quling.

Zori dil, noahllarg'a[8] qilmog'il fosh, ey Muqim,
Bulhavaslar sirri asroringdin [9]o'rgulsun quling.

---

[1] **Chin** — Xitoy ohusi.

[2] **Nofa** — kindik. Bu yerda ohuning mushkli kindigi. Chunki mush ohulardan birining kindigidan hosil bo'ladi. Mushk beradigan ohular Xitoy, Xo'tan, Hindistonda bo'ladi.

[3] **Anbarin bor** — anbar sochuvchi, xushbo'y hid taratuvchi.

[4] **Bebol-u par** — par-u qanotsiz.

[5] **Kabki dari** — tog' kakligi.

[6] **La'li Badaxshon** — la'lning eng qimmatbaho navi bo'lib, Badaxshon tog'larida hosil bo'ladi.

[7] **Durri shahvor** — shohona, qimmatbaho dur.

[8] **Noahl** — nokas, tuban.

[9] **Asror** — sirlar, yashirin narsalar.

* * *

Husn mulkida tajammul[1] pesha[2] sultonsan o‘zing,
Ham malohat burjida xurshidi tobonsan o‘zing.

Ulki bir kelding karamlar aylabon, yo‘qlab hanuz,
Ko‘z uyida mardumim, jismimdagi jonsan o‘zing.

Muddate bu bog‘ aro bir-bir yurib soldim nazar,
Bir yuzi — gul, zulfi — sunbul, xatti — rayhonsan o‘zing.

Dog‘men: ta’bingni chog‘ etmak qo‘limdin kelmadi,
Hojati izhor emas holimni bilgonsan o‘zing.

Xush na sa’d ayyom bulkim ko‘rushub, har subh-u shom,
Ro‘zgorim yorutib, sha’mi shabistonsan o‘zing.

Bu duogo‘yingni har yerda faromush aylamay,
Ahd etib ketsang degil oldimda paymonsan o‘zing.

[1] **Tajammul** — dabdaba, shohona, hashamat.
[2] **Pesha** — odat, hunar, kasb.

* * *

Borib qishloq, kelibsiz, deb eshitdim, mahvasho, hormang,
Qilibon ketdingiz ishq o‘tini ko‘ngulga jo hormang.

Judolig‘ otashiga kuydurib az ro‘yi [1]istig‘no,
Qadimni g‘am yukidin aylabon oxir duto hormang.

Suxandon to‘tilarni lol aylab bir takallumda,
Tamosholar qilib sahroni, ey shirin ado hormang.

Turalmay dog‘i hasratlar bilan savdoyilar bo‘ldim,
Meni mundog‘ qilibsiz ro‘zgorimni qaro hormang.

Tag‘ofullar yuzidin qo‘llari sorig‘a boqmasdin,
Bo‘lursiz muncha ham begonalar nooshno hormang.

Chiqib har kun guzarga yig‘lasam eldin nihon aylab,
Bu yanglig‘ muntazir aylab meni shom-u sabo hormang.

Murodi orazi bir ochsangiz diydoringiz ko‘rsa,
Muqimiykim qilibdur bu g‘azalni muddao hormang.

[1] **Az ro‘yi** — yuzidan.

* * *

Ey pari, ruxsor ochib, devona qilmay qo‘ymading,
Xalq arosida yana afsona qilmay qo‘ymading.

Sohiradursen magar zulfingni sunbul aylayub,
Lablaring la’l-u, tishing durdona qilmay qo‘ymading.

Soqiyo, davringda davron masti jomu komyob,[1]
Navbatimni bir quruq paymona[2] qilmay qo‘ymading.

Bazmlarda sha’mi ruxsoringni yuz alvon[3] yoqib,
Ishq ahlin kuydurib, parvona qilmay qo‘ymading.

Tiyri mujgonlar otib har dam kamon abro‘[4] bilan,
Dillarimni to buzub vayrona qilmay qo‘ymading.

Ko‘zlarimcha o‘zgalarga yuz ming aylab iltifot,
Ko‘nglimi ma’yus etib, g‘amxona qilmay qo‘ymading.

Har gul ayyomi Muqimiy ofarin beixtiyor,
Misli bulbul nolai mastona qilmay qo‘ymading.

[1] **Komyob** — baxtli, tole’li, davlatli.
[2] **Paymona** — qadah, may piyolasi.
[3] **Alvon** — rang-barang, turli-tuman.
[4] **Kamon abro‘** — qoshi kamon.

* * *

Maxfiy ayla orazing to kuymasun shaydolaring,
Qoshlaring go'yo kamon o'q otmasun mujgonlaring.

Lahzai boqsang agar bo'lg'ay yurak sadporalar[1],
Kul bo'lib to kuymasun hajring aro kuygonlaring.

Muncha ham shirin suxandur bergusi talxi[2] javob,
Qilmasun bismil hama go'yo zabon[3] burronlaring[4].

Doimo dashnom etib boqsang, nigoro, qayrilib,
Dini islomi ketar ko'rgan zamon xandonlaring.

Ko'zlaring jallod o'lub qilg'ay havola xanjarin,
O'lmasun zulming bilan ishqing aro hayronlaring.

Ochmag'il parda, pari, to kuymasun parvonalar,
Otashi ishqing base kofi [5]erur yoqqonlaring.

Har tarafga tashlabon ochilmasun gul g'unchasi,
Erta-kech qilg'ay navo bulbul kabi nolonlaring.

Oh ishqingni yutib bag'ri kabob bo'lgan Muqim,
Bo'lmag'ay mundek jafo-u hajr aro giryonlaring[6].

---

[1] **Sadpora** — yuz pora, chok-chok bo'lib ketgan.
[2] **Talx** — achchiq
[3] **Zabon** — til, nutq.
[4] **Burron** — o'tkir, keskir.
[5] **Kofi** — kifoya qilarli.
[6] **Giryonlar** — yig'lovchi, yig'lab turuvchi.

* * *

Qatlima mujgonlaring tiyr-u kamondur qoshlaring,
Kecha-kunduz muncha, jono, qasdi jondur qoshlaring.

Yuzlaringni oftobidin chidolmay talxig'a
Yo magar ko'z mardumig'a soyabondur qoshlaring.

Ko'rgan odam nimbismil bo'lmasa mumkin emas,
Saxti[1] burrolig'da tig'i Isfahondur[2] qoshlaring.

Ko'zlaring cho'lpon, qarolig'da soching shomi siyoh,
Orazing oydin, munavvar osmondur qoshlaring.

Bulajab mehrobkim, umri musulmon bo'lmag'ay,
Ikki kofir nargisingga oshyondur qoshlaring.

Kammudi xunrezlig' maydonida kifriklaring,
Ustig'a mundog' yana sohibqirondur[3] qoshlaring.

Turfa mehrobe, Muqimiy, aylayub gohi namoz,
Har duoekim o'qurman, tarjimondur qoshlaring.

---

[1] **Saxt** — qattiq.

[2] **Tig'i Isfahon** — Isfahon qilichi.

[3] **Sohibqiron** — 1. Baxtli, jahongir. 2. O'zgalardan ustun, boshqalarga soya soladigan.

* * *

Surma qo‘ymay muncha ham, jono, qaro mujgonlaring,
Har biri jon qasdiga tiri balo mujgonlaring.

Sho‘x uchun ko‘zlar qazo davriga chekkan qo‘ramu,
Qochmasun deb ushbu ohuyi Xito mujgonlaring.

Yuzlaring subhi savodi shom zulfing sunbuli,
Ko‘zlaring oqshom magar, vaqti isho mujgonlaring.

Qoshlaring mehrob, chashming mardumi oyo imom,
Saf chekib, chun qavm qilmish iqtido mujgonlaring.

Kofiri sayyodmudur mardumlaring, abro‘ kamon,
Bismil aylarga qo‘lida o‘q-u yo mujgonlaring.

Notavon ko‘ngillarim har boqishingda sanchilib.
Zaxmidin holi emas sar to ba po mujgonlaring.

Tutmag‘il gohi Muqimiydin nigohingni darig‘,
Ojiz-u aftodaga go‘yo aso mujgonlaring.

* * *

Surma qo‘ymay muncha ham, jono qarodur ko‘zlaring,
Har biri jon qasdig‘a boqqan balodur ko‘zlaring.

Oshno begonalarga, bir umr xush-xush nigoh,
Oshnolarga g‘araz nooshnodur ko‘zlaring.

Boqmag‘ay oshiqqa sahvan[1] ham qiyo, faryodkim,
Rasm-u oyini magar javr-u jafodur ko‘zlaring.

Ohuyi chin[2] ko‘rdi-yu shahlolig‘idin qon yutub,
Rashkdin ovorai dashti Xitodur, ko‘zlaring.

Nargisi mastingdin uzmak mumkin ermas diydani,
Yoki mujgon [3]davrida mehri giyodur ko‘zlaring.

Intizor aylab o‘zi ham, ajrig‘a oyinasi,
O‘z jamolini ko‘rolmasdin adodur ko‘zlaring.

Qumri sarvi qadd-u, bulbul gul yuzingning volasi[4],
Men Muqimiyga hamisha muddaodur ko‘zlaring.

---

[1] **Sahvan** — yangilanish.
[2] **Ohuyi chin** — Xitoy ohusi.
[3] **Mujgon** — kiprik, mijja.
[4] **Bolasi** — oshiq, maftun.

* * *

Muddatedurkim manga, ey Tubi paykar [1]qomating
Oldida manzur emas olamda dilbar, qomating.

Lahzae bo'lg'il xiromonkim qilur da'vi ko'rib,
Shoxi sinsun bog' aro sarvi sanovbar qomating.

Otashin sarxonae[2] ko'ksum, nayi nolam baland,
Maskanim gulxan kuli, qildi samandar[3] qomating.

Jilva aylab kiydurub, oxir, kuloh-u jandalar,
Takyada qilsa ne tong emdi qalandar qomating.

O'zgaga moyil hamisha oshiqidin munharif[4],
Loaqal adl ila tursaydi barobar qomating.

Nega bulbuldek fig'on-u nola qilmay subh-u shom,
Gul yuzungga zor o'lub, bo'lmas muyassar qomating.

Xalq arosida bu yanglig' mast javlon aylasang,
Qo'rqaman qo'zg'atmagay deb sho'ri mahshar, qomating.

O'ylasam mavzunlig'ingni yod etib, hayron qolib,
Ko'zlarimni aylagay chun halqai dar, qomating.

Ne ajab shah bayt o'rnig'a, Muqimiy, o'qisang
Baski nazmim boshida bir (toji) afsar qomating.

---

[1] **Tubi paykar** — jannatdagi rang-barang mevali va xushbo'y sersoya daraxt.

[2] **Sarxona** — chilimning tamaki solib tutatiladigan qismi.

[3] **Samandar** — afsonaga ko'ra olovda tug'ilib va olovda o'ladigan, rangi han olov rang jonivor.

[4] **Munharif** — aynigan, o'zgargan, xasta.

* * *

Xatt-u xolin yo‘qki siz husnig‘a nuqson chiqti deng,
Balki gul davrig‘a sunbul birla rayhon chiqdi deng.

Va’dai vasl etti — ketti uchraganda qosido[1]!
Ul sumanbar ahd-u paymonlari yolg‘on chiqdi deng.

Ochibon ruxsorini nogoh oqshom chiqsa yor,
Begumon, ahboblar, xurshidi tobon chiqdi deng.

Jilvai noz ila chiqqach bog‘ soridin nigor,
O‘zga bilmang sarvi navxizi[2] xiromon chiqdi deng.

Har qachon chiqsa tutib ul sho‘x ag‘yor ila qo‘l,
Go‘iyo gabreni hamrohi musulmon chiqdi deng.

Xush dimog‘ aylar kelib har dam nasimi yo magar,
Ul pari paykar qilib zulfin parishon chiqdi deng.

Ey sabo, zinhor o‘shal gulg‘a meni bulbul kabi,
Kecha aylab to sahar faryod-u afg‘on chiqdi deng.

Nogahon harf olib, har bayt she’ridin Muqim,
Nomini albatta, ul mahbubi davron chiqdi deng.

[1] **Qosido** — elchi, xabar keltiruvchi, xabarchi.
[2] **Navxiz** — yangi ungan.

* * *

Podshoh yo‘qlatsalar nogah, gado deb axtaring,
Tutmang hargiz nomimi, baxti qaro, deb axtaring.

Kimsa bilmaydur mani, nom-u nasab qilsang bayon,
Lola yanglig‘ dog‘i g‘amga mubtalo, deb axtaring.

Layli topg‘il, desalar, Majnuni sargardonini(ng),
Ko‘zlarining yoshidur rangi xino, deb axtaring.

Istagan chog‘da topay deb, bo‘lsa ko‘ngilda xayol,
Qomatidur bori mehnatdin duto, deb axtaring.

Hajr vodiysida kezgay doimokim xo‘blar[1],
Xoki poyidur ko‘ziga to‘tiyo, deb axtaring.

Bir shakarlab, zulmparvar hasratidin, do‘stlar,
Umrlar umri charog‘i beziyo, deb axtaring.

Dahr zulmidin sirishki tinmay oqib aylanur,
Charx javridin boshida osiyo, deb axtaring.

Tolei shum, vojgun baxt-u g‘izosi dard-u g‘am,
Notavon mo‘ri zaifdin benavo, deb axtaring.

Yor vaslig‘a yetolmay qolmish ulkunkim Muqim,
Ushbu boisdin o‘lumig‘a rizo, deb axtaring.

[1] **Xo‘blar** — yaxshilar.

* * *

Bir yo‘l aylab subh shomim, ey qamar ruxsor, kel,
Ro‘zgorim aylamay mundog‘ qorong‘i tor, kel.

Ruh ochib so‘yi chamandin gul o‘zig‘a faxr etar,
Sharmsor o‘lsun ko‘rubon aylanib bir bor kel.

Har qachon chiqsang, nigoro, bog‘ sori lof urar,
Kabk ila tovuslarga ko‘rsatib raftor kel.

E’tibor olib o‘zini la’l da’volar qilur,
Sindirib qadrini el ichra qilib bekor kel.

Nogahon ovlab ko‘ngullarni o‘zingga, dilbaro,
Har kuni bir bor aqalli yakka beag‘yor kel.

Xurram-u xandon qizil guldek qizorib, ochilib,
Qilmayin sog‘intirib ko‘p ham ko‘rarga zor kel.

Aylabon lutf-u karam, kelmoqchi bo‘lsang, mahvasho,
Surmalar tortib, qilib nargislaring xummor, kel.

Nazmi ta’viz o‘rnig‘a o‘tsa, Muqimiy, tong emas,
Xush yaroshur kokilingga taqqoli tumor kel.

* * *

Hajri — do‘zax oshiqiga, vasli — rizvondur o‘shal,
Mag‘firat rahming, tamug‘ javringki so‘zondur[1] o‘shal.

El topar har dam kalomingdin hayoti toza jon,
Lab-Masiho yo dahoning obi-hayvondur o‘shal,

Shevai noz ilakim ko‘zguya boqting, ey pari,
Ul kun emdi to qiyomat mahvi hayrondur o‘shal.

Mehri ruxsoring xayolidur tamoshoyi chaman,
Ey Eram bog‘i jamoling zulfi rayhondur o‘shal.

Jilva birlan rastalar ichra xirom etsang agar,
Hashmating ko‘rgan demasmu “Qaysi sultondur o‘shal?”

Nakhati mehru vafo yetkurdi anbar kokuling,
Der iki fatton ko‘zingkim: “Mahzi yolg‘ondur [2]o‘shal”.

Aylading bismil chiqarmay qon, qoshing tig‘i bilan,
Angakim suv berdi mundog‘, muncha burrondur o‘shal?

Navbahor ochilsa gar lola dema hajring tuni,
Necha turlik ko‘zdin oqqan har biri qondur o‘shal.

Bo‘y erur shabnam emas bargida gul ko‘rgach yuzing,
Chekdi xijolat rashkidin choki giribondur o‘shal.

Safhai vasfing zarafshon qildi nazm ila Muqim,
Dermukin deb: “Lutf etay az baski mehmondur o‘shal”.

---

[1] **So‘zon** — yonayotgan, kuyayotgan, yonib turgan.

[2] **Mahzi yolg‘on** — g‘irt yolg‘on.

* * *

Orazingni, ey mahvash, bog‘ aro namoyon qil,
Lola ko‘ksini dog‘ et, g‘uncha bag‘rini qon qil.

Ko‘rsatib banogohi qoshlaringni mehribon,
Shuncha yilg‘i zohidni zuhdidin pushaymon qil.

Har taraf chamanlarda lof urar xiromig‘a,
Kabk to xijil bo‘lsun, jilva birla javlon qil.

Man ham o‘zgaga jono, yor bo‘lmayin emdi,
Bas inong‘udek san ham ahd birla paymon[1] qil.

Hajr aro qolib sansiz, saxt[2] xastamen — bemor
Bir so‘rab kelib nogoh, dardlarga darmon qil.

Gulshan ichra qaddingdin ko‘rguzub nazokatlar,
Sarv shoxini sindur, xok birla yakson qil.

Husnni zakoti chun tobakay rivoj topsun,
Har mahal Muqimiyg‘a bo‘sa narxin arzon qil.

[1] **Paymon** — ahd, va’da.
[2] **Saxt** — qattiq.

* * *

Subhidam kirib, jono, bog‘ ichinda javlon qil,
Domaning nasimidin g‘unchalarni xandon qil.

Dilbaro yozib gesu[1] har tarafga gulshanni,
Noz ila xirom aylab sahnin anbariston qil.

Yor ko‘yidin kelsa, siylab it egosini,
Ey ko‘ngul yurak-bag‘ring tashlab anga mehmon qil.

Qildi sarv noziklik qomatingga da’vosin,
Ey sanam qilib jilva kufrni musulmon qil.

Xo‘blar amirisan benavolara mandek,
Marhamat mahallidur, lutf birla ehson qil.

Oftob agar hijlat abrg‘a desang botsun,
Pardani ko‘tar yuzdin orazingni tobon qil.

Necha muddat o‘ldikim hajr ila Muqim bemor,
Ey nafas Masih oso dardlarga darmon qil.

[1] **Gesu** — soch, o‘rim soch.

* * *

Sayri bog‘ etib, jono, har tarafg‘a javlon qil,
Sarv lof urar shoxin sindirub musulmon qil.

Yurmasun tinig‘lig‘da dam urub har oyina,
Orazingg‘a har mahshar bir boqishda hayron qil.

Dog‘ siynasi sansiz g‘am bilan jigar xunrez,
Domaning nasimidin g‘unchalarni xandon qil.

Qaytib o‘zga oylardin sanga bog‘ladim ko‘ngul,
Emdi tozadin san ham manga ahd-u paymon qil...

So‘z ochib takallumg‘a bargi gul kabi labdin,
Durr-u la’l narxini xok birla yakson qil...

Xasta, notavon, ojiz qullaring so‘rab, yo‘xlab,
Ko‘zlariga gardingni surmai Sulaymon qil.

Uchrasa agar zohid qoshlaringni mehrobin,
Ko‘rsatib burun qilg‘on zuhdidin pushaymon qil.

Yuz-u ko‘zlarim topsun mahliqolar husnidin,
Gar desang, Muqimiy san, azmi Chust-u Koson qil.

* * *

Orazing ochib, jono, kechasi namoyon qil,
Oyni sharmsor aylab abr ichra pinhon qil.

Bismil aylasang mardum, chekma tig‘ uchun tasdi’,
Qoshlaring kamon tayyor, novakingni mujgon qil.

Dam-badam shirin man deb, o‘zdin oshmasun ko‘p ham,
Qand qiymatin sindur, narxi shahd arzon qil.

Ravshan etmading kulbam, yuz yo‘li borurman deb,
Kim degan sango mundog‘ va’dalarni yolg‘on qil.

Husn bog‘iga nogah tushmasun yomon ko‘zlar,
Chiqma ochibon ko‘ksing, tugmadin giribon qil.

Xurram ochilib yashnab, yuzlaringni tobidin,
Har taraf solib partav [1]bazmni charog‘on qil.

Ey pari, qiyo boqib, voqean nimang ketgay,
Necha yilg‘i zohidni zuhdidin pushaymon qil.

Uxlamaslig‘ing bilgan o‘zga shahrlik angla,
Goh bir karam aylab, mardumi Namangon qil.

Muddai bo‘lib ko‘zgu o‘zni “xo‘b tiniqman” der,
Bir qarab jamolingga xohi mahv-u hayron qil.

Navbahori husningni kel Muqimiy sayr etsun,
Sabzalar xat-u xoling zulflarni rayhon qil.

[1] **Partav** — shu’laning tushishi, yolqin.

* * *

Orazingni bog‘ aro chun ko‘rdi, hayron bo‘ldi gul,
Dog‘ o‘lub hijlat chekib, choki giribon bo‘ldi gul.

Ochibon ruxsor tokim aylading sayri chaman,
Rashkdin ochilg‘aniga ming pushaymon bo‘ldi gul.

Ro‘zi avval chekdikim pargor[1] birlan bog‘bon,
Bo‘yla ta’ziminga saf tortib, xiyobon bo‘ldi gul.

Fikr etib dil g‘unchasi ochilmas oh-u ashk ila,
Bo‘l ajab shabnam nasiming yetti, xandon bo‘ldi gul.

Xiralig‘ birlan chiqibon soda har fasli gul,
Bu uchun beorlik haqqiga bo‘hton bo‘ldi gul.

O‘zig‘a mag‘rur o‘lub lutfi nazokatda ko‘rib,
Gardani ham yo magar emdi musulmon bo‘ldi gul.

Nolalar aylab, yetishmay bulbul oxir ajrig‘a,
Bilmay o‘z qadrin, Muqimiy, muncha arzon bo‘ldi gul.

[1] **Pargor** — 1. Sirkul. Doira chizishda qo‘llaniladigan asbob. 2. Majozan: yetti qavat osmon.

* * *

Yondurub olamni, chiq, ey, otashinruxsor[1] gul,
Toki bir yutsun nafas, ochilmog'i dushvor gul.

"Vola-yu maftun-u shaydoman, — dedim, — sansiz", dedi:
"Xor bo'lsang gar ko'yimda, bo'lmag'ay bexor gul".

Lolalar maygun labingning hasratidin qon yutar,
Orazing shavqida rahm et, siynasi afgor gul.

Dog'i hijlatdin yuzing ko'rgach, kirolmas hukmina,
Bu uchun qo'ymish laqabkim bog'bon, "beor gul".

Ohkim, hijronda mundog' bor ekan dushvorliq,
Ne xush, ul kunkim, qilurdi davlati diydor gul.

Sho'xlarga muncha aldanmas edilar, xayfkim,
Tonusaydilar bu ahli rasta-yu bozor gul.

Xol-u xat ruxsoring atrofida ko'rgonlar dedi:
"Yo Rab, ekmishkim qizil gul davrida zangor gul".

Ikki mushkin zulfi anbarbo' yuzingda pech-u tob,
Halqa urmish soyasida yoki af'iy, mor, gul.

Nosiho[2], gulzor sayridin mani man' etmakim,
Ko'zga ko'runsa, netay, aksi ruhi diydor gul.

Yurmas erding san, Muqimiy, muncha ham devonavor,
Aql-u hushung olmasaydi bir pariatvor gul.

---

[1] **Otashin ruxsor** — olov yuzli.

[2] **Nosiho** — nasihat qiluvchi.

* * *

Kulma, ey bedardlar, man benavog‘a, yig‘lasam,
Ayb emas ishq ichra dardi bedavog‘a yig‘lasam.

O‘zgalarga yor-yorim, qo‘ymayinmu o‘rtanib,
Ne ajab begonalarga oshnog‘a yig‘lasam.

Zarra ta’sir aylasam ul tosh ko‘ngulga garchi kim,
Ko‘z yoshimdin aylanur ul osiyoga yig‘lasam.

Ul qaro ko‘z hasratidin cho‘l kezib Majnun kabi,
Umrim boricha ohu-yi Xitoga yig‘lasam.

Yo Rab, o‘lg‘aymu muyassar ul habibing ravzasi,
Yo‘lda yetkuncha shahidi Karbalog‘a yig‘lasam.

Avliyolar marqadin jonim bilan aylay tavof,
Shohimardoni vali mushkulkushog‘a yig‘lasam.

Ochilur botin ko‘zi gumroh man boshim uzub,
Qaysi xokipoyi yo Rab to‘tiyog‘a yig‘lasam.

Bir qaro baxtimga arziydur saropo ko‘z o‘pub,
Dahrda har yerda bir baxti qarog‘a yig‘lasam.

Sabr etay shoyad, Muqimiy, ul sanamg‘a xush kelib,
Ishq shartidin emas, javr-u jafog‘a yig‘lasam.

* * *

Oshkor o‘lg‘ay sirim holim bayon aylay desam,
Tor ko‘nglim sig‘diralmaydur nihon aylay desam.

Bu bahor birdam, darig‘o, toleyim yor o‘lmadi,
Ushlashib qo‘l sayri bog‘-u bo‘ston aylay desam.

Ishq shartidin emas sirri muhabbat bo‘lsa fosh,
Qo‘rqaman ko‘zdan sirishkimni ravon aylay desam.

Mone’i shavqim bo‘lur, ming istihola xalqdin,
Gul yuzing ko‘rganda bulbuldek fig‘on aylay desam.

Joyi oliy o‘rnig‘a bir kulbai torik-u tang,
Hayfkim ham, yo‘q takalluf mehmon aylay desam.

Ohkim, bo‘lmas muyassar qoshlaring mehrobig‘a,
Sidq ila o‘zni man ul dam musulmon aylay desam.

Naylayin sayd o‘ldi xoling donasiga jon qushi,
Bir boqib husnung, Muqimiy, imtihon aylay desam.

* * *

Ishq yo'lig'a kiray, ahboblar, man zor ham,
Shoyad o'tsa sakratib tavsan boshimdin yor ham.

Sha'mi vaslig'a sari savdo uchun berdim ko'ngul,
Va'dasig'a joni naqdinam erur tayyor ham.

Muntazirman subhi vaslin ko'rgali ul mohning,
Shomi hijronida bir kun qilmadi afgor ham.

Ayladi begonalig' yor oshnolar sorig'a,
Indamas, mehr-u muhabbat aylasam izhor ham.

Nargisi xummor edi, tortib qilich jallodvash,
Bo'lgon o'xshaydur bu asnoda magar xunxor ham.

Jumla oshiq qo'ydi ul ma'shuqa dasti bay'atin,
Aylamish mahbublarning xaylig'a sardor ham.

Iqtidori yo'qidin yuz shikva[1] zolim charxdin,
Manga qolgonida rost aylonmadi bir bor ham.

Noz gulzorida gulnor orazingning misli yo'q,
Qomati zebosida bor shevai atvor ham.

Garchi yo'q ta'bi Muqimiy, Furqatiy hijron chekib,
Bir muvashshah Zavqiydin ko'rsun radif, ash'or ham.

[1] **Shikva** — shikoyat.

* * *

Nozaninlar ichra sandek nozanin dildor kam,
Mubtalolar ichra mandek mubtaloyi zor kam.

Oncha bordurlar qaro ko'zlar Xo'qandda san kabi,
Va'dasida turmagan sho'xi jafokirdor kam.

Su'n[1] bog'idin qani rangeki, bosh chekmas bahor,
Lek ochilgay o'zungdek sarvi gulruxsor kam.

Ravnaq-u, husn-u latofatlarki, jono, sandadur,
Og'namas mardum butunkim, holi ham (xardor) kam.

Ja'di mushkiningga tikdi beadab ta'zirig'a,
Qilsa ham shamshod ko'nglin charx agar afgor[2] kam.

Ilgari mahtob[3] edi, emdi furug'i[4] qolmadi,
Yo magar chiqdingmu bilmaymanki, shab bozor, kam.

Nazmimi mag'zig'a vasfing so'zidin gullar taqib,
Ayladim mundog', Muqimiy, dilbaro, ash'or[5] kam.

---

[1] **Su'n** — 1.Qudrat, yaratish. 2. Ish, hunar, san'at.

[2] **Afgor** — majruh, jarohatli, ezilgan.

[3] **Mahtob** — oy yuzli.

[4] **Furug'** — shu'la, ravshanlik.

[5] **Ash'or** — she'rlar, she'riy asarlar.

* * *

Kulbam aro qo'ydi bu dam, yuz shukr ul barno qadam,
Maskanlarim aylab karam, qildi gulistoni Eram.

Jallod ko'zlar qop-qaro, mujgonlaridur surmaso,
Qayrilma qoshlar, go'yiyo, xunrez shamshiri dudam.

Jono dedimkim, sodda ro', ko'pdur go'zallar tundi xo',
Suhbatda shirin guftugo', olifta sandek sho'xi kam.

Aydi kulub: "Ey notavon, hajrimda ranging za'faron,
Javr-u jafo qildim yomon, ma'zur tut chekting sitam".

Aydimki: "Qullikka bitib, kelgan zamon tashrif etib,
Qoldi ko'ngullardin ketib, har qanchakim ranj-u alam.

Gul-gul yonib, ruxsor ochib, guftoridin durlar sochib,
Kelmas Muqim emdi qochib, ketti qilib chun vahshi ram.

* * *

Hojati har bandai mo‘min ravo qilg‘il karam,
Bog‘ ayog‘im zahmi isyonimni davo qilg‘il karam.

Zangi g‘aflatdin ko‘ngil oyinasini pok etib,
Partavi mehring bilan sohib safo qilg‘il karam.

Johil-u badkor birlan ko‘rsatib begonalig‘,
Qayda o‘z oshnolaringga oshno qilg‘il karam.

To kishi sar manzili tahqiqidin topgay nishon,
Xizri tavfiqingni hodiy rahnomo qilg‘il karam.

Jodai sabr-u rizoda aylabon sobitqadam,
Bandalig‘da sidq-u ixlosing bajo qilg‘il karam.

Xizmatig‘a yetkurub har yerda men oshiqlaring,
Xoki poyini ko‘zumg‘a to‘tiyo qilg‘il karam.

Beadad jurmu xatolar birla o‘tkay umrlar,
Tongla mahshar shafiy’im Mustafo qilg‘il karam.

Ravzai poki habibingga ucharga yo‘q qanot,
Notovoningman par-u bolim raso qilg‘il karam.

Faqr kunjida Muqimiyni qilib qoni’ mudom,
Farshi[1] atlasga olishmay bo‘ryo qilg‘il karam.

[1] **Farsh** — to‘shash, yotqizish, to‘shak, to‘shalgan narsa.

* * *

Ohkim, afsus, emas hech ishda rahbar toleyim,
Vojgundur imtihon qildimki, aksar toleyim...

Yuz tarafdin yetkurub gardi kudurat zangi g'am,
Aylagay oyinai ta'bim mukaddar toleyim.

Har necha qilsam tavallo — zori qilmas iltifot,
Ro'ygardon, teskari, tobora, badtar toleyim.

Ro'zgorim tiyra, iqbolim zabun[1], baxtim qaro,
Bo'lsa ravshan, bormukin tadbiri digar[2] toleyim?

Sog'inib Hazrat afandim ko'rgali borsam agar,
Soate suhbatlarin qilmas muyassar toleyim.

Nogahon bersam, Muqimiy, bir musulmong'a salom,
Da'fatan ikki qulog'ini qilur kar, toleyim.

[1] **Zabun** — mushtipar, ojiz, bechora, kuchsiz.

[2] **Digar** — boshqa, o'zga.

* * *

Ra'no qad ila gul kabi ruxsoringa taslim,
Tovus sifat jilva-yu raftoringa taslim.

Shaydoi qilan ohuni dashtida Xo'tanlar,
Bir boqish ila nargisi xummoringa taslim.

Yuz lutf-u nazokatda takallum qilur erdi,
Lol etdi ajab to'tini guftoringa taslim.

Dilsang eding, rahm qilib holimi so'rding,
Insofi keturgan sani afkoringa taslim.

Xisravdur agar, xohi gado, jumla giriftor,
Husningni matoig'a xaridoringa taslim.

O'lturding-u bir so'z ila bag'ishlab eding jon,
E'jozi labi la'li Masih koringga taslim.

Nogah eshitib bulbuli sho'rida, Muqimiy,
Ishqida dedi: "Nola bilan zoringa taslim".

* * *

Oshiq bo‘lubman, ey yori jonim,
Vaslingni izlab yo‘qdur majolim.

Bir yo‘qlamaysan kuygan qulingni,
Ko‘zlari jallod, nozik niholim.

Rahm ayla manga, ey bag‘ri qattiq,
Diydam to‘la qon, ey sho‘xi zolim.

Lab tashnalarga ayla nazora,
Qaddi chu shamshod, qoshi hilolim.

Olding ko‘ngulni bir-ikki so‘zlab,
Devona bo‘ldim, to‘ti maqolim.

Har dam kuyarman, yodimg‘a tushsang,
Bir ko‘rmaguncha yo‘qdur majolim.

Necha zamondur, ko‘zdin nihondur,
Oshiq Muqimiy, ey xasta holim.

* * *

Xublarning mehri bo‘ldi pesham, oshiqlig‘ fanim,
Kimki qaytarsa bu ishlardin o‘shaldur dushmanim.

Bir buti begonaparvar, oshnokush ishqida,
Doimo g‘am hamdamim, har yerda gulxan maskanim.

Ko‘rsangiz egnimda pirohan emas, jon vahmidin
G‘am sipohi tiyriboroniga kiygan javshanim[1].

Ey ko‘zum, nokomlig‘din yig‘la chandon kim badard,
G‘arq bo‘lsun ishq daryosiga bunyodi tanim.

Dod-u faryod ayladimkim, o‘tdiqilmay nim nigoh,
Sangdil po‘lod ul bad mehri ko‘ngul ohanim.

Ta’nai ag‘yor o‘ldurdi degaysan, qosido,
Yo‘llarida oqibat shul bo‘ldi ko‘rgan, boqqanim.

Sha’mi fonusdin, Muqimiy, oshkora partavi,
Bul’ajabkim, tiyra ro‘zim qildi ta’bi ravshanim.

[1] **Javshan** — sovut, qalqon.

* * *

Ko‘p erdi hasratim, jono, qilay izhor deb keldim,
Muqimi kunji g‘am erdim, seni g‘amxor[1] deb keldim.

Xatingmu rasta-rasta sabza, yo rayhoni jannatmu,
Yuzing ko‘rsat, tamosho aylayin, gulzor deb keldim.

Borib oydek jamolingni ko‘ray deb sog‘inib chiqdim,
Qachon qilmoq uchun savdo-sotiq bozor deb keldim.

Ko‘zim oqsun g‘araz kom o‘lsa gar o‘zga tamoshoyi,
Nigoro, vasling istab mahz bir diydor deb keldim.

Qaro ohu ko‘zing yodida erdi tiyra ayyomim,
Malohatda yuzing xurshedi pur anvor [2] deb keldim.

Azob ermas edi chiqmoq kishiga qish havosida,
Boshing haqqiki, shundin-shunga men, sen bor deb keldim.

Qo‘y: ey mutrib, “Bayot”, “Ushshoq”[3] yoqmaydi quloqlarga,
Tarannum aylasang mahfilda qil “Gul yor” deb keldim.

Giriboningdin ochsam tugma bir-bir tutma ilkimdin,
Yarashgan rumcha kiygan ko‘ylaging gulnor deb keldim.

Qoshing mehrobiga jon-u dilim birla egib qaddim,
Belimg‘a bog‘lamakka zulflar zunnor deb keldim.

— Bu yerga kim uchun kelding? — debon so‘rma Muqimiydin
Ko‘rarga bir sumanbar, sarvi gulruxsor deb keldim.

---

[1] **G‘amxor** — mehribon.

[2] **Pur anvor** — nurli, shu’lali.

[3] **“Bayot”, “Ushshoq”** — shashmaqom kuylari. “Gul yor” — xalq kuyi.

* * *

Shahr aro yuzlanki, jono, shahr sahrolanmasun,
Qo‘rqaman, deb kim mabodo hajr barpolanmasun.

Bormi endi So‘x shahr, oshubi husningni ko‘rub,
Tojikiston, fitnalar qo‘zg‘olsa, ig‘volanmasun.

Tog‘lara javlonki qilsang, ne uchun kabki dari,
Rashkdin aylab fig‘on-u nola, shaydolanmasun.

Och yuzingni, oy boqib, tortib xijolat kechalar,
Yer yuzin oydin qilib, osmonda da’volanmasun?

May ichib mastona sayr et, bog‘da chehrang tobidin,
Lof urib gullar gulistonlarda xumrolanmasun.

Ishq bozorida naqdimdir muhabbat, ey pari,
Ko‘p ham ul boyvachchalar bazmingda dunyolanmasun.

Sharti ishq ermas, Muqimiy, shikvai, mahbublar-
Xoh parvo aylasun, xoheki parvolanmasun.

* * *

O‘rtanur ishqida mag‘zi ustuxonim, kim desun?
Qolmadi g‘am torta-torta tanda jonim, kim desun?

Boshuur, ahbob vaslig‘a o‘zi mag‘ruri husn,
Bo‘yla, bas, ma’yus rangi za’faronim, kim desun?

El aro bordur masalkim: “Bexabar och to‘qdin”,
Voqean, ko‘nglumdagi so‘zi nihonim, kim desun?

Muddao har kungi faryod aylaram ul mehrsiz,
Eshitib, shoyadki bir derman: fig‘onim, kim desun?

O‘zgalarga lutf, bilmayman, meni jurmim[1] nakim,
Qasdi jon aylar bukun abro‘ kamonim, kim desun?

Pora-pora dillarim, ahvoli zorimni anga,
Bo‘lmasa olamda mushfiq, mehribonim, kim desun?

Avji istig‘no maqomidur, Muqimiy, yorni,
Yo‘q qanot uchsam buzilg‘on oshyonim, kim desun?

[1] **Jurm** — gunoh, xato.

* * *

Aql-u hush uchdi boshimdin, ey pari, devonaman,
Bir iloje qil, el ichra bo'lmayin afsonaman.

Dard-u so'z-u ashk-u ohimni qiyos et sha'mdin,
Shomdin to subhidam hajringda o'rtab yonaman.

Ul zamonekim, yiroq vaslingdin o'ldim, to bu dam
Har kecha yodingda ming yo'l uyqudin uyg'onaman.

Lahzae zahri g'aming yutmoqqa toqat qolmadi,
No'sh[1] etib vasling mayidin ham qachon bir qonaman.

Xoma[2] mujgon, ko'z qarosidin yozib rozi dilim,
Arzae qildim eshit, ma'yus-u mushtoqonaman.

Ohkim, sensiz qaror-u sabr-u oromim ketib,
Bir ilon chaqqan kishidek har taraf to'lg'onaman.

Navbati jonim to'la quyg'il, karamdin, soqiyo,
Har qadamda to qilay yuz lag'zishi mastonaman.

Mulki Hind-u Marvdin kelsam topardim e'tibor,
Shul erur aybim, Muqimiy, mardumi Farg'onaman.

---

[1] **No'sh** — 1. Aynan. 2. Chuchuk, xushta'm.

[2] **Xoma** — qalam.

* * *

Rozi dil aytay desam xilvat qilolmay dog‘men,
Bir kecha yolg‘iz topib suhbat qilolmay dog‘men.

Javr-u bedod-u sitam, behad chekib dard-u alam,
Ko‘rmakingi birgina niyat qilolmay dog‘men.

Ko‘cha-ko‘yda uchrasang ming istihola xalqdin,
Tiz bukib, ta’zim etib, izzat qilolmay dog‘men.

Xasta ko‘nglum so‘zlaring marham, zamone ohkim,
Bir o‘zingga yondoshib ulfat qilolmay dog‘men.

Ohkim, no‘sh aylabon vasling mayidin jur’ae,
Hosil aylab komi dil ishrat qilolmay dog‘men...

O‘lturubsen chiyni abro‘ birla, titrab vahmdin,
Bir o‘pay derman, vale jur’at qilolmay dog‘men.

Necha dermankim, Muqimiy g‘urbat aylay ixtiyor,
Bir vatandin dil uzub hijrat qilolmay dog‘men.

* * *

Ohkim, begonaga oshnolig‘ingdin dog‘men,
Oshnoga a’ni beparvolig‘ingdin dog‘men.

Oshiqa aylab itob-u noz-u istig‘no[1] mudom,
So‘rmagan bir yo‘l ko‘ngul xoronlig‘ingdin dog‘men.

Zulm harfidin bo‘lakni bitmagan azro‘yi lutf,
Xat chiqorib yaxshi, xush imlolig‘ingdin dog‘men...

Mardumi puldor birlan uns-u ulfat subh-u shom.
Faqr ahlidin hazar, donolig‘ingdin dog‘men.

Xo‘bro‘lar ko‘pdur, ammo vajhida badginalig‘,
Misli kam Farg‘onada tanholig‘ingdin dog‘men.

O‘rtanurmen tushsa yodimga xayoli orazing,
Husn bog‘ida ko‘rub ra’nolig‘ingdin dog‘men.

Nola-u ohingni gulruhlar eshitmas garchi kim,
Ey Muqimiy bulbuli go‘yolig‘ingdin dog‘men.

[1] **Istig‘no** — 1. O‘ziga bino qo‘ymoq. 2. Noz qilish. 3. Ehtiyojsizlik.

* * *

Gul yuzing erur maqsad manga sayri bog‘lardin,
Telbadurman ishqingda sonma emdi sog‘lardin.

Lutf ila xirom ayla kulbamiz sari, jono,
Tobakay ko‘rib yurmak go‘shai ravog‘lardin.

Mahfil ichra, ey mutrib[1], soz aylag‘il “Gulyor”,
Tob yo‘q eshitmakka “Kurtu” “Ko‘cha bog‘lar”[2]din.

O‘zgalar mayi vasling no‘sh etib damodam mast,
Soqiyo, darig‘ etmay qil karam ayog‘lardin.

Xoni vaslingga bore aylasang netar mehmon,
Hajr kunjida tokay o‘tmas osh tamog‘lardin.

So‘rsalar agar ahbob bu chamanda ko‘nglumni,
Diyda g‘unchadek purxun[3], dil chu lola dog‘lardin.

Sabr qil Muqimiyyo, haddin oshmasun ibrom,
Jag‘laring horib tushdi arzingni demog‘lardin.

---

[1] **Mutrib** — cholg‘uchi, qo‘shiqchi, mug‘anniy. Tasavvufda oriflar dilini ramzlar kashfi-yu haqiqatlar bayoniga to‘ldiradigan, fayz yetkazuvchi va targ‘ib qiluvchilarni mutrib deyiladi.

[2] **“Gulyor”, “Kurtu”, “Ko‘cha bog‘lar”** — kuylar nomi.

[3] **Purxun** — qonga to‘lgan.

* * *

Bog‘ aro ham sen kabi sarvi xiromon bormukin?
Yuzlari gul, sochi sunbul, zulfi rayhon bormukin?

Hur paykar, to‘tidek shirin takallum, xushsuxan,
Tishlari dur, lablari la’li Badaxshon bormukin?

Necha ko‘z tutdim yo‘lida qildi kelmay intizor,
Do‘stlar, vaslini ko‘rganlarda armon bormukin?

Ey hakimi muddaiy, qilg‘il javobi bosavob,
Ishqning dardig‘a ham doru-yu darmon bormukin?

O‘zgalar har kun, Muqimiy, komyobi bazmi vasl,
Senga ham bore nigoh-u lutf-u ehson bormukin?

* * *

Ol xabar ul sarvi, noz uyqusidin turganmukin?
Nogahon turgan esa, tush-mush so'rang, ko'rganmukin?

Botmasun ko'rgach xijolat abri ichra oftob,
Tursa ham chiqmay debon eshikka, o'lturganmukin?

Qatra-qatra dur nisor etmakchi erdi ko'zlarim,
Maqdamiga bilmadim, oyoki topshirganmukin?

Oshnoliq ahdida mahkam erurman ustuvor,
Ayla mazmun va'dasida, qosido, yurganmukin?

Rozi dil bir-bir saboga sharh qildim, yorga
Gar degan bo'lsa, mabodo toza uqturganmukin?

Bir so'rab o'tmas shaharga kelsa ham kelmay xush,
Yo samandini raqiblar sariga burganmukin.

Jo'ralar bazmida arz aylang gahe Farzinchaga[1]
Esidin chiqmay Muqimiy, yodida turganmukin?

[1] **Farzincha** — "Farzixon", "Farzincha" laqablari bilan mashhur bo'lgan bu kishi zamonasining atoqli san'atkorlaridan.

* * *

Ey nozanin ishqing bilan devonamen,
Oqshomlari uyqum kelmay to‘lg‘onamen.

Parilardek ochib yuzlar nihon bo‘lsang,
Xalq ichida netay bo‘lmay afsonamen.

Akalaring, xushtorlaring, oshnolaring,
Shum raqiblar jon kuydurub begonamen.

Sha’mi ruhing holidin shavqing birlan,
Kuyub yonib charx aylanib, parvonamen.

Rahm aylakim, firoqingni chekib-chekib,
Maoshim g‘am mehnat birla hamxonamen.

Ko‘zlarimcha ag‘yor ila gaplashursen,
Xud nechudmen rashkim kelib qizg‘onamen.

Yo‘l topmadim eshikingga itingcha men,
Toleyim past ajab sho‘rlik peshonamen.

Qasr-u ayvon dastgohim so‘rmog‘ilkim,
Cho‘g‘z yanglig‘ gulsitonim vayronamen.

Muqimiyo tushti yoding beixtiyor,
Kelganimda nogoh Yangiqo‘rg‘ona men.

* * *

Eram tovuslari, yurg‘ilki, raftoringdin o‘rgulsun,
Boshida ham murassa’[1] toji dastoringdin[2] o‘rgulsun.

Xirom aylab bu surat birlakim firdavs bog‘ida,
Ko‘rubon hur-u g‘ilmon[3] fe’lu atvoringdin o‘rgulsun.

Jafoni manga qil har qancha bo‘lsa diydam ustig‘a,
Bu yurgan bulhavaslar jabr-u ozoringdin o‘rgulsun.

O‘zungni ko‘rdinggu oshiqqa qilding bo‘yla istig‘no,
Netay sindurmayin oyina diydoringdin o‘rgulsun.

Bo‘lib tund o‘lturishdin ne chiqar shirin takallum qil,
Chekib hijlat so‘zig‘a to‘ti guftoringdin o‘rgulsun.

Muqimiy, qo‘y tamosho el aro bozori shablarda,
Tag‘oful birla qilg‘on kor-u kirdoringdin[4] o‘rgulsun.

---

[1] **Murassa’** — ziynatlangan, bezangan, bezaklar va matolar bilan bezatilgan.

[2] **Dastor** — salla.

[3] **G‘ilmon** — jannatdagi xizmatkor bola.

[4] **Kor-u kirdor** — ish va amal.

* * *

Sabo, arz ayla to ul zulfi rayhon, bir kelib ketsun,
Ki topsun bo'yidin tan har nafas jon, bir kelib ketsun.

Qolib hijronlarida, sog'inib hasrat bilan oxir —
Jahon gulzori bo'ldi menga zindon, bir kelib ketsun...

Lisoniy[1] so'zga bovar qilmas ersa, qosido, ayg'il,
Uray oshiqlig'imga maxfiy Qur'on bir kelib ketsun.

Qadi sarvi sihini munfail[2] aylab, ochib oraz
Qilib gulni xijil choki giribon, bir kelib ketsun.

Ko'rarga benihoyat zor-u mushtoq o'lg'onim ayting,
Agar bo'lsa ishi ham, hattal[3] imkon, bir kelib ketsun.

Kelishga fursati gar bo'lmagan vaqtida ham lekin,
Iki toshni arosida shitobon bir kelib ketsun.

Muqimiy holi zorin so'rgali ayni muruvvatdur,
Degil insoflik bo'lsa musulmon, bir kelib ketsun.

---

[1] **Lison** — til.

[2] **Munfail** — ta'sirlangan, hayajonlangan, xijolatda qolgan, uyalgan.

[3] **Hattal imkon** — imkor qadar, iloji boricha.

* * *

Ul tag‘oful peshag‘a holi xarobim kim desun?
Hajrida mundog‘ meni ko‘rgan azobim kim desun?

Kunduzi bir yerda bir dam olmay orom-u qaror,
Lahza yo‘q kechalar ko‘zlarda xobim, kim desun?

O‘z ko‘mochig‘a, masalkim, tortadur kul har kishi,
Bas kuyub ishqida chekkan iztirobim kim desun?

Kuymagan bo‘lsa birov mehru muhabbat o‘tig‘a,
Sha’mdek to subh o‘rtab tabb-u tobim[1] kim desun?

Hamnishindurlar[2] ulug‘larga xushomadgo‘ylar,
Yo‘lida jononimi xayr-u savobim kim desun?

Gar qilich boshimg‘a ham kelsa degayman rostin,
So‘zki haq bo‘lsa, savolimg‘a javobim kim desun?

Do‘stlar, so‘rsang g‘izosidin[3] Muqimiy, erta-kech,
Qon sharob ichsam, jigarlardur kabobim, kim desun?

---

[1] **Tabb-u tob** — yonish va erish; azob va tashvish.

[2] **Hamnishin** — birga o‘tiruvchi, dost, ulfat.

[3] **G‘izo** — oziq-ovqat, yegulik, taom.

* * *

Hech kim mendek, ilohi, yoridan ayrilmasun
Mehribon, munis o'shal dildoridan ayrilmasun.

Xonumonlarni berib barbod yetmay vaslig'a,
Bo'lubon ma'yus yo'q-u boridin ayrilmasun.

Hajr osibi[1] xazonida bo'lib sho'ridahol,[2]
Andalibe[3] men kabi gulzoridin ayrilmasun.

Qosido, ko'nglum qushi band erdi, ayg'il zinhor,
Ishqilibkim zulfi anbarboridin[4] ayrilmasun.

Do'stlar, ko'rsatmasun hargiz judolik dardini,
Dushmaning ham bo'lsa o'z g'amxo'ridin ayrilmasun.

Bandae, yo Rab, Muqimiydek bo'lib xor-u kasod
Sud-u[5] savdodin qolib, bozoridin ayrilmasun.

---

[1] **Osib** — ziyon, zarar, kulfat.

[2] **Sho'ridahol** — parishonxotir, oshuftahol, beqaror.

[3] **Andalib** — bulbul.

[4] **Anbarbor** — anbar sochuvchi.

[5] **Sud** — foyda.

* * *

Ey pari, ko‘nglum olib, qon o‘ldig‘in bilmasmusan?
Dard berding menga darmon o‘ldig‘in bilmasmusan?

Surma ustina qo‘yib ko‘zni qiyomat aylading,
Surmasiz ham ofati jon o‘ldig‘in bilmasmusan?

Bog‘dakim ruxsor ocharsan, gul xijil bechoralar,
Rashkdin choki giribon o‘ldig‘in bilmasmusan?

Bog‘lar zulfing havosin belima zunnorlar,
Yo‘qsa tarsoning musulmon o‘ldig‘in bilmasmusan?

Ka’bai ko‘yingda davlatxoh o‘lan manzurlar
Aksari hoji pushaymon o‘ldig‘in bilmasmusan?

Ajz[1] ham eltar qanoat birla, ey dil maqsada,
Mo‘r[2] nazdiki Sulaymon o‘ldig‘in bilmasmusan?

Yo‘lida chekmak Muqimiy chand ranji-intizor,
Sho‘xlarning va’da yolg‘on o‘ldig‘in bilmasmusan?

[1] **Ajz** — ojizlik, kuchsizlik, xorlik.
[2] **Mo‘r** — chumoli.

* * *

Tag‘oful o‘qin otma, ey jafojukim, yomondur bu,
Nechukkim jonlarig‘a ishq ahlini ziyondur bu.

Olib chiq oy yuzingdin pardani bozori shab[1] o‘tmay,
Desun ko‘rgon kishi,
albatta, xurshedi jahondur bu!

Shitob aylab bu kun yuz qatla noz ila xirom etting,
Qolib hayron dedim:
“yo Rab, nachuk sarvi ravondur bu?”

Fatonat javharin ko‘rgach, yuzing ko‘zgusidin zohir,
Dedi ahli xirad:
“qaydog‘ Arastu-yi zamondur bu?”

Visolingg‘a yetolmay zor yig‘lab yurgonim bilding,
Tarahhum[2] qilmading debkim:
“Musofir mehmondur bu”

Labingdin va’da berding:
“Kom olg‘il — deb, — topib fursat”,
“Bu chin so‘zdurmu,
jono yoki mahzi imtihondur bu?..”

Dedi:
“Afgor ko‘ksing xonai zanburdek nechun?”
Dedim:
“Jono, firoqing o‘qig‘a umre nishondur bu”.

---

[1] **Shab** — tun, kecha.

[2] **Tarahhum** — rahm qilmoq.

Xayol etsam mabodo orazingni ko‘z yumub derman:
“Dahoning chashmai kavsar, yuzing bog‘i jinondur bu...”

Agar oldingdin o‘tsam manga basdur ushbu davlatkim,
Desang: “ishqimda mundog‘ rangi ro‘yi za’farondur bu”.

Na bo‘lg‘aykim — dedim, —
ko‘rsa tishing oqin Muqiming ham,
Kulub aydiki: “Ko‘rmaydur birov durri nihondur bu”.

* * *

Ilm o‘qugoni bilan har kim musulmon bo‘ldimu?
Mouman aylab farishta g‘ayri shayton bo‘ldimu?

Shikvalar aylab tuz ichkan yerlaringizni mudom,
Yo magar posi namak tutmog‘liq oson bo‘ldimu?

She’ringizg‘a xalq tolib bo‘lsalar so‘ngra o‘qing,
Yo kelib ahbob kar bo‘lmakka mehmon bo‘ldimu?

Kimki muhmaldur o‘zi ham o‘zgani muhmal bilur,
Qilsangiz g‘ayra atoe derki, ehson bo‘ldimu?

Buzda rish, eshakda jon, to‘ti gapurgoni bilan,
Ey, sizga ul, albatta, inson bo‘ldimu?

Suhbat ahlig‘a qilolmay ul kecha izhori fazl,
Fazlingizni paxtasi ham yoki arzon bo‘ldimu?

Bo‘lmagay hosil, Muqimiy, ma’nie har lafzdin,
Dona sochqon birla har qishloqi dehqon bo‘ldimu?

* * *

Oshiq ermasman yuzingga yakka bu Farg‘onada,
Zohid[1] istar Ka’balarda, barhaman[2] butxonada[3].

Kimga dod aylay bu bedodingni man, ey sangdil,[4]
Oshno bo‘ldim desam, ko‘nglung seni begonada.

Sha’mi ruxsoring yonar mahfilda [5]gul-gul kechalar,
Bormudi qasding magar kuydurgali parvonada.

Ma’ n etib, ey muhtasib[6], hardam boshimga kelmag‘il,
Bo‘lsa naylay, mast bo‘lmay, maskanim mayxonada.

G‘ofilo, fikr aylag‘il uqboni[7] rohat istasang,
Shodlig‘ ko‘z tutmakim, bo‘lmaydi mehnatxonada.[8]

Manzilimni so‘rma, ey mag‘ruri mulk-u dastgoh[9],
Dahr sahroyi junun uy bo‘lmag‘ay devonada.

Bulbul aylar nolalar yolg‘iz dema, ey guluzor,
Cho‘g‘zdek[10] qilg‘ay Muqimiy ham navo vayronada.

---

[1] **Zohid** — uzlat va taqvoni kasb qilib, dunyo lazzatidan yuz o‘girgan kishi.

[2] **Barhaman** — butparastlar piri.

[3] **Butxona** — butparastlar ibodatxonasi.

[4] **Sangdil** — ko‘ngli qattiq, bag‘ritosh.

[5] **Mahfil** — majlis, anjuman, yig‘in.

[6] **Muhtasib** — islom marosimlari, shariat qoidalari, jamoat tartibini nazorat qiluvchi amaldor.

[7] **Uqbo** — u dunyo, oxirat.

[8] **Mehnatxona** — musibat uyi, ya’ni dunyo.

[9] **Dastgoh** — 1. Qudrat va imkoniyat, davlat va boylik; 2. Amal, martaba.

[10] **Cho‘g‘z** — boyqush.

* * *

Sho‘xi parivasheg‘a[1] giriftormen yana,
Vaslin ko‘rarga shom-u sahar zormen yana.

Ra’nolar ila kam edi tobim, jafo chekib,
Naylay, birovning ishqida bemormen yana.

Aylab hamisha xo‘blara uyquni harom,
Bir nozanin yodida bedormen yana...

Bozor shabda qaysi tarafdin, debon, kelur,
Hayron yo‘lida diydalarim chormen[2] yana.

Xor etma ishq har guli hamrog‘a[3] bog‘ aro,
Ta’n etma boz[4] bir gul uchun xormen yana.

Oxir sharob tut qadahe, soqiyo, bukun,
Davringda saxt lohaz-u xummormen yana.

Nogah, Muqimiy, uchrasa aql-u hushim ketib,
Ko‘rgan yerimda surati devormen yana.

---

[1] **Parivash** — pariga o‘xshash go‘zal.
[2] **Diydalari chor** — ko‘zlari to‘rt.
[3] **Hamro** — qizil, qizillik.
[4] **Boz** — yana.

* * *

Uchradi nogah manga bir dilbari mahro‘gina, [1]
Xandasi shirin, kalomi jonfizo[2] diljo‘gina[3].

Husnidin o‘tlig‘ netongkim[4] boqsa ruxsorin ochib,
Kelturalmay tob-u toqat bo‘lsa ko‘zgu suvgina.

Mehr vaqtida nihoyat mehribon, ko‘ngilnavoz[5],
Qahr hangomi bag‘oyat tund-u ham badxo‘gina[6].

Donai xoli yarashgan chehrai gulnorig‘a,[7]
Ko‘zlari ohu kabi mushki Xo‘tan[8] gesugina.[9]

Xoli hindusin giribonida ko‘rgach rashkidin,
Keldi chiqqum ul zamon sahro sari deb “hu”gina.[10]

Oh urar tovus bog‘larda xiromini ko‘rib,
Hasratidin kabk go‘yo o‘tga tushgan mo‘gina[11].

Nola bulbuldek judoliqdin, Muqimiy aylaram,
Yetsa shoyad deb, visoling gullaridin bo‘gina.

---

[1] **Mahro‘** — oy yuzli, go‘zal.

[2] **Jonfizo** — jonga rohat beruvchi.

[3] **Diljo‘** — ko‘ngil oluvchi, ko‘ngliga tasalli beruvchi.

[4] **Netong** — ne ajab, ajab emas.

[5] **Ko‘ngilnavoz** — ko‘ngilni oluvchi.

[6] **Badxo‘** — yomon tabiatli.

[7] **Gulnor** — anor guli, qizil gul.

[8] **Mushki Ho‘tan** — Xo‘tanda tayyorlangan mushk.

[9] **Gesu** — soch, zulf.

[10] **“Hu”** — Olloh taoloning ismlaridan biri, III shaxs birlikdagi u ma’nosini bildiradi.

[11] **Mo‘** — soch.

* * *

G‘azab birlanki ul jonon kelur mastona-mastona,
Xayolimda tanimga jon kelur mastona-mastona.

Fig‘on aylab degay mardum qilurda rastada javlon,
Pari shaklidamu, inson kelur mastona-mastona.

Ichib ag‘yor ila may kecha, emdi kunduzi uxlab,
So‘rarga va’dasi yolg‘on kelur mastona-mastona.

Ruunat bog‘ida bitgan, qadi sarvi sihi mavzun,
Yuzi gul, sochlari rayhon kelur mastona-mastona.

Bukun nogah munavvar shomimi aylarga, ey ahbob,
Ko‘zum uchkay magar mehmon kelur mastona-mastona.

Yo‘l uzra turma zohid, ko‘zla rohi ofiyat, chunkim,
Baloyi din ila imon kelur mastona-mastona.

Kishiga (borganini) tarz bildurmay, Muqimiy, yor,
O‘zin hushyor olib pinhon kelur mastona-mastona.

* * *

Nazardin ketting, ey xurshid uzor, ohista-ohista,
Nachuk bas tiyra bo‘lmas ro‘zgor ohista-ohista.

Sanavbar qomato, bo‘lmasdin avval oshno bilsam,
Bo‘larkanman ko‘rarga muncha zor ohista-ohista.

Ravo ko‘rma tarab zulfingni beparvo el ozorin
Ki har bir torida jon beshumor ohista-ohista.

O‘yunda rashkdin kokillaringdin nega tebranmay,
Tegar ruxsoringa oltun tumor ohista-ohista.

Darig‘o, roygon mehr-u muhabbat qo‘ymish erkanman,
Yo‘lingda qilding oxir intizor ohista-ohista.

Yuzung ko‘rmakka doim muntazir nargis bila gulzor,
Xirom et bog‘ aro tovusvor ohista-ohista.

Xayol etsam visoling sog‘inib hushum ketib boshdin,
Oqar qon yosh ko‘zimdin shashqator ohista-ohista.

Asir etmas qayu bir fe’l-u atvoring xususankim,
Olib ilkingga chalganda dutor ohista-ohista.

Nega asrab nihon tuttimki, hargiz bo‘lmadi, neylay
Bo‘lurkan ishq sirri oshkor ohista-ohista.

* * *

Arzimni aytay bodi sabog‘a,[1]
Shoyad gapurgay ul gulqabog‘a[2].

Albatta, kelsun, holimni so‘rsun,
Andisha qilsun, ro‘zi jazog‘a[3].

Necha zamondur, ko‘zga nihondur,
Har kim yomondur, soldim Xudog‘a.

Ohim eshitmay, dodimga yetmay,
Bir ta’sir etmay, ketti havog‘a.

Mandin chu[4] ohu, ram qildi[5] badxo‘,
Ba’zi g‘arazgo‘ tushdi arog‘a.

Bo‘ldim fasona[6], subh-u[7] shabona,[8]
Ko‘ksim nishona tiyri[9] jafog‘a.

O‘zi uyonsun, hajrida qonsun,
Dardig‘a borsun qayda davog‘a.

---

[1] **Sabo** — Sharq tomonda esadigan tonggi yoqimli va salqin shamol. Oshiqning ohu nolasini Ollohga, Ollohning xabarini oshiqqa yetkazadi.

[2] **Gulqabo** — qizil rangli go‘zal kiyim kiygan: zebo, mahbuba.

[3] **Ro‘zi jazo** — jazo kuni, qiyomat.

[4] **Chu** — ki, chunki, shu sababdan, agar.

[5] **Ram qilmoq** — cho‘chimoq.

[6] **Fasona** — afsona, ertak.

[7] **Subh** — ertalab, tong.

[8] **Shabona** — kechasi, tungi.

[9] **Tiyr** — o‘q.

Bo‘lgay xiromon, boqmay shitobon,
Qilmasmu ehson sulton gadog‘a.

Yo‘q zar-ru siymi[1], lekin samimiy,
Oshiq Muqimiy kelsa duog‘a.

[1] **Siym** — kumush.

* * *

To jilva qildi, ul pari, men mubtalo qayda boray?
Emdi degaykim, bor nari, men mubtalo qayda boray?

Kokillarin dom ayladi, subhim qaro shom ayladi,
Tobora nokom ayladi, men mubtalo qayda boray?

Umre bo'lub ovoralar, ko'ksimda bitmas yoralar,
Gar qilmas ersa choralar, men mubtalo qayda boray?

Yuz noz ila bir-bir bosib, keldi niqobini ochib,
Hayron qilib ketti qochib, men mubtalo qayda boray?

Yetti falakka nolishim, hal bo'lmadi mushkul ishim,
O'zga-o'zidin yo'q kishim, men mubtalo qayda boray?

Yo Rab, yomon-u gandaman, osi-yu ham sharmandaman,
Ne hukm bo'lsa bandaman, men mubtalo qayda boray?

Borsang ko'yig'a, qosido, ayg'il Muqimiydin duo,
Baskim zaif-u beaso, men mubtalo qayda boray.

* * *

Jumlai Xo‘qand mavzun qadlarini sarvari,
Dilrabolar dilbari, gulchehralar sardaftari.

Mahv o‘lub mardum xiromini ko‘rub bozor aro,
Deydilar ba’zi “malak”, ba’zi “bashar”, ba’zi “pari”.

O‘ldururg‘a begunohlarni bo‘lak tig‘ istamas,
Ko‘zi-jallod-u, qosh-shamshir-u, kifrik xanjari.

La’lidin kom istasang aylar tag‘ovul, husnig‘a,
Chiqsa ul vaqti nechuk qilgay soqolning lashkari.

Xatt-u xolini asiri sunbul-u rayhon-g‘ulom,
Shevai raftorig‘a tovus ila kabki dari.

Aylanib to bir xaridor o‘lmasa imkoni yo‘q,
Rastasidin o‘tgan odam xoh yosh-u, xoh qari.

Nogahon olsang Muqimiy, avvali har baytidin,
Harflar ravshan bo‘lur, albatta, ismin gavhari.

* * *

Jonon ko'runib bizni devona qilib ketdi,
Xalq ichra bayakbora afsona qilib ketdi.

Jurmim na edi ko'zdin tashlab mani yakbora
Ovorai bu mulki Farg'ona qilib ketdi.

Xo'b bo'ldiki zohidga, mastona nigoh, aylab,
Aql-u hushi va' zidin begona qilib ketdi.

Qildi yuzini sha'min mahfilda yoqib ravshan,
Ishqida yomon, lekin parvona qilib ketdi.

Ma'yus ko'ngillarni dard-u alamin so'rmay,
Mastonalik kulbamni vayrona qilib ketdi.

Bir umr raqiblarni(ng) xursandligini ko'zlab,
Dunyoni Muqimiyga g'amxona qilib ketdi.

MURABBA'LAR

Yuzni oydek nogah tobon aylading,
Chun oyina mahv-u hayron aylading,
Oshiqlarga ro'ziy hijron aylading,
Ag'yorimga vasling arzon aylading.

Va'da yuz yo'l,
birga vafo qilmading,
Xush bo'lmadi ko'nglung jafo qilmading,
Dardim bilib turib davo qilmading,
Qilmas ishni hech musulmon aylading.

Lola kabi yashnab chiqsang mastona,
Ko'rgan odam nachuk bo'lmas devona,
Xalq ichida qilib mundog' afsona,
Ovora-yu pur besomon[1] aylading.

Dilrabolar xaylida, ey tojdor,
Qani sendek endi sarvi guluzor,
Shamshir aylab qoshlaringni obdor,
Qatlim uchun muncha
burron aylading.

Ey, chehrasi qamardin[2] ham munavvar,
Labing la'l-u tishing safoda gavhar,
Solib boshga ketib g'avg'oyi mahshar.
Pari yanglig' o'zni pinhon aylading...

---

[1] **Pur besomon** — o'ta nochor, noiloj, parishon.

[2] **Qamar** — oy.

Xo‘bro‘larni, ey sarvari sariri,[1]
Husn taxti uzra odil amiri,
Men benavo qolib mahrum axiri,
Bo‘laklarga lutf-u ehson aylading.

Oh-u nolam yetdi yetti samoga,
Boqmay o‘tting hargiz men mubtaloga
Faryod etdim, Muqim, o‘xshab gadoga,
Bir demading: kimsan, afg‘on aylading?

[1] **Sarir** — taxt, ulug‘lik.

* * *

Qo‘yma jono, surma, shahlo ko‘zlaring,
Ohularni qildi shaydo ko‘zlaring,
Mardum ichra soldi g‘avg‘o ko‘zlaring,
Mardumlari, magar, tarso ko‘zlaring.

Ey, parivash gulpirahan sumanbar,
Nazokatda qadding sarv-u sanavbar,
Bukun boqmay oshiqlarga barobar,
Qilmas andishai fardo ko‘zlaring.

Malohatlik yo‘q sen kabi dilrabo,
Qon to‘karga zolimlari beparvo
Bir ko‘rarga barcha sanga mubtalo,
Har qaysisi tanho-tanho ko‘zlaring.

Vasfing sig‘mas bitkan bilan daftara,
O‘xshar kokillaring toji afsara,
Taxti husning kifriklaring panjara,
Iskandar-u yoki Doro ko‘zlaring.

Baland o‘lsun, yo Rab, sani iqboling,
Ofatlardin tegru bo‘lsun panohing,
Boqsang agar mast aylagay nigohing,
Mijgonlaring — jom-u sahbo — ko‘zlaring.

Vasling istab zahar ichdim yutub g‘am,
Muqimiydin vahshiy sifat qilib ram,
Sho‘xlig‘larda o‘z asringda bo‘lur kam,
Har qachonkim qilsa da’vo ko‘zlaring.

* * *

Bir so‘rmading, ey dilrabo, na bo‘ldi?
Qilgan o‘shal ahd-u vafo na bo‘ldi?
Ko‘zlaring ham nooshno na bo‘ldi?
Keting demay ul mubtalo na bo‘ldi?

Erta-yu kech ishim fikrim xayoling,
O‘zgalarni(ng) komidadir visoling,
Bir ko‘rarga zoridurman jamoling,
Niqob ochmas bodi sabo[1]na bo‘ldi?

Yetdi ko‘kka shom-u sahar fig‘onim,
Arz ayladim necha dardi nihonim,
Hargiz eshitmading, magar gumonim,
Qilmas asar qilgan duo na bo‘ldi?

Aytay desam hasratlaring yo‘q mahram,
Yolg‘iz bekas, na yorim bor, na hamdam,
Diydoringga netar to‘yganda bir dam,
Tashnalig‘din o‘ldim judo na bo‘ldi?

Ko‘rib nogah to‘lgan oydek ruxsoring,
Jon naqdini qila olmay nisoring,
Muqimingman ishqing bilan bemoring,
Bir boqmading bahri Xudo na bo‘ldi?

[1] **Bodi sabo** — tong yeli.

* * *

Ey amiri husni taxti tajammul[1],
Xijolatda ruxsoringdin qizil gul,
Bog‘lar ichra ko‘rib rayhon-u sunbul,
Zulfi xushbo‘laring yodimga tushti.

Ko‘zga uyqu kelmay oqshom kanora,
Sanar erdim to subhidam sitora,
Aylab nogah yangi oyga nazzora,
Tig‘i abro‘laring yodimga tushti.

Hasratingda o‘zdin bo‘lib ramida,
Subhi fikring mundoq qilib damida,
Kavsar suyi ajoyibdur famida,
Xoli hindularing yodimga tushti.

Lutf aylasang ayni vaqti kamoling,
Necha aylab yod, etmading visoling,
Bir so‘rmading,
qalaysan, deb ahvoling,
Chashmi jodularing yodimga tushti.

Insof etib kelgin aylab tarahhum,
Netar kelsang bo‘lib shirin takallum,
O‘zgalarga etib jabr-u tazallum[2],
Xulqi xushxo‘laring yodimga tushti.

Yo‘llaringda istab bo‘ldim gadolar,
Qattiq diling, ta’sir etmas duolar,

[1] **Tajammul** — tantana, bezak.
[2] **Tazallum** — nola etish.

Bellarida zunnoridur tarsolar,
Chiyni gisularing yodimga tushti.

Muqimi-yu yod aylamak duoda,
Husning, yo Rab, mundin bo‘lg‘ay ziyoda,
Ko‘zlarimdin qonlar to‘kib sahroda,
Xayli ohularing yodimga tushti.

* * *

Ey, sarv xayli-yu nozukadolar,
Necha muddat chekib javr-u jafolar,
Asar qilmay hargiz qilg'on duolar,
Ko'ngul xorolig'ing yodimga tushti.

G'amlar yutub kundin-kunga ziyoda,
Suvda, quruq, xohi otlig', piyoda,
Chiqib ko'rub ohularni sahroda,
Ko'zi shahlolig'ing yodimga tushti.

Jono, netar, kelsang, bag'rimni tilmay,
Bir o'zingdek dilraboe topilmay,
Mahfillarda ko'ngul hargiz ochilmay,
Bazmorolig'ing yodimga tushti.

Fasli bahor bo'lub, ochildi gullar,
Zulfingmu deb rayhon bilan sunbullar,
Nolasidin qumri birlan bulbullar,
Sarv-u ra'nolig'ing yodimga tushti.

Tufrog'idur mazallatlar[1] maskanim,
Notavonlig' — pesham,
ojizlig' — fanim,
Qasd aylasa, qaysi yerda dushmanim,
Mango oshnoliging yodimga tushti.

G'aflat bilan oxir sorg'aydi rangim,
Yo'q, darig'o, zarra nomus-u nangim,

[1] **Mazallat** — xo'rlik, tubanlik, pastlik.

Xijolatdin suvga tushtim qachankim,
Hozir paydolig‘ing yodimga tushti.

Ishq o‘tiga kuydum, yondim, tutashtim,
Vasling istab-istab yo‘ldin adashtim,
Kasratgakim, Muqimiyo, ko‘z ochtim,
Yo Rab, tanholig‘ing yodimga tushti.

* * *

Dilda vasling erdi umre tamanno,
Xayolingni qilur vaqti tamosho,
Nogah oyinag‘a boqib, nigoro,
Mahv-u hayronlaring yodimga tushti.

Fasli bahor o‘lub, gullar ochilib,
Yerga sabza baxmal kabi yopilib,
Mashomimga sunbul bo‘yi xush kelib,
Zulfi rayhonlaring yodimga tushti.

Qo‘llaringdin to no‘sh ettim paymona,
Gohe xud men, gohi behud devona,
Har qachonkim ko‘ksim qildim nishona,
Tiyri mijgonlaring yodimga tushti.

Sayr ayladim chiqib dasht-u sahrolar,
Boshlarimga ortib sho‘ri savdolar,
Bismil uchrab ko‘zga lola, ra’nolar,
Tig‘i burronlaring yodimga tushti.

Ey, yaxshilar xaylin nozik miyoni,
Garchand erdim yomonlarning yomoni,
Bazmlarda qilgan eldin nihoni,
Lutf-u ehsonlaring yodimga tushti.

Ne xush ayyomi ekan o‘shal zamonlar,
Bo‘lur erdim har dam, jono, qurbonlar,
Oxir mundog‘ bo‘lib zor-u sarsonlar,
Harso‘ javlonlaring yodimga tushti.

Ey istig'no firdavsining nasimi,
Yod etmading qadrdon deb qadimiy,
Ummid etdim har yerdakim, Muqimiy,
Ahd-u paymonlaring yodimga tushti.

* * *

Ey chehrasi tobonim,
Oshiqlari hayronim,
Yo‘q toqati hijronim;
Vasl ila davo aylang.

Ey zulfi parishonim,
Ahdi hama yolg‘onim,
Sindi, qani paymonim,
Bir mehr-u vafo aylang.

Ey sho‘xi diloromim.
Yetsa sanga payg‘omim,
Kulbamga kelib shomim,
Pur nur-u[1] ziyo aylang.

Ey bulbuli sho‘rida,
Tokay dili afsurda,
Bo‘lmay dame osuda,
Gul vaqti navo aylang.

Bu husn g‘animatdur,
Chin bod basur’atdur[2],
Hangomi muruvvatdur,
Xo‘b lutf-u saxo aylang.

Oxir meni bemora,
Qil marhami nazzora,

[1] **Pur nur** — ravshan, munavvar.

[2] **Basur’at** — tez, shiddatli.

Kim aytdiki, xushtora,
Yuz javr-u jafo aylang?

Gar qilsa Muqimiy xun,
Ruhsoralari gulgun,
Insofga kelur bir kun,
Haqqiga duo aylang.

* * *

Jono, buldurkim rozi nihonim,
Yetmaklik erdi sanga gumonim,
Nogah ramaqqa yetkanda jonim,
Ko'rdim yuzingni alhamdulilloh.

Chun lola ko'ksim dog' erdi qat-qat,
Hamdam topolmay ayturg'a hasrat,
O'ldim deganda bo'ldi karomat,
Ko'rdim yuzingni alhamdulilloh.

Pastu balandi olamda yillar,
Sargashta[1] erdi zikringda tillar,
Vaslingni istab qon erdi dillar,
Ko'rdim yuzingni alhamdulilloh.

Bog'larda sansiz, ey sarvi qomat,
Qumridek etdim ohu nadomat,
Garchand eldin chektim malomat,
Ko'rdim yuzingni alhamdulilloh.

Tokim nazardin ketting nigorim,
Yo'q erdi bir dam sabr-u qarorim,
Yig'lab kechardi layl-u nahorim,
Ko'rdim yuzingni alhamdulilloh.

Har yerda joyim vayrona qilding,
Mardum ichinda afsona qilding,
Ishqingda garchi devona qilding,
Ko'rdim yuzingni alhamdulilloh.

[1] **Sargashta** — sarson, ovora, sargardon.

Umre firoqing tortib bag‘oyat,
Sog‘ingan erdim ko‘p benihoyat,
Emdi ko‘ribkim toq o‘lsa toqat,
Ko‘rdim yuzingni alhamdulilloh.

Dardi judolig‘ birlan Muqimiy,
Anduh-u g‘amlar erdi nadimi,
Ochib niqobin kelgach nasimi,
Ko‘rdim yuzingni alhamdulilloh.

* * *

Emdi sandek, jono, jonon qaydadur,
Ko‘rib gul yuzingni bog‘da bandadur,
Saqlay ishqing toki jonim tandadur,
O‘zim har joydaman, ko‘nglum sandadur.

Mehring o‘ti nogah tushdi jonlarga,
Parvoyim yo‘q zarra xon-u monlarga[1],
Lola yanglig‘ to‘lib bag‘rim qonlarga,
O‘zim har joydaman, ko‘nglum sandadur.

Erta-yu kech fikr-u zikrim xayoling,
Bir so‘rmading, nalar kechti ahvoling?
Eslarimga tushib shirin maqoling,
O‘zim har joydaman, ko‘nglum sandadur.

Voqif ermas kishi sening aslingdin,
Tokim desam pari sening naslingdin,
Vodarig‘o, judo bo‘ldim vaslingdin,
O‘zim har joydaman, ko‘nglum sandadur.

Yo‘q san kabi malohatlik yagona,
Ko‘rganmukan misolingni zamona,
Bo‘lib xalq ichida mundog‘ afsona,
O‘zim har joydaman, ko‘nglum sandadur.

Yuzlaringdin xijil mohi tobonlar,
Raftoringga shaydo jumla yoronlar,
Qolib hardam o‘z ishimga hayronlar
O‘zim har joydaman, ko‘nglim sandadur.

[1] **Xon-u monlar** — uy-joy.

Sultonisan, barcha xo‘blar nadiming[1],
Doim erdim duogo‘yi, qadiming,
Bovujudi so‘rmay o‘tting Muqimiyning,
O‘zim har joydaman, ko‘nglum sandadur.

[1] **Nadim** — xizmatchi.

MUXAMMASLAR

(Jomiy g'azaliga muxammas)

Qadamro ranja so'yi mo asiron mekuni, yo ne?
Ba mushtoqon jamoli xud namoyon mekuni, yo ne?
Masihoyi davoi dardmandon mekuni, yo ne?
Ba rahmat iltifoti mo asiron mekuni, yo ne?
Nigohe jonibi mo xoksoron mekuni, yo ne?

Kashidam baski hijron tar zi xun shud xonai diyda,
Ba rangi halqai tasviri nun shud xonai diyda,
Zi jo'shi giryai ashkam burun shud xonai diyda,
Chu Ya'qubam zi girya sar nigun shud xonai diyda,
Xudoyo, Yusufi moro ba Kan'on mekuni, yo ne?

Ba bog'i dahr fasli gul bahoron mekuni ravshan,
Tamomi ko'hu sahroro ba boron mekuni ravshan,
Guhar az qatrahoyi abri nayson mekuni ravshan,
Shabi torikro bo mohi tobon mekuni ravshan,
Daruni qabri torikam charog'on mekuni, yo ne?

Gunahkoram g'ariqi bahri isyoni tu mebosham,
Asiri mubtaloyi nafsi shaytoni tu mebosham,
Ba g'aflat doda umr az dast nodoni tu mebosham,
Shabi avvalki, man dar go'r mehmoni tu mebosham,
Shaho, in'om-u ehsonat ba mehmon mekuni, yo ne?..

Baroi bar bish-u nuqs-u kamolam du malak oyad,
Pai farqi harom-u to halolam du malak oyad,
Bashomi tiyra ba'di zavolam du malak oyad,
Nakir-u Munkar az bahri savolam du malak oyad,
Zabonro dar javobash "Rabbi!" guyon, mekuni yo ne?

Muqimiy zarra, hamchun oftobi xovari Jomiy,
Zaif-u ojizam, kun dastgiri, yovari Jomiy,
Ba dodi dodxohon az tu shoyad dovari Jomiy,
Kadomin dard-u mehnatro kunam yodovari Jomiy,
Tu oson mushkili mo mustamondon mekuni, yo ne?

Tarjimasi:

Ey sevikli,
biz asirlar tomonga ham qadam yetkazasanmi yo yo‘q?
Biz mushtoqlarga o‘z jamolingni ko‘rsatasanmi yo yo‘q?
Masih sifat bo‘lib,
bizning dardlarimizga davo qilasanmi yo yo‘q?
Biz asirlarga iltifot bilan rahm qilasanmi yo yo‘q?
Oyoq ostidagi tuproq
kabi ezilgan biz bechoralarga nigoh qilasanmi yo yo‘q?

Ayriliq alamlarini shuncha ko‘p tortdimki,
ko‘z xonalari qonga to‘ldi,
Ko‘z xonasi qon
rangli yoshlar bilan to‘lgan halqa shakliga kirdi,
Ko‘z yoshlarimning
behisob oqishidan ko‘z xonalari qabarib chiqdi,
Xuddi Yoqubga o‘xshash yig‘idan ko‘z xonasi salqib tushdi,
Ey Xudo, Yusufimizni Kan’onga yetkazasanmi yo yo‘q?

Dunyo bog‘ini, bahor fasllari bilan ravshan qilasan,
Butun tog‘-u toshlarni bahor yomg‘uri bilan serob qilasan,
Bu yomg‘ir bilan turli gavharlarni undirib,
o‘sdirib obod qilasan,
Qorong‘u kechani to‘lin oy bilan ravshan qilasan,
Qorong‘u va tor go‘rimni ham yoritasanmi yo yo‘q?

Man saning gunoh dengiziga botqan gunohkoringman,
O‘z nafsiga mubtalo bo‘lgan qulingman,
G‘aflatda qolib o‘z umrini o‘tkazgan nodoningman,
Birinchi kecha go‘rdagi saning mehmoningman,
Mehmonga in’om — ehson qilasanmi yo yo‘q?..

Mening nuqson-u kamolimni bilish uchun ikki farishta keladi,
Halol-u harom ishlarimni farqlash uchun ikki farishta keladi,
Zavolimdan (o'limimdan) keyin ikki farishta keladi
Meni savol-javob qilish uchun
Munkar-Nakir — ikki farishta keladi.
Tilimni "Robbim!"
deb javob berishga qodir etasanmi yo yo'qmi?

Muqimiy Jomiy
oldida quyosh atrofida aylanuvchi zarra singaridur,
Zaifman, ojizman, qo'limdan tut, yordam qil, ey Jomiy,
Sendan yordam so'rovchilarga
hamma vaqt madad etib kelgansan ey Jomiy,
Dard-u mehnat chekuvchi men gadoni ham yod qil, ey Jomiy,
Biz yordamga muhtojlarning mushkilini oson
qilasanmi yo yo'q?

Navoiy g'azaliga muxammaslar

Ey, xiroming oshiqi shaydolari kabki dara,
Xo'blar olamda ko'btur, hammasidin sen sara,
Siynalar majruh sensiz saxt ko'ngullar yara,
Ey, jamoling lolazoru ko'zlaring oh-u bara,
Nofadek[1] qon bog'ladim, hajringda bag'rim qab-qara.

Halqai zulfingga bir jon yo'qki bo'lmay mubtalo,
Sochlaring ovvorasi ham nofai Chin-u Xitoy,
Anbarin gisularing ko'rgoch dedim, aylab duo:
"Yo Rab, ul kokuldmudur, ohim tutunidin qaro,
Yo, o'tog'lar ichinda saylab olgan qarqara".

O'lmakka ishqingda yettim da'fi savdo qilg'ali,
Ko'ngluma zangor g'amlardin musaffo qilg'ali,
Sabza-u rayhonlaridin diyda biyno qilg'ali,
Orazing gulzorig'a bordum, tamosho qilg'ali,
Chin emish, lola ochilganda tug'ar oh-u bara.

Na kelur erdi, ki ilkimdin, man qalloshdin,
Aylasam oli qadumingga binolar toshdin,
Lol etib, mardumi g'ubor chashm birla yoshdin,
Yor uchun ayvon solibon ko'z uyiga qoshdin,
Kifrigimdin tutturubman davrasig'a panjara.

Oh, o'z davrida o'tmishlar ne xush shoh-u vazir,
Aylagay purnur Haq qabrini chun badri munir,
Oshiyon bu yer, Muqimiy, xoh javondur, xohi pir,
Ey Navoiy, qullig'ida yo'q o'zingdek bir faqir,
Xusravi shukri shikan Sulton Husayn Boyqara.[2]

---

[1] **Nofa** — mushk. Qora tusli va xushbo'y hidli narsa. Majozan ma'shuqa sochining qoraligiga nisbat beriladi.

* * *

Dahr bo‘stoni aro sarvi ravone topmadim,
Aytura rozi nihonim rozdone topmadim,
Ko‘ksuma qildim nishon abri kamone topmadim,
Mehr ko‘p ko‘rguzdim,
ammo mehribone topmadim.
Jon base qildim fido oromi jone topmadim.

G‘uncha ko‘nglumda qat-qat dirlardog‘i nihon,
Qo‘rqadurmen elga zohir aylasam o‘rtar zamon,
Yor hajrida erurman, do‘stlar bexonumon,
Ishq aro yuz ming malomat o‘qig‘a bo‘ldim nishon,
Bir kamon abruda tuzlikdin nishone topmadim.

Bo‘lsa bir la’li Badaxshon tishlari durr-u adan,
Qomati sarv-u sanubar, sochlari mushki Xo‘tan,
Bosh ayog‘ noz-u qarashma, guljabin g‘uncha dahan,
Ko‘nglim ichra sarv qaddur g‘uncha chekkandin tikan,
Dahr bog‘i ichra bundog‘ gulistone topmadim.

Ongladim bir harf qolmay davri gardun qissasin,
Yak ba yak takror qildim olami dun qissasin,
Ko‘p eshitdim Layli-yu Uzro u, Shirin qissasin,
Ko‘p o‘qudim Vomiq-u Farhod, Majnun qissasin,
O‘z ishimdan bul ajabroq dostone topmadim.

Juz jafoni sandin, ey to‘ti maqolim ko‘rmadim,
Va’da qilding bir vafo, ey nav niholim ko‘rmadim,
G‘ayri bedodu sitam nek-u fiolim ko‘rmadim,
Husn mulki ichra sandek shohi zolim ko‘rmadim,
Ishq ko‘yida o‘zimdek notavone topmadim.

Umrlardur yor vaslining gadoyi garchi men,
Ko‘rmadim g‘ayr az jafo mehri vafoyi garchi men,
Bo‘lmadim hargiz Muqim g‘amdin rahoyi garchi men,
Ul omon ichida bo‘lsun, ey Navoiy, garchi men,
Bir omone bori, mehnatdin amone topmadim.[3]

* * *

Ta'xir qilmang mahvasho, ko'p intizor o'lturg'usi,
Yuzdin niqob ochmay keling gardi g'ubor o'lturg'usi,
Bu yo'lg'a yurma ey zohid, bo'lsang duchor o'lturg'usi,
Bir kun mani ul qotili Majnun shior o'lturg'usi,
O'tru chiqib, javlon qilib devonavor o'lturg'usi.

Ishq ahli javrig'a agar izg'onsalar ham kufr erur,
Yetmakda vaslig'a ishim doim xayol-u fikr erur,
Gulzor aro savdosidin bulbulda har dam zikr erur,
Vasli aro gar o'ldurur, jonimg'a yuz ming shukr erur,
Chun qolsam andin bir nafas hijroni zor o'lturg'usi.

Majnundin o'zga men kibi bu dasht aro sargashta kim?
Savdoyi zulfig'a ani mandek ko'ngul vobasta kim?
Ta'n etma, zohid ishqdin olam aro orasta kim?
Oshiq bo'lurda bilmadim, men notavoni xasta kim:
Hajr o'lsa g'am kuydurg'usi, vasl o'lsa-yor o'lturg'usi.

Mumkin sihatlik bodani gar uzmasang, ey mug'bacha,
Bazmingga ag'yor ahlidin kirguzmasang, ey mug'bacha,
Zulm ila ko'nglim orzusi sen buzmasang, ey mug'bacha,
La'ling zuloli may bila tirguzmasang, ey mug'bacha,
Dayr ichra man dilxastani ranji xumor o'lturg'usi.

Ko'z shabnamidin g'unchani bulbul ochibdur orazin,
Yo ul gul-u rayhon ila sunbul ochibdur orazin,
Emdi xalos o'lmoq, Muqim, mushkil, ochibdur orazin,
Derlar: "Navoiy qatlig'a gul-gul ochibdur orazin",
Yuz ko'rmayin ul qotili chobuksuvor o'lturg'usi.

* * *

Mango har kunda bir yo'l ko'rsam o'shal qoshi qaroni bas,
Bahor ayyomi bo'lsa, may bila obi ravoniy bas,
Tanimni aylasam ishqida xoki ostoni bas,
Kiyik charmi zaif egnimga majnunlug' nishoni bas,
Junun toshi, sinuq boshim uza qush oshyoni bas.

Kishi voqif emas, dardu g'amim har dam o'lur afzun,
Dilim yuz pora hijron xanjaridin, xotirim mahzun,
Judolig' shiddatidin lola yanglig' ko'zlarim purxun,
Damingni asra, ey Isoki, ranjim dafig'a har kun,
G'izo ul oy qilichi zaxmidin bir qatra qoni bas.

Chunon mahv ayladi ishqida ul sarvi ravonimkim,
Bilolmam, dushmanim kim yoki do'sti mehribonim kim,
Raqibim kim, shuru'i g'am qilurda rozdonim[1] kim,
Sango hayvon suyi, ey Xizr, tutgil tarki jonimkim,
Mango yor oldida o'lmak hayoti jovidoniy bas.

Hamisha shohlar xotirida xayl-u hasham fikri,
Faqir-u benavolar dillarida besh-u kam fikri,
Zamona ahli g'ofil, yo'q xayolida adam fikri,
G'aniy ko'nglidadur zar mehri-yu, doim diram fikri,
Maning ko'nglumni kuydurg'on necha dog'i nihoniy bas.

Yetolmas bo'lsa har kim manzili maqsadga tay birla,
Kel emdi, mutribo, xush tut ko'ngulni chang-u nay birla,
Ishim yo'q zarra hargiz davlati Jamshid-u Kay birla,
Sango Kavsar suyi-yu, lahni Dovudiy-u, may birla
Mug'anniy nag'masi bo'lsa, mango jomi mug'oniy bas.

[1] **Rozdon** — sir, yashirin, maxfiy so'z, arz.

Tiriklik kulfati, ey Xizr, bas, ortturma mehnatni,
Berib hayvon suyidin, qo‘ymag‘il jonimg‘a minnatni,
Iloho, chorasozisan Muqimiy ko‘yi g‘urbatni,
Navoiyg‘a o‘lar holatda dema huru jannatni
Sangodur barchasi, ey zohid, mango bir ko‘rmak oni bas.

Fuzuliy g'azaliga muxammaslar

Duo bir umr agar qilsam ijobatdin asar vermaz,
Qayon g'am lashkari birla qadam qo'ysam zafar vermaz,
Maoshim zahr agarchi talx komim nay shakar vermaz,
Manga bodi sabo ul sarv gulruhdin xabar vermaz,
Ochilmas g'unchai baxtim, umidim naxli bar vermaz.

Nigoro, nolishimdin besukundur gunbazi miyno,
Havodisdin yetar boshimg'a yuz bing kulfat-u savdo,
Tarahhum etmading hijron yukidin, garchi, qaddim yo,
To'kib ko'z yoshimi sansiz halokim istaram, ammo,
Ajal paykina seli ashk girdobi guzar vermaz.

Hazar qil, ochma barge, g'uncha, gulshan e'tiborindan,
Bukun xandon o'lib andisha qilmazsan xazonindan,
Fuzun virdi sarikim, mast erur davlat sharobindan,
Qiyos et sha'mdan, vahm ayla charxing inqilobindan,
Kim ul bosh olmog'a qasd etmayincha toji zar vermaz.

Amiri husnsan juz ma'dalat qonunni soz etma,
Har ablahni harimingg'a berib yo'l sharhi roz etma,
Qolib biz benavolar, g'ayr ahlin sarfaroz etma,
Ko'zimda maskan et, xori mujamdan e'tiroz etma,
Guli xandona so'rdim, xora yor o'lmoq zarar vermaz.

Xo'tan ohularidin nofai totor edar halqa,
Bahori lutf birla dashtni gulzor edar halqa,
Birovni e'tibor aylab, birovni xor edar halqa,
Balo zimninda rohat o'ldig'in izhor edar halqa,
Falak behuda xori xushkdin gul bargi tar vermaz.

Qo'yub chiqsang, mabodo, surma ko'za, qoshinga vusma,
Berursan bu malohat birla ranje notavon jisma,

Jafo-yu javrni, ey gul, qulungdin o‘zgaya etma,
Agar jon olmoq istarsan tanimdin tiyg‘ingi kesma —
Ki pajmurda nihola vermayincha suv samar vermaz.

Yugurgay toki olam bog‘ida chun reshasi har yon,
Ato qilmish ani ajrig‘a hosil ezidi Yazdon:
Muqim g‘am birla o‘tsa, shukr, umring tinmayin bir on,
Fuzuliy, dahrdin kom olmoq o‘lmaz o‘lmadan giryon,
Sadaf suv olmayincha abri naysondin guhar vermaz.

* * *

Ohu-yi Chin chashmi pur xummoring aylar orzu,
Nofasi ham turrai tarroring aylar orzu,
Hur-u g'ilmon fe'l ila atvoring aylar orzu,
Bulbuli dil gulshani ruxsoring aylar orzu,
To'tiyi jon la'li shakkarboring aylar orzu.

Dilbaro, o'ylab xayolingla xush o'lmas xotirim,
Yoki mastona xiroming-la xush o'lmas xotirim,
Goh-gohe nim nigohingla xush o'lmas xotirim,
Nomai qosid, payoming-la xush o'lmas xotirim,
O'z labingdin lahjai guftoring aylar orzu.

Ishq dashtida chu Majnun besar-u somon o'lan,
Lolatak qat-qat ko'ngulda g'am sirishki qon o'lan,
Ro'z-u shab vasling so'rog'lab diydasi giryon o'lan,
Sarvu gul nazzorasin naylar sango hayron o'lan,
Orazingla qaddi xush raftoring aylar orzu.

Xanjari nozing-la avval siynasi afgor o'la,
Tarki xobi rohat aylab kechalar bedor o'la,
Ro'zgori tiyra, subhi shomdan ham tor o'la,
Orzu aylarki bandek muttasil bemor o'la,
Kimki chashmi nargisi bemoring aylar orzu.

Oh, yo'xkim oshnoe, zohir etsam dardimi,
Ko'k dutunidin qaro har lahza ohi sardimi,
Kahrabo sonma ilojini bu rangi zardimi,
Zulmati hajringda boxmaz sha'ma
chashmim mardumi,
Partavi ruxsori puranvoring aylar orzu.

Lablaringdin umrlar la'li Badaxshondur xijil,
Qomatingdin sarv ila shamshod doim munfail,[1]
Muntazir yo'lingda hayronmen Muqimiy oy-u yil,
Orzumandi visolingdur Fuzuliy xastadil,
Vasling istab davlati diydoring aylar orzu.

[1] **Munfail** — uyalgan, xijolatlangan.

* * *

To borib ul sho'x ag'yor iladur ulfat sango,
Zahri anduh-u g'am o'ldi oqibat qismat sango,
Umrlar hajrida qon yutmak bo'lub nisbat sango,
Garchi, ey dil, yor uchun yuz verdi yuz mehnat sango,
Zarracha qat'i muhabbat qilmading rahmat sango.

Ey ko'ngil,
har kimga yig'lab chashmi giryon zohir et,
Gul kabi yirtib yaqo, choki giribon zohir et,
Loladek qat-qat yurakdin dog'i pinhon zohir et,
Soxlama naqdi g'ami ishqini, ey jon, zohir et,
Kim vera xabsi badandin chixmag'a ruxsat sango.

Qolmadi bir-bir yurib ko'rdim muolijdan, dedi,
Rangi zardim ilkina surdim muolijdan, dedi,
Nabzimi ko'rguncha o'lturdim muolijdan, dedi,
Chorai behbudimi so'rdim muolijdan, dedi,
Dard dardi ishq esa mumkin emas sihhat sango.

Notavon aftodaedurman, shafiim[1] domaning,
Kosh sursam ko'zga, bo'lsaydi nasibim domaning,
Zaxmima marham nasimi, ey tabibim, domaning,
Do'naram tongla qiyomatda, habibim, domaning,
Mastsan g'aflat sharobidin bukun muhlat sango.

O'zlugimdin qil o'zimni bexabar bir tig' ila,
Qolmag'ay hargiz vujudimdin asar bir tig' ila,
Bismil et yo'lingda, qonimdur xadar bir tig' ila,

[1] **Shafi** — vositachi.

Injidur nolam sani no'la agar bir tig' ila,
Chashmi jalloding eda ehson manga, minnat sango.

Faqr kunjida demay o'tkil, Muqimiy, ko'p-u oz,
Chekma tashvishi tiriklik, haq karimi beniyoz,
Dar haqiqat xislati xush, shevai ajz-u niyoz,
Sanda dun ko'rdum, Fuzuliy, mayli mehrobi namoz,
Tarki ishk etmakmi istarsan, nadur niyat sango?

* * *

O‘lmasa g‘am, cho‘x hasrat ixtisor etmazmidim,
Toqatim yetsaydi, tamkin-u viqor etmazmidim,
Xush yor o‘lsaydi zulmidin firor etmazmidim,
Aql yor o‘lsaydi, tarki ishqi yor etmazmidim,
Ixtiyor o‘lsaydi, rohat ixtiyor etmazmidim.

Jona yetdim, ey jafojo‘,
zahri hijroning yutub,
Aylading bing va’da bo‘ldi subh kelmassan gedub,
O‘lturarsan g‘ayra, ey soqiy, mayi gulgun dutub,
Nega mahram aylading sha’mi, bani mahrum edub,
Ban saning bazmingda jon naqdin nisor etmazmidim.

Dard-u anduh ila ko‘ngil ko‘zgusi zangordur,
Siynalar tiyri jafodin xasta ham afgordur,
Toleyim shum, yor bemehr-u, falak g‘addordur,[1]
Dardimi olamda pinhon dutdigim nochordur,
O‘g‘rasaydim bir hakima oshkor etmazmidim.

Ul ko‘zi ofatni kam-kam ko‘rmaga o‘lsaydi sabr,
O‘zgani vaslina mahram ko‘rmaga o‘lsaydi sabr,
Ko‘rmayub bir lahza bir dam ko‘rmaga o‘lsaydi sabr,
Yor ila ag‘yori hamdam ko‘rmaga o‘lsaydi sabr,
Tarki g‘urbat aylayub, azmi diyor etmazmidim.

Ishq asrorin bani shaydolig‘imdin qil qiyos,
Umr o‘tar g‘aflatda, nafs orolig‘imdin qil qiyos,
Saxt gumrahban[2], dili xorolig‘imdin qil qiyos,

[1] **G‘addor** — xiyonatkor, xoin.

[2] **Gumrah** — yo‘lini yo‘qotgan.

Voizing kufri bani rasvolig‘imdin qil qiyos,
Anda sidq o‘lsaydi, ban taqvo shior etmazmidim.

Ravshan aylar el ko‘zin, yo Rab, ko‘zimni(ng) mardumi,
Xo‘blar rasmida yo oyini mardumlig‘ bumi?
G‘amguzorim yo‘qki, sharh etsam Muqimiy dardimi,
Ey Fuzuliy, dog‘i hijron ila yonmish, ko‘nglumi,
Lolazor ochsaydi sayri lolazor etmazmidim.

Magar jallod chashmingni hidoyat qildi mijgoning,
Itob aylarda jonimg'a inoyat qildi mijgoning,
Na jurm etdimki, javrin benihoyat qildi mijgoning,
Halokimdin ajab bir so'z rivoyat qildi mijgoning,
Ko'zing o'ldirdi-yu, ammo rioyat qildi mijgoning.

Parilardek xiroming ko'rgan insonni shahid aylar,
Nigohing xoh gado-yu, xoh sultonni shahid aylar,
Tishing durni, labing la'li Badaxshonni shahid aylar,
Ko'zing har bir boqishda yuz musulmonni shahid aylar,
Na kofirsanki, qon to'kmakka odat qildi mijgoning.

Sochingdin sho'rishi savdo bilan bechora boshida,
Na bir xobida orom-u va na zavqe maoshida,
Chunon ma'yusman mahrum sarto-sar xaroshida,
Xayoling bazmida erdim kecha ko'nglimni qoshida,
Ko'zing bedodini aytib shikoyat qildi mijgoning.

Yurib chiqsang bu istig'no bilan davron qutulgaymu?
Ko'rib mahvi jamoling bo'lmasa xubon qutulgaymu?
So'zingdin lol bo'lmay to'tilar har yon qutulgaymu?
Iki xunxor jodu ko'zlaringdin jon qutulgaymu?
Bu kofirlarni qatlimga dalolat qildi mijgoning.

Ayo, ey xublarni sarvari, sho'xi chaman oro,
Borurman deb visolingga yetolmayman bu kun, fardo,
O'shal kun bir qaroding jonibi man telbai shaydo,
Mani o'ldurgudek erdi ko'zing mardumlari go'yo,
Chekib har yon sinon saf-saf himoyat qildi mijgoning.

Qoshing shamshiridin har boqqoningda ming sitam erdi,
Bo'lib suv sabr-u toqat chashmai chashmimda nam erdi,

Nigoro, notavon jonimga, bu ozor kam erdi,
Ko‘zing qilgan jafolardin ko‘ngilda yuz alam erdi,
Manga ushbu alamlarni ziyodat qildi mijgoning.

Muqimiy xonavayron manzilimni sanga ayturga,
Qorong‘u shomdin ham mahfilimni sanga ayturga,
Mashaqqatga yeshilmas mushkilimni sanga ayturga,
Borur erdim, Amir, arzi dilimni sanga ayturga,
Muravvat birla qatlimga ishorat qildi mijgoning.

* * *

Garchi taxti saltanatni oshiyon etdim, Amir,
Rangi ro'yimni misoli za'faron etdim, Amir,
Qomatimni g'am yuki birlan kamon etdim, Amir,
Har nechakim fathi iqlimi jahon etdim, Amir,
Andin o'tdim, yor ko'yida makon etdim, Amir.

Ko'z tutarman, mahvashim yuzdin niqob ochg'aymu, deb,
Yo labidin birgina duri guhar sochg'aymu deb,
Istaram, tiyri nigohin ko'ngluma otgaymu deb,
Ul sanam vasli so'rog'idin nishon topg'aymu deb,
Har taraf payki xayolimni ravon etdim, Amir.

Guldek ochilmish dilim topib xayoling mujdasin,
Ko'rmish oyina magar hayron, jamoling mujdasin,
Mehri raxshon topdi o'xshaydur kamoling mujdasin,
Jon bila ko'nglumg'a yetkurdim visoling mujdasin,
Bu gadolarni karamdin komron etdim, Amir.

Qilmas erdim g'aflat ila zulmat-u ravshanni farq,
Etmagan erdim ko'z ochib tig' ila javshanni farq,
Berdi ro' hayrat, qilolmay zuhd ila gulxanni farq,
Etmadim ishqingda, jono, do'st ila dushmanni farq,
Pand berdi do'stlar, dushman gumon etdim, Amir.

Tashlab erdim moumanliq rishtasin dildin uzub,
Ma'dalat bahrig'a yetmay, doimo yurdim yuzub,
Har qayu mahfilda yonsa zulm sha'mi, o'churub,
Ma'siyat mulkin buzub, tarhi binoyi sha'rdub,
Arsai ofoqni dorul-amon etdim, Amir.

Umr o‘tkardim xarobot ahli birlan bir necha,
Bordilar olib meni mayxonasiga bir necha,
Qo‘llarida jom, rindiylarni ko‘rdim may icha,
Muddao soqiy yuzi erdi-yu, husni mug‘bacha,
Dayr arokim xizmati piri mug‘on etdim, Amir.

Do‘st bo‘ldim, ayladim har kimg‘a jonimni fido,
Lola yanglig‘ dog‘i g‘amg‘a qildi oxir mubtalo,
Mehribonlig‘ elg‘a qildim, bo‘ldi boshimg‘a balo,
Har kishig‘akim, vafo qildim, manga qildi jafo,
Olam ahlini sarosar imtihon etdim, Amir.

Zeb ila dunyo arusi manga javlon ayladi,
Ko‘b tamanno-yu havaslar dilni g‘ashyon ayladi,
Siym ila zar mehri ko‘nglumni parishon ayladi,
Lashkari nafs-u havo-u, hirs tug‘yon ayladi,
Jur’atim shulkim, alar birlan qiron etdim, Amir.

Dahrni o‘tdim quloq solmay baland-u pastig‘a,
Ko‘rsam eldin man yamonlig‘, qilmadim man qasdig‘a,
Ko‘shish etdim charxdin yetsa havodis ra’fig‘a,
Xasmi kofirkesh dunyo majorosi dafig‘a,
Satr-u misro’i tag‘ofuldin sinon etdim, Amir.

Yetsa har vayrona uzra maqdamim, obod edi,
Naylayin qilmay nadomat, charx bebunyod edi,
Doimo fikrim raqiblarg‘a ham adl-u dod edi,
Navbahori fitratim doim eram ijod edi,
Har chamankim, tarh soldim, guliston etdim, Amir.

Tuttum a’do xaylig‘a sohibqironlig‘ shevasin,
Zarb qildim elni aylab hukmronlig‘ shevasin,
Ko‘rsatib faqr ahlig‘a shirinzabonlig‘ shevasin,
Baski, ko‘rguzdim ulusg‘a mehribonlig‘ shevasin,
Olam ag‘lini o‘zumga mehribon etdim, Amir.

Ko‘kdin o‘tarkim fig‘onim har kecha bulbul kabi,
Ishq o‘tig‘a kuydurub ko‘nglumni man sunbul kabi,
Kim urardim o‘zni betoqat bo‘lub bismil kabi,
Garchi kuldim zohir elni shod etarg‘a gul kabi,
Lek pinhon g‘unchadek ko‘nglumni qon etdim, Amir.

Yor vaslidin agar topmoq xayol etsang nishon,
Ey Muqim, bo‘lg‘ay el oldida zalil-u notavon,
Kimki mandin so‘rsa gar maqsad yo‘lin, aylay bayon,
Lam’ai[1] shamshir-u himmatdur safobaxshi jahon,
Lojaram[2] elg‘a bu javharni ayon etdim, Amir.

[1] **Lam’a** — porloqlik, ravshanlik, yarqiroqlik.
[2] **Lojaram** — zotan, shubhasiz.

* * *

Nogoh, ey masti tag‘oful netar az ro‘yi karam,
So‘rg‘ali xastalaring holini ko‘rganda qadam,
Sabr-u orom firoqingda chunon ayladi ram,
Kim ko‘z ochma-yu yosh to‘kmay to qonli mijam,
Varaq aylanmadi chun bo‘lmadi barmoq uchi nam.

Qayda huzuri dil ila taqvi-yu toqat bo‘lsun,
Bo huzuri dil ila taqvi-yu toqat bo‘lsun,
Ko‘rmayin manda qachon sabr-u qanoat bo‘lsun,
Sog‘inib sunbul-u zulfingni na rohat bo‘lsun,
Dog‘-dog‘ uzra nasib o‘ldi alam uzra alam.

Ko‘rmadim san kabi bedodgaru dil sangi,
Mahali osti-yu lahzai o‘tmay jangi,
Ishlatib oxiri yuz noz bilan nayrangi,
Go‘yyo mahv bo‘lur qo‘lda xinoning rangi,
Ey pari, noz etagin chekding alamdin kam-kam.

Man-u bir go‘shai xirmon ishim nolai zor,
Dudidin ohimi anjum dema ko‘klarda sharor,
Ustuxonlardan o‘tub tig‘i g‘aming qildi kor,
O‘ylakim, qon labing andishasidin chekdi xumor,
Sud qilmas necha kim, boda icharman har dam.

Qosh o‘rtansa edi shavqi visolingga ko‘ngil,
Yuz qo‘yur erdimi andak xat-u holingga ko‘ngil,
Mahram o‘lmaydi darig‘oki, maqolingga ko‘ngil,
Yo‘lki, topmaydi bukun fikr-u xayolingga ko‘ngul,
Yoki didoringga nazzora bo‘lurmi mahram.

Ko‘zing ohu ko‘zidek ustiga tortib surma,
G‘ayr ila maylar ichib mast kel, emdi turma,
Rashkdin boshima hangomai mahshar qurma,
Hajr tig‘i ila mahjurlaring o‘ldurma,
Muncha ham javr-u jafo aylamak, ey qoshi qalam.

To o‘shal halqai zulfingni asiridurman,
Turfa savdolar ila muddati dayridurman,
Ishq yo‘lida Muqim garchi faqiridurman,
Shukr, iqlimi muhabbatni Amiridurman,
Xayli g‘am lashkarimu dog‘-hasham, ohim-alam.

* * *

Ko‘p kezdim Arab bila Ajamni,
Ko‘rdum necha ravzada haramni,
Bildim, shahi ekansiz Eramni,
Qoshingga teguzmagil qalamni,
Ul xat bila buzmagil raqamni.

Nogah qadingi ko‘rub kaliso,
G‘am uyini maskan, etti ma’vo[1],
Bulbul ko‘rub, o‘ldi mast-u shaydo,
Butxonalar ichra hech tarso,
Bir ko‘rmadi sen kabi sanamni.

Olmas nazarim shahu gadoni,
Yo‘q soyasi mo‘tabar humoni,
Manzur emas hashmati Kayoniy,
Bir kosa sharobi arg‘uvoniy,
Bergil, yo‘q etay hujumi g‘amni.

Arzimni eshitki, sanga derman,
Ishqingda necha g‘amingni yerman,
Billohki, man sango asirman,
Sen — yordin o‘zga kimga derman,
Ko‘nglumdagi dard ila alamni.

Dargohinga purgunoh bo‘ldum,
Ey, voyki, ro‘siyoh bo‘ldum,
Yusuf kabi hibsi choh bo‘ldum,
Ko‘yungda g‘ubori roh bo‘ldum,
Boshimga yeturmading qadamni.

[1] **Ma’vo** — makon, turar joy.

Ey to‘tivashim, takallum ayla,
Chin etma qoshing, tabassum ayla,
Kim aydi sango tazallum ayla,
Oshiqlaringa tarahhum ayla,
Ko‘p aylama javr ila sitamni.

Yo‘qtur qule man kabi qadiming,
Ag‘yor hamishadur nadiming,
Ey, hurmati qodiri Kariming,
Ko‘nglum qushi toyiri hariming,
Sayd etma kabutari haramni.

Shirinmu va yo vaziridursan?
Yo ko‘kni qamar, muniridursan?
Yoinki Muqim basiridursan?
Iqlimi vafo Amiridursan,
Ey shah, bu gadog‘a qil karamni.

* * *

Jon qushiga panohdur kokul,
Vaslig‘a hazor rohdur kokul,
Manga shul ishtibohdur kokul,
Nega muncha siyohdur kokul,
Magaram dudi ohdur kokul.

Ruh purkab urganida so‘zi,
Ko‘zlari go‘yo kiyikni ko‘zi,
Nogohonkim niqobin ochdi o‘zi,
Halqai zulfidin ko‘rindi yuzi,
Holai badri moxdur kokul.

Hukmkashlar bitarga xol-u xatti,
Tashnadur qon to‘karga xol-u xatti,
Tig‘ parron o‘targ‘a xol-u xatti,
Xiylai qatl etarg‘a xol-u xatti,
Ikki zolim guvohdur kokul.

Saydima maxfi dom qurmak uchun,
Donai xolig‘a uchurmak uchun,
Orazig‘a safo oshurmak uchun,
Husn iqbolini yoshurmak uchun,
Toji zeri kulohdur kokul.

Xo‘bro‘larni benaziridur,
Yusufi Misriyni vaziridur,
Dilrabolar Muqimiy asiridur,
Kishvari husnni Amiridur,
Saltanat dastgohdur kokul.

* * *

Ko‘rub qon kokulingni nofai totor xo‘b bo‘ldi,
Barahman bog‘ladi hasrat bilan zunnor, xo‘b bo‘ldi,
Niqobingni yuzungdin olmading, ey yor, xo‘b bo‘ldi,
Bu kun ag‘yorga ko‘rsatmading diydor, xo‘b bo‘ldi,
Ki pinhon aylading oyinadin ruxsor, xo‘b bo‘ldi.

Qiyos et, dilbaro, oshiqni chashmi ashkboridin,
Tanim siymob yanglig‘ beqaroring beqaroridin,
Netar sayr aylasam firdavsi vaslingni kanoridin,
Nazokat gulshanida sabzai xat navbahoridin,
Yuzung bog‘i tarovat topti-yu bisyor xo‘b bo‘ldi.

Urub dam sabza pomoling erur xol-u xating birlan,
Ochilgach lola qat-qat dog‘i hijlat tal’ating birlan,
Chekalmay Moniy hayron suratini surating birlan,
Chamanda sarv o‘zin tutti barobar qomating birlan,
Anga ko‘rguzdi qadding shevai raftor, xo‘b bo‘ldi.

Qilibon g‘amza, imon qasdin aylab, tishlading la’ling,
Qachon dardimga darmon qasdin aylab, tishlading la’ling,
Demaykim, lutf-u ehson qasdin aylab, tishlading la’ling,
Manga pinhon boqib, jon qasdin aylab, tishlading la’ling,
Bu ma’nidin xabardor o‘lmadi ag‘yor, xo‘b bo‘ldi.

Ochardi bargidin gul turfa ochti guluzoringdin,
Varaqlar husni avroqin xusham layl-u nahoringdin,
Jamolingga na nuqson, o‘rgulay, ey zulfi toringdin,
Safo topti yuzung oyinasi xatti g‘uboringdin
Bu ko‘zgu to namoyon ayladi zangor, xo‘b bo‘ldi.

Parivashlar qilib devona savdosida, ey soqiy,
Ramaqqa yetsa jon yo‘q zarra parvosida, ey soqiy,
Yutub zardoblar bu charx miynosida, ey soqiy,
Yomon maxmur edim la’ling tamannosida, ey soqiy,
Karam aylab ichurding bodai sarshor, xo‘b bo‘ldi.

Bihamdilloh, Muqimiy, fazli haq har yerda hamrohim,
Qayonkim azm qilsam, hech kim tutmas sari rohim,
Sipoh-u lashkarim — anduh-u g‘am, tiyri kamon — ohim,
Amiri mulki ishqam, ne so‘rarsan shavkat-u johim,
Kimekim topti bu davlatsaroga bor, xo‘b bo‘ldi.

* * *

Qo‘ymak chamanga, jono, mastona po muborak
Shamshod-u sarv qaddin, qilmoq duto muborak,
Gul rashk etib yuzingga, mahzunnamo, muborak,
Husning kamola yetti, ey mahliqo, muborak,
Oyinai jamoling topti safo, muborak.

Ummid shishasig‘a rahm etmayin toshurding,
G‘am lashkarin yuborib, ey zulmxo‘, shoshurding,
Oshnoya bermay unvon, begonani oshurding,
Xo‘b bo‘ldi, orazingni oyinadin yoshurding,
Ey sho‘xi moh tal’at, sharm-u hayo muborak.

Ul kunki ey pariro‘, gulshanga tushti jilvang.
Tovus ko‘rib xiroming o‘zidin ayladi nang,
Bois o‘shal urib oh, bog‘larda yursa diltang,
To yuzga g‘oza chekting, qonimni to‘kdi g‘amzang,
Noz ilgida, nigoro, bo‘lsin xino muborak.

Ushshoq qullaringdin to bora-bora kechting,
Ag‘yorlarga doim lutf-u karamlar etting,
Bir kecha kelmusham deb, qilding-u va’da, ketding,
Tun qayda mast erding, kim birla boda ichting,
Gul jaybidek ochilgan bandi qabo muborak.

Nomahram ila tun-kun bazm aylading-u yotding,
Bizdin jarima o‘tmay tiyri jafolar otding,
Qadrini xayf bilmay, arzon qulingni sotding,
Harchand menga paymon paymonasin ushotding,
Qilding raqiblarga ahd-u vafo muborak.

O‘tmush tajammul ila, bir shohi husn mulki,
Noz otig‘a minib kaj, boshida kesh bo‘rki,
Devonavor, naylay, bo‘lmay el ichra kulki?
Ul sho‘xi dilraboning bo‘ldim asiri zulfi,
Boshimg‘a tushti savdo, qilsun Xudo muborak.

Xo‘blar ichinda sendek gulchehra, dilrabo kam,
Ahli muhabbat ichra dil xasta men kabi ham,
Hasratlaringda ko‘zdin bir lahza kam emas nam,
Ey yaxshilarni(ng) shohi, bo‘lma raqiba hamdam,
Yoningda ne munosib ul shumi nomuborak.

Chin mulki taxtini(ng) chin xoqonisen, vafo qil,
Gulzori lutf-u donish rayhonisen, vafo qil,
Har dardmand-u bemor darmonisen, vafo qil,
To masnadi malohat sultonisen, vafo qil,
Shahdin karam munosib, quldin duo muborak.

Aql ila oldi hushim bir mohi mahfiloro,
Bo‘ldi Muqim, yo Rab, ishqida zor-u shaydo,
Hayron-u lol edi kim vasfig‘a bo‘lsa go‘yo,
Ul sarv qad xayolin qildi Amir insho,
Fikri salim birla, ta’bi raso muborak.

* * *

Ko‘rungay g‘urbat ahliga, nigoro, xonumon shirin,
Chunonchi xayli insong‘a hayoti jovidon shirin,
Yuzun ko‘rmak menga yuz qatla andin begumon shirin,
Labing achchiq so‘z aytib erdi, bo‘ldi komi jon shirin,
Bu sog‘ar ichramu mavji sharobi arg‘uvon shirin?

Xayol etsam jamolin, mehrdek shuhrat topar ko‘nglum,
Bu g‘am kunjida go‘yo munis-u ulfat topar ko‘nglum;
Niholi qomating yod aylasam, quvvat topar ko‘nglum,
Labing vasfini takror aylagach, lazzat topar ko‘nglum,
Agarchandeki halvo zikridin bo‘lmas dahon shirin.

Ajoyib bir tamosho — men,
tamoshobin o‘zim hayron,
Tabiat qaysi ishni ixtiyor aylarda ro‘gardon,
Tushub o‘t hasrati diydoridin tan sha’mdek so‘zon,
Men o‘lgum yor uchun, ko‘ngul taloshur lablaridin jon,
Ango jon o‘ldi shirin-u, menga oromijon shirin.

Dilim nozikki qobil misli miyno bo‘lsa may zarfi,
Qadah tut, soqiyo, to nimshikan bo‘lsin kulah tarfi,
Bukun yakson ko‘runur menga dunyo daxli-yu sarfi,
Shakar guftorlar la’li hadisidin desam harfi,
Bo‘lur har lahza to‘tidek menga kom-u zabon shirin.

O‘qib taqvo so‘zidin dam-badam takror etar zohid,
O‘zi uyquda, elni uyqudan bedor etar zohid,
Tutubon oshkoro subha-yu dastor[1] etar zohid,

[1] **Dastor** — salla.

Qilib zuhd-u riyoni, ishqdin inkor etar zohid,
Ani ma'zur tut, eshshakka pashmakdin samon shirin.

Kishi xo' qildi gar odat, erur olamda qattiqliq,
Barobar yil-u gar soat, erur olamda qattiqliq,
Chekib sabr, aylasang toat erur olamda qattiqliq.
Qanoat peshaga rohat erur olamda qattiqliq,
Taajjub qilma, gar bo'lsa humoga ustuxon shirin.

Ko'rib diydori Haq, bo'lsun maqoming jannatul-a'lo,
Nazokat gul qilur har misraingdin, ey shahi dono,
Bu bahr ichra sadaf yanglig' Muqimiy, sen duri yakto,
Bukun qaysi shakarlab vasfini qilding, Amir, insho,
Dedi nazmingni ko'rgach har buti shirin: "zabon, shirin".

* * *

Ochma yuzkim, to ko‘rub shoh-u gado qo‘zg‘olmasun,
Solma ko‘p bozorga husningni, baho qo‘zg‘olmasun,
Kokilingni yozma, jon aylab havo qo‘zg‘olmasun,
Sunbuli zulfingni tarqatma, sabo qo‘zg‘olmasun,
Ja’ m qil, har go‘shadin ming benavo qo‘zg‘olmasun.

Hur-u g‘ilmon banda fe’l-u xulqu xush atvoringa,
Kabk ila tovuslar hijlatdadur raftoringa,
To‘tii shirin takallum lol ham guftoringa,
Qilma giso‘lar parishon har nafas ruxsoringa,
Rum aro g‘avg‘o tushub, Chin-u Xito qo‘zg‘olmasun.

Xo‘blar ichra o‘zung yanglig‘ parikirdor kam,
Ko‘rmadi mavzun qadingdek sarv gulzori Eram,
Aylabon abro‘laring har lahza shamshiri dudam,
Dilrabo, pinhoni o‘ldur, aylamay zohir karam,
Jumlai begona birlan oshno qo‘zg‘olmasun.

Otashi ishqing tushub bag‘rimni suv aylar dedim,
Dard-u hijron za’f etib jismimni mo‘ aylar, dedim
Itlaring borganda ko‘yungga g‘ul-u aylar dedim.
Jon-u dil la’lingg‘a yetmak orzu aylar dedim.
Kuldi-yu aydiki: “Tursun, jobajo, qo‘zg‘olmasun”.

Mahliqolar mehridin dillarda tabb-u toblar,
Sajda vaqti bo‘lsa naylay, qoshlari mehroblar,
Topsam endi, ne ajab, bu yo‘lda fathi boblar,
Guljabinlarga murid o‘lmush demang, ahboblar,
Jahlidin zohid olub, qo‘lg‘a aso qo‘zg‘olmasun.

Husn mulkida bo‘lub, yo Rab, hamisha komron,
Davlat-u iqbol ila yong‘ay charog‘ing jovidon,
Xayrixohing men Muqimiy oshkoro-yu, nihon,
Sen Amir-u har qulungdur bir jahongiri zamon,
Xasm torojig‘a qo‘zg‘olsunmu, yo qo‘zg‘olmasun?

Muhayyir g'azaliga muxammas

Tushmay nazarim toqat ajab toq yuzingga,
Yetdim degan, albatta, yiroqroq yuzingga,
Ovora hama shahr ila qishloq yuzingga,
Ey ko'z-u ko'ngil jon bila mushtoq yuzingga,
Mushtoqlig'i shuhrati ofoq yuzingga.

Gavharga faqr ganjini(ng) toshini alishmam,
Mun'imlara darveshlik oshini olishmam,
Jandamga kuhan shohi qumoshini alishmam,
Gar bersa falak oy-u quyoshini alishmam,
Bir kechasi yo bir kuni ul oq yuzingga.

Nargis nigaron bog'da talabkoring o'lubdur,
Tovus ham oshiftai raftoring o'lubdur,
Kim bo'lsaki jon naqd-u xaridoring o'lubdur,
Yuz vajh ila gul bandai ruxsoring o'lubdur,
Desang yeturay maqsadig'a toq yuzingga.

Yo'q sanga barobar bute, Xo'qanda, nigoro,
Yusuf ko'rubon bo'lsa ne tong banda, nigoro,
Zulfing ruhing atrofida raxshanda, nigoro,
Tun-kun bila ravshan ko'runur sanda, nigoro,
Chin demasang oyina olib boq yuzingga.

Dilxastalara lutf etibon Tangri haqi-chun,
Boshimg'a karamdin yetibon Tangri haqi-chun,
O'zdin boradurmen ketibon Tangri haqi-chun,
Bir kecha haramdin chiqibon Tangri haqi-chun,
Ol pardani boqsa netar ushshoq yuzingga.

Yo‘lingda Muqim o‘lmayin o‘lsa bu Muhayyir,
Gar javr-u jafo ko‘rmayin o‘lsa bu Muhayyir,
Yodingda duo qilmayin o‘lsa bu Muhayyir,
Ishqingda fano bo‘lmayin o‘lsa bu Muhayyir,
Mahshar kuni boqqay sani qaydoq yuzingga.

Nodim g'azaliga muxammas

Bu parishon holimi zulfi parishonimg'a deng,
Sochlari rayhon-u sunbul yuz gulistonimg'a deng,
Ya'ni bebok-u sitamgar, nomusulmonimg'a deng,
Do'stlar arzim borib ul yori jononimg'a deng,
Jon chiqarg'a yetti hajridin muni jonimg'a deng.

Naylayin har yerda bo'ldim siymbarlar oshiqi,
Dilrabolar, sho'xlar, zebo sanamlar oshiqi,
Bo'lmayin umri o'tib zarrin kamarlar oshiqi,
Eyki, dersiz na uchun bo'lding kibarlar oshiqi,
Yo'q bu ishda ixtiyorim, chashmi hayronimg'a deng.

Ushbu Majnuni biyoboni baliyyat arzini,
Nuh yanglig' g'arqi to'foni baliyyat arzini,
Go'yidek sargashta chavgoni baliyyat arzini,
Yusufi mahbus zindoni baliyyat arzini,
Korvoni Misr behjat piri Kan'onimg'a deng.

Ohkim, har tun bo'lib ag'yorlarg'a yor-yor,
Bu alamlarga chidalmay ko'zda yoshim shashqator,
Yo'llarida bo'lmasun hech kim maningdek intizor,
Bazmoro barbat-u, tanbur-u, qonun-u, dutor,
Za'fdin tor o'lg'anim hur xushilxonimg'a deng.

Ishq o'tig'a ustixonlar yondi monandi o'tun,
Tiyra ohimni tutunidin sipehri niligun,
Jon labimga yetdi, qildi dard-u g'am bag'rimni xun,
Ey Masihoyi nasimi subhidam Tangri uchun
Zarra-zarra holimi xurshidi tobonimg'a deng.

Bo‘ldi kun-kundin fuzun hajrida ranj-u mehnatim,
Soyadek turmakka yerdin yo‘q mador-u quvvatim,
Bo‘yla anduh-u, malol-u, dard-u, dog‘-u kulfatim,
Hudhudi payki sabo g‘urbatda ko‘rgan shiddatim,
Boshingizni hurmati shohi Sulaymonimg‘a deng,

Navbahor o‘ldi-yu, derlar sabza no‘sh-u yosuman,
Navhagar shavqida bulbul kabk-u qumri xush suxan,
Diydai nargis yo‘lida halqai baytulhazan,
Lola kuldi, gul ochildi, bo‘ldi gulgashti chaman,
Sayri bog‘ etsun kelib sarvi xiromonimg‘a deng.

Umrlar kezdim jahon past-u balandin man yomon,
Tinmadim vaslin so‘rog‘lab lahza bir dam, bir zamon,
Ketsa armonlar bilan ko‘rmay, Muqimiy, nogahon,
O‘lsa Nodim topmayin maqsud ahlidin nishon,
Yod etib, ey do‘stlar, afsus-u armonimg‘a deng.

Muntazir g'azaliga muxammas

Bute doramki, tarso az xatash zunnorho dorad,
Ba yodi jilvaash kabki dari raftorho dorad,
Hazoron hamchu man dar har qadam bemorho dorad,
Maranj, ey dil, zi ishqash gar jafo ozorho dorad,
Muhabbat inchunin bo ishqbozon korho dorad.

Kulohi faqr— tojam, shavkati Doro dihad ta'bam,
Ba kunji benishoni shuhrati anqo dihad ta'bam,
Gahi maxmuriyam kayfiyati sahbo dihad ta'bam,
Ajab nabvad ba jannat arzi istig'no dihad ta'bam,
Chunin k-az fikri ro'yash xotiram gulzorho dorad.

Shuure ko' namoyam farq az fardoi xud diyro,
Nadonam ham chunon mustaqbalam ayyomi moziyro,
Dimog'i imtiyozam nest az anduh shodiyro,
Tajalli go'yamat yo ruhi qudsi xonamat, zero,
Zaboni shavqam az devonagi guftorho dorad.

Xayoli kokulash xotir parishon mekunad, varna,
Shabamro yodi ruxsorash charog'on mekunad, varna,
Tabiat lola oso dog'isomon mekunad, varna,
Dili zoram g'amash dar siyna pinhon mekunad, varna,
Kitobatho, suxanho, rozho asrorho dorad.

Agar xohiki gardi az gazandi xalq amon, ey dil,
Makun hargiz qabuli ixtiloti nokason, ey dil,
Xusho mardeki dar yak go'shae boshad nihon, ey dil,
Mapurs az betamizihoi abnoi zamon, ey dil,
K-az in saktinaton oinaam zangorho dorad.

Qanoat kard har kas yoft ganji begaroni xud,
Ba obe tar shavad non did ayshi jovidoni xud,
Namearzand giriftan minnati dunon ba joni xud,
Ba dunyo qoniam bo ne'mati ta'bi ravoni xud,
Bahori fitratam sehr ofarin ash'orho dorad.

Bado'sham bori hasti basta diydam to dar in sahro,
Nadoram g'ayri Haq bar hech koram az kase yoro,
Agar pursidai holi Muqimiy besar-u poro, —
Ba yoron gulfurush-u mekunam, bo munkiron — xoro,
Ba har mahfil jununam Muntazir bozorho dorad.

Tarjimasi:

Shunday sevgilim borki,
uning kokillari tarsolar uchun zunnorlik xizmatini qiladi,
Chiroyli yurishlari bilan shuhrat qozongan dala kakliklari
o'z xunarlarini uning jilvalaridan olganlar,
Maning sevikligim o'zining har
bir qadamida manga o'xshagan
minglarcha maftun bo'lganlarni uchratadi,
Ey ko'ngul,
sanga behisob jafolar yetkazsa ham uning ishqidan ranjima,
Chunki sevgi muhabbat
ahliga shu taxlitda alamlarni ko'rsatadi.

Maning boshimdagi faqirlik kulohi tojimdur,
Tabiatim esa Doro sha'ni shavkatidan
ulug'roq sha'n-u shavkatga egadur,
O'zim benishonlik burchagida qolib ketgan bo'lsam ham,
tabiatim anqo shuhratini eslatadi.
O'zim maxmurman (xumorda qolganman),
tabiatim esa sof may
kayfini beradi,
Maning bu tabiatim jannatni pisand qilmasa ajab ermas,
Chunki go'zal yuzining xayoli maning
xotirimda jannatdan ortiqroq gulzorlar yaratadi.

Kechamni ertangi kunimdan farq qilg'usi
idrokimdan ajralganman.
Shunday bo'lgach,
kelajagimni ham o'tmishimdan farq
qila olmayman-da.
Ko'nglim esa shodlik bilan qayg'uning farqiga borolmaydi,

Goh "tajalli — namoyon bo'l" deyman,
goh "ey muqaddas ruh!" deyman,
Yorim kokilining xayoli
mening xotirimni parishon qilmasa edi,
Qop-qora zulmat kechamni uning ruxsori xayoli
bilan yoritmasamedi u,
tabiatimni lola kabi dog' qilmasa edi,
Mushtoq dilim uning siynasiga yashiringan bo'lmasa edi,
Bu kitoblar, bu so'zlar, bu xil ko'ngul sirlari tug'ilmas edi.

Agar zamon ahli zararlaridan qutulishni istasang, ey dil,
Nokaslar bilan zinhor aloqa qilma, ey dil,
Bir go'shada o'zini yashirin tutgan odam qanday yaxshi,
ey dil,
Zamon ahlining betamizliklaridan og'iz ochma, ey dil,
Chunki bu it tabiatliklar so'zidan maning
oynam rangi xira bo'lgan.
Qanoatlik kishi behisob xazinaga ega bo'ladi,
Qotgan nonni suvga ivitib yeb qanoat
qilgan odam abadiy rohatga
ega bo'ladi,
Pastkash odamlarning minnatlarini o'z ustingga olish
durust emas.
Bu dunyoda "ta'bi ravon" (she'riy iste'dod)
bo'lish fazilatim bilan qanoatlanaman,
Chunki zakovatim mo'jizaga o'xshash she'rlar yaratadi.

Shu dunyo sahrosida tiriklik yukini ko'tarishga boshlab,
u bilan aloqa qilishga kirishganimdan beri,
Hech bir ishimga haqdan boshqa madadkor topmadim,
Oyoq yalang qolgan Muqimiy holini so'rasang,
Do'stlarga gulfurushlik qilib dushmanlarga tikon sanchaman,
Har bir joyda mening savdoyiligim, ey Muntazir, bozor qiladi.

Kiygan liboslaringiz, dastoringiz chiroylik,
Toza matolaringiz, bozoringiz chiroylik,
Payg'omingiz farahbaxsh, axboringiz[1] chiroylik,
Jannatni gullaridin gulzoringiz chiroylik,
Hur-u pari yuzidin ruxsoringiz chiroylik.

Har vajhdin sumanbar, qomatda sarv paykar,
Insof aylasam yo'q sizdek jahonda dilbar,
Har necha vasfingizg'a sig'maydi tang daftar,
Ko'rganda qomatingiz bo'lg'ay xijil sanavbar,
Tovus jilvasidin raftoringiz chiroylik.

Oydek yetib kamola, ko'rmang zavol hargiz,
La'li labingiz o'lmas obi zilol hargiz,
To'ti kamolingizdin bo'lmasmu lol hargiz,
Har qancha qilsangiz ham kelmas malol hargiz,
Yaxshi erur jafongiz, ozoringiz chiroylik.

Umre baland bo'lsun iqbol-u davlatingiz,
Kam bo'lmasun hamisha Doroyi shavkatingiz,
Gul bog' orazingiz, rayhon erur xatingiz,
Har bir-biridin ahsan af'ol-u xislatingiz,
Kirdoringiz yarashkan, atvoringiz chiroylik.

G'ilmonmusiz basharsiz, qaydog'siz o'zingiz,
Bo'lgaymu muncha issig' yo o'tmu yulduzingiz,
Jonlar topar halovat, qand-u asal so'zingiz,
Olma qizil yuzingiz, bodom erur ko'zingiz,
Ta'rifi anjiringiz, anoringiz chiroylik.

[1] **Axbor** — xabarlar, ma'lumotlar.

Ey, husn kishvarini(ng) taxtida yakka sulton,
Mumtoz dilrabosiz, chokar ja'mii hubon,
Yetmakka vaslingizg'a bormu, Muqimiy, imkon,
Furqat, ko'rib ko'ngillar bo'lmas nechuk parishon,
Bellarda kokulingiz, zunoringiz chiroylik.

* * *

Dilbarekim, olam istig'nosidin tashvirda,
Yo'q qoshi oldida burrolig' dami shamshirda,
Lol etar shirin takallum to'tini taqrirda,
Bir qamar siymoni ko'rdim baldai Kashmirda,
Ko'zlari masxur-u yuz jodu erur tasxirda.

Qaddi mavzunlig'da, sho'xekim, nazokat intixob,
Lablari — la'li Badaxshon, tishlari — durri xushob,
Husn taxtida tahammul[1] pesha-yu oliyjanob,
Zarra-zarra zar sochar boshig'a har kun oftob,
Subh kelgach, kecha yotib chashmai iksirda.

Mast qildi jumlai shoh-u gadoni ishqidin,
Ayladi devona rindu porsoni ishqidin,
Dema g'ofil pashshae tokim humoni ishqidin,
Holi ermas hech kishi ul dilraboni ishqidin,
Zulfig'a dil bastalig' har bir juvon-u pirda.

So'rma parvozim, par-u bolimni,
bo'lmishman asir,
Orzu birlan havaslardin qutulmishman asir,
Goh yig'lab, goh ahvolimg'a kulmishman asir,
Aydim: "Ey jon ofati, zulfingga bo'lmishman asir",
Dedi: "Bu savdoni qo'y, umring o'tar zanjirda".

Mohi tobon matlai anvoridin bir nuqtadur,
Hur-u g'ilmon shevasi atvoridin bir nuqtadur,
Jilvai kabki dari raftoridin bir nuqtadur,

[1] **Tahammul** — sabr, toqat.

Qoshi o‘rtosida xol asroridin bir nuqtadur,
Surai “Nun” o‘qidim payvasta har tafsirda.

“Qomating bog‘ ichra yaktodur”, dedim, aydi kulub,
“Oshiqa vasling tamannodur”, dedim, aydi kulub,
“Xatlaringdin diyda biynodur”, dedim, aydi kulub,
“Nuqta lab ustida bejodur”, dedim, aydi kulub:
“Sahv qilmish kotibi Qudrat magar tahrirda”.

Maqdamidin zeb-u oroyish topib sahni chaman,
Yo‘lig‘a gullar nisor aylab, Muqimiy zar tuman,
Sochibon nogoh tabassum birla lo‘lu-yi Adan,
Aydi: “Ey bechora, qilding na uchun tarki vatan?”
Man dedim: “G‘urbatda Furqat bor ekan taqdirda”.

Zavqiy g'azaliga muxammas

Ey kecha-kunduz xayolim san pari-paykardadur,
Termulurman ko'z yo'lingda halqaekim dardadur,
Sandakim lutf-u malohat, qaysi siyminbardadur,
Orazing nuri qachon xurshidi puranvardadur,
Yo guliston ichra ochilgan guli ahmardadur.

Xulqinga taslim o'shal vaqti itob-u qahrda,
Ko'rmadi hech kim misolingni na sahro, shahrda,
Bo'lmagan qul sanga yo'qtur Movarounnahrda,
Bo'lsa bo'lg'ay xo'bro'lar, sarv qadlar dahrda,
Sandagi nozik adoliq qaysi bir dilbardadur.

Xatm erur sanga bashardin to basharlig' shevasi,
Qaddinga zebo ajab zarrin kamarlig' shevasi,
Muncha jodu ko'zlaringni qon to'karlig' shevasi,
Dilrabolig'lar ravishi jilvagarlig' shevasi,
Sanda, ey noz ofarin, sho'xi sitamparvardadur.

Ey xayoli birla xush darvishi dil ogohlar,
Hech bir jon yo'qki, sansiz ersa chekmas ohlar,
Orzumandi jamoling oyjabinlar, mohlar,
Qullug'ini qilmadilar, da'vi qilmay shohlar,
Poybo'singni tamannosi necha Qaysardadur.

Ey g'ubori makdamingdin sabz-u tar bog'i Eram,
Yig'lay-yig'lay hasratingdin qolmadi ko'zlarda nam,
Notavon bemorman boqsang netar, Isoi dam,
Ichmadi obi hayotingdin shirin suv Xizr ham,
Lazzati la'ling magar, jannat aro Kavsardadur.

O‘zgalar hamdamlaring, begonalar yo‘ldosh uchun,
O‘rtanurman rashk o‘tig‘a san egilma qosh uchun,
Bir nigohi marhamat bormu mani qo‘llosh uchun,
Durri nodir tishlaringga, labga la’l o‘xshosh uchun,
Qadr-u qiymat el ichida la’l ila gavhardadur.

Goh ko‘rsatsang-chi diydoringni mushtoq ahlig‘a,
Yonsa mahfilda jamoling sha’mi xushroq ahlig‘a,
Bulhavaslarga tag‘oful qilg‘il-u, boq ahlig‘a,
Rahm qil, bo‘lsang musulmonzoda ushshoq ahlig‘a,
Sangdil, berahm-u, zolimxo‘yliq kofirdadur.

Sabzai xattingmu, ey shirin zabon, lablar uza,
Chashma chog‘lab yoki Xizr etti makon lablar uza,
Qo‘ydi uch nuqta magar kavsar dahan lablar uza,
Xollaring davri surohi arg‘uvon lablar uza,
Yo chibinlarmu halovat istayub shakkardadur.

Bir boqib o‘tsang na bo‘lg‘ay, yori jon, ko‘nglum uchun,
Ya’ni to‘lgan loladek hajringda qon ko‘nglum uchun,
Bo‘lmading bir kecha yo‘qlab, mehmon ko‘nglum uchun,
Iltifot et kambag‘alga notavon ko‘nglum uchun,
Ham degoni qo‘rqaman bu sho‘xliklar zardadur.

Madhi avsofingni ash’orimdin, ey barno, eshit,
Bo‘ldi sha’ningga Muqimiyni tili go‘yo, eshit,
Ayladi sof durdidin har bandni zebo, eshit,
Nozaninlig‘ vasfing, ey mahbubi dil oro eshit,
Zavqiy insho aylamish ziynat etib daftardadur.

Kamiy g'azaliga muxammas

Loladek bag'rimni qilmay qo'ymading qon etmayin,
Demading termulturib yo'limda hayron etmayin,
Naylay el oldida zorim namoyon etmayin,
Hargiz emdi yo'q ilojim oh-u afg'on etmayin,
Oshkoro bo'ldi ishqing sirri pinhon etmayin.

Orazingga ko'z tikilgan birla aslo to'ymadi,
Ko'zlaring jallod erurkim, qo'ymadi to so'ymadi,
Jon desam rashk o'tidin kuydi degaysan, kuymadi,
Otashin ruxsor ila zulfing xayoli qo'ymadi,
O'tg'a tushkan tordek jismimni bejon etmayin.

Muddate yeldim, yugurdim, yetmadim jono, sango,
Bo'lmadi harchand kezdim hech hosil muddao,
Ey, g'ubori naqshi poying jon ko'zig'a to'tiyo,
Sharbati la'li labing zikri meni lab tashnago,
Bas erur minba'd fikri obi-hayvon etmayin.

Ey tag'oful pesha, mayl etmak necha ozorga,
Oshno qaydin ham o'ldim san jafo kirdorga,
Boqmading yo'lingda mendek notavon zorga,
Manga qahr aylab damodam, lutf etib ag'yorga,
O'rtading jon-u dilimni zarra ehson etmayin.

Charxi kajraftordin[1] har lahza afzundur[2], g'amim,
Sharh etarga yo'q rafiqim, g'amgusorim, hamdamim,
Gulsitonlar sayridin sarvi qadingdur matlabim,
Xokbo'si ostanang aylamakdur maqsadim,
Tinmog'umdur toki sa'yida fido jon etmayin.

---

[1] **Kajraftor** — teskari yuruvchi, hiylakor.

[2] **Afzun** — ortiq, ko'p ziyoda.

Dil Eram bog‘ini xush ko‘rmas, parizodin netay,
Yor tavfiq o‘lsa emdi orzulardin kechay,
Xilvat istab, rishtai ulfat xaloyiqdin uzay,
Ul muanbar xat, yuzi gul, sarv qad yodin etay,
Man bukun sayri bahor-u, bog‘-u bo‘ston etmayin.

Afv qil jurmin Muqim aylab karam, yo Rab aning,
Shomi umridin oqartur subhidam, yo Rab aning,
Yor javr aylar agarchi dam-badam, yo Rab aning,
Naxli qaddin bori g‘amdin qilma xam, yo Rab aning,
Chekmadi sar to Kamiy chashmini giryon etmayin.

Azimiy g'azaliga muxammas

Ushshoq ko'ngli ishq durrig'a xazonadur,
Tiyri balog'a jonlari doim nishonadur,
Lashkarlari nadomat-u, g'am shomiyonadur,
Har qayda sho'ri zamzamai oshiqonadur,
Sultoni ishq davlatiga shodiyonadur.

Orif Xudodin o'zganing zikrin deyolmag'ay,
Haq yodi birla umri o'tub, uxlayolmagay,
So'zi dilini kimsaga zohir qilolmagay,
Ahlini topsa oshiq, o'zin asrayolmagay,
Ko'ksida oh-u, ko'zda sirishki ravonadur.

Ozoda ulki, dahrning asbobidin kechar,
Jomi nishot o'rnig'a g'am bodasin yutar,
Bir xilvat ichra olib o'zni, xalqdin qochar,
Kimki zamona ahlidin o'zni yiroq tutar,
Anqoyi Qof,
qurbi baland oshyonadur.

Ey bulhavaslar, injima zinhor hajridin,
Bo'lsang kerakki xasta-vu bemor hajridin,
Qil subh-u shom diydani xunbor hajridin,
Oshiq tiriklay o'lgon erur yor hajridin,
Dunyodin o'tgoni ajal ango bahonadur.

Tochand harza kezmak-u, behuda guftugo'y,
Ro'zi jazoda bo'lma mabodo siyohro'y,
Gar istasang visolidin ul gul nishoni bo'y,
Ishq istar ersang, dargahi dil uzra boshni qo'y,
Navmid bo'lmagilki, ulug' ostonadur.

Oqil chu lola xurram ko‘nglini qon tutar,
Bir gavharedurki, topgon nihon tutar,
Bir go‘shayi fanoda tun-kun nihon tutar,
Benisbateki o‘zini shayxi zamon tutar,
Ul behayo mufattine ahli zamonadur.

Mag‘ruri joh bo‘lma-yu, tark ayla mulk-u mol,
Ketmish qayona ota-ona, andin ibrat ol,
Topgay baqoyi umr, Muqim, bir kuni zavol,
Hirs-u havoni o‘zdin, Azimo, kanora ol,
Yo‘qsa, tamomi qilg‘on ishing dom-u donadur.

Almaiy g'azaliga muxammas

Ayru sandan suvdin ayrilgan kabi bolig' hayot,
Bo'ldi dardidin judolig' chehrasi sorig' hayot,
Bo'lmadi g'amdin yo'lingda bir nafas forig' hayot,
Ey, xayoli jonim ichra, tanda jon yanglig' hayot,
Kelki, sansiz talx bo'ldi jonima totlig' hayot.

Ey, muhabbat ahlining jismida jondur fikrating,
Ochsalar til so'z demakda tarjimondur fikrating,
Bo'lmasa yurmak tirik bir dam gumondur fikrating,
Ranglarimda qonim o'rnig'a ravondur fikrating,
Paykarimda otashi ishqing erur issig' hayot.

Furqat ichra kechalar yo'q lahza oromim na ro'z,
Ayladi afsus xokistar tanimni dard-u so'z,
Istamang devonadin, ey hush eli fahmi rumuz,
Hajrida tunlarni o'tkardim tirikdurman hanuz,
Ey, ajabkim,
muncha ham bo'lmish manga qattig' hayot.

Ey, karamdin dargahingda aylagan har xasni kas,
Faxr etar anqoya lutfingdin nazar topkan magas,
Poymoli dahrman yo'q sandin o'zga dodras,
Ashklik tufrog'im uzra ruhdek urg'il nafas,
Bo'lmag'ay nuqson damingdin topsa bir bolchig' hayot.

Subhi vaslin ko'rsatib, shomig'a qilg'uncha asir,
Yuz tuman dard-u balo domig'a qilg'uncha asir,
Shum raqiblar ta'n-u dashnomig'a qilg'uncha asir,
Aybjo' dushmanlarim komig'a qilg'uncha asir,
Manga, ey taqdir, maqsudim bu durkim, yig' hayot.

Elgadur sansiz tiriklik, manga chun samdur vale,
Dam dema gar chiqsa g‘aflat birla ul g‘amdur vale,
Har damekim o‘tsa haq yodida ul damdur vale,
Umr agar xush o‘tsa umri Nuh ham kamdur vale,
Ko‘p uzundur ko‘z yumib ichquncha kulfatlig‘ hayot.

Ranj-u mehnat sog‘arin kamdurki davron yutdirur,
Toleyim ham necha kim ortuqcha pinhon yutdirur,
Charx sillisiz Muqimiyg‘a qachon non yutdirur,
Almayg‘a baski baxti dam-badam qon yutdirur,
Margdur shirin qotida zahrdin achchig‘ hayot.

Muxammasi Muqimiy
bar g'azali Ozariy

(Ozariy g'azaliga Muqimiy muxammasi)

Kilki azalki, xol-u xatti dilrabo navisht,
Bar ma'niyi lolaruxoni benavo navisht,
G'amro ba ahli ishq zi bahri g'izo navisht,
Avval qalam, ki daftari hukmi qazo navisht,
Xato navisht shavqi tu bar joni mo navisht.

Az charx kas nadid bajuz kulfat-u xalal,
Dar lolaho xabar nigar, sad dog' dar bag'al,
Mondam ba hajr, ki mehr jafo gardad badal,
Chun menavisht "Qol-u balo" kotibi azal,
Navbat ba mo rasid-u, "Bali"ro "balo" navisht.

Rahme namo ba holi man, ey, shohi muhtasham,
Qomat shikasta omu, chu piron zi bori g'am,
To chand zahri furqatat hajri turo kasham?!
Daste nadoshtam, ki qalamro qalam kunam,
Az daftari visoli tu nomam judo navisht.

Bar xok zi qudratash ezid, ki dod jon,
Dar hayoti omadem basad hasrat-u fig'on,
Dog'i g'amash chu lola shud dar dilam nihon.
Ro'zo,ki menavisht qadar rizqi oshiqon,
Go'yo nasibi man hama jabr-u jafo navisht.

Juz Haq nadonad onchi shaqi kist? Kist raso,
Sirri haqiqat har ki bijo'yad, agar xato,
Oyo, chi xohad holi Muqiymi tu dar jazo,
Ahkomi xalqro chu navisht, Ozariy, qazo,
Ma'lum nest, ki ahli saodat kiro navisht.

Mazmuni:

Qazo-qudrat qalami dilrabolarning xol va xatti ta'rifini
Lolaga o'xshagan yuzi va bag'ri qon oshiqlarga ishora qilib yozdi.
G'amni ishq ahliga oziq qilib yozdi,
Qalam birinchi marta qazo hukmini yozayotganda,
sening ishqing shavqini bizning jonimiz sahifasiga xato yozdi.

Hech bir kishi falakdin kulfat va g'amdan boshqa narsani ko'rmadi,
Lolalar holidan xabar ol,
uning qo'ynidagi yuzlarcha dog'larga qara,
Ayriliqda qoldim, sening mehring jafo bilan badal bo'ldi,
Azal kotibi har kimning peshonasiga yozayotganda,
Bizga navbat keldi-yu, "bali" — (ha)ni "balo" tarzida yozdi.

Ey, hashamatli shoh, mening holimga bir rahm qil,
Biz qariyalar kabi g'am yuki ostida qomati singanlardanmiz,
Qachongacha sening ayriliq azobing zahrini tortaman,
Qalamni kesib tashlay desam, biror qo'lim yo'q,
U qalam sening visoling daftaridan mening
nomamni judo qilib yozdi.

Yaratuvchi o'z qudrati bilan tuproqqa jon ato qilganda,
Biz bu borliqqa (dunyoga) yuz hasrat va nadomat bilan keldik,
Yor g'amining dog'i lola kabi ko'ksimga yashirindi,
Taqdir oshiqlar rizqini o'lchab yozayotganda,
Go'yo mening nasibamga jabr-u jafonigina yozdi.
Kim gunohkor, kim raso ekanligini
Haqdan boshqa hech kim bilmaydi.
Kimki haqiqat sirrini izlasa, u xato qiladi,
Muqimiyning ahvoli qiyomat kunida qanday kechar ekan?
Ey Ozariy, qazo-yu qudrat xalq haqidagi hukmni yozayotganda,
Kimni saodat ahli qatoriga yozishi ma'lum emasdir.

TA'BI XUD MUXAMMASLAR

Muqimiy o'zining "yo Rab" radifli g'azaliga muxammasi

Kuyub ishqing o'tig'a doimo bo'ldim fano yo Rab,
Dutunimdin qaro to'n kiymish ul sab'i samo, yo Rab,
Na qildim sanga kim etding mani andin judo, yo Rab,
Yutardim zahr hajring ishqida nozik ado, yo Rab.
Bu yanglig' talx komim, bormu dardimg'a davo, yo Rab.

Xam o'ldi qomatim bori g'amingda g'urbatingdinkim,
Xazon yafrog'i yanglig' sarg'oyibman furqatingdinkim,
Tarahhum etmading berahm bir yo'li shafqatingdinkim,
Kimki oldida yig'lay ul jafo-jo' hasratingdinkim,
Qorib bo'ldi bu kun begonalarg'a oshno, yo Rab.

Chamandin gul uzarg'a intizoram fasl emas mumkin,
Kirib bahr ichra olmoq gavhari noyob emas mumkin,
Solib bo'ynimg'a zulfin qilg'ali qullob[1] emas mumkin,
Yotibman muntazir yo'lida, garchi vasl emas mumkin,
Kechar ne na' v holing, desa bir yo'l man rizo, yo Rab.

Jahonga to kelibman ko'zni nomahram sari ochdim,
Tuzuk ishlarni tashlab, doimo isyon sari qochtim,
Tunu-kun aysh-u ishrat birla g'aflat bodasin ichtim,
Hayotim mazraig'a ma'siyatlar donasin sochtim,
Agarchi tong-la lutf et, hosilim jurm-u xato, yo Rab.

Meningdek benavog'a oy jamoling ko'rmog'i mushkul,
Izing tufrog'in aylab to'tiyo chun topmog'i mushkul,
Yurakda yongan o'tni suv bilan so'ndurmog'i mushkil,

[1] **Qullob** — changak, ilgak.

Harimi qurbiga mendek gadoni yetmaki mushkul,
Anikim dargohida bo'lsa sultonlar gado, yo Rab.

Qading zebosidin ul sarv-u ra'nolar erur xurram,
Ko'zing maxmuridin ul jomi sahbolar erur xurram,
Dahoning g'unchasidin durri yaktolar[1] erur xurram,
Bahori orozingdin ko'h-u sahrolar erur xurram,
Qilur shavqi jamoling birla bulbullar navo yo Rab.

G'ami anduh-u motam birlakim vobastadur Majnun,
Jamoling ishtiyoqida base dil xastadur Majnun,
Xayolingdin badarmon ro'z-u shab oshuftadur Majnun,
Agar bir umr hijron dashtida sargardondur Majnun,
Anga Layli bahona, maqsadim san muddao, yo Rab.

Fujurim haddin afzun chun misli afgori borondur,
Nihoyat yo'q angokim jumlai bargi daraxtondur,
Qulingman rahm qilsang, rahmating behaddi poyondur,
Hidoyat qilmasang tavfiq-u fazling, g'arqi isyondur,
Ibodatlarda nuqson ko'p, namozimda riyo, yo Rab.

Yotib vayronalarda xasta qul, noshod-u nokomi,
Beribdur subhi baxtimg'a qoraytib zulmati shomi,
Tutub taxmisi nazmi chun zaif Jomiyg'a, deb Jomiy,
Iki olamda bo'lg'il dastigir-u malja-u homiy,
Muqimiyg'a o'zingdan o'zga yo'qdur muttaqo, yo Rab.[1]

[1] **Yakto** — yakka, tengsiz.

* * *

Boshlara ishqing tushub, savdo bo‘lurmu muncha ham?
El aro pinhon sirim ifsho bo‘lurmu muncha ham?
G‘am yukidin, oh, qaddim yo bo‘lurmu muncha ham?
Ey, chamanda qomating ra’no bo‘lurmu muncha ham?
Olloh, Olloh, ko‘z degan shahlo bo‘lurmu muncha ham.

Sayri gulshan qilding ul subheki mastona chiqib,
Sabzalar bosh chekdi ta’zimingga to nargis turib,
Pardasiz kirgan chog‘ing savsan safiga ot surib,
Gul yoqo chok etdi hijlatdin, dedi nogah ko‘rub:
“Tavbakim, oraz degan hamro bo‘lurmu muncha ham?”

Lazzatin shirin so‘zing to‘ti shakardin ko‘rmadi,
La’li nobing mavjini gul bargi tardin ko‘rmadi,
Oy yuzing nurin falak shams-u qamardin ko‘rmadi,
Ofati jon hech kishi sandek bashardin ko‘rmadi,
Husn mulkida kishi tanho bo‘lurmu muncha ham?

Behayo gullar bog‘ingda turmasun, ey bog‘bon,
Ochilib behuda sunbul kulmasun, ey bog‘bon,
Qaddiga shamshod mag‘rur o‘lmasun, ey bog‘bon,
Lofi noziklikni sarving urmasun, ey bog‘bon,
Botil ishq ahkomida da’vo bo‘lurmu muncha ham?

Bedavodir dardi, bemoringni ko‘rmaysan hanuz,
Yetdi ko‘kka nola, yodingga keturmaysan hanuz,
Mushkil ishlar senga osondur, biturmaysan hanuz,
Qonga bag‘rim loladek to‘ldi-yu, so‘rmaysan hanuz,
Ey, maqoming avji istig‘no bo‘lurmu muncha ham?

Muttasil bazm aylasang ag‘yor ila layl-u nahor,
Rashk o‘tig‘a o‘rtanib ham bo‘lmasunmu dil figor,
Naylayin yurmay g‘amingda darbadar Majnun shior,
Hushimi boshdin olib hajringda qilding beqaror,
Notavon ko‘nglimga ishqing jo bo‘lurmu muncha ham?

Tobakay mundog‘ tag‘oful, holi zorimni bilib,
Qil jamolingdin munavvar kulbami ko‘zga ilib,
Ne bo‘lur hasrat eshitsang to sahar, oqshom kelib?
Yo‘qmu rahming kelmading, ko‘zlar teshildi termulib,
Degan odam sho‘xi beparvo bo‘lurmu muncha ham?

Ahd-u paymonlar ushatding qadrdonim, deb axir,
Munisim ham, hamdamim ham, rozdonim, deb axir,
Ulfatim ham g‘amgudozim, mehribonim, deb axir,
Avvalida va’da aylab, do‘sti jonim, deb axir,
Sendan, ey dushman ishi barpo bo‘lurmu muncha ham?

Dahrda sargashtai osiy Muqimiy umrlar,
Ya’ni rasvolarni rasvosi Muqimiy umrlar,
Ey pariro‘larni a’losi, Muqimiy umrlar,
Bo‘lmasa vasling tamannosi, Muqimiy umrlar,
Ko‘chalarda zor-u ham shaydo bo‘lurmu muncha ham?

* * *

Falakdin rohat izlab kom hosil qilmagan jonim,
Jahonning ayshidin bir dam ko‘ngul shod etmagan jonim,
G‘ami ayyomidin bir lahza forig‘ bo‘lmagan jonim,
Malohat dog‘i tig‘i xalqdin ayrilmagan jonim,
Jafo chekkan, alam tortkan, halovat ko‘rmagan jonim.

Maning bilmam egam yo Rab nechuk inson yarotibdur,
Firoq o‘tida kuymakka manga bir jon yarotibdur,
Ko‘zimni xush nigohlar yo‘liga har yon yarotibdur,
Netay shum toleyim oshuftai davron yarotibdur,
Jafo chekkan, alam tortkan, halovat ko‘rmagan jonim.

Yoshim o‘ttuzga yetmay bori qayg‘udin qaribdurman,
Bu mehnatxonada chun ustuxonim oqaribdurman,
Ne chora shahrida bir bevatan qolgan g‘aribdurman,
Hamisha ko‘yi mehnat uzra rangim sorg‘aribdurman,
Jafo chekkan, alam tortkan, halovat ko‘rmagan jonim.

Junun dashtida Majnun ibtidosi, intihosi man,
Murodi maqsadiga yetmagan bemuddaosi man,
G‘ariblarni(ng) g‘aribi, mubtalolar mubtalosi man,
Hama yori birodarni asiri xokiposi man,
Jafo chekkan, alam tortkan, halovat ko‘rmagan jonim.

Na bulbuldek bari gul shoxidin o‘zga makonim yo‘q,
Magar mehnat chekib rohat ko‘rorimga gumonim yo‘q,
G‘am o‘ti tushmagan, kuydurmagan bir ustixonim yo‘q,
Musofirlik diyorida makonim yo‘q, nishonim yo‘q,
Jafo chekkan, alam tortkan, halovat ko‘rmagan jonim.

Boshimga shu'lai suyi qiyomat oftobidur,
Yurokim laxta-laxta otashi hijron kabobidur,
Boshim gul bargi uzra hamdi sahrolarda hisobidur,
So'zim har bir alam tortkan Muqimiyni(ng) kitobidur,
Jafo chekkan, alam tortkan, halovat ko'rmagan jonim.

* * *

Soyaedurmenki, boqmas oftobim kim desun?
Bora-bora ketdi qadrim, intixobim[1] kim desun?
Bir o'qutmaydur bitib bergan kitobim kim desun?
Ul tag'oful peshaga holi xarobim kim desun?
Hajrida mundog' meni ko'rgan azobim kim desun?

Oshnosidin kechib, begonalarga yor-yor,
Bu alamlarga chidolmay, ko'z yoshimdur shashqator,
Hech dushman bo'lmasun ko'yida mendek xor-u zor,
Kunduzi bir yerda bir dam olmay orom-u qaror,
Lahzae yo'q kechalar ko'zlarda xobim kim desun?

Ko'rmadimkim, bo'lmasa boshida mushkul har kishi,
Qadri ranji xor bu bog'din uzar gul har kishi,
Teshani chopqay o'ziga, rasmdur shul, har kishi,
O'z ko'mochig'a, masalkim, tortadur kul har kishi,
Bas, kuyib ishqida chekkan iztirobim kim desun?

Turfa bir maxmurmen la'li labi yoqutig'a,
O'xshatur odam gapursa, xushtakallum to'tig'a,
Zarra maylim yo'q bu dunyoning hisob-u cho'tig'a,
Kuymagan bo'lsa birov mehr-u muhabbat o'tig'a,
Sha'mdek to subh o'rtab tabb-u tobim kim desun?

Topmadim vasliga yo'l, aylab xayol-u o'ylar,
Paykarim g'amdin zaif o'ldi, chunonchi, mo'ylar,
O'zgalarga xulqi xush, ammo menga badxo'ylar,

[1] **Intixob** — saylash, tanlash.

Hamnishindurlar ulug‘larga xushomadgo‘ylar,
Yo‘lida jononimi xayr-u savobim kim desun?

Qayda bo‘lg‘ay telba, rasvodi yaqo-yu ostin,
Ne bilur Majnun degan subh ila shom-u choshtin,
Naylayin, o‘ylab tiriklikning kami-yu ko‘stin,
Gar qilich boshimga ham kelsa degayman rostin,
So‘zki haq bo‘lsa: savolimga javobim, kim desun?

Demakim, forig‘ duosidin Muqimiy, erta-kech,
Midhat-u, zikr-u sanosidin Muqimiy, erta-kech,
Ko‘z tutar davlat asosidin Muqimiy, erta-kech,
Do‘stlar so‘rmang g‘izosidin Muqimiy, erta-kech,
Qon sharob ichsam, jigarlardur kabobim, kim desun?

MASNAVIYLAR

Qorxat

Qor yog‘di ba amri Xoliqi hay,
Soqiyo, tut qadahni paydar-pay.

Qorxat xalq ichida rasmi qadim,
Bilki, xotirpisandi shoh-u nadim.

Bo‘lsa sizga bu ruq’amiz manzur,
Bazm tarhin quring bilo ma’zur.

Bazmi shohonalar qiling ijod,
Qilmagan bo‘lsalar biyik Bekzod.

Ikki yorni taraddida bo‘ling,
Da’fatan katta dosh qozonni quring.

Aylayub bor oshnoga xabar,
O‘tquzing hammasin qilib par-par.

G‘ijjak-u, chang-gu, nay, navozanda,
Topturing jo‘ra-jo‘ra sozanda.

Dunbalik, bosh kesing semiz qo‘yni,
Yasating bir alohida uyni.

Hofiz ovozidin maloikalar
Osmonda qulog‘i bo‘lsun kar.

Oqil odamga bir ishorat bas,
Kiyduring shol, beqasam, adras.

Bu sifat qil ziyofat aysh-u tarab,
Bot bo‘lg‘il-u emdi turma qarab.

Tashladi xat Muqimi xastani hod,
Topgil-u ushlag‘il haloling bod[1]!

---

[1] **Bod** — shamol.

TA'RIXLAR

Ta'rixi favti noibi Toshkandiy

Garchi dar habs-u ba g'urbat xun girist,
Oqibat fayzi shahodatro biburd.

Hafto'mi mohi ramazon xond-u shom,
Nogohon "yo Olloh" go'yon jon supurd.

Mardumi Xo'qand on ro'zi vafot,
Dosht motam xosu om-u pir-u xurd.

Ham Muqimiy bud dar fikrash malul,
Kard donish sof ta'rixash zi durd.

Sar zi hayrat barkashidu guft aql:
Xojai In'om sad afsus murd.

Tarjimasi:

Garchi qamoqda va g‘urbatda qon yutgan bo‘lsa ham,
Oqibatda shahid bo‘lish sharafiga muyassar bo‘ldi.

Ramazon oyining yettisida, shom namozini o‘qib turib,
“Yo Ollo” dedi-yu birdaniga jon berdi.

Butun Xo‘qand xalqi u vafot etgan kunda,
Qari va yosh, katta va kichik — hama barobar motam tutdi.

Muqimiyning ham xotiri parishon, qayg‘uli bo‘lib,
Dard-u alam bilan aqlidan uning ta’rixini chiqazdi.

Hayratdan bosh chiqordi-yu, aql aytdi:
Yuz afsuski, Xo‘ja In’om o‘ldi.

Masjid qurilishiga aytilgan ta'rix

Xusho! Bar himmati Mirzo bino shud masjidi xishtin,
Mabodo lahza, yo Rab, az namozi mo'minon xoliy.
Muqimiy, justam az piri xirad ta'rixi ta'mirash,
Ba ro'yi aql-u donish guft: "Ibodatxonai oliy".

Mazmuni:

Qanday yaxshi! Mirzoning himmati bilan
g‘ishtlik masjid bino bo‘ldi.
Yo Rab, undan mo‘minlarning qadami uzilmasin.
Muqimiy, aql piridan qurilishi ta’rixini so‘radim.
U aql-u donish yuzidan “Ibodatxonai oliy”, deb javob berdi.

Ta'rixi zilzilayi Andijon

az Mavlono Muqimiyi Xo'qandiy

Eshiting, ey do'stlar, aylay bayon,
Bandalarin ayladi Haq imtihon.

Qahr qilib ibrat uchun oshkor,
Zo'rini bildirdi Xudoyi jahon.

Zilziladin lahzada shundog' shahar,
Bo'ldi chu vayronayi chug'z oshyon.

Ro'zani o'n oltisi, seshanba kun,
Qoldi imorat tagida ins-u jon.

Madrasa-u masjid-u zovitlari
Og'nadi hammom-u, saro-yu do'kon.

Turfat-ul'-ayn ichra binosi tugab,
Chiqti falak uzra g'iriv-u fig'on.

Kimki tirik, qochti yalong'och, och,
Kiysa — kiyim yo'q,
yesalar — parcha non.

Olsalar andoqkim ochib mardikor,
Ulki tom ostida qolmishdi nihon.

Go'yo bo'lub ul kuni yavmul-jazo[1],
O'zdin umid uzdi qari-yu juvon.

[1] **Yavmul** — jazo.

Holig'a ul qavmki beixtiyor
Oy kuyub, yig'ladi qon osmon.

Shahdin agar yetmasa imdodi jud,
Erdi raiyatga nihoyat ziyon.

Shafqat ila bordi yarim podshah
Hozir o'shal zilzila bo'lg'on zamon.

Xayr-u xudoyi yig'ib har mulkdin,
Qismat ila berdi bo'lub mehribon.

Nonpaz-u qassob topib da'fatan,
Qurdi tanur, o'rtag'a — moshin qazon.

Sartcha oshin pishirub erta — kech,
Beva-yu bechoraga suzdi shalon.

Aksari uryon, havolar sovuq,
Tutti alar boshlarig'a soyabon.

Ham yaradorin qaratib do'xto'ra,
Topti sihat doru-yu darmon bilon.

Sur'at ila xayr ulusdin yetib,
Borlig'i ham xayriyat o'ldi vagon.

Bo'yla agar ko'rmasalar iltifot,
Sahl edikim qolmasa bir jon omon.

Mardumi xam hirs qo'yub paxtaga
Yerlarini oxchaga chog'lardi kon.

Voqeani insof qilib boqsangiz,
Ba'zi musulmonlarimiz ham yamon.

Tegdi kasofatlari bir yurtg‘a,
Borki masal:
"Birniki mingga", — degon.

Fe'li badin Tangri mukofotig‘a,
Tiyri jazoga qila qoldi nishon.

Nogoh itob aylasa Parvardigor
Hojat emas lashkaru tiyr — kamon.

Ta'na xato, ushbu musibatlarin
Ro‘zi azal kotibi yozgan ekon.

Sirri haqiqat bu, Muqimiy, ham,
Sanga na darkor demak in-u on.

"Jon" boshina zilzila qasd aylagach,
Ta'rixin aql aydi: "Darig‘ Andijon".

Ta'rixi vafoti Mirzo Abdurahmon Marg'iloniy

(Mirzo Abdurahmon Marg'iloniy vafoti ta'rixi)

Bu iki vaz'i falak saxt ul durur:
Izzati nodon-u, dono zillati.

Vodarig'o, tundbodidin ajal
O'chti ahbobini sha'mi suhbati.

Tishlashib angushti hayrat, bo'ldilar
Rasta ahli furqatidin hasratiy.

Oshno, begona, xoh yosh-u qari —
Xulqi xush erdi, tavozu' — xislati.

Men ham ayyomi vafoti bor edim,
Boshlarimg'a tushti go'yo kulfate.

Solini so'rdim, Muqimiy, g'aybdin,
Guftugo' bo'lgonda nogoh rihlati.[1]

Gap chiqib ta'rixidin az ro'yi nom,
Dedi: "Mirzo Abdurahmon rahmatiy".

Hijriy 1321 (milodiy 1903)-yil.

[1] **Rihlat** — safarga jo'nash. Majozan: o'lim.

RUBOIY, TUYUQ VA FARDLAR

Ajib kordchai asli korgohi farang,
Kesarda tig‘i barobar damina mo‘m ila sang,
Qachonki tegdi bu “zab’yol” tamg‘ai oliy,
Qutuldum eski fichog‘din yamon bosib edi zang.

1.
Hasratim el ichra aytsam nogah ifsho roz o‘lur
Payvasta abro‘larni mehri oz o‘lur.

2.
Chu bad aslga xo‘blar ne kerak,
Qora tunda xushlab uchar shapparak.

3.
Nola doremu mahvi pardai go‘shi xudem,
Shavqi moro bar kasi digar dimog‘i arz nest.

Tarjimasi:

Fig'on-nolalarimiz bor,
lekin u o'z quloqlarimiz tagidan nariga bormaydi,
Aslida o'z zavqi shavqlarimizni
boshqalarga yetkazish maqsadi bizda hech
bo'lgan emas.

4.
Munojot-u xarobot ahlini(ng) matbuli sendur sen,
Bilolmasman mani bechorakim qay soridur behbud.

5.
Husnig'a ne nuqs, gar bo'lsa ko'zi feruza rang,
Bilki, bog'larga tarovat sabzadin paydo bo'lur.

6.
Sahifayekim anga sharhi hajringiz yozilur,
Ko'zum yoshila o'char, harna yozingiz, yozilur.

7.
Dog'i judolig'im kam emas erdi, ey falak,
Ustig'a boz muntaziri xat ham aylading!

8.
Yetgach xatim, javobina bir ruq'a soz qil,
Irsol etib bu yanglig' meni sarfaroz qil.

9.
Shikva qilmay na qilay dahr xarobotidin,
Bizga kelganda qadah holi-yu, soqiy vadavang.

HAJVIYOT

Tanobchilar

Bo‘ldi taajjub qiziq hangomalar,
Arz etayin emdi yozib nomalar,

Adl[1] qulog‘ila eshit holimi,
Zulm qilur, baski, menga zolimi.

O‘n iki oyda keladur bir tanob,
O‘zgalara rohat-u menga azob.

Sulton Ali Xo‘ja, Hakimjon ikav,
Biri xotun, birisi bo‘ldi kuyav.

Ikkalasi bo‘ldi chunon ittifoq,
Go‘yo xayol aylaki, (qilmay nifoq),

Osh yesalar o‘rtada sarson ilik,
Xo‘ja — chirog‘ yog‘i, Hakimjon — pilik.

Bir-birisiga solishurlar o‘run,
Erta-yu kech o‘pushub og‘iz-burun.

Sallalari boshlarida oq savat,
Ko‘rpacha tagda hama vaqt uch qavat.

Birlari mo‘ltoninamo[2], hiylagar,
Birlaridur kundapix-u[3] gavdaxar.

Og‘izlari maqtanib o‘n besh qarish,
Mayda suxan, ezma (churuk), zanchalish.

---

[1] **Adl** — adolat.

[2] **Mo‘ltoninamo** — lo‘lisifat. Lo‘liga o‘xshagan.

[3] **Kundapix-u** — to‘nkadek qo‘pol.

Qaysiki qishloqqa tushar otidin,
Elni yig‘ib, voqif etar zotidin.

Derki: “Ko‘zungga hali kal jo‘jaman,
Maxdumi a’zamlik o‘zim xo‘jaman.

Otamizni otlari Shohlig‘ mazor
Muhlisimiz mardumi ushbu diyor.

Bizlara Erhubbi bo‘lodur tag‘o,
Amamizi (ng) erlaridur Nurato.

Bibi Ubayda bo‘ladur xolamiz,
Goh kelur erdi kichik bolamiz.

Xizr otamlarga burodar erur,
Chimlig‘ azizlar menga dodar erur.

Garchiki men olim-u shayxi zamon,
Qirqingiza emdi beray bir qozon.

Manki tanobingg‘a chiqibman kelib,
Xizmatimi yaxshi qilinglar bilib.

O‘t qo‘yubon kuyduradurg‘on o‘zim,
Hokiming-u o‘lduradurg‘on o‘zim.

Xoh tanobingni du chandon qilay,
Xoh karam birla boshingni silay”.

Xo‘ja so‘zini munga bermay qaror,
Mardumi sahroyi bo‘lur beqaror.

Derki Hakimjoni — “Ayo oqsoqol,
Bizni topibsan magaramkim o‘sol?”

“Hozir etib to‘rt nafar mardikor,
To‘g‘ri qil oldimg‘a qilibon qator.

Arqonimi yeringa sudrab chiqay,
Bachchataloq qishloqilarni (uray),

Bir burayin mo‘ylabimni chiqib,
Tort tanobini jazosi siqib!

Yaxshilig‘ingni fuqaro bilmagay,
Holi bular ko‘zga bizi ilmagay.

Ikki tanobini qilay o‘n tanob,
Kuydurubon yurtini aylang xarob.

Na’fini bilmaydi bular bachchag‘ar,
Debki, uzanguga ayog‘in tirar.

Bir-biriga qishloq eli boqishib,
Goh uyon, goh buyon chopishib,

Ja’m bo‘lib aylayubon maslahat:
— “Do‘g‘mag‘a, — der, —
bir nima berib jo‘nat”.

Aqcha qo‘lida iki-uch mo‘ysafid
Derki: — “Bu nazringiz-u, bizlar murid”.

Zulm bilan ellig-u yuzni olur,
Boz tanobini duchandon solur.

Tog‘i bular yaxshi-yu, bizlar yomon,
El tamizidin hazar et, al’amon.

* * *

Ko‘rmadim olamda sandek turfa nodon bachchag‘ar,
Suratingni ko‘rgan odam derki, shayton bachchag‘ar.

Bu qadar rasvolig‘ingdin e’tiboring yo‘q sani(ng),
Bu sababdin sotasan o‘zingni arzon bachchag‘ar.

Goh to‘qimni olib qorningni, aylab akslik,
Benizom eshakka o‘xshash bequyushqon bachchag‘ar.

Doimo yirtiq kiyim birla yurursan ko‘chada,
Yangi kiymaysan egninga hargiz ishton bachchag‘ar.

San bilan qilg‘on kishi suhbat, qulog‘i kar bo‘lur,
Doimo har yerda bo‘lsang lof-u yolg‘on bachchag‘ar.

Bilmayin so‘z aytasen har kim yuzig‘a choptirub,
Behayo-yu, beadab, og‘zi parishon bachchag‘ar.

* * *

Qachon kim bo‘ldi hokim amri birlan ibtido saylov,
Amaldor ahli boshig‘a bo‘lib keldi balo saylov.

Teraklar bargidek titrab, ja’mii qozi — mingboshi,
Degaylarkim: “yuzini teskari qil, ey Xudo, saylov”.

Sochib qarzi-quvola, pul ko‘torib, istayub mansab,
Bo‘lolmay ko‘p kishini sindirub, qildi gado saylov.

Agar ming xatmi Qur’on etsalar, qo‘ylar so‘yub arzir,
O‘lumdin qoldi qolganlar, bo‘lib erdi vabo saylov.

Olurg‘a pora ellikboshilar mingboshi — qozidin,
Ijobat bo‘ldi-bo‘ldi aylar erdilar duo saylov.

Taloshi joh aylab, ot chopib, olmay dame orom,
Musulmonlarning rangin ayladi chun qahrabo saylov.

Muqimiy, og‘ridi boshlar xaloyiq guftu-go‘yidin,
Shahar tinchib qolurdi bo‘lsachi emdi ado saylov.

Dar mardumi Oqjar batariqi muxammas

(Oqjar odamlari haqida muxammas)

Maxtashib otlarini derki: bu duldur-duldur,
Baytalim borkashi zo'rki fildur-fildur,
Qiladur lof urishib ko'zlari mo'ldur-mo'ldur,
Oqjar odamlarini to'nlari juldur-juldur,
Bilmadim turkmu, tojik, tillari g'uldur-g'uldur.

Kelganim ushbu makonga qiladur manga alam,
Loyiqi ta'b yo'q odamki desam hasrat-u g'am,
Gaplashurg'a kishi yo'q ertadin oqshomg'acha ham,
Kun sovuq, qora chiroq, go'rdek u-yu, o'tun kam,
Chiqsam eshikka qilur to'rg'ayi chuldur-chuldur.

Zotimiz sayyid-u sodot emasmiz, qoramiz,
G'am o'qidin tani majruh saropo yaramiz,
O'lturon joyda ham ba'zi mahalda xoramiz,
Suv uchun daryo uza havsala aylab boramiz,
Goh yo'lovchi keladur kemaga guldur-guldur.

Tushadurgan kishini(ng) kemaga ishlari piching,
Kelishur maslahat aylabki qasam bersa iching,
Ko'tarib yerga uray deysan-u yetmaydi kuching,
To'rt pul otg'a berur "kam!" desang ayturki: keching,
Yo'q kisamda pulimi qolg'ani shuldur-shuldur.

Kema vajhini demaslarki beribon qutulay,
Tarzi bir hiyla qilib derki yukumni yashuray,
Bilsa sarkori "pocho!" deb etagiga osilay,
Ikki pul ber yana buyruqqa qarab, — desa, degay:
"Na qilursan chaqamiz yo'q mana o'ldur-o'ldur".

Avliyo

Boshlarida shapka gohe, goh dastor avliyo,
Qo'llarida subha-yu bo'ynida zunnor avliyo.

"Tavba" deng oxir zamona chiqsa bu yanglig' chi bok,
Har xotinga oshiq-u har qizga xushtor avliyo...

Shul erur kashf-u karomotiki bo'ylab subh-u shom,
Chiqsa har yerdin bir is hozir xabardor avliyo.

Doimo beparda so'z xalq ichra aytur beibo,
Bo'lmagay deb qo'rqaman nogoh sangsor avliyo.

Toza ilkini yuvib, yeydur halol anglab gumon,
Uchrasa har yerdakim makruh-u murdor[1] avliyo.

Gar muqallid bo'lsa po'stun birla toqat qilmasang
Muz qiziqliklar, yog'ar taqlididin qor avliyo.

Gavdasidin yo'q bo'lak og'irligi dunyoda hech,
Oxirat sori safar qilsa, sabukbor avliyo...

Filhaqiqat bo'lma g'aflatdin badandesha,[2] Muqim,
Baski shuhrat topti rasvolikda bisyor avliyo.

---

[1] **Murdor** — ko'ngil tortmas, nokas, harom.

[2] **Badandesha** — yomon xayolli.

Hajvi Viktor

Falokat shum badragsan kasofat tavamon Viktor,
Siyoqi kundai do'zax, jahannam oshiyon Viktor,
Musulmonlar haqiga ko'zlading javr-u ziyon Viktor,
Sinib qilding o'zingdek ko'p kishilarni xazon Viktor,
Bularni ham jazosi der edi dor-ul-amon Viktor.

Ziyofat aylamog'liklar, talosh yuz ming takalluf-la,
Yururdi xizmatingda pir-u yosh yuz ming takalluf-la,
Chiqordilur yo'lingga necha bosh yuz ming takalluf-la,
Payo-pay tortishibon non-u osh yuz ming takalluf-la,
Eshitkach borishingni xossa boyi Andijon Viktor.

Qidirgon birla omborida chumchuqlarga don chiqmay,
Qachon bergay gadoga bir tiyin ruhi ravon chiqmay,
Banogah avliyoyi bir tarafdin kelsa non chiqmay,
Otiga oxuridin yerga bir kafdin somon chiqmay,
Bo'lur erding kafi dasti muazzaz mehmon Viktor.

Qo'rib da'volaringni bilmas erdilar yurokingdin,
Hamisha sudrar erdilar kirib egri uchokingdin,
Karim oxun, Qosim dallol pir ushlab etokingdin,
Burun, albatta, ogoh bo xabar voqif kechokingdin,
Xayol aylardilar insoflik shayxi zamon Viktor.

Kelib ohista kanturga dedilarkim mavosodin,
Sotib naqd aqcha qildi ba'zi odam mulk-u ashyosin,
Yemay, ichmayki berdi ikki qo'llab xalq dunyosin,
Bu rangda ko'zladilar o'zlarin toroj-u yag'mosin.
Iloji bo'lsa yeb ket bir tiynin ham berma jon Viktor.

Aroba

Bozor chiqmay endi, zinhor, aroba qursin,
To kelganingcha aylar bezor, aroba qursin.

Nogoh kayfi uchkay kelsa agar taraqlab,
Ichgan giyohi bo'lsa ko'knor, aroba qursin.

Keng ko'chalarni qilg'ay o'lguncha besaranjom,
Qilmay o'shal hunar deb najjor,[1] aroba qursin.

Yuklangan ersa g'alla, yursin omonki ma'zur,
Eski so'log'i chiqqan, bekor aroba qursin.

Qishloq betamizi bir igna olsa qo'shib,
Tang rastasiga kirgay attor, aroba qursin.

Bo'lsa kiroyi tushsang purjinalik kalaska,
Garchandkim, qilurlar guldor aroba qursin.

Luchchak arobakashlar ko'kka boqib g'o'daygan,
Bosqay yurolmaganda hushyor, aroba qursin.

Aylantirib boshingni, dil behuzur doim,
Mindim netay safarda nochor, aroba qursin.

Chiqsang, Muqimiy, bozor, aylarga da'fi savdo
Qilg'ay jahonni ko'zga ko'p tor, aroba qursin.

[1] **Najjor** — duradgor.

Burun

Bir burun ko'rdim burunlardin burun,
Shipga yetgay o'zi turmasdin burun.

Yosh bololardek yugurgay beadab,
Osh ichodur qoshiq olmasdin burun.

Suvga kirdi g'usli poy aylay debon,
Loyga cho'kdi boshi botmasdin burun.

Nogohon yo'lda yo'luqti bir kuni,
Boshima tegdi ko'rishmasdin burun.

Shoshdin Farg'ona sori azm etib,
Ko'rinur ul dovon oshmasdin burun.

Hovliga borganda do'stin ko'rmoqa,
Uyga kirdi halqa qoqmasdin burun.

Nomin aytib chorlasang bexosdin,
Yerga yiqdi yuzi boqmasdin burun.

Borsa oldiga o'choq osh qilmoqa,
Kul olodur o't yoqmasdin burun.

* * *

Har kishikim ko'rpasiga poy uzatmaydur qarab,
Sal vaqt o'tmaski ko'zlar jonibi Shom-u Halab,
So'rsalar ushbu shikoyatga birodarlar sabab,
G'oziyog'liqda mahalla zimiston yer edi bir jo'ra gap,
Kar-ru farlar birla bir-bir qochti, qoldi gap tugab.

Hojati te'dod[1] emas, darkor emasdur otlari,
Mardum ustidin hamisha, yeb-ichib avqotlari,
Hech Qorundin kam ermas yer-u suv, davlatlari,
Ko'cha-ko'yda ko'rsangiz ot hurkitar savlatlari,
Uylarida oy o'tib choy ichmagaylar o't qalab.

Lof raxshin kattaliq maydoniga har yon surib,
Qo'l bilan har dam burutlarni yuqoriroq burib,
Yuz tarafdin so'zga yolg'ondin masallar kelturib,
Jo'ra dasturxonlarida chorzonu o'lturub,
Pashmak-u halvoni urg'aylar nisholdoga bulab.

Ma'raka, majlisda olur o'zlarini Tahmatan,
Ishlari da'vo-yu manmanlik agar ko'rsang qachan,
Muft bazm,
ulfatchilikka do'ppi qaytoqi chapan,
Hech erkaklik yarashmas, xo'bi shulkim misli zan
Emdi uyda xapgina o'ltursalar kokul tarab.

Haqlariga oz edi har qancha chakki so'z desang,
To qiyomat kam agar har qancha dashnom aylasang,
Boz ketgan ustiga ketgan masal bordur, kesang,

[1] **Te'dod** — sanoq, hisob, sanash.

Ichkarisi birla ham emdi tavakkal gap yesang,
Erlari o‘rniga shoyad xotunidin tegsa gap.

Gaplareki, yeb ketib qarz oshni qilmaslar ado,
Qo‘rqaman ulfatchilik barham yegay deb o‘rtado,
Ahli himmatlar qanikim, aylasang jonlar fido,
Kulmayin naylay Muqimiy tavba deb, ushlab yaqo,
Bo‘lsa xotundin xarob erkak, zamoni bul — ajab.

* * *

Qish, sovuqlarda ajab oromi jondur sandali,
Xohishi ta'bi hama pir-u javondur sandali.

Ko'chadin kelsang, olur qo'yniga, titrab-qaltirab,
Ota-u mushfiq anodin mehribondur sandali.

Qor-u boron kelsa lashkar tortibon el qasdida,
Pahlavon o'chog'imiz, sohibqirondur sandali.

Qab-qaro qilmay tutunlik o't bilan, yaxshi tutung,
Necha kun fasli zimiston mehmondur sandali.

Yotsangiz issiqqina sovuq havolarda agar,
Esga kelmas ochlig'ingiz, osh-u nondur sandali.

Qish aduvsi[1] gar shabixun[2] ursa mardum jonig'a,
Safshikan el jonibidin qahramondur sandali.

Bo'lsa mirboqi qovun birla, Muqimiy, o't baland,
Rohati tan, moyai ruhi ravondur sandali.

---

[1] **Aduv** — dushman.

[2] **Shabixun** — tungi qirg'in, tungi hujum.

* * *

Ey afandi, saxt beraftor ekan bu otingiz,
Turfa, lekin dog‘uli, ayyor ekan bu otingiz.

Gar sinab bir qamchi ursangiz, mug‘ambir xush yoqib,
Xodimi qilgan kibi uxlor ekan bu otingiz.

Yolig‘a qo‘ysang giru bog‘lab tegirmon tosh ila,
Bir qadam yurmay durust qolor ekan bu otingiz.

O‘rnidan turmay yotib yer otingiz yem-u xashak,
Yetmay oxurga boshi nochor ekan bu otingiz.

Ko‘z ocholmaydur finak borib, magar kayfi baland,
Ichkani suv o‘rnig‘a ko‘knor ekan bu otingiz.

Suratini ko‘rgan, albatta, gumon aylab degay:
“Zo‘r uloqchi, poygachi, tulfor ekan bu otingiz”.

Sizga jon hojat emas, loyiq ekan bu dabba ot,
“Bobi ketti-ketti” attor ekan bu otingiz.

Ot qo‘yib sotmish, Muqimiy, otini jalloblar,
Bo‘lmasa bir eshshaki tayyor ekan bu otingiz.

* * *

Ko‘chaga chiqmoqqa lekin saxt hayron qildi loy,
Qor yog‘ib, qaytib bahor erdi — zimiston qildi loy.

Barf-u boron ustig‘a tinmay yog‘ib bo‘lg‘onig‘a
O‘zi ham chog‘imda o‘lguncha pushaymon qildi loy.

Bo‘lmagan qishlarda yomg‘ur, qor o‘lub fasli bahor,
Bosh ko‘targan sabzani xok ichra pinhon qildi loy.

Porso-yu, zohid-u obid rioyat aylamay,
Toydurub, yo sachralub oluda domon qildi loy.

Bu faqir-u boy demay, nogoh ayog‘iga cholub,
Yerga urgaykim ani, yo Rabki, polvon qildi loy.

Ochilub bodom-u savsan, gullaganda ushbu yil,
Joyi tobiston magarkim, Tangri farmon qildi loy.

Ko‘chaga chiqqoch, Muqimiy, kallasin o‘gurturub,
Yaxshi qildi, nafsi kofirni musulmon qildi loy.

SAYOHATNOMA

Qo'qondan Shohimardonga

Faryodkim, garduni dun
Aylar yurak-bag'rimni xun,
Ko'rdiki, bir ahli funun —
Charx anga kajraftor ekan.

Qolmay shaharda toqatim,
Qishloq chiqardim odatim,
Xohi yayov, bo'lsun otim,
Gah sayr ham darkor ekan.

"Ultarma"ga qildim yurush,
Oshnam edi bir chitfurush,
Yetdim jadallab vaqti tush,
Birdam qiziq bozor ekan.

Bir ma'raka ko'rdim butun,
Ja'mi yopingan boshga to'n,
Boqsamki, besh yuzcha xotun,
Voiz so'zin tinglor ekan.

Mingboshilik kimning ishi,
Desam, dedi bedonishi,
Bir "Qo'shtegirmonlik" kishi,
Xo'ja Iso bekor ekan.

Serob-u, salqin-u Barfu,
Yursang havosi murtafi',
Sohib torozu Mirrabi',
Hoji G'afur sarkor ekan.

Mag‘rur, xasis-u, besh-u kam,
Har gapda yuz ichgay qasam,
Takjoy olur moxovdanam
Hoji o‘zi murdor ekan.

“Do‘rmancha”ga ketdim o‘tub,
Yoqamni har soat tutub,
Yotdim ul oqshom g‘am yutub,
Dashti qaroqchizor ekan.

Anda bo‘lus Hoji dedi,
Ham mufti, ham qozi dedi,
Yurti hama rozi dedi,
Bechora beozor ekan.

Boz izdihomi voizi,
Badkayf-u ochilmas ko‘zi,
Yuqori boshidin tizi,
Ermaklari ko‘knor ekan.

Ko‘rgurma bir kampir o‘rus,
Uydek amoma ko‘sa tus,
Borib finakka usma-us,
Alqissa deb qolar ekan.

“Oq yer”din o‘tdim, boylari —
Oliy imorat joylari,
Mehmonsiz o‘tkay oylari,
Kelsa birov nochor ekan.

Ammo nazarda
“Roshidon”
Firdavs bog‘idin nishon,
Jome’lari obi ravon,
Sahni gul-u gulzor ekan.

Shokir noibi volosti,
Himmatda deng hotamtoyi,
Kelganda bir mehmon shavi,
Jonig'acha iysor ekan.

Ul Xojaiilg'ar nigin,
G'avvosi daryoi yaqin,
Sarhalqai as'hobidin,
Zoti falak miqdor ekan.

Tangriga ko'ngil boylayim,
Borib ziyorat aylayin,
Yondim borolmay naylayin,
Ustod mardikor ekan.

Armon, ziyorat qilmadim,
Bir kecha yotib kelmadim,
Ko'z birla ko'rib bilmadim,
Xush bahri fayzosor ekan.

Ma'yus bordim "Zohidon",
Bir ko'cha ketguncha do'kon,
Sho'x odami, ichmay piyon,
Mast otasi bezor ekan.

Suvlar sepilgan so'rilar,
Bo'zlangan o'choq-mo'rilar,
Ta'bing mabodo choy tilar,
Damlashlari ishqor ekan.

Besher emasdur beshalar,[1]
Bordur sahovat peshalar[2],
Qilman yomon andishalar,
Yaxshilari ham bor ekan.

[1] **Besha** — o'rmon, to'qay.
[2] **Pesha** — odat, hunar, kasb.

Ko‘rdum dedilar “Bo‘rbalig‘”,
Bir poda qo‘y, echki arig‘,
So‘rsa kishi non-u qatig‘,
Shom-u sahar tayyor ekan.

“Oltiariq” qursin o‘shal,
Sellarda qoldim bir mahal,
Bo‘ldim uvib yomg‘urda shal,
To‘n shilta, ho‘l izor ekan.

Mingboshisi so‘finamo,
Tasbih-u bo‘ynida rido[1],
Cho‘qub qochar zog‘i alo,
Bir dog‘uli ayyor ekan.

Xayr-u saxo vajhiga[2] kar,
Bir pulni yuz yerdin tugar,
Kelsa gadoy nogah agar,
Bir pul chiqish dushvor ekan.

Shovqin qilur tentaklari,
Ishtonida hishtaklari,
Xonish qilib eshaklari,
To‘p-to‘p yurub hangror ekan.

Ko‘rdim chuqur “Chimyon” erur,
Yer ostida zindon erur,
Dushmanlari mehmon erur,
Mardumlari tarror ekan.

“Vodil” maqomi jonfizo,
Do‘konlaridur dilkusho,
Anhorida obi safo,
Sebarga, obishor ekan.

---

[1] **Rido** — shayx va darvishlar yelkasiga tashlab yuradigan oq mato.

[2] **Vajh** — 1. Yuz, chehra, bet. 2. Sabab, bois. 3. Oylik, boylik.

Tug‘lar ko‘rindi yorqirab,
Shohi arab, miri Najaf,
Ham durri daryoi sharaf,
Ul haydari karror ekan.

Qilmoq shikoyatdur o‘sal,
Keldi bad dunyang az azal,
Beshak mukofoti amal,
Dunyo qurilgan dor ekan.

Alhamdulilloh bexatar,
Keldim, Muqim, aylab safar.
Muztar[1] qolib, ko‘rmay zarar,
Haq bandasiga yor ekan.

[1] **Muztar** — hijolot, nochor, noiloj.

Qo'qondan Konibodomga

Chun shahrdin chiqdim "Qudash"
Xotir bilan mahzun-u g'ash,
Majnunsifat, devonavash,
Xushchashma-yu kam chang ekan.

Ozodadin to'pori ko'p,
Dukchisidin attori ko'p,
Choyxo'ridin ko'knori ko'p,
Bir rasta nos-u bang ekan.

"Yayfan" agarchi dilkusho,
Mardumlari yengilnamo,
Bir-birlar ila doimo,
Bo'lar-bo'lmasga jang ekan.

"Nursux" kabi bir ma'vo kam,
Tushmay o'tib qildi alam,
Olma, anor o'rniga ham
Bog'ida tok-u zang ekan.

"Rafqon" ajoyib joy deng,
Bir ko'cha ketgan soy deng,
Salqin supa hoy-hoy deng,
Kim ko'rsa hang-u mang ekan.

Ayvonchalar misli katak,
Yo'lig'a odam siqqudak,
Chit birla bir yerda alak,
Bozori tor-u tang ekan.

Xojam bugun savdo bajo,
Baskim ko'p erkan oshno,
Erkaklari bari oto,
Xotunlari ammang ekan.

Qo‘y qilma “Konibodom” havas,
Bo‘lmas shamoli hech bas,
Ko‘zlarga urgay xor-u xas,
Borg‘uncha yo‘li chang ekan.

Xuftonda kirdim bir do‘kon,
Qildi ashula bir juvon,
Ovozi eshakdin yomon,
Hangrarga xush ohang ekan.

Ko‘p mardumidin “Beshariq”
Ahlini “quttout tariq”.
Yetim haqi — go‘shti baliq,
Ishlari rev-u rang ekan.

Charchashni bilmas yursalar,
Purzo‘r ketmon ursalar.
Vaqti namozga kelsalar,
Masjid soriga lang ekan.

Qiyg‘ir ko‘targan uch yigit,
Uxlatmadilar bir minit.
Ham boshda tong otquncha it,
G‘ingshib chiqib, vang-vang ekan.

Hayfi alar kimxob-u shol,
Xoh yosh bo‘lsun, xohi chol,
Erkaklari der qizni ol,
Xotunlari qadzang ekan.

Bozorda qayda bor edim,
Irg‘ib aroba “ho” dedim,
Yotmay desam nochor edim,
Lohaz garang-u lang ekan.

Belni Muqimiy bog‘ladim,
Shunday yurishni chog‘ladim,
Dunyoni tahqiq ayladim,
Bir mahzi nom-u nang ekan.

Aflok kajraftor uchun,
Hardam ko'ngul afgor uchun,
Xo'qand tang-u tor uchun,
Sahro chiqish darkor ekan.

Bordim shahardin "Yakkatut",
Baqqoli duzdi badburut,
Bir tanga sotkay bir qurut,
Insofi yo'q, tarror ekan.

Qishloq juvoni yig'ilishib,
Issig'da o'ynashgan pishib,
O'tgan tamoshobin tushib,
Seshanba kun bozor ekan.

Soyiki "Ishtonsoldi"si,
Kelgay shahidlarning isi,
Kanda emasdir o'g'risi,
Asli qaroqchizor ekan.

Mingboshi Eshdavlat akam,
Ammo quruq savlat akam,
Qilsa chiqim gar bir diram,
Uyqu qochib, bedor ekan.

"Yayfan" kabi tolzor kam,
Yo'q soyasida zarra g'am,
Zebo sanam, qoshi qalam,
Jononlari bisyor ekan.

Do'malari ham xo'b bajo,
Volosnoyi uhda buro,

Yurt ishlarini doimo,
Xayriyatin ko‘zlor ekan.

“Nursux” kabi ham yurt yo‘q,
Bog‘dor-u dehqon qorni to‘q,
Masjidlari ham ko‘p uluq,
Turfa farah osor ekan.

“Rafqon”ni bozor joyi tang,
Mullolari chaqqon, garang,
Omilari ham mulla rang
Ko‘ylak kiyib, dastor ekan.

Gar mevasi bir tup sotar,
Bir pulni yuz yerdin tugar,
Bersa gadoga non agar,
Ming yilda ham dushvor ekan.

Ammo “Raboti” bachchag‘ar,
Yo‘q hech odamdan asar,
Bir podajoyi gov-u xar,
Chun og‘uli tayyor ekan.

Du bora yurdim dashtlab,
Bodom koniga qarab:
Mirza Umarni so‘rag‘lab,
Havlisida najjor ekan.

Bo‘lg‘ay o‘shal Burhon omon,
Yaxshi yigitdur begumon,
Xursand qildi nogahon,
Mingboshi Xol sarkor ekan.

Armonki ko‘prak yurmadim,
Bir-ikki hafta turmadim,
“Tikka Rabot”ni ko‘rmadim,
Purfayz buzrukvor ekan.

Ma'yus chiqdim "Isfara",
Dil xasta, majruh-u yara,
Issiqqa kuygan qop-qora,
Olti jihat ko'hsor ekan.

Anhor-u, soy-u cho'llari,
O'ynab keladur suvlari,
Shirinki zardolulari,
Qand-u asal bekor ekan.

Qozi juvonmardi nako',
Borib-kelibon Chorko',
Nogah bo'lib dardi gulo',
Sanchiq tutub bemor ekan.

Hoji Zuhur ham O'rdada,
Sarhavzlar, oliy sada,
Borsa agar bir g'amzada,
Jonig'acha iysor ekan.

Boyvachchasidur badburush,
To'g'ri so'zi achchig'-turush,
Sil, eski bachcha, choyfurush,
Hofiz Umar, Qahhor ekan

Bo'lma halovatga kasal,
Olamda kam benish asal,
Beshak mukofoti amal,
Dunyo qurulg'on dor ekan.

Alhamdulilloh, bexatar,
Keldim Muqim aylab safar,
Muztar qolib, ko'rmay zarar,
Haq bandasiga yor ekan.

* * *

Isfara sayohatidan

(Yangi topilgan parcha)

Shahr ichra toqat toq o'lub,
Dubora yo'llar qoq o'lub,
Ko'z Isfara mushtoq o'lub,
Avval chiqish "Yayfon" ekan.

Kun tobishida bu safar,
Yo'llar saqardin ham batar,
Tog' ichra rahzan bachchag'ar,
Ko'p elni qaqshatgon ekan.

Ketguncha yo'llar xorlar,
Yo'l zaxmidan ozorlar,
Ko'kka yetar ko'hsorlar,
Hayhot, xoriston ekan.

Qir pastida sho'rtang arig',
Bir to'p yigit o'rgay tarig',
To'nsiz, yalong'och, hay darig',
Bechora, och dehqon ekan!

Kam g'ayri Qahhor-u Umar,
Farg'onada hofiz digar,
Bilmas ekanman bexabar,
Navmidlar[1] xushxon ekan.

O'tgan Kitobdori zamon,
Xattiga hayron ins-u jon.

[1] **Navmid** — umidsiz, noumid.

Chun daxmasi go‘yo jinon,
O‘qishlari Qur’on ekan.

“Chorko‘”ga ham keldim yetib,
Otdin yiqildim shilp etib,
Behush-o‘zimdin ketib,
Man saxt bedarman ekan.

“Chorqu” bozorin tor bil,
Atrofini ko‘hsor bil,
Panjshanba kun bozor bil,
Bir-ikki-uch do‘kon ekan.

Boy mardikori machchoyi,
Chun tog‘ somonlik loyi,
Bechoraga non-u choyi,
To‘n o‘rnida o‘tkon ekan.

Besh-olti uylik kambag‘al,
Devorlari tosh-u shag‘al,
Anga tarika bir mahal,
Qishlog‘i Machchoyon ekan.

Ammo amin Abdurasul,
Kim borsa xizmatkor ul,
Yaxshi yigit, ochiq ko‘ngul,
Yurt ustida turg‘on ekan.

SHE'RIY MAKTUBLAR

Ey, sipehrida sayodat mohi tobon, assalom,
Bahrida oliy nasablig' durri g'alton[1], assalom.

Borki ko'rdim, mashoyixzodalarni ko'rmadim,
Sizdek ismat pardasida pok domon, assalom.

Bu duo shom-u sahar: gar boqsalar soy toshlari,
Da'fatan bo'lg'ay, Iloho, la'l-u marjon, assalom.

Orzular burjidin aylab tulu' iqbolingiz,
Aylasun haq davlatingizni farovon, assalom.

Yurgon-u turgonda doim yoringiz Ilyos o'lub,
Suv desangiz Xizr tutsin obi-hayvon, assalom.

Ayrilibman Siz karam pesha, saxo andeshadin,
Tangdur, dunyo qorong'u misli zindon, assalom.

Yodingiz tushkan mahal ko'ngulg'a, ey oliy tabor,
O'tmog'i mushkil tomog'din luqmai non, assalom.

Lutfingiz mingin birig'a qaytaralmay yaxshilik,
Benihoyat hasratim ko'p, dilda armon, assalom.

Voqeotekim, o'tubdur mujmalan taqrir etay,
Holim o'lsun sizga ma'lum, erdi pinhon, assalom.

---

[1] **G'alton** — 1. Yumaloq, yumalovchi. 2. Yiqilmoq. 3. Oquvchi, oqayotgan.

Toshkandga kelganimdin to bu muddatlarg‘acha,
Ko‘zga uyqu kechalar kelmaydi chandon, assalom.

Xotirim noshod, ta’bim lanj, g‘ash doim dilim,
Ishtaho kam, quvvatim yo‘q, zarra darmon, assalom.

Boisi ta’xiri xat bo‘ldi bu lohazliklarim,
Yo‘qsa kelgan kun qilurdim, topsam imkon, assalom.

Mulla Yo‘ldosh oxun ila munda kelgandin beri,
Ul kishi gar sog‘ esa, man dardi dandon, assalom.

Gar topib fursat qo‘shumdin, gaplashay, deb boraman,
Lohaz ul kun anda yo‘q imog‘a farmon, assalom.

O‘z ishi birlan agarchi so‘rmagay, ovoradur,
Har nachuk bo‘lsa omon bo‘lsun qadrdon, assalom.

Abdufattohni topib kelganda berdim xatlarin,
Ishlari bitmay chala, bormakka hayron, assalom.

Kecha-yu kunduz jadallab ishlarimni bitkurub,
Qilmasam bo‘lmas, —
dedi-chun murg‘i tayron assalom.

Arzu ixlose musohiblarga deng bizlar uchun,
Qolmasun Shayx-u Daloyil to Eshonxon, assalom.

Paytini topib Miyon hoji to‘ramga arz eting,
Bizdin o‘tkan kechsalar, shoyadki, nuqson, assalom.

Loyuad bizdin duo kelganlarida yetkuring,
Nasriddinxo‘ja mabodo yo Kalonxon, assalom.

Uchrasa bir to‘da tojik birla gar Mulla Ziyo,
Go‘, ki dorad har do‘yi o‘ bar shumoyon, assalom.

Erta-yu kech ting'ishib solduk quloq Xo'qandga,
Qilsa shoyad bizga ham deb bir musulmon, assalom.

Ayladim chin e'tiqod ila salom, ey do'stlar,
Loaqal sizlar qilinglar bizga yolg'on, assalom.

Shukrililloh, aqrabolarni topib bu yerdaman,
Bir necha kun rizqimiz boricha mehmon, assalom.

Toshkandda, choyfurushlik rastasida xeshimiz,
Otlarini so'rsangiz Xo'ja Sulaymon, assalom.

Rastai mazkurni yoki gurunch kaffonidur,
Ro'baro'sida Hakimdur katta do'kon, assalom.

Ul kishiga tegsa deb xat qilsalar manga yetar,
Ahli rasta hammaga ma'lum namoyon, assalom.

Ruq'ayi manzuma qildim ming xijolatlar bilan,
Xushk xoli meravad savg'o zi domon, assalom.

Oxirida xatlari tegdi muharram oyini(ng)
Dardmand erdim yetushti go'yi Luqmon, assalom.

Har hurufidin ko'ngullar ko'zgusi topib safo,
Kulbai ahzonlarim bo'ldi charog'on, assalom.

Fikr etarda bo'ldi mazmunin muyassar go'yiyo,
Bulbuli sho'ridaga sayri guliston, assalom.

Ma'nisidin sar-basar ro' berdi xotirjamlik,
Bo'lmasa dillar edi behad pareshon, assalom.

Oxiri Mirza Kamol-u, Ernazar Begimga ham,
Ayladi ushbu Muqimi ko'yi hijron, assalom.

Toshkentga nazm bilan xat

Assalom, ey oshnoyi qadrdonlar, assalom,
Qadrdonlar, ya'ni oqil nuktadonlar, assalom.

Har qayu mulkega yetsa maqdamingiz yumnidi,
Yo Rab, etsun tarh[1] bog'-u bo'stonlar, assalom.

Himmati oliylaringiz oqibat rahbar bo'lub,
Ro'zi qilg'ay shukr fayzi jovidonlar, assalom.

Qo'l uzatsangiz agar ne ishga g'ayr az manfaat,
Zarrae ko'rmang, ilohokim, ziyonlar, assalom.

Ta'bingiz oyinasi zangori g'amdin pok o'lub,
Doimo xurram bo'ling,
ko'p yil omonlar, assalom.

Ne sharaflig' soat erkankim, kelib Xo'qandg'a
Bo'ldingiz bir necha kunlar mehmonlar, assalom.

Bir Makaylikxon bilan yuzlashturalmay, ohkim,
Bo'ldi hasratlig' ko'ngul ustig'a qonlar, assalom,

Hafta o'tmay keldilar qishloqlaridin uchrashib,
Arzingizni mo'-bamo' qildim bayonlar, assalom.

Ko'p yurib qolganlariga behad armonlar qilib,
"Bormasam bo'lmas, — dedilar, — Toshkentlar",
assalom.

---

[1] **Tarh** — yozilgan, chizilgan, suvrat, tartib, usul, nusxa.

Telbadin ma'zur tutsangiz karamdin ne ajab,
Bo'ldi xattim tark bir necha zamonlar, assalom.

Multamas shulkim, salomingizni tark etmay turing,
Man ham emdi uzmayin to tanda jonlar, assalom.

Yodingizdin chiqmasam derman bu nisbat birlakim,
Yaxshi-yaxshi munda to bizdek yomonlar, assalom.

Orzuyi suhbatingiz fikr-u yodim subh-u shom,
Sog'inurman oshkoro-yu nihonlar, assalom.

Hamdilillokim, qo'lum ham topdi sihhat andake,
Holi ne kechti debon qilmang gumonlar, assalom.

Kafsh-u mahsi to'g'rilar qilgan kalushga va'dangiz,
Ayladi to xayringiz mundog' hayonlar, assalom.

Katta va yo kichkina bo'lmay, xo'jam, bo'lsun vasat[1],
Bir kiyay man ham, kiyodur musulmonlar, assalom.

Yor-u ahbobim duosi-la, Muqimiy, zindaman,
Gohi sizdin ham manga kelsun nishonlar, assalom.

[1] **Vasat** — o'rta, o'rtacha, o'rta yoshlik.

Javobi salomi Muqimiy ba Furqatiy

Ne qilay sizlarga yo‘q bo‘lsa gul-u gulzorman,
Muddao topishmog‘-u man tolibi diydorman.

Har nafas some’ bo‘linglar toki, ey ahboblar,
Aylayin kayfiyati ahvolni izhorman.

Tarki payg‘om o‘lganiga, ey birodarlar sabab,
Munda bo‘ldim muddati uch-to‘rt oy bemorman.

Do‘st bo‘ldim har kishig‘a, ko‘rdim andin ming jafo,
Topmadim, dunyoni kezdim,
munis-u g‘amxorman.

Ro‘zgorimdur parishon, zohir-u botin xarob,
Charx davridin jigar xun, siynasi afgorman.

Umr o‘tar, tavfiq bersun Haq, duo qil do‘stlar,
Benihoyat ma’siyat, gumroh-u badkirdorman.

Har sahar g‘am yeb tutarman bu mahallar ro‘zani,
Shom bo‘lsa aylaram mehnat bilan iftorman.

Topdi dil oyinasi sayqal g‘uboridin xating,
Yo‘qsa sar to po edim anduh ila zangorman.

Umrlar xat qilmas erdim, kelmasaydi xatlaring,
Keldi sizdin ruq’a so‘ngra ayladim nochorman.

Xayriyat Maxdum muloyim emdi bo‘lmishlar, qadim
Ko‘nglini qattig‘lig‘idin der edim, ko‘hsor, man.

Bo‘lsa xilvat joy Maxdumjon va sizlar bo‘lsangiz,
Qilsa hasrat ul kishi ham, ham desam asror man.

Halqai zulfin xayoli ko‘ngluma nogah tushar,
Bellarida kufr elin ko‘rsam agar zunnor man...

Ruq’ai Abdulazizxonda yurarsan necha yil,
Deptilar tegmaydilar borgan bilan bekor man.

Kimga dod aylay borib shum toleyimni dastidan,
Ko‘za sindurgan aziz-u, suv keturgan xorman...

G‘amzudo xonishlarin o‘pkam to‘lub yod aylaram,
Gar eshitsam o‘lturub bir bazmda setor man.

O‘zlarin zakki olib, xat qilmadilar loaqal,
Emdi Zavqiy yurmasun deb xalqaro hushyor man.

Necha ko‘z tuttim demas ko‘ngul uchunkim:
“Bormusiz”,
Hech nimarsa bo‘lmasam ham ko‘p qadrdon borman.

Qilmadi xat deb, qilay xatlar dedim koyib, so‘kib,
Boz tushtum o‘qibon jahlimdin istig‘for man.

Mulla Sa’dullo bilan Abdulkarim mirzoni ham,
Haqlarig‘a qo‘l ochib qildim duo bisyor man.

Ey, muhiblar, yurgan erkandur farog‘atda demang,
Sog‘inib sizlarni tun-kun uyqu yo‘q bedorman.

Hasbihol aylab qilibdur xat, so‘rab holin, Muqim,
To qiyomat Furqatiydin emdi minnatdorman.

Javobi ruq'ayi
Nodim Namangoniy

Assalom, ey to'rai oliy janob,
Matlai debochai har fasl-u bob...

Bu duokim sizga qilsun Haq nasib,
Davlati jovidi jomidin sharob.

Ranji nuqsondin qilib Tangri bari,
Aylasun ikki jahonda komiyob.

Qo'ysalar har ishki mushkuldur qadam,
Da'fatan bo'lg'ay Iloho fathi bob.

Ro'zani to'rtida xat tegdi kelib,
Bizga, ey zoti kamolat iktisob.

Fahm etib sog'-u salomatliklarin,
Yetti dillarga farahlik behisob.

Xat o'qildi zavq birlan sar-basar,
Bir iborat chiqdi mazmuni itob.

Deptilarkim, va'dag'a bo'ldi xilof,
Bo'yla bo'lmas erdi bo'lsa mustajob.

Qaysi kunkim ul tarafga kettilar,
Ro'za qistab keldilar aylab shitob.

Yo'q kuyushdin boshqa gap, do'zax kibi,
Toshkandlar tobishidin oftob.

Ro'za kelguncha shul issig' kunda xalq,
"Kelsa, derlar, rozimiz obi azob".

Tillari chiqqon, xaloyiq tashna lab,
Jumlai mo'min yurak-bag'ri kabob.

Ro'za tutgan bandalar deb al'atash,
Ichmagay iftorda g'ayr az yaxob.

Ba'zilar issig'da betoqat bo'lub,
Ro'zadin andak qilishti intihob.

Assalom o'rnig'a mardum ko'rushib,
Bir-birisig'a degaylar: "oh, ob".

Xushlari kelmas berurg'a ko'z yumug',
Gar oto qilsa savol o'g'il javob...

Xalq aqlidin adashgon-u garang,
Boshlarida hush yo'q, mahzi hubob.

Ikki yil issig' havoda kelsalar,
Qo'rqaman ko'p shahar bo'lg'ay, deb, xarob.

Ro'zaman, diqqatchilik, kam havsalam,
Qolmadi qo'lg'a qalam olmaqqa tob.

O'qusa nogah qulog'img'a qo'nub,
Bu mahalda yoqmag'ay bulbul-xunob.

Bu sababdin va'damiz yolg'on bo'lub,
Ham chunon siymob mo dar iztirob.

Qolgan erkonmiz yomon o'rgonishib,
Sizdin ajrab bizda kamdur xo'rdu-xob.

Yetsa gar o'z qo'llarig'a bu xatim,
Qolmasun, albatta, taqsir, bejavob.

Ba'di ro'za aylasam azmi Xo'qand,
Niyatim vallohu a'lam bissavob.

Moskvaga, jiyani Ro‘zimuhammad. Do‘smatovga xat

Oh, vaqtekim, nexush layl-u nahorim bor edi,
Mehribon sandek, yesam g‘am,
g‘amgusorim bor edi,
Maqdaming-la boshda toji iftixorim bor edi,
Ko‘zlarimda nur-u bellarda madorim bor edi,
Qayda sansiz bir nafas emdi qarorim bor edi.

Chekmish erdi dahrda har qancha kamlik xotirim,
Notavon ko‘nglum, nihoyatda sitamlik xotirim,
Kelishingdin bo‘lubon xurram alamlik xotirim,
Suhbating-la shod bo‘lmishdi bu g‘amlik xotirim,
Dilda vasling-la furug‘i navbahorim bor edi.

To vido’lashmakg‘a borildi ketoringda sani,
Yig‘ladim pinhoni otashga tushoringda sani,
Sayr etib yurganda yurmishdim kanoringda sani,
Ne saodatlig‘ zamon erkanki boringda sani,
Mahfilim ravshan, safolig‘ ro‘zgorim bor edi.

Davlat-u iqbol jomidin Haq aylab bahramand,
Poyai qadringni qilgay bora-bora to baland,
Aylagay aqroning ichra sarfaroz-u arjumand,
Hech yodingga kelurmu, debki shahrida Xo‘qand,
Bir g‘arib, bekas tag‘oyi xoksorim bor edi.

Naylayin o‘rtanmayin baxti qoralig‘ o‘tig‘a,
Bo‘ldi shum tole’larim bois gadolig‘ o‘tig‘a,
Yonmisham hardam o‘tundek benavolig‘ o‘tig‘a,
Bunda bizni kuydurub mundog‘ judolig‘ o‘tig‘a,
Hech aytursanmi deb: xesh-u taborim bor edi.

Purziyo chashmim ko'rub, nogoh ra'no surating,
Berdi mahzun ko'nglima farhat mujallo surating,
Aqcha birlan xatlaring tegdi, na tanho surating,
Yetdi o'n uch so'm ila xush tarh zebo surating,
Deb yubormishsan Muqimiy intizorim bor edi.

NASRIY MAKTUBLAR

[Nuridiydamiz va jigargo'shamiz Ro'zimuhammadjon]

Hafizaillohu taolo minal ofot va nuqsonъ

Ba'd az tablig'i salom sunnat ul-islom alhamdulilloh, ushbu kamina dur aftoda tog'angiz o'shal mazkur madrasada shukrguzorlig' ila o'tub... har doyim va har vaqt sizning eson va omon, xush va xursand va xurram, bezgak va betob bo'lmay boy afandini xizmatlarida sobit qadamlig'ingiz mas'uldir.

Va ammo yuborgan xatingizni olib erdim, to hanuz javobina xat yozarg'a fursatim bo'lmay kechikti, ma'zur tuting. Lekinda ja'mi yor-u birodar, qavm-u qarindoshlar to o'shal ikki mingboshig'acha salomingizni yetkurdim, alarni ham sizga duolari va salomlari bor.

Va yana o'quydurgan darslarim ko'p, hech vaqt yo'q, kunduzi saboh bilan darsimga boraman va kech kelaman, debsiz. Darsni kamroq o'qusangiz, o'zingizga zo'r kelmas...

Va yana maxfiy qolmasunkim, ul janobi Katta boy abzi va o'g'lilarina va hama ul yerdagi va ul eshikdagi odamlarga va maktabxonadagi sheriklaringizga ham faqirdin salomlar ayting.

Ziyoda adduou vassalom. Ushbu xat yozildi. 12 o'ktabirda.

Addoi faqiri xaqir kamina tag'ongiz Muhammad Aminxo'ja Muqimiy.

Va yana maxfiy qolmasunkim, ushbu xat javobi (g'a) behavsalalik qilmay xat yozingiz. Bizlar hamisha xatingizg'a tashna, balig'ekim, suvdin ajragandek va sizni, ammo bilmiymankim, qaydog'siz.

Bir-birimizg'a xatimiz g'animat, ammo minba'd (bir-birimizni) ko'ramiz va yo ko'rmiymiz. Bar vaqt omon bo'lsangiz, Xo'qand taraflarig'a non-u nasib tortsa kelasizkim, biz ham yo'q, umrning har soat va har nafasi mug'tanamdur. Yo'qlab tursangiz-da Olloh rozi bo'lsun. Boz adduou vassalom.

Janob fazoyil maob, kamolot iktisob
Ibrohimxoja eshon!

To gulshani xasti az fayzi bahori... sabz-u tar buda va royihai hayot ba mashomi ins-u jon baxshandaast, payvasta rasti jumlai murod dar gardani matlubishon hamoyil va ma'shuqi davlat dar og'ushi maqsudishon ba hazor noz-u karashma dar xob bod, binnun vassod. -..bar zamiri muniri xurshidnazar nuhufta mabod... kavoif-u ahvolot ba darajai shukrguzori va ba tandurustiy darguzar buda, ba juz guli orzuyi muloqot dar bo'stoni xayolot shukufta nest. Va ammo maktubi marg'ubi muhabbat uslubiy, ki bo tazommini salomati maa-dar as'adi soot ba vusul payvasta az dasti Kalonxo'ja eshon rasida, ba jarohati ehtiyoji xud marham namuda... Va boqimonda chi chizeki dar zimmai janob ast, ba to'yona mahsub kardim. Va niz ba Podshohxoja kamtar kulcha ravona karda budid, hanuz dahonishon yak tanob ast, ki "ba man kulcha firistodaand".

Va lekin dar in ovon dar madrasai "Hazrati Sohib" shaban va ruzan istiqomat namuda. Daruni shahr chunon do'zax ast, ki az shiddati tobishi oftob jigari mohiyon dar qa'ri daryo kabobast... Dar chunin avqoti jahannam alomot ba dilxushiyi tamom dar joyhoi salqini jannatnishon zindagony dorid va namuda hech ba xotiri sharifishon. Oyo, xutur namekunim, har oyina maxtur meshud, loaqal taklifi moloyutoq mekardand? Maslahat onki, yo du-se ruzi shumo omada so'xta rafta va yo maro ijozat dehyed, dar on havoli rafta du-se ruzi xunuk xo'rda beoyam. Va yo dar riyozi og'ush - .. dilxoh daromada bilkulliya naqsh..: oshyonro az... gardidami. Alqissa, xotir ja'm dorid, ki..: az ruyi falaki g'addor zoyil shavad.


Mazmuni:

Fazilatlar sohibi, kamolot kasb etgan janob Ibrohimxo'ja eshon!


To borliq gulshani... bahor fayzidan yam-yashil bo'lib, hayotning xushbo'y hidlarini ins-u jon dimog'iga baxsh etar ekan, barcha istakning qo'li matlubining bo'yniga o'ralib, davlat ma'shuqasi maqsudining og'ushida ming noz-u karashma bilan uyquda bo'lsin. — ...Xurshidnazar porloq ko'nglingizdan maxfiy qolmasinkim, kayfiyat va ahvollar shukr etish darajasida va salomatlikda o'tib, uchrashish orzusining gulidan boshda narsa xayolot bo'stonida ochilgani yo'q. Salomatligingizni bildirib... muhabbat uslublik yoqimli maktubingiz baxtli soatlarda Kalonxo'ja eshon orqali yetib, ehtiyoj jarohatiga malham qo'ydi — ....Janobingizning zimmalaridagi qolgan narsalarni to'yona hisobladik. Hamda Podshoxxo'jaga biroz kulcha yuborgan ekansiz, "menga kulcha yuboribdilar", deb hanuzgacha og'izlari bir tanob (xursand).

Va lekin hozirgi paytda "Sohib hazrat" madrasasida kecha-kunduz istiqomat qilyapman... Shahar ichi chunon do'zax (issiq)ki, oftob haroratining shiddatidan daryo qa'ridagi baliqlarning jigari kabobdir... Shunday jahannam alomatlik vaqtlarda (Siz) jannatnishon salqin joylarda dilxushlik bilan yashamoqdasiz va bizni hech xotiri sharifingizga keltirmaysiz.

Xotirlay olmaymiz: har mavrid bizni eslaganingizda biror marta astoydil taklif qildilarmi? Maslahat shuki, yo Siz kelib ikki-uch kun kuyib keting va yo manga ijozat bering, u tomonlarga borib ikki-uch kun salqinlanib kelay...



FURQAT



G‘AZALLAR

Boshladim avval ba nomi xoliqi Akbar bayoz,
Bo‘lmag‘ay deb to qiyomat dahr aro abtar bayoz.

Qodirek qudratidin aylabon layl-u nahor,
Nur-u zulmatdin yaratti har savod-u, har bayoz.

Hamd[1] harfidin o‘ziga zeblar paydo qilib,
Toptina’ti Sayyidi kavnaynidin[2] zevar[3] bayoz.

Faxri olam, afzali odam, Rasuli koinot,
Shar’idin bo‘ldi jahon zulmatlari yaksar, bayoz.

Hazrati Abubakr sidqidinu adli nuridin,
Ayladi olam savodi hazrati Umar bayoz.

Berdi ding‘a hilm-u tamkini bila Usmon rivoj,
Kufr zulmotin qilib samsomidin Haydar bayoz.

Bo‘ldi har mavji g‘azal birla safobaxshi jahon,
Zohir aylab misraening tiyg‘idin javhar bayoz.

Topti oroyish g‘azallardinki, har bir misra’e,
Qomati barjastai bir sho‘xi siminbar bayoz.

Har savodi nuqtayu xatti erur mushki Xito,
Har bayozi bayni satri qit’ai anbar bayoz.

---

[1] **Hamd** — maqtov.

[2] **Kavnayn** — ikki dunyo, bu va narigi dunyo.

[3] **Zevar** — ziynat, bezak.

Jonfizo mazmunlaridin tiyra dillarni qilib,
..... [1]Iskandar bayoz.

Har qachonkim ochti ta'bim bog'idin bir toza gul,
Bog'ladim guldasta, Furqat, ayladim daftar, bayoz.

[1] Ko'p nuqta o'rnidagi yozuv yirtilib yo'qolgan.

* * *

Bahor ayyomi bo‘ldi-yu, tushubdur boshima savdo,
Ki, lola bargidek ko‘nglumda yuz ming dog‘lar paydo.

Nasimi xush tegib, bo‘ldi hama yer sabza-u xurram,
Bisoti rang-barangdin topti ziynat bog‘ ila sahro.

Dimog‘iga tegib nakhat, xurush aylab chaman ahli,
Biri qumri, biri to‘ti, biridur bulbuli shaydo.

Ayon etmish o‘zini, yuzlaridin burqani[1] tashlab,
Biri guldur, bir nargis, biri savsan[2], biri ra’no.

Xudoni san’atidin gul chiqarmish changalistonlar,
Ko‘kardi sangi xorodin ajoyib lolai humro.

Na mumkin borina azmi tamoshoi chaman etmoq,
Oni har bir gulidur jong‘a go‘yo nashtari xoro[3].

Parivashlarni dog‘i bir taraf, ko‘nglumda yuz ming g‘am,
To‘lub-toshar yurogim dam-badam monandai daryo.

Kima aytay bu o‘tluq hasratimni, ey musulmonlar,
Hama jismim kuyub axgar[4] bo‘lubdur, qolmayin aslo.

Asiri dardi hijroning bo‘lubdur mubtalo Furqat,
Chu qumri doimo yig‘lab, deyur faryod-u vovaylo.

---

[1] **Burqa** — yuzparda, chachvon.
[2] **Savsan** — gulsafsar.
[3] **Xoro** — tosh, granit.
[4] **Axgar** — cho‘g‘.

* * *

Ey, bayozi karaming berdi chamanlarg‘a safo,
Qaddi mavzuning xayoli sarv ilkig‘a[11] aso.

Maqdaming[2] tashrifidin, ey, navbahor ijod sho‘x,
Ochdi gulshan har gulining bargidin dasti duo.

Charx maydonig‘a surding tund, ey, chobuksuvor[3],
Yetmasun poyi samanding na’lig‘a[4] gardi qazo.

Chashmi mardum ruxlaring mir’otidin[5] kasb etti nur,
Dil ko‘zi aylar aning-chun xoki poying to‘tiyo.

Juz xati la’ling meni dilxastaga manzur emas,
Xizr zulmatdin ketursa, boqmag‘um obi baqo[6].

May ichib tong otqucha, rashk aylabon xunobi g‘am,
G‘ayr ila sog‘ar chekib har qayda sen, ey, dilrabo.

Azmi bozor aylading har su boqib tannoz o‘lub,
Necha yuz ming ahli donish bo‘ldi aqlidin judo.

Poybo‘sing orzusida hamisha jon chekib,
O‘lturur doim yo‘lingda Furqatiy bedast-u po.

---

[1] **Ilik** — panja.
[2] **Maqdam** — kelish; qadam.
[3] **Chobuksuvor** — chavandoz.
[4] **Na’l** — taqa; kafsh, etik.
[5] **Mir’ot** — ko‘zgu.
[6] **Baqo** — abadiylik, mangulik; davomlilik.

* * *

Ey malohat gulshanida andalibi xush navo,
Vey, fatonat[1] iqtidorida Falotundin[2] raso.

Orazingdin xira moh-u oftobi xovariy[3],
Gardaning bayzolig'idin[4] tiyradur[5] subhi safo.

Safhai ruxsoring avroqida xatlar yozilgan,
Misrai barjastasi[6] mazmunidur vo-hasrato.

Jilva savdosi bilan kulbam sari qilg'il xirom,
Maqdaming[7] tuprog'idur jon diydasig'a tutiyo.

Mushki anbar bo'yi ko'nglumni parishon ayladi,
Qosh keltursa shamimi sunbulung bodi sabo.

Qosidekim yetkurur ko'ying fazosidin xabar.
Sonuram bilfavr keldi hudhudi shahri Sabo.

Kulbai ehzonda doim zor Furqat intizor,
Ko'z uyin ashkida g'alton[8] ashkidin bedastu po.

---

[1] **Fatonat** — idrokli, o'tkir zehnli.
[2] **Falotun** — Aflotun.
[3] **Xovar** — sharq, kun chiqish.
[4] **Bayzo** — 1) oq, oq rangli yaltiroq; 2) quyosh, oftob.
[5] **Tiyra** — qorong'i.
[6] **Barjasta** — qabariq; mashhur.
[7] **Maqdam** — kelish; qadam.
[8] **G'alton** — aylanuvchi, yumaloq g'altak.

* * *

Iydi[1] ruxsoring ko'rub bo'ldi hama qurbon sanga,
Na emish bir jon fidoying,
aylagay ming jon sanga.

Bismil ijod ayladi qotil ko'zing bir yo'l boqib,
Qon ila og'ushta aylab ko'rsatur yuz jon sanga.

Dastai rayhon uzoring[2], xatti bir guldur yuzing,
Andalibi[3] mastdek ushshoqlar nolon sanga.

Rashhai nolam Masihog'a yetar har kechasi,
Muncha fazli savt[4]
bermish hazrati Rahmon sanga.

Odam ichra ko'rmadim sendek pari ruxsorni,
Jannat ul-a'loda tahsin ayladi g'ilmon[5] sanga.

Qaysi bir bog'i Eramni bulbuli xushxonisen,
Yo magar Dovuddin meros bu ilhon sanga.

Xol emasdur safhai husnungda mushkin nuqtalar,
Xatti la'ling yozdi misra' xomai Yazdon sanga.

Asrasun hosid ko'zidin hazrati Qahhor egam,
Aylasun yuz pora dushman bor erur chandon sanga.

---

[1] **Iyd**— bayram, hayit.
[2] **Uzor**— yuz, bashara, yonoq.
[3] **Andalib** — bulbul.
[4] **Savt**— qamchi; tovush, ovoz, shovqin, ohang, kuy, maqom.
[5] **G'ilmon**— g'ulomning ko'pligi, 1) yigit. 2) xizmatkorlar.

Nomunosiblar yuzig'a ochmag'il hargiz basar,
Na ravokim, o'lsa manzuri nazar bir on sanga.

Qil karam Furqat qulungg'a ushbu jurmidin[1] o'tub,
Bir muvashshah ayladi gustah[2] o'lub jonon sanga

[1] **Jurm** — gunoh, ayb.

[2] **Gustah** — gustoh -adabsiz, andishasiz, tortinmaydigan.

* * *

Sunbuli zulfing erur azbaski, ey, dilbar, qaro,
Mushk ila oldi xijolatdin Xo'tanga sar qaro.

Kokilingni nakhatidin[1] rashk o'tida kuyub,
Bo'ldi o'z jismini dudidin o'zi anbar qaro.

Kokil-u xol-u xatin ketmas qaroliq ziynati,
Bu varaqni aylagandur Xoliqi Akbar qaro.

Kokiling torini harso' tebratib bodi sabo,
Baxtim ila ro'zg'orim ayladi yaksar qaro.

Kasb aylab nuqta xolingdin shabi yaldo[2] savod,
Bo'ldi shomi tiyra-tiyra zulmati tar qaro.

Dilbaro, xatting savodidin yuzing ziynat topib,
Mus'haf ichra filmasal zebo erur ahmar[3] qaro.

Shavkati husning uchun boli humoni soyasi,
Bo'ldi soching aksidin boshingda yo mi'jar qaro.

Bul qarolarkim, ko'rarman senda oning oldida,
Yo'q jilosi arsai olamda bordur har qaro.

Qoshlaring yoyin muqavvas aylasang Furqat uchun,
Tiyri dildo'zidurur mijgonlaring kim, par qaro.

---

[1] **Nakhatidin** — xushbo'ylik, ifor.
[2] **Yaldo** — yilning eng uzun kuni yoki tuni.
[3] **Ahmar** — qizil.

* * *

Yashnab o'tsang lolagun xil'at kiyib, aylab shitob,
Tushmag'aymu rasta ahlin jonlarig'a pech-u tob.

Volai ruxsoring, ey, gul, gulshan ichra andalib,
Tong emas, shavqing o'tida o'rtanib bo'lsa kabob.

Saltanat Misri Azizi sen malohat taxtida,
Yusufi Kan'on g'uloming xaylida[1] tobti hisob.

Fosh o'lur olamg'a oxir lam'ai mehri ruhing,
Mohro'lar ayladilar zarra yanglig' iztirob.

Javr etib, boqmay tag'oful etganing yetmasmudi?
Yuz shikanj aylab, taxi qoshingni aylarsen itob.

Oy-u kun tokim falakning toqida ravshan erur,
Tug'madi davron anosi sen kabi olijanob.

Nomi neking nazmidin o'ldi jahong'a muntashir,
Necha ming nokom bo'ldi Furqatiydek komyob.

* * *

Tabassum birla chiqdi gulruhim guldin savol aylab,
Qilibon g'unchani xomush ham bulbulni lol aylab.

Tamoshog'a chiqib erdi ko'rarg'a qaddini shamshod,
Surubon raxshi[1] nozi o'tdi oni poymol aylab.

Ko'rub har oy boshin jonimni qurbon aylasam, tong yo'q,
Hiloli iyd yanglig' yuz uza qoshin xayol aylab.

Sabo mashshotasi[2] ko'b ham mutarro qilmasin zulfin,
Parishon ayladi ko'nglum, meni oshiftahol aylab.

Chekib surma qaro nargislarig'a, ayladi oro,
Meni o'ldirdi oxir g'oza[3] birla yuzg'a xol aylab.

Fano bo'ldi muhabbat dashtida ko'b po'ya qilmoqdin,
Sevinding doimo, Furqat, tamannoyi visol aylab.

* * *

Ko‘ngul dardig‘a topmay boraman hargiz davo istab,
Ani umri kiromi, hasrato, bo‘lg‘ay ado istab.

Necha bosh urdim oxir shayxlarning ostonig‘a,
Nazar holimg‘a, shoyad, aylagaylar deb duo istab.

Necha yurdim adoshib to‘g‘ri yo‘ldin besaru somon,
Tutub ilgimni, yo‘lg‘a solsa, deb bir rahnamo istab.

Necha yerga surib yuz, yaxshilar yo‘lida o‘lturdum,
G‘ubori domanidin jon ko‘zig‘a to‘tiyo istab.

Necha zohid ayog‘iga niyoz aylab o‘zum soldim,
Meni ul savmaidin quvg‘oli turdi aso istab.

Necha izhor qildim, sirri pinhonimni bilmasdin,
O‘zimg‘a on hama begonalarni oshino istab.

Yuray derman chiqib sahrog‘a emdi vahshilar birla,
Zamona mardumidin topmadim hargiz vafo istab.

Balodin, nosiho[11] qo‘rqutmog‘ing ermas nasihatdin,
Hamisha ishq eli yurmasmu bu yo‘lda balo istab?

Balo urgan meningdak bormukin bir xasta-yu ma’yus,
Jahonda hojatig‘a topmagan hargiz ravo istab.

Bu g‘amlar sharha-sharha aylagan ko‘nglum g‘ami sharhin,
Qilurg‘a topmasam, naylay, anisu g‘amzudo istab.

Yotib erdim kecha yig‘lab, bashorat berdi bir marde:
“Ki dunyo bebaqo, Furqat, qadam urgil xudo istab”.

---

[1] **Nosih** — nasihatchi.

* * *

Qorayg‘an dilg‘a bergil nuri pokindin ziyo, yo Rab,
Ketib zangi gunah, oyinadek topsun ziyo, yo Rab.

Inoyat aylag‘il, chiqsun ko‘ngildin mosivo mehri,
Bo‘lay tarki havas qilmokda Adhamdek gado, yo Rab.

Zamon ahli hama begonadur rohi haqiqatda,
O‘zingdin o‘zga yo‘qtur qo‘l tutarga oshno, yo Rab.

Kelibman dargohingga bosh urub, navmid[1] yondurma,
Agarchi ayladim g‘aflatda ko‘b jurmu[2] xato, yo Rab.

Nasib et Ka’ba tavfin ro‘zi aylab ravzai hazrat,
Turarga qolmadi toqat, sanga bu iltijo, yo Rab.

Haram ichra kirib ro‘yi siyohim yerlara surtub,
G‘uborin chashmi mushtoqimg‘a qilsam to‘tiyo, yo Rab.

To‘kub qonlig‘ sirishkim, nola tortib har taraf borsam,
Qabisu Marvau Miyno bila aylab safo, yo Rab.

G‘ururi dahri foniy tushti dilg‘a, vahmi uqbo[3] yo‘q,
Faromush aylab o‘z jonimg‘a qildim ko‘b jafo, yo Rab.

Bu badkirdorliq birla o‘lub, yer ostig‘a borsam,
“Kechar holim nechuk?” deb dilda ko‘b xavfu rijo, yo Rab.

Xaloyiq ichra tongla qilmag‘aysan xasta Furqatni,
Habibing hurmati, sharmandai ro‘zi jazo, yo Rab.

---

[1] **Navmid** — noumid bo‘lmoq.
[2] **Jurm** — gunoh, ayb.
[3] **Uqbo** — narigi dunyo.

* * *

Ey, visolingga yetushmak koru borib, sog‘inib,
Qolmadi bir zarrae sabr-u qarorim, sog‘inib.

Yodima tushgan chog‘i af’oli xushxislatlaring,
Tinmagay bir lahza chashmi ashkborim, sog‘inib.

Mubtalo ul kunki bo‘ldum oshnolig‘ domiga,
Bir yuli ketti qo‘limdin ixtiyorim, sog‘inib.

Ey, sabo, ul yor ko‘yidin guzor etsang agar,
Bir xabar bergil, mani kelgaymu yorim sog‘inib.

Furqat-u hajring base ag‘yorlig‘ning ustiga,
Qolmadi bu shaharda emdi turorim, sog‘inib.

* * *

Dilrabo, bizga nechuk muncha azob,
Otashi hajring necha qildi xarob?

O‘zgalarga komronlig‘lar qilib,
Men kabi sho‘ridag‘a qahr-u itob[1].

Hasratingda zarra uyqu ko‘zda yo‘q,
Kechalardur kor-u borim pech-u tob.

Soqiyo, may tutki, bu davron aro,
Shum falakdin ko‘rmadim juz[2] inqilob.

Qil pushaymon, zuhddin bir jom ila,
Kirsa zohid aylamoqqa ihtisob.

Hajridin rasvoyi olam bo‘lmisham,
G‘am o‘tida bo‘ldi bu jonlar kabob.

Ayladi har uqdasi yuz dilni band,
Kokulingdur halqa-halqa, tob-tob.

Darbadar qulg‘a tarahhum aylag‘il,
Dilrabo, senga kerakmasmu savob?

Furqat ichra o‘lsamu mahshar aro
Domaningdin[3] ushlasam nadur javob?

---

[1] **Itob** — malomat, ta’na.
[2] **Juz** — o‘zga, boshqa.
[3] **Doman** — etak.

* * *

Pari ro‘yim yuz ochib qo‘lg‘a olib,
Necha oyinani hayratga solib.

Ezib bag‘rini og‘zi hasratidin,
Chamanda g‘unchalar, qong‘a bo‘yolib.

Kamon abro‘laridin tiyri mujgon,
Tegib, payvasta jonimg‘a qadolib.

Birov bazmida tun xurram etib ul,
G‘amu anduh ila men munda qolib.

Agar kelsa ketar holim ko‘ribon,
Ajal jonimni olmasdin uyolib.

Tong otquncha chekibman munda faryod,
Ul anda kechalar tanbur cholib.

Bu kecha hajr o‘tidin yig‘lay-yig‘lay,
Yiqildi Furqatiyni bag‘ri tolib.

* * *

Bo‘yingdin o‘rgulay, ey, sarv qomat,
Guli navrastai bog‘i latofat.

Xirad bobida Aflotun fatonat,
Takallum chog‘ida to‘ti fasohat[11].

Ana qaddu, ana husnu, ana xulq,
Kishi ko‘rgan emas mundog‘ latofat.

Qayu bir vasfini taqrir etarman,
Ayog‘din boshg‘acha koni malohat.

Yuzingdin pardani olsang na bo‘lg‘ay?
Sonurman go‘iyo bo‘ldi qiyomat.

Jafo bo‘lmas, nigoro, mundin ortuq,
G‘amingdin qolmadi jonimda toqat.

Meni yig‘latma ko‘b, ey, mehri yo‘q yor,
O‘zing insof qil kimda bu holat?

Ko‘ngul afgor o‘lub el ta’nasidin,
Tegib boshimg‘a ko‘b sangi malomat.

Na bo‘lg‘ay, yo‘qlasang Furqat qulingni,
Bo‘yingdin o‘rgulay, ey, sarv qomat?

[1] **Fasohat** — chechanlik.

* * *

Keldi holimni so‘rab bul kun nigorim, xayriyat,
Yetti o‘xshar kecha chekkan oh-u zorim, xayriyat.

Lashkari g‘am poymol etgan edi aylab hujum,
Nogahon keldi yetib ul shahsuvorim, xayriyat.

Ul pariro‘ hajrida har lahza qon yig‘lar edim,
Vojgun etmish jahonni ashkborim, xayriyat.

Javr etib, solsa qaro kunlar boshimg‘a, naylagum?
Shodlik birla o‘tar layl-u nahorim, xayriyat.

Nahsi hijrondin chiqib topdim visoli sa’dni,
Tole’im hamdam bo‘lubdur, baxt yorim, xayriyat.

Qoldi ko‘nglum ajramay ul yor ila vaqti vido’,
Keldi qolmay, yaxshi joni beqarorim, xayriyat.

Keldi yakbora samandi nozni javlon berib,
Qayda Furqat zor deb, chobuksuvorim, xayriyat.

* * *

Bu yerga, sho'xi barno, bir kelib ket,
Xudo haqqi, nigoro, bir kelib ket.

Yuzing gul, qomating shamshodi jannat,
Ayo zulfi sumanso[1], bir kelib ket.

Jamoling sog'inib devona bo'ldum,
Erurmen zor-u tanho, bir kelib ket.

Agarchande bu yona kelmasang ham,
Qilib mahzi tamosho bir kelib ket.

Fido bo'lsun senga bu jism-u jonim,
Na qilsang qilg'il, ammo bir kelib ket.

O'lukg'a bir so'z ila jon berursen,
Labi la'ling Masiho[2] bir kelib ket.

Jamoling ko'rgali, ey dastai gul,
Bo'lurmen turfa shaydo, bir kelib ket.

Ayo, ey qumriyi bog'i malohat,
Ayo, ey qaddi ra'no, bir kelib ket.

Muruvvat qil menga husnung zakotin,
Bo'lur da'fi balo, yo bir kelib ket.

Tunumdur tiyra-u oshufta holim,
Bo'lub oydin musaffo bir kelib ket.

Hamisha muntazir Furqat g'uloming —
Ki bo'lsun da'fi savdo, bir kelib ket.

[1] **Sumanso** — suman (yosmin guli)ga o'xshagan.
[2] **Masih** — Iso payg'ambar.

* * *

Aylama ma'lum hargiz ag'niyoga ehtiyoj,
Balki qoni' bo'lsang, etma podshoga ehtiyoj.

Oshnolardin sanga yetmas vafo, g'ayr az jafo,
Qilma ravshan, ey birodar, oshnoga ehtiyoj.

Senda gar bo'lsa tavakkul, shohlardin uz tama',
Chunki shahlar qilg'uchidur avliyoga ehtiyoj.

Shaxs ehsoniga ko'ngul bog'lama, ey bexirad,
Xor o'lursan, aylasang ahli saxoga ehtiyoj.

Hiyladur zohid ishi, andin duo qilmang umid,
Xomlig'dur aylamoq ahli riyoga ehtiyoj.

Himmatim shulkim, agar dard aylasa jonim halok,
Bo'lmagay dardim uchun menda davoga ehtiyoj.

Aylagil, Furqat, tamosho dahr[11] atvorinikim,
Etdilar oxir rasolar norasoga ehtiyoj.

[1] **Dahr** — zamon, dunyo.

* * *

Yerga pomol o'ldi gul sayri guliston aylagach,
G'uncha qon yutti yana la'lini xandon aylagach.

Ul barahmanzoda har dam barqdek o'ynab-kular,
Yig'latib, ko'z yoshimi abri bahoron aylagach.

Aql ila hushim ketib, hayratda qoldim ul dame,
Burqa'in ochib yuzin andak namoyon aylagach.

Tutmish olam arsasini[11] sunbul-u rayhon isi,
Xastalar ko'ngli kabi zulfin parishon aylagach.

Bo'ldi Majnundek muqimi dashti anduhi firoq,
Har kishikim orzu-yi vasli jonon aylagach.

Chun nigor etmish qo'lin xun ila iyd o'lg'och nigor,
Ko'rsatib bir yo'l hilolin elni qurbon aylagach.

Furqat, ul oshubi davron etmadi bir qatla yod,
Bizni rasvoyi jahon-u zor-u hayron aylagach.

[1] **Arsa** — maydon.

* * *

Muhabbat domig'a ko'nglum giriftor ayladi ul sho'x,
Qachonkim donai xolin namudor[11] ayladi ul sho'x.

Xarobot ichra kelgach muhtasib ta'zir etmoqchun,
Tutub bir jom ani ham masti idbor[3] ayladi ul sho'x.

Qurubdur g'amza tiyrini, qoching, turmang, musulmonlar,
Chekib abr-u kamonin azmi bozor ayladi ul sho'x.

Bo'lub pomol shamshod-u sanovbarkim xijolatdin,
Bu qad birla guliston ichra raftor ayladi ul sho'x.

Raqibo, bo'lma xurram vasliga mahram bo'lurmen deb,
Meningdek mubtalosin muncha afgor ayladi ul sho'x.

Necha qon yig'lasam noz-u tag'ofuldin, nazar solmas,
Ko'zumcha ko'zi shum ag'yorni yor ayladi ul sho'x.

O'tarda tuhfasi birla yuzin har yona to'lg'aydur,
Magar devona Furqatni ko'rub or ayladi ul sho'x.

---

[1] **Namudor** — ko'rinarli, ayon.
[3] **Idbor** — baxtsizlik, (ishning) yurishmasligi.

* * *

Qomating gulshandag'i sarv-u sanovbardin baland,
Orazing guldin, xating rayhoni axzardin[1] baland.

Lablaring hayvon bulog'i kokuling zulmotida,
Dona xoling rohbar Xizri payambardin baland.

Noz-u istig'no bila har kimga boqib so'zlasang,
Sen malohat bobida bu jumla dilbardin baland.

Dasta-dasta kokulingni tebratur bodi sabo,
Sunbuli tardur agarchi mushk-u anbardin baland.

Rahm ayla, ey sumanbar, oshiqi rasvolaring,
Ishq o'tida o'rtanur murg'i samandardin baland.

Xira bo'ldi orazingdin oftobi xovariy,
May ichib chiqsang banogah mohi anvardin baland.

Orzu birla xaloyiq bosh qo'yarlar yo'lingga,
Kim, g'ubori maqdaming toji Sikandardin baland.

Nim bismil aylading, har kimga qilding bir nigoh,
Qosh ila mijgonlaring yuz tig'-u xanjardin baland.

Nomi xo'bingni eshitgondin beri Furqat qulung,
Bir nishoning topmadi izlab qalandardin baland.

[1] **Axzar** — ko'k, yashil.

* * *

Iydkim xalqi jahong'a bordurur ro'zi said,
Dilbaro, har lahza bir ko'rmak jamoling menga iyd.

Yangi oy ko'rgan kishini istagaylar iyd uchun,
Oraz ochg'ilkim, qoshing bir ko'rmak aylarmen umid.

Shodlig'din ko'z yoshim tarqatti vasling mujdasin,
Tifllar go'yo yugurgay iyddan yetgach navid[11].

Iyd ayyomi agar xursand qilmoq istasang,
Hajringa etma qariyb-u qilma vaslingdin baid.

Xalqi olam iydi bir kunda tamom o'lg'oy, vale —
Orazing ko'rgach bo'lur har kun meni iydim jadid.

Tug'madi davron anosi husn aro bir sen kabi,
Nodiri asru vahidi dahr farzandi rashid.

Iyd mardumg'a agar chandi farog'at ro'zidur,
Furqatiy bero'zig'a sensiz erur yavmush-shadid.

[1] **Navid** — sevinchli xabar.

* * *

Ummati sargashtaman, yo Mustafo, aylang madad!
Tutmadim sunnat yo'lin, ro'zi jazo aylang madad!

Yo Abubakr, taqi siz yori g'ori Mustafo,
Umari odili ayni bosafo, aylang madad!

Yorig'ori seyum jomi'al Qur'on -Usmoni g'aniy,
Shahsuvori Hal oto, Sheri Xudo, aylang madad!

Xoki poyingiz erur toji sariri avliyo,
Shayxi Muhyiddini mahbubi Xudo, aylang madad!

Kulfate boshimga tushti, turfa hojatmandman,
Yo Bahouddin valiy mushkulkusho, aylang madad!

Dar Samarqand Shohi Zinda — hazrati Sayyid Qusam,
Ibn Abbos sokini g'ori fano, aylang madad!

Ilgim oling, yo'lda qoldim, yo imomi Shahrisabz,
Bu yana hazrat Ali Sheri Xudo, aylang madad!

Toshkandda Xoja Nuriddin ila shayxi Zahir,
Ruhingizdin o'rgulay, Zangi oto, aylang madad!

Qolmisham yo'llarda, shayxi Maslahatdini Xo'jand,
Qotti boshim, bekasu berahnamo, aylang madad!

Sizga mol-u jon tasadduq, mavlaviy Jomiy pirim,
Manga yo'qtur sizdin o'zga muqtado, aylang madad!

Shahri Xo'qand tavfgohi hazrati Shohi Jarir,
Bu yana Erhubbi, Qaroyozi oto, aylang madad!

Avliyoyi begumonsiz, shayxi Sulton Boyazid,
Ojize darmondaman, badastupo, aylang madad!

Qum aro Xoja Turob shayxi kibori fayzbaxsh,
Hazrati Bo'yob pirim porso, aylang madad!

Marg'ilonning saylgohi, Yo Mag'oz binni Jalil,
Hazrati Mo'yi Muborak ibtido, aylang madad!

Muflisi bechoraman, taxti Sulaymoni nabiy,
Ahmad Arqam, Osaf ibni Barxiyo, aylang madad!

Ahmadi Narmiy valiy, Hazrat Sulaymon Porso,
Jam'i as'hobi kibori peshvo, aylang madad!

Naynavo shahrida yotgan hazrati Yunus yano,
Hazrati Idris, Arslonbob oto, aylang madad!

Hazrati Ayyub payg'ambar Xudo suygan quli,
Xastadilman, chashmai dorush-shifo, aylang madad!

O'zgandda shayxi Burxoni Qilichiddin yano,
Andijon mulkida Mir Po'stin oto, aylang madad!

Sayyidi oliynasab, ey, hazrati mavloyi Chust,
Keldim ummid aylabon sizdin duo, aylang madad!

Yo g'ulomi shayxi G'avsi qodiriya, rahbarim,
Bo'ldingiz shahri Namangonda fano, aylang madad!

Man nechuk qilg'um bu ko'tah so'z bilan bir-bir bayon,
O'tgan olamdin ja'mii avliyo, aylang madad!

Furqatiy yo'llarda qoldi, G'avsi A'zam dastgir,
Qo'l tutarga yo'q erur bir rahnamo, aylang madad!

* * *

Koshki kulbam aro yak bora yorim kelsalar,
Yo'llariga jon nisor aylay, nigorim kelsalar.

Bir faqiri bebizoat, xasta dil, qashshoqmen,
Jondin o'zga tuhfa yo'qtur, shahsuvorim kelsalar.

So'rsalar ahvolimi, g'am javrini tortting debon,
Dod etib ushlab inon, chobuksuvorim kelsalar.

Gul yaqosin pora aylab, g'uncha bag'rin qon qilib,
Sayri bog' aylarga nogah guluzorim kelsalar.

Sabr-u hushidin ketib, jon-u ko'ngul Majnun bo'lur,
Noz-u istig'no bila laylishiorim kelsalar.

Bo'lg'usi navro'zi olam, to chiqib hijron qishi,
Yuz ochib, bir-bir bosib fasli bahorim kelsalar.

Necha muddatdin beri Furqatda qolgan zormen,
Ne saodatdur so'rorga holi zorim kelsalar.

* * *

Ko‘z tutub men notavon, bu kecha jononim kelur,
Kelmadi jononim emdi, halquma jonim kelur.

Shod o‘lunglar zulmati hijrondag‘i mushtoqlar,
Arzi diydor aylab ul xurshidi raxshonim kelur.

Barcha yerni lolagun etsa sirishkim, tong emas,
Yig‘lab ul gul hajrida ezgan jigar qonim kelur.

Ko‘zlarim mardumlari chiqti tamosho qilg‘oli,
Har tarafg‘a to‘lg‘onib sarvi xiromonim kelur.

Beshai[1] hasratda bo‘ldum, turfa bir sargashtamen,
Har qayu xori alam ilkida domonim kelur.

Ko‘zlarimni pardasin yo‘lig‘a poyandoz etib,
Naqdi jonimni nisor aylayki, sultonim kelur.

Itlarini qutig‘a bag‘rim kesib aylay kabob,
Furqatiy, kulbamg‘a mundog‘ yaxshi mehmonim kelur.

[1] **Besha** — to‘qay, o‘rmon, changalzor.

* * *

Ul paridek qaysi dilbarni ruhi gulguni bor?
Ham tishidek qaysi daryoni dur-u maknuni[1] bor?

Sarvni jonig'a o't soldi o'zin aylab faroz[2],
Olloh-olloh, oni qaydog' qomati mavzuni bor?

Fikrat ahli diqqatidin hech ravshan bo'lmag'oy,
Nuqtai og'zini har harfini ming mazmuni bor.

Ko'zlarimdin mavj urar ashki muhabbat, ayb emas,
Dilda aylaydur talotum, ishqni Jayhuni bor.

Mehribonlik sheva aylab shodkom aylay desa,
Qayda mendek, Furqatiy, bir xotiri mahzuni bor?

[1] **Dur-u maknun** — yashiringan dur, xazina.
[2] **Faroz** — 1) yuqori, ulug', baland; 2) yaqin; 3) ochish.

* * *

Ul qaro ko‘z ko‘zlariga surma bejo tortadur,
Balki andin dahr eli ortuqcha g‘avg‘o tortadur.

Qoshlari ostida go‘yo ikki fatton ko‘zlari,
Ikki hindu bachchadurkim, yondashib yo tortadur.

Telbalanmish zulfini savdosidin devonalar,
Qayg‘a borsa o‘lturub yerg‘a chalipo[1] tortadur.

Jon ila ko‘ngul taloshur, ey sanam, dardu g‘aming,
Birni sol ko‘nglumg‘akim, jon birni tanho tortadur.

Kokulingdan bo‘y olgan bog‘ning tuprog‘idur,
Bog‘bon sotmoqqa doim mushksoro tortadur.

Ne bilur Yusufki, nozu husn ila mag‘rurdur,
Ul qadarkim ishq dardini Zulayho tortadur.

Ishqni pinhon tutarg‘a bo‘lma shaydo, e ko‘ngul,
Mushk pinhon bo‘lsa bo‘yi oshkoro tortadur.

Charxi kajraftorning bir shevasidin dog‘man,
Ayshni nodon surub, kulfatni dono tortadur.

Sorig‘ oltun kasrati ko‘ngulni aylaydur qaro,
Chunki safro bo‘lsa g‘olib, o‘zga savdo tortadur.

Bulhavaslar[2] torta olmas nozaninlar nozini,
Furqatiydek bekasu sho‘rida[3], rasvo tortadur.

---

[1] **Chalipo** — plyus alomatiga o‘xshagan bir belgi, but, krest.

[2] **Bulhavas** — ko‘ngli nimani havas qilsa, shuni qilmoqni orzu etadigan kishi; behuda havas qiluvchi.

[3] **Sho‘rida** — parishon, gangiragan.

* * *

Mahvasho, sensiz menga mahzun qarong‘u kechalar,
Yig‘laram andoqki, ashkimdin ulus suv kechalar.

Husningg‘a barkash qilurg‘a tongg‘a tegr-u intizor,
Och yuzingkim, ko‘kda oy birla tarozu kechalar.

Yodima holing savodi tushgach, ey vahshiynigoh,
Ko‘zlarimg‘a mutlaqo kelmaydi uyqu kechalar.

Ey, nazokat gulshanida sarv qaddi navrasim[1],
Tortaram qumri kabi hajringda yohu kechalar.

La’mai husning tushib, solg‘ay jahong‘a barqlar,
Rahm qil jonu jahong‘a, boqma ko‘zgu kechalar.

Dilbaro, vasling muyassar bo‘lmasa yig‘lab yotay,
Tobakay hajringda og‘ushimda zonu kechalar?

Yo‘l adoshib ko‘qda oy holi parishon o‘lmasun,
Bir muruvvat ko‘rgaz-u, tarqatma gisu kechalar.

No‘sh etib har qayda san ag‘yor ila gulgun sharob,
Rashkdin munda ichib men zahri qayg‘u kechalar.

Xalq ichiga tushmasin oshub[2], ko‘rdik deb hilol,
Ko‘chaga chiqma, namoyon etma abru kechalar.

---

[1] **Navras** — navrasta — 1) yangi o‘sib kelayotgan yosh; yangi yetishgan o‘spirin; *2)* yangi maysa.

[2] **Oshub** — g‘avg‘o, to‘polon, shovqin, fitna.

Aylaram to subh men yig‘lab giribonimni[1] chok,
Aylabon sen g‘ayrni bazmida kulgu kechalar.

Nega Furqat, chekmayin kunlar g‘amingdin ohkim?
Muttasil afg‘on ishimdur sendin ayru kechalar.[2]

[1] **Giribon** — yoqa.

* * *

Ko‘yiga behud meni ul chashm-u abro‘ kelturur,
Sohiredurkim, netay, tebransa bir mo‘ kelturur.

Zulfidin yorim yuzi o‘lmas namoyon, ne ajab?
Rasm erur: oy yorimi tunni qorong‘u kelturur.

O‘chti uyqu, bel-u og‘zidin degach bir bor-u yo‘q,
Der emish roviy g‘alat: afsona uyqu kelturur.

Ashki dog‘ ezgan jigarni kelturub ko‘z yo‘lidin,
Pora-pora lola bargin go‘iyo suv kelturur.

Chehrai zardim ko‘rib shod o‘lsa, ayb ermaski, yor,
Za’faroniy boda ichgan chog‘da kulgu kelturur.

Ishq savdosidin o‘lg‘on dardisarg‘a, ey tabib,
Berma sandalkim, iloji bor, zonu kelturur!

Mahvashimni husnig‘a barkash qilurg‘a har kecha,
Tongg‘a tegru charx oy birla tarozu kelturur.

Doyai dahr axtarib topmay misoli, oqibat,
Makr ila nochor qarshisig‘a ko‘zgu kelturur.

Ko‘zlari bir g‘amza birla vahshi ko‘nglim qilsa sayd,
Furqatiy, yolg‘on emas, gar Chindin ohu kelturur.

* * *

Fasli guldur, men bila bir sayri bog‘ etsang netar?
Xasta ko‘nglum eski g‘amlardin farog‘ etsang netar?

Yuz ochib, gulni qilib oxir parishon ro‘zgor,
G‘unchani ta’bin tabassum birla chog‘ etsang netar?

Tushti jonlar rishtasig‘a fikrdin to bu gireh[1],
Pech toridin ochib, zulfing tarog‘ etsang netar?

Davri gardun inqilobidin base g‘amnokman,
Dilbaro, bir jom ila ta’bimni chog‘ etsang netar?

Telbadurmen kokuling zanjirining savdosida,
Tashlabon bo‘ynig‘a bu Majnunni sog‘ etsang netar?

Qon qilib gulshanda gul bag‘rin qizil dastordin,
Lola ko‘ksin dasht aro dog‘ uzra dog‘ etsang netar?

Furqat o‘ldi oqibat ishqingda benom-u nishon,
Bor edi bir xastae, debkim so‘rog‘ etsang netar?[1]

[1] **Gireh** — tugun, chigil; mashaqqat.

* * *

Fasli navbahor o‘ldi, ketibon zimistonlar,
Do‘stlar, g‘animatdur, sayr eting gulistonlar.

Subhidam tushub shabnam, bo‘ldi sabzalar xurram,
Gul uza tomib kam-kam yog‘di abri naysonlar.

Nastaran yuvib yuzni, yosuman tuzib o‘zni,
Nargis ochibon ko‘zni intizori yoronlar.

Bir sahar edim uyg‘oq, o‘t tutoshdi olamg‘a,
Tog‘lar chekib larza, titradi biyobonlar.

Qumrilar qilib ku-ku, bulbul aylabon chah-chah,
Sarv-u gul uza doim tortar oh-u afg‘onlar.

Bulbul o‘qug‘och yig‘lab subhidam xazon faslin,
G‘uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.

Kechtilar vafo ahli qolmayin tutub, savsan,
Kiydi ko‘k, qilib sunbul zulfini parishonlar.

Kuymasun bu savdoda ne uchun dimog‘imkim,
Ranj-u g‘ussada dono, kechsa shod nodonlar.

* * *

Meni nomehribonim ko‘b sitamkor o‘ldi o‘xshaydur,
Jafojo‘-yu g‘azabno-ku dilozor o‘ldi o‘xshaydur.

Raqibi ro‘siyahlarga vafo-yu marhamat aylab,
Meni mahzung‘a javr-u zulmi bisyor o‘ldi o‘xshaydur.

O‘shal nozik badan, siymin zaqan mahbublar shohi,
Meni ko‘zdin solib, ag‘yora dildor o‘ldi o‘xshaydur.

Tahayyurdin hamisha vola-u madhush o‘lmishmen,
Ko‘zum oyinasi to kat’i diydor o‘ldi o‘xshaydur.

Meni ko‘rgan kishilar ko‘hna xashxoshiy[1] xayol etti,
Base hajringda chehram za’faronvor o‘ldi o‘xshaydur.

Ko‘zin mardumlari dinim uyini ayladi toroj,
Sochi har toridin bo‘ynumg‘a zunnor o‘ldi o‘xshaydur.

Takallum aylamas nechun meni Majnun adosig‘a?
Magar oh-u fig‘onimdinmu ozor o‘ldi o‘xshaydur.

Balo dor ul-qazosida chu ishqim mahzarin olmas,
Meni da’volarim bilkulli bekor o‘ldi o‘xshaydur.

Bu hasrat o‘tida kul bo‘ldi Furqat o‘rtanib oxir,
Tani bir o‘tga tushgan bargi ashjor[2] o‘ldi o‘xshaydur.[1]

---

[1] **Xashxosh** — giyohvand.
[2] **Ashjor** — daraxtlar (birligi shajar).

* * *

Sarv-u gulda yo‘q tarovat, qaddu ruxsoringdadur,
Na fasohat to‘tida, nutqi shakarboningdadur.

Yusufi Misri malohatsen, jahon ahli hamma,
Naqdi jon qo‘lg‘a olib bir umr bozoringdadur.

Dahrni ko‘b fitna qo‘zg‘ob qon ila to‘ldurg‘usi,
Bo‘yla sehromuzliqkim chashmi makkoringdadur.

Qaysi lof ishqingda urgan injimas javring chekib,
Sabr-u toqat aylamoq mendek jigarxoringdadur.

Urmasun mashshota tor ochmoqqa beparvo tarog‘,
Miskin etgan yuz ko‘ngul shabrangi taroringdadur.

Sen jafog‘a moyil etding yorimi desam, falak,
Dedi: mendin ko‘rmakim, zolimlig‘ o‘z yoringdadur.

Murdalarni yuz nafas birla Masiho tirguzur,
Bo‘lsa yuz jonbaxshlig‘ bir lafzi guftoringdadur.

Xo‘b emas ahli muhabbatg‘a jafodin injimoq,
Negakim, yuz lutf-u ehson har birozoringdadur.

O‘lsa bok ermas ayog‘ing ostida gulshan aro,
Xun bahoyi yuz chaman tovus raftoringdadur.

Nozparvar siymbarlar ko‘b erur husn ahlidin,
Desa bo‘lg‘ay az qatori kafshbardoringdadur.

Ishq aro sho‘ridai nokomlarning shevasi,
Furqatiy, oshifta xoli siyna afkoringdadur.

* * *

Mening bir Laylivash ishqida Majnunlug‘ shiorimdur,
Junun ahli erur yorim, balo dashti diyorimdur.

Bahor ayyomi sahroda ochilg‘on lolalar ermas,
Yuzi hajrida har bir qatra qonlig‘ ashkborimdur.

Chamanda g‘uncha demang, qong‘a to‘lg‘on tah-batah bag‘rim,
Emas nargis, aning yo‘lida chashmi intizorimdur.

Qarong‘u kecha ermas, tiyra baxtim, tah-batah holim,
Sochi savdosidin tokim qorargon ro‘zgorimdur.

Qayu yerda xazonlig‘ barg yo parri samon bo‘lsa,
Mening g‘urbat aro g‘am birla sarg‘arg‘on uzorimdur[11].

Yer uzra poymol o‘lg‘on emastur soyayi devor,
Yiqilgan charx zulmi birla jismi bemadorimdur.

Agar yor ostoni uzra bir aftoda ko‘rsanglar,
Quyunlarkim, ko‘ngul otlig‘ xarobi xoksorimdur.

Falakda ra’d[2], barq etmang gumon, ul oy firoqinda,
Mening savti fig‘onim birla ohi pursharorimdur.

Shahid o‘lsam, boshoqlig‘ o‘qini boshimg‘a qo‘yg‘aysiz,
O‘zi mil-u, yonar paykoni bir sha’mi mazorimdur.

Muhabbat yo‘lida bir necha rasvoyi jahon bo‘ldim,
Bihamdillahki, bu dunyoda topgon e’tiborimdur.

Fig‘onim eshitib, ahboblar qoshinda so‘rganda,
Na bo‘lg‘ay desalar, Furqat degan bir beqarorimdur.

---

[1] **Uzor** — yuz.
[2] **Ra’d** — momaqaldiroq.

* * *

Yig‘lamoqdin bir pari hajrida, ey, ahboblar,
O‘ng ko‘zimdin oqdi qon-u so‘nggidin zardoblar.

Turralig‘ zulfini yodini qilib butxonada,
Tushti tarsolarni[1] zunnorig‘a pech-u toblar.

Bexabar zohid sanamlar ishqig‘a munkir hanuz,
Qoshi qayg‘usi bila xam bo‘lsa ham mehroblar.

Aybim etma, soqiyo, davron aro mast o‘lmasam,
Sharbati la’lidek ermas bodai unnoblar.

Qatra-qatra ashkimi sochdim, g‘amidin har biri,
Ishqning daryosidindur gavhari noyoblar.

Kecha tush ko‘rdimki, zulfin tebratur erdi nasim,
Qildi oshufta dimog‘im bu parishon xoblar.

G‘ayr ila yorim sharobi nob ichib, men Furqatiy,
Rashk jomidin ichib tong otqucha xunoblar.

[1] **Tarso** — xristian.

* * *

Tariqi ishq aro kim qaddi duto ko'runur,
Mani ko'zumg'a o'shal pir rahnamo ko'runur.

Ajab xatarliq emish, yo Rab, ishq sahrosi,
Zaif muri oning misli ajdaho ko'runur.

Hayot xirqasig'a har kuni solur chok,
Shuo'i mehr, dema, panjai qazo ko'runur.

Dilim muhabbat ila bo'ldi ravzatu-sh-shuhado,
Aning uchun bu ko'ngil misli Karbalo ko'runur

Tariqat ichra kimikim, vujud nafyi etsa,
Qayu tarafg'a nazar aylasa — Xudo ko'runur.

Jahonni shohidig'a bog'lama ko'ngil hargiz,
Ki oldanursan, aning ayshi bevafo ko'runur.

Abas[1] kechurmag'il ahdi shabobing[2] ey, Furqat,
"Xudo", degilki, bu dam durri bebaho ko'runur.

[1] **Abas** — behuda, foydasiz.
[2] **Shabob** — yoshlik.

* * *

Jomai sarkash kiyib, ot o‘ynatib, chiqsang nigor,
Bo‘lmag‘aymu zarradek xurshid-u xovar beqaror.

La’li jonbaxsh uzra xat qilma namoyon, bo‘lmasun,
Xizr yerda munfail[1], ko‘kda Masiho sharmisor.

Ol niqobing, ey, pari, husnungg‘a barkash qilg‘ali,
Har kecha to subh oy birla tarozu intizor.

Layli-yu Shirinni sanga, vah, na deb tashbeh etay,
Aylag‘um Majnun ila Farhoddin nomus-u or.

Xomai naqqosh azalda surating chekkanda man
Bor edim, yozdi dilim lavhiga mehrindin nigor.

Oshno qil ko‘zlarimga maqdaming tufrog‘ini,
Bo‘yla lutfingg‘a ko‘ngil mushtoq, jon-ummidvor.

Nomi xo‘bingni hurufin[2] zeb uchun Furqat qulung,
Rishtai ash’orig‘a terdi chu durri shohvor.

[1] **Munfail** — xijolatli, uyalgan, ta’sirli.
[2] **Huruf** — harfning ko‘pligi.

* * *

Tushumda bir pari ko'rdum, nasibim bo'lsa yorim bor,
Yurogim tiyri ishqi pora qildi, oh-u zorim bor.

Tamomi huri jannat rashk etarga orazing ko'rgach,
Tamosho qilg'ali, iskab turarga ikki norim bor.

Yuzini ko'rdumu boshimg'a tushdi oni savdosi,
Qaror-u sabrim oldi, kecha-kunduz intizorim bor.

Kechibman jon-u dildan ko'rmaguncha husni ra'nosin,
Yeturdum ko'z yumub ochguncha-bir chobuksuvorim bor.

Muhabbat o'tiga kuydi dil-u jonim, ayo do'stlar,
Mani ayb etmang aytib yig'lasam, ne ixtiyorim bor?

Azal soqiysi sundi sharobi ishq jomidin,
Ichib sarxush bo'lub yorim diyoridin guzorim bor.

Tegib ishq otashi yondurdi, ayb etmang Zulayhoni,
Umidim vaslidin, Furqat, mani fasli bahorim bor.

* * *

Qiyo-qiyo boqishing banda qildi, ey, dildor,
Tabassum aylaganing oldi sabr ila qaror.

Labing suchuklishdin so‘zlaring ajab shirin,
Hamani aqlin olib to‘tidek qilib guftor.

Nasibam o‘ldi alam zahri-yu g‘ami hijron,
Ishim fig‘on-u yurak qon-u ham bag‘ir afgor.

Dil-u tilimda hamisha jamoling avsofi,
Mudom matlabim o‘ldi visoling, ey, dildor.

Ravom-u bag‘ri ado qullaringg‘a zulm etmoq,
Vafo ko‘zi-la nazar qil, boshingda Tangri bor.

Xarobliq qiladur ko‘ngil yuzing ko‘rmay,
Chekib chu bulbuli xasta fig‘on-u nola-u zor.

O‘shal kuniki sani bir ko‘rub asir o‘ldum,
Qilur ishimni bilolmay yurubdurman nochor.

Nechuk tahammul[11] etay, dilbaro, judolikka,
Xush ul zamone edim sanga mahrami diydor.

Kamina Furqatiy hayron jon ila g‘ulom o‘ldum,
Shohi malohat erursan, emasmu qul darkor?

[1] **Tahammul** — toqat, sabr, chidam.

* * *

Nozparvar yor agarchi ta'bi zulm ososi bor,
Oshiq o'lturmakda qon to'kmakka istig'nosi[11] bor.

Voykim, solmas tag'ofuldin nazar ahvolima,
Yuz maningdek xasta rasvo o'lsa ne parvosi bor?

Rasmi mahvashlardur: oshiq oldida ag'yorg'a,
Lutf etib degaylar, oni o'zga bir barnosi bor.

Man gadoga xoki poying maskan etmak orzu,
Ermish ammo itlaring har go'shadin g'avg'osi bor.

Huri jannat vasfin etmish zuhd ahli muddao,
Ishq eli mahshar kuni ma'shuqig'a da'vosi bor.

Mayl etar gulzori har kim yordin mahrum erur,
Naylasun rizvonni ulkim, san kabi ra'nosi bor.

Dam chiqarmas sidq ila da'voyi ishq etgan kishi,
Bulhavasdur, ishq oyinida "oh"u, "vo"si bor.

Bo'stoni nazm aro har bandidin bir gul uzub,
Dasta qilkim, yorni ismi chaman orosi bor.

[1] **Istig'no** — muhtojsizlik.

* * *

Har kishikim dahr aro sendek malak siymosi bor,
Huri jannat yuziga boqmoqdin istig'nosi bor.

Aylagil raftarkim, sharmanda bo'lsun bog' aro,
Jilva bobida sanga tovusni da'vosi bor.

Dilbaro, olmas jamolingdin nazar bir lam'ae,
Har kimikim, dahr aro gar diydai biynosi bor.

Jon chiqar holinda la'lingni suvidin rahm etib,
Solki, har bir qatrasida yuz Masih anfosi bor.

Jon qachon qolg'ay salomat, bog'lasang qosh "yosi"g'a,
Tiyri mujgoningni, jono, no'gida olmosi bor.

Ayladi masti sharobi noz zolim ko'zlaring,
Yuz meningdek o'lsa emdi oni ne parvosi bor?

Noma insho ayladim, Furqat, muhabbat shavqidin,
Har qatekim, harfi ismingdin ani tug'rosi1 bor.

[1] **Tug'ro** — sarlavha, xat boshidagi muhr.

* * *

Bu bahor ayyomi bo‘ldi, keling, ey ahboblar,
Bog‘ aro no‘sh aylaylik biz ham sharobi noblar.

Emdi jonparvar nasim bo‘lg‘och, bulut qatrafishon[1],
G‘unchalar kuldi-yu, yuz ochdi guli seroblar.

Sarv uza qumri, gul uzra andalib afg‘onidin,
O‘chdi yakbora cho‘chib, nargis ko‘zidin xoblar.

Sabzalar uzra musalsal bo‘ldi sunbul turrasi,
Bir taraf savsan arosidin ravondur oblar.

Qoni bir yoreki, gulgasht aylasak qo‘l ushlashib,
Bexalal, ohista-ohista, shabi mahtoblar.

La’lgun sog‘arda, soqiy, arg‘uvoniy bodani,
Sibqorib bergum erur, g‘amdin dilim xunoblar.

Ayb emas, bosh olmasam, Furqat, nigor abro‘sidin,
Kim sujud[2] etmabdi, topsa bu sifat mehroblar?

---

[1] **Qatrafishon** — tomchi sochuvchi.
[2] **Sujud** — ta’zim, bukilish.

* * *

Saharlarda meni holimg‘a murg‘oni chaman yig‘lar,
Fig‘onimdin sabo har dam qizil gul pirahan yig‘lar.

Jigar udi kuyub bag‘ri biyobon gardig‘a tushsa,
Usholdi qadri mushkin, deb g‘izoloni Xo‘tan yig‘lar.

Yurakda otashi dardim olib borsam lahad ichra,
Qiyomat tongi otquncha kuyub go‘r-u kafan yig‘lar.

Sani darding bilan yig‘lab, fig‘on-u nolalar qilsam,
Kechib farzand-u molidin, bo‘lub el bevatan yig‘lar.

Yetilmay mevai maqead, arusi jon erur hayron,
Chidolmay justujo‘[2] aylab, yurub tun-kun... yig‘lar.

Saharlarda “Yusuf”, deb oh urub piri Kan’ondek,
Fig‘onimdin fig‘on aylab, kuyub bayt ul-xazan yig‘lar.

Kel, emdi, Furqatiy (qo‘y), Layli deb yuzlanma sahrog‘a,
Bo‘yab lola ko‘zumni qong‘a gulgun pirahan yig‘lar.

* * *

Muanbar xatlaringning bo‘yi na mushki Xo‘tantandur,
Magar rayhoni jannat yerga tushgan o‘lsa, andandur.

Labing yoquti nobiydur va na marjoni serobiy,
Nechuk o‘xshar ango, la’li Badaxshonu Yamandandur.

Emas jono, giriboningdadur durr tugmalar rangi,
Munaqqash ko‘ylagingning oqligi aksi badandandur.

Uzoring bargi guldin nozik-u xushrang-u xushbo‘yroq,
Bu yanglig‘ toza-yu tar gulki, yo Rab, qay chamandandur?

Bag‘irga lablaring yodida tushgan qonni bo‘htondin,
Ko‘zum ayturki: “Sandandur”,
ko‘ngul ayturki: “Sandandur!”

Dubora ko‘rmasun har kim, xatingdin benasib o‘lsun,
Buzub qullug‘ni ahdinkim, agar paymonshikandandur.

Qachon loyiq labing shahdi xiradsiz bulhavaslarga,
Emas to‘ti alar ta’bi, base zog‘-u zag‘andandur.

Olib nusxa bahori xil’atingdin bo‘stonlarga,
Guli ahmar ruhingdin, g‘unchasi durji dahandandur.

Demakim: “Otmayin tiyri mijam, nechun asir o‘lding?”
Asir o‘lmog‘lig‘im, ey, sho‘x, chashmi sehrfandandur.

Ravodur, ko‘zlaringdin parvarish topti desam nargis,
Qadingning naxli bu gulshan aro sarv-u sumandandur.

Jahon ra'nolarin o'zga giriftor-u g'ulom etting,
Bu xosiyat shakarafshoni jannatlik suxandandur.

Asar qilmas sirishkim mavji-yu ham tiyri afg'onim,
Ko'zingning sehridin xoro[1] dema, ruhi na tantandur.

Nigini harfi isming xotamin nazmig'akim, Furqat,
Qilibdur darj[2], ko'rganlar dedi: "Durri Adandandur".

[1] **Xoro** — 1) granit; 2) ipak mato.
[2] **Darj** — 1) kiritish, qayd etish; 2) o'ralgan xat.

* * *

Umr qarori yo‘q, chunon barqi guzar o‘tar-ketar,
Dahr madori ham yana misli sharar o‘tar-ketar.

Umri aziz aqabidin tez borur dam-u qadam,
Qayda borurni bilmadim, shams-u qamar o‘tar-ketar.

Kecha tamom yotmagan bori ulush olay desang,
Toki qo‘pay degunchalik fayzi sahar o‘tar-ketar.

Asli hunar budur, ko‘rub boqma kishini aybig‘a,
Na san, na manda ul qolur ayb-u hunar, o‘tar-ketar.

Xayri muxayyari o‘lub aylama shar, bashar esang,
Madh-u malomatga qolur, xayr ila shar o‘tar-ketar.

Na’ f ko‘ray desang zarar ko‘rma ravo chibing‘a ham,
Qilsang-u qilmasang agar na’f-u zarar o‘tar-ketar.

Faqr eli ko‘rsa yuz alam arqosidin yetib borur,
Xayl-u hasham bila agar sohibi zar o‘tar-ketar.

“Qon yuqi yuzlaringni pok ayla”, demang yosh ila,
Girya qilur mahal yana xuni jigar o‘tar-ketar.

Davri zamona munqalib, bo‘lma malul kelsa g‘am,
Gulg‘a shamoldin agar yetsa asar o‘tar-ketar.

Yaxshini sihhatin ko‘rub, yaxshi suxan eshitki, san,
Yaxshi ko‘rub-eshitmayin ko‘r ila kar o‘tar-ketar.

Qolmag‘usi jahon aro hech kishi, Furqatiy, yana,
Sochsa agarchi nazmidan dur-u guhar o‘tar-ketar.

* * *

Ey, ko‘ngil, sabr ayla, ul mah oshno kam-kam bo‘lur,
Baytul-ezoning axiri purziyo kam-kam bo‘lur.

Da’fatan, mehr-u vafo oyinini tutumas, dema,
Yosh, holo (g‘o‘ra)dur, aqli raso kam-kam bo‘lur.

Yor vaslig‘a taammul[1] yetkurur, ahboblar,
Gar salomatlikni qo‘ysa, muddao kam-kam bo‘lur.

Bora-bora xasta ushshoqini qadrini bilib,
Bulhavasdin ehtiroz aylab judo kam-kam bo‘lur.

Murg‘i vahshiyni qilolmas hech kim yakbora rom,
Dona-u domiki qurdung, mubtalo kam-kam bo‘lur.

Kasb etar ohista-ohista kishi fazl-u hunar,
Bog‘ aro bulbul bolosi xushnavo kam-kam bo‘lur.

Bexabar, deb Furqatiyg‘a ta’na qilmang, do‘stlar,
Lutfi Haq bo‘lsa agar mashqi bajo kam-kam bo‘lur.

[1] **Taammul** — o‘ylab ko‘rish, mulohaza qilish.

* * *

Yig‘latib oshiq deganni zor qilmoq shunchalar,
Rahm ila bir boqmayin afgor qilmoq shunchalar.

O‘zga yerlik odamega necha aylab iltifot,
Bir mahalla odamini xor qilmoq shunchalar.

La’li maygun ustina izhor etibon xatti sabz,
Zor qolgan ko‘nglimi zangor qilmoq shunchalar.

Mubtalolarga boqib holi dilini so‘rmayin,
Har nechuk odamlara guftor qilmoq shunchalar.

Bog‘ni sayr etgali tovusdek aylab xirom,
Sarv-u gulni yer bila hamvor qilmoq shunchalar.

Sen qulum deb, mendin avval xatti iqrori olib,
O‘z qulidin oxiri inkor qilmoq shunchalar.

Qahr-u, javr-u zulmni ustodidin olib saboq,
Bevafolik darsini takror qilmoq shunchalar.

Kuydurub rashk o‘tig‘a payvand dili bechorani,
Har nechuk nojinslarni yor qilmoq shunchalar.

Ro‘baro‘ kelganda boqmay, bir takallum aylamay,
Furqatiy sho‘ridadildin or qilmoq shunchalar.

* * *

Ey, lutfi kam-u, jafosi cho‘x yor!
To chand chekay g‘amingda ozor?

Yo‘qtur kechalar ko‘zimda uyqu,
To subh o‘lub g‘amingda bedor.

Hayhot, bu charxi vojgunni,
Bir jonima kulfati bu miqdor.

Mohi ramazonki, fayzi cho‘xdur,
Oxir menga sensizin na darkor?

Har shom menga navolai g‘am,
Qismat bo‘lubon qilurga iftor.

Xuni jigarim shajarda sharbat,
Yuz pora ko‘ngul kabobi tayyor.

Oz toqatim-u, ko‘b e’tiqodim,
Ey, senga fido, bu oz-u bisyor.

Ey, qoshi kamon, mijang o‘qidin,
Yuz chok ko‘ngul, bag‘irlar afgor.

Avbosh hujumi bir tarafdin,
Bir sori jafoyi ta’ni ag‘yor.

Bedard izosi bir tarafdin,
Bir sori jafoyi charxi g‘addor.

Qon yig‘lamayin hamisha Furqat,
Netsun senga bo‘lsa oshiqi zor.

* * *

Hasratiy, kel-kel beri, ul sho‘xi jonondin gapur,
Fitna solg‘an olama oshubi davrondin gapur.

Bog‘ aro men pista-u bodom ila yo‘qtur ishim,
Ul ko‘zi shahlodin aytib, la’li xandondin gapur.

Lashkari g‘am ostida qoldim chunon pomol o‘lub,
Mo‘r ahvolin ko‘rub, bir dam Sulaymondin gapur...

Kokuli savdosidin oshufta o‘ldi jon-u dil,
O‘zgalar savdolarin zulfi parishondin gapur.

Boshing uchun, ey muhabbat bahrining g‘avvosikim,
Kambaho toshingni tashlab, durr-u marjondin gapur.

Va’dalar aylab edi: borib seni qatl aylagum!
Ahdini sindirdimu ? Ul va’da yalg‘ondin gapur.

Qumri jo‘lidag‘a[11] sarvi ravon ta’rif qil,
Bulbuli dilxastaga sahni gulistondin gapur.

Ko‘nglum olg‘onda dedi: Sensen visolim mahrami!
Emdi tashlab hajriga, ta’bi pushaymondin gapur.

Sayri gulshandin menga dam urmag‘il, ey bog‘bon,
Ul pari Majnunimen, dasht-u biyobondin gapur.

Vaslidin dam urma ko‘b, ey oshiqoni bulhavas,
Gar muhabbat ahli ersang, dog‘i hijrondin gapur.

O‘z diyoridin adashgan, Furqatiy devonamen,
Chug‘zi har vayronadurmen, baytul-ehzondin gapur.

---

[1] **Jo‘lida** — parishon, to‘zg‘igan.

* * *

Masti bodai husnung bo'lmag'on nechuk jondur?
Aqlini berib barbod, jumla xalq hayrondur.

Loladek jamolingni bir yo'li ko'rib zohid,
Necha yilg'i zuhdidin dog' o'lub, pushaymondur.

Aylayin fido ming jon, qo'y qadam yuzim uzra,
Ko'zga gardi na'lingni surmai Sulaymondur.

Orazing ziyosidin kechalar bo'lub ravshan,
Xatlaring savodidin garchi zulmatistondur.

Bog' aro xirom etsang barcha el ko'rub aytur:
"Hur erurki jannatdin yer yuzig'a tushkondur".

Qomatingni naxlidin sarv o'lub xijolatrez,
Xil'ating bahoridin munfail gulistondur.

Ja'di anbarin zulfing har xam-u shikanjida,
Ming asir men yanglig' xotiri parishondur.

Yuzlaring guli ahmar gulshani malohatda,
Gulni shoxidek qadding har tarafga larzondur.

Furqatiy dilafgoring telba, ofiyat[1] topgay,
Ko'zlaringki, har soat qon to'karga maylondur.

[1] **Ofiyat** — sog'liq, yaxshi kayfiyat, xotirjamlik.

* * *

Sarvqad, siyminbadan, gulpirahan, mastonalar,
Ko‘rmayam mehri ruhing, sargashta-yu afsonalar.

Laylivash, shirinmisol xo‘blar sanga chokar o‘lub,
Rub etar farrosh kabi har subhidam ostonalar.

Toqatin toroj etar Majnun kabi husning ko‘rub,
Charx urub dashti junun, ovoradur jononalar.

Nurfishon qo‘li bila subh doyasi kokullaring,
Shonai bodi sabo birla ani chun shonalar.

Nargisi masting suzib, lutfing mayi-la bir tuni,
Labrez ayla bazmi vasling ichrakim paymonalar.

Zulm ila hijron o‘tidin shu’la solma ko‘ksima,
Jon kuyub, axgar bo‘lub, tan bo‘lmasun vayronalar.

Ranj-u mehnatlar chekub, hijron g‘amidin dil zaif,
Dardi dil dorusig‘a may istaram, mayxonalar.

Xilvat aylab g‘ayrdin, ko‘rsat jamoling sha’mini,
To ko‘rub jon-u dilim bo‘lsun anga parvonalar.

O‘tkarur hijron tunin Vosif yig‘i-la doimo,
Bir kelib holin so‘ra, to bilmasun begonalar.

Nazm ichinda Furqat isming harfining bolosida,
Rishtai marjon etib chun gavhari farzonalar.

* * *

Mening bir laylivash ishqida majnunlug‘ shiorimdur,
Junun ahli erur yorim, balo dashti diyorimdur.

Bahor ayyomi sahroda ochilg‘on lolalar ermas,
Yuzi hajrida har bir qatra qonlig‘ ashkborimdur.

Chamanda g‘uncha demang,
qong‘a to‘lg‘on tah-batah bag‘rim,
Emas nargis, aning yo‘lida chashmi intizorimdur.

Qarong‘u kecha ermas, tiyra baxtim, tah-batah holim,
Sochi savdosidin tokim qorargon ro‘zgorimdur.

Qayu yerda xazonlig‘ barg yo parri samon bo‘lsa,
Mening g‘urbat aro g‘am birla sarg‘arg‘on uzorimdur.

Yer uzra poymol o‘lg‘on emastur soyayi devor,
Yiqilgan charx zulmi birla jismi bemadorimdur.

Agar yor ostoni uzra bir aftoda ko‘rsanglar,
Quyunlarkim, ko‘ngul otlig‘ xarobi xoksorimdur.

Falakda ra’d, barq etmang gumon, ul oy firoqinda,
Mening savti fig‘onim birla ohi pursharorimdur.

Shahid o‘lsam, boshoqlig‘ o‘qini boshimg‘a qo‘yg‘aysiz,
O‘zi mil-u, yonar paykoni bir sha’mi mazorimdur.

Muhabbat yo‘lida bir necha rasvoyi jahon bo‘ldim,
Bihamdillahki, bu dunyoda topgon e’tiborimdur.

Fig‘onim eshitib, ahboblar qoshinda so‘rganda,
Na bo‘lg‘ay desalar, Furqat degan bir beqarorimdur.

* * *

Biz, istig'no eli, qichqirmog'on ma'vog'a[1] bormasmiz,
Agarchandiki xirman aylasa dunyog'a bormasmiz.

Agar lab tashna qolsak filmasal sahroyi olamda,
Malolat zohir etsa, mavj uran daryog'a bormasmiz.

Umid etgonimiz aksar saodat bo'tai haqdin,
Agarchi mis erurmiz, qimmati tillog'a bormasmiz.

Hamisha lof urarmiz xalq aro Farg'ona mulkida,
Bag'oyat ta'bimiz ozoda deb, har jog'a bormasmiz.

Havo loyig'a botgan moumanlik do'sti xudbinkim,
O'shandog' kam zarofat[2] maskani a'dog'a bormasmiz.

Biz ellar — faqr elimiz, parcha nong'a sabr aylarmiz,
G'araz dunyo uchun Iskandar-u Dorog'a bormasmiz.

Emasdur oncha asbobi jahong'a fikrimiz Furqat,
Vale ketguncha juz andishai fardog'a bormasmiz.[1]

[1] **Ma'vo** — boshpana, turar joy.

[2] **Zarofat** — 1) zariflik, go'zallik, noziklik, nozik fahmlik; 2) qochirim so'z, nozik ma'nolik, hushyorlik.

* * *

Koshki bir yerda bo‘lsak erdi jonon ikkimiz,
Ko‘zi shum ag‘yorlardin anda pinhon ikkimiz.

Har zamon davron jafosidin qilibon boda no‘sh,
Mastlikdin aylasak qayg‘uni yakson ikkimiz.

Ul zamon sayri guliston aylasak qo‘l ushlashib,
Rashkdin aylab gul-u bulbulni yakson ikkimiz.

Dahrning ozoridin masti xarobotiy bo‘lub,
Tarki hush aylab, bo‘lub ul yerda hayron ikkimiz.

Qumrilarni dog‘i hijronga giriftor aylabon,
Yerga pomol aylasak sarvi xiromon ikkimiz.

Nogahondin azmi bozor aylab, ey jon, shavq ila,
Solib olam ahliga ko‘b sho‘r-u to‘fon ikkimiz.

Kamtarin Furqat bu yanglig‘ muddaog‘a yetmadi,
Koshki bir yerda bo‘lsak erdi, jonon ikkimiz.

* * *

Na bo‘ldi, nigoro, biza aslo qaramaysiz,
Guldek ochilib, g‘unchai humro, qaramaysiz.

Yo o‘zga kishilar siza so‘z o‘rgatadurmi?
Yo‘qsa nega hech so‘z demayin, yo qaramaysiz?

Har kun o‘tasiz to‘ffini bosha qo‘yub egri,
Olifta bo‘lub muncha tamanno, qaramaysiz?

Ko‘rganda meni muncha shitob aylab o‘tarsiz,
Bormu magar ul yona tamosho, qaramaysiz?

Har shom-u sahar tinmayin afg‘on chekadurmen,
Bulbul qulingizga guli zebo, qaramaysiz.

Xo‘blar bila kelganda-ku mendin qilasiz or,
Endi o‘zingiz yakka-u tanho, qaramaysiz.

Furqat qulingiz misli gado yo‘lda yotodur,
Bir lutf-u karam qilg‘oli, shoho, qaramaysiz.

* * *

Zihi sitamki menga muncha, dilrabo, qilasiz,
Bilib turub kuyorimni yana jafo qilasiz.

Ko'ngulni oldingiz-u, jonni ham oling botroq,
G'arib elni nega bir-birin judo qilasiz?

Meni — asirni etib emdilikda devona,
Raqibi siyaxro'ni bori oshno qilasiz.

Judolig' aylar ekansiz kelib-kelib oxir,
Na deb muruvvat etib avval vafo qilasiz?

Vafo qilurg'a menga berdingiz chu ming va'da,
O'shal va'dani biriga qachon vafo qilasiz?

Nechuk erurki, sobir Xudoga dod etsam,
Jafolariki menga munda holiyo qilasiz.

Surub takovaringiz, qatl etib xaloyiqni,
Bu yerni qon ila chun dashti Karbalo qilasiz.

Firoqingizda bu bemorlikda yotganim-yotgan,
Kelarsiz o'zingiz-u, vasldin davo qilasiz.

Tag'oful o'lsa sizi fe'lingiz hamisha nigor,
Kamina Furqatiyni g'am bilan ado qilasiz.

* * *

O‘rtanur tokay firoqing otashida jonimiz,
Jonimizg‘a rahm qil bo‘lsang agar jononimiz.

Sen kabi tovus paykar nega keltirsun xirom,
Chug‘z qo‘nmas ko‘zga ilmay kulbai vayronimiz.

Qayda bo‘lsang gul yuzing yodida ul yerdur bizi —
Bog‘imiz, bo‘stonimiz ham ravzai rizvonimiz.

Onqadar qilding jafo-yu javrlar, ey sho‘xkim,
Oncha bor erdi chekarga qolmadi imkonimiz.

Nolamizdin kechalar gardun qulog‘i bo‘ldi kar,
Ohkim, yetmas senga bir nola-yu afg‘onimiz.

Seli g‘am bedodidin yet dodimizga, adl qil,
Senki bordursen malohat mulkida sultonimiz.

Har zamon ko‘z boshinga sursak agar bir vajhi bor,
Ziynat ortar, kokulingga shonadur mujgonimiz.

Turmayin ahdingda paymoningni sindurding axir,
Na edi avvalda, Furqat, ahd ila paymonimiz.

* * *

Ishq izhor etganimg‘a qahr etib, ey, sarvinoz,
Jism ila jonim itob o‘tig‘a to berding gudoz[1].

Har necha eldin ko‘ngulda aylasam pinhon bu dard,
Ashki olu chehrai zardim etar ifshoyi[2] roz.

Ul kuni gulgun kiyib minding samandi noz uza,
Qilding, ey, qotil, ko‘ngul maydoni ichra turktoz[3].

Qumri yanglig‘ ishtiyoqingda nechuk qon yig‘lamay,
Sarv oso qad bila bo‘lsang ko‘zimg‘a jilvasoz.

Na emish ishqingda barbod aylamoq bir xonumon,
Sen kabi mahvashqa ming jon o‘lsa tanda yona oz.

Bir pari zinjiri zulfidin xalos o‘lmay hanuz,
Zor ko‘nglum sen sitamgarga giriftor o‘ldi boz.

Tiyri afg‘onimg‘akim har tun surayyodur nishon,
Bejigarlar ohidin, albatta, qilg‘il ixtiroz[4].

O‘zga dilbarlarga noze bordur istig‘no to‘ni,
Aylanay, qaddingg‘a loyiq xil’ati deboyi noz.

Muntazirlikdin yo‘lingda o‘zni tufrog‘ ayladi,
Bir nigohing birla qilg‘il Furqatiyni sarfaroz.

---

[1] **Gudoz** — erish; kuyish.

[2] **Ifsho** — oshkor qilish, fosh qilish.

[3] **Turktoz** — 1) hamla, talon-toroj; 2) talon-toroj qiluvchi.

[4] **Ixtiroz** — qisqartish, qisqalik.

* * *

Anbarin xatteki qilding oshkor, ey, sarvinoz,
Ko‘rdim-u chiqti ko‘ngullardin g‘ubor, ey, sarvinoz.

Ko‘ksima o‘qlarki otding g‘amzadin, paykonlaring,
Chekmakim, jonimg‘a qolsun yodgor, ey, sarvinoz.

Demading hargizki: mensiz kechti ahvoling nechuk?
Tig‘i hijroningdin erdim dilfigor, ey, sarvinoz.

Ja’di mushkiningdin ochib har taraf marg‘ulalar,
Aylading bizni parishon ro‘zgor, ey, sarvinoz.

La’li nobing hasratidin g‘uncha yanglig‘ qon yutub,
Gul yuzing yodida chektim xor-xor, ey, sarvinoz.

Yo‘qmen o‘zda, hushima kelganda kelsang yodima,
Tortadurmen nolai beixtiyor, ey, sarvinoz.

Lof urarmish gul tarovat bobida gulshan aro,
Bir borib yuz ochki, bo‘lsun sharmsor, ey, sarvinoz.

Xo‘bro‘lardin muruvvat garchi g‘ayri rasm erur,
Men xayoli xom etib, ummidvor, ey, sarvinoz.

Ayg‘il oxir bir ko‘rib, mahzun ko‘ngulni so‘rmasang,
Tobakay tortay yo‘lingda intizor, ey, sarvinoz.

Nazmimi silkig‘a[1] chektim, Furqatiy, ziynat uchun,
Harfi noming misli durri shohvor, ey, sarvinoz.

[1] **Silk** — 1) ip (marvarid kabi toshlar o‘tkaziladi); 2) qator; tizim.

* * *

Bir boqib jonimni oldi nargisi xummoringiz,
Berdi bir so‘z ila qaytib la’li shakkarboringiz.

Lahza-lahza aylabon jon dushmanig‘a iltifot,
Men kabi mahzung‘amu yuz javr-u, ming ozoringiz?

Bosh chekib xurshid mashriqdin valekin qildi past,
Barq urub mag‘rib saridin shu’lai ruxsoringiz.

Yo‘lingizga termulub doim oqardi ko‘zlarim,
Oh, qachon bo‘lg‘ay muyassar davlati diydoringiz.

Yig‘latib bulbul kabi gul yuzingizni jilvasi,
Qumridek dar nola qildi shevai raftoringiz.

Kunji g‘amda javr ila bedodingizdin, ey pari,
Labg‘a jonim yetti, oling, bo‘lsa shul darkoringiz.

Tuzdingiz xilvat tutib ag‘yor ila to sozi bazm,
O‘ldi bemor ushbu g‘amdin Furqatiy afgoringiz.

* * *

Ko‘zlaring har go‘shasi bir manzal-u ma’voyi noz,
Qoshlaringni xamligi ham boisi iymoyi noz.

Fahm etib oshiqligim qilding itob uzra itob,
Angladim bu shevanikim noz bir boloyi noz.

Ey, jafopesha, tag‘oful etganing yetmasmudi,
Dardimi afzun qilursan, aylab istig‘noyi noz.

Rashk jomidan ichibman go‘shai hasratda qon,
San chekib ag‘yor ila tun sog‘ari sahboyi noz.

Nozaninlar noz inshosin azal kotiblari,
Yozdilar, lekin seni noming uchun tug‘royi noz.

O‘zga mahvashlarga nozebodur istig‘no to‘ni,
Dilbaro, qaddingga loyiq xil’ati deboyi noz.

Oftobi orazing to‘ldi shuo’i olama,
Bo‘ldi zarroti jahon chun rog‘ibi savdoyi noz.

Ey, pari-paykar, mani o‘ldurding istig‘no qilib,
Ko‘z uyina aylamay tashrif bir yo‘l poyi noz.

Xo‘bliq mulkidadursan bir amiri komron,
Husn taxtida nachog‘liq noz qilsang joyi noz.

Gulshan ichra g‘uncha erdi,
bosh chekib bo‘ldi xazon,
Tutmayin posi adab gul aylagach ifshoyi noz.

Umr qat' o'lsun ajal dorulqazosig'a borib,
Har pariro'kim, qilur bo'lsa sanga da'voyi noz.

Hush naqdin bir tarafdin ko'zlaring toroj etib,
Buzdi bu ko'nglumni mulkin ustig'a yag'moyi noz.

Qilsa sahroni vatan Majnun kabi Furqat netong,
Sen kabi Layli nigohidin erur shaydoyi noz.

* * *

Qaysi bir bog‘i Eramni g‘unchai hamrosisiz?
Yo malohat gulshanini bir guli ra’nosisiz?

Rahna solib sabr ta’mirig‘a bir nazzoradin,
Kimni bir berahm qotil, ko‘zlari yag‘mosisiz?

Bora-bora jon qushini qumridek nolon etib,
Qay latofat bog‘ini sarvi chamanorosisiz?

Axtarib topmas jahon bahrini ko‘b g‘avvoslar,
Rost ayting, qaysi daryoni duri yaktosisiz?

Na basharsiz, na pari, na hur-u g‘ilmoni jinon,
Balki afloki fasohatni malak paymosisiz?

Chiqsangiz maydona gar, ushshoq eli bo‘lg‘ay halok,
Tavsani sho‘xi falaksiz, jahon ihmosisiz.

Ey, parilar sarvari, ey, dilbari oromijon,
Husn ahli garchi ko‘bdur, barchadin a’losiz.

Nozaninlar zubdasi, xuldi barindur ko‘yingiz,
Oshiqi dilxastalarni jannat ul-ma’vosisiz.

Had na bo‘lg‘ay nomingiz harfini zikr etmak manga,
Furqatiy dilxastani sultoni oliyjosisiz.

* * *

Tavafi Ka'bag'a rahnamo bilan boramiz,
O'lumni chog'lab o'za qazo bilan boramiz.

Murodi manzilig'a aylabon yana Miyno,
Umidi Marva istabon Safo bilan boramiz.

Ki haj qilurda ko'b ermish sharoiti arkon,
Bajo etarga bir necha raso bilan boramiz.

Umid behad etib jurmimiz maofig'a,
Madina sorig'a bu muddao bilan boramiz.

Kelinglar, ahli muhabbatki, jon nisor aylab,
Mazori sheri Xudo— Murtazo bilan boramiz.

Kelingki, haddin oshubon fujur ko'b qilduk,
Fig'on-u nola-u vo hasrato bilan boramiz.

Oto-ono-u, qarindoshdin umidni uzub,
Imomi laxtai jigardek rizo bilan boramiz.

Yaqoni chok etibon bu yo'lda qon yig'lab,
Imom Husayn-shahidi Karbalo bilan boramiz.

Kel emdi, Furqati bedil, turarga toqat yo'q,
Tavofi Ka'bag'a rahnamo bilan boramiz.

* * *

Ohkim, rahm qilib, bir yo'li yod etmadingiz,
Mani mag'mumni xotirini shod etmadingiz.

Olmayin bir yo'li jon g'ussadin aylab ozod,
Yo qilib qat'i nazar, dardni ziyod etmadingiz.

Xuni dildin yozibon nomai shavqim boradur,
Lafzi dashnom ila bir parcha savod etmadingiz.

Zulm tig'i-la to'kub g'amzodalar qonini,
Boshingiz Haqqi uchun tarki fasod etmadingiz.

Sizki, iqlimi malohat shahidursiz, jono,
Oshiqi bechoralara adl ila dod etmadingiz.

Ka'bai dilni xarob etti chu g'ami kuffori,
Bir himoyat bo'lubon hech madod etmadingiz.

Joni toza beribon har kima bir tig' bila,
Furqatiy dilxastaga bir o'qni kushod etmadingiz.

* * *

Ne erur jurmimki, ko'rsa ul sitamkor indamas,
Garchi ishqida qilurmen nola-yu zor, indamas.

Uchradim qandog' sitamgar dilrabog'a, ohkim,
Tig'i javridin qilib bag'rimni afgor indamas.

Loubol-u sho'xdurkim, mahzi istig'no qilib,
Bo'lsa ham ahvoli zorimdin xabardor, indamas.

Yo'lida boshimni pomol aylasam ham soyadek,
Zarra parvosi yo'q ul xurshidi ruxsor indamas.

Indasa rahmi kelib shoyadki deb, Furqat, anga,
To'g'ri bo'lsam loaqal ko'rganda bozor, indamas.

* * *

Sen kabi badmehrlikni hech musulmon aylamas,
Aylag‘ay, lekin jafo-u javr chandon aylamas.

Orazi xo‘bingni har kim ko‘rsa gulshan sayrida,
Orzuyi jannat-ul-firdavs-u rizvon aylamas.

O‘ynasang chun la’ma hayron ko‘zlarimda, ey pari,
Jilvasin oyinai xurshidi raxshon aylamas.

Aylading jonimg‘a bedod ustig‘a bedodlar,
Dushmanig‘a bu sitam hech nomusulmon aylamas.

Iydi ruxsoring aro ikki hilolingni ko‘rub,
Qandog‘ odamdurki bir jonini qurbon aylamas.

Bodai la’li labingdin qatra no‘sh etkan kishi,
Umr ichida yod hargiz obi-hayvon aylamas.

Mahram o‘lmay vaslingga ko‘z yoshim o‘ldi besharik,
Sensiz, ey oromijon, nay mancha afg‘on aylamas.

Ketting ag‘yor ila Yusuf tal’atim sahro sori,
Baytul-ehzon yo‘lg‘a mendek piri Kan’on aylamas.

Vasl savdosig‘a berdi Furqatiy jon naqdini,
Ko‘rmasa sude agarchandi, pushaymon aylamas.

* * *

Jahon bog'ini axtarsam seningdek gul uzor o'lmas,
Sumanbar, sarv qomat, g'uncha og'izliq nigor o'lmas.

Yo'ling uzra bo'lib gar tuprog'imdin yuz zabon nargis,
Ochilsa sen uchun, tong yo'q, demakim intizor o'lmas.

Ko'zing maxmuridurman sipqorib o'tgan bilan soqiy,
Sharobi nob ortiq, durddin raf'i xumor o'lmas.

Nechuk bedodgar, berahm dilbarsanki, ishq ahli,
Jahon tarkin qilibon, jon berib ham e'tibor o'lmas.

Qulingman, har na qilsang aylagilkim, ixtiyoringdur,
Inon-u ixtiyorim senda, menda ixtiyor o'lmas.

Kechubdurman, seni yor o'lsa shoyad deb, diyorimdin,
Ketay yor o'lmasang emdi, diyoring ham diyor o'lmas.

Na deb ranjida bo'ldingkim, bu yozgan nomada debsan:
"Qasam ichsam agar sendek kishi bizlarga yor o'lmas".

Bo'lib savdozada ishqing havosidan xazin ko'nglum,
Dami gul nakhatidin turgali Furqat qaror o'lmas.

* * *

Bo‘lsa kim xilvatnishin, sayri chaman lozim emas,
Uzlat etgan odamiga anjuman lozim emas.

Benavolarni ko‘rub, ta’n etmang, ey, ahboblar,
Kim, xarobot ahliga hargiz vatan lozim emas.

Bulbul ermas g‘ordin gar oshiyon etmas bino,
Chug‘zi g‘urbat bo‘lmasa baytul-hazan lozim emas.

Qosir aqling birla sun’i Kibriyodin urma dam,
Bilmagan odamga bir nozik suxan lozim emas.

Laylivash bir dilbari ra’nog‘a oshiq bo‘lmasang,
Yurmag‘il behuda bul dashti mihan lozim emas.

Ko‘hi g‘amni noxuni sabrim bila qazdim bu kun,
Urma dam Farhoddin-ul Ko‘hkan lozim emas.

Furqato, ayg‘il takabbur ahlig‘a Mashrab dedi:
“Qatrai obi maniyga mouman lozim emas”.

* * *

Shevai mehr-u vafo dildorlardindur g'alat,
Zulfi sunbul orazi gulnorlardindur g'alat.

Aylamas hargiz muruvvat oshnolar, yorlar,
Aylamoq gashti vafo ag'yorlardindur g'alat.

Har nafas yuz ming jafoga mubtalo aylar ko'zi,
Istamoq xursandlik xunxorlardindur g'alat.

Lablaridan nushi dor-u aylamang ummidkim,
Orzu etmok davo bemorlardindur g'alat.

Kecha-kunduz jon uzar bechoralar bir pul uchun,
Aylamoq chashmi karam tujjorlardindur g'alat.

Toshbag'irlardin muruvvat istamog'likdur xato,
Shishaga rahm aylamoq sangxorlardindur g'alat.

Fisq ahlidin xato ummidi ehson-u saxo,
Zuhd-u taqvo istamoq fujjorlardindur g'alat.

Furqat, abnoi zamondin shikva qilmoqlik na sud,
Chunki ummidi vafo g'addorlardindur g'alat.

* * *

So‘rg‘oli holimni, ey qoshi qalam, kel ertarog‘,
Yig‘lamoqdin qolmadi ko‘zlarda nam, kel ertarog‘!

Sendin ayru go‘shai hijron aro yolg‘iz topib,
O‘rtag‘a oldi meni dard-u alam, kel ertarog‘!

Marhabo, bosh ustina, aylab karamlik shahsuvor,
Ko‘zlarimni ustina qo‘yg‘il qadam, kel ertarog‘!

Muddatedur dahr aro topmay vujudingdin so‘rog‘,
El aro anqo kabi bo‘ldim adam, kel ertarog‘!

Ey xush ul tunlar firoqing yodima kelmas edi,
Bilmayin komim visoli mug‘tanam, kel ertarog‘!

Bistarim xoki mazallat, hamdamim anduhdur,
Hasratingda maskanim bo‘lg‘uncha g‘am, kel ertarog‘!

Furqatiy oshuftadil to chand tortar intizor,
Dilda toqat qolmadi, jonim-tanam, kel ertarog‘!

* * *

Tortaman bechoralig‘da har kecha bedorlig‘,
Bir ko‘rub holi dilimni, bermading dildorlig‘.

Qoshlaring tiyg‘in chekib, gohi mijangning xanjarin,
Ko‘zlaringkim boshladilar shevai xunxorlig‘.

Aylag‘il dardimg‘a chora yoki o‘ldurg‘il mani,
Mehnat-u anduh ila tokay chekarman xorlig‘.

Man asir-u xastaga aylab labingni zaharxand,
O‘zgalarning bazmida bo‘ldung shakarguftorlig‘.

Man g‘aming novaklaridin siynachok-u dilfigor,
San qilib g‘ayrig‘a, ey, oromi jon, g‘amxorlig‘.

Qo‘ymading ko‘zga qadam, mardumlig‘ aylab bir yo‘li,
Bilmading mehr-u vafo yo‘lida mardumdorlig‘.

Telbae rasvo erur deb, ey parivash, or etib,
Furqatiy dilxastadin olding xati bezorlig‘.

* * *

Ul pari hajrida chekkan nola-u zorimg‘a boq,
Osmong‘a o‘rladi, ohi shararborimg‘a boq.

Guljabin-u[1] g‘unchalabning hasratida qon yutub,
Sarg‘aribdurman, xazondek jismi bemorimg‘a boq.

Za’faron yuz uzra qonlig‘ yosh to‘karman, ey, rafiq,
Qilmading bovar agar bu rangi ruxsorimg‘a boq.

Umrlardur bo‘yla bir betarahhum yor uchun,
Do‘st-u dushmandin eshitgan ta’na-ozorimg‘a boq.

Ta’n qilg‘uncha meni, bedardlar, ko‘zum o‘yub,
Ol, ko‘zing o‘rnig‘a solg‘il, so‘ngra dildorimg‘a boq.

Ishq savdosidin o‘ldum garchi ko‘b oshuftahol,
Ey, jununni shaklidin bo‘ynumda tummorimg‘a boq.

Ey, muhabbat ahli, ramzi ishq fahm aylay desang,
Yozilan xuni jigardin, Furqat, ash’orimg‘a boq.

[1] **Guljabin** — gul yuzli, chipoyli.

* * *

Ko‘ngul qo‘ymoq xatodur, husn ahlining vafosi yo‘q,
Xinoning rangi yanglig‘dur, ketar bir kun, baqosi yo‘q.

O‘shal mahvashki olam xalqi anga mubtalodurlar,
Va lekin man kabi onlar ichinda mubtalosi yo‘q.

Ishonmanglar, musulmonlar, vafoga va’dalar qilsa,
Bular yalg‘onchilardur, ahdining hargiz vafosi yo‘q.

G‘arazgo‘, shum raqiblarning yurar arqosidin istab,
Qochar andinki, ishqdin o‘zga dilda muddaosi yo‘q.

Falotun bo‘lsa ba’zi, maqtama, ul bexirad bo‘lg‘ay,
Jahon ra’nolarining qay birining norasosi yo‘q.

Tag‘oful birla ohista ketar har so‘, qaror etmay,
Zamone o‘ltururga oshiq oldida rizosi yo‘q.

Zamona xo‘bro‘sidin o‘zingni qil, badar, Furqat,
Agar yuz yil bu yanglig‘ umr ko‘rsang, hech baqosi yo‘q.

* * *

Jannatning gullaridin gulzoringiz chiroylik,
Hur-u pari yuzidin ruxsoringiz chiroylik.

Ko'rganda qomatingiz bo'lg'oy xijil sanovbar,
Tovusning jilvasidin raftoringiz chiroylik.

Har qancha aylasangiz kelmas malol hargiz,
Yaxshi erur jafongiz, ozoringiz chiroylik.

Har bir-biridin ahsan af'ol-u xislatingiz,
Kirdoringiz yarashgan, atvoringiz chiroylik.

Olma qizil yuzingiz, bodom erur ko'zingiz,
Ta'rifi anjiringiz, anoringiz chiroylik.

Furqat, ko'rib ko'ngullar bo'lmas nechuk parishon?
Bellarda kokulingiz, tummoringiz chiroylik.

* * *

Chaman sahnida derlar sarv birla yosuman nozik,
G'alatdur, qomating oldida guldan pirahan nozik.

Qachon ul Yusufi Misriyda bu husn-u malohat bor?
Fasohatda, sabohatda, hama to'g'rida san nozik.

Falakni davrida ko'p davr kechti, dahr zolidin,
Vujuda kelmadi aslo seningdek oq badan nozik.

Kalomingdin halovat topmog'i jonlarni ondinkim,
Dahon nozik, zabon nozik, ki lab nozik, suxan nozik.

Qoshing sarkashlik aylab, qon to'karga o'ltirib erdi,
Nechuk bo'ldiki, bosh chekmish ko'zinga ul chafan nozik.

Munosibdur seningdek andalibi jannatiy, yo'qsa,
Qachon bo'ldi jahon bog'ida har zog'-u zag'an nozik.

Quling Furqat, dilim dardini ko'p ifsho qilolmasmen,
Ko'tarmas ta'bi mavzuning, aning fikricha, san nozik.

* * *

Ishq aro oshiq hamisha Volai Majnun kerak,
Ohi so‘zon, sina biryon, ko‘zlari purxun kerak.

G‘uncha yanglig‘ har sahar xunobai hasrat yutub,
Ashki xunolud-u[1] purxun jomasi gulgun kerak.

Kori har jomard emasdur ishqqa qo‘ymoq qadam,
Rustami doston kerak yo mardi Aflotun kerak.

El aro yirtib yaqosin, dod etib, yig‘lab yurub,
Ko‘ksiga noxun urub, nolon, ko‘zi Jayhun kerak.

Furqato, ishq ahlini nolasi afg‘onikim,
Bulbuli sho‘ridadek har ro‘zi shab afzun[2] kerak.

[1] **Xunolud** — qonga bulangan.
[2] **Afzun** — ko‘p, ziyoda, ortiq.

* * *

Surmadin ko‘zlar qaro, qo‘llar xinodin lola rang[1],
G‘ozadin yuzlarda tob-u o‘smadin qoshlar tarang.

Za’faroniy ko‘ylak uzra arg‘uvoniy kamzihur,
Ro‘ymol og‘ushidin peshonani ahvoli tang.

Bori nozik panjalar oltun uzukdin zebnok,
Qo‘l bilarzukdin muzayyan, nuqradin og‘izda chang.

Gavhar osqon halqalar siymin banogo‘shida band,
Ko‘rinur zulfi tunida subhi sodiqdek arang.

G‘amza birla o‘lturur, gah jilvalar birla yurur,
Turfa bir noz, ofarin, pur ishva tannoz-u satang.

Aql, hush eltar agar tursa paridek silkinib,
Odamizod ichra ham mundog‘ bo‘lurmu sho‘x-shang?

Yo‘q qutulmoqlig‘ menga, ul ofati jon dastidin,
Qasdima qoshlar kamon, payvasta mujgonlar qadang.

Ul parivash ishqidinki, telbadurmen, goh sog‘,
Chunki bordur oramizda goh sulh-u, gohi jang.

Javrlarkim, Furqat, ul sho‘xi jafojo‘ ayladi,
Muncha bedod-u sitam qilmas musulmong‘a farang.[1]

---

[1] Furqat bu misrani Fuzuliyga tazmin qilgan.

Qarang Fuzuliy. Asarlar, ikki jildlik birinchi jild. Devon. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, — 1968, 338-bet.

* * *

Ne balolig‘ erdi, ey sho‘xi diloro, surating,
Aqlimi lol etti qilg‘uncha tamosho surating.

Ketti bir ko‘rgach ani sabr-u qarorim shevasi,
Ayladi toqat nechuk chekkanda tarso, surating?

Yoki Gulandom erursan, boz kelding dar vujud,
Ayladi Bahromdek bizlarni shaydo surating.

Sarvqadlar suratin chekkanda naqqoshi azal,
Bir alif shaklida yozmish qaddi zebo surating.

Naqshi poyingni chekolmas erdi Chin suratgari,
Olg‘usi mir’ot ila rus ahli qaydo surating?

Bu latofatlar bila borsa kalisog‘a agar,
Qo‘ymag‘aymu bosh-ayog‘iga chalipo, surating?

Turfakim tasviri la’ling murdalarg‘a jon berur,
Yo‘q erur, jono, ajab bo‘lsa Masiho surating.

Kecha-kunduz jur’at aylab moh-u, mehr oyinasi,
Bo‘lmadi ko‘rmoq ila mustag‘ni aslo surating.

Furqatiy qosh-u ko‘zing ayni tasavvur aylagach,
Soldi g‘orat ko‘ngliga, jonig‘a yag‘mo surating.

* * *

Nigori dilnavozim, dog‘i hijron aylading ketding,
Firoqing o‘tig‘a bag‘rimni so‘zon aylading ketding.

Qadingni jilvapiro qilding ersa huri jannatdek,
Hamani qumridek hasratda nolon aylading ketding.

Asiri ishq bo‘lg‘onlar hamamiz yig‘lashib qoldik,
Muningdek hasrat-u g‘am ichra nolon aylading ketding.

Tabassum aylading guldek, takallum aylabon ul kun,
Misoli g‘unchadek bag‘rim to‘la qon aylading ketding.

Safar qilding, shahanshohim, shukuh-u saltanat birla,
Quling Furqatni bu g‘urbatda nodon aylading ketding.

* * *

Muncha zolim bo‘lmish ul xunrez tarso ko‘zlaring—
Kim, solur Islom elig‘a oncha yag‘mo ko‘zlaring.

Halqai zulfing ko‘ngullarni sarosar band etib,
Qatlima tortar qoshingdin tig‘i burro ko‘zlaring.

Ketkil ul yon, deb ishorat qilsa har gah qoshlaring,
Kel beri, deb aylashur ohista iymo ko‘zlaring.

Maydin ermas ul kishi, jono, siyah mast o‘lmog‘i,
Ko‘rdi bir g‘amza harifi nash’a paymo ko‘zlaring.

Xirqai zuhdumni husning panjasidin chok etib,
Ofiyat ahli qoshida qildi rasvo ko‘zlaring.

Aylaganda nastaran ko‘zgusini hayron yuzing,
Intizor etmas nechuk nargisni shahlo ko‘zlaring?

Ne uchun dasht-u biyobonlarni tinmasdin kezar,
Qilmag‘on bo‘lsa agar ohuni shaydo ko‘zlaring?

Qildi Furqatni harob-u, xasta-u, zor-u, zabun,
Xol-u xatting, qadd-u ruxsoring, na tanho ko‘zlaring.

* * *

May ichibkim, g'amza tig'in obdor[1] aylar ko'zung,
Har nigahda yuz kishini dilfigor aylar ko'zung.

Xoling oshubi habash iqlimig'a yag'mo solib,
Fitnadin toroji mulki Zangibor aylar ko'zung.

Aylamas toqat nigohingga agarchi bo'lsa tosh,
Ko'zguni siymob yanglig' beqaror aylar ko'zung...

Raxna solib dahr aro, qildi Haloku davrini,
Qo'rqaman el qonidin suv jo'ybor aylar ko'zung.

Xoki nochizi do'kon o'ldi javohir surmasi,
Bir nazar solmay ani bu na' vxor aylar ko'zung.

Oy yuzing uzra qoshing o'trusida Mirrix o'lub,
Qavs burjida qironlar oshkor aylar ko'zung.

Tutmagan bo'lsa g'azabdin Shohimardon shevasin,
Nega qoshingdin hamoyil zulfiqor aylar ko'zung.

Nakhati zulfing ushotib nofai Chin qadrini,
Ohui dashti Xo'tanni sharmisor aylar ko'zung.

Bazm aro gulrang mayi sen no'sh qilg'ilkim gahi,
Furqatiyg'a bir boqib da'fi xumor aylar ko'zung.

[1] **Obdor** — sersuv, shirador, so'lim; salmoqli.

* * *

Ey jahona sehrlar, jono, ayon aylar ko'zung,
Sehr ila, azbaski, tas'hiri[1] jahon aylar ko'zung.

Siynalar chok o'lmasunmikim, mijang novaklari,
Bog'layub qosh yosina har dam nishon aylar ko'zung.

La'li nobing ishq elig'a garchi ruhafzo erur,
Bir nigah birla va lekin qasdi jon aylar ko'zung.

Aylab istig'no chekardin surmaning ovozasin,
Yo'q etib, doshlar arosinda nihon aylar ko'zung.

Mardumi aql ila shaxsi xushumi qatl etmaka,
Nozdin tig'-u tag'ofuldin sinon aylar ko'zung.

Xoli o'lsun lahzai qaydog' zamon oshubidin,
G'amzadin har damda oshubi zamon aylar ko'zung.

Aylamay naylay xayoli kipriging oxir aso,
Kim, meni yodida doim notavon aylar ko'zung.

Nofa[2] bag'rin qon etib nakhatda zulfing, vahshini,
Umrlar ovorai bexonumon aylar ko'zung.

Tushmagaydi fitnalar davrona, oyo Furqatiy,
Fitna axtar burjida mehri qiron aylar ko'zung.

---

[1] **Tas'hir** — qo'lga olish.

[2] **Nofa** — kindik.

* * *

To‘kkali jallod erur ishq ahlidin qon ko‘zlaring,
Lablaring jonbaxsh-u, ammo ofati jon ko‘zlaring.

Sahl, agar bo‘lsa parishon, dilbarim, qilsang nigoh,
Qildi ohuni Xo‘tan dashtida sarson ko‘zlaring.

Nogahon oshiqlaringg‘a tiyri mujgonlar otib,
Raxna dil mulkig‘a soldi nomusulmon ko‘zlaring.

Bir ishorat birla der erdi boqib bismil[1] qilay,
Bo‘lmasun ul ahdidin, yo Rab, pushaymon ko‘zlaring.

Ey nigoro! Surmani qo‘y, qo‘yma, qo‘ysang, chiqmag‘il,
Qilmag‘ay oshubi dahr ustiga to‘fon ko‘zlaring.

Shukr, Furqat, furqatingda xasta-yu bemor edi,
Bir boqishda ayladi dardig‘a darmon ko‘zlaring.

[1] **Bismil** — so‘yilgan, so‘yish, bosh kesish.

* * *

Yuz-u zulfing furqatidin, ey diloromim mening,
Yig‘lamoqlig‘ birla kechgay subh ila shomim mening.

Yo‘q erur osoyishim, holing g‘amidin kechalar,
Naylayin talx o‘lsa bu taryokdin komim mening?

Xoki poyini fidosi jon, o‘shal qosidnikim,
Yetkurur bo‘lsa janobingg‘a bu payg‘omim mening.

Za’flik jismim, ramaqda jon, o‘lar holatdaman,
Tobakay hajringda kechsun bo‘yla ayyomim mening?

Aylading azmi safar, qoldim agarchi telmurub,
Sen bila ketdi barobar sabr-u oromim mening.

El gumon aylarki: no‘shim bodai gulrang erur,
Yo‘q, labing yodida to‘lmish qon ila jomim mening.

Nega bulbuldek fig‘on-u qumridek chekmay navo,
Sendin ayru, Furqat, ey sarvi gulandomim mening.

* * *

Meni, ey gul ruhim, bulbuldek afgor aylading, qo'yding,
Ishimni kecha-kunduz nolayi zor aylading, qo'yding.

Labing shirinlig'idin nuktai pinhon edi, so'rdim,
Tabassum qilding-u bu sirni izhor aylading, qo'yding.

O'shal kun lutf etib, vaslingg'a yetkurding meni oson,
Firoqing birla holim emdi dushvor aylading, qo'yding.

Jamoling xirmanida donai xolingni ko'rguzding,
Ko'ngul murg'ini zulfingg'a giriftor aylading, qo'yding.

Qilib shirin adolig', har kima boqding kulib, jono,
O'zingga oshiq oni, menga ag'yor aylading, qo'yding.

Viloyat ichra solding halqai zulfingdin ovoza,
Junun ahlini holimdin xabardor aylading, qo'yding.

Nigoro! Xastai Furqatni mahjuri visol aylab,
Ko'zi ko'zgusini mushtoqi diydor aylading, qo'yding.

* * *

Yana jono, meni dilxastani hayron qilib ketmang,
Firoq anduhidin kuygan yurakni qon qilib ketmang.

Kelurda mehribonlik birla xurram etdingiz jonlar,
Ketarda bori qahr aylab, ishim afg'on qilib ketmang.

Maromingizga boqsam, tarki mehr aylarga o'xsharsiz,
Taqi g'amlar qo'lida zor-u sargardon qilib ketmang.

Kulub zohirda chandon marhamatlar va'dasin aylab,
Faromush aylabon yo ahdingiz yolg'on qilib ketmang.

Qo'yub mundog' uqubatga, jafoning bobini ushlab,
Ko'zum yoshini go'yo mavjushi to'fon qilib ketmang.

Malohat ag'niyosi[1] siz erur, men ishq miskini,
Zakoti husningizni o'zgaga ehson qilib ketmang.

Visola qildingiz marham, bu qulni sarbaland aylab,
Yana Furqatni tashlab, yer bila yakson qilib ketmang.[1]

[1] **Ag'niyo** — g'aniyning ko'pligi.

* * *

Hajr o'tida shomi g'am kuymoq mengo fan aylading,
Vasl sha'mi birla sen el bazmi ravshan aylading.

Loladek bag'rimg'a qo'ydung shevadin dog' uzra dog',
Lahzai dashti tag'ofulni nashiman aylading.

Tig'i hasrat birla qatl aylab, ayo xurshid ro'y,
Chun shafaq olamni xunimdin muzayyan aylading.

Novaki mujgon qoshingni "yosidin" payvast etib,
Ko'ksum, ey bedodgar, yuz yerda ravzan aylading.

Hech kofir dahr aro qilmas musulmon ahliga,
Zulm ila bedodlig'larkim, menga san aylading.

Naxli qaddi nilufarpo'sha, ko'ngul, o'lding asir,
Na edub sarv orzu, na yodi savsan aylading.

Ishq maydoni aro, Furqat, mushabbak ko'ksungi,
Sho'xlarni xanjari nozig'a javshan aylading.

* * *

Dilbaro, qildi meni ko'b zor-u sargardon qoshing,
Yig'latib, qildi ko'zimni yoshini to'fon qoshing.

Ko'zlaring ikki tarafdin dam-badam afsun qilur,
Emdi qo'yg'il deb ishorat ayladi yolg'on qoshing.

Har biri bir xanjari qotil erur mujgonlaring,
Necha mendek begunohning qonini to'kkon qoshing.

Qursang, ey g'orat nigoh bedodgar[1], mujgon o'qin,
Jon-u dildin o'tkarur to sirg'acha parron[2] qoshing.

Noz taxtida Azizi Misri istig'no dedi,
Keldi elchi hind elidin, ayladi mehmon qoshing.

Hasrati birla hamisha o'zi yanglig' xam etib,
Qildi ta'miri qadimni oqibat vayron qoshing.

Ey quyosh yuzlik pari, har oyni boshida hilol,
Furqatiydek bo'ldi ko'rgoch besar-u somon qoshing.

---

[1] **Bedodgar** — adolatsiz; zo'ravon.

[2] **Parron** — uchuvchi.

* * *

Dilbaro, boshing uza chun toji sulton kokulung,
Ganji husnungni qilur olamg'a ehson kokulung.

Pech-pech o'lg'onda jonlar ichra tushti pech-u tob,
To'lg'onib qildi ko'ngullarni parishon kokulung.

Mordurkim chirmoshibdurmish qizil gul shoxiga,
Sarv qadding birla yokim guli pechon kokulung.

Xoli abro' bir taraf sabr-u qarorimni olib,
Ayladi gajjak bila aqlimni hayron kokulung.

Ochti toridin gireh, oye, sabo mashshotasi,
Mushkbor etti jahonni anbarafshon kokulung.

Ko'zlaring yag'mosidin olamg'a tushti fitnalar,
Necha odamlarni qildi xonavayron kokulung.

Bosh qo'yub ajdar kabi yotur jahong'a o't sochib,
Aylagandek ganji husnung munda pinhon kokulung.

Shonadin zahmat yetar ochsam gireh mujgon ila,
Gul kabi nozik erur mushk ila bu kon kokulung.

Ko'zlaring nargis, yuzing gul, qufli rayhondur xating,
Misli sunbul har tarafga bo'ldi larzon kokulung.

Yig'latib g'am dashtida bul Furqatiy devonani,
Oqibat bag'rig'a soldi dog'i hijron kokulung.

* * *

Firoqing birla, ey zolim, necha bag‘rimni qon qilding,
G‘aming birla yana ko‘z yo‘llarim obi ravon qilding.

Vafo ko‘z tutmagil hargizki, juz g‘addorliq yo‘qdur,
Falakni umrlardur, ey ko‘ngul, ko‘p imtihon qilding.

Ko‘zimning maktabidin tinmayin, ey tifl, ashk oqar,
Sabab na erdi, hayrat darsini muncha ravon qilding?

Rafiqo, ne edi maqsad jahona kelmagingdinkim,
Ketarda na ayon mohiyatingni, na nihon qilding.

Tiriklik qosili shuldur, buzulmas deb gumon etma,
Ajal torojidan, oqil, havasdin xonumon qilding.

Degil bo‘lmas agar doim muroding mug‘bacha husni,
Nechun dayr ichra Furqat, xizmati piri mug‘on qilding?

* * *

Ey, xarobi chashmi sho'xi nimxobing men sening,
Qil nazar holimg'akim, bo'yla xarobing men sening.

Ayladim bo'sa talab, lab ochmading so'z arzag'a,
Yetti, ammo, intizori bir javobing men sening.

Aylasam bir lahza vaslingdin farog'at, ayb emas,
Umrlardur hajr aro tortgan azobing men sening.

Layli-yu Shiring'a Majnun birla Farhod o'lsa bob,
Anglakim, har bobdin ishq ichra bobing men sening.

Lablaring yoqutikim, mahzun ko'ngulni qutidur,
Kel berikim, tashnai yoquti nobing men sening.

Kuydirursen tobakay jonim itob-u qahr ila,
Furqating o'tida xud bag'ri kabobing men sening.

* * *

Yuzlaringdin sharm etib gulshanda, ey ruxsor gul,
Ko'rinur har yil bahor ayyomida bir bor gul.

Vahki, solmish o'zini yo'lingg'a poyandoz etib,
Qo'y qadam, gar jonu dildan bo'lsa minnatdor gul.

Lab — gul, oraz — gul, badan — gul,
jabha — gul, bir naxldin[1],
Ey, vujuding gulshanida bor bu miqdor gul.

Dahr gulzorida ko'p gullarni ko'rdi el, vale,
Ko'rmadi sendek latif-u, nozik-u bexor gul.

O'lmog'onmudi xijolatlar chekib o'tgan bahor,
Boz bosh chekmish, uyatmasdin ajab beor gul.

Shul edi bu jurmig'a loyiq jazokim, bog'bon,
Bog'lab aylanturdi chandon ko'cha-u bozor gul.

Xil'atingdin bo'lsa ozurda netong nozik taning,
Topqusidur, qarag'il, o'z bargidan ozor gul!

Etmadi qat'i nazar el orazingdin, garchikim,
Oyati hubb g'unchasidin topti yuz tummor gul.

Nega boqsun gul yuziga, gul yuzingsiz Furqatiy,
Chunki bordur ul tikancha, bo'lsa yuz gulzor gul.

---

[1] **Naxl** — 1) ko'chat, yosh daraxt; 2) xurmo daraxti.

* * *

Chamanda g‘unchadin bo‘yningg‘a toqmishsan jaras[1], bulbul,
Magarkim o‘zga gulshan rahlatin qilding havas, bulbul.

Magar bo‘lding barahman, jomai azraq kiyibdursen,
Belingga bog‘la endi gulni toridin maras, bulbul.

Bahori, sun’i haq fayzi erur gul rang ila javshan,
Vagarna bo‘lg‘usidur bir xazondin xor-u xas bulbul.

Fig‘on behuda, jondin kechmaguncha oshiq o‘lmassen,
O‘zini o‘xshatib parvona bo‘lmas har magas bulbul!

Urarsen ishq lofin, shevai odob bilmaysen,
Qilibsen olg‘oli orom gul shoxin chakas[2], bulbul.

Bu isyon lazzatidurkim, judo bo‘lg‘on gulistondin,
Asiri dom bo‘lding ham giriftori qafas, bulbul.

Saboq olib o‘qug‘ul “Matla’ ul-anvor” Furqatdin,
Burungi fayzi yo‘q alhonlaringni[3], ayla bas, bulbul.

---

[1] **Jaras** — qo‘ng‘iroq, karvon tuyasidagi qo‘ng‘iroq.

[2] **Chakas** — lochin, qirg‘iy kabi ovchi qushlar qo‘nib turadigan ayri yog‘och.

[3] **Alhon** — ohang, kuy, tovush, un.

* * *

Yoqma jonim o‘tlara, ey sho‘x, zoringdur o‘shal,
Mubtalo ko‘nglum nizor etma, figoringdur o‘shal.

Gul tarovat topmog‘i aksi ruhingdandur bahor,
Bu sababdin misli nargis intizoringdur o‘shal.

“Sabzalarkim chashmai hayvon uza nedur?” dedi,
Men dedim: “Lab uzra xatti mushkboringdur o‘shal”.

Dedikim: “Naylay, bir oy boshida bir umri tavil”,
Men dedim: “Yuz uzra zulfi tobdoringdur o‘shal”.

“Bel, og‘izdin ochma lab, somoni sabring tut”, dedi,
Men dedim: “Borim yo‘q etgan yo‘q-u boringdur o‘shal”.

Dedi: “Bildingmu tag‘oful etmog‘im mohiyatin?”,
Men dedim: “Bormoq uchun bergan qaroringdur o‘shal”.

Dedi: “Yuz ming oshiqim, ammo biri mushtoqroq”.
Men dedim: “Furqat degan bir beqaroringdur o‘shal”.

* * *

O‘rgulay boshingdin, ey oromijon, bir kecha kel,
Qumridek dar nola men, sarvi ravon, bir kecha kel.

Ko‘yingga doim borurmen, nega bir yo‘l kelmading?
Kelmasang jonim borur, ruhi ravon, bir kecha kel.

Muncha zulm aylab, sitam o‘tig‘a kuydurding meni?
Emdilikda lutf etib, eldin nihon bir kecha kel.

Ko‘b erur qasdingda yurgan ko‘zi shum ag‘yorlar,
Ilkinga xanjar olib, aylab qiron bir kecha kel.

Bir necha baxti qaro kunduz malomat qilsalar,
Pardai ismatni yuzga yopibon bir kecha kel.

Motamim bo‘ldi ziyoda, to g‘aming haddin oshib,
Muncha aylarsen debon oh-u fig‘on bir kecha kel.

Dod-u faryodig‘a yetkil Furqatiy bechorani,
Yo‘qlabon bu qulni, jonim, sen hamon bir kecha kel.

* * *

Labing g‘uncha, yuzing ikki qizil gul,
Qading sarv-u soching go‘yoki sunbul.

Visolingga nigoro, mahram erdim,
Firoqingg‘a nechuk aylay tahammul?

Chu shavqim xomasi tahriri la’ling,
Qilib doim yozar xatti tasalsul[1].

Gulistondur jamoling, ey, parivash,
Men oni ishqida sho‘rida bulbul.

Chu Yusuf husnunga barcha xaridor,
Zulayhodek tushub ko‘nglig‘a g‘ulg‘ul.

Chiqarga yetti jon, jono, g‘amingda,
Bu g‘amdin yona jismim ham tazoyul.

Gado Furqatni holig‘a karam qil,
Erursen podshohi botahammul.

[1] **Tasalsul** — bog‘lanish, halqalanib birikish.

* * *

Och ko‘zung xobi garondin[1], g‘ofilo, bedor bo‘l,
Mastlig‘ g‘aflat mayidin tobakay, hushyor bo‘l!

Nola-yu zori qil-u, masjid sariga qo‘y qadam,
Tavbani virdᵃ aylabon, mashg‘uli istig‘for bo‘l.

Bir nafas ham bo‘lmagil bedardlarga hamnishin,
Qayda bir ahli muhabbat bo‘lsa, anga yor bo‘l.

Yurmagil misli bahoyim, bo‘lsang inson naslidin,
Kecha-yu kunduz muhabbat dardidin bemor bo‘l.

Qildilar azmi safar bir-bir hama hamrohlar,
Emdi yetgay sanga navbat, ketgali tayyor bo‘l.

Istasang bo‘lmoq saroyi oxiratda sarbaland,
O‘zni kam tut, kech bu dunyo izzatidin, xor bo‘l.

Qo‘y qadam ohista, pomol o‘lmasun mo‘ri zaif,
Payravi aqli tariqat shulki, beozor bo‘l.

Zohiroro bo‘lmagil, umr o‘tkarib g‘aflat bila,
Qil safoyi qalb qosil, voqifi asror bo‘l.

Band-bandingdin sadoyi nola chiqsun nay kabi,
Ishq dardi birla Furqat, siynasi afgor bo‘l.

---

[1] **Garon** — og‘ir, vazmin.

[2] **Vird** — tinimsiz qaytarish, zikr qilish.

* * *

Asiri zulfum ersang, kokulingga mubtalo man ham,
Xarobi holim ersang, holinga bag‘ri ado man ham.

Uzoringdur guli jannat, nigoro, qomating to‘bo,
Fig‘on bulbul kabi aylar hama, tortib navo man ham.

Zuhur etti anoring jilva birla kamzuhuringdin,
Kimikim ko‘rdi, bo‘ldi aql-u hushidin judo, man ham.

Malohat sanda behaddur, nazokat beadad manda,
Vafo qilsang mango, ey gul, qilay sango vafo man ham.

Hami abro‘laring zuhd ahlini gur sajda qildursa,
Bu qomat birla qilg‘on sarvqadlarni duto man ham.

Agar Yusufjamol o‘lsang, vagar Laylimisol o‘lsam,
Xinoning rangidekdur, orazingga iktifo man ham.

Namoyon etgali nomingni, Furqat, jumla shoirlar,
Qilibdur nazmini bir harf birla ibtido, man ham.

* * *

Fig‘onkim ul buti siymin zaqandin ayrilib qoldim,
Malohat bog‘ida sarvi chamandin ayrilib qoldim.

Dimog‘ oshufta-u xotir parishon-u ko‘ngul g‘amgin,
Xat-u xol, kokuli mushki Xo‘tandin ayrilib qoldim.

Meni holimg‘a hardam, ey malohat ahli, kulmanglar,
Bu hola tushmayinmu, gulbadandin ayrilib qoldim.

Girehlar rishtasi jonimg‘a tushti, ne iloj aylay?
Ochilmas emdi, zulfi purshikandin ayrilib qoldim.

Jununim qo‘zg‘odi, el ichra Majnundin batar bo‘ldim,
Nigorim, Layli ruxsorimki, andin ayrilib qoldim.

Ichib zahrobai hijron ajoyib talxkom o‘ldum,
Takallum chog‘ida shirin suxandin ayrilib qoldim.

Navo bulbul kabi cheksam, fig‘on qumridek, ayb ermas,
Yuzi gul, qomati sarvi chamandin ayrilib qoldim.

Quyundek po‘ya aylarman biyobonda, qarorim yo‘q,
O‘shal dilbar uchun Furqat, vatandin ayrilib qoldim.

* * *

Ohkim hamdard yo‘q, dard oshkor aylay desam,
Yozg‘ali sharhi g‘amimni g‘amgusor aylay desam.

Vahshatim eldin bukim, vahshidin o‘lg‘aymen ma’lul,
Vahshiylardek gar maqomim ko‘hsor aylay desam.

Ixtiyorim buki, el qo‘ymas g‘arib ahvolima,
O‘tlug‘ ohim kechalar sha’mi mazor aylay desam.

Bog‘ ila sahro ko‘nguldin aylamas g‘am ra’fini,
Sayri gul, yor ila sayri lolazor aylay desam.

Yorsiz tarki diyor aylab edim, ahboblar,
Bor diyor-u, yor yo‘q, azmi diyor aylay desam.

Vahki, bir mushkulpisand ishqig‘a bo‘lmishman asir,
Bo‘lmag‘ay manzuri jon naqdin nisor aylay desam.

Ul parivash zulfining savdosidin devonaman,
Turgali bir yerda imkon yo‘q, qaror aylay desam.

Kecha elg‘a nolai beixtiyorimdin ma’lul,
Tarkig‘a yo‘q ixtiyorim, ixtiyor aylay desam.

Dildagi dog‘imni Furqat loladek ifsho qilur,
Qatra-qatra qon yoshim jo‘shi bahor aylay desam.

* * *

Alamlik qumriman, bir gul badandin ayrilib qoldim,
Nazokatda qadi sarvi chamandin ayrilib qoldim.

Qafas baytul-hazan, Ya'qubdek qon yig'lasam arzir,
O'shandog' Yusufi gul pirahandin ayrilib qoldim.

Xati rayhon, sochi sunbul, labi g'uncha, ko'zi nargis,
Qabo gul, ko'ylagi bargi sumandin ayrilib qoldim.

Agar hijron qarong'usida yig'lab yotsam, ayb ermas,
Jamoli nuri sha'mi anjumandin ayrilib qoldim.

Qaro toshlar urub ko'ksimg'a, faryod aylasam kamdur,
Tishi durru labi la'li Yamandin ayrilib qoldim.

Misoli zar agar sorg'orsa ruxsorim, ajab qilmang —
Ki, ul donishu ayyor siymtandin ayrilib qoldim.

Menga yuz qo'ydi emdi hasratida talxkom o'lmoq,
Halovat so'zlari, shakkarshikandin ayrilib qoldim.

Par-u bolim to'kildi, maskanim oxir qafas bo'ldi,
Muhabbat yo'lida Furqat, vatandin ayrilib qoldim.

* * *

Men agar ko‘yingdin afg‘onsiz o‘tolmayman, begim,
Tong emaskim aql-u hush o‘zda tutolmayman, begim.

Qon yutarman ushbu g‘amdinkim, fig‘onlar tortibon,
Baxtim og‘ir uyqusidin uyg‘otolmayman, begim.

Lola yanglig‘ qat-baqat qonlig‘ jigarda dog‘lar,
Hayfkim, ko‘ksumni yorib ko‘rsatolmayman, begim.

G‘oyibona yuz so‘zum bordur, va lekin ohkim,
Lol o‘lub ko‘rganda bir so‘z ham qotolmayman, begim.

Toqatim yo‘q turgali javringdin, ammo shunchakim,
Bir taraf ko‘ngul uzub sendin ketolmayman, begim.

Hasratingdin har tarafga to‘lg‘onib tong otg‘ucha,
Rahm qilkim, kechalar yig‘lab yotolmayman, begim.

Rohati vaslingga xo‘ etmish ko‘ngulni Furqatiy,
Mehnati hajringga hargiz o‘rgotolmayman, begim.

* * *

Yuzing guldin musaffodur, labing rangi xinodin ham,
Xating xushbo‘ chaman rayhonidin, mushki Xitodin ham.

Vafo bo‘yi edikim esdi xoli anbaringdin kim,
Bu yanglig‘ nakhati xush varna kelgaymu sabodin ham.

Sihiy birla sanobar sharmgindur ham xijolatrez,
Qading shamshoddin ra’no erur sarvi rasodin ham.

Fasohat to‘tisidursan kalomingkim shakar omiz,
Labingni shahdi kavsardin suchuk obi baqodin ham.

Jamoli bokamolingni qachon ko‘rdum ko‘ngul qo‘ydum,
Falon xurshid tal’atdin, faloni mahliqodin ham.

O‘tarsen qo‘l solib, har yon boqib, har so‘ xirom aylab,
Ketar hush-u farosat faqr elidin, ag‘niyodin ham.

Nihon ettim, nigoro, nomi harfingni g‘azal ichra,
Qilib begona ko‘zdin rashk, Furqat, oshnodin ham.

* * *

Tig‘i hajringda ravomu bag‘rim afgor aylasam,
Joni zorimga o‘zim har lahza ozor aylasam?

Rahming aslo kelmadi ishqingda, jono, garchikim,
Dilni so‘zon, o‘zni giryon, ko‘zni xunbor aylasam.

Dardi hajring torta-torta onchunon bo‘ldim nahif,
Tanda darmon qolmadikim, nolayi zor aylasam.

Gul yuzingni yodida qon yig‘lamoq bo‘ldi ishim,
Ko‘z yoshimdin, tong emas, olamni gulzor aylasam.

Toqat etmay, muncha tamkin birla kuygay tog‘lar,
O‘tlug‘ ishqimdin agar bir shu’la izhor aylasam.

Oshiqi sodiqlig‘img‘a bovar aylarsanmu, yor,
Qozi muhrin bostirib, xat birla iqror aylasam?

Ko‘r bo‘lsun ko‘zlarimkim, o‘zgag‘a solsam nazar,
Jonga o‘t tushsun agar sendin bo‘lak yor aylasam.

Ham ko‘ngul yuz pora bo‘lsun, mayl qilsa o‘zgag‘a,
Til kesilsun o‘zgag‘a bir harf guftor aylasam.

Jondin ayrilsun tan-u yo bir yo‘li sinsun ayog‘,
G‘ayr ko‘yin bir qadam har sori raftor aylasam.

Istaram kim, ey pari, har erta avrod o‘rnig‘a,
Ismi A’zamdek oting payvasta takror aylasam.

Ey, pari, bo‘lg‘ay qachon bir tori zulfingdin yetar,
To junun da’fi uchun bo‘ynimg‘a tummor aylasam.

Furqating dashtida men labtashna mundog‘, ohkim,
Demading hargiz, ani shodobi diydor aylasam.

* * *

Ishqingda kuyub, jono, xoki tahi po bo‘ldum,
Sovurdi g‘aming bodi alqissa fano bo‘ldum.

Har kecha talab aylab dargohi ilohiydin,
Oftobi kamolingni, mashg‘uli duo bo‘ldum.

Yuz jahd-u jadal birla vaslingg‘a yetushganda,
Ming kohishi g‘am birlan naylayki judo bo‘ldum.

Hasratki, falak kajrav komimni ravo etmas,
Topmay chu iloj anga hasrat bila to bo‘ldum.

Sendin dame, ey, dilbar, ayrilgani toqat yo‘q,
Gardunni jafosidur bu g‘amda ado bo‘ldum.

Jon-u dilim ayturlar bir-birga vido’ini,
Sen birla ko‘ngul qoldi, jon ketsa rizo bo‘ldum.

Maqsuda yetib erdim, ne hodisa ro‘ berdi?
Hayrat bila yakbora andin guzaro bo‘ldum.

Hijronda ko‘yarmusen oshiqni xarob aylab?
Vaslingg‘a qariyb etgil, ko‘b bag‘ri ado bo‘ldum.

Furqatni qulumsen deb bosti ko‘zima muhrin,
O‘zga yuza boqmoqdin bil-kulli sivo bo‘ldum.

* * *

Azmi gulshan aylasang yuz noz ila, ey, xush xirom.
Sarv joyidin turub qaddin bukub aylar salom.

Noz-u istig'no bila boqib tabassum aylasang,
G'unchalar kulmoqni o'zga aylagay qat'an harom.

Poybo'singni taqozosida tufroq o'lmisham,
Tushmadi hargiz guzoring termularmen subh-u shom.

Jilva qil, ey, gul badan, ayni malohat chog'idur,
Fursati husn aylamas senga muyassarlik mudom.

Rohi ishqingda muhabbat ahlini sarxayli men,
Vomiq-u, Farhod-u, Majnundin menga qilma kalom.

Nopadid[1] o'ldi bukun da'voyi husn etgan hama,
Toki sendin muntashir[2] bo'ldi jahong'a nek nom.

Sen kabi shahni latofat mulkida ko'rgach nigor,
Jon-u dil birla kamina Furqatiy bo'ldi g'ulom.

[1] **Padid** — ko'zga ko'ringan, paydo bo'lgan.

[2] **Muntashir** — yoyilgan, tarqalgan, hammaga ma'lum bo'lgan.

* * *

Andalibi hayronlar o‘ldilar bu dog‘lardan,
Bo‘lmadi dame xoli gulshaning bulog‘lardan.

Hajr shomi yuzlansang oy kabi yuzing ochib,
Kulbami qilur ravshan mash’al-u charog‘lardan.

Kokulung firoqida resh-reshdur ko‘nglum,
Chok-chok ham ko‘ksum kam emas tarog‘lardan.

Go‘sh etib raqib so‘zin, quvlama eshikingdin,
Qullug‘ halqasin olma, o‘rgulay, qulog‘lardan.

Soqiyo, boshing haqqi, bir qadah karam qilg‘il,
Men edim asiri g‘am zori bedimog‘lardan.

G‘am yeli xazon aylab yetti jon mashomig‘a,
Yetmadi nasim hargiz gulshani farog‘lardan.

Ey eram parizodi, topmadim nishoningni,
Labga jon yetib keldi oqibat so‘rog‘lardan.

Bo‘sa bermayin bir yo‘l, mingyo‘li itob aylar,
Aylama umid hargiz bo‘sa-u quchog‘lardan.

Zulfi anibariningni toridur ko‘ngul domi,
Chiqmagay bu qush emdi, ajramas tuzog‘lardan.

Telbalik bilan shona kokulingg‘a qo‘l urdi,
Beadablik etmasdi, xo‘b edi bu sog‘lardan.

Yetkurub visolingg‘a shod qil hazin ko‘nglum,
Tobakay yuray yig‘lab, Furqatiy, yirog‘lardan.

* * *

G‘aribi bu viloyat, xonumonidin adashganman,
Basoni murg‘i vahshiy oshyonidin adashganman.

Chekib bulbul kabi afg‘on, saharlar yig‘lasam yo‘q ayb,
Bahor ayyomi o‘tti, bo‘stonidin adashganman.

Azizim, murshidim, ham rahbarim, toji sarim — boshim,
O‘shal sohibkaramlik xonadonidin adashganman.

Kezib dashti muhabbatni, so‘rog‘i do‘stni topmay,
Adam anqosidek nom-u nishonidin adashganman.

Qolib sargashtalik sahrosida hayron-u sargardon,
Ulug‘ dargohlarni ostonidin adashganman.

Tirikman el ko‘zig‘a, shunchalik ruhi ravonim bor,
Vagarna holi surat, tanda jonidin adashganman.

Boshimg‘a tushti g‘urbat oftobi, naylayin, Furqat,
Falakni gardishidin soyabonidin adashganman.

* * *

Ne jafolar chekmadim bir bevafo dildor uchun,
Ne balolar ko'rmadim ahdi buzug' bir yor uchun.

Ko'chalarda zor yig'lab o'yla Majnun dilfigor,
El aro afsona bo'ldum ul pari ruxsor uchun.

Xasta bulbul bog' aro behuda afg'on chekmadi,
Balki chekti kecha-kunduz gulg'a hamdam yor uchun.

Shul umidim ul sanamdin: bor bo'lmoqdin na sud?
Qayrilib bir boqmasa men xastai afkor uchun.

Poybo'sin axtarib monandi tufroq o'lmisham,
Xor bo'lmoq shunchalardur bir guli bexor uchun.

Yordin shikva na hojat? Lahza-lahza boshima,
Bo'yla savdolarni soldi bir guli bexor uchun.

Kelmadi holin so'rab bul Furqatiy bemorini,
Ul parini ko'nglida bir muddaosi bor uchun.

* * *

Boshimni tosha ursam ham menga bedod fandursan,
Bu ortiq: o'zgaga har kecha sha'mi anjumandursan.

Tomar shahd-u halovat lablaringdin, ey pari-paykar,
Fasohat borasida to'tidin shakkar suxandursan.

Dag'aldur bargi gulni xil'atingga aylasam tashbih,
Nazokatda ajabki, bu qadar nozik badandursan.

Ijozat berki, to joni kiromimni nisor aylay,
Chi hojat siym, o'zing azbaski, jono, siymtandursan.

Zarif-u, rind-u, ozoda agarchandiki, ko'p borsan,
Darig'oki, tag'ofulpeshae, paymonshikandursan.

Kelur kulbamg'a oxir deb, o'shal mushtoq mandurman,
Darig'i bir qadam etgan hamon dildor sandursan.

Itob etmas senga behuda ul zebo sanam, Furqat,
Tafakkur qil, anga bor beadablik aylagandursan.

* * *

Ohkim ul sho‘xni mundog‘ jafosi bor ekan,
O‘zgalarga lutf ila mehr-u vafosi bor ekan.

Har zamon izhor etar begonalig‘ atvorini,
Emdi bildimki, nihona oshnosi bor ekan.

Mubtalo dard-u balosig‘a o‘zum tanho desam,
Necha ming mendek balokash mubtalosi bor ekan.

Ey ko‘ngul, yuzlanmag‘il minba’d jonon ko‘yig‘a,
Purxatarlik yo‘lki, ming to‘squch balosi bor ekan.

Begunahlarga berurlar hajrning tasbihini,
Ishq shar’ini ajab dorulqazosi bor ekan.

G‘am hujumi ayladi bemor, kelmas so‘rg‘oli,
Ul pari ko‘nglida qandog‘ muddaosi bor ekan.

Jomi g‘amda topti Furqat bodasin jon-u ko‘ngul,
Zahri qotildin ani achchig‘ mazosi bor ekan.

* * *

G‘amzang o‘qini otkim, jonim nishona o‘lsun,
Paykonidin ichib suv bu tashna qona o‘lsun!

Mavzun qadingga shamshod qilsa chamanda da’vo,
Jismi hamma tilinsun, zulfingga shona o‘lsun!

La’ling g‘amida yig‘lab ashk o‘rnig‘a, nigoro,
Tokay iki ko‘zimdin qonlar ravona o‘lsun?

Ag‘yorkim, visoling bog‘ida shukr qilmas,
Yo Rab, o‘shal firoqing o‘tida yona o‘lsun!

Ortiqcha davrdin may tortayki, sargaronlik,
Bosh qo‘yg‘oli tizingga tokim bahona o‘lsun.

Nomingga bir muvashshah qildi bu Furqat insho,
Shahr ichra shuhrat olsun, sho‘ri zamona o‘lsun.

* * *

Menki o'ldim notavon ul nargisi shahlosidin,
Bir takallumda tirildim la'li ruhafzosidin[1].

Qadd-u ruxsorini ko'rsa da'fatan rizvon agar,
To'bidin ko'ngul uzar, ham jannat-ul-ma'vosidin.

Sabr-u somonimdin ayrildim bel-u og'zin ko'rib,
Yo'q-u borim qolmadi pinhon ila paydosidin.

Vasl uchun hajrida jon berdim, vale bo'lmas pisand,
O'ldum ul mushkilpisand zeboni istig'nosidin.

Diydai olam yorur zulfi tunida olsa gar —
Yettidin bir parda ruxsori qamar siymosidin.

Jismi o'ldi shona-shona oqibat shamshodning,
Ul sanam qaddig'a qilg'on da'vii bejosidin.

Aylading ta'rif, zohid, huri jannat, voqi'an,
Yaxshi deding, qolmasun har kimsa o'z ra'nosidin.

Ne qaro kunlar boshimg'a tushmadi, ahboblar,
Xol-u xatti, hasrati birla sochi savdosidin.

Bir ko'ringach, telba aylab husnig'a, Furqat yana,
Yuz yoshurmish ul pari o'z volai shaydosidin.

* * *

Ishqing o‘tida, jono, jonlar kabob emasmu?
Qilmas esang tarahhum, holim xarob emasmu?

Zulming sharorasidin do‘zax zuhur aylab,
Javringni sho‘rishidin ro‘zi hisob emasmu?

Derlar araq[1] yuzingda ko‘rganda ba’zi oqil:
“Ul suv hayo gulidin bitgan gulob emasmu?”

Bag‘rim ezilsa tong yo‘q, tushganda bir nigohing,
Husnungni bir ko‘rubon oyina ob emasmu?

Oyinai jamoling ta’biri mahv bo‘lsa,
La’ling savolig‘a jon bermoq savob emasmu?

Jon-u jahong‘a rahm et, yig‘latma ko‘b meni zor,
Olamg‘a ko‘z yoshimdin obi azob emasmu?

Noz ila o‘ldurursen vasl ichra gar, rizomen,
Bo‘ynumg‘a tori zulfung mushkin tanob emasmu?

Raxshi vafo minibon dil kishvarini sayr et,
Bir necha kun g‘animat ahli shabob emasmu?

Gar kelsa qo‘ldin, ey yor, berma chibing‘a ozor,
Besh-olti kun bu fursat o‘tgoy shitob emasmu?

Sultoni mulki xo‘biy sensen, nigor, gohi,
Furqat faqir holin so‘rsang savob emasmu?

---

[1] **Araq** — ter.

* * *

El ichra ishq dog‘in ishfo qilib bo‘lurmu?
Monandi lola o‘zni rasvo qilib bo‘lurmu?

Bozori ishqa kirsa raxti visol hargiz,
Jon naqdi qo‘lg‘a olmay savdo qilib bo‘lurmu?

Yetmish iki marotib bu yo‘lda o‘zini sotmay,
Ishqini Boyaziddek da’vo qilib bo‘lurmu?

Chiltan sharobin ichmay, bosh o‘ynamay chu Mansur,
Dor uzra deb “Analhaq” g‘avg‘o qilib bo‘lurmu?

So‘yub teringni osmay oshiq Nasimiy yanglig‘,
Jonsiz jasadni betil go‘yo qilib bo‘lurmu?

G‘ofilni suhbatidin jon boricha qochinglar,
Do‘zax aro, chunonchi, ma’vo qilib bo‘lurmu?

Ey bulhavas, qo‘y emdi, behuda chekma zahmat,
Taqlid ichinda tahqiq aslo qilib bo‘lurmu?

To dardi ishq tegmay, yig‘lab jigarni ezmay,
Furqat kabi sirishkim daryo qilib bo‘lurmu?

* * *

Jonim olurg'a keldingiz, muncha shitobingiz nima?
Man bo'layin tasadduqing, qahr-u itobingiz nima?

G'amza o'qi bilan oting, men o'layin o'shal zamon,
Kunda mani yuz o'lturub, muncha azobingiz nima?

Bog'lasang osgali mani rishtai kokuling bilan,
Roziman, ey pari ango, o'zga tanobingiz nima?

Begunah o'lturub mani, qonima qoldingiz bukun,
Tong-la yaqongdin ushlasam, anda javobingiz nima?

Avval o'zingni suydurub, jonimi o'tg'a kuydurub,
Vosil bo'lurda vaslinga necha hijobingiz nima?

Javr-u jafoni qilmangiz, ishqing ila bo'lub edi,
Ado, tamom Furqatiy, emdi xitobingiz nima?

* * *

Oy yuzin ko'rmay ko'ngul aylaydur afg'on bul kecha,
Yig'lar emdi ko'zlarim to bo'lg'usi qon bul kecha.

Soqiyo, qul bo'lg'aymen, bir kosa may bersang mengo,
Chunki vaqti bazmdur ham vasli jonon bul kecha.

Haddin afzun erdi dardim, ustina furqat nedur?
Aylamog' jabr-u sitam, ham dog'i hijron bul kecha.

Ey labing vasfin tamannosida o'lturg'on chog'im,
Ichmog'um og'zimg'a quysa obi hayvon bul kecha.

Qosh uchi birla kulub boqsa nigorim har taraf,
Mengo ham solmoq nazar hech bormu imkon bul kecha?

Chiqsa uydin mahvashim yuz noz birla, vah, netong,
Chiqsa istiqbolina jur'at bila jon bul kecha?

Ihtizor etsang magar kelmoqda sen ag'yordin,
Oshkoro qilma lutfung, ayla pinhon bul kecha.

Necha kundur men yoturmen ostoning yastonib,
Na emish ham aylasang bir lutf-u ehson bul kecha.

Furqatiy hajring tuni vaslingni istab yig'ladi,
Sendin o'zga kim qilur dardimg'a darmon bul kecha?

* * *

Do‘stlar, ahboblar, borib edim mayxonag‘a,
Nogahon tushti ko‘zum bir mahliqo jononag‘a.

Jona yetkon erdim, ammo ko‘b xumorim za’fidin,
Tutti bir sog‘ar karam aylab meni devonag‘a.

Ayb qilmang har kishiga oshnolik qilmasam,
Bersa bo‘lg‘aymu ko‘ngulni har nechuk begonag‘a?

Charxi kajrav ne balolarga giriftor etmadi,
Do‘stlar, bir dam quloq soling shubu[1] afsonag‘a.

Ikki haydar kokulin keldi xayoli ko‘nglima,
Tushti go‘yo ikki ajdar kulbai vayronag‘a.

Soqiyo, o‘ldum xumoringdin, boshing haqqi uchun,
To‘ldurub bersang agar, jonim beray paymonag‘a.

Tong emas kuysa jamol otashgahida Furqatiy,
Sha’mni ko‘rsa nechuk toqat qolur parvonag‘a.

[1] **Shubu** — ushbu.

* * *

Turub har erta, jononim, yo'lingda,
Oqardi chashmi hayronim yo'lingda.

Falak uzra malaklarg'a yetushti,
Senga yetmasmu afg'onim yo'lingda?

Muroding qatlim ersa kelmagingdin,
Fidodur bir qoshiq qonim yo'lingda.

G'ubori tavsaningdin[1] topti orom,
Chiqardi yo'q esa jonim yo'lingda.

Malomat toshidin bo'ldi munaqqash,
Chu Majnun jismi uryonim yo'lingda.

Kel, ey Yusuf, Zulayho ko'zasidek,
Qurug'liq baytul-ehzonim yo'lingda.

Gar o'lsam intizoring birla Furqat,
Yotar jismim meni, jonim, yo'lingda.

[1] **Tavsan** — 1) sho'x ot; 2) qaysar, o'jar, xira.

* * *

Ko‘z uchidin qil nigah, ey sho‘xi tannoz, ozgina,
Husn shohisen, gadoni et sarafroz ozgina.

Harzago‘ ag‘yoralar so‘zig‘a bovar qilmakim,
Dilsiyolig‘ kelturur o‘rtoda g‘ammoz ozgina.

Oncha solding boshima javr-u jafolar ko‘b-ko‘b,
Emdi qilsang na bo‘lur mehr-u vafo oz-ozgina?

Ul kuni boqting kulub, maqsudima yettim tamom,
O‘tgay erdim gar nazar solsang edi boz ozgina.

Ko‘b emas lutfung agarchandiki, xushtur xotirim,
Shod o‘lur faqr ahli go‘yo bo‘lsa mumtoz ozgina.

Kimdin o‘rganding bu yanglig‘ javr ila bedodni,
Rahmdillik yaxshi, ey sho‘xi dag‘oboz, ozgina.

Ko‘b jadal qildim va lekin topmadim bazmingg‘a yo‘l,
Koshki bo‘lsam edi sen birla damsoz ozgina.

Furqatiy dilxastani gah o‘lturub, gah tirguzur,
La’li jon baxshingdin o‘lsa bo‘yla i’joz ozgina.

* * *

Tortib o‘lmay intizoring dog‘i gul bozorida,
Ey hayotim gulshani, kelg‘il hayotim borida,

O‘quram bulbul kabi yuz birla og‘zing vasfini,
Bog‘ aro gul daftarida g‘unchaning tummorida.

Sharmdin boshig‘a chekti chodirin tovusi bog‘,
Jilvai tarzi xiroming ko‘rmay o‘z raftorida.

Kechti ko‘b yillar, falak davrida hargiz ko‘rmadim,
Orazing siymosini mehr-u qamar ruxsorida.

Nuri ruxsoringdin Islom ahli ko‘nglida safo,
Tobi zulfingdin gireh kufr elining zunnorida.

Diqqat aylab, bo‘sa mazmunin tasarruf ayladim,
Bir-ikki misra’ uzoring xattini takrorida.

Xatting ul Xizr elg‘a bersa har qachon hayvon suyi,
Nutqing ul jonbaxshliq bo‘lsa Masih guftorida.

Ohui Chin nargisingdinkim erur ovvoralar,
Sunbulingni bo‘yi netsun nofai totorida.

Noming o‘lg‘ach harf ila har bayt uza ziynat fizo,
El aro ko‘b qadri oshti Furqatiy ash’orida.

* * *

Tangri berdi nogahondin bir nigori yoshgina,
Qomati nozikkina, ko'b erka-yu avboshgina.

Necha muddat go'shai g'amda ajab tanho edim,
Emdi jonim pardasida asrayin yo'ldoshgina.

Ishq dardini bayon aylar edim oz-ozgina,
Yoshligidin qildi oxir sirlarimni foshgina.

Zulfining shomida ul mahning jamoli sha'miga,
Aylanurga jon qushi parvonadek xaffoshgina[1].

Yig'larimni shiddatidin oqti ashk o'rniga qon,
Rahm ila parvosi yo'q jonon yurogi toshgina.

Oqibat davron jafosi qildi sargardon meni,
Topmadim bir munisekim, bo'lsa xush kengoshgina.

[1] **Xashshof** — ko'rshapalak.

* * *

Umr xush o'tmas, bahor ayyomi sahro bo'lmasa,
Lolazor ichra bisoti aysh barpo bo'lmasa.

Hosil o'lmas boda-u jom ila miynodin murod,
Jilvagar to soqiyi gulchehra ando bo'lmasa.

Bazm ahli bo'lsalar mayxoralar anda zarif —
Dardi yo'q ag'yor o'shal majlisda aslo bo'lmasa.

Dahr gulzorida xushdir yaxshi ta'miri bisot,
Gar xazondin gardi hodis anda paydo bo'lmasa.

Obi-hayvon birla umri jovidonni ne qilay,
Bir xati Xizr-u labi la'li Masiho bo'lmasa.

Xok bo'lsun ul tanekim, ishq o'tida kuymasa,
Zeripo bo'lsun sarekim, anda savdo bo'lmasa.

Furqat aylar orzu bu anjumanni har bahor,
Odam ermas ham kishida bu tamanno bo'lmasa.

* * *

Vafo aylab yiroqdin oshkor ohista-ohista,
Bir ishqim aylading, jono, hazor ohista-ohista.

Na yaxshi marhamatlar aylamishsan nomada izhor:
"Muhabbat rasmi qilg'il" deb shior ohista-ohista.

Jadal birla kishi maqsudig'a yetgan emas, ore,
Bo'lur vaqti bilan har na'vkor ohista-ohista.

Nechuk toqat qilaykim, bora-bora zo'r etib ishqing,
Ko'nguldin oldi sabr ila qaror ohista-ohista.

Berib taskin ko'ngulg'a: vasliga bir kun yetarman deb,
O'zimni o'rgatay hajringga, yor, ohista-ohista.

Parishon o'lmayin to xotiringni ja'mi qil, jono,
So'rab holimni xat birlan biror ohista-ohista.

Nechuk osoyish aylay, ey ko'ngul oromikim, sensiz,
Bo'lub borur jahon ko'zimg'a tor ohista-ohista.

O'shal kun bir ko'rib qolganda qilgan novaki g'amzang,
Hanuz aylab kelur ko'ksim figor ohista-ohista.

Visoling bodasidin qilmasang shodon Furqatni,
Xabar aylar ani hajr-u xumor ohista-ohista.

* * *

Termu tobi bodadin ruxsori ahmar ustida?
Qatra-qatra yoki shabnamdur guli tar ustida?

O‘smaliq qoshlarmu yo shamshir qondin zangliq,
Yoki pistoqi to‘kulmish rangi ahzar ustida?

Yuza uza kokulmidur har sori pech-u tob ila,
Ganji husningmu yotur yo ikki ajdar ustida?

Chehra ochtingmu bu tadbir-la chamanda, toldilar,
Xasta bulbul gul uza, qumri sanovbar ustida?

Xoki poyingni taloshur ko‘zga el surmoq uchun,
Ore, har yerda hujum aylar gado zar ustida.

Ikki jodu nargising solg‘ay jahong‘a fitnalar,
Bo‘lmasa uryon qoshingdin ikki xanjar ustida.

Nozanin, sen tashla istig‘noni, xud bori garon,
Noz debosi nazokat xulq paykar ustida.

Furqatiy, qosh-u ko‘zingdin fitnalar ko‘rdi bale!
Sho‘rish o‘lmoq rasmdur oy tug‘sa axtar ustida.

* * *

Bir qamar siymoni ko‘rdim baldai Kashmirda,
Ko‘zlari masxur-u yuz jodu erur tasxirda.

Zarra-zarra zar sochar boshig‘a har kun oftob,
Subh kelgach, kecha yetib chashmai iksirda.

Bir ko‘rib chohi zaqan[1] Horut ila Morut ikov,
Chohi Bobil ichra qolmishlar bo‘lak tadbirda.

Lam’ai qiyg‘och ko‘zidin aning barqi nigoh,
Tezlik javharlari gar bo‘lsa har shamshirda.

Qoshi uzra xolining asroridin bir nuqtadur,
Surai, “Nun” o‘qudim payvasta har tafsirda.

Forig‘ ermas hech kim ul dilraboning ishqidin,
Zulfiga dilbastalig‘ har bir juvon-u pirda.

Aydim: “Ey, jon ofati, zulfingga bo‘lmishman asir!”
Aydi: “Bu savdoni qo‘y, umring o‘tar zanjirda!”

“Nuqta lab ustida bejodur”, dedim, aydi kulib:
“Sahv qilmish kotibi qudrat magar tahrirda”.

Aydi: “Ey bechora, qilding na uchun tarki vatan?”
Man dedim: “G‘urbatda Furqat bor ekan taqdirda!”

[1] **Chohi zaqan** — iyak chuqurchasi.

* * *

Har kecha ishqingda, jono, ko‘zlarim qon yig‘ladi,
Lola qon yutti-yu, ohu-yi biyobon yig‘ladi.

Kechalar anjum emas yerga to‘kilgan onqadar,
Rahm etib, holim ko‘rub, garduni gardon yig‘ladi.

Abri boron ermas erdi ul bahor ayyomida,
Ro‘zgorim sangdil baxtimg‘a chandon yig‘ladi.

Yuz ila ko‘zing g‘ami ovora qildi nechakim,
So‘z ishimdin o‘rtanib, sha’mi shabiston yig‘ladi.

Keldi qosid, ko‘rdi sarg‘org‘on uzorim hajridin,
Nomani bermasdin avval tortib afg‘on yig‘ladi.

Yozdi, har lafzin o‘qurda qon bo‘lub oqti jigar,
Ko‘nglum o‘rtandi, bag‘ir ezdi, hamon jon yig‘ladi.

Sochrag‘on sahni falakka har taraf ermas shafaq,
Furqatingda qon sochib, shomi g‘aribon yig‘ladi.

* * *

Jono, jamolingiz gul ruxsor muncha yaxshi,
Nozik qadingga, hay-hay, raftor muncha yaxshi.

Tanburni qo'lga olib chertgandagi navolar,
Savti tarannum ila gulyor muncha yaxshi.

Xatm o'ldi bu jahonda siz birla nuktadonliq[1],
Ovozi xush, ajoyib guftor muncha yaxshi.

Gul barra rumiy ko'ylak behad yarashti sizga,
Ham shohiy to'nda gul-gul zangor muncha yaxshi.

Ja'mi libos zebo ko'rundi bir-biridin,
Bosh ustida kumushlik tummor muncha yaxshi.

Oshiq yiroqqa tushsa ko'ngli mushavvash[2] o'lg'oy,
Har kun ko'rub turorga diydor muncha yaxshi.

Ey nozanin parizod, bir yo'l tabassum ayla,
Furqat sanga bo'lubdur xushtor, muncha yaxshi.

[1] **Nuktadon** — ma'noli so'zlar aytuvchi.

[2] **Mushavvash** — tashvishli, besaranjom, ko'ngli tashvishli.

* * *

Elga keldi to bahor ayyomi gar bo'ston isi,
Yor ko'yidin kelur menga guli rizvon isi.

Gul isin istab hamisha bormog'um, ahboblar,
Yetkurur har dam mashomimg'a[1] sabo jonon isi.

Ul sanam qayda yuz ochib xat namoyon aylasa,
To qiyomat kelgay ul yerdin gul-u rayhon isi.

Gul xazon etmoqqa kelsa bog' aro bodi samum,
Bulbuli dil xastag'a andin kelur hijron isi.

Ul sitamgar dardi ishqi bag'rim ezdi onchakim,
Yig'larimdin yer yuzini tutdi oxir qon isi.

Kimga bersa mohro'yim mujdasin hijron tuni,
Sonuram andoqki, ul berdi o'likka jon isi.

G'ussadin qon yutmayin naylay, jahon gulzoridin,
Topmasam sho'rida Furqat, bir guli xandon isi.

[1] **Mashom** — dimog', hidlash, burun.

* * *

Kelsa kulbamga o‘shal berahm zor o‘lturgusi,
Kelmasa, kelguncha, dardi intizor o‘lturgusi.

Davlati diydor gar gohe muyassar bo‘lmasa,
Mehnat-u, javr-u, jafoyi ro‘zgor o‘lturgusi.

Eyki, dersan: o‘lg‘osen ko‘yida oxir, ey rafiq!
Rozimen, billah, agar bilsamki, yor o‘lturgusi.

O‘zni o‘ltursam, agar men birla o‘lturmas dame,
Doimo ag‘yor ila, kelsam, nigor o‘lturgusi.

Bo‘ldi korim bori g‘am ostida jon urmoq mudom,
Vahki, har kun mehnat-u, bu kor-u bor o‘lturgusi.

Mastmen bu kecha, soqiy, lutf ila o‘ltur meni,
Varna qo‘ysang tonglaga ranji xumor o‘lturgusi.

Bir kecha borg‘um deyub, har kechalar tong otqucha,
Furqatiyni aylabon ummidvor o‘lturgusi.

* * *

O‘ldum sog‘inib, ey ko‘zi xummor, kesang-chi,
Bir lutf-u karam aylayub, ey yor, kesang-chi.

Javr-u sitaming tokay erur jonima kelmay,
Ey zolim-u, berahm-u jafokor, kesang-chi.

Tochand bo‘lay muntazir, ey yor, yo‘lingda,
Oqardi boqib diydai xunbor[1], kesang-chi.

Shahlo ko‘zingni yodida bemor bo‘lubman,
So‘rmoqqa mani holimi bir bor kesang-chi.

Vaslingga yetib, bir dili xushnud bo‘lolmay,
Furqatni erur siynasi afgor, kesang-chi.

[1] **Xunbor** — qonli yosh yog‘diruvchi, qon yig‘lovchi.

* * *

Ishq otashi qachonkim, man bemajola dushti,
Savdoyi dardi hijron boshimg'a sola dushti.

Avroqi dilda, jono, jon orasinda erdi,
Qadding alif misoli yozildi vola dushti.

Dildo'z tiyri mijgon otganda yo qoshingdin,
Yozdi bag'irni, ammo jonga qadola dushti.

Lozim bilib o'zina o'lmoqni poymoling,
Kirding chamanga, gullar yerga uyola dushti.

Xizr ichmay obi-hayvon tark etti orzusin,
Ko'zi qachon xating-la obi zulola dushti.

Ustodi ishq yozdi har dilrabog'a sarxat,
Inshoyi nuktadonliqsan xushmaqola dushti.

Nogah samandi nozing javlon verub hamisha,
Furqat ko'zini andin gard iktihola dushti.

* * *

Anbar xating na tanho shavqi xayola dushti,
Dashti Xo'tanda balkim mushkin g'izola dushti.

Ettim fido dil-u jon, asrab turolmadim hech,
Ko'z xonaqahda ul kun ruxsori ola dushti.

Davron elina qismat qilg'onda bodai vasl,
Ban toli'i zabung'a xoli piyola dushti.

Lol andalib-u, qumri qadd-u, yuzingni ko'rgach,
Sarve xijolat ichra, gul infiola dushti.

Xalqeki xurdadondur[1], og'z-u beling nishonin,
Bir nuktasin topolmay ko'b qil-u qola dushti.

Etdi qadim xamida zolim falakni javri,
Bois o'shal yuz uzra fikrim hilola dushti.

Nomam yetursa qosid, ul lahza hasratingdin,
Bemori hajri Furqat, kel, na'zi hola dushti.

[1] **Xurdadon** — chuqur bilimdon, nuktadon.

* * *

Yuz ochib, qilsang agar sayri guliston, aylanay,
O‘zni poyandoz etar gul birla rayhon, aylanay.

Lutf-u ehson aylagil, yo‘qlab duogo‘ qullaring,
Husn iqlimida sen davlatli sulton, aylanay.

Yetkurub vaslingg‘a emdi shodkom etsang netar?
O‘rtadi jon-u dilimni dog‘i hijron, aylanay.

Ikki hindudur ko‘zing qilg‘onda xanjarbozlik,
Hech biri topmas omon, gar bo‘lsa ming jon, aylanay.

Tun ichida kulbama yuzlansang, ey gul, beniqob,
Bo‘lmagaymu muzmahil[1] ul mohi tobon, aylanay.

Sunbulingni tor-toridin sabo ilki sahar,
Ko‘nglum avroqini ko‘b qildi parishon, aylanay.

Hasrati la’ling qilibdur g‘unchadek bag‘rimni qon,
Yig‘lamoqdin bo‘ldi ko‘z monandi ummon, aylanay.

Ko‘zlarimni maqdaming tuprog‘idin to‘ldirmading,
Furqating ko‘nglida qoldi muncha armon, aylanay.

[1] **Muzmahil** — yo‘q bo‘lgan, ko‘zdan g‘oyib bo‘lgan.

* * *

Sen kabi, ey sho‘x, bir jon ofati jonon qani?
Ishvada oshubi dahr-u, fitnai davron qani?

Istasam og‘zing kabi bir g‘unchami gulshanda bor?
Ko‘zlaringdek nargis-u, xatting kabi rayhon qani?

Jo‘shi husningdek nazoratlik erur qaysi chaman,
Qomatingdin sarv bo‘lgan gulshani imkon qani?

Bel-u, og‘zing hasratida bo‘ldi maskan tang-u, tor,
Turgali bu yerda menga sabr ila somon qani?

Deb eding: o‘lganda ham ruhingga aylarman vafo,
Voykim, buzding tiriklikda, o‘shal paymon qani?

So‘rgali g‘amdiyda holim notavon ko‘nglum uchun,
Baytul-ehzonimg‘a bir kun bo‘lganing mehmon qani?

Ro‘zg‘ori tiyra ham telba soching savdosidin,
Furqatiy oshuftadek bir umr sargardon qani?

* * *

Ohkim, rahm aylamas holimga jononim meni,
Kuydi bu hasrat o'tida kuymagan jonim meni.

Yig'lamaymu go'shai zulmat aro tong otqucha,
So'rmasa bir tun kelib sha'mi shabistonim meni.

Boshima savdo tushib, oshufta hol o'lmay netay,
Jilvagar bo'lsa o'shal kokul parishonim meni.

Orazi gul, sunbul, ko'ylagi bargi suman,
Xil'ati ra'no, bo'yi zebo gulistonim meni.

Garchi o'ldim ishqida, bir zarra parvo aylamas,
Ul tag'ofulpesha, istig'nochi xoqonim meni.

Ey musulmonlar, ikki kofir ko'zi bedodidin,
Qolmadi jon-u, ko'ngulda sabr-u, somonim meni.

Quvlog'ondin ko'yida o'lturg'oy erdi, koshki —
Ostonig'a to'kilsa bir qoshiq qonim meni.

Dardima bechoralig'din chorae qilmasmudi,
Bo'lsa erdi Toshkandda bir qadrdonim meni?

Furqat, ul mahvash firoqida yetar gardun sari,
Kechadin to subh chekkan oh-u afg'onim meni.

* * *

Oshiqa cho‘x aylading zulm ila bedod, aylanay,
Javr etarga olding o‘xshar xatti irshod[1], aylanay.

Bora-bora bemuruvvatliklar aylab oshkor,
Bir yo‘li berding vafo rasmini barbod, aylanay.

Sendin o‘rgansun bugun Layli-yu Shirin nozni,
Ishqni mendin yana Majnun Farhod, aylanay.

Donai xoling sochib, dom etti zulfing torini,
Murg‘i dilni tutkali ul husni sayyod aylanay.

Bir qo‘lida xanjar-u, bir qo‘lda tiyg‘i obdor,
Ko‘zlaring qatlim uchun monandi jallod, aylanay.

Bu kamol-u, bu malohat g‘ayr imdodi[2] emas,
G‘ozaga muhtoj emas husni xudodod, aylanay.

Gul yuzingdin, g‘uncha og‘zingdin chamanda munfail,
Qomating sharmandasi sarv ila shamshod, aylanay.

Har kecha bazmingda ayru tashqarida chun zubob,
Qilmisham tong otkucha afg‘on-u faryod, aylanay.

Umrlardur yetmayin vaslingg‘a, Furqat, qon yutib,
Hasratingda bo‘lmisham, mag‘mumi[3] noshod, aylanay.

---

[1] **Irshod** — yo‘l ko‘rsatish.

[2] **Imdod** — yordam, ko‘mak, madad.

[3] **Mag‘mum** — g‘amli, alamli, g‘amgin bo‘lmoq.

* * *

Yona bir kelg‘um debon cho‘x intizor etting meni,
Kokulung yanglig‘ parishon ro‘zgor etting meni.

Ko‘rsatib ra’no yuzing olding qaror-u sabrimi,
Oqibat ko‘zdin solib beixtiyor etting meni.

Bevafolig‘ rasmini, ey sho‘x, bunyod aylading,
Ul raqibim oldida ko‘b sharmsor etting meni.

Nim nigohe aylabon qilding g‘uborimni baland,
Ko‘chalarda yig‘latib Majnunshior etting meni.

Ey pari paykar, menga javr-u jafomu qilmading?
Kulfat-u, dard-u balolarga duchor etting meni.

Vodiyi furqatda qoldim besar-u somon bo‘lub,
Ko‘chai hayratga solib dilfigor etting meni.

Tashnalab qolgach talab dashtida, Furqat, zorman,
Haddinosha, voykim, ranji xumor etting meni.

* * *

Gul bara ko‘ylakka kiyding kamzihuri qirmizi,
Ikkisin zebolig‘i o‘tlara yondirdi bizi.

Vasl aro holimni so‘rsang, shul erur maqsudi dil,
Deb edim: jon topshiray gar teksa boshimg‘a tizi.

Sen kabi shahg‘a na haddim borki, bo‘lmog‘ ro‘baro‘,
Qullaringga arzi hol aytay agar kelsa kezi.

Muntazirlikdin oqardi, bo‘ldi nobino ko‘zum,
Ravshan etsun, aylanay, lutf et, ayog‘ingning izi.

Zor ko‘nguldin jamolingni xayoli ketmasun,
Zindalik menga mahol o‘lg‘ay vagarna onsizi.

Shevai noz-u tag‘oful birla Furqat o‘tig‘a,
Kuydurub, xokistarim sovurding ey qozi qizi.

MASNAVIYLAR

Deyin so‘z ilmni xosiyatidin,
Bayon aylab, aning mohiyatidin.

Bu so‘zni go‘shi bor odam eshitsun,
O‘zida hushi bor odam eshitsun!

Ko‘paydi ilm ila hikmat jahonda,
Ko‘rung o‘tgan zamondin bu zamonda.

Sikandarkim jahong‘a shoh erdi,
Sipah anjum, falak xirgoh erdi.

Nakim ofoq arodur bahr ila bar,
Hama o‘lmish edi anga musaxhar.

Yurub barcha ani hukmi yo‘lig‘a,
Nizomi mamlakat oldi qo‘lig‘a.

Anikim, lashkari olamg‘a to‘ldi,
Nizomi zabt hikmat birla to‘ldi.

Bor erdi to‘rt ming sohib zakovat,
Hamisha xizmatida ahli hikmat.

Alar har qaysi monandi Arastu,
Xiradda balki Aflotung‘a qarshu.

Alar ichra edi lekin Falotun,
Jami ilm-u hikmat birla afzun.

Qilib bir necha hikmat oshkoro,
Ajalga qilg'udek bo'ldi madoro.

Necha ilm-u, necha fan, andin ijod,
O'lub xosiyatidin olam obod.

Sikandar amri birla hikmat oyin,
Qilib oyina andog'kim jahonbin.

Jahonda xoh bahr-u xoh bardur,
O'shal oyina ichra jilvagardur.

Agar qilsa jahonbinliq tamanno,
Boqib andin qilur erdi tamosho.

Ko'rar erdi qilib anga nazora,
Vale yo'q erdi so'zlashmoqqa chora.

Ilojin ahli hikmat qilmadi hech,
Qilurdi, lek ilmin bilmadi hech.

Erur shahlarga lozim davlatidin,
O'lur voqif raiyat holatidin.

Xabardor bo'lsa doim mamlakatdin,
Berib noma, olib so'z har jihatdin.

Yiroq yerlarga yozmoq bo'lsa maktub,
Borib kelguncha o'tmishdi zamon ko'p.

Qolib shahlik ishi ta'xir andin,
Bo'lur erdi base dilgir andin.

Zihi davroni farxo'nda nishoni,
Zamon o'ldi o'rusiya zamoni.

Taraqqiy qildi kundan-kunga davlat,
Bo‘lub qonun ila rasmi hukumat.

Toparg‘a ilmni aylar jadallar,
Topib, aylab aning birla amallar.

Bo‘lib shul asr hikmat ahli hadsiz,
Fatonat, ahli donishmand adadsiz.

Ulum-u fanda Aflotundan afzal,
Kamoli aql-u donish birla akmal.

Necha ish ilm ila bunyod qildi,
Xususan telegrom ijod qildi.

Ki bir soatda ul sohib hunarlar,
Uch oylik yerdin olg‘aylar xabarlar.

Agar mag‘ribda bo‘lsa kimsa sokin,
Ani bilmoq erur bir kunda mumkin.

Nizom o‘ldi sipohilik ishig‘a,
Yetib ham manfaatlar ko‘p kishig‘a.

Xususan narxig‘a ahli tijorat,
Yiroq yerdin berur anga bashorat.

Masalkim, Toshkanddin olsalar mol,
Bilish lozimki, Maskovda na minvol.

Yuborib yo borib behuda topsa,
Bu savdosida, ya’ni sud topsa.

Bo‘lurlar telegrom ila xabardor,
Bilurlar na’f yoinki zarar bor.

Bu hikmat Rusiyaning davlatidin,
Bo'lubdur ilmni xosiyatidin.

Sikandar davlatida ahli Yunon
Filotun ham Arastu birla Luqmon.

Fununi telegromi bilmadilar,
Magar ilmini hosil qilmadilar

Kerak odamg'a qilg'oy ilm hosil,
Jahondin o'tmagay to mahzi johil.

Jahon bast-u kushodi ilm birla,
Nadur dilni murodi ilm birla.

Ko'ngullarni sururi ilmdandur,
Ko'rar ko'zlarni nuri ilmdandur.

Kerak har ilmdin bo'lmoq xabardor,
Bo'lar har qaysi o'z vaqtida darkor.

Darig'o, Furqatiy, beilm qoldim,
O'zimni jahl zindonig'a soldim.

Toshkand shahridagi vistavka xususida

Uchunchi kun yana qildim tamosho,
Nakim vistavkada bordur saropo.

Bo‘lub rahbar menga o‘z ixtiyorim,
Banogah bir taraf tushdi guzorim.

Buxoro xalqini erkan makoni,
Turub qildim nazora bir zamoni.

Sipohiygarchilik asbobidin ko‘b,
Alardur bir-biridin dilg‘a marg‘ub.

Dubulg‘a birla gurzi-yu kamarlar,
Sovut choroyna-yu yaxshi siparlar.

Qilichlar barcha o‘tkur isfahoniy,
Iki damlik pichoqlar ardavoniy.

Ipaklik ish ham nafti-yu atlas,
Chunonchi beqasa, shohi-yu, adras.

Yana duxoba birla tos-u kimxob,
Hama zardo‘zi-yu, zarrin-u, zartob.

Janobi oliyning navkarlaridin,
Kelib ham o‘n adad askarlaridin.

Yana Urganch elidin beadad mol,
Kelibdur abrishimlik ish bila shol.

Gilem-u, chekman-u, mo‘yin kaloba,
Tag‘i ot-aslaha birla aroba.

Olachabof ila ohangar usto,
Turubdur ishlashib anda hamono.

Ko‘rindi bir tarafda teva-yu ot,
Basi qilmoqqa arziydi mubohot.

Turubdur bir yarim gaz qaddi toti,
Ani so‘rsam, dedi: qashqarning oti.

Yuz ellik so‘m baho qilmishlar oning,
Deyurlar: boz, kam qo‘ymish bahoning.

Yana bir yerda ko‘b odam turarlar,
Aroda katta maydon ot ko‘rarlar.

Zovutda tarqagan Ivanov oti,
Hama tozi najod onlarni zoti.

Adadni qilmadim, lekin shumora,
G‘unon erkan, barisi rangi qora.

Alardek yaxshi ot kamdur jahonda,
Buxoro, Xeva birla Turkmonda.

Yana mundin bo‘lak ham yaxshi ko‘b ot,
Bo‘lak rang-u, bo‘lak asl-u, bo‘lak zot.

Chiqorib o‘rta yerda ko‘rsaturlar,
Xaridori agar bo‘lsa soturlar.

Yana ko‘rdim bahoyim jinsi bisyor,
O‘luk ba’zi, tirikdin ba’zisi bor.

Tirikdin: teva, toti, ot ila xar,
Kiyik birla ho‘kiz har qaysi par-par.

O‘luklardin palang-u, xirs-u, to‘ng‘uz,
Bug‘i boshi butog‘liq anda munguz.

Yana tulku, bo‘lak necha bahoyim —
Vujudidur tirik hay’atda qoyim.

Bu yanglig‘ ko‘b ekan darrandalardin,
O‘luk, ba’zi tirik parrandalardin.

Tovuq, kabk-u hular, ham g‘oz, o‘rdak,
Tazarvu turna, laylak birla churrak.

Yana to‘ti-yu qumrilar qafasda,
Turubdur ovchi qushlar ham chakasda.

Chunonchi, bahri lochin barcha solgu,
Necha tuyg‘unu burgut ham itolgu.

Qulog‘i bir qarishlik tozi itlar,
Erur voqif anga ovchi yigitlar.

Yana bir necha tozi bo‘yni bog‘liq,
Yurushda barchasi ohu ayog‘liq.

Shikor asbobi alqissa, mukammal,
Bayonin qilmadim, lekin mufassal.

Erur oqilg‘a bu mujmal kifoya,
Suxan tafsili varna benihoya.

Zaboni xomani so‘z qilsa taqrir,
Gazetda aylaram minba’d tahrir.

NAG‘MA VA NAG‘MAGAR VA ANING ASBOBI VA UL NAG‘MA TA’SIRI XUSUSIDA

Xirad go‘shin qiling, ahboblar, boz,
Qilur kilkim nayi bir nag‘ma og‘oz.

Yeturub bir payomi nag‘ma sizga,
Bayon aylay maqomi nag‘ma sizga.

Na yerda nag‘malik bo‘lsa tamosho,
Qilur manzuma birla oni insho.

Tamosholarki, avval necha yozdim,
Gazet birla ani sizga chiqozdim.

Xusus ikki tamosho avval, oxir,
Biri nag‘ma, biri erdi teatr.

Yana necha tamosholarni ettim,
Ajoyib nag‘malarni ko‘p eshittim.

Ekandur nag‘mai Rusiya digar,
Ani asbobi ham g‘ayri mukarrar.

Mug‘anniy aylasa gar nag‘ma og‘oz,
Chiqar har qaysidin bir boshqa ovoz.

Eshitmoqqa hama xomush o‘lurlar,
Base lazzat topib behush o‘lurlar.

Musulmon ichra, lekin nag‘ma ko‘p bor,
Chunonchi gijjak-u, tanbur-u, setor.

Dutor-u arg‘anun, qonun ila rud,
Rubob-u doira, chang-u, nay-u ud.

Vagarna ko‘p erur nag‘ma maqomi,
Erur “Matla’”da mazkur oni nomi.

Na sud ammoki yo‘q ustodi komil,
Yemas ta’limi ham oning taomil.

Agar bo‘lsa raso nag‘ma kamoli,
Uchar qushlar — tushar, bor ehtimoli.

Nasim ohista to‘xtab go‘sh tutqay,
Chaman sayrini bilkulli unutqay.

Eshitsa bog‘ aro qumri-yu bulbul,
Ikov ko‘nglig‘a tushkay sho‘r-u g‘ulg‘ul.

Misoli buldur andog‘ nag‘malarni,
Kumushlik suvlaridek chashmalarni.

Tagini mayda tosh tutgang‘a o‘xshar,
O‘shal toshdin sekin o‘tgang‘a o‘xshar.

Va yo daryoni bir mavji latifi,
Havo birla bo‘lur chunkim radifi.

O‘shal daryoni mavjidur tabassum,
Qatiq kulgusi qilg‘onda talotum.

Aningdek nag‘malar ham jo‘sh aylar,
Tabassumdek gahi xomush aylar.

Mug‘anniy nag‘ma birlan qil-u qolin,
Xususan bildirur har na’v holin.

Biror odam agar g‘amboda bo‘lsa,
Va yo g‘am qaydidin ozoda bo‘lsa.

Va yo bo‘lsa o‘shal kulfat kashida
Tiriklikdin sami mehnat chashida.

Va yo bad tole’idin bo‘lsa g‘amnok,
Va yo iqboli pastidin alamnok.

Va yo bo‘lsa dilida sho‘ri motam,
Bo‘lub ul sho‘r ila ranjuri motam.

Va yokim bo‘lsa anda shodmonliq,
Falak davrida topib komronliq.

Va yo bir dilrabog‘a oshiq o‘lsa,
Anga na so‘z degoni loyiq o‘lsa.

O‘shal ahvolni aylab bayon ul,
Qilur majlisdagilarg‘a ayon ul.

Dilida har na so‘z o‘lsa nihoniy,
Degay nag‘ma zaboni birla oni.

Eshitganlarni holin bilurlar,
Bag‘oyat nash’alar hosil qilurlar.

O‘zing‘a tushti bir kun ushbu ahvol,
Bor erkan nag‘ma oning oti royol.

Eshittim bir qiz anda bahri hojot,
Qilur nag‘ma tili birla munojot.

Hazin ovoz ila yig‘lab Xudog‘a,
Karam qil der meni bag‘ri adog‘a.

Maqomini qilur har nav bunyod,
Gahi qattig‘ fig‘on, gah narm faryod,

Gahi naydek chekar ohista nola,
Keturur goh navo mashqin xayola.

Mango ul nag‘ma andoq qildi ta’sir,
Jigardin o‘tti go‘yo tez bir tiyr.

O‘shal dam bo‘ldi holotim digargun,
To‘lub toshti yurak monandi Jayhun.

Ko‘ngul erdi agarchi sangi xora,
Erib ko‘zdin sirishk urdi favora.

Mango mustavli o‘ldi girya ul dam,
Giribon o‘ldi ko‘z yoshim bila nam.

Man anda bildim ul ko‘ngulni holin,
G‘am-u, shodi-yu, ummid-u maolin.

Tilar ko‘nglum tag‘i ul yerga yetsam,
O‘shal qizning munojotin eshitsam.

Yetib ul nag‘madin jonimg‘a rohat,
Zamoni o‘lturub topsam farog‘at —

Ki, oning nag‘masi jismimda jondek,
Yurur ta’siri ham rag[1] ichra qondek.

Ayo Furqat, quloq sol zabt etib hush —
Ki, shoyad naslimiz solg‘ay debon go‘sh.

Bas emdi, Furqatiy, nag‘ma bayoni,
Ajal bersa agar xatti amoni.

Yuqorida degan ikki tamosho,
Gazetda aylayin minba’d insho.

[1] **Rag** — tomir.

Shoir ahvoli va she'r mubolag'asi xususida

Yozay nuktai shoir ahvolidin,
Bayon aylabon qiyl ila qolidin.

Na xush ko'rsa olamda ta'rif etar,
Ani yaxshi so'z birla tavsif etar.

Agar o'lsa har yerda bir yaxshi joy,
Muzayyan imorat va yokim saroy.

Va yo o'lsa bir bog'i oliy maqom,
Kishi bo'lsa xursand anda mudom.

Va yo o'lsa sahroyi domanvasi',
Ko'rub bo'lsa har kimni ko'ngli rafi'.

Va yo fazl ahliki, topgan kamol,
Va yo odame bo'lsa sohibjamol.

Alarning xususida shoir hamon,
Demay yaxshi so'zni, nechuk der yomon.

Chunonchi, sayohatda Sa'diy yurub,
Kitobig'a yozdi ko'p ishlar ko'rub.

Safar ayladi necha yil dahr aro,
Qilib necha kun sayr etar shahr aro.

O'shal shaharlarda tamosho qilib,
Turub necha kun anda ma'vo qilib.

Ko‘rub har nechuk mardum oyinini,
Alar rasm-u qonun ila dinini.

Taajjub qilib yozdi gah nasr ila,
Gahi nazmi tul-u, gahi qasr ila.

Kimi ko‘rmagan ishga qilsa ajab,
Birovdina jabdur anga besabab.

Chunonchi, biz ellar musulmon eli,
Xususan, biroz xalqi Farg‘on eli:

Borib Rusiya shahrida turmagan,
Alar rasm-u tartibini ko‘rmagan.

Ko‘rub qolsa nogoh imkon o‘lub,
Taajjub qilur aqli hayron o‘lub.

Agar shoir odam tamosho qilur,
Taajjub ko‘rub, nazm insho qilur.

Balog‘at erur she’r oroyishi,
Agar bo‘lsa bir nuktagun joyishi.

Chunonchi, musulmoniya shoirlari —
Ki, she’r ilmig‘a yaxshi mohirlari.

Edi Hofiz-u Sa’diy, Firdavsi ham,
Uchov oti dahr ichra bo‘lg‘on alam.

Debon necha yulduzlardan baland,
Suxandon kishilarg‘a qildi pisand.

Balog‘at chu bir jang-u hangomada
Budur dedi Firdavsiy “Shahnoma”da:

“Z-sumi suturondar in fahm dasht,
Zamin shashshud-u osmon gasht hasht”.

Balog‘at bila ushbu so‘zlarni der,
Qachon osmon sakkiz-u olti yer?!

O‘shal bayt bizlarga marg‘ub erur,
Latofatlar anda base ko‘p erur.

Yozarmiz base shod bo‘lsa ko‘ngul
Va yo g‘amga mu’tod bo‘lsa ko‘ngul.

Na hol o‘lsa anga muvofiq qilib,
Yana ramz-u mazmuniga loyiq qilib.

Baharhol yaxshi so‘z bo‘lsa taqrir etib,
Qilurmiz bayon elga tahrir etib.

MUXAMMASLAR

Birodarlar, mani boshimg‘a tushdi bu nechuk savdo?
Qarorim yo‘q, quyun yanglig‘ na manda manzil-u ma’vo,
Biyoboni taxayyurda qolib man vola-yu tanho,
Na yer-u hamdamim bordur, na qo‘lda hosili dunyo,
Zamona purxatar, dushman adadsiz, do‘st beparvo.

Man-u devona ko‘nglum bir-biriga turfa moyildur,
Ki, jon bo‘yniga tori zulfidin yuz ming salosildur,
Ajab bebok, berahm-u ajab xunrez qotildur,
To‘kar qonin ibosiz har kishi nogah muqobildur,
Samandi noza mingach ilkida shamshiri istig‘no.

Niqobin go‘shasidin gul yuzi andak namoyondur,
Tamoshodin ko‘zim bulbul kabi sarmast-u nolondur,
Na husn-u, na latofatdur? Xaloyiq barcha hayrondur,
Na mushkin kokul ermish? Turrasi har yon parishondur,
Muattardur hamma go‘yo tutoshib anbari soro.

Jahona tushdi sho‘rish kechalar chekkan fig‘onimdin,
Va lekin ul pari ogah emas so‘zi nihonimdin,
Mani ajz-u niyozim shul erur oromi jonimdin:
Demaskim: “Hech nishon bormu bu rasvoyi jahonimdin?”
Kuyub kul bo‘lsa oshiq, aylamas bir zarra ham parvo.

Falak bedodgar boshimg‘a soldi bo‘yla savdoni,
Balo yanglig‘ musallat ayladi ko‘b sho‘r-u g‘avg‘oni,
Qayondin oshno qildi menga ul sho‘xi ra’noni,
Sitamgar, purjafo, nooshno bir mohi anqoni,
Solibdur zulmidin miskin ko‘ngulga g‘orat-u yag‘mo.

Falak baxti qaro, hasratda umrumni ado qildi,
Giriftori firoq aylab, bu g'amga mubtalo qildi,
Qilib bedodgarliklar, nigorimdin judo qildi,
Ul oy hajrig'a tashlab, bo'rilarg'a oshno qildi,
Nechuk hasrat, nechuk kulfat mani boshimg'adur barpo?

Falakdin shikva aylab dod-u faryod aylasam kamdur,
Yurakka xuni hasrat to'ldi-yu ikki ko'zim namdur,
Ki man mundog' uqubatda, raqibim shod-u xurramdur,
Rafiqim dard, yorim mehnat-u, anduh hamdamdur,
Kishi yo'q so'rg'udek, aftodaman: faryod-u vovaylo.

Falak kajravlig'idin jom-u ayshim yerga yaksondur,
Yutub xunobi hijron tah-batah bag'rim to'la qondur,
Parilar zulfi yanglig' xotirim doim parishondur,
Kecha ul oy firoqida ishim faryod-u afg'ondur,
Na xohish tushmagan bo'lsa g'arib-u xasta jonimg'o.

Falak, toqing buzulsun, ko'b balolarga duchor etting,
Birov ishqida anjaq notavon-u dilfigor etging,
Quloq solmay fig'onimg'a mani ko'b bemador etting,
Na qilsang qilg'il emdi, haddin osha intizor etting,
Turarga qolmadi toqat ko'ngul ham vola-u shaydo.

Falak, hasrat bilan oxir oyirding ul nigorimdin,
Ko'ngul mulkini sohib davlat-u ul shahsuvorimdin,
Ko'zim oqi qaro bo'ldi, qarolab intizorimdin,
Bu qayg'udin agar o'lsam, unar lola mazorimdin,
Ko'rarsiz, dog'i hijron bo'lg'usi ul loladin paydo.

Ko'rar kun bormu, yo Rab, qaytadin ul moh tal'atni,
Ani oldida yig'lab bir-bir aytsam dard-u hasratni,
Necha kun vodiyi hijronda chekkan ranj-u mehnatni,
So'rarmu hech kim aftoda bo'lgan zor Furqatni,
Birov ishqida rasvolig'da o'lgan bormu deb mundo.

* * *

Do‘stlar, aysh-u tarab, fasli bahor istar ko‘ngul,
Har kuni sahroda sayri lolazor istar ko‘ngul,
Aylamak har sori ohular shikor istar ko‘ngul,
Kabk raftorin ko‘rarg‘a ko‘hsor istar ko‘ngul,
Dog‘i xursand etgusi har neki bor istar ko‘ngul.

Gasht qilsang ahli donish bir necha ahbob ila,
To‘la bo‘lsa shishalar doim sharobi nob ila,
Gul yaqosi maskaning o‘lsa kanori ob ila,
Bodai gulrang tortib, o‘lturub odob ila,
G‘ussa dardin aylabon da’fi xumor istar ko‘ngul.
Mutribi xush lahjalar tanburini soz aylasa,
Ruhparvar bayt o‘qub, xirgohi ovoz aylasa,
Gohi “Miskin” mashqi-yu,
gohi “Chapandoz” aylasa,
Yetsa anjomig‘a ul, g‘ayrini og‘oz aylasa,
Gohi qonun, gohi g‘ijjak,
gah dutor istar ko‘ngul.

Munising bo‘lsa hamisha bir vafogustar nigor,
O‘zga fan etgan viqor-u aylagan tamkin shior,
Bo‘lsang oning vasli birla komron-u komkor,
Shavqing oshib, bo‘ynig‘a qo‘l tashlabon beixtiyor,
Bo‘sa la’lidin olib, qilmoq kanor istar ko‘ngul.

Tortibon gah g‘abg‘abidin, gah uzoridin o‘pub,
Islab-islab gohi ul chashmi xumoridin o‘pub,
Ko‘zni surtub gohi xatti mushkboridin o‘pub,
Gah giribonin ochib, ko‘ksida noridin o‘pub,
Bosh qo‘yub, tizig‘a etmak jon nisor istar ko‘ngul.

Solmasa charxi falak davronimiz ichra xalal,
Aylabon bog'i hayotimi: xazon bodi ajal,
Ko'rguzub yuz jahd, ayyomi bahor o'tmay jadal,
Sayr qilsak har bahor ayyomi sahro-yu jabal,
Chun ziyorat etmak as'hobi kibor istar ko'ngul.

Necha kun mahtob tunlarda olib tarfi chaman,
Tongg'acha gullar arosida tuzulsa anjuman,
Oy kabi qilsa munavvar bog' sahnin nastaran,
Yerg'a naqsh o'lsa sarosar soyai bargi suman,
Ustig'a qilmoq xino birla nigor istar ko'ngul.

Gar falak kajravlig'idin baxt yovar bo'lmasa,
Hamnishinim har kecha bir moh paykar bo'lmasa,
Orazidin bayt-ul-ehzonim munavvar bo'lmasa,
Muncha qilg'on orzulardin muyassar bo'lmasa,
Furqatiy, uzlat uchun bir kunji g'or istar ko'ngul.

* * *

Manam sho‘rida bulbul bo‘stonidin adashganman,
Yuzi gul, qomati sarvi ravonidin adashganman,
Dilim hajri-la qondur dilsitonidin adashganman,
G‘aribi ko‘yi g‘urbat, xonumonidin adashganman,
Va yo bir murg‘i vahshiy oshyonidin adashganman.

Netongkim, la’li yodi g‘unchadek bag‘rimni qon aylar,
Xayoli nargisi andoq nahif-u notavon aylar,
Nihoni kuydirib hajr o‘ti po‘st-u ustuxon aylar,
Tirikman zohir, ammo xalq bir odam gumon aylar,
Vagarna mahz surat, tanda jonidin adashganman.

Boshimda hush yo‘q, hayronlig‘imni boisi shuldur
Ketib aql-u xirad nodonlig‘imni boisi shuldur
Yetim qo‘zi kabi nolonlig‘imni boisi shuldur,
Xarob-u, besar-u somonlig‘imni boisi shuldur,
Ki bir sohib karomat ostonidin adashganman.

Biyobon gardiman Majnun kabi bir Layli yodida,
Bo‘lub oshufta zanjiri junun bast-u kushodida,
Qilurmish qat’rah har kimsa oxir o‘z murodida,
Yugursam har tarafga, ayb qilmanglar bu vodiyda,
Misoli telba itmen korvonidin adashganman.

Malomat o‘qlaridin dilfigor-u siyna chok oxir,
Yiqildi notavonliq birla jismi dardnok oxir,
Xudog‘a shukrkim, ketdim aning yo‘lida pok oxir,
Muhabbat o‘tida kuygach, bo‘lub bir to‘da xok oxir,
Fano bodi tegib nom-u nishonidin adashganman.

Qilib yod o‘tgan umrimni chaman obi ravonidin,
Muhabbatnomalarni yod olib savsan zabonidin,
Tikan zahmini anglab g‘unchani qonlig‘dahonidin,
O‘qub gul daftarini bir varaq fasli xazonidin,
Jahon bog‘ida bulbuldek fig‘onidin adashganman.

Sayodat charxini mehri, asolat avjini mohi,
Shahi mulki fano, kursi-yu shamsi arsh xirgohi,
Yetushmas xoki ko‘yig‘a Sikandar hashmatijohi,
Tariqat mulkini shohi, haqiqat sirrin ogohi,
O‘shandoq piri komil xonadonidin adashganman.

Ko‘ngulni el diyori ichra bedog‘, ibtihoj aylay,
Borib kimg‘a g‘ariblik birla arzi ehtiyoj aylay?
Na sud andinki, sharhi dostonim yuz quloch aylay?
Boshimg‘a tushti g‘urbat oftobi, na iloj aylay?
Falakni gardishidin-soyabonimdin adashganman.

Qadimni xam ko‘ronlar ishq bori mehnati derlar,
Tanimda notavonliq boisi g‘am kasrati derlar,
Qayonda bo‘lsa bir g‘urbatkashida ulfati derlar,
Zamona ahli muxlis, bu sababdin Furqatiy derlar,
Necha yildur bir oshubi zamonidin adashganman.

* * *

Dahr aro men chekmagan jabr-u jafolardin biri,
Qoldimu, ham ko‘rmagan dard-u balolardin biri,
Aylasam zohir agar ul ibtilolardin biri,
Toqat etmas dardi ishqqa mubtalolardin biri,
Sharhi g‘am qilsa, qani, bag‘ri adolardin biri.

Charxdek doim yuray ishqida sargardon bo‘lub,
Arsai olamni kezdim besar-u somon bo‘lub,
G‘am bilan o‘ldim asiri g‘ussai hijron bo‘lub,
Kor-u borim kechalarda nola-yu afg‘on bo‘lub,
So‘rmadi holi dilimni oshnolardin biri.

Paykarimni lashkari anduh pomol ayladi,
Rishtai jonimni hijron mehnati nol ayladi,
G‘am hujumi kasrati ko‘nglumni behol ayladi,
Qomatim ham hasrati monandai dol ayladi,
Fikrim abro‘si erur mijgon asolardin biri.

Bir sari bechoralig‘din kechalar bedor edim,
Bir sari el ta’nasidin siynasi afgor edim,
Chora topmay bu ikovga zor ham nochor edim,
Alg‘araz, doim bu qayg‘ular ila bemor edim,
Hamdamim erdi-yu rangim qahrabolardin biri.

Der edim: doim o‘zim olam aro xurram tutay,
Yor o‘lub aysh-u tarab ahliga tarki g‘am tutay,
Dahr aro ozodalar domonini mahkam tutay,
O‘zni boz ul dard-u kulfat ahlig‘a hamdam tutay,
Chunki hosil bo‘lmadi ul muddaolardin biri.

Mehribonlik pesha aylab, kimga ko‘rguzdim vafo,
Tarki mehr aylab menga qaddin fuzun qildi jafo,
Yo‘q erur mendek kishi toli’ zabun, baxti qaro,

Ming vafog'a bir vafo ham ko'rmadim olam aro,
Qolmamish bo'lg'oy magar aqli vafolardin biri.

Har taraf yeldim, yugurdim, xayfkim, layl-u nahor,
Sa'y qildim qaysi na'v o'lsa agar anjomi kor,
Har tariq o'lsa rizosi birla, bo'ldum ustuvor,
Garchi qildim xizmatida umr sarf-u jon nisor,
Holima bir boqmadilar ag'niyolardin biri.

Muddate dunyo uchun yeldim, yugurdim har taraf,
Hasratokim, bo'ldi nodonlig' bila umrim talaf,
Boradurman naqdi toatdin bo'lubon holi kaf,
Yo'l maxuf, emdi qadam qaydoq urarman "lotaxaf",
Deb, qo'limdan tutmaguncha rahnamolardin biri.

Kechti avqotim, darig'o, bo'yla nodonliqda, hayf,
Bandaman deb tutmayin amrini nodonliqda, hayf,
Nafsim o'lmasdin borodur nomusulmonliqda, hayf,
Qolg'on umrim ham o'tar emdi pushaymonliqda, hayf,
Zoyil o'lmay avvaliy kibr-u havolardin biri.

Munisim — toli' zabunlar, yor — baxti qoralar,
Hamdamim — tig'i alamdin siynasi sadporalar,
Bistarim — xoki mazallat, takya — sangi xoralar,
G'amgusorimdur — baliyyat dashtida ovoralar,
Mahrami rozim o'lub motamsarolardin biri.

Har kishi olamda ko'p cheksa jafoyi ishqini,
Bilsa rohat joniga ranj-u baloyi ishqini,
Podshohi husn charlab mubtaloyi ishqini,
Sarfaroz aylar emish bir kun gadoyi ishqini,
Shukrkim, ko'yida mendurman gadolardin biri.

Furqatiy bir sarvqomat ishqida bo'lgan asir,
Qumri yanglig' tortaram shavqida faryod-u safir,
Qosh ila mujgonidin yonimda tig', ilkimda tiyr,
Chug'zdek vayrona ichra garchi bo'ldim joygir,
Bir xabar olmas kelib paykar humolardin biri.

Ko'nglum istar o'lg'oli ul hur siymo birla do'st,
Ya'ni ul nozofarin-u jilvapiro birla do'st,
Telba qilmoq qasdida bo'lganda dono birla do'st,
Yor bo'lmoq tong emas, men zor-u rasvo birla do'st,
Kim, pari gohi bo'lur Majnuni shaydo birla do'st.

Og'zidin istab nishon birdam tinib o'lturmag'um,
To tirikmen, o'zga so'z bir nukta andin so'rmag'um,
Aylamay jondin guzar lofi muhabbat urmag'um,
La'lini sevdim, ko'zini qatlidin qayg'urmag'um,
Ne g'am o'lmakdin, kishi bo'lsa Masiho birla do'st.

Yo'q erur kunji xarobot ichra hech kimdin kamim,
Xisht-xum tojim erur, sing'on qadah jomi Jamim,
Mastlik, beboklik doim rafiq-u hamdamim,
Bodapaymo zohid o'lsa, dushman ermasdur g'amim,
Menki bo'ldim bir harifi bodapaymo birla do'st.

Gar bag'ir qoni nishoni ko'z yoshinda ko'p turur,
Oncha yoshlar boshima otqon toshinda ko'p turur,
Demangiz aqli junun nechun qoshinda ko'p turur,
Zulfi savdosi bu savdoyi boshinda ko'p turur,
Bo'lsa savdo aqli, tong yo'q, aqli savdo birla do'st

Yuz bahor o'lsunki, olam gulshani imkonida,
Yo'q erur bo'yi tarovat sunbul-u rayhonida,
Yotmoq andin xo'b emasmu hasrati zindonida,
Sarv qadlig', gul jabinlig' do'stni hijronida,
O'lg'omen ne gul bila, ne sarvi ra'no birla do'st.

Mehr banda orazig‘a, garchi ul Xovar shahi,
Bo‘ldi yer o‘pmoq ila charxi muallo xirgahi,
Chashmi ummidim yorur, fikr aylagach xoki rahi,
Hijridin olam qarong‘udur, vale yo‘q, dargahi,
Jilva qilsa, ul jamoli olamoro birla do‘st.

Yo‘q menga chekmak yotib ko‘yida g‘amdin yaxshiroq,
Xorliq hajrida bo‘lgan muhtaramdin yaxshiroq,
Javri oning o‘zgalar qilgan karamdin yaxshiroq,
Xizr yuz mehr ila tutgan jomi Jamdin yaxshiroq,
Tutsa may durdini yuz toroju yag‘mo birla do‘st.

Hirsi loyi birla qilma domaning oludaliq,
Olam ichra bo‘lmag‘ay mundin yomon behudaliq,
Senu tashvishi jahon-u ranj-u g‘am farsudaliq,
Bo‘lma dunyo do‘st, gar istar esang osudaliq,
Lek har ne qilsalar, bo‘l ahli dunyo birla do‘st.

Furqato, ich zahr ayog‘i kelsa, qonma do‘stdin!
Talxkom o‘ldim dema! Hargiz o‘sonma do‘stdin,
Tonimaslik qilsa ham harchand, tonma do‘stdin,
Ey Navoiy, necha dushman bo‘lsa, yonma do‘stdin,
Chunki bo‘lmushdur senga yuz ming tamanno birla do‘st.

* * *

Ko‘ngulda orzuyi vasli ul oliy janob aylab,
Yotib erdim firoq anduhi jonimg‘a azob aylab,
Banogah gul yuzig‘a, sunbuli zulfin niqob aylab,
Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulruh shitob aylab,
Xiromi sur’atidin yuz uza terdin gulob aylab.

Qilich tortib qinidin qon to‘karg‘a ul jafogo‘star,
Ko‘zini turkidin yag‘mo solib olamg‘asar to sar,
Nigah paykonin olmosindag‘i aylab angodarbar,
Qilib mujgonni shabro‘lar kabi jon qasdig‘a xanjar,
Belig‘a zulfi anbarboridin mushkin tanob aylab.

Agar chandi adoshib aqldin bo‘ldi tilim alkan,
Ko‘rub shavqi bila aylar edi jon-u dilim shevan,
Qarong‘u kechani kunduz qilib, ul sho‘xi jodufan,
Quyoshdek chehra birla tiyra kulbam aylagach ravshan,
Menga titratma tushti zarra yanglig‘ iztirob aylab.

O‘shal oqshom menga qandog‘ saodat oqshom erdi,
Kim, ul oromijon tanho kelib eshik ochib kirdi,
Dedim: mehnat tutib, ko‘zga ayog‘ing qo‘ysang arzirdi.
Kulub o‘lturdi-yu ilkim tutib yonida yer berdi,
Takallum ayladi har lafzidin durri xushob aylab.

Debon: “Ishqim yo‘lida sodiqim mensiz nechukdursan?
Chekib hajrim visoli loyiqim mensiz nechukdursan?
Vafoda o‘zgalardin foyiqim mensiz nechukdursan —
Ki, ey zori balokash oshiqim, mensiz nechukdursan?”
Men o‘ldum lol, so‘z aytolmayin mayli javob aylab.

Ko‘rub tanholig‘im g‘am go‘shasi ichra, dili kuydi,
Tarahhum birla ko‘nglum ovlabon shafqat qilib suydi,
Xumorim anduhidin jon yutmagimnim-u magar tuydi,
Chiqardi shishai may dog‘i bir sog‘ar to‘la kuydi,
Ichib tutti menga yuz na’v nozoso itob aylab.

Dimog‘ingg‘a nasimi vasl tegdimuki, jo‘sh etding,
Muroding g‘unchasi ochdimu, bulbuldek xuro‘sh etding,
Sabab na erdi, yakbora dog‘i o‘zni xamo‘sh etding,
Ki, ey Majnun, pari ko‘rding magarkim, tarki hush etding?
Takallum qil, bu sog‘arni ichib ra’fi hijob aylab.

Ishorat aylar erdi bo‘salar yuzdin, gahi ko‘zdin,
Og‘izni olma deb la’limdin aslo, ko‘zni ham yuzdin,
O‘zumni to‘xtatolmay bo‘yla lutfomizliq so‘zdin,
Ichib faryod etib tushdim ayog‘ig‘a ketib o‘zdin,
Meni, yo‘q bodakim, lutfi aning mast-u xarob aylab.

Netarsen, kecha yoring kelsa, Furqat, uyquni mundoq?
Kechurgil kechani bedorlikda har tuni mundoq,
Demushdur ishq ustodi: muhabbat yo‘suni mundoq,
Anikim eltgoy noz uyqusi ishrat tuni mundoq,
Navoiydek yotar to subhi mahshar tarki xob aylab.

Amiriy g'azaliga muxammas

Vasfing jahonni tutti, ey mahliqo, muborak,
Hur-u paridin o'tti, sad marhabo, muborak,
Jannatga nusxa etti bodi sabo, muborak,
Husnung kamoli yetti, ey mahliqo, muborak,
Oyinai jamoling topti safo, muborak.

Daryoyi mehring, ey moh, to kun-bakun toshurding,
Kokullarnng havosin sarhaddidin oshurding,
G'am xirmanin gulidin, ey gul, base chosh urding,
Xo'b o'ldi, orazingni oyinadin yoshurding,
Ey sho'xi mohtal'at, sharm-u hayo muborak.

Ushshoq qullaringdin tobora bora kechting,
Manman xumori vasling, san g'ayriga yetishting,
Ko'zni qarosi yanglig' el ichra tuhfa tushting,
Tun-kecha mast erding, kim birla boda ichting?
Gul jaybidin uzunggan bandi qabo muborak.

Ey sarvi xushxiromon, ziynat boshingda rang-rang,
Sakrat samandi nozing, dilg'uncha, bo'lma diltang,
Durji dahanda tishlar durdona birla hamrang,
To yuzga g'oza chekting, qonimni to'kti g'amzang,
Noz ilgida, nigoro, bo'lsun xino muborak.

Furqat kabi Umidiy kezdi chu tog'-u sahro,
Tavsif qildi vasfing ham shoiri Buxoro,
Ozodalar jamolin aylab edi tamosho,
Ul sarvqad xayolin qilding, Amir, insho,
Ta'bi salim birla fikri raso muborak.

Fuzuliy g'azaliga muxammas

Jon aro shakli alif ra'no niholing sadqasi,
Nutqiming ma'nosi ul shakkar maqoling sadqasi,
Yuz ko'ngul bir ko'nglunga kechmish xayoling sadqasi,
Ko'z qarosi ashki gulgunimda xoling sadqasi,
Ashki gulgunim guli ruxsori oling sadqasi.

Hajr aro kuydim butun boshdin ayog' uryon tanim,
Ban junun sahrosini Majnuniyam, uryon tanim,
Ishq o'ti ta'siridinmu o'lg'udek so'zon tanim,
Dudi ohimdin qarormish zor-u sargardon tanim,
Otashin ruxsor-u mushkini hiloling sadqasi.

Hech otash tez emaz ushshoq chekmish ohtak,
So'z hech dilso'z emaz bu nolai jonkohtak,
Et gadolar holina lutf-u tarahhum shohtak,
Shavqi vasling yondurub noqis vujudim mohtak,
Zarra-zarra oftobi bezavoling sadqasi.

Jon fidodur dardinggakim tan ani tortolmadi,
Zo'rayur tobora garchi dilda toqat qolmadi,
Charxkim boshimg'a juz savdoyi hajring solmadi,
Hajringga jonim fido o'lsunki, jonim olmadi,
Etdim oxir mujdai zavqi visoling sadqasi.

Yerda oqdi suv o'lub ko'zlar yo'lingda termula,
Bir kelib bu intizoring, holini so'rsang no'la,
Bayt-ul-ehzon ayladim Ya'qubtak ma'vo to'la,
Yusufi gumgashtakimdurki menga monand o'la,
Yuz anga monand husni bemisoling sadqasi.

Shayxi noqis xonaqohina qadam qo‘ymoq hamon,
Nuqs ko‘nglungg‘a yetib joning‘a aylaydi ziyon,
Maskan etdim, Furqatiy, mayxonadur dorilamon,
Afv edar xizmatda har taqsirimiz piri mug‘on,
Ey Fuzuliy, jonimiz aqli kamoling sadqasi.

Ta'bi xud muxammaslar

(Xudoyorxon tilidan)

Demish xon bir kunikim: davr-u davronlar qayon qoldi?
Sariri saltanatda hukm-farmonlar qayon qoldi?
Munaqqash xonalar, zarrin namoyonlar qayon qoldi?
Ravoq-u peshtoq-u qasri kayvonlar qayon qoldi?
Muqarnas, shahnishin zarkor ayvonlar qayon qoldi?

Bor erdi xizmatimda kecha-kunduz yaxshi hamdamlar,
Beliga bog'lag'on tillo kamar gulchehra mahramlar,
Misoli Bu Ali Sino, Falotunta'b odamlar,
Fatonat bobida olg'on qama xatti musallamlar,
O'shandog' aqli donishlar, suxandonlar qayon qoldi?

Edi oltun jilav, xizmatda hozir doimo qullar,
Turardi har taraf saf-saf siyosatliq yasovullar,
Chiqib sarboz mashqidin falak uzra g'alo-g'ullar,
Yurardilar taqib oldimda shotirlar jalojullar,
Nasim otlig' habash — arkimda darbonlar qayon qoldi?

O'shal "Afg'on bog'"im erdi Eram bog'ini taqlidi,
Tuzar erdim borib ul yerda doim bazmi jamshidi ,
Menga iyd erdi har kun, elni bo'lsa yilda bir iydi,
Borib ko'rmoq o'shal yerlarni yo'qtur emdi ummidi,
Aningdek jannatoso bog'-bo'stonlar qayon qoldi?

Muyassar erdi komimg'a hamisha yaxshi dilbarlar,
Bashar nasl-u malaksurat, parivash, hur paykarlar,
Binafsha -zulfi, rayhon— xatti gulchehra sumanbarlar,
Sihi qad, g'uncha og'izlik bahori nozparvarlar,
Nazokat bog'ida sarvi xiromonlar qayon qoldi?

Yugurub har taraf sarkorlar yuz ming shitob aylab,
Berurdilar xazinamg'a xirojini hisob aylab,

Kelurdilar chiqib har yilda sahrodin tanob aylab.
Xiyonat aylamay, bir harf yozsa iztirob aylab,
Necha zarrin qalam mirzoi devonlar qayon qoldi?

Falak chekti bu manzilg'a g'am-u anduh ila raxtim,
Boshimdin ketti davlat, yuz o'gurdi tole'u baxtim,
Havodis ayladi barbod oxir toj-u ila taxtim,
Ko'rubon qilsalar g'amxorlig' bu holati saxtim,
Maning-chun jon nisor etgan qadrdonlar qayon qoldi?

Kechardi ofiyatliq vartasida moh ila solim,
Surur-u shod edim, pobastai g'am erdi pomolim,
O'lub farxunda kundin kun saodat birla ahvolim,
Hamisha aylar erdilar duoyi umr-u iqbolim,
Valoyat hosil etgan yaxshi eshonlar qayon qoldi?

Sayohat aylar erdim har yili atrofni chandon,
Ki avval Marg'inon-u, Andijon-u so'ngra Shahrixon,
Nasimi "Shahrabot"imdin topar erdi farog'at jon,
Chiqib andin, shikor aylab borurdim Chust ila Koson,
Esiz, ul To'raqo'rg'on-u, Namangonlar qayon qoldi?

Faroz erdim, g'ariblikka tushub, oxir nishib o'ldum,
Farog'atdin ba'id-u, dard-u mehnatga qariyb o'ldum,
Zan-u, farzand-u, mol-u, mulk-u zardin benasib o'ldum,
Qolib mehnatda tanho, ham musofir, ham g'arib o'ldum,
U Nasriddinbek o'g'lum birla O'rmonlar qayon qoldi?

O'shal sarkardalarkim, erdilar har ishda sirdoshim,
Qani, mundog' yamon kunlarga tushtum, bo'lsa yo'ldoshim,
Havodis toshidin yuz pora bo'ldi, tutsalar boshim,
Dil-u jonim, qarindoshim, jigarbandim, emukdoshim,
Atodin yodgorim Bek Sultonlar qayon qoldi?

Boshingga tushsa ish, biz bosh beray deb lof urganlar,
O'zum birla hama davlatni ham rohatni ko'rganlar,

Shukuh-u shavkatimni balki mendin yaxshi surganlar,
Buzub ahdin, yamonlig‘ kunda mandin yuz o‘gurganlar,
Bukun ul ko‘rnamaklar, ahdi yalg‘onlar qayon qoldi?

Kishi Jamshid yanglig‘ yetti iqlimg‘a amir o‘lsa,
Faridunfar, Sikandar hashmat-u Xusrav sarir o‘lsa,
Na chora, bir kishini ilkida quldek asir o‘lsa,
Qani, qo‘l olgan eshonlar, bu kunda dastgir o‘lsa,
O‘qushgan “Hirz da’fi”ni duoxonlar qayon qoldi?

Qabul aylab Xudo bu tavba birla oh-zorimni,
Yana Farg‘onaga bir yo‘l yeturgaymu guzorimni,
Quvonsa notavon ko‘nglum ko‘rub yor-u diyorimni,
Duogo‘ylar ichinda yaxshi bilgan e’tiborimni,
Darig‘o, Furqatiydek diyda giryonlar qayon qoldi?

* * *

Ey ko‘ngul hushyor bo‘l, bu kecha yor o‘ynabtular,
Qoshi yo, kifrik sinon, ko‘zi xumor o‘ynabtular,
Zulf chin-chin mahjabin, zebo nigor o‘ynabtular,
Ahli majlisdin olib sabr-u qaror o‘ynabtular,
O‘zgacha raftor ila mastonavor o‘ynabtular.

Go‘yiyo kelmish Eramni bog‘idin zebo pari,
Yo magar Kashmirdin mahbubai afsungari,
Shohi to‘n, gulbarra ko‘ylak, gard berdi ma’jari,
Bu nazokat birla ul mahbublarni sarvari,
Sho‘xlig‘idin usruk-u beixtiyor o‘ynabtular.

Yo Rab, ul oy birla bo‘ldi bu kechakim, bodano‘sh,
Har zamon mayxona soridin kelur jo‘sh-u xuro‘sh,
Qolmadi sabr-u sukun ko‘nglumda ham boshimda hush,
Lahza-lahza un chekarman, bo‘lg‘omen gohi xamush,
Anda mendek xastadin aylab guzor o‘ynabtular.

Boda tobidin qizortib ul yuzi gulfomni,
Yetkurur har dam ko‘ngulga zulmdin payg‘omni,
Mast o‘lub, har yon surub durdi may oshomni,
Arbada oshib ushotib shisha birla jomni,
Haddin osha mahv o‘lub beixtiyor o‘ynabtular.

Masti beparvo bo‘lub sayri guliston aylamish,
Xanda aylab g‘unchalarni bag‘rini qon aylamish,
Zulfini torin ochib sunbul parishon aylamish,
Qumrini zor ingratib, bulbulni nolon aylamish,
Mundayin oshub ila ul guluzor o‘ynabtular.

El ichida husn aro sultonlig'in mashhur etib,
Dargohig'a bexirad ahlini vah manzur etib,
Ishqida mendek gadoni xastai mahjur etib,
Mahzi istig'no uchun bas o'zni eldin dur etib,
Azmi sahro aylabon mayli shikor o'ynabtular.

Goh-gohe yuz ochib xayli baloni qo'zg'otib,
Sha'bada og'oz etib, gah g'amza o'qini otib,
Mastlikdin gohe har yona samandin o'ynotib,
Jonsiton tig'ini gohe qon to'karga o'rgatib,
Furqatiy, maydon aro chobuksuvor o'ynabtular.

* * *

Kishi holimni bilmas mehribonidin adashganman,
Vatan ovoradurmen, do‘stonidin adashganman,
Vatansiz benavodurmen, makonidin adashganman,
G‘aribi ko‘yi g‘urbat xonumonidin adashganman,
Vayo bir murg‘i vahshiy oshyonidin adashganman.

Boshimda dam-badam bir kulfati digar makon aylar,
Dilimni har nafas anduhi digaroston aylar,
Falak payvasta tiyri g‘amg‘a ko‘ksumni nishon aylar,
Tirikman zohirida, xalq bir odam gumon aylar,
Valekin holi surat tanda jonidin adashganman.

G‘arib-u, bekas-u, sarsonlig‘imni boisi shuldur,
Hazin-u, xasta-u, giryonlig‘imni boisi shuldur,
Jahon ovorai hayronlig‘imni boisi shuldur,
Xarob-u, besar-u, somonlig‘imni boisi shuldur,
Ki, bir sohib karomat ostonidin adashganman.

Bo‘lubman oshiqi sho‘ridai bir nozanin dilbar,
Firoqida dilim g‘amnok, bag‘rim chok, chashmim tar,
Tanam xoshokidin shu’la urar ishq otashi yaksar,
Muhabbat o‘tida kuygach, bo‘lub bir to‘da xokistar,
Fano bodi tegib nom-u nishonidin adashganman.

Kezib dasht-u biyobon, bahr-u barlar yig‘lasam, tong yo‘q,
To‘kub yosh o‘rnig‘a ko‘zdin guharlar yig‘lasam,
tong yo‘q,
Malolat zohir etmong, hamsafarlar, yig‘lasam, tong yo‘q,
Chekib bulbul kabi afg‘on saharlar yig‘lasam,
tong yo‘q —
Ki, keldi fasli gul, men gulistonidin adashganman.

Menga kor etti davron inqilobi na iloj aylay?
Nasib o'ldi mazallat xo'rd-u xobi na iloj aylay?
Qolibmen tashna, yo'q bir kosa obi na iloj aylay?
Boshimga tushdi g'urbat oftobi na iloj aylay?
Falakni gardishidin soyabonidin adashganman.

Laqab har kimsaga mardum ba qadri odatiy derlar,
O'shal kim anjumanda o'tsa umri suhbatiy derlar,
Fano ko'yida kimki mu'takifdur xilvatiy derlar,
Zamon ahli bu boisdin taxallus Furqatiy derlar,
Necha yildur bir oshubi zamonidin adashganman.

MUSADDASLAR

Sayding qo‘yaber sayyod, sayyora ekan mandek,
Ol domini bo‘ynidin, bechora ekan mandek,
O‘z yorini topmasdan ovora ekan mandek,
Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mandek,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mandek,
Kuygan jigari bag‘ri sadpora ekan mandek.

Kes rishtanikim, qilsun chappaklar otib jasta,
Hajrida alam tortib, bo‘ldi jigari xasta.
Tog‘larg‘a chiqib bo‘lsun yori bila payvasta,
Kel, qo‘yma balo domi birla oni pobasta,
Hijron o‘qidin jismi ko‘b yora ekan mandek,
Kuygan jigari bag‘ri sadpora ekan mandek.

Besh kun seni davringda bechora xirom etsun,
Ohular ila o‘ynab, ayshini mudom etsun,
Yomg‘ir suvi to‘lganda, tog‘ lolani jom etsun,
Haqqingg‘a duo aylab, umrini tomom etsun,
Hijron o‘qidin jismi ko‘b yora ekan mandek,
Kuygan jigari bag‘ri sadpora ekan mandek.

Sargashta bu vodiyda bir boshig‘a rahm etkil,
Yo‘q toqati bandingga, bardoshiga rahm etkil,
Yig‘lab senga termulur, ko‘z yoshiga rahm etkil,
Rahm etmasang o‘ziga, yo‘ldoshiga rahm etkil,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mandek,
Kuygan jigari bag‘ri sadpora ekan mandek.

Tog‘da ochilib lola, yer sabza bahor o‘lsa,
Axir bu nechuk bedod, olam anga tor o‘lsa?

Chiqmay desa joyidin, uzlatda figor o'lsa,
Gar chiqsa banogohi, domeg'a duchor o'lsa,
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mandek,
Kuygan jigari bag'ri sadpora ekan mandek.

Bechorani zulm aylab, qo'l bo'ynini bog'labsan,
Har sori chekib — sudrab, o'ldirgali chog'labsan,
Ko'ksini jafo birla lola kabi dog'labsan,
Sot manga, agar qasding olg'uvchi so'rog'labsan,
Hijron o'qidin jismi ko'b yora ekan mandek,
Kuygan jigari bag'ri sadpora ekan mandek.

Yo'q hushi, pari tekkan devonaga o'xshaydur,
Ko'z yoshi yana to'lgan paymonaga o'xshaydur,
G'am seli bilan ko'ngli vayronaga o'xshaydur,
Furqatda bu Sa'dullo hayronaga o'xshaydur,
Hijron o'qidin jismi ko'b yora ekan mandek,
Kuygan jigari bag'ri sadpora ekan mandek.

* * *

Ohkim, may shiddatidin birgina jo‘sh etmadim,
Sindirib zahri havo, taryokni no‘sh etmadim,
Mast o‘lub har lahza, tarki ahl ila xush etmadim,
Hargiz eski (g‘am-alamlarni) faromo‘sh etmadim,
Munis o‘zga bir nigori jilva bardo‘sh etmadim,
Rohat aylab kecha tong otquncha og‘o‘sh etmadim.

Dahr aro hargiz falak ra’yim bilan aylanmadi,
Dodlar qildimki kajravliq yo‘lidin yonmadi,
Dahri dun jonimg‘a bedod aylanmog‘din qonmadi,
Voy, bir baxtim og‘ir uyqusidin uyg‘onmadi,
Munis o‘zga bir nigori jilva bardo‘sh etmadim,
Rohat aylab kecha tong otquncha og‘o‘sh etmadim.

Umr o‘tar, afsuskim, doim asiri g‘am bo‘lub,
Ko‘rmayin dunyo huzurin soati xurram bo‘lub,
Doldek mehnat yuki ostida haddim ham bo‘lub,
Bori dunyog‘a kelib, men loaqal odam bo‘lub,
Munis o‘zga bir nigori jilva bardo‘sh etmadim,
Rohat aylab kecha tong otquncha og‘o‘sh etmadim.

Ba’zi odam umri xushdur bir pari paykar topib,
Mevasi ishrat hayoti gulshanidin bar topib,
Tole’ini hamdam-u, iqbolini yovar topib,
Hasrato, sa’y aylabonToshkandda biroz zar topib,
Munis o‘zga bir nigori jilva bardo‘sh etmadim,
Rohat aylab kecha tong otquncha og‘o‘sh etmadim.

Hayfkim, bir orzu birla kechib ahdi shabob,
Qilmadi sa’y-u jadal hech vajh birla fathi bob,

Qildi ummidim uyin tuli amal oxir xarob,
Bu nadomat otashidin jon-u dil bo'ldi kabob,
Munis o'zga bir nigori jilva bardo'sh etmadim,
Rohat aylab kecha tong otquncha og'o'sh etmadim.

Umrning ta'jilidin jonimda xirmon qat-baqat,
Ushbu g'amdin g'unchadek bag'rim to'la qon qat-baqat,
Zanglar anduhdin ko'ksumda chandon qat-baqat,
Loladek mahzun ko'ngulda dog'i armon qat-baqat,
Munis o'zga bir nigori jilva bardo'sh etmadim,
Rohat aylab kecha tong otquncha og'o'sh etmadim.

Ranjlar tortib kelib bu bevafo dunyog'a hayf,
Ko'z ochib, aylab nazar dunyovumofihog'a hayf,
Kechti umr-u, yetmadim bu maqsadi a'log'a hayf,
Maskan aylab necha kun bir go'shai tanhog'a, hayf
Munis o'zga bir nigori jilva bardo'sh etmadim,
Rohat aylab kecha tong otquncha og'o'sh etmadim.

Yondi jonim sha'mdek har kecha davron bazmida,
Dudlar boshimg'a o'rlab diyda giryon bazmida,
Bosh berib har lahza aylab jonni qurbon bazmida,
Dog'man boshdin ayog' hargizki imkon bazmida,
Munis o'zga bir nigori jilva bardo'sh etmadim,
Rohat aylab kecha tong otquncha og'o'sh etmadim.

Ayshi olamdin meni gardun chu nokom ayladi,
Subhi iqbolimni idbora bilan shom ayladi,
Emdi ermas javri, bedodini mudom ayladi,
Puxta korim, Furqatiy, aylab hasad xom ayladi,
Munis o'zga bir nigori jilva bardo'sh etmadim,
Rohat aylab kecha tong otquncha og'o'sh etmadim.

Tarji'band — musaddas

Uch xarobotiy erurmiz, sokini mayxonamiz,
Xum boshidin charx urub, monandi bir parvonamiz,
Mast o'lubmiz jo'shishi maydin ajab devonamiz,
Holimiz dunyo g'amidin, forig'i koshonamiz,
Yor bizni yorimiz, jonon bizi jononamiz,
Ushbu davron birla o'tsak, yo'q erur armonimiz.

Uch alamkashmiz, hamisha tolibi jononamiz,
Ko'yig'a bormoqdin, ammo el aro afsonamiz,
Nash'ae paydo qilibmiz, aqldin begonamiz,
Na harosi domdurmiz, na asiri donamiz,
Yor bizni yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o'tsak, yo'q erur armonimiz.

Uch qalandarmiz, qalandarxonada hamxonamiz,
Hasrat aylarmiz negokim rindai har xonamiz,
Qayda qoldi, vo darig'o, sog'ar-u paymonimiz,
Dayr pirini huzuridin ajab jurmonamiz,
Yor bizni yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o'tsak, yo'q erur armonimiz.

Uch birodarmiz, keling birdam farog'at aylaluk,
Yo qalandarvash bo'lub, olam sayohat aylaluk,
Dayr piriga borib yokim itoat aylaluk,
Harna zulm etsa agar, sabr-u qanoat aylaluk,
Yor bizni yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o'tsak, yo'q erur armonimiz.

Uch musofirmiz, keling, bir-bir hikoyat aylaluk,
Ul raqibi ro'siyahlardin shikoyat aylaluk,

Xonaqah kunjig‘a borib yoki toat aylaluk,
Yo borib mug‘ dayri ichra istiqomat aylaluk,
Yor bizni yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o‘tsak, yo‘q erur armonimiz.

Uch adoyimiz, keling(lar) nola og‘oz aylaluk,
Qayda kulfat ahli bo‘lsa, o‘zga damsoz aylaluk,
Boqmaluk dunyo yuzig‘a, to ango noz aylaluk,
Emdi bulbuldek o‘shal sori(g‘a) parvoz aylaluk,
Yor bizni yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o‘tsak, yo‘q erur armonimiz

Uch navoiymiz, kelinglar, azmi gulshan aylali,
Andalibg‘a qo‘shulub ul yerni maskan aylali,
Kuydurub gul, shox-u yafrog‘ini gulxan aylali,
Chil tanini na etarmiz, o‘zni chor tan aylali,
Yor bizni yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o‘tsak, yo‘q erur armonimiz.

Uch g‘aribiymiz, keling, sayri guliston aylali,
Nola aylab andalibni bag‘rini qon aylali,
Shikva aylab sarv-u sunbulni parishon aylali,
Qumrilarni mubtaloyi dog‘i hijron aylali,
Yor bizni yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o‘tsak, yo‘q erur armonimiz.

Uch vafoyimiz, kelinglar, azmi gulzor aylali,
Borg‘ali yor oldig‘a o‘zni sabukbor aylali,
Yorni uyqusidin bir lahza bedor aylali,
Xoh behud bo‘loli, xoh o‘zni hushyor aylali,
Yor bizni yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o‘tsak, yo‘q erur armonimiz.

Uch balokashmiz, ko‘ngul ul mahvashi xushxo‘dadur,
Kecha-kunduz hushimiz ul sho‘xi shiringo‘dadur,
Boribon ko‘rdikki, bistar ustida uyqudadur,
Boshig‘a kelmish tabib-u yor boshi zonudadur,

Yor bizni yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o‘tsak, yo‘q erur armonimiz.

Uch mukaddar ko‘yig‘a borduk raqiblar to‘dadur,
Yo sabab jinslardin ul pari uyqudadur?
Kokuli yuzg‘a parishon mushki anbarsudadur,
Yuzlari g‘arqi araq, barcha abiroludadur,
Yor bizni yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o‘tsak, yo‘q erur armonimiz.

Uch xarobotiy borib ko‘rdikki, yor uyqudadur,
Ranjishi chashmi bila ko‘b hasrat-u qayg‘udadur,
Bistari za’f uzra yotibdur, tani farsudadur,
Voykim, ahboblar, borg‘animiz behudadur,
Yor bizni yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o‘tsak, yo‘q erur armonimiz.

Na uchun kelding harimig‘a, ayo, nodon tabib?
Bizlara ag‘yordursan, bedarak, afg‘on tabib,
Boshidin turg‘il nari, behudasan, yolg‘on tabib,
Oh tortarmiz, bo‘larsan yer bila yakson, tabib,
Yor bizni yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o‘tsak, yo‘q erur armonimiz.

Na sababdin o‘lturursan yor boshig‘a, tabib?
Bir zamon ko‘shish etib andog‘ maoshig‘a, tabib,
Qo‘shma bul dorularingni yorim oshig‘a, tabib,
Oh birla kuydururmiz, kelma qoshig‘a, tabib,
Yor bizni yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o‘tsak yo‘q erur armonimiz.

Na sababdin bu kecha munda kelibsan, ey tabib?
Har tarafdin so‘z qilursan hamchunon da’viy, tabib,
Boshidin turg‘il nari, behuda, be’mani tabib,
Furqatiydin qil hazar, albatta, ey jo‘giy, tabib,
Yor bizni yorimiz, jonon bizi jononimiz,
Ushbu davron birla o‘tsak yo‘q erur armonimiz.

MUNOJOT – MUSADDAS

Yo Rab, kushoyishi ber bu kori bastalarga,
Ro‘ berdi naxsiyatlar ko‘p ahli rastalarga,
Maqsad guli ochilmay, yuz qo‘ydi dastalarga,
Rahm aylagil, Xudoyo bechora, xastalarga,
Ranj-u ru zor-u mahzun, ko‘ngli shikastalarga.

Avval zaifalardin sharm-u hayo yo‘qoldi,
So‘ngra o‘g‘ul atodin qilmoq ibo yo‘qoldi,
Ham ag‘niyo elidin jud-u saxo yo‘qoldi,
Bir-birga oshnodin mehr-u vafo yo‘qoldi,
Rahm aylagil, Xudoyo bechora, xastalarga,
Ranj-u ru zor-u maxzun, ko‘ngli shikastalarga.

Af’olimizga boqsak, oxir zamon bo‘lubdur,
Ahvoli xalq kundin kunga yamon bo‘lubdur,
Hech kim ishida yo‘q sud, koni ziyon bo‘lubdur,
Oxir zamon nishoni behad ayon bo‘lubdur,
Rahm aylagil, Xudoyo bechora, xastalarga,
Ranj-u ru zor-u mahzun, ko‘ngli shikastalarga.

Tobora barham o‘ldi faqr ahlidin qanoat,
Na shayxda riyozat, na so‘fida ibodat,
Bo‘lduk bu fe’limizdin sharmandayi qiyomat,
Gumrohlarga yo‘ni qilgil o‘zung inoyat,
Rahm aylagil, Xudoyo bechora, xastalarga,
Ranj-u ru zor-u mahzun, ko‘ngli shikastalarga.

Uch yil bo‘lurki, qolmish nakbatga ahli bozor,
Ko‘rmas tijoratidin ko‘b na’f xayli tujjor,
Ahli hunarda ham yo‘q chandon ravnaqi kor,

Yo‘qtur o‘zungdin o‘zga bir mehribon-u g‘amxor,
Rahm aylagil, Xudoyo bechora, xastalarga,
Ranj-u ru zor-u mahzun, ko‘ngli shikastalarga.

Dono hama zalil-u, nodon aziz bo‘ldu,
Topti rivoj-u ravnaq, kim betamiz bo‘ldu,
Mardoni vaqt alhol xunso-yu xez bo‘ldi,
Olimga aylaguvchi oxir sitez bo‘ldu,
Rahm aylagil, Xudoyo bechora, xastalarga,
Ranj-u ru zor-u mahzun, ko‘ngli shikastalarga.

Hasratki, ketti elni tobora fe’lu xo‘yi,
Yo‘q hech ul sababdin bir yerga obro‘yi,
Bo‘ldi base shikoyat har yerda guftugo‘yi,
Bid’at ishi hamisha onlarni justujo‘yi,
Rahm aylagil, Xudoyo bechora, xastalarga,
Ranj-u ru zor-u mahzun, ko‘ngli shikastalarga.

Kuffor ahli ichra hayron o‘lub qolibmiz,
Na hukm qilsa, darhol buyrug‘ini olibmiz,
O‘z boshimizga mundog‘ ranj-u balo solibmiz,
To emdilikda olig‘-solig‘ berib tolibmiz,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora, xastalarga,
Ranj-u ru zor-u mahzun, ko‘ngli shikastalarga.

Zulmatni girdbodi tegdi, quyunda qolduk,
To‘foni hayrat, eyki, g‘arqi junda qolduk,
G‘aflat ila o‘tub umr, kulgu o‘yunda qolduk,
Kuffor bandi ichra sonsiz tugunda qolduk,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora, xastalarga,
Ranj-u ru zor-u mahzun, ko‘ngli shikastalarga.

Qozi-yu mufti, a’lam doim hazin-u ma’yus,
Din posini tutay deb zindoni g‘amda maxbus,
Bechoralar na qilsun, bo‘lsa siyosati Rus,
Qo‘ymaydi bir tarafdin xalq ichra nang-u nomus,

Rahm aylagil, Xudoyo, bechora, xastalarga,
Ranj-u ru zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Afsus, yaxshilarni yo'q qadr-u e'tibori,
Bo'lsa yamon kimiki, bolodur iqtidori,
Bo'ldi fasod-u fitna shul asrlarda joriy,
Lutf etki, qullaringni bo'lsun saloh kori,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora, xastalarga,
Ranj-u ru zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Har qayda sarfa yog'lar kozishinos bo'ldi,
Barpo qilurga fitna bekam-u ko's bo'ldi,
El ichra qadr topti, kim xushlibos bo'ldi,
Zoti bek o'tmagonlar sohibasos bo'ldi,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora, xastalarga,
Ranj-u ru zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

O'z xalqimiz fi'oli ko'p bo'ldi suratoro,
Din ahliman deb, aylar kuffor ila madoro,
Pinhoniy ma'siyatlar tobora oshkoro,
Isyona to'ldi mundin to sarhadi Buxoro,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora, xastalarga,
Ranj-u ru zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Dunyoyi dunni harchand bee'tibor ko'rduk,
Faqr ahlimiz demakni olamda or ko'rduk,
Nafs ilgida hamisha o'zni duchor ko'rduk,
Shar'i nabiyga boqduk, ko'p xor-u zor ko'rduk,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora, xastalarga,
Ranj-u ru zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Biz bandai umidvor, sandin najotimiz bor,
Boriy, Rahim otingdin xatti barotimiz bor,
Harchand ma'siyatdin sango uyotimiz bor,
Ul shohi anbiyoga ummatlig' otimiz bor,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora, xastalarga,
Ranj-u ru zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Ma'yus-u zor-u g'amgin, aftodalarni haqqi,
Xotir hazin-u ranjur g'ambodalarni haqqi,
Bir umr orzudin ozodalarni haqqi,
Uqbo ishiga bo'lgan omodalarni haqqi,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora, xastalarga,
Ranj-u ru zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Yo'q sandin o'zga, yo Rab, darmondalar panohi,
Dunyo-yu oxiratda sansan umidgohi,
G'aflatda umr o'tmish, ming hayf, sol-u mohi,
Lutfing yeliga ko'hi jurm uyla parrikohi,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora, xastalarga,
Ranj-u ru zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

Biz odam o'g'li bo'lsak, inson ishi xatodur,
Har shay aslisi garoji' bo'lub ketodur,
Lutf-u karamni sandin banda umid etodur,
Furqat quling gunahkor, san sohibi atodur,
Rahm aylagil, Xudoyo, bechora, xastalarga,
Ranj-u ru zor-u mahzun, ko'ngli shikastalarga.

MUSABBA'

Mo'tabar ko'z yoshi Haq nazdida durri nobdin,
Ham libosi faqr behtar shol ila sinjobdin,
Bistari qolinda rohat birla ko'rgan xobdin,
Kunji uzlat bo'ryosi xo'bdur har bobdin,
Bor emish bir kun azobi, vahm qil Vahhobdin,
Ahli dunyo suhbati ichra sharobi nobdin,
It yaloqi ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq.

Mardi Haqsan, chiq aloyiq nomliq girdobdin,
Gardaning ham qil ibodatg'a rahi odobdin,
Qil ajal yodini ketmasdin burunroq tobdin,
Och ko'zingni ravzanin, g'aflatga to'lmay xobdin,
Chiqti bo'yla foli nek-u naqshi usgurlobdin,
Ahli dunyo suhbati ichra sharobi nobdin,
It yaloqi ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq.

Xotiri mahzun qachon xush bodai unnobdin,
Gar labolab bo'lsa ham oltun qadah julobdin,
Xo'b emas bosh og'riganda bir qoshiq ardobdin,
Qil talab kavsar suyin, aylar baho tavvobdin,
Bilmasang, so'rg'il borib bir xurdabin ahbobdin,
Ahli dunyo suhbati ichra sharobi nobdin,
It yaloqi ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq.

Bu raboti ko'hnadur qolgan necha arbobdin,
Zo'ri bozuga ishongan Rustam-u Suhrobdin,
Bahman-u Jamshid ila Iskandar-u Dorobdin,
Chiqmadi hargiz alar bu g'amkada qullobdin,
Chiqtilar bir bobi digardin, kirib bir bobdin,
Ahli dunyo suhbati ichra sharobi nobdin,
It yaloqi ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq.
Oqil ersang, ibrat olg'il emdi shayxushobdin,

Istamas dunyoni, chiqmas go'shai mehrobdin,
Yemishi laxti jigardin, ichmish-xunobdin,
Dur emas qilg'on duosi bu sabab ijobdin,
Bo'lg'ucha bir necha kunlar jumlai shodobdin,
Ahli dunyo suhbati ichra sharobi nobdin,
It yaloqi ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq.

Har qadar dastingda bo'lsa gavhari noyobdin,
Xobgohing to'da bo'lsa baxmal-u kimxobdin,
Bazminga bo'lsa muyassar har nechuk asbobdin,
Titrasa qonun mug'anniy ilgida mizrobdin,
Jomi hasratda yutarsan oqibat zardobdin,
Ahli dunyo suhbati ichra sharobi nobdin,
It yaloqi ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq.

Qildi sargardon falak ko'p elni log'ulobdin,
Shu'lai kavkabni o'tkargum debon mahtobdin,
Qatra topmay tashnalar bu ko'zai do'lobdin,
Fol aylab, bu nechuk deb Furqatiy dastlobdin,
Ahli dunyo suhbati ichra sharobi nobdin,
It yaloqi ichra ichgan qip-qizil qon yaxshiroq.

MUSTAZOD

Aqlimi oldi, hayratg‘a soldi bir turfa jonon,
sultoni xo‘bon,
Ul bir tabassum, aylab takallum, chun mohi
tobon bo‘ldi namoyon.

Soqibe ermish, jonimg‘a kirmish, qonimni
termish paykoni tiyri
Maddi nigohi, javshan siyohi, ikki sipohi tan
etti vayron.

Monandai gul, chun shoxi sunbul, aylab
tazalzul keldi nigorim,
Ochib yuzini, tashlab o‘zini, qosh-u ko‘zini
javlon beribon.

Ahvoli zorim, sorig‘ uzorim, lutf ayla, yorim,
aylab tamosho;
Bildi-yu so‘rdi, bu na’v ko‘rdi, bir lahza turdi
menga boqibon.

Noz-u firoqi, vasl ishtiyoqi, bir zarra boqib
qo‘ymay vujudim —
Kuydurdi jonim, ham xonumonim, nom-u
nishonim bir lahza, bir on.

Jonimda toqat, na tanda holat, na dilda
rohat, ko‘b notavonman,
Yo‘qsa netarmen, qayon ketarmen, nechuk
etarmen, majruh-u vayron.
Aylay ayoni, g‘amni bayoni, bir dam zamoni
tutqil qulog‘ing,

Bag‘rim siqibon, tahrir etibon, o‘zdin ketibon,
bo‘lmay parishon.

Nasli pariydur, lab shakkaridur, kabki daridur
ul jilva raftor,
Yo hur-u g‘ilmon, bilmam nechuk jon, tovusi
bo‘ston, sarvi xiromon.

Aylab yaqo chok, mahjur-u g‘amnok,
Furqat alamnok qilib nadomat,
To bari doman, monandi savsan,
chun joni betan motamda qolg‘on.

MAKTUBLAR

Muqimiyga xat

Shukurkim, Xo‘qand aro sog‘-u salomat borman,
Davlat-u xursandlig‘lar birla barxurdorman.

Yozib erkansiz yaqinda mulla Ahmadjonga xat,
Nechadin so‘ng, xayriyat, xat oxirida borman.

O‘qugach, har nuktasidin topdi ko‘nglum ming surur,
Bosh falakka yetti-yu jon birla minnatdorman.

So‘rsangiz kayfiyat-u holot agar ba’daz payom,
Ushbu kun qavlidaman, Simdin kelib bekorman.

Muddati bir oy erurkim,
munda Mahmudxon bila,
Kecha-kunduz hamdam-u hamroh, hamraftorman...

Yangiqo‘rg‘onda borib, gah shahrda turdim kelib,
Har kun aydim, aylanay, qishloqdin bezorman.

So‘zlashurga bir durust odam yo‘q-u ham garmdur,
Mundayin yerda turolmasman: yurogi torman.

Marhamat aylab dedilar: necha oy turdi Muqim,
Demadi bir yo‘lki men mardi tabiatdorman.

Boz aytdim: ul kishi az sidqi dil oshiq edi,
Toqatim yo‘qdur meni, men og‘zaki xushtorman.

Bu tariqa guftgo‘yi, hazli birla oqibat,
Shahrg‘a keldim, olib qo‘ymasdin oxir kor man.

Men uchun xat qilsangiz ayting dedilar ko‘p duo,
Shul sababdin muncha so‘z qildim siza izhor man.

Furqatiy, vaslig‘a yetgach ul pari ruxsoraning,
Shukrulillohkim, hamisha mahrami asrorman.

Furqatning Muqimiyga maktubi

Salom, ey menga yor-u oshnolar,
Qadrdonlar, zamiri purziyolar,

Muqimiy, Hoji Muhyiddin-u Zavqiy,
Muhayyir — barcha zakki-yu rasolar.

Fasohat gulshanida misli bulbul,
Pursanj-u zihi nag'masarolar.

Bihamdillohkim, mandin so'rsangiz hol,
Yurubdurman qilib zavqi safolar.

Salomatdur tanim, xursand vaqtim,
Xudovand ayladi behad atolar.

Falakning davridin komim ravodur,
Agarchi el ko'rar andin jafolar...

Rizoman Toshkand odamlaridin,
So'rar holim faqir-u ag'niyolar.

Maqomim madrasa — Shayxantahurda,
Erur ulfat necha mazmun adolar.

O'qurmiz, besh kishi "Sharhi viqoya",
Muhayyo necha yaxshi domlolar.

Gazetxona ishig'a bo'lsa peshin,
Borurman har kuni, goh kun arolar.

Salom iblog‘idin so‘ngra, Muqimo,
Meni so‘rg‘onlara ayting duolar.

Yozing ahvolingizdan bir raqima,
Budur sizdan umid-u iltijolar.

So‘z o‘ldi muxtasar, ziq erdi fursat,
Ko‘p erdi yo‘qsa, Furqat, muddaolar.

* * *

Bu gulshankim nasimi fayzi Rabdur,
Guli hilm-u hayo birla adabdur.

Zihi bog'iki, "Millat bog'i" derlar,
Xo'tan mushki qaro tuprog'i derlar.

Ichim qon o'ldi davron g'ussasidin,
Bu davron ichra hijron g'ussasidin.

Kelibman bir dimog'im chog' etay deb,
Ko'ngulni dard-u g'amdin sog' etay deb.

Ko'rubon g'unchadek mardumni xurram,
Dilim chok ayladi savsan kabi g'am.

Alarchun aylagach sayr-u safolar,
Esimg'a tushdi yor-u oshnolar.

Menga yo'q sendin o'zga bir muvofiq,
Nechunkim, aqli dilsan, yori sodiq.

Jahonpaymosan-u cho'q tezravsan,
Falak gardingga yetmas barqdavsan.

Ayo bodi sabo, Olloh uchun tur,
O'zingni Toshkand shahrig'a yetkur...

Harimig'a ul oy topsang agar roh,
O'zingdin ketma ko'rganda banogoh

Ziyorat aylagil avval bo‘sog‘in,
Kirib andin keyin o‘pgil ayog‘in.

Chekib bir ohi hasrat so‘zdin avval,
Chekorda oh qon to‘k ko‘zdin avval.

Qilib ogoh bir oqi sard birlan,
Salom ayg‘il dili purdard birlan.

Degil: – Ey husn mulkin podshohi,
Fuzun o‘lsun aziz umring, ilohi!

Bor ekan Furqat otliq bir g‘aribing,
Visoling davlatidin benasibing.

O‘zi Xo‘qandiy, ammo ismi Zokir,
Qazoro Rum aro bo‘lmish musofir.

Maishat bobida bil-kulli masrur,
Jamolingdin g‘ami shuldurki: mahjur.

G‘amingdin kecha tong otquncha yig‘lar,
Tong otqach, dog‘i kun botquncha yig‘lar...

Sochingdin olmish erkin bir — iki tor,
Ko‘ngul bo‘ynig‘a etmish oni zunnor.

Falak uzra chiqib oh-u fig‘oni,
Deyurkim: – Oh faloniy, oh faloniy.

Chiqib andin, qilib odob bisyor,
Salom aylab yana bir hujrag‘a bor.

Ul Eshonxo‘ja eshon domlomiz,
G‘ariblikda suyangan muttaqomiz.

Tavozi'lar bilan ayg'il duolar,
Duolar aytibon, olg'il duolar.

Chiqib so'ng Xo'jaxon mufti qoshig'a,
Yeturgil o'zni peshinlik oshig'a...

Meni o'rnimda to sen hamtabaq bo'l,
Adabo modai tamkin nasaq bo'l.

Degil: – Ey muftiy fardi zamona,
Ziyo fatvosidin solg'on jahona.

Bilursizkim, jahonning yo'q baqosi,
Jahon ahlini ham mehr-u vafosi.

Falak g'addordur, kajrav zamona,
Kishi ko'rmas muruvvatdin nishona.

Zamonni har nafas tabdili boshqa,
Yuz oncha umrning ta'jili boshqa...

Deyub bu so'zni so'ngra xayrbod et,
Chiqib dog'i bir ahbobimni yod et.

Ubaydulloh Maxdumdur anga nom,
Yeturgil xossai takmili payg'om.

Jamolxon maxdum-u Xonxo'ja eshon,
Duo ayg'il ikovig'a farovon.

"Qiziqmu bazm, bozori qalay?" de,
"Yana satranj afkori qalay?" de.

Chiqib tashqori maydong'a guzar qil,
Vale mag'rib tarafg'a bir nazar qil!

Ko‘zingga naqshlik manzar ko‘ringay,
Hama oyinasi javhar ko‘ringay.

Erur yoni ravonlik katta ayvon,
Egosi nomi Mahmudxo‘ja eshon.

Muhabbatlik menga bir oshnodur,
Na tanho oshno, balkim ag‘odur.

Menga ko‘p aylagan ul mehr-u shafqat,
Qilib haqqimda ehson-u muruvvat.

Yeturgil anga orzu ishtiyoqim,
Mufassal sharh qil dard-u firoqim.

Degilkim:— Sog‘inur suhbatlaringni,
Muhabbatlik hama ulfatlaringni.

Bo‘lur to‘g‘rida bir do‘kon namudor,
Ulug‘ bir havzdur yoni samovor.

Borib so‘risini ustida o‘ltur,
Degilkim: — Otaxo‘ja, choy keltur!

Havo-yu kibr jomidin bo‘lub mast,
Kelur bir qarri odam, qanshari past.

Salom aytib dimog‘in chog‘ qilg‘il,
Latoyif so‘zlar aytib dog‘ qilg‘il...

Ja’mi xo‘ja Shayxovand Tahurda,
So‘rab top, bo‘lsalar qaysi chuqurda.

Duo har qaysig‘a maxsus yetkur,
G‘uboriy dillarida bo‘lsa, ketkur.

O‘t andin so‘ngra Darxon ko‘chasig‘a,
Ki bir do‘st-u qadrdon ko‘chasig‘a.

Muhabbat pesha yaxshi oshnomiz,
Daroz andishalik Mirzo akomiz.

Dilinda bor edi mendin kudurat,
Nihon aylardi, lekin bir zarurat.

Degilkim: — Furqatiy sizga rizojo‘,
Edi bir beg‘araz, xolis duogo‘.

Ko‘p erdi boshqalardin e’tiqodi,
Muhabbat birla azbas e’timodi.

Valekin bir-ikki mardi hamoqat,
Anga mendin qilib yolg‘on shikoyat.

Dili ozurda mendan bo‘ldi nohaq,
Vagarna yo‘q gunohe menda mutlaq.

Chiqar ko‘nglidin ul tuhmat g‘ubori,
Namak haqqi meni bo‘ynimda bori.

Yusufboybachcha havlisig‘a andin,
Borib yetkur duo, albatta, mandin.

Qiyomatlik birodardur menga ul,
Har ishda yor-u yovardur menga ul...

Duo shuldur o‘shal nek-u xisola,
Yetushsun barcha farzandi kamola.

Iki dunyoda bo‘lsun obro‘mand,
O‘lub Haq lutfidin doim barumand.

Chiqib andin dog‘i bir ko‘chasi tor,
Begim havlisi anda, jahd ila bor.

Begim, jonim, afandim Fansurulloh,
Zihi shahzodai zul-izzu val-joh.

Na kim tanho ulus shahzodasidur,
Hama shahzodalar ozodasidur.

Kirib ko‘rganda yer o‘pg‘ilu duo qil,
Ko‘zingga xoki poyin to‘tiyo qil.

Degil: “Ey, naxli bog‘i shahriyoriy,
Guli parvardai davlat bahori.

Ki bir avvorai sahroyi g‘urbat,
Erur nom anga Zokirjon Furqat.

Emish ul xastadil kechmish zamona,
Namak parvardai bu ostona.

Chekib obu xo‘rish Rum sari oning,
Iqomatda erur afkori oning.

Base shahzodalarg‘a hamnashindur,
Alar shahzodau ham nozanindur.

Alarni suhbatida, ey neku zod,
Sizi aylar muhabbat birla ko‘b yod”.

Zaboningni duog‘a qobil ayla,
Turub anda ijozat hosil ayla.

Ko‘galdoshga borib so‘r Hoji A’zam,
Ul Ahmad Xo‘jai yuzboshini ham.

Degilkim: – Ey Arastu-yi zamona,
Bilurda nabz tashxisi yagona.

Kelibman oldidin mehmoningizni,
Xo'qandiy, ya'ni Zokirjoningizni.

Yurubdur o'ynab Istanbulda xushnud,
Erur ahvoli kundin-kunga behbud.

Zamoni farruh-u ayyomi mas'ud,
Farahbobi ochuq, g'am rohi masdud.

Mizojig'a muvofiq Rum havosi,
Aningchun turmak o'lmish iqtizosi.

Chiqib, Mirzo Xalil olidin o'tkil,
Nabotidin olib og'zing chuchutkil.

O'tubon, to'g'ri gul bozorig'a bor,
Bo'lur bir naqshlik do'kon namudor.

O'turur bir javon mardi batavfiq,
Sadoqatpesha, nomi qori Siddiq.

Menga ul oshnoyi jonajondur,
Hazin jismim aro ruhi ravondur,

Hamisha xotirimni pos tutgan,
Muruvvat bekam-u bekos tutgan.

Ki anda Avliyo Xo'ja, mabodo,
O'tirgan bo'lsa, qilma oshkoro.

Debon mendin anga yuz ming duolar,
O'tur oldida aytib marhabolar.

Quloqig‘a degil ohista oning:
“O‘shal Furqat degan ahbobi joning.

Dilida bor ekan bir muddaosi,
Muyassar o‘lg‘ay, o‘lsa Haq rizosi.

Yaqin fursatda maqsudiga yetgay,
Nasib o‘lsa Madina sori ketgay”

Agar choy damlasa, jon birla no‘sh et,
O‘zingni lekin ul yerda bahush et.

Budur zinhor ila ta’kid mandin,
Do‘konin yig‘maguncha ketma andin...

O‘lur kech, ba’d jo‘yoyi makon o‘l,
Saqichmon ko‘chasi birla ravon o‘l.

So‘rab havlisiniAbdul Azizxon,
Borib ul kecha bo‘lg‘il anda mehmon.

Bilib har hafta bir yo‘l o‘zga lozim,
Borib qolg‘usi kecha Mirzo Qosim.

Ko‘rarsan anda Farzinxon degonni,
Menga bir oshnoyi mehribonni.

Alar har qaysig‘a bir-bir salom ayt,
Muhabbatliq duo birla payom ayt.

Topib so‘z Mirza Qosimga guzorish,
Muxammasni qo‘liga qil siporish.

Buyurmish erdi ul Toshkandda avval,
Kelib man, munda qolmish erdi ma’tal.

Degilkim: – Aylab oni emdi insho,
Yubordi Rumdin aylab sizga savg‘o.

Saboh ila yurub kel rastag‘a boz,
Rusumi beklikni ayla og‘oz.

Ko‘rub Mirmaqsud-u, Hoji Valini,
Yana Ya’qub Hoji, Mir Alini;

Saroyda Mirza Hoshim ham G‘iyosjon,
Sarimsoq-u, Orifjon-u, Karimxon.

Alarg‘a deb duo maxsus-maxsus,
Degaysan marhabo maxsus-maxsus.

Yoqishmas anda bu turki asosing,
Taningdin tashlagil rumiy libosing.

Olib ko‘k movut ila qora sanduf,
Keturgil ikkisidin choryak to‘p.

Ko‘tarib to‘g‘ri Muslimxong‘a borg‘il,
Tikuvchi ul chevar chechonga borg‘il.

O‘shal tiksun bizi qonuncha kamzul,
To‘ni chalvor-u ham santura, fantul.

Degilkim: – Jonim o‘rgulsun, menga boq,
Salom aytur senga bir zor-u mushtoq.

Qilur erkan senga xolis muhabbat,
G‘arazsiz o‘yla bir ahbobi suhbat.

Dushanba kunda oqshom anjumandur,
Nechuk dey anjumankim, bir chamandur.

Ja'mii jo'ra ul tun ja'm o'lurlar,
Tuzub bir mahfil o'yla sha'm o'lurlar.

Olib borgay seni Abdul Azizxon,
Taomil bu erur borganda mehmon.

Kanor olib alar birla ko'rushkil,
Kirib navbat-banavbat o'lturishkil.

Aqidatlik kalomimni degaysan,
Muhabbatlik salomimni degaysan.

Qachon etganlarida bazm bunyod,
Budur aftodani ham aylagay yod.

Kelurda aylama zinhor ta'jil,
Borib domanlarin qil dog'i taqbil.

Agar xat bersalar, yoningda saqla,
G'alat aydim, dil-u joningda saqla!

Keturgilkim, erur hirzi omon ul,
Menga ta'vizi joni notavon ul.

Erurman intizoring, kelguningcha,
O'shal maktubi vosil qilg'uningcha.

Budur so'z, ey sabo, zinhor-zinhor,
Tugandi so'z va lekin shavq bisyor.

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY

G‘AZALLAR

Yo iloho, sangadur hamd-u sano,
Qodiro, hayyu tavono zula’lo.

Ham qadimsan, ham azal, loyazal[1],
Vorlig‘ingga yo‘q sani hech intiho.

Vorlig‘ingga qul shahodat verg‘usi,
Oy ila xurshid-u ham arzu samo.

Bir sifoting qulhu ollohu ahad[2],
Yo‘q shariging, yakkasan, yo Rabbano.

Lomakonsan[3], sanda yo‘q xeshu tabor,
Na o‘g‘ul, na qiz, otoyu na ono.

Suvratu jismu shakl ham ruhdin,
Ul vujudingdur, munazzax[4], ey xudo.

Ey hakimi lamyazal, bor aylading,
Qudratingdin ushbu olamni bino.

Kun degon amring bila topdi qaror,
Yeru ko‘k, lavhu qalam, arshul a’lo.

Nuri pokingdin yaratding avvalo,
Ruhi poki ul Muhammad Mustafo.

---

[1] **Loyazal** — yo‘q bo‘lmaydigan, doimiy, zoyil bo‘lmaydigan.

[2] **Qulhu ollohu ahad** — “Ixlos” surasi 1-oyat. Ma’nosi: “Ayt: “U Alloh yagonadir.

[3] **Lomakon** — makonsiz. Xudoning sifatlaridan biri.

[4] **Munazzax** — pok, pokiza.

Ul Muhammad nuridin xalq aylading,
Yuz yigirma to'rt lak o'tgan anbiyo[1].

So'ngra xalq etting qaro tufroqdin,
Ul vujudi hazrati Odam ato.

Keldi oni naslidin boshlab hama,
Mo'minu kofir, azizu avliyo.

Anbiyolar avvali Odam o'lub,
Xotami kulli rasuldur Ahmado.

Borcha maxluqotlarning san xoliqi,
Kulli hayning roziqisan[2], yo iloh.

Lahzada paydo qilursan bing jahon,
Qudrating yetgay yana qilsang fano.

Xalq etub mushriklara yetti tamug'[3],
Ahli imonlarga jannotul a'lo.

Ming bir isming ichra hodiydur[4] biri,
Bandalarga san o'zingsan rahnamo.

Yo iloho, zoti poking hurmati,
Osilarga ma'rifat ayla ato.

Ul Muhammad xotiri muslimlara,
Rahmatingdur boqii har du saro[5].

Hazrati Odam ato, Havvo haqi,
Qilmag'il sharmanda fi-yovmul-jazo.

---

[1] **Anbiyo** — payg'ambarlar, nabiylar.

[2] **Roziq** — rizq beruvchi, rizqlantiruvchi. Alloh ismi.

[3] **Tamug'** — do'zax.

[4] **Hodiy** — yo'lboshchi, rahbar.

[5] **Saro** — 1) bino, saroy. 2) majoziy ma'noda dunyo, olam.

Sol o‘zing bizlarni toat yo‘lig‘a,
Ber o‘zing shaytonni sharridin pano.

San sovut dillarni sharru fisqdin,
Qilmag‘il ho-yu havasga mubtalo.

Nafsi bad birla giriftor aylabon,
Qilmag‘il mahsharda yuzlarni qaro.

Rahmatu lutfingda tut, qahring bila
Aylama bizlarni hargiz oshno.

Garchi mag‘ruqi[1] gunah sharmandaman,
Yig‘lab etkum dargohingda iltijo.

San o‘zingsan podshohi bemalol,
Borgohingga kelibman bir gado.

Men tilarman ma’rifat isyonima,
Qo‘l ochib yig‘lab sanga aylab duo.

Bu Nihoniyga agar qilsang ato
Zarrai rahmat, o‘lur har muddao.

[1] **Mag‘ruq** — g‘arq bo‘lgan, cho‘kkan.

* * *

Yo Muhammad, aylanay, nominggadur jonim fido,
Toji sar o'ldi laamruk podshohi du saro.

Anbiyolar sarvari ma'shuqi haqsan begumon,
Hodiyi sargashtagonsan muqtadoi avliyo.

Ma'siyatni dudi birla ko'zlari ko'r o'lmisham,
Ostonangga yetur, xokini aylay to'tiyo.

Ohi zorimga boqib rahm etmasang holim xarob,
Tut qo'limdin hurmati Odam ato, momo Havo.

Sandin o'zga yo'q manga bir mehribon faryodras[1],
San kechur, shoyad gunohim afv etar qodir Xudo.

Nafsi bad yo'lida qildim bu aziz umrim ado,
Bo'lmagay deb qo'rqaram mahshar kuni yuzim qaro.

Tun saharlar ismi poking yod etar mahzun Nihon,
Tut shafoat dastida, albatta, fi-yovmul-jazo.

[1] **Faryodras** — kishining dodiga eshituvchi, himoya qiluvchi.

* * *

Ayo, ko‘ngulni qorong‘u jahoniga quyosh,
Qulingga bir karam et, qon erur ko‘zidagi yosh.

Qachonki rafraf ila azm aylading me’roj,
U kecha hajrida kunduzni sevmadi xaffosh[1].

Chiqarda ko‘kka edi Jabroil jilovdoring,
Yo‘lingda hazrati Iso bo‘lib u dam farrosh.

Tamomi ruhi nabilar bila maloyiklar[2],
Ko‘zini surmasiga xoki poying erdi talosh.

Sayr qilub hamani to maqomi av adno[3],
Bu yetti ko‘k uza chekmish na sun’ul naqqosh.

Qolub hamma sanga yo‘l boshlag‘uchi xodimlar,
Xudodin o‘zga sanga qolmadi bo‘lak yo‘ldosh.

Keturding ertasi as’hoblarga xush xabari,
Xatti baroti ato qildi deb menga sirdosh.

Nihoniy garchi yomonlar yomonidur, ammo
Shafoatingga eminam, fido yo‘lingda bu bosh.

---

[1] **Xaffosh** — ko‘rshapalak.

[2] **Maloyik** — farishtalar.

[3] **Av adno** — yoki yaqinroq.

* * *

Nahri ashkim vor ta'sir aylamaz noring bango,
Lutfu ehson damda bergan qahru ozoring bango.

Bori mushkillik raqibingdin yeton dashnomdur,
Munchalik kor aylamaz tiyg'i zahardoring bango.

Vaslinga yetmoq uchun tun-kun qilurman justujo'[1],
Lekin yo'l vermaz o'shal ag'yori[2] badkoring bango.

Sokini masjid emas, deb zohid[3] aylar ta'ni kufr,
Os, nishoningdin bilinsun tavqi[4] zunnoring[5] bango.

Ban qoshin mehrobiga qildum haqiqat sajdasin,
Suvratoro shayx, qurma domi guftoring[6] bango.

Qo'y, banim, bir ko'y ila ul yora ko'ngil qo'ymisham,
Dil nazargohi o'lursa, o'lmasun koring bango.

Gar muyassar aylasang ul kun Nihoniyga visol,
Hech pisand ermas bihishtu huru anhoring bango.

---

[1] **Justujo'** — qidirish, axtarish.

[2] **Ag'yor** — begonalar.

[3] **Zohid** — taqvodor.

[4] **Tavqi'** — shohona buyruq, muhr, imzo.

[5] **Zunnor** — o'tmishda musulmon davlatlarida yashovchi xristianlar beliga bog'lab yuradigan chilvir belbog'. Tasavvufda zunnor mahbuba xizmati va toatiga bel bog'lash.

[6] **Guftor** — so'z, so'zlash.

* * *

Kimda donish bo‘lsa, olam misli zindondur ango,
Har nafasda bing g‘amu anduh mehmondur ango.

Andalib[1] bir savt ila bo‘ldi giriftori qafas,
Zog‘ bing savt etsa, qaysi dil parishondur ango.

Har kima asror[2] yozma munisu hamdam bilub,
Bolg‘u tegmoq boisi boshiga xandondur ango.

Nokasa hamroz bo‘lma, qiymating topgay tamom,
Kimki a’modur, guharni narxi arzondur ango.

Faqr birla aylagan taqvoya o‘lma dilfirib,
Boq, magaslar ul tama’ domida qurbondur ango.

E’tibori zohir aylab, botining qilma fujur[3],
Haq nazargohi ko‘ngul, bu jism qo‘rg‘ondur ango.

Dushmaning gar mo‘r esa sen bo‘lmagil andishasiz,
Garchi otash zarra, olam kuysa so‘zondur ango.

Jahl dog‘in ketguzay, deb tutma nodondin umid,
Lola bag‘rida qarolig‘ zebish o‘lgondur ango.

Hojat ermas tarbiyat noqobil ahliga Nihon,
Badguhar, badasllik taqdir o‘lgondur ango.

---

[1] **Andalib** — bulbul.

[2] **Asror** — sirlar, yashirin narsalar.

[3] **Fujur** — to‘g‘ri yo‘ldan ozish, buzuqlik, yaramaslik.

* * *

Bu na baxti qoraliqdur, yetmas afg'onim sango,
Hech manzur o'lmasa bu ko'zdagi qonim sango.

Sha'mi vaslingga erur mahram raqib, ag'yorlar,
Bu alamdin ori kimdur muncha so'zonim sango.

Kosh ko'ksim tilsa erdi xanjari mujgonlaring,
Ko'rsatur erdim jigarda dog'i hijronim sango.

Tosh uza yog'sa qilurdi sabzae boron ko'zim,
To bu dam ta'sir qilmaz ashki giryonim sango.

Har kuni bing kas o'lurmish yor qurboning agar,
Jon fido etmoqla yetsa kabki xandonim sango.

Muncha zolimlik, jafojo'liq[1], zaharxo'liq desam,
Solmadim dersan, hanuz ul jabri chandonim sango.

Na bo'lur desam, tarahhum aylasang, solmay azob,
Bori shul dersan, muruvvat ayni ehsonim sango.

Yoki o'ldirg'il, desam, men xastadin bo'lg'ung xalos,
Hayfdur, dersan, nigoro, tiyri paykonim[2] sango.

Dod dastingdin iki qo'l bosh uza ketgay Nihon,
Arz etolmay dildagi anduhu armonim sango.

---

[1] **Jafojo'** — jafo istovchi.

[2] **Paykon** — o'q, kamon o'qi.

* * *

Ey husn elin purfitnasi mahbubi davronlar aro,
Bormi saningdek mahliqo jannatda rizvonlar aro.

Gulgun yuzingni rashkidin ko'ksida yuz bing dog' ila,
Boq, lola maskan ayladi ko'hu biyobonlar aro.

Qilsang takallum, ey pari, totlug' tabassumlar bilan,
Yo'q san kabi shakkarfishon to'ti suxandonlar aro.

Kimdur asir o'lmaz sanga, gar noz ila bir-bir bosub,
Tovusi xushraftor etub kirsang gulistonlar aro.

Bechora bulbul g'unchai maygun labingni ko'yida,
Faryod urar qonlar yutub har subh bo'stonlar aro.

Raxshanda[1] nozik tishlaring gavharla injular ko'rub,
Bo'lmish xijolatdin nihon daryo-yu ummonlar aro.

Ishqing o'tidin zarrasi tushsa agar, ey bevafo,
Mansur kabi axgar qilur, toroj[2] yetar jonlar aro.

Ochma niqobing, dilrabo, vah tushmasun nogah ko'rub
Sharmu hayolar moh ila xurshidi tobonlar aro.

Qay kun visolingdin sabo ochmishki zarrin pardani,
Tushmish bihishtda janglar ul hur-u g'ilmonlar aro.

---

[1] **Raxshanda** — 1) jilvalanuvchi, yaltiroq, porloq. 2) ko'zgu-ma'shuqaning porloq jamoli. 3) mehr-porloq quyosh, yorug' oftob.

[2] **Toroj** — talon-taroj, talamoq.

Ko‘p sayri bozor aylama husning tufaylidin, yana
G‘avg‘o jadallar bo‘lmasun kofir, musulmonlar aro.

Kel, bu Nihoniy xastani yolg‘uz darog‘ush aylagil
Oshsun g‘uloming hurmati ul do‘st-u dushmanlar aro.

* * *

Dilo, qil kechalar dildor uchun chashmingda tar paydo,
Ki shoyad subhi fayzidin ko'ngul qilsun asar paydo.

O'lub hoyi havas mag'ruri hargiz bo'lmag'il g'ofil,
Bu kun osudalik, ammo erur tongla zarar paydo.

Gunahni ozini qilmay pisand andishasiz bo'lma,
O'lur har zarra otashdin tutoshib bing sharar[1] paydo.

Qanoat pesha bo'l, besabr o'lub qadringni ketguzma,
Sadaf bir qatra naysondin qilur oxir guhar paydo.

Haqiqat chashmasi birla sug'or ashjori[2] imoning,
Yotub qilsun kamoliga ibodatdin samar paydo.

Qurub domi tama' zohid kabi xilvatsaro bo'lma,
Topub rind[3] ahlini xizmatda bo'l, to qil basar paydo.

Riyozat pesha aylab bermag'il har kimsaga ozor,
Buzub bayti xudoni, qilma bolingdin zahar paydo.

O'lub har kimga nosih[4] umrni o'tkarma behuda,
Nihoniy, go'shai rohing tuzat bo'lmay xatar paydo.

---

[1] **Sharar** — uchqun, alanga.

[2] **Ashjor** — daraxt.

[3] **Rind** — botir, ahli dil.

[4] **Nosih** — nasihat qiluvchi.

* * *

Husn mulkini amiri, shohi xo'bona duo,
Yuzi oy, yulduzi o't, ko'zlari mastona duo.

Labi qand, la'li shakar, tillari payvandi asal,
So'zidur ruhfizo, Yusufi Kan'ona duo.

Qaddi ra'no, ko'zi jallod-u, sochi sunbul-u mushk,
Kifrigi tiri kamon boisi hijrona duo.

Zulfidur domi balo, nargisi sayyodi ajal,
Sehrgar mardumagi[1], tishlari marjona duo.

Kajkuloh, qirmizipo'sh, nuqra kamarbandi suvar
Purhasham, qotili sho'x, tiyg'i du paykona duo.

Purg'azab, jilvasi tang, ostiyni oludai xun,
Doimo ishq elini qilg'uchi qurbona duo.

Necha yo'l bo'g'zungga xanjar soluram, dedi Nihon,
Qani ul ahd-u vafo, va'dasi yalg'ona duo.

[1] **Mardum** — 1) ko'z qorachig'i; 2) kishi, inson.

* * *

Bu na yanglig‘ mojarodur husni xo‘bondin judo,
Ma’shuqi ushshoqdin, ushshoqi jonondin judo.

Gul tikonidin, Zulayho Yusufi mahro‘yidin,
Zor Majnun Laylidin, bulbul gulistondin judo.

Bo‘lmasun hech kas manimdek baxti shum, iqboli sho‘r,
O‘lmasun hayron qolub mahbubi jonondin judo.

Oh bekaslik, g‘ariblik, dod, ey bechoralik,
Aylading oxir mani ma’shuqai jondin judo.

Dod dastingdin, falak, charxing buzulmay qolmasun,
Bog‘i umrum bo‘ldi to‘ti shakkarafshondin judo.

Ul lahad ichra kirib, tufroq ila o‘lsam rafiq[1],
Shoyad o‘lg‘um g‘urbati anduh-u afg‘ondin judo.

Ishq o‘tini ustiga qo‘rqar Nihoniy oqibat,
Qilmag‘il, yo Rab, o‘lar vaqtimda imondin judo.

[1] **Rafiq** — do‘st, o‘rtoq.

* * *

Darig‘o, bu zamon ahli buzuldi, bo‘ldi ko‘p rasvo,
Tuman-turlu kasofat ham sharoratlar bo‘lib barpo.

Haqiqat so‘zga boqmas, hech kishi bermas qulog‘ini,
Tariqi bandaliqdin barcha bir yo‘l o‘ldi beparvo.

Hama bid’atga odat tutdi urfi e’tibor aylab,
Muhammad Mustafoni buyrug‘in qilmaydilar aslo.

Tuzab zohirni botindin xabarsiz lof urub doim,
Yururlar aylashib bu hol ila kim bandalik da’vo.

Biza bo‘lmaydi ibrat, qilmishimizdin bo‘lur har dam,
Yog‘ib bu boshimiz uzra necha turlik zarar paydo.

Agarchi fosiq[1] o‘lsa davlat ahli e’tibor o‘ldi,
Qolub har yerda donish ahli bo‘ldi ko‘z yoshi daryo.

Nihon yig‘lab degay: ahli zamona ko‘p yomon o‘ldi,
Bu hikmatni xudodin o‘zga yo‘qdur bilgusi dono.

[1] **Fosiq** — fisq ishlar qiluvchi, axloqsiz, afsuslanmaydigan.

* * *

Bir ko‘rub ul kun jamoling mubtalo bo‘ldum sango,
Andalibdek furqatingda purnavo bo‘ldum sango.

Yosh oqub ikki ko‘zimdin Nuhni to‘fonidek,
Nolai dilso‘z ila haddin fano bo‘ldum sango.

Rahm qilmaysan na deb man xastai bechoraga,
Man sani deb ming baloga oshno bo‘ldum, sango.

Zarrae insof qil, vaslingdin ehson aylagil,
Misli Majnundek eshiklarda gado bo‘ldum sango.

Ohkim, bir dam yuzungni ko‘rmasam toqat qani,
Ko‘zda uyqu, tan farog‘idin suvo bo‘ldum sango.

Hasratim arz aylayolmay qoldi ko‘p armonlarim,
Qay kuni, ey bevafo, sandin judo bo‘ldum, sango.

O‘ylag‘il, bekas musofir, manga bir hamroz yo‘q,
Ustiga darding chekub motamsaro bo‘ldum sango.

Munchalik jabr-u sitam aylar ekansan oqibat,
Qaydanam bermoqg‘a dil sanga rizo bo‘ldum, sango.

Yig‘la-yig‘lab, har kima aytub saning dard-u g‘aming,
El aro afsonai chun-u charo bo‘ldum sango.

Dardi hijroning dilimda yoshururga bo‘lmadi,
Oshkor ettim, netay, g‘amda ado bo‘ldum, sango.

Xor-u zor o‘lsun ilohi, sanga o‘rgatgan raqib,
Shum raqibdin ozu ko‘p sandin xafo bo‘ldum sango.

O‘lmadim yoki qutulsam, yoki yetmay vaslinga
Turfa mushkilga qolub, baxti qaro bo‘ldum sango.

Nomi harfing har biriga qissa holim darj etub,
Ne degan o‘lsam Nihoniy, hokazo bo‘ldum sango.

* * *

Bo‘libman nogahon bir bevafoga mubtalo, yo Rab,
Asir etmish olib aql-u hushim ul purjafo, yo Rab.

Yutubon zahri g‘am, hajrida yig‘lab kecha-yu kunduz,
Jigar-bag‘rimni ezdi, qildi g‘am oxir ado, yo Rab.

To‘kib yosh o‘rniga qon ko‘zlarimdin, ketdi darmonim,
Alifdek qomatim bo‘ldi firoqida duto, yo Rab.

Ko‘rib qay kun visolin to bu dam yo‘q zarra oromim,
Qizil guldek yuzumdur hasratida qahrabo, yo Rab.

Saharlar oh urarman har chamanda andalib yanglig‘,
Yetolmay g‘unchai vasliga ko‘ksimdur yaro, yo Rab.

Ajab ma’shuqai zolim ekan, hijron aro tashlab,
Qilib baxtim qaro, bo‘ldi raqibga oshno, yo Rab.

Kelib so‘rmas firoqida mani tortgan azobimni,
Yurur ag‘yor ila doim qilib kayf-u safo, yo Rab.

Jamolin axtarib har ko‘chada hayron-u sargardon,
Manam Majnuni besomon kabi bo‘ldim gado, yo Rab.

Budur zolimni maqsudi manga qilgan tazallumdin[1],
Tanimdin bu aziz ruhim qilur oxir judo, yo Rab.

[1] **Tazallum** — zulmdan shikoyat qilish, adolat istash.

Tomizg‘il ko‘nglig‘a bir qatra daryoi tarahhumdin[1],
Ki shoyad xastasiga boqsa bir yo‘l mahliqo, yo Rab.

Nihoniy ojiza yetkur o‘shal mohi sumanbarni[2],
Qilay xoki rahiga muntazir jonni fido, yo Rab.

[1] **Tarahhum** — rahm qilmoq, shafqat qilmoq.

[2] **Sumanbar** — oqbadan suluv.

* * *

Har husnni partavidur ilm-u axloqu adab,
Beadab, beilmlar el qoshida topmas ratab.

Kimki ko'rmas maktabu ustodu ta'limi adab,
Farqi yo'q hayvondin oni bo'lsa bing oliy nasab.

Husni axloq ila bo'ldi mo'tabar kuffor[1] aro,
Vahiy kelmasdin burun topdi amin shuhrat laqab.

Odamiyat mevasi insoniyat bog'i aro,
Beadablar bed yanglig' bo'lg'usi oxir xatab.

Davlating boliga qo'ngan birla yo'qdur e'tibor,
Nafs uchundur ul tavoze, qilma oni muhtasab.

Bo'zga bing naqshu nigor o'lsa osharmu qiymati,
Har gadou shoh qoshida orzudur beqasab.

Hosil et xulqu adab, bo'lg'il tavozeda Nihon,
To yetarsan xislatidin har kamola, yo'q ajab.

[1] **Kuffor** — kofirlar.

* * *

Pardani vaslingdin och, chiqsun jahonga oftob.
Tal'atingdin jumlai ziruh o'lsun komyob.

Domaning burchini tut, aylay ko'zimga to'tiyo,
Dardi hijroning ko'zim ko'r aylamish, holim xarob.

Zarrae andisha qil, uvol emasmu, ey pari,
Bir g'arib dilxastaga bermoq esang muncha azob.

Zor ahvolim so'rarga bir qadam ranjida qil,
Tokayo shipga boqib yig'lab yotarman mo'ltirob.

Shum raqib har kechasi sha'mi ruhingni mahrami,
Axtarib tong otqucha yurg'um kimi ko'rsam so'rob.

Ishq o'ti yetmasmudi, boz ustiga rashk o'tidin,
Jonimi kuydirma ko'p, rahm ayla holimga qarob.

Bu Nihoniydin agar o'lsa qutulmoq maqsading,
Xanjaring birla so'yub tashla qizil qonga bo'yob.

* * *

Ko‘p dog‘lama bag‘rimni afgora ekansan, deb,
Muncha manga zulm etma xummora[1] ekansan, deb.

Rahm ayla bu holimga, ko‘z qonimi ko‘p to‘kma,
Sunma qadahi zahring xummora ekansan, deb.

Yoyingni otib, jono, sayd aylamasang nedur,
Ko‘z xanjaridin bag‘ri sadpora ekansan, deb.

Mahvash, na bo‘lur boqsang bir yo‘lgina, ishqimda
Majnun kabi sargashta ovora ekansan, deb.

Xor etma meni muncha ag‘yorimi oldida,
Ko‘p qilma malomatlar bechora ekansan, deb.

Olsang na bo‘lur ko‘nglum shahringga musofirman,
Mahrumi vatan bo‘lgan xunbora ekansan, deb.

Noz ila Nihoniyga boqmay yana ortuqcha,
So‘kma meni ko‘rganda yuz qora ekansan, deb

[1] **Xummor** — mushtoq, mayparast.Tasavvufda piri komil va murshidi vosilga ishora.

* * *

Oy-u kun sharmanda bo'ldi husni raxshoning[1] ko'rub,
Murg'i jannat banda ul la'li Badaxshoning ko'rub.

Injular bahr ichra cho'mdi ore-ore xijldin,
Vah, tabassum vaqtida durri duraxshoning[2] ko'rub.

Ko'kda ta'lim oldi sandin jonfizoliqni Masih,
To'ti maftun o'lmasunmi shakkarafshoning ko'rub.

Pardani yuzdin ko'tarding, jumla huroni bihisht
Ketdi o'zdin mushkbo' zulfi parishoning ko'rub.

Kufr eli o'ldi musallam[3] husni axloqing bila,
Ayladi tasdiqi imon ulvi zufi parishoning ko'rub.

Lek yozmasdin turolmas garchi yo'q vasfingga had,
Har hadisingda, Nihon, bing anbarafshoning[4] ko'rub

[1] **Raxshon** — 1) jilvalanuvchi, yaltiroq, porloq; 2) quyosh.
[2] **Duraxshon** — porloq, yaltiroq.
[3] **Musallam** — bo'ysunish.
[4] **Anbarafshon** — anbar sochuvchi, muattar hid taratuvchi.

* * *

Ey ko‘ngil, kezgil jahonni, o‘zga bir hamroz top,
Rohati se ro‘za umring surgali damsoz top.

Margni qori yog‘ub, sabzang oqarmasdin burun,
Gashti olamdur g‘animat, fasli sayring toz top.

Hech bir jon yo‘qki, oni bo‘lmasa jononasi,
Kel, sanam, bir charx urib, bir dilbari tannoz top.

Dardsiz, bedil bila hargiz musohib bo‘lmag‘il,
Har nafasda bing chamanda dil qushin parvoz top.

Mallapo‘sh, purmakr zohid domiga bo‘lma asir,
Qayda bo‘lsa rind eli, bo‘l xizmatida, roz top.

Ishq nobin ichmagan nomarda bo‘lma hamnishin,
Soqini mayxona bo‘l, may birla ayshing soz top.

Bu jahondin kom, nokom o‘tg‘usi har kas Nihon,
Harna qilkim, yodgoring qolg‘udek e’zoz top.

* * *

Bil g'animat, olti kunlik davri davrondur hayot,
Bir aziz bu qal'ai tan ichra mehmondur hayot.

Har nafasni shukr ila o'tkar xudoni yodida,
Bo'lma g'ofil lomuqarrar vaqti pinhondur hayot.

Bandalarga dema bori jumlai ziruhga
Muhyi a'lamvot xonidin bir ehsondur hayot.

Jism ruhi, tan madori, zindalik xurshididur,
Dil huzuri, ko'zni nuri, ayni darmondur hayot.

Lazzati har kas qoshida shahdi shakkardin laziz,
Bori johil ahliga zulmoti zindondur hayot.

Bir pari ko'zga ko'rinmas, lek bing shaydosi bor,
Garchi qotil, bevafo, matlubi har jondur hayot.

Bexabar qolmay Nihon, chekma pushaymon sudi yo'q,
Ko'z yumib ochqunchalik fursatda to'zondur hayot.

* * *

Kel, ey barno sanam, g‘urbatda qolgoningni bir shod et,
Sitamla umri g‘am chohida o‘tgoningni bir shod et.

Kecha-kunduz fig‘on aylab misoli bulbuli shaydo,
To‘yolmay vaslinga, bag‘ri ezilgoningni bir shod et.

Jafo ko‘p qilma, tut andisha zinhor oh-u zorimdin,
Tarahhum qil, asiri dog‘i hijroningni bir shod et.

Yurib ag‘yor ila rashk otashiga tanni kuydirma,
Alardin tarki azm et, bu qadrdoningni bir shod et.

Xudo haqqi, ayo dilbar, qilub hayroti aqdoming[1],
So‘rab arzi dilim, holi parishoningni bir shod et.

Qilay jonim fido xoki rahingga[2], ey pari zebo,
Taqub xanjar, kelib bu mardi maydoningni bir shod et.

Nihoniy yig‘lab, ey zolim, sanga yolborsa shafqat qil,
Faqirliqdin socholmay zar, uyalgoningni bir shod et.

[1] **Aqdom** — qadaming.

[2] **Hoki rah** — yo‘lingning g‘ubori.

* * *

Ey sabo, borsang mani arzimni sultonimga ayt,
Ko‘zlaringdin yosh to‘kub, daryoiy ummonimga ayt.

Dildagi dard-u g‘amim izhor etay, yodingda tut,
Yaxshi taqdir aylasun, sadbargi xandonimga ayt.

Yo‘l yiroq, hajrida tashlab qo‘ymasun afgorni,
Jannati vasliga olgon hur-u g‘ulmonimga ayt.

Lola yanglig‘ qat-baqat ko‘ksumda behad dog‘lar,
Qilmasun muncha sitam, ul ko‘zi cho‘lponimga ayt.

Furqatingda mahvashing hijroni yondurdi mani,
Har kuni boshim uza xurshidi tobonimga ayt.

Oshnoeman qadimiy, yo‘llaringga intizor,
Na bo‘lur qilsa karam, ul bog‘u bo‘stonimga ayt.

Mushku anbar kokulin arqo uza chulg‘ab nigor,
Bir kelib holim so‘rab ketsunki, jononimga ayt.

Ey Nihoniy, kelgoni or aylagay sandin o‘zi,
Zoti, bilmam, yo pari ul yori shohonimga ayt.

* * *

Bevafo dildorni suymoq abas[1],
Nori ishqi birladur kuymoq abas.

Misli Majnun darbadar behud bo'lib,
Dasht-u sahroni kezib yurmoq abas.

Qilmasa gohi muruvvat oshiqa,
Ul kabi ma'shuqa dil bermoq abas.

So'rmasa har dam kelub rozi diling,
Mehnati anduhini yutmoq abas.

Shum raqib ra'yi ila qo'ysa qadam,
Andin ummidi vafo kutmoq abas.

Jonni qadrin bilmagan jononani
Xanjariga bo'g'izni tutmoq abas.

Avvalida jabr-u zulmin o'ylamay,
Bing pushaymon nolasin chekmoq abas.

Ey Nihon, ayni haqiqat istasang,
Bu majoziga ko'ngul qo'ymoq abas.

[1] **Abas** — behuda ish.

* * *

Nigoro, bizga parda ochmog'ingizga nalar bois?
Qiyo boqmay yana ko'p qochmog'ingizga nalar bois?

Banogoh uchrasangiz, qad egub yo'lda salom etsam,
Javob olmay, burib yuz o'tmog'ingizga nalar bois?

Yuzumga surtayin, desam, muborak domaningizni,
Qo'lim siltab haqorat etmog'ingizga nalar bois?

Xumori vasl o'lub man munda yig'larman tong otquncha,
Raqib bazmiga har kun ketmog'ingizga nalar bois?

Osub bu dilfiribni rishtai domi uqubatga,
Borib ag'yor ila bazm etmog'ingizga nalar bois?

Necha yil tavba aylab, bu Nihoniy nomalar tutdim,
Uqub bir bor ko'rmay o'tmog'ingizga nalar bois?

* * *

Ban ul qurbonalardinkim, tirikman tanda jonim yo‘x,
Tilib yuz pora aylarsang tahavvufdin[1] gumonim yo‘x.

Ko‘zumga u qadar zulmoti olam bandi zindonam,
Ajaldin boshqa birozod etarli mehribonim yo‘x.

Dilim dunyosina oncha sitamlar qat-qat o‘lmishkim,
Umr ichra bitarsa so‘zlamoqg‘a bing zabonim yo‘x.

Vujudim vahshating sahrosidin tutmish vatan, hayhot,
Maorif chashmasindin sabzali bir bo‘stonim yo‘x.

Banam ul murg‘i shabxondek[2] chekarman har sahar faryod,
Qani ul faslu, ul gulshan, qani jomi jahonim, yo‘x.

Masiho ketti o‘xshar tushmadi, jismim tahayyurda[3],
Bo‘lak bir ruhafzo[4] bo‘lmoqa bir nuktadonim[5] yo‘x.

Nihonni taklif etma suhbatingga ahli donish, deb
Ki g‘ayraz jahli g‘aflat boshdin o‘tgan dostonim yo‘x.

---

[1] **Tahavvuf** — havf.

[2] **Murg‘i shabxon** — boyo‘g‘li, tunda sayrovchi qush.

[3] **Tahayyur** — hayratlanish.

[4] **Ruhafzo** — ruhlantiruvchi.

[5] **Nuktadon** — go‘zal so‘zlovchi.

* * *

Man kabi mahzuning[1] ichra diydasi xunbor[2] yo'x,
Dard-u g'am, hajr-u alam, ishqing bila afgor yo'x.

Oston aylab boshimni qancha termuldi ko'zum,
Lek xolo maqdamingdin[3] zarrae osor yo'x.

Har kecha faryod ururman to saharlar yod etub,
Qaytub ul bog'u chaman, ul g'uncha, gulruxsor yo'x.

Ishq savdosi aro yolg'uz xaridoring edim,
Ore, jonimni sotardim, jon uchun bozor yo'x.

Garchi sen uzmoq esang mandin mururi[4] shafqating,
Manda sandin boshqa ko'ngil istamish dildor yo'x.

Manga ham sun, soqiyo, nobi ajaldin bir qadah,
Toki Mansuram dilimda xavfi tori dor yo'x.

Na sabab ohimga boqmas o'lding, ey olijanob,
Tutdig'im sandin Nihon ko'ngilda bir asror yo'x.

[1] **Mahzun** — g'amgin, xafa.
[2] **Xunbor** — qon yig'lovchi.
[3] **Maqdam** — qadamlar.
[4] **Murur** — yurish, ko'chish, o'tish.

* * *

Dilda darding bo‘lmasa, Luqmon-u Buqrodin na sud?
Tanni qadrin bilmasang, tushsa Masihodin na sud?

Bahrasiz o‘lsang har ikki olam ayshi komidin[1],
Faqru baxt-u xayr-u shar-ru zuhd-u taqvodin na sud?

Bo‘lmasa ko‘ngilda gar ishq-u muhabbatdin asar,
Gar tirilsa qaytadin Layli, Zulayhodin na sud?

Gulshan ichra kechsa umring quvvati shom o‘lmasa,
Sunbul-u rayhon aro sayr-u tamoshodin na sud?

To cho‘mub, g‘avvos o‘lub andak riyozat etmasang,
Bahr[2] aro marjon-u gavhar, durri yaktodin[3] na sud?

Ul qo‘lingda bo‘lmasa naqdi bizoat, ey rafiq,
Ore, mehnat birla bo‘lgan g‘ayri paydodin na sud?

Ey Nihon, bir hol taqrir etmayin taqlid ilan
Umr o‘tkargan bila dunyoi uqbodin[4] na sud?

---

[1] **Kom** — maqsad, istak. Bu yerda; noil bo‘lish, erishish.

[2] **Bahr** — dengiz.

[3] **Duri yakto** — yagona tengsiz.

[4] **Uqbo** — oxirat.

* * *

Fikr qilsam, bu gul vaslingga hayron o'lmayan kimdur?
Bo'lib devona ko'yingda g'azalxon o'lmayan kimdur?

Xizr nogah Masiho jon bag'ishlar shahdi guftoring,
Qilub ming jon fido har damda qurbon o'lmayan kimdur?

Raso xush qomating raftoridin tovus xijil bo'lgach,
Xiromingni ko'rub dilso'zi hijron o'lmayan kimdur?

Esa bulbul adoi orazing gulshanda qon og'lab,
Kamoling shavqida tun-kecha giryon o'lmayan kimdur?

Labi la'lingga gar yetmoq muyassar o'lsa, ey barno,
Borub daryoya g'avvosi Badaxshon o'lmayan kimdur?

Duchor etmak esa qasding qaro zulfingni dom aylab,
Firibi ofatingdin saydi paykon o'lmayan kimdur?

Yonar sha'mi jamoling kechalar ag'yor bazmida,
Kuyib rashk otashiga jismi so'zon o'lmayan kimdur?

Nigoro, rasm ekan ushshoq elini shayd o'ldurmoq
Sani bu odatingdin bo'g'zi bir qon o'lmayan kimdur?

Agar doim bu xil jabr-u jafo qilsang, ayo zolim,
Bu dahr ichra alingdin xonavayron o'lmayan kimdur?

Netar bir rahm qilsang, yuz jafo qilganda, ey jono,
Emaz yolg'iz Nihoniy, shodu xandon o'lmayan kimdur?

* * *

Bu kunlar furqatingda[1] turfa hol-u iztirobim vor
Nafas ichra tuman-turlu chekarga ko'p azobim vor.

Eshitmas hech kishi hajringda qilgan ohu zorimni
Jununim[2] haddin oshdi, dilda na sabr ila tobim vor.

Yutarman, chora yo'q, to tanda bor jon dog'i[3] dardingni
Na kechmoqqa qarorim, na yetarga bir hisobim vor.

Uzoq kunlarni yig'lab o'tkarurman dard-u g'am birla
Ne kech tong otqucha orom olurga zarra xobim vor.

Xudo haqqi, ko'ngilda bo'lsa insofing tarahhum qil
Qiyo boqg'ilki, to o'lsam yo'lingda ko'p savobim vor.

So'rar bo'lsang quduming ostig'a qurbon etarga jon
Tamomi xonumonu jismu jon ila javobim vor.

Necha yildin beri ko'yingda besomon Majnunam,
Demassan birgina, ey mah, Nihon holi xarobim vor.

---

[1] **Furqat** — ayriliq judolik, hijron.

[2] **Junun** — devonalik.

[3] **Dog'i** — 1) qayg'u, alam, kulfat. 2) yana, taqin.

* * *

Haqiqat ko‘zing och, boq olama, ne mojarosi bor,
Bashar, g‘ayrul-bashar har qaysining chun-u charosi bor.

Tilsimedurki, hech kim fath etolmas ko‘hna dunyoni,
Vale to‘rt kun tamosho etgudek aysh-u namosi bor.

Nafasni qadrini bilsang, xush o‘tkar, yurma behuda,
Bahoring oldi yozdur, orqadin qishlik havosi bor.

Jahonning shodiga shod o‘lma, anduhiga g‘am chekma,
Bugun kim shod o‘libdur, erta oqshom bir azosi bor.

Hayoting misli ro‘yo, uyg‘onur joying lahad bir kun,
Bilub bo‘lmas hijob ortida ne sir-ru hafosi bor.

O‘zingdin boshqalarni dardi yo‘q, deb bo‘lmag‘il g‘ofil,
Saharlar bir qisim par andalibning bing navosi bor.

Boshida posbon yo‘q, deb yetim ahlini qaqshatma,
Oning hech bo‘lmasa yo‘qdin bino qilgan Xudosi bor.

Olib, zohid, o‘zingni, pesha aylab ul riyozoting[1],
Bo‘laklar ko‘nglig‘a ko‘p rahna solma, muttakosi[2] bor.

Faqat bir san emassan, yaxshilardin bir masal qolmish:
Jahonga kim kelibdur ko‘nglida bir muddaosi bor.

---

[1] **Riyozot** — qiyinchilik, mashaqqat.

[2] **Muttako** — suyanchiq.

O‘zingdin o‘zgani atvoriga[1] ta’n etma, ey nokas,
Ki har tanni tabiat ismida bir podshosi bor.

Jahonni g‘ussa-yu dardi bu ishq oldida marhamdur,
Muhabbatdin bo‘lak har bir marazning bir davosi bor.

Hama ushshoq eli ma’shuqasidin komyob o‘lsa,
Nihonni tongla kun ko‘rsatmoqa ahd-u vafosi bor.

[1] **Atvor** — yurish-turish, fe’l, xulq.

* * *

G‘ubori maqdamingni ko‘zga surma aylasam arzir,
Yetarga ostoning xishti[1] ma’vo aylasam arzir.

Firoqing-la to‘karsa bu jigar qonini hijroning,
Muborak xanjaringni bo‘g‘zima jo aylasam arzir.

Vale bozori ishqa qo‘ysalar bir torai zulfing,
Xaridori o‘lib ming jonni savdo aylasam arzir.

Rafiqim dard-u g‘urbat, munisim jabr-u jafo aylab,
Ko‘yingda bistarimni[2] sangi xoro aylasam arzir.

Jamoling shavqida bulbul kabi vaqti sahar yig‘lab,
Ki har gulshanda o‘zni qancha shaydo aylasam arzir.

Agarchi ming balo boshimga solg‘ung, maylidur’ ammo,
Raqibim dastidi har qancha g‘avg‘o aylasam arzir.

Nihon ko‘pdur jahonda san kabi xush moh paykarlar,
Vale tun-kun sani vasfingni insho aylasam arzir.

[1] **Xisht** — g‘isht.

[2] **Bistar** — ko‘rpa-to‘shak, o‘rin.

* * *

Xastasin ko‘rgali ul dilbari jonon keladur,
Yuzi moh, yulduzi o‘t, ko‘zlari cho‘lpon keladur.

Surma tortib ko‘ziga qirmizi ko‘ylakni kiyub,
O‘ynatib xanjarini qilg‘ali qurbon keladur.

Sandin o‘zga yo‘q ekan ishqima chin kuygon deb,
Avvalg‘i va’dasida turgali qochgon keladur.

Tun-u kun hajrida kezgan bu gadosin qo‘lina,
Emdi vaslin mayidin qilg‘ali ehson keladur.

Bugina sizga jafo solganin aybonasiga,
Bu kecha yolg‘uz o‘zi bo‘lgali mehmon keladur.

Hali ham ko‘ngli aro bormu deb ishqim asari,
Ramzi dil olmoq uchun bilgali maston keladur.

Qissai jonni, Nihon, maqdama qil poyandoz,
Arzi holingni bugun so‘rgali sulton keladur.

* * *

Mubtalo qilgan mani ul mushki sunbul[1] toringiz,
Ohu ko‘zlar posboni xanjari xunxoringiz.

Hasrat-u anduh-u g‘amga oshno qilgan o‘shal,
Mori[2] pechondek o‘ralgan zulfi anbarboringiz.

Muncha ham zolim ekan, rahm aylamasdur holima,
G‘abg‘ab[3] uzra turgan ul hajjoji dilozoringiz.

Dam-badam yodimga tushsa toqat etmas tanda jon,
Xush tabassumlar bilan qilgan shakar guftoringiz.

Rangi zardim hurmati bir yo‘l nazar aylang bango,
Dardidin topsa shifo shoyad hazin bemoringiz.

Zoe o‘lmasdin bu jonim olsangiz yuzdin niqob,
Bir ko‘rub o‘lsam yo‘q armon, oy kabi ruxsoringiz.

Ohkim, sharmandadur ko‘rsa agar tovuslar
Bog‘ aro gul yosumanlar ichra xush raftoringiz.

Xavf etarman bir gunoh o‘tganmukin man xastadin,
Yo olibdur shum raqiblar sir ila asroringiz.

Aylaram ko‘p orzu bir olmoqa komi visol,
Bir qiyo boqmoqg‘a, jonon, kelmasun ko‘p oringiz.

Ne o‘lur mahzun Nihonni boshi o‘lsa oston,
Bir qadam yetkursangiz, jon etsa bir iysoringiz.

---

[1] **Sunbul** — xushbo‘y o‘simlik, ma’shuqaning sochiga o‘xshatiladi.

[2] **Mor** — ilon.

[3] **G‘abg‘ab** — bag‘baqa.

* * *

Ey mahvashi[1] zamonim, ey yor, xush kelubsiz,
Bizdek g'aribni yo'xlab, dildor, xush kelubsiz.

Navmid[2] aylamasdin munglug' faqiringizni,
Ko'nglini bir olay, deb bisyor xush kelubsiz.

Yetdi falakka boshim, ko'p shod-u xurram o'ldum,
Mahv o'ldi barcha g'amlar zinhor, xush kelubsiz.

Behaddu beshumor[3] ul qilgan gunohlarimni
Olmay ko'ngilga hargiz, ming bor xush kelubsiz.

Man bedab yozardim ash'or kuyganimdin,
Ko'rganingizda topmay ozor, xush kelubsiz.

Ko'rmang, ilohi, hargiz kamlik yuzin jahonda,
Maqsudingizni bersun jabbor[4], xush kelubsiz.

Tortiq qilay desam, yo'q bir jondin o'zga tuhfa,
Qilmay faqirlig'imdin hech or, xush kelubsiz.

Yuz rang ziynat ila oro berib haramdin,
Ming ishva birla tovus raftor, xush kelubsiz.

Ul ko'zga surma tortib, qo'lga qo'yib xinolar,
Pardoz etib, sepib mushk-totor, xush kelubsiz.

---

[1] **Mahvash** — (Mohvash) — Oyday go'zal mahbuba.

[2] **Navmid** — noumid.

[3] **Beshumor** — behisob.

[4] **Jabbor** — Alloh ismi.

Gahi tabassum aylab, kumush tumorni boylab,
Oshiqni siz sinay deb, dildor, xush kelubsiz

Soat qilib hamoyil, kokillaring parishon,
Bir-bir bosib xiromon asror, xush kelubsiz.

Bog‘ eshigini ochib, olma, anoringizni
Bizlarga tortiq aylab, xushtor, xush kelubsiz.

Ko‘rmang Nihoniy hargiz kamlik yuzini, yorim,
Ayla ko‘ngulni shod, deb gulzor, xush kelubsiz.

* * *

Rahmi yo‘q, ey bevafo dildor, bilmaysan hanuz,
Qomatingga bo‘lmisham xushtor, bilmaysan hanuz.

Hasratingda qon yutarman kechalar tong otqucha,
Man asiri mubtaloing, yor, bilmaysan hanuz.

Yosh to‘kub hajringda bo‘ldim qomatim nundek duto,
G‘am bilan bo‘ldi yurak zangor, bilmaysan hanuz.

Mast bo‘lubman, ul kuni bir yo‘l jamolingni ko‘rub,
Emdi bo‘ldim sog‘inib afgor, bilmaysan hanuz.

Xor etib man xastani, bo‘lding raqibga oshno,
Topti ko‘p mahzun dilim ozor, bilmaysan hanuz.

Ohkim, dard-u g‘amingni kechayu kunduz chekib,
Hasratingda bo‘ldi tan bemor, bilmaysan hanuz.

Nomi harfingni Nihoniy misraimga toj etib,
Arzi dilni ayladim izhor, bilmaysan hanuz.

* * *

Jahon ichra seningdek mahvasho hargiz bino bo‘lmas,
Vale bo‘lgan bilan sandek qadi mavzun fano bo‘lmas.

Ko‘rub keldim tamomi mohpaykar, dilrabolarni,
Saningdek oqil-u dono-yu bo sharmu hayo bo‘lmas.

Agar ming yil umr bersa xudoi lomakon manga,
Yozar bo‘lmas kecha-kunduz sani vasfing ado bo‘lmas.

Gahi chiqsang haramdin g‘amza birla yuz ochib, jono,
Iloji yo‘q erur ko‘rgan kishi to mubtalo bo‘lmas.

Gulistonlar aro tovus kabi yursang xirom aylab,
Qayu gul, o‘ylasam, nozuk qadingga oshno bo‘lmas.

Bosub yuz noz ila gar sayri bozor aylasang nogah,
Qolur kim furqatingda bo‘lsa ming jon fido bo‘lmas.

Bo‘lib qoyim saharlar andalib bechora hajringda,
Chamanda nola aylab, lahza vasfingdin judo bo‘lmas.

Hama bo‘ldi asiri mubtaloi dog‘i hijroning
Va lekin man kabi hech kim ko‘yingda benavo bo‘lmas.

Yotarman xok aro, tepkay yana boshlarga shum ag‘yor,
Bo‘lak oshiqlaring muncha zalil-u zeri po bo‘lmas.

Rafiqim kunduzi g‘am, kecha yo‘ldoshim erur hasrat,
Agar o‘lsam kafan ichra alamdin tan sivo bo‘lmas.

Mani dardimga darmon axtarur lodon tabib bilmas,
Manga ul xoki poyingdin bo‘lak dor-u davo bo‘lmas.

Kel, ey dilbar, chiqarga yetdi jon, ko‘rsat jamolingni,
Manga qilgan bu zulmingdin sanga hech muddao bo‘lmas.

Nihoniy ojizingga ko‘p jafo qilma, tarahhum qil,
Masaldir: “Kimki dil ozor erur, mardi xudo bo‘lmas”.

* * *

Manam Majnun kabi endi gadolar bo‘lmasam bo‘lmas,
Kiyib janda[1], kuloh[2], g‘amda adolar bo‘lmasam bo‘lmas.

Netay bir sho‘hi zolimg‘a bo‘libman mubtalo oxir,
Netay, solgan jafosiga rizolar bo‘lmasam bo‘lmas.

Qizil guldek yuzini orzusida qilib afg‘on,
Saharlar andalibdek purnavolar bo‘lmasam bo‘lmas.

Agar jono qiyo boqsa, ko‘rib Adham[3] kabi vaslin,
Yo‘lida xonumondin mosivolar bo‘lmasam bo‘lmas.

Yetarni qasd etarsam ko‘hkan[4] Farhod amsoli[5],
Jafosi birla avval oshnolar bo‘lmasam bo‘lmas.

Tarahhum aylamas deb, birgina ummid uzmasdin,
Kerak bo‘lsa aziz jondin judolar bo‘lmasam bo‘lmas.

Nihoniy dardini pinhon tutarga chora yo‘q aslo,
Bo‘lib afsona ishqida gadolar bo‘lmasam bo‘lmas.

---

[1] **Janda** — darveshlar to‘ni.

[2] **Kuloh** — darveshlar bosh kiyimi.

[3] **Adham** — Ibrohim Adham (Yor diydori uchun taxtdan voz kechib, tasavvuf yo‘lini tanlagan podsho).

[4] **Ko‘hkan** — tog‘ qazuvchi, Farhodning laqabi.

[5] **Amsol** — misoli.

* * *

Aydim: Pari, man xastaga muncha jafo darkor emas,
Yetkay qiyo boqmaslig'ing, ortuq jazo darkor emas.

Dedi kulib: Ey xasta qul, ma'shuq elini xuyi shul,
Kim, dedi, ber sanga ko'ngil, ket, mojaro darkor emas.

Dedim: Qoshing ko'p qoradur, ammo ko'zing makkoradur,
Ayg'il manga ko'p qilmasun afsun-duo darkor emas.

Dedi: Ko'zim ta'n etmagil, mujg'on o'qim o'ynatmag'il,
Ko'pdur kiyikdin mahrami, sandek ado darkor emas.

Dedim: Tarahhum aylagil, o'ldurmoqa tutma havas,
Ishqingda ming o'lgan o'zum, xanjar manga darkor emas.

Dedi yana: Oshiq elin o'ldirmoq o'lgan odatim,
Sandek manga joni shirin, qo'rqoq ako darkor emas.

Dedim: Agar ming jon esa bo'lsin fidoyi qomating,
Mujgon o'qidin o'zgasi bo'lsa sira darkor emas.

Dedi: Qilich birla qizil qoning to'kuv nomus emas,
Lekin mujamni titratub qilmoq imo darkor emas.

Dedim: O'zim ko'ngli yarim, boz ustiga aylab g'azab,
Talxi zahar guftor ila bermoq sazo darkor emas.

Dedi: Kimi oshiq manga, to chekmasin ming dard-u g'am,
To o'lmasa hijron ila anga vafo darkor emas.

Dedim: Qalay ag‘yorlar har kecha bazm aylar sani,
Onlarga yo‘q ta’nu falon, bizga kazo darkor emas.

Dedi: Agar yo‘q toqating solgan jafo-yu javrima,
Ket, qilma bu ostonada chunu-charo, darkor emas.

Dedim: Ketar bo‘lsang buzub ul ahd ila paymonlaring,
Kel, qo‘y manga ham san kabi yuzi qaro darkor emas.

Dedi: Nihon erdi vafo ko‘nglida, ey ixlosi yo‘q,
Bor emdi sandek manga ham baxti qaro darkor emas.

* * *

Shohi xo‘bonlik o‘shal zeboga xos,
Mulki husn ichra o‘zi yaktoga xos.

Tiyri mujgon qoshlariga jo qilub,
Sayd qilmoq ul ko‘zi shahloga xos.

Bir qiyo boqmoqda bismil[1] aylamoq,
Zulfi anbar, orazi ra’noga xos.

Damda solmoq yuz tuman dog‘-u alam,
Go‘shai chashmidagi imoga xos.

Andalibga savti xush ta’lim etuv
G‘uncha lab, shakkar tili go‘yoga xos.

Sochidek qilmoq jigarni tor-tor,
Ul sitamgar, shonai burroga xos.

Ey Nihon, sanga shafoat aylamoq
Tongla kun ul ma’shuqi mavloga xos

[1] **Bismil** — so‘yish.

* * *

Olti kunlik umr uchun behuda kirdoring g'alat.
Shodiga xush, hasratiga oh ila zoring g'alat.

Barchani tangrisi bir deb e'tiqod aylab yana,
Mo'rchani ilmay nazarga aylagan koring g'alat.

Davlata mag'rur o'lub kibr-u havo aylab baland,
Bekas-u bechoralarga bergan ozoring g'alat.

Qalb emasmu haq nazargohi, ayo sayyodi nafs,
El ko'ziga dom qurgan joma, dastoring g'alat.

Xayr-u' ehson-u' zakot-u amri haq barpo emas,
Misli Qorun ja'm qilgan moli murdoring g'alat.

Yo'q o'zingda zarrai fazlu kamolot, ey Nihon,
Elga san ko'p nosih o'lma, sahv guftoring g'alat.

* * *

Dema-dema, kori insondur tama',
Fe'li shum, bir kori hayvondur tama'.

Husnu iffat, qadr-u qimmatga zavol,
Nuqsi toat, so'zi imondur tama'.

Qotili nomus, sharming ofati,
Boq, na kulfatlarga solgondur tama'.

Tortanak domida ko'rkim pashshani,
Marg komiga chaqurgondur tama'.

Mardni nomard eliga qul qilub,
Rangu ro'yin zard qilg'ondur tama'.

Boq, necha barno yigitlar bo'yniga
Soil aylab to'rva solgondur tama'.

Bo'lg'usi beshak oyoq ostida xor
Qaysi millat ichra jaryondur tama'.

Ahli isloma harom o'lgonina
Shohidam oyoti qur'ondur tama'.

Ey Nihon, ochlikdin o'lsang suzma qo'l,
Komi zallat, qahri rahmondur tama'.

* * *

Ey ko‘ngul, istar esang zulmat qulubingga charog‘,
Ahli donish suhbatidin bo‘lmagil hargiz yirog‘.

Quvvati bozu bila behuda urma na’ralar,
Mardi maydon gar esang nafsingni o‘ldur beyarog‘.

Asli toat shul, o‘zingdin o‘zgani xushnud qil,
Muttaqiyman, deb kishilar bag‘riga solma tarog‘.

Matlabing rahmat esa xulqu adabda qoin o‘l,
To iki dunyoda topgil davlati fazl-u farog‘.

Yo‘q jahonda hech kas ozor-alamdin chekmagan,
Bu Nihon, yo Rab, netar mahsharda[1] bo‘lganda so‘rog‘.

[1] **Mahshar** — qiyomat kuni.

* * *

Qay kuni ko‘rdimki man diydor, o‘rgulsun quling,
Ul zamon o‘ldim asir, afgor o‘rgulsun quling.

Oh urib ketdim o‘zimdin, qolmadi sabr-u qaror,
Ashki selobim erur anhor, o‘rgulsun quling.

Muncha ham zolim ekansan, qayrilub bir boqmading,
Termulib qoldim yo‘lingda zor, o‘rgulsun quling.

Man o‘zimcha bo‘lmadim, jono, giriftoring sani,
Bor ekan hilqatda bu asror, o‘rgulsun quling.

Rahm qil, insof qil, andak xudodin sharm qil,
Berma ko‘p bechoraga ozor, o‘rgulsun quling.

Barchaga bu ishq savdosi barobar, mug‘bacha[1],
Qilmag‘il bechoralardin or, o‘rgulsun quling.

Naylasun yozmay Nihon darding, o‘zing bir ko‘rmasa,
Aylasa arzi dilin izhor, o‘rgulsun quling.

[1] **Mug‘bacha** — majusiy bola.

* * *

Muhabbat daftaridin bir sabaq vermoqla xummoring
Talab qildi qizil qonimni g'oz etmakka ruxsoring.

Xayol etsam jigarni so'zishi og'zimda qonimdin,
Qadalgan o'xshayur ko'ksimga ul tiyg'i zahardoring.

Sabab nedur bilolmam go'shai chashmingni imosi,
Ishorat qildi, ket, deb qo'ymadi o'lsam xaridoring.

Vafo ummid etib termulgan erdi ko'z janobingdin,
Shahodat yoshlarimga boqmadi ul qahr-u ozoring.

Masaldur yaxshilardin ikki tanda g'uncha bir o'lmaz,
Yiroq et talxxo'lik shahdu shakkar o'lsa bozoring.

Xush etmoq bir ko'ngilni kibriyo[1] dargohida nedur,
Falo tanhar, dedi soilga qur'on ichra jabboring.

O'zing bir rahm edub holini so'rgil bu musofirni,
Ilohi, bir duo aylay, Xizr bo'lsin jilovdoring.

Nihon tutmakla qolmaz dardi hijron oshkor o'lmay,
Kelub ahd aylagil, tokay tutay ko'ngilda asroring.

[1] **Kibriyo** — ulug'lik.

* * *

Mahvasho, man xastani bag‘rini ko‘p qon etmagil,
Otashi hijron ila jismimni so‘zon etmagil.

Nisfi ko‘nglum shod etub, hasratga qo‘yma nisfini,
Bir yo‘li ko‘rsat yuzingni nim namoyon etmagil.

Roziman har damda solsang boshim uzra ming balo.
Zunnor ipin ko‘rsatib vah, nuqsi imon etmagil.

Ostonangda vatan tutgan itingman, ey pari,
Mehr-u shafqat etmasang ham xonavayron etmagil.

To haramdin silkinub chiqqonda solg‘il bir nazar
Kofidur, ammo niqob ostida pinhon etmagil.

Bu g‘aribni munda tashlab, bing navo afg‘on ila
Shum raqiblarni borub bazmingda xandon etmagil.

Bu Nihoniyni agar ozodi g‘am aylay, desang
G‘ayr elini tongla kun vaslingga mehmon etmagil.

* * *

Ey ko‘ngul, qo‘pg‘il saharlar zokiri[1] jonona bo‘l,
Zarbi lillohni urib, qumri kabi giryona bo‘l.

O‘z umiding bevafo dunyoni ayshi komidin,
Oxiratni hasratiga mahrami hamxona bo‘l.

Zuhd-u taqvo aylag‘um, deb bo‘lmag‘il shaytonsifat,
Asli toat istar ersang sokini mayxona bo‘l.

Bodai vahdat[2] yetushsa ich, analhaq zikrin ur,
Qilmag‘il andisha tori dordin mardona bo‘l.

Gar haqiqiy oshiq o‘lsang ibrat ol parvonadin,
Jismi joningdin kechub, bir vasl uchun so‘zona bo‘l.

Ziynati dunyoga mag‘rur o‘lmag‘il Qorun kabi,
Misli Adham pushti-po ur, ko‘yida devona bo‘l.

Yor bir jon istasa vasliga yetkurmoq uchun,
Ey Nihoniy, shukr etub bing jon ila qurbona bo‘l.

[1] **Zokir** — zikr qiluvchi.

[2] **Vahdat** — Olloh taoloning yagonaligi.

* * *

Zohido, ta'n etma ko'p, dilso'zi hijron o'lmusham,
Bir pari siymo ko'yida zor-u hayron o'lmusham.

Zulfi yanglig' shonai g'amdin jigarlar tor-tor,
Laxta-laxta qon to'kub, xok uzra yakson o'lmusham.

Onchunon afg'on etarman bosh qo'yib ostoniga,
Hosil o'lmay matlabim xotirparishon[1] o'lmusham.

Vah, alam zahri, sitam bag'rimda qat-qat dog'lar,
Nori ishqin shiddatidin ashk so'zon o'lmusham.

Birgina vasling tilab gulshanda ohu zor etub,
Bulbuli sho'ridadek mahbusi zindon o'lmusham.

Dardini tarvijidin[2] ketdi farosat, aql-u xush,
El aro, afsona Majnun, telba unvon o'lmusham.

Pechu tob[3] aylar yurak fikri bila tong otg'ucha,
Xanjaridin bosh chekub, emdi pushaymon o'lmusham.

Oshkor o'ldi qilolmay dardi anduhin Nihon,
Qil na qilsang, o'rgilay, qaddiga qurbon o'lmusham.

---

[1] **Xotirparishon** — g'amgin dil.

[2] **Tarvij** — rivojlantirish, qiymatini oshirish.

[3] **Pechu Tob** — to'lg'onish, eshilish

* * *

Ey falak, charxing buzulsun, sandin olmaz kimsa kom,
Bir qushedursan, qilolmas hech kishi domiga rom.

Muncha ham zolim ekansan, ey jahon raftori kaj,
Qayg'urub faryod urar dasti alingdin xosu om.

Sarvi ozod o'lmagandur kimsa joni bir nafas,
Ranji kulfat, dog'i furqat, zulm koringdur mudom.

Hech kishi qochgan bilan sandin omon topmas, bali,
Har taraf uzra quribsan bing tuman tadbiri dom.

Shod o'lur ko'ngil nechuk sandin mukammal bir dami,
Marg nobidin tutar bo'lsang kuni navbatda jom.

Xalq mag'ruri guhar boqmas oyog'in ostiga,
Nishtari sangi halokat maqdam uzra benayom.

Ey Nihoniy, bir kuni o'lmakdin o'zga yo'q iloj,
To'shai roqingni tuzgil qilmag'il ko'p fikri xom.

* * *

Mandin sanga, ey mahliqo, mahbubi davron, assalom,
Iyding muborak, ey pari, ma'shuqai jon, assalom.

Qoldim judolig'da, netay, bo'lsang edi, jono, agar,
Qilgay edim jonimni man yo'lingga qurbon, assalom.

Ey ko'zlari mast-u alast, ey sho'xi zolim mug'bacha,
Ey bemuruvvat, bevafo, ey nomusulmon, assalom.

Ko'p sog'inubman, qolmadi sabr ila toqat zarrae,
Bo'ldi ishim tun-kechalar hajringda afg'on, assalom.

Yo'q ko'zlarimda lahzae orom-u rohatdin asar,
Tong otg'ucha yosh o'rniga yig'lab oqar qon, assalom.

Ishq otashi favvoradur, albatta, oh ursam agar,
Kuygay bu ohim o'tida dasht-u biyobon, assalom.

Hajringda yo'qdur man kabi dilxasta, mahzun, notavon,
Dog'i vatan yuz hissa bing anduhi giryon, assalom.

Hech kim, ilohi, man kabi har ko'chalarda axtarub,
Topmay jamoling bo'lmasun ko'yingda sarson, assalom.

O'xshar o'lar vaqtim yaqin, har yerda bo'lsang, ey nigor,
Vaslingga qilsang bir kelib bir lahza mehmon, assalom.

Ko'z qoni birla nomalar yozdi Nihoniy ertaroq,
Qilsang karam ranji qadam qolmay pushaymon, assalom.

* * *

Navniholi qomating, dildor, sog'indim bugun,
Mohi anvar[1] orazingni, yor, sog'indim bugun.

Nargisi shahlolaring ul tiyri mujgoning bila
G'unchai maygun labing bisyor sog'indim bugun.

Ushlabon nozuk belingni aylagan g'amzang bila.
Nozu istig'nolaring[2] man zor sog'indim bugun.

Qolmadi sabr ila toqat necha kunlardin beri,
Ko'rmayin nozuk qading, ming bor sog'indim bugun.

Andalibi purnavoman gulshani ishqing aro,
Gul yuzingga to'ymayin bir bor sog'indim bugun.

Gohi xilvat ko'chalar birla kelub holim so'rab,
Aylagan ehsonlaring g'amxor, sog'indim bugun.

Muntazirdur bu Nihon, jismi bila joni talosh,
Benasib etmay keling zinhor, sog'indim bugun.

---

[1] **Mohi anvar** — oydek nurli, porloq.

[2] **Istig'no** — 1) muhtoj bo'lmaslik; 2) o'z izzatida turish; 3)mutakabbirlik; 4) noz, karashma.

* * *

Hech kim mandek, ilohi, yoridin ayrilmasun,
Munisi g‘amxor o‘shal dildoridin ayrilmasun.

Orzusiga yetolmay topmasin umri xazon,
Misli bulbul vaqt o‘tub gulzoridin ayrilmasun.

Mehr qo‘ygandin kimarsa bo‘lmasun hech benasib,
Tovusi bog‘i chaman raftoridin ayrilmasun.

Cho‘g‘z yanglig‘ xonavayron o‘lmasun mandek kishi,
Chok o‘lub bag‘ri sadafdek boridin ayrilmasun.

Tiyri sayyodi ajaldin siynasi majruh o‘lub,
Ohui mushki Xo‘tan totoridin ayrilmasun.

Ayrilib tan rohati, ko‘z uyqusidin ham yana,
Dilbari joni, shirin guftoridin ayrilmasun.

Dod derman termulub, ko‘kka boqub, yo‘qdur iloj
Dushmaning ham bir gulruxsoridin ayrilmasun.

Bormu bir mardi xudo siynamga ursa xanjari,
To Nihon ul rahmati asroridin ayrilmasun.

* * *

Ey pari, hajringda mandek kimsa sarson o‘lmasun,
Qumridek vaqti sahar hasratda nolon o‘lmasun.

Xoki turbatda sani anduhi pur g‘ussang yutub,
Laxta-laxta og‘zidin ketgan qaro qon o‘lmasun.

To‘lg‘onub, faryod urub, to shomdin tong otqucha,
Fikri-yodingda jigar-bag‘ri ezilgon o‘lmasun.

Bir yilon chaqg‘on kishidek dod derman qichqirub,
Har kishi zaxmi zahardin mancha giryon o‘lmasun.

Solmasun hech kim boshiga bu sani savdolaring,
Aqldin begona, hushdin ko‘p parishon o‘lmasun.

Bir taraf — dardi muhabbat, bir taraf — bechoralik,
Bir taraf — rashki raqibdin so‘zi chandon o‘lmasun.

Do‘zax o‘ti ishq o‘tini oldida rohat ekan,
Bu masal yolg‘on esa aytgan musulmon o‘lmasun.

Emdi toqat qolmadi hajringda g‘am yutmoqg‘a hech,
O‘ldur-o‘ldur, oshiq o‘lsun mayli, jonon o‘lmasun.

Bir yana ko‘rsat jamoling, vah to‘yay, o‘lsam Nihon,
To‘ymadim vaslingga deb ko‘nglida armon o‘lmasun.

* * *

Sabo, arzimni yetkur, mohi tobon bir kelub ketsun,
Tamomi husn elini shohi sulton bir kelub ketsun.

Tutarga bir dami suhbat asir-u notavon birlan,
Darig' tutmay nigorim bo'lsa imkon, bir kelub ketsun.

Necha kundin beri ko'rsatmayin vaslin sog'inturdi,
Tarahhum[1] aylasun ul sho'xi jonon, bir kelub ketsun.

Kelurg'a kunduzi andisha qilsa shum raqiblardin,
Qilubon asr ila yo shom-u xufton bir kelub ketsun.

Agar qo'rqsa xudodin, man g'arib-u zor shaydoni
Yo'lidan qilmasun ko'p zor-u hayron, bir kelub ketsun.

Qafas ichra asiram andalibdek dog'i hajridin,
Agar bir marhamat qilsa, guliston bir kelub ketsun.

Va yo qilmoq esa qurbon bu zulmi kor-u boridin,
Olib qo'liga xanjar mardi maydon bir kelub ketsun.

Firoqi furqatidin yetdi boshim bistari[2] g'amga,
Ko'rarga ul hakimi Kobiliston bir kelub ketsun.

Ketub tandin madorim gul yuzim chun za'faron[3] o'ldi,
Dilimni quvvati, dardimga darmon bir kelub ketsun.

---

[1] **Tarahhum** — rahm qilmoq, shafqat qilmoq.

[2] **Bistar** — ko'rpa-to'shak, o'rin.

[3] **Za'faron** — sarg'ish tus beruvchi xushbo'y o'simlik; majozan: sariq rang.

Agarchi mandin o‘tgan bo‘lsa har sahvu xato, dildor
Kechursin, tavba qildim, yuz pushaymon, bir kelub ketsun.

Nihoniyga necha ahd-u vafolar bog‘lagan erdi,
Degil: Ko‘p qilmasun ahdini yolg‘on, bir kelub ketsun.

* * *

Mehringni qo‘yma hargiz, bir bevafo jahon bu,
Har gulshani umrga yetkurgusi xazon bu.

Gar bulsa toj-u baxting, yetsa falakka taxting,
Buzg‘ay tamomi raxting, bermas sanga omon bu.

Bermas xabar qazoyi, to‘lsa ajalni oyi,
Bir nogihon baloyi, bekom-u bezabon bu.

Kor etmagay davolar, bing oh-u, bing navolar,
Bir kun diling yarolar sayyodi bekamon bu.

Ahli xiradga[1] dunyo chiqquncha fursati yo,
Donish eliga go‘yo bir fasli bo‘ston bu.

Har sharba no‘sh etarlik, bir dam nafas tutarlik,
Karvon qo‘nub o‘tarlik, vayrona bir makon bu.

G‘aflatda, ey Nihoniy, o‘tkarmagil zamonni,
Yodig‘a bo‘l xudoni, navbat kutar qachon bu?

[1] **Ahlixirad** — oqillar, donishmandlar, aql egalari.

* * *

O‘ylasam, ul dilbarim makkorga o‘xshaydi-ku,
Rahmi yo‘q bir bevafo dildorga o‘xshaydi-ku.

Ul kuni gulgun niqobini ochub man xastani,
Ishqidin bo‘ynimga solgan torga o‘xshaydi-ku.

To bu dam olmas xabar, bo‘ldi yuraklar chok-chok,
Sho‘xi zolim, xiyla dil ozorga o‘xshaydi-ku.

Nargisi aylay muruvvat, desa, qo‘ymas ko‘zlari,
Xanjari mujgonlari xunxorga o‘xshaydi-ku.

O‘zicha qilmas manga muncha jafo-yu jabrni,
Anga o‘rgatgan magar ag‘yorga o‘xshaydi-ku.

Ki bilmas yoshdur ushshoq qadrini onchakim,
Qilmog‘i yo sharm, yoki orga o‘xshaydi-ku.

Ey Nihon, qilding tavallo, necha yo‘llar kelmadi,
San kabi bechoradin bezorga o‘xshaydi-ku.

* * *

Mani Majnun qilib ul nozaninni chashmi Laylosi,
Latofat avjida mahvash etib olamni shaydosi.

Asir o'ldim mani mahzun ani ko'rgach, malomatda
Xaloyiqdin uzub dilni, bo'lubman oni rasvosi.

Bihamdillah, qatori oshno yo'lida yotibman,
Dilimga dam-badam tushgach, kafi poyin tamannosi.

Rafiq o'lsa saning ko'nglung, mango shohliqdin a'lodur,
Zihi[1], davlat agar desang g'ulomim ichra adnosi.

O'shal bozori husn ichra ko'rub zeboliging ko'nglum,
Qilib sarfi hayoti birla olmoqni taqozosi.

Xayoli bodai ishqing qilur bo'lsa xiradahli,
O'shal soat ketib aqli, etar gulxanni ma'vosi.

Na mumkin izlamoq sizga ani ko'yin toparman, deb
Nihoniyga erur ul martaba yorin tamannosi[2].

[1] **Zihi** — qanday yaxshi, joyida, go'zal (undov so'z).

[2] **Tamanno** — istak, orzu.

* * *

Birodarlar, bo'lubman zoru hayron, yig'lamay naylay,
Asiri mubtaloi dog'i hijron, yig'lamay naylay.

Ajab ma'shuqai zolim ekan, parvosi yo'q aslo,
Mani ko'rganda o'zni qilsa pinhon, yig'lamay naylay.

Firoqida yutarman zahru g'am, olmas xabar bir yo'l,
G'arib ahvolima bu ko'ngli vayron, yig'lamay naylay.

Olib yuz noz ila avval dilimni ul pari zolim,
Solibdur emdilikda qahri zindon, yig'lamay naylay.

Qilub ko'p va'dalar man xastani bir kelmayin, jono,
Hamisha aylasa ahdini yolg'on, yig'lamay naylay.

Yurub ag'yor ila doim qilur aysh-u farog'atlar,
Qolub rashk o'tida man jismi so'zon, yig'lamay naylay.

Umr o'tdi butun motamda gul vaslini yod aylab,
Hanuz bir to'ymoqa yo'q bo'lsa imkon, yig'lamay naylay.

Haloyiq, ta'na etmang bu Nihoniy muncha yig'lar, deb
Ushalmay ketsa dildin zarra armon, yig'lamay naylay.

MASNAVIYLAR

Ey mahvashi guluzor jonim,
Xurshidi zamon ila jahonim.

Ey, oinadin yuzi mujallo[1],
Sultoni Eram, paridin a'lo.

Ey sohibi xush-u bofarosat,
Ey kishvari aql ila qiyosat.

Ey munisi rohati dil-u jon,
Ey mahrami jon-u tanga darmon.

Ey ishq elin karashma sozi,
Ey dilzadalarni dilnavozi.

Ey dilbari qadraso-yu barno,
Ey ziyrak-u botamiz-u dono.

Ey rahm ko'ngulli, purmuruvvat,
Ey sohibi mahram-u muhabbat.

Ey ko'zlari qora, surmadin tez,
Ey ikki qoshi qalamga xunrez.

Ey dilbari g'unchai qizil gul,
Ey sochlari sunbul ila janbul.

Ey tishlari gavhar ila marjon,
Ey tillari qandu shahdafshon.

[1] **Mujallo** — jilolangan, yaltiragan.

Bir kun yo‘luqub dame visola,
Ra’no kabi qaddi barkamola.

Tegdi manga ishqni balosi,
Bo‘ldum alamingni mubtalosi.

Tushdi boshima tuman jafolar,
Kuydi yuragim bo‘lub adolar.

Na kecha kelur ko‘zumga bir xob,
Na ro‘z tanimda sabr ila tob.

Yig‘lab qilaman hamisha nola,
Ko‘z yoshim oqub misoli jola.

Ishqing ishimi fig‘on qildi,
Bag‘r-u jigarimni qon qildi.

Lutf-u karam et, mahi zamonim,
Mahv o‘lmasidin aziz jonim.

Bu yaxshilik etganingga, jono,
Olloh o‘zidur hakimi dono.

Umringni daroz aylasun haq,
Davlat ila sarfarozaylasun haq.

Izzat bila barqaror qilsun,
Dushmanlaring o‘lsa, xor qilsun.

Hech ko‘rmagil umring ichra bir g‘am,
Bo‘lma alamu sitamga hamdam.

Bo‘lgilki, hamisha shod-u xandon,
Rizqingni haq aylasun farovon.

Ne matlabing o‘lsa, haq yetursun,
Boshingdagi g‘amlaring bitursun.

Ming oyni yuzin tamom ko‘rgil,
Ishrat bila aysh-u kom surgil.

Man xasta ko‘yingda bir gadoyam,
Yalg‘uz sanga sohibi duoyam.

Ayla bu gadoya lutf-u ehson,
Vasling shamig‘a ayla mehmon.

Shuldur mani maqsadim, ayo yor,
Gar aylamasang faqir, deb, or.

Itmom etub Nihoniy xoma,
Qilgum talabi javobi noma.

* * *

Arz ila yana sango salomim,
Shirin suxan-u shakar kalomim.

Bir yo'l ko'rub ul kuni visoling,
Bo'ldum man asiri dona xoling.

Ey, hurlar aro huri zamona,
Gavharlar aro duri yagona.

Bulbul bo'lubon yuzingga banda,
Ta'rifing etar sahar chamanda.

Raftoringa tovusi xiromon
Bog' ichra qilur o'zini qurbon.

Ko'rsa malak ahli navniholing,
Tabassumi o'lardi qiyl-u qoling.

Quldur parilar nazokatingga,
Taslim etar farosatingga.

Husn ahli tamomisi hijildur,
Balki hamasi o'zingga quldur.

Qildim huzuringga bul savole,
Qilding g'azab ila bul javobe.

Dedimki: Qadingga oshnoman,
Dedingki: Ishonma, bevafoman.

Dedimki: Boshingda sochmu, sunbul?
Dedingki: Bu ishq elinadur g'ul.

Dedimki: Nadur bu zulfi pechon?
Dedingki: Musaxxari[1] hama jon.

Dedimki: Qoshing muncha qarodur?
Dedingki: Bu sohibi jafodur.

Dedimki: Ko'zingmu surmadin tez,
Dedingki: Bu — zulmxo'i xunrez.

Dedimki: Yuzingmu gulmu ra'no?
Dedingki: Bu — mohi olamoro.

Dedimki: Labingmu g'unchayi gul?
Dedingki: Asiri zor bulbul.

Dedimki: Tishingmu durm-u marjon?
Dedingki: Bu durri bahri ummon.

Dedimki: Tilingmu yo shakardur?
Dedingki: Hayotinga xatardur.

Dedimki: Tamog'm-u g'abg'ab oti?
Dedingki: Bu — ishq elin hayoti.

Dedimki: Bir o'payki, ber javobe?
Dedingki: Hazilni yo'q savobi.

Dedimki: Nigor, bir qiyo boq,
Dedingki: Sango zarurmu o'lmoq?!

Vaslingga to'yay,— desam qarab, yor,
Chertib qabog'ingni aylading or.

[1] **Musaxxar** — bo'ysundirilgan.

Muncha sanga zulm ila sitamlar,
Ming turlu uqubat-u alamlar.

Yo parda ko‘tar, jamol ochg‘il,
Yo xanjar urub, qonimni sochg‘il.

Yo bir dame suhbatingga yor et,
Yo tiyg‘ing urub o‘lumga yor et.

Ey sho‘x, sitamni qilma bisyor,
Ko‘p hasta dilimga berma ozor.

Kelmas kechalar ko‘zumga hech xob,
Yo‘qtur bu tanimda toqatu tob.

Hajringda hamisha oh-u hasrat,
Doim alam ila g‘am, nadomat.

Lozim emas erdi or tutmak,
Oshiqni yo‘lingda xor tutmak.

Ag‘yora hamisha bazm-u rohat,
Mango hama so‘z ila malomat.

Ey zolimi sho‘xi, bevafoe,
Muncha manga qilma san jafoe.

Yig‘lab hama vaqt ko‘zimda, ey jon,
Yosh o‘rnig‘a to‘xtamay oqar qon.

Ag‘yor ila doimo yurursan,
Ko‘rsang mani, muncha berkinursan?!

Ey dilbari nozuk niholim,
Arzim eshit, husni bemisolim.

Bu hasta Nihoniyni shiorin
Ohista o‘qub qilg‘il qarorin.

MURABBALAR

Nazarlarda qay kun javlon aylading,
Olib aql-u hushim hayron aylading,
Ezib yurak-bag‘rim giryon aylading,
Hijron o‘ti birla so‘zon aylading.

Ey dilbari sho‘xi yakto yagona,
Kelgan emas sandek pari zamona,
Kelmas yana aslo emdi jahona,
Yolg‘izlig‘ing, jono, ayon aylading.

O-yu kunga ziyo berur ruxsoring,
Tovuslarga ta’lim etar raftoring,
Jon bag‘ishlar to‘tilarga guftoring,
Qading bahosini ming jon aylading.

Yaroshubdur pardoz-upa, xinolar,
Yo‘l-yo‘l baxmal kamzur, burma yaqolar,
Qullaringga solib yuz ming jafolar,
Ko‘z yoshini misli boron[1] aylading.

Kumush tumor, oltin soatlar osib,
Ushlab beling, tashlab kokil bir bosib,
Ming noz-u ishvalar aylab munosib,
Bazm ahlini qiyg‘os fig‘on aylading.

Qosh-u ko‘zni suzib guldek bo‘yolub,
Goh arazlab, gah o‘ynashub, uyolub,
Akolaring og‘ushiga suyolub,
Tuman-turluk lutf-u ehson aylading.

[1] **Boron** — yomg‘ir.

Taqib ziynatlarikim rang-baranglar,
Qosh ustiga o‘rab katak faranglar,
Quchoqlayin, desam qilib taranglar,
Jerkub, so‘kub, ko‘nglum vayron aylading.

Har xil so‘zlar yozur Majnun devona,
Afsonaman, ermam vale begona,
Ayb etmagil Nihoniyni, jonona,
O‘zing na xil ul kech farmon aylading

* * *

Muhabbat bog‘idin totlig‘ xabardur,
G‘araz ikki g‘uncha bir tanga sardur,
Uzay deb ohista qo‘lni uzatsam,
Biri lola, biri gulbargi tardur.

Xilvat topib bulbul yanglig‘ bu mahzun,
Furqatida ko‘zdin to‘kub jigarxun,
Qo‘nib so‘ray desam bir lahza maygun,
Atrofi xor, osti to‘la nishtardur.

To Mag‘ribdin kezsa sharq-u shimoli,
Vahkim, topulmasdur hargiz amsoli,
Jannat ichra yo‘qdur o‘xshash visoli,
Biri malak, biri g‘ayrul-bashardur.

Oh-u xumoridur sayyodi qotil,
Rahmsiz nargisi jonga mahosil,
Hech kim qutulmasdur bo‘lsa muqobil,
Biri jallod, biri shohi Qaysardur[1].

Raftoridin o‘lgay tovus sharmanda,
Xandoniga to‘ti oshiq chamanda,
Ruhsoridin kunduz oqshom raxshanda,
Ya’ni biri xurshid, biri anvardur.

Xazoyin lutfiga ko‘z burji oti,
Ayo, Masihodur har tan hayoti,
Tilidin tomchilar shirin naboti,
Biri qand-u asal, biri shakkardur.

[1] **Qaysar** — Rum (Kichik Osiyo, Bizantiya va Gretsiya) podshohlarining umumiy nomi.

Asir etub, hushdin begona qilgan,
Nori ishqi bila so'zona qilgan,
Muhabbat nahridin dunyoga kelgan,
Biri la'li Yaman, biri gavhardur.

Nihon tutg'il ko'zda ashki zoringni,
O'zdin ko'tarmag'il sharm-u oringni,
Yashuruqcha topgil vasli yoringni,
Zero, ushshoqdin raqib aksardur.

MUXAMMASLAR

Bu jahoni bevafo davronida davlat hayot,
Ziynati umring erur ham gulshani ishrat hayot
Vahdati[1] haqdin erur go'yoki bir ibrat hayot,
Lutfi dasturxonidin har bandaga ne'mat hayot
Haqshunos o'lgan kishiga bodai rahmat hayot.

Sha'mi donish shu'lasidin bir ziyo topsa ko'ngul
Ahli dardlar suhbatidin oshno topsa ko'ngul,
Gar haqiqat yo'liga bir rahnamo topsa ko'ngul,
Bodai vahdatga yetsa bir safo topsa ko'ngul,
Bo'lg'usi ul kas uchun har bir nafas jannat hayot.

Anjuman qursang bo'lub taryoqilarga hamnishin[2],
Ishq nori o'rtagan ushshoqilarga hamnishin,
Bazmning debochasi mashshoqilarga hamnishin,
Mahvash-u mavzun fano, gul soqilarga hamnishin
Topg'usi kam-kam jilo bu aysh ila zulmat hayot.

Qofila manzilga yetti uyqudin bedor bo'l,
Umrni o'tkarmagil behuda ko'p hushyor bo'l,
Rishtai toatni tut zikri xudoga yor bo'l,
To omonat sohibi kelguncha xo'b tayyor bo'l,
So'ng'usi navbat qadah, vah, bir kuni sharbat hayot.

Badguhar, badasldin qoch, ehtiroz et, bo'l Nihon,
Mardi bemaydon ila suhbatni oz et, bo'l Nihon,
Donish ahlini topib fazlini yor et, bo'l Nihon,
Xilvat aylab kechalar bazmingni soz et, bo'l Nihon
Tortmasin badasldin ulfat qilib kulfat hayot.

---

[1] **Vahdat** — Olloh taoloning yagonaligi.

[2] **Hamnishin** — hamnafas, hamroh.

* * *

Ohkim, beg'amni g'amga mubtalo qilgan firoq,
Ming jafo, yuz ming alamga oshno qilgan firoq,
Xam qilib qaddin, yuzini kahrabo[1] qilgan firoq,
Har kishiga necha xil chun-u charo qilgan firoq,
Bir-biridin ajratib motamsaro qilgan firoq.

O'tdilar ushbu jahondin hazrati Odam Ato,
Bil, qayon ketdi Sulaymonu Skandar podsho,
Qoldimu olamni fath etgan Alisheri xudo,
Dastidin topmay omon xohi nabi, xoh avliyo,
Boq, o'shandog' muqtadolarga[2] jafo qilgan firoq.

Ikki olamning charog'i Mustafo g'urbat bila,
Ko'rmayin bir zarra rohat mehnat-u kulfat bila,
Doimo xuni jigar yig'lab g'ami ummat bila,
Ummato, deb berdilar jon, oh urub hasrat bila,
Barchani xoki mazallat[3] ichra jo qilgan firoq.

Ba'ziga davlat berib ko'nglini bearmon etub,
Aysh-ishratlar bilan doim ani xandon etub,
Ba'zini ovqat uchun har ko'chada sarson etub,
Kuydurub ba'zini farzand dog'ida giryon etub,
Nechani ishq yo'li ichra mosuvo qilgan firoq.

Ey Nihoniy, tavba aylab yig'lagil shom-u sabo,
Yurmagin behuda, toat aylagil shom-u sabo,
Yaxshilarning suhbatini aylagil shom-u sabo,
Ravzai hazrat ketarni aylagil shom-u sabo,
Ko'z ochub olamga boq: kimga vafo qilgan firoq?

---

[1] **Kahrabo** — sarg'ish tosh, bonit.

[2] **Muqtado** — ergashtiruvchi.

[3] **Mazallat** — xorlik.

* * *

Jahonda ko‘rmadum sandek pari ruxsor, aylansun,
Qadi shamshodu ar-ar, ko‘zlari xummor, aylansun,
Muqavvas[1] qoshlaring bir zolimi xunxor, aylansun,
Takallum vaqtida shirin-shakar guftor, aylansun,
Ajab bir jilvasi tovusi xushraftor, aylansun.

Ko‘rib sanda bu yanglig‘ ul kuni husnu fatonatni,
Yarashgan orazing uzra qizil guldek nazokatni,
Tuman nozu karashma lutf-u ehson-u matonatni,
Sani maftuning o‘lmush husni axloq-u nazofatni,
Falak soldi, netay, bo‘ldim asiru zor, aylansun.

O‘shal kundin beri ishqing bila sabr-u qarorim yo‘q,
Firoq-u hasratingda yig‘lamoqdin o‘zga korim yo‘q,
Yotubman sarg‘ayib g‘am bistarida g‘amgusorim yo‘q,
Borib ostonada yig‘lab yotarga hech madorim yo‘q,
Ko‘zim termuldi, kelgay, deb o‘zi bir bor, aylansun.

Ko‘ngilni zavraqi g‘arq o‘ldi bu daryoi g‘urbatda,
Teshildi misli Ayyub furqatingdin jism turbatda,
Sotildi qay kuni boshimga savdoi muhabbatda,
Oqub bu damg‘acha ko‘z qonlarim anduhi mehnatda,
To‘lub oyinai dil bo‘ldi chun zangor, aylansun.

Nihoniy qay kuni san bevafoga oshno bo‘ldi,
Hamisha axtarub vaslingni Majnundek gado bo‘ldi,
Tamomi xonumondin ayrilib chun mosivo bo‘ldi,
Kamoli shiddati ifroti[2] uzlatdin fano bo‘ldi,
Ketar armon dilida bo‘lmayin izhor, aylansun.

---

[1] **Muqavvas** — kamalakka o‘xshagan, qavsga o‘xshagan.

[2] **Ifrot** — haddan oshish.

MUSADDASLAR

Ilohi, soyai davlat boshingda barqaror o'lsun,
Hamisha taxti izzat, toji baxting ustivor o'lsun,
Ali bo'lsin kamarbanding, Xizr tun-kunda yor o'lsun,
Har ikki olam ichra qadr-u ashrofing[1] kibor o'lsun,
Ijobat o'lsin ohing, hojating doim baror o'lsun,
Na maqsudga qadam qo'ysang, muroding komkor o'lsun.

Ilohi, umr aro bir diydasi nam bo'lmagil hargiz,
To'lub yurgil to'lin oydek, vale kam bo'lmagil hargiz,
Mudomo shod bo'l, bir g'amga hamdam bo'lmagil hargiz,
Misoli sun'i guldek yoz-u qish ham so'lmagil hargiz,
Hama gul g'uncha bo'lsin, sanga doim navbahor o'lsun,
Kecha-kunduz ko'yingda andaliblar navhakor[2] o'lsun.

Kezib Qashqar, Xo'tan, Qashmiru Hindistonu Afg'onni,
Adan, Beyrutu Izmir, Shomu Hayfo, arzi Eronni,
Madina, Makka, Jadda, Rumu Istambul, Xurosonni,
Butun Rusiyada har shahru har millatda har jonni,
Sani mislingga o'xshash ko'rmadim garchand bor o'lsun,
Qachon sandek alar benuqsu bekam, beg'ubor o'lsun.

Sani husningni avsofin ado qilmoq base mushkil,
Verilsa qaysi dil nogah, judo qilmoq base mushkil,
Huzuringga borib arzu duo qilmoq base mushkil,
Topib xushhol kayfing, jon fido qilmoq base mushkil,
Ilohi, rahm ila shafqat o'zingdin intishor[3] o'lsun,
Ko'yingda man kabi xolis duogo'ylar qator o'lsun.
Sani ta'rifi axloqing ado qilmoqqa imkon yo'q,
Nachukkim san kabi tug'mish anodin hech inson yo'q,

[1] **Ashrof**

[2] **Navhakor** — nola qiluvchi.

[3] **Intishor** — yoyilish, tarqalish.

Na huru na malak ichra sanga monandi g'ilmon yo'q,
Hama bobatda komilsan, chu sohib judu ehson yo'q,
Kimi qadringni bilmas torai mo'yingga zor o'lsun,
Vale sadqa o'lonlar lutf-u ehsoningga yor o'lsun.

Muhabbat ahlida sabr o'lmagay, ey toza gul barno,
Kechirgil har na isyonim, o'zing oqil, o'zing dono,
Magar andisha aylab sho'rishi g'avg'odin, ey jono,
Visola maxfiy vosil etding atvoringga sallamno[1],
Ilohi, umru iqboling jahon boricha bor o'lsun,
Visoling sha'miga tanlar kuyib, jonlar nisor o'lsun.

Turardim Jomi'ing bobida ag'lab zori dil mahzun,
Bo'lib xavfu xayol andisha avhomim zi had afzun,
Chiqarda bir tabassum birla boqding ko'rsatub mavzun,
Muyassar o'ldi bango bing diyoru ganj, bing mahzun,
Ilohi, ajri ehsoning biriga sad hazor o'lsun,
O'lub maskan bihishti jovidon[2] kavsar guzor o'lsun.

Nihoniy bulhavasdur dema, ruxsoringdin o'rgulsun,
Dil-u jon sadqa aylar, chashmi xummoringdin o'rgulsun.
Boqib so'r holini bir, shahdi guftoringdin o'rgulsun,
Bilur ayni muruvvat jabr-u ozoringdin o'rgulsun,
Na armon o'lsa dilda, qolmasin to oshkor o'lsun,
Agar bu ersa lutfing to qiyomat yodgor o'lsun.

[1] **Sallamno** — tan bermoq.

[2] **Jovidon** — abadiy, boqiy.

* * *

Xudovando, sanga yig'lab qilarman arzi dodimni,
Karamlik podshosan, san o'zing bergil murodimni,
Turubman borgohingda[1] oquzub ko'zda qonimni,
Qabul et osiy bandang, garchi bu ajz ila zorimni,
Yetur daryoi rahmatdin mani maqsudi komimni,
O'zing rahm aylag'il, kechg'il hama qilgan gunohimni.

Shafi'[2] aylay sanga o'tgan tamomi anbiyolarni,
Muhammad Mustafo, as'hobi oliy murtazolarni,
Yo'lingda jon nisor etgan aziz-u avliyolarni,
Tamomi mujtahidlar[3], shayxi olam muqtadolarni,
G'arib-u miskinu bechora-yu shoh-u gadolarni,
Ilohi, mag'firat qil aylagan sahv-u xatoimni.

Ilohi, bir yetimdurman, siniq ko'nglimni bir shod et,
Haqiqat yo'lig'a solg'il, mani zulmatdin ozod et,
Ko'zimni yoshi birlan gulshani qalbimni ozod et,
Mani ham o'z ko'yingda misli ul Majnunu Farhod et,
Saharlarda nasibim nola-yu afg'onu faryod et,
Ki to aylay fido, yo Rab, yo'lingda xasta jonimni.

Iboding ichra yo'qdur manchalik sharmanda ham g'ofil,
Qilurman kishti kori ma'sayatdin[4] mevalar hosil,
Takabburman, emasdur e'tiqodim anchalik komil,
Sharorat[5] peshaman, andishasiz bir bandai johil,

[1] **Borgah** — podshoh saroyi, qasr.
[2] **Shafi'** — himoyachi, vositachi.
[3] **Mujtahid** — jiddu jahd qiluvchi.
[4] **Ma'sayat** — gunoh.
[5] **Sharorat** — yomonlik, yaramaslik.

Emasman bandalik farmoniga bir lahzai dohil,
O'zing solgil haqiqatga dil-u zikr-u xayolimni.

Ilohi, qilmadim sanga dilimdin bir ibodat, voh,
Kirib shayton so'ziga, ko'zladim rohi sharorat, voh,
Amal qildim hamisha g'iybat-u zulm-u xiyonat, voh,
Dilimga solmadim bir zarrai vahmi qiyomat, voh,
Hidoyat qilmasang emdi na bo'lg'ay ohu holat, voh,
Nechuk ko'rgayman emdi ul qaro yer ichra holimni.

Ilohi, mag'rifat qil, qahr etub baxtim qaro qilma,
Xalos ayla, ilohi, nafsi badga mubtalo qilma,
Qaro yer ichra do'zax otashi birla jazo qilma,
Qiyomat qoyim o'lganda shafoatdin judo qilma,
Bu isyonim bila sharmandai yovm ul-jazo qilma,
Xudoyo, qilmag'il mezon aro mushkul hisobimni.

Ilohi, bir yetimdurman, boshimda soyabonim yo'q,
Musofir, bevatanlardek muqarrar bir makonim yo'q,
Agar o'lsam g'aribdurman, so'rarga mehribonim yo'q,
Borurga borgohingdin bo'lak bir ostonim yo'q,
Hammadin mosuvoman, sandin o'zga istagonim yo'q,
Yadi qudrat bilan tutqil yetim bo'lgan bu boshimni.

Ilohi, tavba qildim, dargahingdin ko'p xijolatman,
Gunohim kechmasang sharmandai ro'zi qiyomatman,
Yeturgil Ka'baga muhtoji mushtoqi ziyoratman,
Qaro yuzni borib bir surmasam besabr-u toqatman,
Gunohni loyiga bo'g'zigacha botgan falokatman,
Yo'lim och bormoqa, yo Rab, qabul aylab bu ohimni.

Ilohi, bir ato qil rutbai hijrat Nihoniyga,
Karam aylab, Xudoyo, ishq ila himmat Nihoniyga,
Muyassar qil yetarga ravzai hazrat Nihoniyga,
Rasuling boqsalar, "bir kel", deb, ey ummat, Nihoniyga,
Shukr ikki jahonda ushbudur davlat Nihoniyga,
Nasib et ravzani tuprog'idin xoki mazorimni.

ASHULALAR

YIG'LA, TURKISTON

Arafa orasindagi "Lo'm-lo'm Mamajon" ohangida aytiladurgan ashuladir.
(Ikki baytligi ikki bordan, to'rt baytligi bir bordan aytilur.)

Yig'la, yig'la, Turkiston, yig'la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig'la, Turkiston.

Turgil darddan jismingni sog'la, Turkiston,
Donish o'tiga bag'ring dog'la, Turkiston.
Belga himmat kamarin bog'la, Turkiston,
Ma'rifatga yetmoqni chog'la, Turkiston.

Yig'la, yig'la, Turkiston, yig'la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig'la, Turkiston.

Bizdek hech millat bormu zillatga botgan,
Safohatga[1] aldanub iffat yo'qotgan.
Firorinda[2] tik yotur ixvat o'rgatgan,
Jahl-u bid'at zahrini sharbat ko'rsatgan.

Yig'la, yig'la, Turkiston, yig'la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig'la, Turkiston.

Bog'lu qoldi qo'limiz vahshat domida,
Boshlar chaynalmasunmi g'aflat komida,
Ko'krak qoni ko'rundi g'urbat jomida,
Mahv o'ldi sharmning nuri bid'at shomida.

Yig'la, yig'la, Turkiston, yig'la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig'la, Turkiston.

[1] **Safohat** — ahmoqlik, yengiltaklik.
[2] **Firor** — qochish, chekinmoq.

Ketdi savdo qo‘llardan, bo‘ldik xizmatkor,
Kislat bizni sayd etti, qoldik madxushvor[1],
Ma’rifatni istarga qildik nomus-or,
Oqibati xo‘rlikda qoldik dilafgor.

Yig‘la, yig‘la, Turkiston, yig‘la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig‘la, Turkiston.

Ko‘zlar uyqudan to‘ymas, doim g‘aflatda,
Ne saodat ko‘rmishbiz, bilmam, vahshatda.
Bo‘ldik bugun sargardon dashti zillatda,
O‘tar o‘xshar holimiz bo‘yla zulmatda.

Yig‘la, yig‘la, Turkiston, yig‘la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig‘la, Turkiston.

Qo‘l ushlashing, birlashing emdi, Turkiston,
Ma’rifatni xushlashing kelmay tobiston.
Kinalarni tashlashing, bitsun jahliston,
Taraqqiyga boshlashing, o‘lsun sidqiston.

Yig‘la, yig‘la, Turkiston, yig‘la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig‘la, Turkiston.

Maktab oching, boyonlar, bo‘ling himmatli,
Bo‘lsun o‘qub sibyonlar oliy g‘ayratli.
Shoyad bo‘lsun millatga sodiq xizmatli,
Bu ko‘ngullar quvonsun qolmay hasratli.

Yig‘la, yig‘la, Turkiston, yig‘la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig‘la, Turkiston.

Darig‘ tutmang ilm uchun ketsa mol-u jon,
O‘quv farzligi ming yo‘l qur’onda farmon.

[1] **Madxushvor** — behol.

Ma'rifatsiz tonulmas ahkomi imon,
Ilmsizga aytulmas komil musulmon.

Yig'la, yig'la, Turkiston, yig'la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig'la, Turkiston.

Mahzun Nihon ko'p og'lar millat bog'iga,
Mavsum o'tub g'aflatdan tushgan dog'iga.
Bog'bonlar boqmayur so'l-u sog'iga,
Qish kelgach so'ng netarmiz gulshan zog'iga.

Yig'la, yig'la, Turkiston, yig'la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig'la, Turkiston.

KO‘ZNI OCHING, QARDOSHLAR

Mashhur "Dilog‘on"[1]
ohangidagi ashuladir

Ko‘zni oching, qardoshlar, ibratlashaylik,
Uyqu bitsun dindoshlar, g‘ayratlashaylik,
Ijlos[2] etib har yerda hasratlashaylik,
Milliy xizmatlar uchun himmatlashaylik.

Gazet o‘qub, jurnallar, yo‘l izlashaylik,
Maktab ochub, avloda yo‘l boshlashaylik.

Oshab, uxlab hayvondek yotmaylik emdi,
To boshgacha zillatga botmaylik emdi,
Bir-birimizni ushlab odimlashaylik,
Jahl-u bid’at tog‘idan osh-oshlashaylik.

Gazet o‘qub, jurnallar, yo‘l izlashaylik,
Maktab ochub, avloda yo‘l boshlashaylik.

Cho‘lda qoldik ilmsiz, johillik birlan,
Qachon bitgay ishimiz soyillik[3] birlan,
Kislat domidan o‘zni ozodlashaylik,
Irfon suyidan gulshanni obodlashaylik.

Gazet o‘qub, jurnallar, yo‘l izlashaylik,
Maktab ochub, avloda yo‘l boshlashaylik.

Sarf etaylik borimiz millat yo‘lina,
Tarataylik fikrimiz irfon kuyina,

---

[1] **"Dilog‘on"** — Log‘on Iskobel qariyalaridan biri bo‘lib, aslida bu ohang u qariyadan ilk topmishdir.

[2] **Ijlos** — yig‘ilish, kengash.

[3] **Soyillik** — tilanchilik.

G‘aflat to‘shagidan bir xez-xezlashaylik,
Jaholatni xobindan parhezlashaylik.

Gazet o‘qub, jurnallar, yo‘l izlashaylik,
Maktab ochub, avloda yo‘l boshlashaylik.

Jamiyatlar yasaylik ittifoq aylab,
Xayriyatni istaylik ittihod[1] aylab,
Ulug‘-kichik birlashub fikrlashaylik,
Kamchiliklar yo‘lini zikrlashaylik.

Gazet o‘qub, jurnallar, yo‘l izlashaylik$_x$
Maktab ochub, avloda yo‘l boshlashaylik.

Diyonatni nafs uchun sotgonimiz bas,
Faqr chohina o‘zni otgonmiz bas,
Bir-birimizni turtishub uyg‘oqlashaylik,
Qo‘l qisishib, birlashub o‘rtoqlashaylik.

Gazet o‘qub, jurnallar, yo‘l izlashaylik
Maktab ochub, avloda yo‘l boshlashaylik.

Tashlab Nihon ko‘ngilda bo‘lgan illatni,
Kinu bug‘z-u adovat, fisq-u g‘iybatni,
Sunniy, shiiy so‘zlarni barbodlashaylik,
Millat yo‘lin ko‘plashub obodlashaylik.

Ulfatlashub yozlashub ham qishlashaylik,
Teatr yasab, konsertlar, olqishlashaylik.

[1] **Ittihod** — birlashish.

MILLAT DEGANLARNING OQAR KO‘Z YOSHI

“Vaysulqarn”[1]
ohangidagi bir ashuladir.

Millat deganlarning oqar ko‘z yoshi,
Millat g‘ami o‘lur doim yo‘ldoshi,
Millat deganlara yog‘ilsa toshi,
Millat yo‘lida ketar bo‘lsa boshi,
Millat taraqqiysi o‘lgay taloshi.

Oshiq esa kimsa gar millatichun,
Jonin fido qilur din xizmatichun,
Bir zarra o‘kinmas ming kulfatichun,
Millat yo‘lida ketar bo‘lsa boshi,
Millat taraqqiysi o‘lgay taloshi.

Millat degan kimsa suymas dunyoni,
Mol ila, jon ila bo‘lur qurboni,
Yosh o‘rniga oqar ko‘zidan qoni,
Millat yo‘lida ketar bo‘lsa boshi,
Millat taraqqiysi o‘lgay taloshi.

Millat degan kimsa o‘zgani suymas,
Millat o‘tidan boshqa o‘tga kuymas,
Har damda bing jafo kelsa-da tuymas,
Millat yo‘lida ketar bo‘lsa boshi,
Millat taraqqiysi o‘lgay taloshi.

Millat deganlarning shul muddaosi,
Tun-kechalar ichra qilgan duosi,
Doim taraqqiy o‘lur iltijosi,

[1] Aslida bu ohangni “Baysulqarn” ash’oridin maktabda aytuvchilardin olmishdir.

Millat yo'lida ketar bo'lsa boshi,
Millat taraqqiysi o'lgay taloshi.

Millatga sarf aylar yo'q ila borin,
Bu yo'lga boy bergay nomus-u orin,
Mansurdek fikr etmaz ta'n ila dorin,
Millat yo'lida ketar bo'lsa boshi,
Millat taraqqiysi o'lgay taloshi.

Yo millat deb ko'yida o'l, Nihoniy,
Yo dunyo deb millatdan uz vafoni,
Bir qinga ikki pichoq sig'moq foni,
Millat yo'lida ketar bo'lsa boshi,
Millat taraqqiysi o'lgay taloshi.

YAXSHI HOLIN YO‘QOTGAN OQIBATSIZ TURKISTON

"Eski Xorazm"
ohangida bir ashuladir.

Yaxshi xolin yo‘qotgan, oqibatsiz Turkiston,
Istiqbolin ushotgan, ofiyatsiz Turkiston,
O‘z jismiga o‘q otgan, hamiyatsiz Turkiston,
Zillat loyiga botgan, ey g‘ayratsiz Turkiston!

Zulmat toshi yog‘ilsa-da, ko‘zi ochulmaz,
Ruhsiz tandur, xanjar ursa, qoni sochulmaz.

Ma’rifatdan har millat soldi turfa guliston,
Jaholatdan qutqazub qildi donishin bo‘ston,
Ilm o‘lgach musaxxar[1] olam o‘ldi sayriston,
Ma’rifatsiz Turkiston qoldi bo‘lub jahliston!

Zulmat toshi yog‘ilsa-da, ko‘zi ochulmaz,
Ruhsiz tandur, xanjar ursa, qoni sochulmaz.

O‘zgalar millatichun mol-u jon ila qurbon,
Fikru donish yo‘lida bag‘ru jigari biryon,
Boru yo‘qni qilurlar ilm yo‘liga ehson,
Ajab, bizni Turkiston doim yer birla yakson!

Zulmat toshi yog‘ilsa-da, ko‘zi ochulmaz,
Ruhsiz tandur, xanjar ursa, qoni sochulmaz.

Himmat chashmasi qurub,
g‘ayrat bog‘chasi so‘lgan,
Sinub ehsonli qo‘li, ibrat ko‘zi ko‘r bo‘lgan,
Islomning ismi qolub, jismi yerga ko‘mulgan,
Esiz, shundog‘ Turkiston nobakorlarga to‘lgan.

[1] **Musaxxar** — bo‘ysundirilgan.

Zulmat toshi yog'ilsa-da, ko'zi ochulmaz,
Ruhsiz tandur, xanjar ursa, qoni sochulmaz.

Bo'g'zi sori to'lguncha g'aflat sharobin ichgan,
O'lmasindan ilgari jismiga kafan bichgan,
Umid rishtasin kesub, or-u nomusdan kechgan,
Bog'lu qo'ling, Turkiston, nobakorlarmi chechgan?

Zulmat toshi yog'ilsa-da, ko'zi ochulmaz,
Ruhsiz tandur, xanjar ursa, qoni sochulmaz.

Ittifoqning o'rniga kin-u g'iybat yo'l tutgach,
Ayni motam o'rniga to'yu bid'at yo'l tutgach,
Milliy majlis o'rniga bug'zu rishvat yo'l tutgach
Sahvalatdan Turkiston so'yi usrat[1] yo'l tutgach.

Zulmat toshi yog'ilsa-da, ko'zi ochulmaz,
Ruhsiz tandur, xanjar ursa, qoni sochulmaz.

Bu hol ila Turkiston nechuk taraqqiy olsun,
Ma'rifatdan asar yo'q, jahl-u vahshat yo'qolsun,
Fisqu nifoq ishimiz, millat qanday yasholsun,
Shundoq qolsa Turkiston, Torikiston atolsun!

Zulmat toshi yog'ilsa-da, ko'zi ochulmaz,
Ruhsiz tandur, xanjar ursa, qoni sochulmaz.

Esiz, esiz Turkiston, qani avvalgi holi?
Olamga ziyo bergan ul xurshidi iqboli?
Abri g'aflat qurshadi, tun bo'ldi istiqboli,
Xo'r bo'lsa millatimiz, tutmasmukin uvoli.

Zulmat toshi yog'ilsa-da, ko'zi ochulmaz.
Ruhsiz tandur, xanjar ursa, qoni sochulmaz.

[1] **Usrat** — qiyinchilik.

Og‘la, og‘la, Nihoniy, kecha bo‘ldi kunduzlar,
Falakda ko‘rinmayur mohtob ila yulduzlar.
Vatanga molik bo‘ldi nobakor-u to‘ng‘izlar,
Oyog‘ ostida qoldi necha sandek dilso‘zlar?

Zulmat toshi yog‘ilsa-da, ko‘zi ochulmaz,
Ruhsiz tandur, xanjar ursa, qoni sochulmaz.

TORU MOR ETDING

"Kel menga, shohim, hay-hay"
ohangida bir ashuladir.

Oh, bid'at, safohat, toru mor etding,
Voh, g'aflat, jaholat, xoru zor etding.

Kel-kel, millat, ikkimiz, yig'la, millat, yig'laylik,
Qil-qil hasrat ikkimiz, yig'la, millat, yig'laylik.

Yo'q uchun g'ayratimiz, xo'r bo'lsa millatimiz,
Kelmaydi himmatimiz, yig'la, millat, yig'laylik.

Mullolarning taloshi vaqfi masjid, to'y oshi,
Besoqoldir o'ynoshi, yig'la, millat, yig'laylik.

Eshonlar to'plab oltun, olur yilda bir xotun,
Maishatda tunu kun, yig'la, millat, yig'laylik.

Boylar masrur bid'atdan, ajralsa-da davlatdan,
Xabarsizdur millatdan, yig'la, millat, yig'laylik.

Uyin birla o'g'lonlar, zindonda qiz-juvonlar,
Ma'rifatdan bezgonlar, yig'la, millat, yig'laylik.

Bizni maktab jadvali — bachchabozlik usuli,
Bilmas na dardin yo'li, yig'la, millat, yig'laylik.

"Bayoz"dur jurnolimiz, "Jamshid"dir ro'monimiz,
Shul o'qub bilgonimiz, yig'la, millat, yig'laylik.

Qachon ilmsiz qoldik, maqsada yetmay toldik,
Mundog' hollarga qoldik, yig'la, millat, yig'laylik.

Ko‘r bo‘ldi bu ko‘zimiz, tun bo‘ldi oq ro‘zimiz,
Xo‘r qildik o‘z-o‘zimiz, yig‘la, millat, yig‘laylik.

Zohir inson bo‘lgonmiz, ochilmasdan so‘lgonmiz,
Dema tirik, o‘lg‘onmiz, yig‘la, millat, yig‘laylik.

Uyg‘on, Turkiston, og‘la, Nihon, kamarni bog‘la,
Irfonga yetmoq chog‘la, yig‘la, millat, yig‘laylik.

Oh, bid’at, safohat, toru mor etding,
Voh, g‘aflat, jaholat, xoru zor etding.

OQ GUL TURKUMIDAN

Dardiga darmon istamas

Bizni Turkiston eli dardiga darmon istamas,
Zulmat ichra kechsa umri, mohi tobon istamas,
Uxlama ko‘p, o‘zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

Ko‘nglidur oshuftai lahvu tarab, nafsu havo,
Tilsa zillat xanjari bag‘rini Luqmon istamas,
Uxlama ko‘p, o‘zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

Qo‘lidadur domi tama’, ko‘zidadur kayfu xumor,
Soch oqorub, qaddi xam bo‘lsa pushaymon istamas,
Uxlama ko‘p, o‘zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

“Jamshid”u “Zarqum”, “Bayoz” ahli salohin ilgida
Yo aqoid, yo hadis, tafsiri Qur’on istamas.
Uxlama ko‘p, o‘zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

Ilmsizlikdan hama kelgon baloni anglayur,
Ittifoqu g‘ayrat aylab lek irfon istamas,
Uxlama ko‘p, o‘zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

Keldi davri, dushdi osmondan Masihoyi ilm,
Bu nechuk badmurdalik, jismiga bir jon istamas,
Uxlama ko‘p, o‘zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

O‘zga millat uchsalar hikmat topub so‘yi samo,
Bizni ellar loaqal yer uzra davron istamas,
Uxlama ko‘p, o‘zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

O‘zgalar etmakda har kun bing sanoyi ixtiro,
Biz aholi topmoqa beranj bir non istamas,
Uxlama ko‘p, o‘zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

Bu na vahshat, na jaholat, er qizu, piru javon,
Domi g'aflatdin xalos o'lmoqqa imkon istamas,
Ey Nihon, bing xayf, ey insoniyat, islomiyat.
Millati xor o'lmag'in hech nomusulmon istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

QIZIL GUL TURKUMIDAN

O‘t olgin, Turkiston

Bizni Turkistonda shul turmushlar,
Elda bo‘lgan qilmishlar, yurmishlar,
Kun qizisa boqishib, toqishib,
Soya kelsa solqunlab yonboshlar.
Qilmishingdan uyalgin, Turkiston,
Qo‘y olgancha bo‘y olgin, Turkiston!

Uyqu shunday ko‘zlarni turshagan,
Tonumaslar o‘zlarin behushlar,
Og‘zing qayda deb so‘rsa bir kishi,
Ko‘rsatushub burunni ushlar!
Toy olgancha ot olgin, Turkiston,
Boy o‘lguncha tot olgin, Turkiston!

Qorong‘u bosgan uchun bu ko‘zni,
Quyosh bilur o‘ziga yulduzni,
Suyar kechni, suymagay kunduzni
Ko‘rshapalak, ukkilar, boyqushlar.
O‘z olgancha so‘z olgin, Turkiston,
Bo‘z olgancha tuz olgin, Turkiston!

Biluvchilarni butun qilmishi,
Elni aldamoq birladur ishi,
Boylarni asta yelkasin qoshlab,
Yetimlarni boshiga yuz mushtlar!
Yo‘q olgancha bor olgin, Turkiston,
O‘q olgancha tor olgin, Turkiston!

Eshonlar yig‘ishub tun-kun oltun,
Yil oralamay olur bir xotun,
Bilimsiz elni oyoq-qo‘l, ko‘zin

Bog‘lab suvsiz quduqlarga toshlar!
Tosh olgancha bosh olgin, Turkiston,
Qush olgancha go‘sh(t) olgin, Turkiston!

Boylarni ko‘ngli bog‘lu turmushga,
Bori buzuq yo‘llarga yurmushga,
Kerilubkim puliga tong otgach...
Pechat uydagi kurak, choydo‘shlar,
Boz olgancha toz olgin, Turkiston,
Yoz olgancha roz olgin, Turkiston!

Ishchilarimiz bo‘lub bachchaboz,
Sotub bermakda hovli objuvoz.
Oqcha bitganda bo‘lub to‘ng bo‘yin,
Kesar o‘g‘irlik qilub boshlar,
Qop olgancha un olgin, Turkiston,
To‘n olgancha yung olgin, Turkiston.

Qorisi bo‘yniga osib xurjun,
Ot qo‘yub o‘zicha vale Majnun,
Har eshikda uyalmay tentirab,
Qorni uchun tilana boshlar.
Chaqmoq chaqmay o‘t olgin, Turkiston,
Olu olmay tut olgin, Turkiston!

Nihon, shuldir Turkiston qissasi,
Qottiq-qottiq so‘zlardan hissasi,
Vaqti o‘tmay sug‘org‘il gullarni,
Shoyad ko‘karsin tushub quyoshlar.
To‘y olgancha bo‘y olgin, Turkiston,
Uy olgancha joy olgin, Turkiston!

Buzilgan yo‘qolur

Boshimizda har bir tus ko‘rgulik,
Bilimsizlikdan kelgan bizlara,
Hush yoqmaslik, erinmoq hammasi,
Og‘ir yuqudan kelgan bizlara.
Ko‘ngullar sezmayur!

Kundan-kunga bitmoqda borimiz,
Ohangini buzmokda torimiz.
Vatanda alin yahudiy otlig‘
Temur tirnoq o‘lmoqda borimiz,
Dema tan qurtilur.

Barmog‘idadir bizni yoqalar,
Oyog‘imizga temur taqalar,
Kecha-kunduz tindurmay ishlatub,
Salqut osh, non birla boqalar!
Yuraklar yoqilur!

Bizga o‘lmish o‘lguncha belanuv,
Kimga o‘lg‘usi yig‘lab aylanuv,
Ketti o‘rgatub bizga ko‘miluv,
Qimirlamoq o‘rnig‘a tilanuv.
Oyoqlar bosh o‘lur!

Haligacha biz go‘dak bolamiz,
Ish o‘rniga nog‘ora cholamiz,
O‘t ekanligin sezmay ilgari,
Qo‘lni kuydirib so‘ngra olamiz,
Kuyunchlar bo‘sh ketur!

Yoshimizg‘a qizg‘andik qarimiz,
Boshqalikni sizg‘andik barimiz,
Qilmishimizdan tushdi ko‘rgulik,
Yopushamiz ezgandek tangrimiz,
Sochilgan o‘rilur!

Ko‘ngul quyrug‘i tildir, Nihon,
Sinsa quyrug‘i qolmas eson,
Bo‘yla qolsa quyrug‘ tilimiz,
Tilakka borub qo‘ng‘usi qachon,
Buzilgan yo‘qolur!

* * *

Vatan, vatan der edilar, na der erdim bilmay ani,
Endi bilsam Vatan erkon bu tanlaring shirin joni.

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

Sensan ekan bizlara chin tug'mish bir mungliq ano,
Boqg'ung tirik bo'lsak, agar o'lsok quchog'ingda yano.

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

Ko'zlarmi ko'r bo'lgan uchun hech tanimas bo'lduk sani,
Og'rindi ko'nglung, yuzaga og'lo siring chiqsin qani!

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

Essiz, essiz tug'gonlaring ko'z yumub o'q otub sani,
Bog'lab qo'ling yovuzlarga, ne oldilar sotub sani.

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan,
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

San onai zor ekan-da, achingoning bor ekan-da,
O'lmay laxta qonlar to'kub xor bo'lub yurar ekan-da.

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

Biluvchilar qo‘l tutmadi, bizga sani tonutmadi,
Bilmam nelarga aldanub tangri buyruqin tutmadi.

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

Bilimsizlar anglashmadi, oh-u voying tinglashmadi,
Bilguvchilar burchi ekan o‘ng‘aylamoq, o‘nglashmadi.

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

Nihon yig‘lab qon yutunur, kechmog‘lig‘ingni o‘tunur,
Mundin buyon o‘g‘lonlaring chandon tonurga tutunur.

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni Vatan
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

YASHIL GUL
TURKUMIDAN

Haq yo'lida jon bersak

Haq yo'lida jon bersak, bo'lsak millat qurboni,
Din xizmatina kirsak, bo'lsak millat qurboni.

Kelinglar, dindoshlar, bir ittifoq etaylik,
Maktab ochub, ilm o'qub, shoyad olg'a ketaylik

Parda ko'zlarni tutmay, yiroq andisha tutmay,
Amri hadis o'qutmay, bo'lsak millat qurboni,

Kelinglar, dindoshlar, bir ittifoq etaylik,
Maktab ochub, ilm o'qub, shoyad olg'a ketaylik.

Sobit bo'lub so'zlarga, ibrat olub ko'zlarga
Ta'na kelmay yuzlarga, bo'lsak millat qurboni.

Kelinglar, dindoshlar, bir ittifoq etaylik,
Maktab ochub, ilm o'qub, shoyad olg'a ketaylik.

Tashlab kinu adovat, bo'g'zu nifoqu bid'at,
Oyu voy aylab odat, bo'lsak millat qurboni.

Kelinglar, dindoshlar, bir ittifoq etaylik,
Maktab ochub, ilm o'qub, shoyad olg'a ketaylik.

Zo'raymasdan jarohat, davo qiling, davolat,
To yetmasdan falokat, bo'lsak millat qurboni.

Kelinglar, dindoshlar, bir ittifoq etaylik,
Maktab ochub, ilm o'qub, shoyad olg'a ketaylik.

Jurnal eting, ro‘monlar, bo‘lsun elg‘a darmonlar,
Kirsun chiqqan u jonlar, bo‘lsak millat qurboni.

Kelinglar, dindoshlar, bir ittifoq etaylik,
Maktab ochub, ilm o‘qub, shoyad olg‘a ketaylik.

Al tutushib boyonlar, ulamolar, ruhonlar,
Qizu o‘g‘ul, juvonlar, bo‘lsak millat qurboni.

Kelinglar, dindoshlar, bir ittifoq etaylik,
Maktab ochub, ilm o‘qub, shoyad olg‘a ketaylik.

Maktab oching, boyonlar, ta’lim etsun ruhonlar,
O‘qub yetsun sibyonlar, bo‘lsak millat qurboni.

Kelinglar, dindoshlar, bir ittifoq etaylik,
Maktab ochub, ilm o‘qub, shoyad olg‘a ketaylik.

Milliy xodimlar yetsun, millatga xizmat etsun
Ahmad ruhi shod etsun, bo‘lsak millat qurboni.

Vahshat bizdan yo‘qolsun, millat taraqqiy olsun,
Bizdan yodgorlik qolsun, bo‘lsak millat qurboni.

Kelinglar, dindoshlar, bir ittifoq etaylik,
Maktab ochub, ilm o‘qub, shoyad olg‘a ketaylik.

Yig‘lab aytur bu Nihon, bo-yu eshon-u ruhon,
Bo‘ling qon-u jism-u jon bo‘lsak millat qurboni.

Kelinglar, dindoshlar, bir ittifoq etaylik,
Maktab ochub, ilm o‘qub, shoyad olg‘a ketaylik.

YIGIT VA QIZ MAKTUBLARI

Yigitning birinchi maktubi

Dildan ming salom aytgach,
So‘z yurutam maqsadga,
Ko‘p qatorinda bizning ham
Yetkursa haq maqsadga.

Sen quloq sol, endi jonim,
Men dardimni so‘zlayin,
Mandalinda yig‘lab aytkan
So‘zlarimni yozayin:

Mashinachiga berdim bo‘zni,
Kamzul birla to‘nimni,
Senga qaydan boqdim, bir yo‘li.
Olding shul dam ko‘nglumni.

Ko‘kda yulduz ko‘runmaydi
Quyosh borib botquncha.
Tez-tez kelib hol so‘rsang-chi,
Uyda yolg‘uz yotguncha!

Yiroqdagi suv to‘lquni
Ko‘rinadir yaltirab,
Kelur yo‘ling poylab chiqsam
Tong otguncha qaltirab.

Osmon guldur-guldur qilur
Qora bulut kelganda,
Yashirin holim so‘rsang nedur,
Uyon-buyon o‘tkanda.

Bahor kelib qor ketmasa
Gul ochilib yashnamas...
Mendek hech kim sening dard-u,
G‘aming birla oshnamas.

Tog‘ bag‘rida havli turmas,
Zilzilada tosh kelur,
Isming tushsa eslarimga
Ko‘zlarimga yosh kelur.

Baxtsiz burni qonar, derlar
Og‘zi oshga yetkanda,
Kelsang nedur, otang bozor,
Onang mozor ketkanda...

Rahm qilur bo‘lsang qilg‘il,
E o‘ldurgil bo‘g‘uzlab,
Yurma solib g‘amg‘a meni
Ko‘rganda yolg‘on so‘zlab

Ushbu yozgan maktubimni
Boshdan-oyoq toza ko‘r,
Azroq muhabbating bo‘lsa
Tezroq javob yoza ko‘r.

Qizning birinchi maktubi

Menda, salom aytib bo‘lgach
Qalam turtam maqsadga,
Sizda yetkach biz ham yetdik
Insho-ollo maqsadga.

Ikki qizil gul shoxiga
Yolg‘iz bulbul qo‘nolmas,
O‘z suygani turgan joyda
O‘zga yorni sevolmas.

Bir qozonda ikki taom
Aralashmay pisharmi?
Ikki yorg‘a ko‘ngul bergan
Dunyoda hech yasharmi?!

Ikki dillik, ikki tillik
Men emasman sen aytgan,
Haq amridan yuz o‘girib
Aziz imonin sotgan.

Menga bergan asl ko‘ngul
Chindan qaytur, orlanma,
O‘zga yorga dil bergan, deb,
Yig‘lab-yig‘lab zorlanma.

Avvalda men seni suygan,
O‘zgasini xohlamam,
Kelsa jannat g‘ulmonlari,
Valloh, anda qaramam.

Jonim-jonim sen o‘ylama
O‘zga yorni sevar deb,
Ko‘zi birla mendan boshqa
Bir narsani ko‘rar deb.

Tun-kun sening hasratingdan
O‘zga narsa men yutmam,
Sen unutar bo‘lsang meni,
Men seni hech unutmam.

Qayga qochar bo‘lsang, jonim,
O‘lguncha izlab quvam,
Ayrilmoqni bilsam qay kun,
Tiriklikdan qo‘l yuvam.

Men o‘zgani suyar bo‘lsam,
Hali men suymasmidim,

Senga qo‘yg‘on muhabbatni
Ul yorga qo‘ymasmidim?!

Boshqa yoring borga o‘xshar
Achchiq-achchiq so‘zingdan,
Qattiq-qattiq so‘zlay desam,
Uyalarman ko‘zingdan.

Gar bo‘lmasa boshqa yoring
Mundoq xat yozmas eding,
Har narsaga bahonalar
Qilib diling uzmas eding.

Men dunyoda seni suydim,
Boshqa tilak yo‘q menda,
Sendan boshqa yor bo‘yniga
Boshqa bilak yo‘q menda.

Menga yozgan maktubingni
Fikrlab o‘qub o‘tdim,
Javob yozib, tezdan maktub
Yozmog‘ingga ko‘z tutdim.

Yigitning ikkinchi maktubi

Ani kuzga sonamiylar
Bog‘da gullar so‘lmasa,
Ani qizga sonamiylar,
Suyuklisi bo‘lmasa.

Suygan yoring men bo‘lay, deb
Doim yo‘lingda poylab,
Jonim tutib suydim seni
Qizlar ichidan saylab.

Nozikdir oq bilaging
Og‘ir narsa ushlama,
Yolg‘iz seni men suygan so‘ng,
Sen o‘zgani xushlama.

Oltin bilak uzuk toqma,
Bilagingni og‘ritar,
Tun-kun sen men yod etam,
Seni kimlar yod etar...

Taqma oltin baldog‘ingni,
Qulog‘ingni og‘ritar,
Endi solma ko‘p dog‘ingni,
Kuyuk jismim jon o‘rtar.

Bog‘da gullar ochilibdur,
Bo‘lsak erdi ikkimiz,
Qo‘l ushlashib gul ichida,
Yursak erdi ikkimiz...

Mandalinni men o‘ynatam,
Sen yonimda kuylasang,
Ahvolimni ko‘rib, jonim,
Rahm etmoqni o‘ylasang.

Jonim, jonim, bu orzuga
Bir yo‘l yoring etarmi?
Yoki shundog‘ g‘amlaringda
Umri to‘lib, bitarmi?

Yozgan maktubdagi so‘zing
Har dam ko‘nglim shod etur
Yana javob yozgaymu deb
Fikrim tun-kun yod etur.

Qizning ikkinchi maktubi

Ani qishg‘a sonamiylar
Yerning qori bo‘lmasa,
Ani yigit sonamiylar
Qizdan yori bo‘lmasa.

Shulay bo‘lgach suydim seni,
Sen ham meni suya ko‘r,
Bir-biriga tez yetishmoqdan
O‘zga so‘zni qo‘ya ko‘r.

Jonim, jonim, sen omon bo‘l,
Mendan ko‘ngulni uzma,
Avvalda, suyganim sen, deb
So‘ngroq qalbingni buzma.

Menga maktublar yozasen
Qo‘rqam, hilla bo‘lmasin,
Seni suyam, degan so‘zing
Til uchida bo‘lmasin.

Mendin o‘zga yo‘qmi, chindan,
Ko‘ngul oluvchilaring,
Yo‘q-yo‘q dersan, bordir olib
Aldab qoluvchilaring.

O‘zga qizni sen suyarsan
Yigirmaga borguncha,
Men suymasman o‘zga yorni,
Boshim go‘rga kirguncha.

Yig‘lab yuragim kuyadir,
Tong otguncha uxlolmam,
Baxtim muncha qora ekan,
Murodimga yetolmam.

Tashlar bo‘lsang meni, jonim,
Men seni hech tashlamam,
Sensiz qolur bo‘lsam bir kun
Dunyoda hech yasholmam.

Men keltirsam o‘zga fikr
Uxlamasdan o‘zima,
Hech narsa ham ko‘runmaydir.
Sendin boshqa ko‘zima...

Men sog‘inib ketam o‘zdan
Sen hech sog‘inmaysanmi?
Sog‘inam, deb qo‘yasan,
Sog‘insang kelmaysanmi?

Jonim, jonim, omon bo‘lgil,
Faqiringni unutma,
Ollohimdon sharm tutib
O‘zga yorga yo‘l tutma.

SARIQ GUL TURKUMIDAN

Hasrat qilay, qardoshlar

Hasrat qilay, qardoshlar, ko‘zni oching, dindoshlar,
G‘aflat bila o‘tmasun emdi bu yoz-u qishlar.

O‘lsa qayu millat ilmsiz,
Shuyla o‘lur oning jazosi.

Yo‘q uchun vijdonimiz qo‘shulmasdan qonimiz,
Har ish so‘ngg‘ida qola bizni Turkistonimiz.

O‘lsa qayu millat ilmsiz,
Shuyla o‘lur oning jazosi.

G‘ayr az kibr-u jaholat, bizlarda yo‘q diyonat,
Sadoqat o‘rniga surdi davr xiyonat.

O‘lsa qayu millat ilmsiz,
Shuyla o‘lur oning jazosi.

Eshonlarni holindan, so‘z ochma ahvolindan,
Hamon ta’ma ishlari haloyiqni molindan.

O‘lsa qayu millat ilmsiz,
Shuyla o‘lur oning jazosi.

Taqvo emish qilmishlari, ya’ni shuldur ishlari,
Faqir molin chaynarg‘a o‘tkur o‘lg‘on tishlari.

O‘lsa qayu millat ilmsiz,
Shuyla o‘lur oning jazosi.

Ulamoning holindan, xabar ol ahvolindan,
Oqarmasdir dillari nafsoniyat dog'indan.

O'lsa qayu millat ilmsiz,
Shuyla o'lur oning jazosi.

Ishlari da'volashmoq, bir-birlaridan oshmoq,
Avqof uchun jon berib mudarrislik talashmoq.

O'lsa qayu millat ilmsiz,
Shuyla o'lur oning jazosi.

Sharmsizdur yuzlari, oshga to'ymas ko'zlari,
To'yga borub to'n kiymoq hamon fikr-u so'zlari

O'lsa qayu millat ilmsiz,
Shuyla o'lur oning jazosi.

G'aniylarda safohat, faqirlarda kasolat,
Bizda topmas taraqqiy g'ayraz kibr-u jaholat.

O'lsa qayu millat ilmsiz,
Shuyla o'lur oning jazosi.

Tun-kun ahli tijorat qilmishidir imorat,
Zarra parvosi yo'qdir millata kelsa g'orat.

O'lsa qayu millat ilmsiz,
Shuyla o'lur oning jazosi.

Ahli hunarni ishi lavh-u tarab qilmishi,
Ma'rifatdan so'z ochsang, qochar, qolmas bir kishi.

O'lsa qayu millat ilmsiz,
Shuyla o'lur oning jazosi.

Boshqa avomun-nos johillikdin dunmaslar,
Zulmat ko‘zin qoplagan haqiqatni ko‘rmaslar.

O‘lsa qayu millat ilmsiz,
Shuyla o‘lur oning jazosi.

Ko‘zni oching, qardoshlar, uyqu bitsin, dindoshlar,
Maktab oching avloda, Nihon illo yo‘l boshlar.
O‘lsa qayu millat ilmsiz,
Shuyla o‘lur oning jazosi.

PUSHTI GUL TURKUMIDAN

Chaman ichra

"Chaman ichra" degan ashula bo'lub, aslida bu Qashqarda ilqo topmish. 21 hijriyda, taxminan, Farg'onada rasm o'lmishdur. Namuna uchun bir ruboiy ohang va bir ruboiy avj uchun o'z she'ridan yozib o'tamiz

Na kuturmiz bir vahshatlik asoratlar,
Na havodiskim kechmakda vatan ichra,
Na ajab fikr etgan ahli farosatga dindoshlar,
Oz erur bo'yla kulfatlar vatan ichra.

Na qolub olim, na ilma amal qoldi,
Hamaning qalbiga dunyo kamon soldi,
Yoshirub amri shar'ining bid'atga yo'ldoshlar,
Qoldi bu islomning ismi dahan ichra.

Buzulub fe'l-u xuyimiz yomon bo'ldik,
Taratub o'zlik rasvoi jahon bo'ldik,
Kim ushlab rohi islom biza emdi yo'l boshlar,
Hamma badlikda bir go'r-u kafan ichra.

Hamamiz bebahra ilm ila hikmatdan,
Xabarimiz yo'q na kun haqiqatdan,
Ma'naviy bizni ko'mdilar olub harna sirdoshlar,
Na qo'yib tanda qon, na jon badan ichra.

Bosh uza har dam ming turlu g'ami hijron,
Biz hamon to'-yu tamoshoga sargardon,
Biz kabi yo'qdur beor-u hamiyatsiz bevoshlar,
Na siyohpo'sh,
na sahroyi Yaman ichra.

Biz hamon uyquda erkan bahor o'tmish,
Hamal-u javzomizni dalv-u hut yutmish.
Ketubon xushxon bulbullar,
qurub ko'zlardan yoshlar,
Qora zog'lar o'rnamish chaman ichra.

Yo'q ekan hissi milliyat kalonlarda,
Hamasin erkan da'vosi zabonlarda,
Ulamo-yu, shayx-u eshon-u boy-u imom-u qozi,
mingboshlar,
Hamasi erkan bir dom-u kaman ichra.

Biza basdir emdi buncha bu nodonliq,
Ketmasun behudaga shuncha qurbonliq,
Ochaylik maktab, qurtulsun jaholatdan bu boshlar,
Tarolub irfon shoyad mardu zan ichra.

Siz o'lub millat tarjimoni, ko'z yoshlab,
Otiling har xizmatga odim tashlab,
Orag'a no'g'oy maktab solib g'ayratlik yoshlar,
So'z urung har bir majlisda suxan ichra.

Sotiling millatga, o'zni g'ulom aylang,
Chin ko'ngil birla xizmatda davom aylang.
Kesilub umidi sizdan bo'laklardan, ey yoshlar,
Bu Nihon og'lar qon baytul-hazan ichra.

Muhtarama onalarima
xitob

Muncha uyqu bosdi sizi, onalar,
Fikr etingiz o'ylab u peshonalar,
Ilm, maorif bila begonalar,
Bo'ldingiz olamga siz afsonalar.

Mazlumalar, jonlara jononalar,
Qizlaringizni o'qiting, onalar!

Siz edingiz millati chin rahbari,
Turmush-u insonni butun sarvari,
Koni hidoyat biza Siz edingiz
Tarbiya dunyosini payg'ambari.

Mazlumalar, jonlara jononalar,
Qizlaringizni o'qiting, onalar!

Dod ulamolaring hama shar'idan,
Qo'shdi u sharbatg'a yilon zahridan,
Qildi falaj millati bechorani,
Qo'rqmadimi tongla xudo qahridan?

Mazlumalar, jonlara jononalar,
Qizlaringizni o'qiting, onalar!

Hamshiralar, bir so'zimi olsangiz,
Tarixi nisvona nazar solsangiz,
Xonimalar tarjima holin o'qub,
Shoyad o'zingiz uyolib qolsangiz.

Mazlumalar, jonlara jononalar,
Qizlaringizni o‘qiting, onalar!

Sizdan umid emdi oyim, ochalar,
Tashlab uzuk, boldog‘u tillochalar,
Ilm o‘qing, bir kuni shoyad bo‘ling
Murda badanlarg‘a masihochalar.

Mazlumalar, jonlara jononalar,
Qizlaringizni o‘qiting, onalar!

Yuz o‘giring qo‘rchoq-u to‘p-toshdan,
Maylisi beshik to‘y bila oshdan,
Bobolarning yaxshi masal so‘zi bor:
“Har na o‘lur o‘lsa kichik boshdan”.

Mazlumalar, jonlara jononalar,
Qizlaringizni o‘qiting, onalar!

Siz quloq osmang johila so‘zina,
Har kimi farz o‘ldi ilm o‘zina,
Bitdi zamon joriyalig‘, onalar,
Qiymati cho‘q har kishining o‘zina.

Mazlumalar, jonlara jononalar
Qizlaringizni o‘qiting, onalar!

Oh qani, qizlarimiz saf-saf bo‘lib,
Maktaba ketsa edi ko‘cha to‘lib,
Yurganini ko‘rsa edi bu ko‘zim,
Qolmagay armon edi ketsam o‘lib.

Mazlumalar, jonlara jononalar
Qizlaringizni o‘qiting, onalar!

Turkiston muxtoriyatina

To‘rt yuz yillik Romanov bitgach davlati,
Ko‘tarildi asorat, xo‘rlik zillati,
Nasib o‘ldi millata qaytib shavkati,
Qutlug‘ bo‘lsun Turkiston muxtoriyati!

Qutlug‘ bo‘lsin Turkiston muxtoriyati!
Yashasun endi birlashub islom millati!

Bugun qaysi bir ko‘ngul dilshod o‘lmasun?!
Bugun qaysi mironshohlar obod o‘lmasun?!
G‘ofil qolmang bul fursat barbod o‘lmasun?!

Qutlug‘ bo‘lsun Turkiston muxtoriyati!
Yashasun endi birlashub islom millati!

Bugun Chingiz, Temurdek shohlar arvohi,
Dunyo yuzin titratgan askar sipohi,
Qichqirub der: “Turk o‘g‘li, o‘lmang siz sohi!”

Qutlug‘ bo‘lsun Turkiston muxtoriyati!
Yashasun endi birlashub islom millati!

Qichqirub der qurbonlar: “Ulug‘ Turkiston!
Unutmangiz, qonmangiz, boqing qabriston!
Birlashingiz arab, turk, ...Qobil, Hindiston!”

Qutlug‘ bo‘lsun Turkiston muxtoriyati!
Yashasun endi birlashub islom millati!

Ahmad ruhi qichqira deb: “Hoy, ummatim!
Bu kunda ham xo‘r qolsa, din, millatim!
Haq shohiddir, kerakmas sizdek ummatim!

Qutlug‘ bo‘lsun Turkiston muxtoriyati!
Yashasun endi birlashub islom millati!

G‘oyibdan kelsa nidolar Iso muslimin,
Mahrum qolmang rahmati tangridir yaqin,
Tordur bundan so‘ng siza bu ro‘yi zamin”,

Qutlug‘ bo‘lsun Turkiston muxtoriyati!
Yashasun endi birlashub islom millati!

Keling emdi birlashing, islom millati!
Ketsin sunniy, shialik, nifoq-illati!
Bir sanjaqqa[1] to‘plansun islom davlati!

Qutlug‘ bo‘lsun Turkiston muxtoriyati!
Yashasun endi birlashub islom millati!

Keldi muborak bizga yangi bir zamon,
Yangi davr kechurmak endi filamon,
Yod etmakka ismimiz tarixi jahon,

Qutlug‘ bo‘lsun Turkiston muxtoriyati!
Yashasun endi birlashub islom millati!

Qutlug‘ bo‘lsun, ey yoshlar, to‘kub qoningiz,
Bergan qurboningizga olg‘on shoningiz!
Mangu qoldi dunyoda xush unvoningiz,
Qutlug‘ bo‘lsun Turkiston muxtoriyati!

Yashasun endi birlashub islom millati!
Yashasun bu turk o‘g‘lini mangu davlati!

[1] **Sanjaq** — bayroq.

MEVALAR MOJAROSI

O‘ruk

O‘ruk o‘rnidan turub,
Rangini sarg‘ayturub,
Keldi tutni boshiga,
Shovqun solub tik turub.

Dedi: “Ey Tut, taltayib,
Dema har so‘z yalpayib,
Boshginangga bir uray,
Yerda qolgin shalpayib.

Seni ko‘p yegan kishi
Badan qashimoq ishi,
Ortuqchadur ustiga
Yurakburuq tashvishi.

Ore man sandan keyin,
Sandan yuz hissa shirin,
Aytub ado qilayin,
Qaysi husnimni birin.

Uzum ming dardga davo,
Qurutsa andan bajo,
Hatto mag‘zimni olub,
Solgay qandalat aro.

Muxtasar aylay so‘zum,
Meva ichra bir o‘zum,
Bog‘ ichini yorutar,
Oppoq, oydindak yuzum”.

Gilos

Gilos haddan oshiqub,
Xafalikdan toshiqub,
Keldi o‘ruk boshiga,
Musht ko‘tarub shoshiqub:

“Ey O‘ruk, san so‘zlama,
Maqtanmoqni ko‘zlama!
Yonboshingga bir tepay,
Bog‘ga hargiz yuzlama.

G‘o‘rang qursun, kech bitar,
Yegan kishi ich ketar.
Pishganing shalpaytirub,
Qurug‘ingdan bod yetar.

Bilursan, otim Gilos,
Suyar mani om-u xos.
Mani ko‘rgan kishilar
O‘zga meva xohlamas.

Shirindurman asaldan,
Dorudurman azaldan.
Bismillo deb yeganni
Qutqazam ming kasaldan.

Kaltaroq qilay so‘zum,
Maqtasam arzir o‘zum.
Bog‘ga kirgan ko‘ziga
Yoqutdek yonar yuzum”.

Olucha

Olucha keldi gezarub,
Qonlar tomub, qizarub.
Turub dedi Gilosga,
Musht ko'tarub, bezarub:

"Ey Gilos, lof urmagil,
Achchig'im kelturmagil!
Tumshug'ingga bir solay,
So'ngra yig'lab yurmagil.

Maza yo'q, ta'ming turush,
Ho'l o'lursan, yo'q qurush.
Sani yeganlar bo'lur
Qo'nich bezgak, ich burush.

Olucha ismim aziz,
Barcha ne'matdan laziz.
Ishonmasang, har kimdan
So'rsang, degay: "Suyarmiz".

Ochilur yegan fursati,
Ishtaho, tabiati.
O'lgay yurakda bo'lgan
Qurtlik har bir illati.

Maqtasam bir yil o'tar,
Bog'bon ho'llikda sotar.
Ortganimni qurutub,
Qand bilan qiyom etar.

Birinchi tavhid dars

Xudo birdur, besherik,
O‘lmas hech, doim tirik,
Bizdek badan, joni yo‘q,
Bir sifat birla tirik.

Xudoning yo‘q otosi,
Qarindosh ham onosi,
Ham oning yo‘q xotuni,
Ham er-u qiz bolosi.

Xudo ko‘ruvchi o‘zi,
Ammo bizdekmas ko‘zi,
Birdek katta-kichikni,
Ko‘rar ham tun-kunduzi.

Xudoning yo‘q makoni,
Oldi ham orqa yoni,
Oftob ravshani kabi,
Nuri barobar oni.

Ikkinchi dars

Xudoda yo‘q to‘q-ochlik,
Bir narsaga muhtojlik,
Qodir har ish qilmoqqa,
Tortmas bizdek muhtojlik.
Xudoning yo‘q qulog‘i,
Ham is bilgich dimog‘i,

Lekin anga eshitilur,
Jonlik-jonsiz so‘rog‘i.

Tili yo‘qdir Xudoni,
So‘zlar har muddaoni,
Beshak oni so‘zidir
Bizga bergan Qur’oni.

Har ish — xudoning ishi,
Bo‘lgay oning xohishi,
Ul xohlamagan ishni
Qilolmas milyon kishi.

Uchinchi dars

Xudodir bu jahonni,
Bor etgan barcha jonni,
Boshqa kimsa qodirmas
Yaratmoqqa bir jonni.

Xudo bordir hozirdur,
Har bir ishga qodirdur,
Kimki ishonmas ekan,
Har mazhabda kofirdur.

Yo‘qdan bizni bor etdi,
Xudolik oshkor etdi,
Quvonaylik har doim,
Islom ila yor etdi.

Banda biz ul xudoga,
Ummatbiz Mustafoga,
Shukr etaylik hamisha,
Ochib qo‘llar duoga.

To‘rtinchi dars

Xudo bergan rahbari,
Bizga ul payg‘ambari,
Muhammaddur nomlari,
Barcha nabi sarvari.

O‘g‘lidur Abdullani,
Uch bobosi bul ani,
Abdumatlab, Hoshim,
Abdulmannop qolgani.

Islom oning millati,
Kim o‘lubdur ummati,
Beshak anga bo‘lg‘usi
Haqning rahmat jannati.

Kim rasul ham tangriga
Bo‘yinsunmas amriga,
Qiyomat kun, shubhasiz,
Ketar do‘zax qa’riga.

Beshinchi dars

Bosh as’hobi Mustafo,
Har to‘rt yori bosafo,
Abubakr-u, Umar ham,
Usmon, Ali, Murtazo.

Boshlab isloma kirgan,
Din yo‘lida jon bergan,
Rivoj berib millatga,
Dushman elini qirgan.

Qildi bu Nosir himmat,
Islomga qildi xizmat,
Topdi taraqqiy ravnaq,
Bir oz zamonda millat.

Hamd-u sano xudoga,
Salavot Mustafoga,
As'hobi oli botsun
Ul rahmati xudoga.

Oltinchi dars

Maktab xususinda

Maktab— dinning chirog'i,
Millatni zo'r yarog'i.
Maktabsiz har millatni
Qarar bir cho'b tarog'i.

Maktab — millat atosi,
Ham suyuklu anosi.
Ato, anosiz qolsa,
Qandoq yashar bolosi?

Maktab millatga yo'lbosh,
Ham ko'z-u qo'l, ayoq, bosh,
Bu a'zodan ayrulsa,
Millat yashar nechuk yosh?

Maktab — har millat joni,
Ham jism-u pay ham qoni,
Maktabsiz millat o'lur,
Bir oz zamonda foni.

Yettinchi dars

Maktab — millat makoni,
Gavhar, yoqutni koni,
Maktab bo‘lmasa bitar
Millat nom-u nishoni.

Maktab — millat quyoshi,
Balki ko‘z ila qoshi,
Ko‘zsiz, qoshsiz kishini
Qanday xunukdir boshi.

Maktab — millat saroyi,
Ilm-u adabni soyi,
Dunyoda eng saodat
Oxtarganlarni joyi.

Maktab — millatni guli,
Millat aning bulbuli,
Maktabsiz qolgan millat
Boshqa chamanni quli.

Sakkizinchi dars

Maktab — millatni bog‘i,
Zo‘r bir suyanchiq tog‘i,
Jahl otlig‘ dushmanni
Qiruvchi zo‘r yarog‘i.

Maktab — dunyo bihishti,
Kirgan beshak yetushti,
Maorifning jomi-la
Ilm kavsarin ishti.

Maktab kimlarni joyi?
Baxtlik kishilar joyi,
Maktabga kirgan bo‘lur
Ikki dunyoni boyi.

Maktab — qorong‘u oyi,
Oltun-kumushni soyi,
Maktabga kirmaganlar
Bo‘lur bir non gadoyi.

O‘n to‘rtinchi dars

Ilm — haqning rahmati,
Har bandaning davlati,
Oxirat sharofati,
Yoruq dunyo izzati.

Jahl — haqning la’nati,
Ikki dunyo zahmati,
Ortuqchadur ustiga
Kufru xato ofati.

O‘n beshinchi dars

Ilm va jahl xususinda

Ilm haqning nuridur,
Qaro ko‘ngil bo‘ridur,
Har bir yarog‘ o‘tkuri,
Har Isrofil suridur.

Jahl kufrning to‘ridur,
Har dushmanni zo‘ridur,
Har bir tanning kulfati,
Har bir baxtning sho‘ridur.

Ilmdur lutfi xudo,
Yo‘l boshlag‘uch bir hido,
Ilmsiz farq o‘lmasdur,
Har sahv-u kufr-u xato.

Jahldur qahri xudo,
Koni kufr-u ham xato,
Jahl oxir qilg‘usi
Podshohlarni gado.

O‘n yettinchi dars

Ilm — maqsadni guli,
Millat — ani bulbuli,
G‘unchasidan so‘rorsa
Oson bo‘lur mushkuli.

Jahl — xatoning guli,
Shayton — ani bulbuli,
Mag‘rur bo‘lsa kim anga,
Mushkullashur mushkuli.

Ilm — haqning farmoni,
Har bir dardning darmoni,
Ilm birla ushalgay
Har bir dilning armoni.

Jahl — shayton farmoni,
Bori aning armoni,
Zalolatga yiqutgay,
Bir kun dor-u darmoni

Yigirma uchinchi dars

Olim bo‘lsak oz o‘tar,
Shuhrat olamni tutar,
Bizni qilgan taraqqiy
Barcha millatdan o‘tar.

Johil qolsak oz o‘tar,
Ko‘zlarni parda tutar,
Ko‘rmay bosarmiz qadam,
Birin-birin yer yutar.

Olim bo‘lsak zora biz,
Qo‘lga kelub choramiz,
Ilm dorusi birlan
Tuzalg‘usi yoramiz.

Johil qolsak boramiz,
Qo‘ldan ketub choramiz,
Yo‘q illatlar qo‘zishub
Ko‘payg‘usi yoramiz.

Yigirma to‘rtinchi dars

Olim bo‘lsak ahlimiz,
Obod o‘lur dahrimiz,
Oltun, kumushlar to‘lub
Oqar ariq, nahrimiz.

Johil qolsak ahlimiz,
Fasod oqub nahrimiz,
Uzoq zamonga bormay,
Xarob o‘lur shahrimiz.

Olim bo‘lsak qancha biz
Har bid’atni yanchamiz,
Jahl otlig‘ dushmanni
Ko‘ksina tig‘ sanchamiz.

Johil qolsak qancha biz,
Qay birini sanchamiz,
G‘aflat ko‘zni ko‘r qilub
Biz o‘zimiz yanchamiz.

O‘ttizinchi dars

Shoyad maktablar oching,
Shum bid’atlardan qoching,
Oltun, kumushlar soching,
Dillar onda bo‘sholur.

O‘qung, bo‘ling amonlar,
O‘qub bilgoning qolur.
Yashang uzoq zamonlar,
Millat zulmatda qolur.

O‘qing, millat kutgonlar,
O‘qub bilgoning qolur.
Dillar umid tutgonlar,
Millat zulmatda qolur.

Yig‘lab aytur Nihoniy,
Sizsiz millatni joni,
Chiqmang, qo‘ymang o‘lgoni,
Shoyad bir kun tuzolur.

O‘ttiz uchinchi dars

Ilmsizlik bizi mehnatga soldi,
Avvalgi sha’n-shavkatlar yo‘qoldi.

Ilmsizlik biza soldi jafolar,
Damida yuz tuman kulfat, balolar.

Ilmsizlik biza berdi sazoyi,
Ki bo‘ldik oqibat bir non gadoyi.

Ilmsizlik bizi ko‘p xor qildi,
G‘am ila siynamiz afgor qildi.

Ilmsizlik bizi noshod qildi,
Ishimizni butun ifsod qildi.

Ilmsizlik bizi zulmatga soldi,
Oyoqlar yetmayin maqsadga toldi.

Ilmsizlik bizi mazlum qildi,
Maorif ganjidin mahrum qildi.

Ilmsizlik ko‘zimiz ko‘r qildi,
Oyoqlar ostida ko‘p xo‘r qildi.

O‘ttiz beshinchi dars

Ilohi, millata vergil saodat,
Maorif chashmasin ayla ziyodat.

Ilohi, ma’rifatga oshno qil,
Ilmni bizga doim rahnamo qil.

Ilohi, ahlimizga ver hamiyat,
Solub maktablar etsun dinga xizmat.

Ilohi, jumlamiz ayla doim,
Bu millat yo'lida xizmatga qoyim.

Ilohi, rahmat et yor-u binomiz,
O'qutmakda o'lon ota-onomiz.

Ilohi, ma'firat qil hodimizni
Ilm o'rgatguchi ustodimizni.

Ilohi, sen eshit faryodimizni
Nasibi jannat et ajdodimizni.

Qabul et, kel, sabiylarni duosin,
Yetur barcha qulingni muddaosin.

Haq yuborgan bizga ayni lutfi ehsondir kitob,
Koni ahkomi shariat ganji imondir kitob.

Hikmating daryosidir ilmi sinoat chashmasi,
Rutbai fazli kamol jumla insondir kitob.

Sharm-u axloq-u adab, iffat hidoyat boshchisi,
Jumlamiz tuhfa "ul rab" subondir kitob.

Bilmas erdik na xudoni, na jahon, na o'zimiz,
Bizni bir-bir barchadan ogoh qilgondir kitob.

Aql-u donishga safo[1] hush-u farosat sayqali,
Toju davlat, baxt-u izzat, shavkat-u shondir kitob.

Har ko'ngilning orzusi shul erur obihayot,
Qadrini bilgan kishiga, shubhasiz, jondur kitob.

Har muroding boshidur, har muddaoning gavhari,
Har marazlarning shifosi, ya'ni Luqmondur kitob.

Ko'zni nuri, dil huzuri, dillaring darmonidur,
Har qorong'u dilga go'yo mohi tobondur kitob.

Har balodan asrag'uvchi eng muhim qiymat yarog',
Tiyri vahshat, xanjari zillatga qalqondur kitob.

Har kitob ermas vale bu maqdamoqdin maqsadim,
Bizga kelgon muxtasar ul nafsi qur'ondir kitob.

[1] **Safo** — poklik.

Bizga hozirda qiroat nafsi Qur'on o'rniga,
"Jamshidu", "Zarqum" "Abo Muslim"lar o'lgandir kitob.

Shul uchun qoldik oyoqlar ostida ko'p xor-u zor,
Fe'limizdan bu qaro kunlarga solgandir kitob.

Boshqa millat bizni Qur'onga amal qilgon uchun,
Boq, taraqqiy taxtining sultoni qilgandir kitob

Biz ham emdi nafsi Qur'ondan olaylik darslar,
Oramizda chunki g'ayri jinsi to'lgondir kitob.

Har kishi yoshlikda qilsa ozgina g'ayrat agar,
Tez zamonda oshno bo'lmog'i osondir kitob.

* * *

Farz-u ayn o'lmish bizim din ichra bo'l hushyor ilm,
Boru yo'q mislimlig'ingni farqiga darkor ilm.

Hech kasdan g'unchai donish ochilmas, ey rafiq,
Har saboq qalbiga tegmas teshai munqor ilm.

Na uchun sayr aylamasbiz topsa ko'ngillar ziyo,
Chunki kelmish jannatidan bir nishon gulzor ilm.

Dema insop balki kofir, mo'min esa-da hayvon,
Jahl-u g'ofillik bila qilmoq esa inkor ilm.

Odam-u hayvon zabonin bir-birida farq yo'q,
Shunchalik odamimiz o'ldug'i guftor ilm.

Quvvai hukmi basarda odam-u hayvoni nadur,
Ko'r ila har shayni aslin bildirar anvor ilm.

Kim bilurdi odam-u olam nadur, hayvon nechuk,
Bo'lmasa erdi agar insonda bu osor ilm.

Qaysi bir mavjuda boqsang bilmoqa kayfiyatin,
Lozim o'lgay topmoqa avval o'qib axbor ilm.

Gar maishatdan so'rarsan ibrat ol darrandadan
Bir-biriga to'ma o'ldi boisi ag'yor ilm.

Olaming xurshidi kundir, odaming xurshidi ilm,
Olaming zulmoti tundir, odaming nodor ilm.

Har muroding, maqsadingga yetmoq istarsan, murod,
Ko‘z ochub bedor bo‘l darkor ilm, darkor ilm.

Har taraqqiy aylagan millat eliga sol quloq
Kecha-kunduz so‘zlari afkor ilm, afkor ilm.

Ul haqiqat oyinig‘a sayqal istarsan, Nihon,
Ilm ista, ilm ista, istag‘il zinhor ilm.

YANGI SAODAT

Milliy roman

O'qub tahsili ilm ayla, maorif sharbatin yutgil,
Tilingni jahldan qutqor, g'ami millat bila o'tgil.
Ixtor

Bizim Turkistonda musulmon er-u xotunlarimizni yigirma yoshdan yuqorida bo'lub o'qugonlarini aksari emas, balki hammalari deyarlik eski maktablarda eski imlo va usulda xat va savodlari chiqqan uchun hozirgi matbuotda yangi usul, yangi imlo bila yozilub bosilub chiqub turgan maktab kitoblariga, jarida va risolalarga tezdan tushuna qolub o'qiy olmaganlari har birimizga ravshandur. Bu risola esa maktabga maxsus o'lmay, balki qora xalqimizni er-u xotunlari orasida o'qulub turgan "Jamshid", "Zarqum", "Aldarko'sa", "Bayoz", "Dalli Muxtor", "Gulandom", "Afandi" kabi butun xurofot va axloqni buzadirgan asossiz kitoblar o'rnig'a istifodalik bir qiroat risolasi bo'lurmikin, degan xayol bila yozilgan uchun alarni o'qub tushunmoqlariga shoyad oson bo'lur edi, deb butun eski imlo va eski usulda tartib berildi hamda soddaroq yozildi. Ba'zi yangi matbuot oshnolari bo'lg'on fikrdosh, millatdosh sohib al-tahrir va al-qalam qoriinlarimizdan bu risolamni imlo va tahriridagi kelishmagan bir xil joylarin aybga sanamay, tarahhum uzasidan afu qilmoq barobarida lutf-shafqat yuzasidan xususiy maktub ila ogoh qilmoqlarin o'tinaman. Chunki bu risolani ikkinchi ta'bilarida yoxud qo'limda yozilub turgan va yozilgan risolalarimni nuqssiz o'lmog'ig'a shoyad sabab o'lur edilar (Al insonu mushtaqan min al nisyon).

Olimjonning otasi

Olimjonning otasi G'ozi nomlik bir savdogarning yolg'izgina o'g'li bo'lub, o'n olti yoshida Maryam ismli oqila bir qizga uylanmish edi.

G'oziboy o'zi ko'p johil kishi bo'lganliqdan, o'g'li Abdulqahhorni ham dunyo va oxiratning saodat va chin turmushlari uchun eng birinchi darajada farz-u ayn o'lgan ilm, ma'rifatdan mahrum qoldirgan edi. Mana, oz vaqt orasinda dunyoning har bir zaharlik mashaqqatlarin butun o'ziga olub, topgan pul, mol-mulk, ashyolarini bir borgina o'zi rohatin ko'rmay johil Abdulqahhorga qo'yub, ikki gazlik qora tuproq bag'rig'a o'zi yolg'iz joy bo'lub, bir yodgorsiz, dunyodan benom-u nishon ketdi.

Yigirma besh yoshga to'lgan ilmsiz Abdulqahhorda hamon ota naslidan, ona batnidan kelgan jaholatni zangi kuduratlarin ma'rifat nuri bilan tozalanmaganga, oqila Maryamning qimmatlik nasihatlari ta'sir qilmay, tiriklik dunyosini oy va xurshidi bo'lgan olti yoshlik Olimjon bila uch yoshlik Xadicha ismli ikki ma'sumalarin hurmat qilmay, otalik shafqat va muruvvat rishtalarin butun kesub, kecha va kunduz safohat va qabohatlarga qadam qo'ya boshlagan edi. Mana, aroda ko'p o'tmadi. Tamomi qo'lida bo'lgan pul, mol-mulk, ashyolarni, jon bila molni eng ofati bo'lgan ichkulik, qimor kabi yo'llarg'a barbod qilub, hovlini ham sotub bitirmoqqa tiralub qolgan edi.

Bechora, baxtsiz Maryam bila ikki ma'sumani bag'rida asrab turgan o'shal bir parchagina vatanni ham sotmoqqa va ul mazlumalarni ham ko'chalarda ko'z qonlarni tomdirub, eshiklarda sarson qilmoqqa yuragi "bahodir" zolim Abdulqahhor Ruzvon ismli kampir onasining biroz haqi borligidan chorasiz qolub uyda bor ro'zg'or asboblarini sotub, hovli ustidan pullar olub alarni ham barbod berub, oxir yotadurgan joyi go'loh bo'lub, qorniga yeydurgan ovqat uchun topadurgan aqchasi qimorbozlardan cho'tal bo'lub qolgan edi.

Maryamning holi

Olti-yetti sana orasidagi faqirlik hujumidan yog'ilgan zulm-jafoning o'qlariga ko'kragin tutub, Olimjonni o'n yosh, Xadichani yetti yoshga na azob-kulfatlar bila tarbiyalab yetkurgan baxtsiz Maryamning bu qadar sabr-toqat va bardoshiga bir sabab bordur

desak, eski maktablarda o'qigan bo'lsa ham aql-u fikrining kamola yetganlig'idan yoki tarbiya qilub turgan har ikki ma'sumalarin ham o'qutub, alar ortdurgan ilm-ma'rifat orqasida yo'qolgan davlatiga yetushmoqlik havasidangina iborat edi.

Oqila Maryamning bu qadar sabrli va oqilalig'iga havaskor bo'lgan bir xil boylar o'zlariga taklif va da'vat etsalar ham boyagi degan davlatga zo'r umidlar bog'lagandanmi yoki o'n to'rt sanadan beri yetim qolub, qaynonasi Ruzvonning shafqatlik tarbiya va so'zlariga ko'ngli bog'lanub qolgandanmi, nadan o'lsa ham johil Abdulqahhorning g'amida qaddi bukulmish Ruzvonni yolg'iz tashlab ketmoqqa janobi haqdan sharm qilub, ikkinchi tarafdan, ko'z qonlari bila tarbiya qilub katta qilgan ma'sumalarin ikkinchi yana bir Abdulqahhor kabi zolimga uchrab qoluridan yuragi titrab va ham ilmdan mahrum qoldurmoqqa iffat-u g'ayrati aslo qabul qilmas edi. Bir oz qo'lida qolgan bisotlarini ham maishat uchun sotub bitirgan Maryam umid va tavakkalni janobi haqning rishtai rahmatiga bog'lab, qanoatga bo'yinsunub, hukmi va irodasig'a ilm ta'siri bila rozi bo'lgan baxtsiz Maryam bir yo'la bechoralikni o'ziga olub, mahalla atrofidagi, eshiklarda xizmat qilub, tanining kuch va quvvatini sarf qilub, har ikki ma'suma va Ruzvon onasini kunlik maishat vazifalarin topub yetkurub, tarbiya qilmoqda edi.

Ba'zi vaqtlarda ko'chaga o'ynab chiqub ketgan ma'sumalarini yirtiq-yamoqlarin xarobgina faloslar ustida yolg'uz tikub, yamab o'ltirganda, fikr-u xayoli butun taralub, avvalgi maishat va rohatlari nazaridan o'ta boshlab hamda yuz-ko'zlarin silab, o'pub, jonim qizim, deb tarbiya qilgan ota-onasi yodiga tushub, tizzasi ustidagi yamoqqa ezilub ketgan jigaridan qon tirqirab chiqub to'kilub, yaltirab turgan hasratlari ko'z yoshlari birdan yuraklarini sakratub, boshi aylanub, chok yo'lini qorong'uliq bosub, qo'li qaltirab, ignasi tushub, besh-o'n daqiqa o'zidan ketub, behud bo'lub qoladigan vaqtlari ham tez-tez voqe bo'lmay turmas edi. Bu hollar voqe bo'lganda, o'zig'a kelgan Maryam faqirona, g'aribona qonli ko'zlarin osmonga qilub, devorga orqasin suyab, ikki qo'lin yonig'a uzatub tashlab, qattiq bir ma'yuslik bila g'amlik ko'kragin to'ldirub ko'tarub: "Oh, falaki zolim, ota-onamdan oyirub yetim qilding, davlatdan ayirub, eshiklarda mundog' xor qilding, ma'su-

ma go'daklarimni iqbolig'a otasini muncha zolim, rahmsiz qilding. Oqibati meni davlatxonamdan bahramand bo'lub yurganlar eshigida xizmatkor, cho'ri qilding, yangi to'n, issig' non bergan kishilarimdan eski to'n, qattiq nonlarni qasos qaytarding. Yo Rabbim, sanga mani o'zimdangina bir xatoliq o'tgandir. Oh, chorasiz qoldim, bekas, mehribonsiz qoldim, ota-onam bo'lsalar edi, mundog' qora kunlarga qolmas edim.

Yo Rabbim, o'zing tarahhum egasi, o'zing mushfiq, man bir mushtipar, shikasta, qanot-quyrug'im singan yo ar rahim-al rohimin mandek zaif, ojiz bandalaringga ham ko'pni qatorida biroz rahming kelsachi? Yo Rabbim, biroz marhamat qil. Tirik yetim bo'lgan uvol go'daklarimga shafqat qil. Hech sabr-toqatim qolmadi endi", — deb yig'lab-yig'lab biroz yuraklarin bo'shatub, yana o'z vazifasiga davom qilur erdi. Ba'zi vaqtlar xizmat qilub yurgan joylaridan bir xil ta'nali so'zlar eshitub kelub, bir dardi yuz bo'lub, ma'sumalarin ko'chaga chiqarub yuborub, avvalgi odaticha xilvat qilub, yana oh-fig'onga kirishub, janobi haqg'a yolborub yig'lab, ko'z yoshin davom to'kar edi.

Bechora Maryam onasini har safargidek eshikdan kelganda, ochiq yuzlar va shirin so'zlar bila peshonalarni silab, mehribonchiliklar ko'rsatuv odatlarin bu holda ko'rmay, balki oni o'rnig'a ko'zlarin yoshlik, rangini za'faron kabi sezgan ziyrak Olimjon o'ynab turgan joyidan holi parishon bo'lub, ohista, Xadichaga bildirmaygina kirub, baxtsiz Maryamni eshik yonidan poylab turur edi. Bu tarafda Olimjondan xabarsiz Maryam mungg'uzmungg'uz ovozini chiqarub, dardli yoshlari tomub turgan ko'zlarin artub, yig'lab turganlarin eshitgan rahm ko'ngulli Olimjon chidamsiz bir iztiroblik hollarga tushub, yugurub kirub, parvonadek baxtsiz Maryam quchog'iga o'zin urub, bo'yinlariga sorilub, mungliq dovushlar chiqarub, onasiga qo'shilub yig'lab, barg ustidagi shabnam kabi Maryamni yuzidagi tomchilab turgan hasratlik yoshlarini kichikkina qo'llari bila artub, yolinubgina: "Onajon, nima uchun yig'laysiz? Ayting, nima qildi? Onajon, ko'zingizdan muncha ko'p-ko'p yosh oqadi? Jon onajon, mandan yashurmang. Ayting, deyman. Nega yig'laysiz? Yo yomon, qimorboz otamni sog'indingizmi? O'zingiz otang kerakmas, man

sizlarni yaxshi ko'raman, demadingizmi? Tag'in nimaga o'shal yomon otamni sog'inub yig'laysiz? Keling, ayting, onajon. Man xafa bo'laman. Juda sog'ingan bo'lsangiz, katta bo'lganimda, o'zim borub topub kelaman. Qo'ying endi, ko'p yig'lamang", — deb sorulub yolborur erdi.

O'zi uchun munchalik kuyub, achinub, yig'lab, shafqat ko'rguzub turgan g'amlik quchog'idagi Olimjonni mo'lturab turgan ko'zlarig'a boqub, ota zulmidan tirik yetimlik bila qisilgan bo'yinlaridan quchoqlab, yuziga tomub turgan g'urbatli yoshlarin artub, o'pub, endigina o'zi va Olimjonni yupatub turganda, ikkinchi tarafdan, Olimjonni yo'q bo'lub qolg'anidan sezub, uyga yugurub kirgan mushfiqa Xadicha munglug' Maryam bila bechora Olimjonni bu qonli ko'zlarin musibatda ko'rganga oshiqich quchoqlab, bor dovushi bilan qichqirub yig'lab yuborub, Maryamning yuz, ko'z, og'izlaridan o'pub-yolborub: "Ayajon, nimaga yig'laysiz? Ayting, ayajon, bir joyingiz og'ridimi? Ayting, ayajon. Rahmsiz otam o'lsun. Yomon otam o'lsun. *(Hamon yalinub, quchoqlab.)* Yig'lama, deyman, aya. Kofir otamga yig'laysanmi? Juhud otamni kelmadi, deb yig'laysanmi? Ayajon, yig'lamang. Xudoyo, otam o'lsun, sizni shundog' qaqshatub qo'ysa. Yig'lama, ayajon. Man xafa bo'laman, bas qiling endi yo biz xafa bo'lsak, mayligami? Yomon otam uchun o'zingizni muncha yig'lab xafa qilasiz? Dalalarimizni, uydagi chinni kosalarimizni sotub yegan yomon otamni tag'in sog'inub yig'laysizmi? Qo'ying endi, ayajon, yig'lamang. Qochub ketgan otam kelub qolur. Bas qiling endi",— deb jon boricha yolborur edi. Olloh, g'am tikani bila majruh bo'lgan mahzuna Maryamning bag'ri endigina Olimjonni shirin-shirin shifoli so'zlaridan biroz salomatlanay degan vaqtda munglug' Xadichaning nolai dilso'zi bila ikkinchi daraja yirtilub azoblanganiga toqatsiz bo'lgan Maryam sabr qila olmay, har ikkisin birdan bag'ri ostiga bosub, oshkoragina ovozini chiqorub yig'lab: "Oh, ma'sumalarim! Voy, uvolginalarim! Tirik yetimcha bo'lgan go'daklarim! Dunyoda ortturgai matolarim! Otam o'rniga Olimjonim, onam o'rniga Xadichaxonim! Otangizni sog'inganimdan yig'lamasman, g'aribchalarim, o'z vatanida musofirchalarim! Otangiz o'lmasun, salomat bo'lsun. Man bori sizlar

sog'inursizlar, deb yig'layman. Ayaginang o'rgulsun, qo'zichoqlarim. Man nima qilay, Xudoni irodasi shundog' bo'lsa. Shohlar bir kun gado bo'lur, bizlarga o'xshab. Gadolar yana bir kun shoh bo'lub qolur, bolajonlarim.

Banda deganni sabrdan boshqa chorasi yo'q. Man salomat bo'lsam, sizlarni xor-u zor qilmay boqurman. Lekin sizlar o'ksimasangizlar bo'ladi. Man bori sizlar uchun yig'layman, jon bolalarim",— deb aldab ham yupatmoqqa tutunar edi.

Bir tarafdan, yomon farzand dog'ida uzoq kechalarni fikr-xayol bila tong ottirub, endigina biroz ko'zi uyqug'a ketgan sho'rida Ruzvon bu uch ma'sumani ohu fig'oniga seskanub turub, kelub bori ko'zining oq-u qorasi, zaifa tanining quvvati va madori bo'lgan anisi ro'zgori Maryamning quchog'iga kirub sayrab turgan har ikki ma'sumalarni nolishiga toqat qila olmay, yugurub kelub har ikkisin olub, bag'riga bosub, Maryamni eshikka chiqarub yuborub, ma'sumalarga qarab: "Nima bo'ldi, sizlarga, jon bolalarim? Nimaga yig'laysizlar? Otangiz hayot *(ko'z yoshlarin, artub)*, onangiz hayot. Mana, man bor, katta hovlilarimiz bor. Bizga nima qilibdiki, yig'laysizlar? Rasmi xotunlar ba'zi vaqtlarda Xudoga shundog' yig'laydi. Ayalaringiz otangiz uchun yig'lagani yo'q, mana Xudoga yig'lagan-da. Bolam, qo'y, mani xafa qilmanglar. Ey, bo'lmasa bir joyga ketub qolaman! Jon bolalarim, mani ko'p xafa qilmanglar",— deb na azob-kulfatlar bila ko'ngullaridan chiqorub yuboradurgan mundoq qora kunlar birgina emas, faqirlik dastidan haftada, oyda bir bor, ikki bor voqe bo'lur edi.

Olimjonning holi

Olimjon faqirlikdanmi yoki oqila Maryamning yaxshi tarbiyalari bila o'sgandanmi har holda ko'chaga chiqub yurganda, o'ziga o'xshash faqir-u yetim bolalar bilangina qo'shilub yurmog'i, o'zidan kichikroq bolalarga qo'lidan kelgan qadar shafqat va marhamat etub, o'zidan ulug' kishilarga yaroshimlik adab va axloqlar bila boqub, ta'zim-u tavozelar bila salom qilub yurmog'i patparak, dasta yang'oq, chahor po'choq kabi ajalni komi, buzuq va shum fe'llar-

ning boshlig'i bo'lgan o'yunlarga aralashmay, balki ani o'ynovchi bolalarga yaqin bormay, doim masjid-u madrasa kabi diniy va milliy ibodatgohlarda ma'yuslik bir hollar bila sayr etub yurmog'i otasi Abdulqahhorni ko'rgan kishilarni butun intihosiz hayratlarga qoldirub, har birlarini muhabbatlarini boshqa-boshqa o'ziga bog'lar va zo'r natijalardan umid kutdurur edi. Uyida bo'lgan vaqtlarda bo'lsa, hamon mahalla xizmatidan bo'shab kelub, g'amlik yuraklarini biroz yorutmak uchun kitob o'qub o'lturgan baxtsiz Maryamni yoniga kelub, quloq solub o'ltirar edi.

Bir so'z

Bizim diyorlarimizda himmatlik boylarimiz tarafindan shafqat va marhamat uzasidan majjonoan o'qitaturgan yetim va faqir maktablari yo'q uchun mana shundog' Olimjon kabi zakovat va farosatda birinchi darajada faylasufi zamona bo'lub chiqadurgan birgina emas, balki millionlabgina faqir avlodimizni ilm-ma'rifatdan mahrum qolub, kundan-kunga jaholat, fisq-fasod kabi ishlar taraqqiyda bo'lub, tobora oyog' ostida qolmoqdalig'imiz shoyad bu yerda xotiringizdan bir o'tsun edi.

Bechora baxtsiz Maryam Olimjonni bu qadar ilmga havaslilig'idan naqadar ko'ngli quvonib, oxtargan saodat va yo'qotgan davlatining qo'lg'a kelmog'iga shaksiz ishonub, tezdan Olimjonni maktabga bermoq orzu-ishtiyoqida bo'lsa ham yuqoridagi dedigimizcha, maktablar bo'lmagangami, nadan bo'lsa-da, faqirlikdan bisotida dastarxon qilg'udek moddiy bir quvvati bo'lmaganga hamon afsus chekmoqdan bo'lak chorasi yo'q edi.

Olimjon boshlab maktabga bormog'i

Mana, uzoq o'tmadi-da, usuli jadid maktablarining birida o'qiydurgan ikkinchi bir mahalladagi Sobirjon ismli bir faqir kishining o'g'li bo'lgan Ahmadjon Olimjonga o'rtoq bo'lub, bir kun o'zining o'qub yurgan maktabiga boshlab borgan edi.

Bu kung'i millat gulshanig'a yangi qo'ngan bu andalibning o'lturish va harakatlarda ko'rsatgan adab va axloqlariga butun diqqat va muhabbati bog'langan muallim hazratlari birozgina bo'lsa-da, har tarafdan savol qilganlarida, bergan Olimjonning shirin, ma'nolik javoblari asli nasabini ulug'lig'ini ko'rsata olsa ham hozirda biror zolim tarafidan bu qadar faqirlik hollarga qolganlig'ini ustidagi xarob liboslari va ma'yuslik hollari bildirub turmoqda edi. Olimjondan zo'r-zo'r umidlar kutgan muallim hazratlari Ahmadjon bila ikkisin o'z hujralariga choqirub kirub, hol-ahvolni mukammalroqgina so'ragan edilar.

Ahmadjon so'zga kirub: "Bu kishi — mani o'rtog'im. Bizni mahallamizga yaqinroqda Abdulqahhor degan boybachchani o'g'illaridurlar. Otalari avvalda ko'p katta boybachcha bo'lsalar ham bor aqcha va dunyolarini qimorga barbod berub, hozirda benom-u nishon, qaysi tarafga ketganlig'i ma'lum emas. Xizmat orqasida yolg'uz ayalarigina tarbiya qilurlar. Man o'zim bechora bo'lub janobingizni soyai shafqat va marhamatlarinda majjonoan o'qub turganimga bu o'rtog'imni ham boshlab kelgan edim", — deb javob berdi. Bu tarafda zolim qimorboz otaning nomini va faqirlik ta'nasini eshitub turgan Olimjon sovuqgina ko'z yoshlari sarg'aygan yuzlariga tomchilab: afsus, bekaslik, bechoralik degandek nozikkina bosh barmog'ini uchini tishlab, "domla nima der ekan, bechora deb o'qitmasmikan", degan xayollar bila goh umidli, goh umidsizlik bir hollar bila asta-asta ko'zi yoshlanub turgan ziyrak Olimjonni ahvolidin anglab turgan muallim hazratlari esa tezdan Ahmadjonni maktabg'a chiqozub, o'zlari yalg'uzgina Olimjonni yonlariga o'tquzub, peshona va orqalarini silab: "O'g'lim, Olimjon, ana, sizni otangiz kelguncha man o'zim ota bo'lub, kitob, daftar, qalam, davot va boshqa o'qushingiz uchun har bir kerakli bo'lgan nimarsalaringizni o'zim shundoq aqchasizgina berub, o'g'limdan ortuq tarbiya qilub o'qiturman. Hatto pul kerak bo'lsa, ani ham berurman. O'zim o'g'il qilaman. Har kun erta birlan keling, birga choy ichamiz, so'ngra maktabga chiqub, sheriklaringiz bila saboqlaringizni o'qub, uyingizga ketasiz. Men hamma bolalardan sizga ortuq muhabbat bila qarayman. Kam-kam o'zim yaxshi to'n va kafsh-mahsilar qilub beraman. Durustmi, Olimjon", —

deganlarida, xurshid bulut orasindan chiqg'ondek chehrasi biroz yorishub, g'uncha kabi g'amdan to'kilub turgan lablari to'rt kunlpk oydek tabassumlanub ketkan mazlum Olimjonni muallim hazratlarining iltifotlarig'a u holda shodlanganliklari, yolg'uz muallim hazratlarini emas, balki bag'ritoshlarni ham jonini qurbon qilmoqg'a havaslandurur edi. Esa muallim hazratlari shodlangan Olimjonni birga maktabga olub chiqub, Ahmadjon yoniga o'tqazub, qo'liga kitob, qalam kabi o'quv asboblaridan bir qatorini berub, boshqa talabalarga qarab: "Hoy shogirdlar, manga quloq beringiz, *(Olimjonni ko'rsatub)* bu mani Xudo bergan farzandim! Har qaysingiz mani bir daraja hurmat qilur bo'lsangiz, mana bu bizning o'g'limizni o'n darajada hurmat va izzat qilarsizlar.

Agar orangizda ozor berganini bilsam, o'n kun maktabdan quvlanursiz..." Hokazo Olimjonni dilidan otasiz va faqirlik kuduru zanglarini yo'qotub, maktabga havaslanturmak uchun kerak bo'lgan har bir muloyimliklarni ko'rsatub, saboq yozub ko'rsatub, javob berdilar. Mungluq onasining mahalla xizmatiga ketganda, mushfiqasi Xadichasining kichikkina choynakchasiga choy damlab, darvoza tagida birdan kechikub qolgan Olimjon, onasini axtarib yurganidan boshqa otasizliq va faqirliq zindonlarindan butun ozod bo'lgan Olimjon hamon kitoblarin bag'riga bosub, oyoqlari chalishub uyig'a yugurgan edi. Bu tarafda akasini vaqtsiz yo'q bo'lub qolganini sezgan Xadicha choyni Ruzvonga topshirub onasi yoniga yugurdi. Endigina xizmatdan bo'shab, kosadagi ortub qolgan sovuq oshni ichay deb turgan baxtsiz Maryam yoniga ko'z yoshlarin shohid qilub: "Akam yo'q hali ham kelmaydi",— deb kirmog'i bila qo'lidagi oshni tashlab, bosh yopug'in olub, Xadichadan oldin uyig'a yugurdi. Ahmadjon o'rtog'ini qilgan yordami va muruvvatlarini onasi va Xadichaga bildurmoq orzusida uyiga olub kirgan Olimjon Ahmadjondek istiqbolli saodatiga eng birinchi xizmat ko'rsatgan aziz, qadrli mehmonni qarshi olub, o'tqizub, shirin so'zlar va lazzatli na'matlar bila shodlantira turgan Maryam bila Xadichani uyida bo'lmaganiga Ahmadjonga ma'yusona boqub, javdurab, hovli o'rtasida hayron muztarlikda qoldi. Bu tarafdan, Olimjon bila uyiga kirub ketgan Ahmadjonni uzoqda ko'rgan baxtsiz Maryam yugurmoqdan ham biroz o'zini to'xtatib,

parishon Xadichasiga qarab: "Ana Olimjon! Voy Xudo-ey", -deganda, Xadicha esa: "Keldimi, aya, akajonim?"—deb ikkovlari shoshilub, oyoqlari qaltirab, Olimjon orqasidan kirub keldilar. Oyoqlari dovushini eshitgan mahzun Olimjon biroz yuragiga quvvat kela boshlab, kirib kelgan Maryam quchog'iga o'zin olub: "Bibijonim, keldim",— deb aytganda, yuzlaridan Maryam o'pub: "Voy, qo'zichog'im, qayda edingiz? Yuraklarim yorildi-ku, jonim Olimjon", deb qo'llarin bo'yniga olub, munglug' Xadicha: "Voy, akajon, qayda edingiz, jonim qolmadi-ku",— deb bir-birlaridan hol so'rashurlar edi.

Ikkinchi sinf bolasi bo'lgan Ahmadjon ona va singilni bolag'a bu qadar shafqatliklaridan ta'sirlanub, har bir xususda diqqat nazari bila boqmoqda edi. Olimjon diydoriga komyob bo'lgan Maryam ila Xadicha Ahmadjonga ham ortuq darajada mehr-shafqatlar ko'rguzub, uyig'a olub kirub oldilariga yirtiqgina dasturxonni solub, ko'rfa orasidagi yashirulgan butun, siniq nonlarni qo'yub, Ahmadjonga qarab: "Oling, Olimjonginamni, o'rtoqjoni", — deganda, Xadicha kichkina choynakchasidagi choyni kelturub quyub berub: "Akajon, sizni o'rtog'ingizmi?"—deb chuchuk tillari bila marhamat ko'rsatub, turgan bu ikki zotdan ham ibrat olmoqda, o'z ota-onasini qadr-qimmatini bilmoqda edi. Bu tarafdan, avvalgi xijolatlardan butun sof bo'lgan Olimjon qo'ynidagi kitoblarni yoniga olub qo'yub: "Oling, o'rtoqjon, nonga qarang",— deb do'stliklar izhor qilur edi.

Oh, bu to'rt zotni muncha faqirliklar bila bir-birlariga qilgan mehr-shafqat va muhabbatlarini yozub chiqmoqg'a qalamim butun ojizdur. Mana, o'quvg'a havasli Olimjonni birdan kitob ko'tarub kelmog'iga taniga sig'maslik darajada shodlangan Maryam buni sababini bilmoq uchun: "Jonim Olimjon, bu kitoblarni qaydan oldingiz, kim berdi?"— deb so'raganda, Olimjondan avvalroq Ahmadjon: "Man o'qub turgan maktabimga boshlab olub borgan edim. Domlam hazratlariga: "Bu kishi ham o'qiydilar", — deganimga, manga ishonub bu kitobni berdilar. Endi ertadan boshlab birga maktabga boramiz",— deb muallim hazratlarini lutf va marhamatlarini ham so'zlab o'tdi. Maktab lavozimotiga ham faqirlikdan ojiz qolub yurgan Maryam bir so'z urmoqg'a ziyrak Olimjondan

andisha qilub: "Xub, Xudo xayr bersun! Mana, erta bilan keling, qo'shub yuboraman", — deb Ahmadjonning uzatdi. Bu tarafdan, Olimjon kech qolganiga bechora Maryamdan qo'rqub, bosh yopug'ini yofinub, ko'chalarni oxtarub topolmagan zaif Ruzvon necha xavf va ko'z yoshlari bila kirub keldi esa Olimjonni Maryam yonida ko'rub, yugurub quchog'iga olub: "Voy, bolam, qayda eding, oxtarmagan joyim qolmadi", — deb so'raganda, Maryam voqealarni Ruzvonga so'ylab, xotirjam qildi.

Olimjon ertadan maktabga bormog'i

Ikki ma'sumani tarbiya qilmoq uchun bisotidagi bori to'ylarga kiyadurgan bir kamzul, ko'ylak, boldog'idan boshqasini sotub sarf qilgan bechora Maryam ertagi maktab lozimotiga ojizlig'idan intihosiz bir fikrlarga o'ralub qoldi. Bir oz xayoldan so'ngra ilmni qadriga yetgan oqila Maryam bori ul uchgina bisotini ham sotub, Olimjonni maktabga bermoqg'a qaror qilub, Olimjondan yashuringina tutub, o'zini yoshlik vaqtida hammaktabi bo'lgan, iffatli va muhabbatli do'sti Halimaxonimning yoniga borub, o'tkan va keladurgan ishlarni har birin so'zlab, ul bisotini Halimaxonimga taqdim qilub, biroz aqcha so'radi. Halimaxonim o'zi boy bo'lmasa ham, biroz ilmninggina sharofatidanmi yoxud Maryamning tarjimai holidan xabardorlig'idanmi, nadan o'lsa-da, rahm-shafqat birla dasturxon lozimotlarini o'z yonidan berub, taqdim qilgan nimarsalarini ham qo'ymay o'ziga qayirub berdi. Uyiga shodlanub qaytgan mafqura Maryam kechalab onasi Ruzvon bila dasturxonni tayyorlab, Olimjonni g'usl qildirub, yangi bo'lmasa ham suv bila oqargan yamoqsizgina to'nlarini kiyguzub uxlatdilar. Bir tarafdan, Maryam bila Ruzvon ham uyquga ketdilar. Bir tarafdan, kech o'tub, tong bo'la boshlag'och, Maryam ila Ruzvon turishub, o'z ibodati diniylariga mashg'ul o'ldilar esa onasi bila turmoqg'a odatlangan mungluq Xadicha kunlik xizmatini ado qilmoq uchun turub, choy hozirlamoqg'a tutungan edi. Bu tarafdan Ahmadjon ham yetub keldi. O'quv ishqida, muhabbatida, kechani tezdan tong ottura olmagan, butun shodlig' va xayollar bila ne vaqtlarda

uxlab qolgan Olimjon yuziga tushub turgan issiq oftob haroratidanmi yoki uyqusida ko'ziga ko'ringan chin do'sti Ahmadjon: "Turing, maktab vaqti bo'ldi. Yotasizmi?" — degan ovozigami birdan cho'chib uyg'onub, yonida choy ichishub o'lturgan Ahmadjon, Xadicha va Maryam onasini ko'rgan Olimjon yugurub turub, yuz-qo'llarini yuvub kelub o'ltirub, choy ichmoqqa tutundi. Choydan forig' bo'lishdilar esa Maryam dasturxonni birin Ruzvonga va birin Ahmadjonga ko'tartirub maktabg'a jo'natdi.

Olimjonni maktabda o'qimog'i

Yosh bo'lsa ham onasi Maryamni tarbiyasiga odatlanganidanmi yoki o'quvga hadsiz havasligidanmi Olimjon erta namozdan avvalroq turub, tahorat olub, kichikkina sallasini o'rab, masjidga chiqub, jamoat bila namozni ado qilub, eshikdagi hamma kafshlarni to'g'rilab qo'yub, o'zi masjid darvozasiga chiqub, poylab turur edi. Oldin-keyin har bir chiqgan kishilarga qo'lin qovushturub, ta'zim bila salom qilub, axloq va hurmatni nuqssiz o'z joyida tutar edi. Namozdan chiqgan kishilarni subhdagi pok nafaslaridan duo olgan Olimjon uyiga kirganda ham Ruzvon, Maryam onasiga, hovlini supurub, joylarni tayyorlab qo'ygan mushfiqa Xadichasiga salom berub, supurguni olub chiqub, darvoza ostini to hamsoyalar eshigiga qadar supurub, kirub o'lturub, onalari bila choy ichmoqg'a mashg'ul bo'lur edi. Ba'zi vaqt choy ichub o'lturganda, dastarxondagi nonlarni yumshoqlarini qo'yub, qattiqlarin oxtargan Olimjonni qo'liga qarab turgan mazluma Maryamning jigar-bag'rlari ezilub, bunisi ham qattiq degan kabi ko'rinub, ko'zi tinub, boshi aylanub, ichidagina oh tortmog'i bila ko'zi yoshga to'lub, zolim Abdulqahhor dastidan yurogin porasi, ko'zin oqu qorasi o'lgan uvol ma'sumalarini mundog' faqir va tirik yetimlik balosiga qolub, lazzat ne'matlar bila tarbiya qila olmaganiga bag'ri to'kilub, qo'lidagi choyga ko'zidan tomgan zaharli yoshlarin qo'shub ichar edi. Olimjon holidan, Maryamni ko'z yoshlaridan xabardor Ruzvon esa kasofat o'g'lining zulmiga qolgan bu ma'sumalardan xijolat bo'lgandan: "Olimjon bolam, non qattiq bo'lsa,

piyolaga to‘g‘ragil. Xadicha ko‘proq choydan quysin, muloyim bo‘ladi”, — der edi. Bechora Ruzvon bila Maryamni xijolat bo‘lganini anglagan ziyrak Olimjon: “Yo‘q. Onajon, man yumshoq non oxtarganim yo‘q. Erta bilan qattuq non yemoq sunnat va ham hifzul sihatga muvofiq deb, sheriklarim kitobida ko‘rdim va ham muallim hazratni og‘izlaridan eshitdum. Aning uchun qattiqroqini oxtaraman. Katta bo‘lub boy bo‘lsam, yumshoq nonlar ham ko‘payub qolur. Hali hozir biz ilmnigina orttirayluk. Onajon, yumshoq nonni topilmog‘i oson, ammo ilmning topilmog‘i juda qiyin. Siz mani qattiq non oxtarganimni sababini bilmasdan ko‘p tashvish qilmang. Biz hali yosh. Sizlar turganda, mani yumshoq non oxtarmog‘im juda ayb, onajon”, — degan shirin, ma’noli so‘zlar bila har ikkisini ham bo‘lsa xijolatdan chiqarub, zo‘r-zo‘r umidlarga diqqat va muhabbatlarini jalb qilur edi. Mana, kitoblarin qo‘ltug‘lab ko‘chalarda devor ostida ohista yaroshimligina bir axloqlar bila tekiz-tekiz qadam bosub, kichik-kichik qo‘llarin ko‘ksiga qo‘yub maktabg‘a jo‘nagan odoblik Olimjon ko‘rungan kishilarga salom qilub, umrida birgina ko‘rgan kishini bo‘lsun axloq va odoblariga hayron qoldurur edi. Maktab eshigiga yetgan Olimjon oyog‘idagi kafshini iflos joylarini tozalab kirur edi. Garchi oyog‘idagi kafsh har kimlarning eskisi bo‘lsa ham, onamning kuch-quvvatini orqasidan kelgan bu yirtiq kafsh, ro‘baro‘da turgan aqcha bilan olingan boy bolalarining yangi kafshlaridan afzalroq bo‘lsa kerak, degan kabi ehtiyot bila yuqoriga qo‘yub, maktabda kishi bo‘lsa-bo‘lmasa, salom qilub kirub, o‘z joyida o‘lturar edi. Ba’zi vaqtlarda ertaroq kelub qolgan ilmga muhabbatli Olimjon saboqlarin takror qilub bo‘lgandan keyin atrofdagi xarita, binolar tasviriga qarab, zavqlari ziyodalanub, folga oyoqlarnni to‘pur-to‘pur urub o‘ynab, shodlanub, o‘z-o‘zig‘a qo‘li bilan ko‘rsatub: “Mana, Olimjon, oh, bu qandoq joy? Taning rohat oladi. Bu dunyoning boqchasi va jannati desang ham rostdur. Mana, qandoq oq uylar. Qandoq pokiza kursilar, bular yozmoq uchun kerakli doskalar, hisobga cho‘tlar, tomosha qilmoqqa chiroylik xaritalar. Bular hammasi ilm o‘rganmoq uchungina hozirlangan. Mana — ilm qandoq aziz ne’mat. Dunyoda ilmdan ortiq ham lazzatli shirin ne’mat bormi? Yo‘q, albatta, yo‘q bo‘lsa kerak. Mana, ilm o‘qiy-

durgan kishilar shoh, gado, boy, faqir bo'lsun, mundoq ulug' joy hammasiga ham barobardir. Bu joylarda o'ltirub o'qugan kishilar, albatta, baxtlik va saodatlik bo'lsalar kerak. Chunki ko'chalarda behuda ahmoq bo'lub xat-savodsiz yurgan odamlardan hech biriga bu yerda o'rin yo'q-ku. Albatta, alar yomon, baxtsiz kishilar bo'lsa kerak. Yaxshi bo'lsalar edi, albatta, mundog' aziz umrlarni ko'chalarda befoyda ishlarga sarf qilub yurmay, manga o'xshab bu joylarda rohatlanub yurur edilar. Agar mandek ilmni shirinlig'ini alar ham bilgan bo'lsalar edi, ilmdan boshqa nimarsani istamas edilar. Mundog' joyda tarbiya topgan kishi qandoq olim, qandoq aqllik, fozil, axloqlik, marhamatlik, insof va shafqatlik bo'lsa kerak... Oh, shundog' aziz joylarda ota-onalarimiz ko'rsatmagan muhabbatlarni ko'rsatub va alar so'zlamagan shirin so'zlar bila adab va axloqlarni o'rgatub, dunyo va oxiratda izzatlik va hurmatlik bo'lmog'imiz uchun kecha va kunduz xizmat va tarbiya qilg'uvchi mundog' muallimimiz va haqiqiy otamizni tashlab, ikki dunyoni sharafi bo'lgan ilmdan butun mahrum, ko'chalarda sanqub sarson va sargardon, bir parcha nonga muhtoj, zor bo'lub yurgan nodon, g'ayratsiz, himmatsiz johillarni ham inson deb bo'lurmu?! Yo'q, bo'lmas oxir. Mana, hamma vaqt samavorchi, novvoy, qimorboz, o'g'ri, supurguvchi, yamoqchi, qorovul, meshkobchi, eshakchi, shularga o'xshash past hunarli odamlarni so'rang! Hammasi o'qimagan. O'qigan odamlar garchand yosh bo'lsalar ham, madrasalarda mudarris, rastalarda katta do'kondor, yaxshi o'rinlarga mirzo, yaxshi kiyimlar, ozoda sallalar boshida, har joyda izzatlik va hurmatlik. O'qimagan odam har qancha bo'lsaki, o'qigan odamlarni ko'rgan izzat va hurmatlarin aslo ko'rmaydi. Mana, o'qigan kishilar bizni muallim hazratlariga o'xshash doim shirin so'zlar va yaxshi nasihatlar qiladi. Bechoralarga, manga o'xshagan shafqat va marhamat, muruvvatlar va yaxshi tarbiyalar qiladi. Muallim emaslari, garchi, yaxshi o'qutub, ilm va musulmonchiliklarni o'rgatmasalar ham xayr-ehson bila faqirlarni xursand qiladi. Ammo o'qimagan odamlar naqadar boy bo'lsa ham, rahmsiz va muruvvatsiz va insofsiz bo'lub, bizdek faqirlarni xo'rlab, ozor berub, yomon haqoratlar bila har kimni dilini og'ritub yurarlar. Yana o'zlari ichkulik, qimorga o'xshash buzuq ishlarni qilub, oz-

gina vaqtda davlatlaridan ajrab, zolimroqlari o'g'ri, odam so'yadirgan qassob, biroz g'ayratliklari supurguvchi, yamoqchi, juda bepomusi va behimmat g'ayratsizlari isiriqchi, gadoy, qalandar bo'lub, har kimdan tilanub ovqat qilurlar. Mana bular hammasi o'qumagandan shundoq bo'ladi-da. O'qigan odam juda g'ayratsizlikdan, ishsiz qolganlari masjidlarga so'fi yo imom bo'ladilar. Mana, o'zimni otam qandoq zolim, johil, so'zlari zahar. O'qimagani uchun shuncha dunyolarimizni qimor va shunga o'xshash yomon ishlarga barbod berub, bechora onam, ayam, Xadicha, mani tashlab qochub ketdi. Mana, ayam o'qigani uchun qancha azoblar bila bizni boqub ham mana shundoq joylarga olub kelub o'qityapti. Otamning holini o'ylab o'zim ibrat olsam, mundog' joylarga kelganimga bir nafasda ming bor shukr qilub, doim bekor turmay o'qumog'im kerak. Ikki-uch yilda savodim chiqub, xatim ham chiqub, manam xalifa bo'laman. Bir-ikki yil o'qub, muallimlikni o'rgansam, biror maktabga manam muallim bo'lub, domlamga o'xshash shundog' maktablarda oltmish-yetmish adad bolalarga ta'lim beraman. Mani ham bolalarni otalari izzat qiladilar. Manam o'zimga o'xshagan bechora-faqirlarni bolalarini o'qitub, xursand qilub, duolarini olaman. Oz fursatda boy bo'lsam, bechora onam va ayamni ust-boshlarin yaxshilab, o'tun, un, yog'lar olub bersam, ayajonim qandoq xursand bo'ladi. Mana bu yaxshi emasmi?! Mana, hozirda boylarni uyiga kirsam, kambag'allig'imdan hazar qilishub, ko'zlariga itdan ham xarob ko'rinurman. Haydab chiqarmasalar ham qabog'larini solub, jerkub turadilar. Mana bu qilmishlaridan ma'lum bo'ladiki, mundog' yaxshi joylarda o'qub tarbiya ko'rmagan uchun odamni qadrig'a yetmaydurlar. Alar nazdida dunyoda boydan bo'lak kishi odam emas. Yo'q, man anga xafa bo'lishim kerakmas. Man o'zim o'qub, olim va mulla, boy bo'lub qolganimda, o'shal hazar qilganlar o'zi sharmanda bo'lub, uyalub qoladi. Ishqilub, hozirda ko'rub turgan qora kun va xo'rliklarni yodimdan chiqarmay, o'qumoqda bo'lsam, shundog' aziz joylarga yetkurgan Xudoyim rahm qilub, o'shal kunlarga ham yetkurur, murodlarimni ham berur. Ishqilub, tez-tez o'qub, sheriklarimga ham qaramasdan o'qumog'im kerak",— deb kichik, oppoqqina qo'llarini bir-biriga urub, oyoqlarini dupur-dupur urub, shodlan-

gandan o'rnidan turub ketardi. Mana, o'zini mundog' nozuk, salim fikrlar bila o'quvg'a havasini ortdurgan ziyrak Olimjon sheriklari jam bo'lg'uncha darslarni takror qilub turur edi. Sheriklari kelgoch, kunlik vazifa darslarni olub yozub, o'qumoqg'a davom qilur edi. Hech bir bola birla bir nimarsani taloshub urushmas, urushni axtargan talabalarni muloyim so'zlar bila o'ziga do'st qilub olur edi. Tanaffus vaqtlarda ham bolalarga qo'shilub qichqurub o'ynamay, maktab ichida o'ynagan bolalarni tomosha qilub, axloqliklaridan axloq o'rganub, axloqsizlaridan ibratlanub o'lturur edi. Choy vaqtida ohista Xadichasi bila Maryam yoniga borub, choy-nonni yeb, tahorat olub, qaytub jamoat namoziga yetub kelur edi. Namozni jamoat bila o'qub, to'g'ri maktabiga kirub, yana o'z ishiga mashg'ul bo'lur edi. Ozod bo'lganda, hammadan avvalroq kitoblarin jamlab, salla, to'nlarin kiyub hozirlanub turar edi.

Muallim hazratlari nutq so'zlasalar, chin quloq va e'tiqod, ixlosi tamom bila eshitur edi. Bolalar ozod bo'lub ketganda ham Olimjon muallim yoki xalifa hazratlaridan bilmagan darslarini so'rab olur edi. Uquvg'a mundog' havasli Olimjonni harakatlariga muallim hazratlari ham bu ishda qusurlik va sabrsizlik qilmay, balki ani ijtihodiga zavqlari kelub, qaytub-qaytub bilgani qadar ta'lim berur edilar. Mana, darsdan ko'ngli qonub shodlangan Olimjon muallim hazratning iltifotlariga o'quv havasi taraqqiy qilub, ohista uyig'a qaytur edi. Uyni ba'zi xizmatlaridan bo'shagan g'ayratlik Olimjon bir xil bolalar kabi patparak, dasta yong'oq kabi kasofat o'yinlarga hech qorishmay, tahorat qilib, asr, shom namozini masjidda o'qur edi-da, oqshomgi taomni yeb, xufton namozini uyida o'qub, uyqusi kelgan vaqtga qadar sabaqlarini yozur edi. Ko'rpa orasiga kirganda ham uyqusi kelganiga qadar yod bo'lg'on darslarini ikki-uch takror qilub, uxlab qolur edi.

Olimjonni birinchi yil imtihonga tayyorlangani

...Mana, hech bir to'y, ma'raka, sayl, uloq kabi oqchani zoe qiladurgan ishlarga umrini abas qilub, qadam sira qo'ymay, bir qishni butun o'quv-yozuv bila tamom qilub, ijtihod va g'ayrat qilgan Ol-

imjon aprel oxirindagi xususiy imtihonda sheriklari orasida yolg'uz o'zi mukammal va mufassal imtihon berub, birdan ikkinchi sinfga ko'churulub, hatto 25 mayda bo'ladurgan imtihonga ham ikkinchi sinf darslaridan tayyorlamoqg'a kirishgan edi.

24 may bo'luv sababli 25 ga deb imtihon majlisi uchun bosdurulgan da'vatnoma qog'azi ozod vaqtida muallim hazratlari tarafidan tarqatildi esa muallim hazratlari bolalarga umuman xitob qilub, imtihon xususidagi har bir kerakli so'zlarni so'zlab, oxirida: "Ey bolalar, ore, har biringiz ham ijtihod va g'ayrat bila o'quv-yozuvga davom va jasorat qildingiz. Rahmat. Lekin man hech kim va har birlaringizga Olimjon kabi harakat va g'ayrat qilub tayyorlangandur, deb hukm qilolmasman. Chunki Olimjon, mana, ikki tahsil to'lmasdan ikkinchi sinfga ko'churuldi va ham 17 apreldan bu kunga qadar 35 kun orasida ikkinchi sinfni darslaridan ham bir qancha ma'lumoti bor, deb aytsam ham yolg'onchi bo'lmasman. Endi bugun-erta jamiyatni huzurida birinchi darajada bizga rahmat olub berguvchi va yuzimizni yoruq qiluvchi oralaringizda bori Olimjonni o'zidur. Emdi shoyad sizlar ham Olimjon kabi bu yaqin kun orasida ijtihod qilub nuqslik o'rinlarin tuzatsangiz. Toki boshlaringizda qarab turgan, o'quvlaringizga yordam qilub, munchalik saodatlaringizga sabab bo'luvchi otalaringizni ko'ngullari qolmasa, biz ham alardan xijolat bo'lmasak. Durustmi?" — deb so'zni tamom qildilar. Oh, biz kelaylik Olimjonni holig'a.

Muallim hazratlarining lutf-marhamatlariga naqadar sabr qila olmaslik darajadagi shodliklarga yetishgan Olimjon bo'lsa kerak, deb gumon qilmak xatodur. Zeroki, otasi Abdulqahhor ismiga bergan da'vatnoma qo'liga tekkandan keyin: "Sani otang qani, imtihon kuni boshingda kim turar? Sanga dasturxonni kim qilib berur? Kim sani o'quganlaringni ko'rar? Bu bolaning otasi qaysi, degan savolga jamoat orasidin kimni ko'rsatilur?"— degandek bu ruhsiz qog'azni dovushsiz itoblariga naqadar ma'yuslanub turganda, Olloh... muallim hazratlarniing so'z orasida yana: "Otalaringiz, otalaringiz", — deb takror qilub turgan xitoblariga butun fikri yo'qolub, yuragi titrab, bag'ri ezilub, ko'zi zaharlik yoshlar bila to'lgan Olimjon dod deb qichqirub yubormoqg'a sharmu hayo

qilub, ming mashaqqatlar bila o'zini uyig'a yetkurub oldi. O'zlarining maslaklariga qaraganda, muallim hazratlarining idoralarida Olimjon kabi bir necha otasiz dilshikasta, yetim, faqir talabalarni rioya qilmay endigina tirik yetimlik, otasizlnk alamlarini unutgan ma'sumalarni ruhsiz boshlarin qaychi bila qaytub kesgandek qo'llariga da'vatnoma topshirub, balki so'z orasida "otalaringiz" ta'nalari bila yorulgan bag'rini pora qilmoqlari hadsiz taassuflarga bois bo'lsa kerak. "Ta'nanoma"ni kissasiga solub, ming azoblar bila o'zini uyga yetkurgan, parishonxotir, ma'yus Olimjon asrordan xabarsiz munglug' Xadichaga: "Boshim og'riydi", — debgina kitoblarni qo'yub, odatdagi xizmatlarga butun qaramay, uy to'rida turgan yirtiqgina ko'rpacha ustiga hasrat bila cho'kkan bag'rini ko'tara olmay, bir bora "oh" deb o'zin tashlab yubordi. Mushfiqa, kuyunchik Xadicha jonidan ortuq Olimjonni bu holda ko'rmoq bila o'zini yo'qotgandan: "Oh, akajon, nima qildi?" — deb Olimjon qolub, Maryam onasig'a qarab yugurub ketdi. Halimaxonim do'stini yonida endigina dardlashub, kulushub o'lturgan baxtsiz Maryam: "Ayajon, Olimjoning betob bo'lub kelub, uyg'a yiqildi"—degan g'amlik ovoz bilan yig'lab, bosh-oyog' yolon qichqirub, parishon yugurub kirgan Xadichani ko'rub, tan qafasidagi murg'i ruhi uchub tirik o'lgan Maryam bosh yopug'un teskari yopinub: "Oh, Olimjon, sho'rim toza quridi",— deb uyga yugurdi. Bu tarafdan Xadicha ovozini eshitub chillaxonasidan yugurub kelgan Ruzvon Olimjonni olub bag'riga bosub, yuzlarin silab: "Voy, qo'zichog'im, nima qildi, jonim bolam, onang o'lsun",— deb turmakda edi.

Butun aqlidan adashgan, o'zidan-o'zi: "Oh, Olimjonim, ayang o'lsun",— deb kirub kelgan baxtsiz Maryam Ruzvon quchog'idan jigarporasini, ko'zin qorasi Olimjonni olub bag'riga bosub, boshlarin, hali bilak-chekkalarin ushlab, bo'yinlarindan quchog'lab: "Oh, Olimjon, ayaginang o'lsun! Nima qildi, Olimjon? Rahmsiz otang o'lsun. Nima qildi? Aytg'il, kim urdi? Qayering og'riydi, jonim", — deb chidamsiz bir hollarga tushdi. Hollari parishon bo'lgan Maryam, Ruzvon, Xadichani biroz bosmoq uchun ziyrak Olimjon: "Hech gap yo'q. Bori boshim og'ridi. Ayajon, ko'p

qo'rqmang, tuzalib qolurman", — deb ko'ngillarin bosdi. Biroz yuraklari taskin topgan Xadicha, Maryam, Ruzvon Olimjonni yotquzub, biroz taom yeb, namoz so'nggida uyquga davom qildilar. Bu kechani g'amlar bila subh qilgan baxtsiz Maryam Olimjon yuziga termulub turgandan keyin biroz fikrlanub, biror nimarsa yegan bo'lsa shundog' bo'ldimikin, deb ohista Olimjonni kissasiga qo'l solganda, yuqorida yozub o'tdig'imiz ta'na og'irini kelturgan "Da'vatnoma" chiqdi. "Abdulqahhor afandi janoblarina, 25-mayda... kuni soat 8 dan to 12 ga qadar... mahallasida koini ibtidoiy talabalarning imtihon majlisiga lutfi sharif buyurmoqlarini kamoli ajzu niyoz ila rajo va tamanno edaram", — degan mazmundan ogoh bo'lgan baxtsiz Maryam Olloh... tog'dek g'amlar ostida bag'ri ezilub, faqirlikdan bemor bo'lub, zolim ota dastidan xo'rlanub, o'quvdan umidi kesilub, g'ariblik bolushiga yostangan Olimjonning bekaslik bila kirub, yetimlik bila chiqub turgan sovuq nafaslariga dili buzilub, naqadar yig'lar esa ham bu dardning davosiga o'zi ham butun ojiz edi. Oxiri "Da'vatnoma"ni ko'tarub, onasi Ruzvon yoniga kirub tamom so'zladi. Yuraklari teshulgan Ruzvon: "Man domlani oldiga bir boray, nima der ekan", — deb to'g'ri domla hazratlariga bordi esa domla hazratlarnni chaqirub, tamom hollarni bir-bir so'zlab o'tdi.

"Da'vatnoma" berurda bu hollarni fikrig'a kelturmagan muallim hazratlari naqadar pushaymon qilsalar ham kirgan o'qni chiqarmoq tadbiridan bo'lak bir chora yo'q edi. Ikki dona miyonaroq to'n olub chiqorub, Ruzvon qo'liga berub: "Bo'lmasa, mana muni olub boring, imtihon kuni dasturxon ustig'a qo'yub kelursizlar. Lekin muni Olimjonga ko'rsatmangizlar, — dedilarda, — man o'zim ham biroz vaqtdan so'ngra borub, Olimjonni olub kelurman", — deb Ruzvonga uzatdilar. Olimjon yuziga termulub o'lturgan baxtsiz Maryam onasi Ruzvonni ko'rub, yugurub yoniga chiqdi. Ruzvon hamma so'zni so'zlab, muallim hazratning marhamat qilgan nimarsalarini topshurub, hozir keluvlarini ham xabar qildi. Birinchi tarafdan, janobi Haqni yordamig'a shukurlar qilub, ikkinchi tarafdan, shafqatlik muallimlardan o'ziga sig'maslik darajalarda shodlangan baxtsiz Maryam to'nlarni yashurub, muallim

hazratlarini kirub o'lturmoqlari uchun Ruzvonni uyini tuzotub qo'ydi.

Imtihon xijolatidan qutulub, butun yoruqluqg'a chiqg'on baxtsiz Maryam uchun, yana bir yangi ikki zo'r g'amlik chorasiz tashvish voqe bo'ldi, desak, birinchisi, hozir keladurgan muallim hazratlarining mehmonliklarin lozimoti, ikkinchisi, imtihon majlisig'a qilinadurgan dastarxon lozimotlaridingina iborat edi. Mehmon lozimotiga butun aqldan adashgan baxtsiz Maryam kimdan besh-o'n adad non topub qo'mmoqg'a hovli o'rtasida ko'zi yoshlanub, chorasiz hayratda qoldi. Ojizlar holidin har doim o'zi xabardor bo'lgan haqiqiy yordamchimiz janobi Haq Maryam holidan ham o'zi xabardor edi. Demak, Olimjonni notoblig'idan xabarlangan Halimaxonim bir lagan yog'liq non, bir tabaqda shirbirinch qilub, Maryam bila Olimjondan hol so'rab keldi. Bu asrorni janobi Haq lutfi bila ilm sharofatidin bilgan dildosh Maryam dastarxonni olub, Halima do'sti bila ko'rushub, Olimjon yoniga taklif qildi. Bu tarafdan, muallim hazratlari bila hamroz kelgan Ahmadjon kirub: "Muallim hazratlari keldilar", deb Maryamni xabar qildi esa Maryam Halimaxonimni uyiga olib kirdi-da, imtihondan qolganiga jigarlari ezilub, ko'z yoshlari sel kabi yog'ilub, umidsiz shipga termulub yotgan Olimjoniga muallim hazratini kelganlarin xabar qilub: "Tur, jonim, domlang hazratlari kelubdurlar. Onang uyig'a boshlab kir",— dedi.

Muallim hazratlaridan xabar eshitgan Olimjon sachrab turub, eshikka chiqdi. Otasidan ortuq darajada tarbiya qilg'on haqiqiy va ma'naviy otasini ko'rgach, olloh... faqirlikdan u qadar tarbiyalarga qarshi xizmat ko'rgazub, muallim hazratlarini xursand va rizo qilolmaganig'ami yoxud har doim shirin so'z va nasihatlar bila o'z foyda va saodatlarin ko'rsatub, bu qadar ilm-u ma'rifatga yetushtirgan muallimining sahvangina bergan "Da'vatnoma" lariga ozorlanub bormoganig'a pushaymon bo'lganidanmi, nadin o'lsa-da, dinu millatni ehtirom qilub, katta boshlarin kichik qilub, eshik oldida turgan muallim hazratlarini ko'rub, uyolganidan ziyrak Olimjon ko'zidin g'amlik yoshlari salom barobarida tomchilab, borub ziyorat qilub, qo'llarin o'pub, uyig'a taklif qildi. Olimjonni farosatidan ta'sirlangan muallim hazratlari bo'lsa,

so'zni bo'lak yurutu
o'rnig'a qo'lin tutul
ko'zum sandin bo'l
qulog'imga kirmayd
g'a choqirsalar, ziyo
dimga kelmaydi.

Chunki bizni ha
va ilmi biladur. Ma
qilub o'zum keldim.
bo'lmasa hargiz ma
jon ota-onasidan ha
deb keldim. Bir kec
Olimjon. Qayering
marhamatlarni eshu
g'am-g'ussalari ket
biroz boshim og'rig
vaqti o'tg'ong'a erta
javob berub, yana ta
qo'ymoqg'a muallim
ziyrak Olimjonni se
Halimaxonim ko'ta
uchun Olimjon bila
tiha o'qudilar. Ba'd
Olimjonni qo'lidan
bila, albatta, borgin
muallim hazratlari
qilgan baxtsiz Ma
ko'ngullarini ko'tar
ruxsat olub uyig'a y

Halimaxonimga
zorga sotdurub, aq
Maryam muallim h

: "Nimaga bormading maktabg'a?" — xitobi
peshonalarii silab: "O'g'lim Olimjon, mani
bolalarni ko'rmadi. Sandan boshqani so'zi
Boshqa bolalar mana mani qancha uylari-
at qilsalar ham, sani bu ostonangcha pisan-

otimiz sanga o'xshash oqil bolalarning aqli
, bugun bormay qolganing uchun tashvish
Albatta, biror joyi og'rub notob bo'lgandur,
abga bormay qoladurgan bola emas. Olim-
, domlasidan ham maktabni yaxshi suyadi,
adan muncha o'zingni oldurubsan, o'g'lim
g'riydi?" — dedilar. Bu shirin lutf va laziz
gan bag'ri eziq Olimjon ko'nglidagi hama
, chehrasi biroz yorushdi-da: "Kecha bila
edi. Yangi tarqadi, emdi boray desam, dars
bilan boraymukin, deb turub edim", — deb
if qildi. Uyga kirub, bechoralarni tashvishga
hazratlarining vijdonlari qabul qilmasa ham,
b„ ma'yuslanmog'idan andisha qilub hamda
b kirgan dastarxonni yiroqdan ko'rganlari
arobar Ruzvon uyig'a kirdilar. O'lturub fo-
taom va kalom muallim hazratlari turdilar.
tub, eshikg'acha birga olub chiqib-da: "Erta
— deb jo'nadilar. Bu tarafdan faqirlikdan
tuhfasiz kuzatganiga ma'yuslanub, afsus
am, shirin so'zlar va nasihatlar bila biroz
n Halimaxonim ham Maryam va Ruzvondan
ndi.

imjonni imtihon bergani

aqdim qilgan baldoq, ko'ylak, kamzulini bo-
asiga dastarxon qilgan ilmning chin oshiqi
zratlarini bergan ikki dona to'nlarin ustiga

qo‘yub, birini Ruzvon, ikkinchisini Olimjon o‘ziga ko‘torturub, imtihon majlisiga bordilar. Olimjon uchun ko‘z tikub turgan muallim hazratlari dastarxonlarni oldirub, hadsiz xursandliklar ko‘rguzub, Olimjonni o‘zini yolg‘uz bir kursigagina o‘tg‘ozub: “O‘g‘lim Olimjon, imtihon berub turgan vaqtingda atrofga hech bir boqma. Balki ko‘zungni yumub tur. Chunki ko‘p kishilarga qarasang, yuraging vahm olub, ko‘p adashursan”, — deb ta’kid qildilar. Muallimni bu so‘zlarida nima hikmat bor. Lekin shoyad qoriinlar o‘zlari bilsalar kerak, deb yozmoh lozim ko‘rulmadi... Mana, boyon va ulamo, quzzotlardan tortub besh-olti yuzli bu majlisi imtihonda hammadan avval muallim hazratlari Olimjondangina imtihon boshladilar.

Bu millat majlisini sahnasida kichikkina sallasin o‘rab, nozikkina qo‘llarin qovushturub, ko‘zlarin yumub javobga kirishgan Olimjon bulbul kabi sayrab, har bir jamiyatda bo‘lgan kishilarni butun some qilub, munglug‘ ovozig‘a, xulq va odobiga band-u asir qildi. Mundog‘ vaqtlarda badbaxt, zolim Abdulqahhorning bo‘lmaganiga ko‘z yoshlari to‘kulub, jigar-bag‘ri titilub turgan Maryam bila Ruzvonga yuzlab afsuslar kelsa hamda butun izdahomni shov-shuvdan to‘xtatub, o‘ziga bismil qilgan Olimjonni ilmga mustag‘raq bo‘lub qumri kabi sayrab turganidan minglab shodlig‘lar ro‘y bermoqda edi.

Uch soatga qadar yolg‘uz o‘zigina imtihon bergan Olimjon darsi tamom bo‘lgoch, birdan salavot va ash’or boshlab yubordi. Olimjonni ovozi va o‘quvlarig‘a ta’sirlanub ko‘z yoshlari oqub turgan jamiyat a’zolari ash’or tamom bo‘lg‘och, har tarafdan bori “Tahsin!”, “Rahmat!”, “Ota-onasiga, ustodiga rahmat!” ovozigina emas, balki himmatsiz, baxil zotlar ham chaqirub, a’loqadrihol ba’zilari bir so‘m va ba’zilari besh so‘mlarga qadar in’om qilmoqqa boshladilar. Bu saodatlarni yiroqdan ko‘rub turgan Maryam oh!.. dunyoda o‘lmaslik bir hayotga yetdi, desak-da, to‘g‘ri kelur edi.

Yoshgina Olimjonni bu qadar ilmdan ma’lumot berganidan ko‘ngullari to‘lgan boyon va quzzotlar muallim hazratlaridan mamnun bo‘lub, tashakkurlar aytub, boqiy imtihonni, talabalarni

o‘z ota, onalariga mavquf qoldirub yondilar. Imtihon majlisining yorim kuni Olimjon bila, boqiysi boshqa talabalar bila tamom topub, muallim hazratlarining ul kungi va so‘ngg‘i xalq orasida obro‘ va e’tibori taraqqiy topmoqlariga eng birinchi sabab ham Olimjonni ilmga ijtihod va g‘ayrat qilub, mana shundoq nuqssiz imtihon bergani bo‘ldi.

Olimjonni bayram kunlarin ulug‘lamog‘i

G‘ayrat va ijtihod soyasida ikkinchi, uchinchi imtihonni ham ortuq darajada yaxshilab o‘tkargan Olimjon to‘rtinchi sinfni imtihonin o‘tkarub, muallim hazratlari tarafidan maktabda muovinlik martabasig‘a sohib bo‘lgan edi.

Demak, ilmi va farosatining qaviyligidan butun uchinchi sinfga qadar yolg‘uz ta’lim bermoqg‘a iqtidori yetishgan edi.

Hatto muallim hazratlarining yo‘q kunlarin bolalarga sezdurmay maktabni butun tebratur edi. Har bir o‘qigan kitoblarin so‘ziga chin qalbi bila e’tiqod qilgan sodiq Olimjon yolg‘uz juma kuninigina emas, balki mavlud, fathi Makka, hijrat kabi saodatlik va sharofatlik diniy bayramlarimizni har birida bo‘lsun, o‘zi va boshqalar uchun naqadar manfaatlik ishlar bo‘lsa ham tark qilub ul kung‘i milliy bayramda ertalab g‘usl qilub, pokiza liboslarin kiyub, o‘ziga xushbo‘ nimarsalar sepub, Qur’onini qo‘ynig‘a solub, bizlarda milliy majlis va qiroatxonalar bo‘lmaganig‘ami yoxud o‘zidan boshqa diniy, milliy bayramlarga ahamiyat beruvchilar yo‘q bo‘lganig‘ami, borgudek hech bir joyni topolmay, namozi jumaga qadar qabristonlarga borub, duo va fotihalar qilub, jamiyat bila namozi jumani o‘qub, uyiga qaytub, kechga qadar kitob mutolaa qilur edi.

Har bir ish va amalni ilm va aqlga o‘lchab ish yuritgan haqiqatparvar Olimjon, avvalg‘i zamonlardag‘i ma’jusiy bobolardan meros qolgan to‘y, uloq, sayr, och mozor, to‘q mozor kabi bizim Turkiston musulmonlariga farz yoki sunnat qatorlarinda odat

bo'lub qolgan asossiz fasod va shum bid'atlardan paydo bo'lgan xurofot, kasofat va razolatlarni o'zi og'zida tanqid qilub, amalda barobar qilishub yuruvchi ba'zi so'zida sabotsiz ziyoli va ochiq fikrlilarning hech birlariga qo'shilmas va ul sayrgohlardan milyon so'm manfaat hosil o'lsa ham, o'z maslak va matonatini yosh bo'lsa ham qo'ldan bermas edi.

Olimjonni boshlab tijoratga kirmog'i

Mana beshinchi imtihong'acha majlisda hozir bo'lub, sodiq g'ayratlik va jasoratlik Olimjonga ko'z solub, tolib bo'lub yurgan Abdulrahmonboy ismli bir savdogar maktabga o'tub yuruvchi Olimjonni tutub, o'ziga mirzo ham o'g'ul qilmoq orzularin so'zlab o'tdi.

O'zini juz'iy va kulliy ixtiyorin munglug' Maryam bila ma'naviy otasi o'lub tarbiya qilgan muallim hazratda ekanligin bildirub, alardan ruxsat bo'lsa, qabul qilmog'ini bayon qilub o'tdi. Abdulrahmonboy muallim hazratlariga borub, bayoni voqeadan keyin Olimjonga javob so'radi. Bir necha so'z oxirida Ruzvon, Maryam, Xadicha — bu uch zaifai mushtiparlarni maishat xususlarida butun Olimjonga muhtojliklarin so'zlab o'tgan muallim hazratlari xizmati badalida ko'proq shafqat va marhamat qilmoqni aroga tashlab o'tdilar. O'zini foyda va taraqqiylarin Olimjon xizmatida naqd ko'rub turgan Abdulrahmonboy har bir so'zda bo'lsa, Olimjonni o'z qo'ynig'a olmoqni iloj va choralarin qilmoqqa taklif qilub ketdi.

To'rt-besh kun orasida bu xizmatni uddasini olgan muallim hazratlari Ruzvon bila Maryamni qabul qildirub, Olimjonni o'z xursandliklari birla Abdulrahmonboyga bayram kunlarida xizmatdan ozodlanmoq shartlari ila topshirdilar. Demak, Olimjon bayram kunlaridan boshqa vaqtlarda sadoqatda bo'lub, xizmatga davom etdi.

Oz fursatda halol va to'g'rilikda Abdulrahmonboy muhabbatlarin jalb qilgan Olimjon butun o'g'ildan ziyoda, hatto haram xiz-

matlari va boshqa savdo ishlari ham Olimjonni o'ziga topshirilub, mehnatdan qutulub tinchlangan Abdulrahmonboy kecha-kunduz rohat va farog'atga yetushub qoldi. Mana, har ishda sadoqatli zot katta-kichik bo'lsun, er-xotun bo'lsun, tezdan shundog' davlatga yetishmog'i shubhasiz, balki tabiiydir.

Olimjon Xadichani o'qitmog'i

Xizmat orasida gazeta, jo'rnol, ro'mon, adabiyot kabi olami insoniyatdagi milliyat, madaniyat, hayot, saodat bila tonishdurodurgan matbuot sahifalariga ko'z solub yurgan Olimjon bizim Turkiston musulmonlarining bu qadar vahshat va jaholat ostida ezilub, har ishda yarim yo'lda qolurlariga sabab va illatlarin fikr qilganda, falaj, maraz kabi erlar tarafimizda birozgina quvvat ilm bor kabi ko'rinsa ham xotun-qiz tarafimiz ul sharafi haqiqiy ruhdan mahrumlikda qolub, doim jafo va mehnat, g'aflat va uzlatdan boshqa bir tarbiya bila haqiqiy sihatga yetisha olmaganidan iborat bo'lub chiqar edi. Xotun-qizlarimiz orasida biror dona usul maktabi bo'lmaganga eski xotun-qizlarimiz maktabida ham erlarimiz maktabi kabi 5 yil, 10 yil boshlari chirub, ba'zilari ishqiya, ba'zilari darbadar yurub, bibi otinlik, ba'zilari romchi, parixonlik kabi eski majusiyatdan meros qolmish is chirog', mushkulkushod, bibiseshanba, momoparastlikdan boshqa ma'lumot ololmaganlaridan nafrat va hazar qilgan Olimjon maktabga Xadichani yubormay, bo'sh vaqtlarida kelub o'zi o'qitmoqg'a chorasiz bo'lgandan majbur bo'lgan edi. Mana, ko'p o'tmadi-da, oqila Maryam tarbiyasin ko'rgan Xadicha tez vaqtda Olimjonda bor fikr, ilm, hissi milliyatni har biriga mukammal va mufassal darajalarda molik bo'ldi. Ma'lum bo'ldiki, garchi xotun-qizlarimiz uchun umumiy maktablarimiz bo'lmasa ham, har bir o'quv masalli zotlar Olimjon kabi g'ayrat qilsa, o'z idorasida o'lgan oila qiz-u singillarini o'qitub, g'arib millat uchun kerakli bo'lgan Xadicha kabi xodima va joriyalarni yetishtirmoq mumkin ekan.

Olimjonni uylanmog‘i

Mana, har bir ishdan sadoqat va matonatin va axloqda husn-u nazofatin, odamiyatda g‘ayrat va jasoratin, hosil, har bir xususda aybsiz sof qalblig‘in ko‘rub tajriba qilgan Abdulrahmonboy ko‘zining nuri bo‘lgan yolg‘izgina qizi Nazokatxonimni Olimjonga berub, chin o‘g‘il qilganin bildurub, boqiy samaralarni ul ikkisidan kutmoqchi edi. Olimjondagi husni axloh, shirin so‘zlik, ochiq yuzlik kabi xushmuomalalarini ko‘rub yurgan Nazokatxonimni o‘zlari ham avvalroqdan chin muhabbatchalari bila suyub, kecha-kunduz Olimjon bila birga yashab, umrdosh bo‘lmoq planlarin tuzub yurur edilar.

Mana, uzoq o‘tmadi-da, xotuni Shamsibibi bila maslahatni bir yerga qo‘ygan Abdulrahmonboy muallim hazratlariga borub voqeani so‘zladi. Muallim hazratlari bo‘lsa-da, borub Maryamdan ruxsat so‘raganda, Maryam ixtiyorni Olimjonni o‘ziga qo‘yub, Nazokatxonimni yashirun kelub Xadichaga Olimjonni suyub, muhabbat qo‘yganidan hasrat qilub ketuvlarin ham so‘zlab o‘tdi. Bu xushxabarni eshitgan muallim hazratlari avval Olimjonni chaqirturub, hamma voqeani so‘zlab o‘tdilar. Dunyoda eng muqaddas muddao va murodi bo‘lgan Nazokatxonimga yetishmoq xabarini eshitub, yuraklari birdan sakrab ketgan Olimjon: “Bu ishga siz va onam rozi esangiz, manda boshqa hech ixtiyor yo‘q. Lekin man shunigina o‘tinamanki, yo‘qolgan otamni Toshkanda deb xabarin olganman. To otamni bu vaqtlarda hozir qilmasam, yolg‘uz manga emas, balki Ruzvon onam, ayam, Xadichalarga to‘y motam o‘rnida o‘tsa kerak.

Manga ruxsat bersalar borub, otamni olub kelurman”,— deb javob berdi. Esa muallim hazratlari xursand bo‘lub, borub Abdulrahmonboyga Olimjonni iltimoslarin so‘zlab, bir haftaga ruxsat olub berdilar.

Ruzvon va Maryamga bildurmay, bozordan bir qatar liboslar tiktirub, Toshkanda yamoqchilik hunaridan kelmoqg‘a oqcha orttira olmay sargardon yurgan Abdulqahhorni olub kelmoq uchun Olimjon Toshkand jo‘nadi.

Olimjon otasini topmog'i

Mana, yoshi 18 yoshlarga to'lgan bo'lsa ham o'z ijtihod va g'ayrati orqasida 40–50 yoshdagi kishilardan ham ortuqroq darajalarda komil aql va asoslik fikr va marhamatli vijdonga molik bo'lgan farosatlik Olimjon 16 soatlik uzoq bir muddatni gazeta, jo'rnol kabi ko'ngul ochqichlari bo'lgan sahifalar bila o'tkazub Toshkand istansasig'a yetdi. Bekaslik, musofirotda, faqir, asoratda bir hollarga qolganin avvaldan sezub bir qator ust-bosh liboslarni hozirlab kelgan Olimjon, shoshulub tugunchasini ko'tarub, qo'ynidagi xat mazmunicha bozor ichiga oxtarub ketdi. Bu tarafda biroz bahor bo'luvi sababli, endigina oftob haroratidin devor ostidagi qorlar erub, qurushub turganga, besh-o'n dona yamoq soladurg'on eski kafsh-mahsilar bila bigiz, igna, if, mo'mlarini olub chiqub, oftobginada bir parcha eski sholchani tagiga solub o'ltirub, biroz yamoq tikay degan bechora Abdulqahhorni bu kecha uyqusida tushiga kirgan Olimjon, Xadicha, mungluk Ruzvon bilan Maryamni xafalik hollari, Olimjon bila Xadicha bo'yniga sorilub: "Dadajon, bizni tashlab, qaysi tarafda yurasiz, sog'inmaysizmi? Biror marotaba bizdan xabar olmaysizmi? Dadajon, rahmingiz kelmaydimi? Biz sizni sog'inub, yuraklarimiz ezildi-ku, jon dadajon", — deb qilgan oh-nolalari yodiga tushub, butun holi o'zgarub, qo'lidagi igna, iflari tushub, jigar-bag'ri ezilub, bir tarafdan, bang, ko'knor, ikkinchi tarafdan, furqat va g'urbat ta'siri bilan sarg'arg'an yuzlarig'a dog'i vatan va farzand alami va sitamidan tirqirab chiqgan g'amlik ko'z yoshlari tomchilab, yo'lg'a termulub, hayron va parishonhollik bir hol va xayollarga cho'mulub turmakda edi. Qo'ltig'ida tugunchasin ko'tarub yo'qolgan otani topmoq va diydoriga to'ymoq umidida gohi xatga qarab, gohi o'tgan odamlardan ul Abdulqahhorni o'lturadurgan joyi qaysi ko'chada, deb so'rog'lab, ikki tarafg'a javdurab qarab, oxtarub kelub turgan Olimjon yiroqdan Abdulqahhorga ko'zi tushmoq barobarida dardli yuragi birdan urub, ko'ngli ketarga yaqin keldi. O'zini mushavvash holga tushganidan sezgan Olimjon yaqinroq kelub ko'z tikub qaradi esa, tanimasinmi? Bu uzlat, faqr va asoratda mundoq xarob

hollarga qolgan Abdulqahhorni belgilik nishonalaridan tanigan ziyrak Olimjon birdan o'zini to'xtata olmay: "Oh, dadajon, Olimjoningizni tanimadingizmi, musofir dadajonim",— deb quchog'iga o'zin tashlab yubordi.

Yuqorida dedigimizcha, parishon xayollar bila aql-u fikri chuvalub ketub xabarsiz turgan Abdulqahhor birdan quchog'iga kelub tushgan Olimjonni ko'rmoq bila shoshilub bag'riga bosub, yuzlaridan o'pub, goh-gohi o'zidan ketar edi. Demak, darhol ota-bola o'runlaridan turushub, Abdulqahhorning kechasi yotadurgan joyiga bordilar. Ul kun kunduz va oqshomi bila ertasig'a qadar hasratlashdilar-da, maslahatni bir qaror qilub, Xo'qandga qaytdilar. Olimjon tarafidan keltirilmish yangi liboslarga o'ralgan Abdulqahhor ikkinchi bir zo'r davlat nishonalarin kutub, avvalgi davlatiga sherik bo'lgan, izzat va hurmat qilgan oshnolarni emdilikda hech biri bila raft-omad qilmaslikka ahd-u paymonlarin ming bordan bog'lab, har nafasda qasamlar yod qilmoqda edi.

Bu tarafda yo'qolgan otani bu kun kelmog'in kutub, har nafasda eshikka chiqub, ko'chaga qarab kelmoqda bo'lgan Xadicha butun sabr-toqatidan adashgan edi. Bu tarafda naqadar jabr-u jafolar solub, baxtsizlik, faqirlik kabi qaro kunlarga tashlab ketgan bo'lsa ham yo'qolgan rafiq va anisi ro'zgori bo'lg'on Abdulqahhorni, shoyad endi ko'zi ochilmog'idan umid qilub, ikkinchi bu davlatga sabab bo'lgan Maryam o'ziga oro bermoqda edi. Bu tarafda, ruh badandan yoxud badan ruhdan ajralgani kabi farzand firoqida, benom-u nishon bo'lgan Abdulqahhordan umidi uzulub, jigar-bag'ri ezilub, g'am bistarida cho'zulub quruq jasaddan iborat bo'lub qolgan mungluq Ruzvon ikkinchi kirguvchi bir ruhning bo'yidan shodlanub, boshqacha bir hayotga umid tutub, yo'lakg'a ko'zlarin tikub turmoqda edi. Eshik orqasida poylab turub, otasi bila Olimjonga ko'zi tushgan Xadichaning: "Oh, dadajonim keldi! G'arib qilub tashlab ketgan dadajonim, keldingizmi?" degan ruhlik ovozini eshitgan Maryam bila Ruzvon ham yugurushub chiqub, yig'lashub ko'rishdilar. Bu damdagi qonli oh-fig'onlarni va uzun qissalarni yozmoqqa butun qalam ojizdir. Mana, hafta o'tub, uzoq-yaqindagi qarindosh-urug'larni kelub ko'rmoq lavozimotlaridan xalos topdilar. Bir tarafdan, hamma to'y asboblarini o'z

yonidan tayyor qilgan Abdulrahmonboy to'yni boshlab, Nazokatxonimni murod oqshomida chin hayot va turmush egasi bo'lgan Olimjonga nikoh qilindi.

Olimjon xadichani kuyovg'a bermog'i va davlatga molik bo'lmog'i

Mana, chin sadoqatda xizmat qilub, kundan-kun ikki tarafni taraqqiy va rivojiga sabab bo'lub turgan Olimjon to'yi Abdulrahmonboy tarafidan bo'lub, o'zi orttirgan aqchalarni sarmoya qilub, otasi Abdulqahhorni do'kon o'tqizub qo'ydi. Bu tarafda, ajal xabari bila notob bo'lub yotub qolgan Abdulrahmonboyni ko'rgali kelgan kishilarni kutub turgudek bir odam bo'lmagangami yoxud o'zi bozor ishlarini qilmoq bila ovora uchun qishloqdagi naqd-nasiyalarga borub-kelub turmoqqa bir odam bo'lmaganigami, nadan bo'lsa-da, ikkinchi o'zig'a o'xshash ish va xizmatda bir sadoqatlik va ishonchlik bir kishiga muhtojligi haddan oshgan Olimjon bir begonani qo'lig'a ish topshirmoqqa hargiz vijdoni qabul qilmas edi. Bir kun bu hollarni fikr qilub turgan vaqtda, "Xizmat — o'lmas mol" maqolasi kabi, otasizlik, yetimlik, faqirlik vaqtlarida ko'chada hayron bo'lub yurganda, maktabiga boshlab olub borgan, bu ilm-u ma'rifatlarga va bu davlat-u maishatlarga eng birinchi darajada sabab bo'lgan Sobirjon o'g'li Ahmadjonni ko'rguzgan chin do'stlik va o'lmas xizmatlari xayolidan o'tub qoldi. Esa yaxshilikni unutmaslikka ahd qilgan sadoqatlik Olimjon Xadichani Ahmadjonga berub, o'z yonig'a olub, yuqoridagi xizmatlarni anga topshirmoqni o'zig'a maqbul ko'rub, borub, bir tarafdan, Maryam, Abdulqahhorga, bir tarafdan, Abdulrahmon va Shamsiyabibiga ham ma'qul qilub, Ahmadjonni ota-onasiga xabar qildilar. Oz fursatda hammalari aqlli Olimjonni fikriga ittifoq aylashub, Xadichani Ahmadjonga nikoh qilub berdilar. Fikri salim Olimjon Ahmadjonni kerakli xizmatlarga yubormoqda, o'zida bo'lgan jiddiyatlarni Ahmadjonda ham ko'rmoqda edi.

Uzoq o'tmay, chin o'lim xabari bila umri tugagan Abdulrahmonboy butun 50–60 sana miqdorida jam qilgan pul va mol va

dunyolariga Olimjonni molik va sohib qilub, o‘zi ikki gazlikgina oqlikka ega bo‘lub, shundog‘ katta hovli-joylarini tashlab, bir bo‘ygina chuqurchaga kirub, bedom-u darak ketdi. O‘lukni badidagi rasm-rusumlarin bir, ikki yuz so‘m aqcha bila bartaraf qilgan Olimjon butun yer-suv, mulk, ashyo, o‘rda kabi hovli-joylarga molik bo‘lub, Ahmadjonni yoniga olub, mashaqqatsiz davlat va chin maishatga yetishdilar. Bu tarafla naqadar xo‘rlik va zorliklarii ko‘rgan Maryam bila Ruzvon, butun avvalg‘i buzuq ahvollaridan qaytub, tavbalar qilub, do‘st-dushmanni ajratub, insof va diyonatli, shafqat va marhamatli bo‘lgan Abdulqahhor Olimjonni g‘ayrat va ijtihod bila o‘qigan ilmining sharofatidan ikkinchi bu kelgan “yangi saodat”larga shukrlar qilub, kundan-kunga rohat va farog‘atda shod va xurramliklar bila yashamoqda bo‘ldilar.

XOTIMA

Ey zoti muhtaram, din-u millatdosh, fikr-u maslakdosh qorinlarim! Shoyad bu risolai nojizimi kamoli diqqat ila o'qub, bir qator aql oynasina solub, aksin tamom ko'rgansiz. G'oziboyni hayot vaqtida Abdulqahhor va boshqalarinda qanday rohat va farog'atda, bir nafasgina bo'lsun ko'ngulsizluk hollarin ko'rmay, lazzatda yashaganliklari risolamiz avvalida yozilmagan bo'lsa ham voqeiy (ko'rilub turgan) bir ish uchun fikr va tasavvuringizga iktifo qilub, so'zni uzantirmagan eduk. G'oziboydan keyin o'qimagan Abdulqahhorni johil va omelik kasofatidan muncha dunyolari nima bo'ldi va ul to'rt mazlumani boshiga qandog' qora kunlar tushdi? Abdulqahhorni o'zi qaiday hollarga qoldi? Mana, eski maktablarda bo'lsa ham biroz o'qigan olima Maryam muncha faqir va zaifaligi bila Olimjonni tarbiya qilmoq uchun qanday g'ayrat qildi. Ilmga havasli va muhabbatli Olimjon sa'y va ijtihod orqasida o'qub, ilm-ma'rifat sharofatidan butun faqr va asorat, zilli razolat zulmatida qolgan ota-onasiga ikkinchi bir qanday "yangi saodat" quyoshlarin kelturub, qora baxtlarni yorutdi. Bular hammasiga sabab nima deganda, avvalgisiga ham ilmsizlik, so'ngg'isiga ham yolg'uz ilm-ma'rifatni sharofati, demakdan boshqa javob yo'qlig'i, albatta, har biringizga oy va kundan ravshan bo'lgan bo'lsa kerak. Agarda G'oziboy yoxud Ruzvon boshda Abdulqahhorni ham Olimjon kabi tarbiya qilub, o'qitub olim qilgan bo'lsalar edi, mundog' ko'p dunyolarni yomon yo'llarga sarf qilub, go'laxlarda xarob bo'lub qolub, hatto o'z shaharida yurgudek holi qolmay, borub bir musofirlik shahrida yegani ovqat, qilgali kasb topolmaganidan hunarlar orasida eng razil, past hunar bo'lgan yamoqchilik hunari bo'lsa ham, o'lmagan kunidan olub, chor-nochor birovlarin kafsh-mahsilarini yamab, zan, farzand firoqida pul, mol-mulk, ash'yo firoqida jigar-bag'ri ezilub g'urbatda sarson va giryon bo'lub qolmas edi. Mana, bori birgina Abdulqahhorgina emas, balki butun bizim Turkiston musul-

monlarining kundan kunga boylari sinub, bechora, kosiblari sinub, yamoqchi, mardikor, o'zi bechoralari vatan va zan, farzandidan judo bo'lub, shaharba-shahar, qishloqba-qishloq gado, isiriqchi avlodlarining chiroylik soqollari bachcha-juvon, xunukroqlari takya va samovarlarga xizmatkor. Hosil, bunga o'xshash dunyodagi bor xo'rlik-zorlik, faqr va asorat, fisq va sharorat, bug'z-u adovat kabi insoniyat va islomiyat, taraqqiy va madaniyat, ittifoq va ittihod, uxuvvat va milliyatga eng muzir va eng ofat bo'lgan chorasiz dard, davosiz marazlarga mubtalo bo'lub ketuvlariga eng birinchi sabab va illatlarin axtarilganda ham muqaddas Qur'oni sharifda janobi haq tarafidan aning avval farz qilingan saodat va hayotimiz dunyosining haqiqiy xurshidi va mahtobi bo'lgan ilm-ma'rifatdan bezub, o'zimizni jaholat va g'aflat zindoniga mahbus qilganimizdan iborat bo'lub chiqadur. Mana, bu ishlarga sabab, birinchi, o'quv ishlarimizni naqadar og'irlashmog'i bo'lub, ikkinchi tarafdan, xudo bersa bo'ladi-da, degan johil ota-bobolarimizning asossiz so'z va fasod e'tiqodlaridur. Xudo zolim emas, birovga berub, birovga bermay qo'ymas. Xudoyi taborak va taollo saodat — ilmda, razolat — jahlda, har bir ish bandaning o'z harakatiga muvofiq, deb o'z kalomida takror xabar bergani bor. Hech shubha yo'q. Holbuki, bug'doy ekkan bug'doy, arfa ekkan — arfa olur. Bas, ma'lum bo'ldiki, o'qugan kishi olim bo'lmay, u saodatga yetmay qolmas, o'qumagan kishi, albatta, razolatdan boshqa nimarsa hosil qilmas. Mana endi o'qishlar ham mumkin qadar osonlashdi. Ulug' burch va farzni ado qilmay, og'zi toshga tegub qon bo'lganda, o'zidan ko'rmay, xudo bizni shundog' qildi, degan johil ota-onalarning kufrli dovushlariga quloq soladurgan zamonlar bitdi.

Endi bitdi. Emdilikda garchi Qur'oni karimdagi "Huvallazi arsala rasullohu bilxudoyi vaddinil haqqan liyazxuraxu alaldini kullihi" oyati sharifasi mazmunicha dunyo yuzidagi millatlarga ustun bo'la olmasak ham, alarning oyoq ostilarida qolmaslik darajadagi bir falon va choralarni axtarilganda, butun islom millatida bo'lgan er-u xotunlarimiz birlashub janobi haqning takror amri bo'lgan o'quv va o'qituv masalasin hallig'a barobar kirishmoq bila shoyad ikkinchi, yangi u saodatlarga yetisha olmog'imiz shubhasizdur.

MUNDARIJA

Ko'ngilga yaqin she'riyat *(Zebo Qobilova)* 3

MUQIMIY

G'azallar.....10
Murabba'lar.....137
Muxammaslar.....153
Tabi xud muxammaslar.....211
Masnaviylar.....219
Ta'rixlar.....220
Ruboiy, tuyuq va fardlar.....228
Hajviyot.....230
Sayohatnoma.....245
She'riy maktublar.....257
Nasriy maktublar.....268

FURQAT

G'azallar 272
Masnaviylar.....416
Muxammaslar.....430
Musaddaslar.....452
Tarji'band — musaddas.....456
Musabba' 463
Mustazod.....465
Maktublar.....467

HAMZA (Nihoniy)

G‘azallar.....482
Masnaviylar.....548
Murabbalar.....554
Muxammaslar.....558
Musaddaslar.....561
Ashulalar.....565
Oq gul turkumidan.....577
Qizil gul turkumidan.....579
Yashil gul turkumidan.....585
Sariq gul turkumidan.....594
Pushti gul turkumidan.....597
Safsar gul turkumidan.....599
Mevalar mojarosi.....603
Yengil adabiyot.....606
Pedagogik risolalardan.....617
Yangi saodat. *Milliy roman*.....621

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MUQIMIY
FURQAT
HAMZA

11-jild

Adabiy-badiiy nashr

Arab yozuvidan ko'chiruvchilar: *G'ulom Karimov, Hamid Rasulov, Laziz Qayumov*
Mas'ul muharrir *Vahob Rahmonov*

Muharrir *Lola Fattoyeva*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Iroda Umarova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 41,0. Nashriyot-hisob tabog'i 28,83.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 79-1/22. Buyurtma raqami № 22-293.

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

M 95 Muqimiy. Furqat. Hamza [Matn]: nazm/to‘plovchi Zebo Qobilova. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 656 b.
ISBN 978-9943-8722-8-8

UO‘K 821.512.133-1
KBK 84(5O‘)-5



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MUQIMIY
FURQAT
HAMZA